Özbekiston Respublikasi hukumati Toşkent mintaqasining kengroq hududida, jumladan, loyiha yaqinidan ötişi mumkin bölgan kelajakdagi yuqori tezlikdagi temiryöl va metro yölaklarini belgilagan. Biroq bu transport taşabbuslari kengroq hududiy transport rejalaştirişining bir qismi bölib, taklif etilayotgan aeroport qurilişidan mustaqildir. Uşbu AMITB/ESIA tayyorlangan vaqtda taklif etilayotgan temiryöl va metro loyihalari hali dastlabki konsepsiya bosqiçida edi. Ularning yönalişi, loyihasi, amalga oşiriş dasturi, moliyalaştiriş majburiyati yoki quriliş jadvali tasdiqlanmagan.

XMK/IFCning 1-faoliyat standarti va YTTB/EBRDning 1-atrof-muhit va ijtimoiy talabi ta’riflariga muvofiq, taklif etilayotgan temiryöl va metro ulanişlari loyiha bilan boğliq obyektlar hisoblanmaydi. Bu xulosa quyidagilarga asoslanadi:

- Aeroport kelajakdagi har qanday temiryöl yoki metro ulanişidan mustaqil faoliyat körsatişga möljallangan. Aeroport işga tuşirilganidan boşlab yölovçilar, xodimlar, yuk taşiş uçun avtomobil yöllari asosiy kiriş vositasi böladi.
- Aeroportni texnik yoki tijoriy jihatdan amalga oşiriş imkoniyati taklif etilayotgan temiryöl yoki metro infratuzilmasining kelajakda qurilişiga yoxud faoliyatiga boğliq emas;
- Taklif etilayotgan temiryöl va metro yölaklari faqat yoki asosan aeroportni qöllab-quvvatlaş uçun emas, balki köp sonli foydalanuvçilar, manzillar, rivojlantiriş hududlariga xizmat körsatişga qaratilgan kengroq milliy hamda hududiy transport strategiyalarining bir qismidir.
- Taklif etilayotgan temiryöl va metro loyihalari alohida rejalaştiriş, atrof-muhitni baholaş, ruxsat oliş, moliyalaştiriş jarayonlaridan ötkaziladi hamda aeroport loyihasidan mustaqil amalga oşirilişi yoki umuman amalga oşirilmasligi mumkin.

Şunga köra, taklif etilayotgan temiryöl va metro ulanişlari loyiha bilan boğliq obyektlar emas, balki jamlama rivojlantiriş loyihalari hisoblanadi. Kelajakdagi temiryöl yoki metro infratuzilmasi loyiha muddati davomida yetarli darajada aniqlaştirilsa va uning aeroport bilan boğliqligi

özgarib, XMK/IFCning 1-faoliyat standarti yoki YTTB/EBRDning 1-atrof-muhit va ijtimoiy talabi böyiça boğliq obyekt mezonlariga javob bera boşlasa, uning maqomi loyihaning davom etayotgan atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv jarayoni doirasida qayta baholanadi.

2.17.2 Kiriş yöllari

Uşbu hisobotda avval bayon qilinganidek, aeroportga loyiha hududining ğarbiy va şarqiy tomonlarida joylaşgan ikkita kiriş yöli xizmat körsatadi. Har ikkala yöl şimolda rejalaştirilgan pulli yölga yoki amaldagi A373 avtomobil yöliga ulanib, Toşkent viloyatining kengroq hududiga kiriş imkonini beradi. Bu yöllar aeroport faoliyatining ajralmas qismi bölgani uçun loyiha bilan boğliq obyektlar hisoblanadi. Joriy loyiha tarhiga köra, kiriş yöllarining uzunligi taxminan 2 km va 3,5 km bölişi kutilmoqda (2.20-rasmga qarang). Taklif etilayotgan yöllar asosan qişloq xöjaligi yerlaridan ötadi, biroq xizmat yölining bir qismi rejalaştirilgan pulli yöl yaqinidagi kiçik turar joy mahallasi bilan ustma-ust tuşişi kutilmoqda. Aeroport yuqorida tilga olingan taklif etilayotgan pulli yöldan foyda körib, unga tayansa-da, şahardan Samarqandga boradigan uşbu yangi avtomagistral faqat Yangi Toşkent aeroporti uçun möljallanmagan va kengroq transport ehtiyojlariga xizmat qiladi. Şu sababli u loyiha bilan boğliq obyekt hisoblanmaydi.

Kiriş yöllarini quriş alohida davlat-xususiy şeriklik loyihasi sifatida amalga oşirilişi kutilmoqda. Bu loyiha barça tegişli milliy qoidalar hamda xalqaro atrof-muhit va ijtimoiy standartlariga rioya qilişi kerak.

2.17.2.1 Ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy xavflar

Atrof-muhit nuqtayi nazaridan, kiriş yöllari qurilişida yerlarni tozalaş, tuproqning ustki qatlamini olib taşlaş, yer işlari, qoplama yotqiziş amalga oşiriladi. Yönalişlar asosan qişloq xöjaligi yerlaridan ötişi sababli ta’sirlar ekin yerlarini doimiy ravişda boşqa maqsadga ötkaziş, tuproqni ziçlaştiriş, suğoriş tartibining ehtimoliy buzilişini öz içiga olişi kutilmoqda. Quriliş işlari çang, şovqin, tebraniş, transport çiqarilmalarini yuzaga keltirib, yaqin atrofdagi aholiga vaqtinça ta’sir qilişi mumkin. Foydalaniş bosqiçida yöllarda doimiy transport oqimi paydo böladi va bu havoga çiqarilmalar hamda yöl transporti şovqini bilan boğliq böladi. Tegişli boşqaruv bölmasa, qoplangan yuzalardan oqadigan yerusti suvi uglevodorodlar va çökindilarni yonma-yon qişloq xöjaligi yerlariga yoki drenaj tizimlariga olib ketişi mumkin.

Xizmat yölining bir qismi rejalaştirilgan pulli yöl yaqinidagi kiçik turar joy mahallasi bilan ustma-ust tuşadigan joyda yönaliş tasdiqlanganidan söng ijtimoiy xavflar ayniqsa dolzarb böladi. Yakuniy yönaliş va ajratilgan yöl hududining kengligiga qarab, jismoniy yoki iqtisodiy köçiriş, masalan, inşootlar, yer yoki kiriş imkoniyatining yöqotilişi yuz berişi mumkin. Köçiriş çeklangan taqdirda ham, yerni doimiy egallaş yoki quriliş bilan boğliq vaqtinçalik buziliş tufayli tirikçilik manbalariga ta’sir paydo bölişi mumkin. Bundan taşqari, transport hajmining oşişi mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligiga xavf tuğdirişi mumkin. Bunday xavflarga yöl-transport hodisalari ehtimolining oşişi, hududiy aloqalarning uzilişi, piyodalar xavfsizligining pasayişi kiradi.


Milliy qonunçilikka köra, yer egallaş va tovon jarayonlari qonunda belgilangan tartiblar bilan boşqariladi. Biroq xalqaro kreditorlar standartlari odatda töliq tiklaş qiymati böyiça tovon, ötiş davri yordami, tirikçilik manbalarini tiklaş, mazmunli maslahatlaşuv, zaif guruhlarga alohida e’tibor berişni talab qiladi. Şu sababli mahalliy tartibga soliş amaliyoti bilan kreditorlar talablari örtasida qiymatni baholaş usuli, yerdan norasmiy foydalanuvçilarga munosabat, pul tovoni bilan çeklanmaydigan tirikçilik manbalarini tiklaş çoralari, köçirişdan keyingi kuzatuv kabi masalalarda tafovutlar paydo bölişi mumkin. Yer egallaş yoki köçiriş yuz bersa, davlat-xususiy şeriklik asosidagi yöl loyihasini işlab çiquvçidan kreditorlar standartlariga mos KÇR/RAPni tayyorlaş va amalga oşiriş talab etilişi mumkin.

Bundan taşqari, yirik aeroport yuzaga keltiradigan transport oqimi kölamini hisobga olgan holda, kreditorlar yöl xavfsizligi tekşiruvlari, transport ta’sirini baholaş hamda mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligini boşqaruv çoralari yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq bölişini talab qilişi mumkin.

2.17.3 Havo elektr uzatiş tarmoqlari

Milliy elektr tarmoqlari operatori (ÖzMET/NEGU), 2.40-rasmda körsatilganidek, loyiha hududining ğarbiy çegarasi yaqinida joylaşadigan maxsus elektr qabul qiliş inşootiga 110 kVli

ulaniş orqali loyihani elektr energiyasi bilan ta’minlaydi. Uşbu AMITB/ESIA tayyorlangan vaqtda HEUL/OHTL orqali qurilişi kutilayotgan taşqi elektr ta’minoti infratuzilmasining tasdiqlangan yönalişi va texnik xususiyatlari hali yakunlanmagan edi. ÖzMET/NEGUdan yakuniy yönaliş olingaç, ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlari baholanib, AMITB/ESIAga qöşimça hujjatda bayon etiladi.



2.40-rasm. Taşqi elektr ta’minoti va qabul qiliş tizimining sxemasi

2.17.3.1 Ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy xavflar

HEUL/OHTL qurilişi odatda tayanç poydevorlarini quriş, kiriş yöllarini oçiş, ajratilgan yöl hududini belgilaşni talab qiladi. Atrof-muhit xavflari ösimliklarni tozalaş, yaşaş muhitining ehtimoliy parçalanişi, tuproqning buzilişini öz içiga oladi. Oçiq qişloq xöjaligi manzaralarida elektr uzatiş tarmoqlari, ayniqsa, köçiş yöllari yoki suv havzalari yaqinida joylaşsa, quşlarning simlarga uriliş xavfini tuğdirişi mumkin. Elektr uzatiş infratuzilmasining balandligi va uzunligi sababli körinişga ta’siri ham sezilarli bölişi mumkin.

Ijtimoiy ta’sirlar tayanç poydevorlari uçun yerni doimiy egallaşni va ajratilgan yöl hududida yerdan foydalanişga uzoq muddatli çeklovlarni öz içiga olişi mumkin. Elektr uzatiş tarmoqlari ostida qişloq xöjaligi işlarini köp hollarda davom ettiriş mumkin bölsa-da, ayrim inşootlarni quriş yoki daraxt ekişga qöyiladigan çeklovlar unumdorlikka ta’sir qilişi mumkin. Ta’sir xalqaro yöriqnomalarda belgilangan darajada qolgan taqdirda ham, elektromagnit maydonlarning salomatlikka taxmin qilinayotgan xavfi yuzasidan mahalliy aholi xavotirlari paydo bölişi mumkin.

Xalqaro kreditorlar standartlari atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlarni kamaytiriş uçun muqobil yönalişlarni baholaşni, biologik xilma-xillik xavflarini, jumladan, quşlarning uriliş xavfini baholaş va kamaytirişni hamda yer egallaşni tiklaş qiymati va tirikçilik manbalarini tiklaş tamoyillariga muvofiq amalga oşirişni talab qiladi. Köp yurisdiksiyalarda milliy ruxsat beriş jarayonlari biologik xilma-xillikni batafsil baholaşni, quşlar bilan boğliq ta’sirning oldini oliş va uni kamaytiriş çoralarini, masalan, quş qaytargiçlarni yoki tirikçilik manbalarini har tomonlama tiklaşni talab qilmasligi mumkin. Şu bois bular kreditorlar talablariga nisbatan ehtimoliy tafovutlarni taşkil etadi.

Yönaliş hali yakunlanmagan. U belgilangaç, tegişli standartlarga muvofiqlikni tasdiqlaş hamda oldini oliş va kamaytirişga doir zarur qöşimça çoralarni aniqlaş uçun kreditorlar atrof-muhit va ijtimoiy masalalar böyiça qöşimça zarur tekşiruv ötkazişni talab qilişi mumkin.

2.17.4 Yoqilği ta’minoti quvuri

Uşbu hisobotda avval bayon qilinganidek, aviatsiya yoqilğisi aeroport çegarasidan taxminan 140 m şarqda, loyiha hududidan taşqarida joylaşgan temiryöl orqali yoqilği qabul


qiliş inşootiga yetkaziladi. U yerdan yoqilği qisqa yer osti quvuri orqali aeroport yoqilği omboriga uzatiladi. Taklif etilayotgan quvur yönalişi qişloq xöjaligi yerlaridan ötadi va quriliş vaqtida dehqonçilik faoliyatining vaqtinça yoki mahalliy darajada buzilişiga olib kelişi mumkin. Biroq bu yerning aeroportga yaqinligi va kelajakda yerdan foydalanişga kutilayotgan çeklovlarni hisobga olganda, qişloq xöjaligi unumdorligidagi yöqotiş çeklangan böladi va quvur örnatilmasa ham yuz beriş ehtimoli mavjud.

2.17.4.1 Ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy xavflar

Yerlarni tiklaş tegişli ravişda bajarilsa, qişloq xöjaligi unumdorligiga uzoq muddatli ta’sir çeklangan bölişi kutiladi. Biroq foydalaniş bosqiçidagi xavflar atrof-muhit nuqtayi nazaridan jiddiyroqdir. Yoqilği quvurlarida sizib çiqiş xavfi doimo mavjud bölib, bunday holat tezda aniqlanib, çeklanmasa, tuproq va yer osti suvining ifloslanişiga olib kelişi mumkin. Yonğin va portlaş xavflari ham mavjud.

Xalqaro kreditorlar standartlari quvurni loyihalaş va undan foydalanişda yetakçi xalqaro tarmoq amaliyotini (IXTA/GIIP), jumladan, zanglaşdan himoya, sizib çiqişni aniqlaş tizimlari, favqulodda töxtatiş tizimlari, tökilişning oldini oliş va unga javob rejalari hamda muntazam tekşiruv va texnik xizmat körsatişni qöllaşni talab qiladi. Milliy standartlar bu jihatlarning köpini qamrab olişi mumkin bölsa-da, uzluksiz sizib çiqişni aniqlaş, xalqaro standartlarga mos favqulodda holatlarga tayyorgarlikni rejalaştiriş, atrof-muhitga yetkazilgan zarar uçun uzoq muddatli javobgarlik qoidalari, favqulodda javob tartibini jamoatçilikka oşkor qiliş kabi sohalarda tafovutlar paydo bölişi mumkin.

Aeroportni temiryöl yoqilği qabul qiliş nasos maydoniga ulaydigan yer osti yoqilği ta’minoti quvurining taxminiy yönalişi 2.41-rasmda körsatilgan.



2.41-rasm. Temiryöl orqali keltirilgan yoqilğini qabul qiliş nasos maydonidan aeroportga yoqilği yetkazib beriş

2.17.5 Yönalişi özgartirilgan suğoriş kanallari va kollektorlar

Loyiha doirasida atrofdagi qişloq xöjaligi hududlariga xizmat qiladigan mavjud suğoriş kanallari va oqova suv kollektorlarining ayrim qismlari yangi yönalişga köçiriladi. Taklif etilayotgan yangi yönalişlar yaqin atrofdagi ekin yerlaridan ötadi. Bu oz miqdordagi yerni doimiy egallaşga, şuningdek, quriliş vaqtida qişloq xöjaligi faoliyatining vaqtinça buzilişiga olib kelişi mumkin. Biroq bu özgarişlar mavjud suğoriş va drenaj tarmoğinin yaxlitligini tiklaş hamda saqlaşga qaratilgani uçun kengroq kölamda unumdor qişloq xöjaligi yerlarining sezilarli va doimiy yöqotilişi kutilmaydi. Kanallar va kollektorlarni yangi yönalişga köçiriş hamda ayrim qismlarni qayta qurişning dastlabki rejasi 2.42-rasmda körsatilgan. Reja yakunlanişidan oldin tegişli manfaatdor tomonlar uni qöşimça örganib, baholaydi.


Yönalişni özgartiriş işlari mavjud gidravlik quvvat va foydalaniş körsatkiçlarini saqlaş yoki yaxşilaşga, yonma-yon va oqim quyisidagi foydalanuvçilar uçun suğoriş suvi uzluksiz yetkazilişini hamda oqova suv olib ketilişini ta'minlaşga möljallab loyihalanadi. Amaliy jihatdan mumkin bölgan hollarda quriliş suğorişga talab eng yuqori bölgan davrlardan taşqarida rejalaştiriladi. Xizmatdagi uzilişlar va qişloq xöjaligiga ta'sirni kamaytiriş uçun işlar mahalliy suv boşqaruvi idoralari hamda suvdan foydalanuvçilar uyuşmalari bilan muvofiqlaştiriladi.

2.17.5.1 Ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy xavflar

Yuqorida bayon qilingan loyiha maqsadiga qaramay, suğoriş kanallari va kollektorlar yönalişini özgartiriş baholaş va boşqarişni talab qiladigan bir qator atrof-muhit hamda ijtimoiy xavflarni tuğdiradi. Atrof-muhit xavflari ulaniş işlari vaqtida suv oqimining vaqtinça uzilişi, yer işlaridan kelib çiqadigan çökindilar va loyqalaniş hamda suv sifatining qisqa muddatli yomonlaşişini öz içiga oladi. Tegişli boşqaruv bölmasa, quriliş işlari mahalliy eroziya yoki gidravlik körsatkiçlardagi körda tutilmagan özgarişlarga olib kelişi mumkin. Kanal quvvati yoki işonçliligining hatto vaqtinça kamayişi oqim quyisidagi qişloq xöjaligi unumdorligiga ta'sir qilişi mumkin.

Ijtimoiy xavflar mahalliy aholining ekin yetiştirişda suğoriş suviga tayanişi bilan çambarças boğliq. Ösimliklarning muhim ösiş davrlaridagi uzilişlar hosildorlik va xonadon daromadiga ta'sir qilişi mumkin. Suv taqsimoti adolatsiz deb qabul qilinsa yoki tiklangan infratuzilma loyihadan oldingi darajada işlamasa, manfaatdor tomonlarda xavotir ham paydo bölişi mumkin.

Xalqaro kreditorlar talablariga muvofiq, qayta tuzilgan tarmoqda boşlanğiç holatga nisbatan gidravlik quvvat yoki xizmat darajasining umumiy pasayişi yuz bermasligi körsatilişi kerak. Kreditorlar standartlari ta'sirlangan suvdan foydalanuvçilar bilan mazmunli maslahatlaşuv ötkazişni, tirikçilik manbalariga har qanday vaqtinçalik ta'sirni hujjatlaştirişni va zarur hollarda ta'sirning oldini oliş va uni kamaytirişga doir yoki tovon tölaşga qaratilgan mutanosib çoralarni ham talab qiladi. Gidravlik körsatkiçlarni tekşiriş va oqim quyisidagi foydalanuvçilarga salbiy ta'sir bölmaganini tasdiqlaş uçun qurilişdan keyingi kuzatuv jarayonini talab etilişi mumkin.



2.42-rasm. Kanal va kollektorlar yönalişini özgartiriş rejasi (tasdiqlanişi kerak)

2.18 Loyiha bosqiçlari, muddatlari, asosiy marralari

Loyiha homiylari taqdim etgan ma'lumotlarga köra, hozir loyiha uçun asosiy bosqiçlarning dastlabki jadvali belgilangan (2.3-jadvalga qarang).

2.3-jadval. Loyihaning asosiy marralari va amalga oşiriş muddatlari

Rejalar	Sana / jadval / davomiylik
Davlat-xususiy şeriklik bitimini imzolaş	2026-yil 29-iyul
Işlarni boşlaş töğrisidagi bildirişnoma (NTP) va moliyaviy yakun (FC)	2027-yilning I çoragi
Quriliş davomiyligi	48 oy
Tijorat faoliyatini boşlaş	2030-yilning IV çoragi
Foydalaniş muddati	31 yil

2.19 Loyihani örganiş hududi va ta'sir hududi

Atrof-muhitning boşlanğiç holati haqidagi ma'lumotlarni yiğiş va ta'sirni baholaş uçun asosiy tadqiqot hududi, baholanayotgan atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy körsatkiçlarga qarab, loyiha hududining geografik çegarasi hamda uning bevosita atrofi sifatida belgilangan.

Loyihaning ta'sir hududi (TH/AoI) XMK/IFCning 1-faoliyat standarti va YTTB/EBRDning 1-atrof-muhit va ijtimoiy talabi tamoyillariga muvofiq belgilangan. TH/AoI loyiha bevosita, bilvosita, keltirib çiqarilgan yoki jamlama atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni yuzaga keltirişi mumkin bölgan geografik hududni anglatadi. Xalqaro amaliyotga muvofiq, TH/AoI yagona qat'iy çegara bilan belgilanmaydi. U ta'sirning tarqaliş yöllari, qabul qiluvçi obyektlarning sezgirligi, ta'sir yuz berişi mumkin bölgan fazoviy kölamga qarab aniqlanadi.

Şu sababli TH/AoI yer egallaş, şovqin, havo sifati, issiqxona gazi emissiyalari, transport, biologik xilma-xillik, suv resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, körinişga ta'sir kabi asosiy ta'sir yöllarini hisobga olgan holda belgilangan. Bu jarayon boşlanğiç holat tadqiqotlari, texnik modellaştiriş, muhandislik loyihasi ma'lumotlari, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlaşuvlarga asoslangan. Atrof-muhit va ijtimoiy jihatlarning ta'sir hududlari turliça bölgani sababli, AMITB/ESIAda örganilayotgan mavzuga qarab tadqiqot hududi özgaradigan bosqiçli yondaşuv qöllanadi.

Fazoviy çegaralardan taşqari, TH/AoI loyiha bilan boğliq ta'sirlar yuz berişi va boşqa faoliyatlar bilan özaro ta'sirlaşişi mumkin bölgan davrni aks ettiruvçi vaqt çegaralarini ham hisobga oladi. Hozir mavjud ma'lumotlarga köra, ayniqsa, umumiy ta'sirlar nuqtayi nazaridan, loyiha bilan bir vaqtda amalga oşib, TH/AoIga sezilarli ta'sir qilişi kutilayotgan tasdiqlangan yoki rejalaştirilgan rivojlantiriş loyihalari mavjud emas.

Uzoqroq muddatda aeroportdan foydalaniş bosqiçida kengroq şahar ösişi va yordamçi infratuzilma kabi qöşimça rivojlantiriş faoliyatlari yuz berişi mumkinligi tan olinadi. Biroq hozirgi bosqiçda bunday faoliyatlarning qamrovi, joyi yoki muddati asosli va işonçli baholaş ötkaziş uçun yetarli darajada belgilanmagan. Şu sababli ular amaldagi TH/AoI ta'rifiga bevosita kiritilmagan. Qöşimça ma'lumotlar paydo bölgani sari ular tegişli manfaatdor tomonlar amalga oşiradigan kelajakdagi rejalaştiriş jarayonlarida zarur hollarda hisobga olinadi.

Şunga muvofiq, TH/AoIning vaqt qamrovi loyihaning quriliş va foydalaniş bosqiçlari bilan belgilanadi hamda atrofdagi rivojlantiriş loyihalari haqidagi qöşimça ma'lumotlar paydo bölgani sari qayta körib çiqiladi va yangilanadi.

Muayyan atrof-muhit va ijtimoiy körsatkiçlarga oid TH/AoI haqidagi qöşimça ma'lumotlar AMITB/ESIA hisobotining tegişli boblarida bayon etilgan.

2.19.1 Bevosita ta'sirlar

Asosiy TH/AoI loyiha egallaydigan maydon va quriliş hamda foydalaniş faoliyati bevosita ta'sir qiladigan hududlarni öz içiga oladi. Bevosita atrof-muhit ta'sirlarini belgilaş maqsadida, şovqin va havo sifati modellariga asoslanib, uçiş-qöniş yölagi çetlaridan 10 km gaça bölgan taxminiy hudud hamda quyidagilar şu qamrovga kiradi:

- Quriliş işi hududlari va vaqtinçalik inşootlar;
- Oqova suv çiqarişlari, jumladan, loyiha hududi drenajining yaqin Çirçiq daryosiga qöşilişi.

- Quriliş maşinalari va yetkazib beriş transporti foydalanadigan kiriş yöllari;
- Qurilişga xizmat körsatuvçi infratuzilma joylari;
- Loyiha çiqindilarini qabul qiladigan çiqindilarni boşqariş infratuzilmasi;
- Ehtimoliy işçilar turar joylari, ularning joylaşuvi keyingi bosqiçda tasdiqlanadi.

Bu hududdagi ta’sirlar bevosita bölib, yerni egallaş, jismoniy buziliş, quriliş bosqiçidagi havoga çiqarilmalar yoki havo kemalari şovqini kabi foydalaniş bosqiçidagi oqibatlarni öz içiga oladi.

TH/AoI yer egallaş va köçiriş ta’siriga uçraydigan joylarni, jumladan, bevosita ta’sirlangan xonadonlar hamda LTŞ/PAPning ayrimlarini qabul qilişi mumkin bölgan Qalqabod kabi mahallalarni öz içiga oladi. Bu bevosita va bilvosita ijtimoiy ta’sirlar töliq qamrab olinişini ta’minlaydi.

2.19.2 Ikkilamçi ta’sirlar

Ikkilamçi TH/AoI bilvosita yoki keltirib çiqarilgan ta’sirlar yuz berişi mumkin bölgan joylarni qamrab oliş uçun loyiha egallaydigan maydondan taşqariga çiqadi. U atrof-muhit şaroitidagi özgarişlar, masalan, şovqin, havo sifati, transport ta’sirlarini, şuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni sezişi mumkin bölgan yaqin mahallalarni öz içiga oladi.

Mahalliy aholidan taşqari, bu TH/AoI loyiha iş örinlari, iqtisodiy faollik hamda tovar va xizmatlarga oşgan talabni yuzaga keltirişi kutilayotgan Örta Çirçiq va Quyi Çirçiq tumanlari kabi ma’muriy hududlarni ham qamrab oladi. Loyihaning kölami va hududiy rivojlanişdagi örnini hisobga olganda, bu foydalar Toşkent mintaqasining kengroq qismiga tarqalişi kutilmoqda.

2.19.3 Kengaytirilgan ta’sir hududi

Ayrim ta’sirlar ikkilamçi TH/AoIdan taşqariga tarqaladi va şu sababli mavzuga xos kengroq TH/AoIda körib çiqiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Mehnat bozori oqibatlari va ta’minot zanjiri aloqalari kabi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlar;
- Global xususiyatga ega issiqxona gazi emissiyalari;
- Quriliş materiallarini, jumladan, çaqiq taş, sement, pölatni xarid qiliş.

Xomaşyo masalasida yer sathini kötariş uçun ehtimoliy karyer manbalari loyiha ta’minot zanjirining bir qismi sifatida körib çiqiladi. Ular AMITB/ESIAning alohida bölimida tavsiflangan. Hozirgi bosqiçda karyer joylari yakuniy tanlanmagan, şu sababli bu inşootlar bilan boğliq ta’sirlar mavjud ma’lumotlarga muvofiq umumiy darajada baholanadi.

2.19.4 Loyiha bilan boğliq obyektlar

XMK/IFCning 1-faoliyat standartiga muvofiq, TH/AoIda loyiha bilan bevosita boğliq va uning faoliyati uçun zarur bölgan obyektlar hisobga olinadi. Ular loyihaga boğliqlik darajasi va loyiha ma’lumotlarining mavjudligiga qarab mutanosib ravişda baholanadi.

Dastlabki konsepsiya bosqiçidagi, kengroq hududiy rivojlantiriş rejasining bir qismi bölgan yoki loyihani amalga oşiriş uçun talab etilmaydigan infratuzilma loyiha bilan boğliq obyekt hisoblanmaydi. Biroq bunday infratuzilma tegişli hollarda umumiy ta’sirni baholaş doirasida körib çiqilişi mumkin.

2.20 Umumiy ta’sirlarni baholaş

XMK/IFCning 1-faoliyat standarti va YTTB/EBRDning 1-atrof-muhit va ijtimoiy talabiga muvofiq, AMITB/ESIA loyiha bilan uning TH/AoI doirasidagi mavjud hamda kelajakda yuz berişini asosli ravişda oldindan köriş mumkin bölgan rivojlantiriş loyihalari örtasidagi özaro ta’sir natijasida yuzaga kelişi mumkin bölgan umumiy ta’sirlarni körib çiqdi.

Uşbu AMITB/ESIA tayyorlangan vaqtda quriliş dasturi aniq belgilangan, loyiha bilan bir vaqtda amalga oşiriladigan va quriliş bosqiçida sezilarli umumiy ta’sirlarni yuzaga keltirişi kutilayotgan heç qanday tasdiqlangan uçinçi tomon rivojlantiriş loyihasi mavjud emas. Biroq baholaşda kengroq hududda, jumladan, kelajakda loyihaning şimolida şahar qurilişi, rejalaştirilgan pulli yöllar, ehtimoliy temiryöl ulanişlari kabi transport infratuzilmasi barpo etilişini asosli ravişda oldindan köriş mumkinligi tan olinadi.

Yangi Toşkentning kengroq hududini rejalaştiriş rivojlangani sari loyiha kompaniyasi AMIBT/ESMSni amalga oşiriş doirasida kelajakdagi rivojlantiriş loyihalarini muntazam kuzatib

boradi. Yangi rivojlantiriş loyihalari yetarli darajada aniqlaşib, loyihaning umumiy ta'sirini baholaşga sezilarli ta'sir qilişi mumkin bölganda, qöşimça baholaş hamda u bilan boğliq oldini oliş va kamaytiriş çoralariga ehtiyoj qayta körib çiqiladi.

2.21 Quriliş faoliyati

Taklif etilayotgan aeroport qurilişi XFAT/ICAOning tegişli standartlari va tavsiya etilgan amaliyotlariga muvofiq bajariladigan aerodrom tomoni hamda umumiy foydalaniş tomonidagi turli işlarni öz içiga oladi.

Uşbu hisobotda avval bayon qilinganidek, homiylar Larsen and Toubro (L&T) kompaniyasini umumiy foydalaniş tomoni qurilişining MXQ/EPC pudratçisi etib tayinlagan. Hali tanlanmagan alohida MXQ/EPC pudratçisi aerodrom tomonidagi quriliş işlari uçun javobgar böladi. Işçilar va boşqa texnik xodimlarni hisobga olganda, loyiha qurilişiga taxminan 5 000 kişi jalb qilinişi kutilmoqda. Ularning mos ravişda qariyb 55 va 45 foizi umumiy foydalaniş hamda aerodrom tomonidagi işlarda band böladi.

Loyihada quyidagi quriliş işlari amalga oşirilişi kutilmoqda:

- *Hududni tayyorlaş va yer işlari*: bu ösimliklarni tozalaş, tekislaş, qaziş, yer sathini kötariş uçun töldiriş, aeroportning barça infratuzilmasi poydevorini tayyorlaş uçun ziçlaştirişni öz içiga oladi. Mavjud muhandislik tarmoqlarini köçiriş, mavjud drenaj va suğoriş zovurlarining yönalişini özgartiriş ham şu işlarga kiradi.
- *Uçiş-qöniş yölagi, rullaş yölagi, perron qurilişi*: aerodrom tomonidagi bu muhim qismlar yuqori mustahkamlikdagi qoplama materiallaridan quriladi. Işlar quyi asosni tayyorlaş, asfalt yoki beton qoplama yotqiziş, aerodrom yoritiş tizimlari, drenaj infratuzilmasi hamda uçiş-qöniş yölagi xavfsizlik hududlari, navigatsiya vositalarini örnatişni öz içiga oladi.
- *Terminal binosi qurilişi*: bunga konstruktiv karkaslar, tom qoplamasi, parda devorlar, içki bezak, isitiş, şamollatiş va havoni konditsiyalaş tizimlari (IŞK/HVAC), elektr va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tizimlari (AKT/ICT), bagajga işlov beriş tizimlari hamda xavfsizlik tekşiruvi uskunalari bilan jihozlangan yölovçi terminallarini quriş kiradi.
- *Aerodrom tomonidagi yordamçi inşootlar*: havo kemalariga texnik xizmat körsatiş angarlari, YXKU/GSE maydonlari, yoqilğini saqlaş va taqsimlaş tizimlari, yonğinni söndiriş va qutqariş stansiyalari hamda HHB/ATC minorasini quriş.
- *Umumiy foydalaniş tomonidagi infratuzilma*: bunga kiriş yöllari, zarur bölsa köpriklar, avtoturargohlar inşootlari, yölovçini tuşiriş va olib ketiş hududlari, jamoat transporti ulanişlari hamda suv, elektr, telekommunikatsiya, kanalizatsiya tarmoqlari kiradi.
- *Yomğir suvi va oqova suvni boşqariş tizimlari*: drenaj kanallari, suvni uşlab turiş hovuzlari, moy-suv ajratgiçlarini quriş, şuningdek, şahar oqova suvni tozalaş tizimlari yoki loyiha hududidagi tozalaş inşootlariga ulaniş.
- Körkamzorlaştiriş va xavfsizlik devorlarini örnatiş işlari.

Quriliş işlari asosan kunduzgi iş vaqtida bajarilişi kutilmoqda. Odatdagi quriliş dasturi doirasida tungi işlar nazarda tutilmagan. Tunda işlaş zarur bölgan taqdirda, faoliyat amaliy jihatdan mumkin qadar kamaytiriladi va quriliş şovqinini nazorat qiliş va kamaytiriş rejasi orqali boşqariladi. Bunday işlarni boşlaşdan oldin tegişli oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanadi, manfaatdor tomonlar xabardor qilinadi, tegişli idoralardan zarur tasdiqlar olinadi.

Asosiy quriliş işlarining ayrimlari keyingi bölimlarda muhokama qilingan:

2.21.1 Hududni tayyorlaş va yer işlari

Ösimliklarni tozalaş

Aerodrom va umumiy foydalaniş tomoni infratuzilmasini quriş uçun loyiha egallaydigan maydonda ösimliklarni tozalaş talab etiladi. Hudud asosan tabiiy ravişda ösadigan manzara ösimliklari, jumladan, turi va yoşi turli daraxtlar bilan tavsiflanadi. Daraxtlarni kesiş yoki köçiriş daraxt turi, holati, qayta ekiş imkoniyatiga qarab amalga oşiriladi hamda tegişli idoralarning zarur tasdiqlariga boğliq böladi. Köçiriş imkoni bölgan hollarda ösimlik yöqotilişini kamaytiriş uçun daraxtlar yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq qayta ekiladi. Oldini olib bölmaydigan har

qanday daraxt kesiş tegişli qoidalarga muvofiq boşqariladi, zarur bölsa, uning örnini qoplaş yoki tovon çoralari loyihaning atrof-muhit böyiça majburiyatlari doirasida belgilanadi.

Suğoriş kanallari va oqova suv kollektorlari yönalişini özgartiriş

Uşbu hisobotda avval bayon qilinganidek, loyiha hududini atrofdagi qişloq xöjaligi faoliyati va mahalliy foydalanuvçilarni qöllab-quvvatlaydigan mavjud suğoriş kanallari hamda oqova suv kollektorlari tarmoği kesib ötadi. Oqim quyisidagi foydalanuvçilarga xalaqit bermaslik uçun ta'sirlanadigan kanallar va kollektorlarning yönalişi tegişli hududlarda qaziş va quriliş işlari boşlanişidan oldin bosqiçma-bosqiç özgartiriladi. Yönalişni özgartiriş işlari gidravlik quvvat va oqim uzluksizligini saqlaşga möljallab loyihalanadi, zarur hollarda vaqtinçalik yoki doimiy aylanma kanallar quriladi. Yönaliş özgartirilgandan söng quriliş maydoni içidagi dastlabki kanal yoki kollektor izi tasdiqlangan loyihalarga muvofiq qayta töldiriladi va tiklanadi.

Kanallar yönalişini özgartiriş va ularni qayta töldiriş işlari fermerlar, yerdan foydalanuvçilar, suv mavjudligiga ta'sirning oldini oliş uçun puxta rejalaştiriladi hamda muvofiqlaştiriladi. Barça işlar hokimlik va suğoriş bölimi bilan yaqin hamkorlikda amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq bajariladi, şuningdek, quriliş vaqtida çökindilarni nazorat qiliş, ifloslanişning oldini oliş, suv sifatini saqlaş çoralarini öz içiga oladi.

Mavjud qabristonlarni boşqariş

Uşbu hisobotda avval bayon qilinganidek, loyiha hududida aeroport qurilişi ta'sir qilişi mumkin bölgan tört qabr aniqlangan. XMK/IFCning madaniy merosga oid 8-faoliyat standartiga köra, ular madaniy meros obyekti hisoblanadi. Bu qabrlarga boğliq har qanday faoliyat ularning madaniy, diniy va ijtimoiy ahamiyatiga töliq hurmat bilan amalga oşiriladi hamda faqat ta'sirlangan oilalar, mahalla vakillari, diniy idoralar va tegişli davlat taşkilotlari bilan mazmunli va qamrovli maslahatlaşuvdan söng boşlanadi.

XMK/IFCning 8-faoliyat standartiga muvofiq, loyiha amaliy jihatdan mumkin bölgan hollarda madaniy merosning buzilişiga yöl qöymaslikka intiladi. Buning imkoni bölmasa va köçiriş talab etilsa, bu iş faqat loyiha ta'sir qilgan aholi va taşkilotlarning erkin, oldindan va xabardor iştiroki bilan hamda amaldagi milliy qonunçilik va diniy odatlarga muvofiq amalga oşiriladi. Qabrlar aniqlangan va kelişilgan joyga hurmat bilan köçiriladi, tartiblar esa amalga oşirişdan oldin hujjatlaştiriladi va tasdiqlanadi. Barça harakatlar haqida oçiq axborot beriladi. Maslahatlaşuvlar va kelişilgan natijalar qaydlari loyihaning madaniy merosni boşqariş böyiça majburiyatlarining bir qismi sifatida saqlanadi.

Yer sathini kötariş


Loyiha hududida yer osti suvlari sathi yuza joylaşgani sababli mavjud sathdan taxminan 4 m balandlikkaça tuproq töldiriş talab etilişi mumkin. Aerodrom tomoni uçun taxminan 10 500 000 m^3, umumiy foydalaniş tomoni uçun esa 1 500 000 m^3 töldiriş materiali talab etilişi taxmin qilinmoqda. Bu maqsad uçun zarur material Toşkent mintaqasidagi mavjud va işlab turgan karyerlardan olinişi kutilmoqda.

Bu yerda keltirilgan talab etiladigan töldiruvçi materialning xususiyatlari va hajmlari dastlabki hisob-kitoblarga asoslangan va hali yakunlanmagan. Ular batafsil topografik va gidrologik tadqiqotlar tugagandan söng tasdiqlanadi. 2.43-rasmda körsatilgan va 2.4-jadvalda umumlaştirilgan joylar faqat taxminiy bölib, joylaşuvi, mavjud material turi, hisobiy işlab çiqariş quvvatiga qarab aniqlangan ehtimoliy ta'minot manbalarini ifodalaydi. Yakuniy material oliş maydonlari, karyerlar, yetkazib beruvçilarni batafsil loyihalaş hamda xarid jarayonida MXQ/EPC pudratçisi tasdiqlaydi.

Material yetkazib beruvçilar tayinlanişidan oldin MXQ/EPC pudratçisi taklif etilayotgan manbalarning yaroqliligini tasdiqlaş uçun atrof-muhit va ijtimoiy masalalar böyiça tegişli tekşiruv ötkazadi. Bu baholaş tanlangan har bir karyer böyiça quyidagilarni tekşirişni öz içiga oladi:

- Karyer tegişli litsenziyaga ega va amaldagi milliy qonunçilikka muvofiq işlayotgani
- Ruxsatsiz kengaytirişsiz loyiha talabini qondiriş uçun yetarli ruxsat etilgan zaxira va işlab çiqariş quvvatiga egaligi
- Atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlikni boşqariş böyiça tegişli çoralarni amalga oşirgani

- Karyer muhofaza etiladigan tabiiy hududda, muhim yaşaş muhitida yoki atrof-muhit jihatidan sezgir boşqa joyda joylaşmagani hamda qazib oliş nomaqbul ta'sirlarni yuzaga keltirmasligi;
- Mahalliy aholi va umumiy foydalanişdagi yöllarga ta'sirni kamaytiradigan tegişli transport kiriş yöllari hamda taşiş yönalişlariga egaligi; va
- XMK/IFCning 2-faoliyat standarti va loyihaning mehnatni boşqariş tartib-taomillaridagi majburiyatlari, jumladan, amaldagi mehnat va iş şaroitlari talablariga rioya etilişini körsatişi. Zarur hollarda yetkazib beruvçilar jalb qilinişidan oldin va quriliş vaqtida davriy ravişda tekşiruvdan ötkaziladi.



2.43-rasm. Töldiruvçi materiallar olinadigan karyerlarning taxminiy joylari

2.4-jadval. Töldiruvçi materiallarning ehtimoliy manbalari


Manba joyi	Tuman yoki viloyat	Material turi	GPS koordinatalari	Talab qilinadigan maydon, ga
Çirçiq daryosi özani	Yangiyöl	Töldiriş materiali va çaqiq taş	41˚1′42″N 69˚2′15″E	200
Daça daryosi özani	Piskent	Töldiriş materiali va çaqiq taş	40˚55′34″N 69˚26′16″E	300
Ohangaron daryosi özani	Piskent	Çaqiq taş	40˚53′16″N 69˚38′4″E	200
Olmaliq ohaktoş karyeri 1	Olmaliq	Çaqiq taş	40˚51′29″N 69˚39′8″E	20
Olmaliq ohaktoş karyeri 2	Olmaliq	Çaqiq taş	40˚50′50″N 69˚41′45″E	

Töldiriş materialini qazib oliş, taşiş va joylaştiriş transport harakatining oşişi, çang va şovqin hosil bölişi, taşişdan issiqxona gazi emissiyalari hamda manba karyerlardagi ehtimoliy

mahalliy buziliş kabi vaqtinçalik atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarga olib kelişi mumkin. Tegişli boşqaruv bölmasa, yer sathini kötariş işlari yerusti drenaji tartibi va yer yuzasiga yaqin yer osti suvlari şaroitiga ham ta'sir qilişi mumkin. Bu ta'sirlar vaqtinçalik va boşqariladigan bölişi kutiladi. Ular materialni faqat litsenziyali karyerlardan oliş, çangni bostiriş çoralarini qöllaş, transportni boşqarişni rejalaştiriş va yer osti suvini himoya qiladigan loyiha nazoratlari kabi tegişli oldini oliş va kamaytiriş çoralari orqali boşqariladi.

2.21.2 Qaziş va yer osti suvi sathini pasaytiriş

Qaziş işlari loyiha hududini quruqlik va aerodrom tomoni infratuzilmasi, jumladan, uçiş-qöniş yölaklari, rullaş yölaklari, terminal binolari hamda ularga boğliq inşootlar uçun tayyorlaş maqsadida bajariladi. Qaziş usuli quriliş samaradorligini ta'minlaydigan, atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlikka oid xavflarni kamaytiradigan qilib belgilanadi. Qaziş işlari batafsil topografik va geotexnik tadqiqotlar asosida bosqiçma-bosqiç bajariladi. Asosiy qaziş joylari 2.44-rasmda körsatilgan, odatiy qaziş çuqurliklari 2.5-jadvalda umumlaştirilgan, qaziş va poydevor loyihasining namunaviy köndalang kesimlari esa 2.45-rasmda berilgan. Yertöla qaziş uçun jami taxminan 13 000 m^2 maydon talab etiladi.




2.44-rasm. Çuqur qaziş işlarining taxminiy joylari

2.5-jadval. Hisobiy poydevor sathlari va qaziş çuqurliklari

Obyekt nomi	Mavjud yer sathi, m	Poydevor çuqurligi, m	Qaziş çuqurligi, m
Yölovçi terminali binosi	358,4	354,6	3,8
OSTI/WWTP	355	347,5	7,5
Havo kemasi oqova suvi va içimlik suvi inşooti	358	352,9	5,1
Umumiy muhandislik tarmoqlari inşooti	356	348,8	7,2
Içimlik suvini tozalaş inşooti	356	347,5	8,5
Elektr taqsimoti: A yuk markazi	363,5	359	4,5
Elektr taqsimoti: B yuk markazi	354,5	350	4,5

Qaziş odatda ekskavator, buldozer, yuklağiçlar kabi odatiy mexanik uskunalar yordamida bajariladi. Material loyihaning yer işlarini boşqariş rejasiga muvofiq loyiha hududida vaqtinça uyuladi yoki belgilangan qayta foydalaniş yoxud yöq qiliş joylariga taşiladi. Qaziş joyining barqarorligi va işçilar xavfsizligini ta'minlaş uçun zarur hollarda qiyalikni vaqtinça mustahkamlaş, tirgak örnatiş yoki poğonali qaziş usuli qöllanadi. Qaziş çuqurligi mahalliy yer

şaroiti va poydevor talablariga qarab özgaradi. Suv kirişi va çökindilar çiqişining oldini oliş uçun zarur joylarda yer osti suvini boşqaruv çoralari qöllanadi. Barça qaziş işlari tegişli atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik standartlariga muvofiq bajariladi, quriliş vaqtida çang, şovqin, yerusti oqimini nazorat qiliş çoralari amalga oşiriladi.



2.45-rasm. Yölovçi terminali binosi qaziş çuqurligi tafsilotlari

Loyiha hududidagi yer osti qatlamlarining suv ötkazuvçanligi yuqori bölgani sababli qaziş işlarida yer osti suvi sathini pasaytiriş talab etiladi. Yer osti suvi oqimini çeklaş uçun tegişli nazorat çoralari qöllanmasa, çiqariladigan suv hajmi katta bölişi mumkin. Batafsil loyihaga qarab, bunday çoralar suv ötkazmaydigan tösiqlar yoki mahalliy sizib kirişni nazorat qilişni öz içiga olişi mumkin. MXQ/EPC pudratçisi qöllaydigan aniq usul hali tasdiqlanmagan bölsa-da, dastlabki geotexnik şaroitga köra ignali quduqlar yordamida suv sathini pasaytiriş tizimlaridan foydalaniş kutilmoqda. Bu usul qurilişni rejalaştiriş bosqiçidagi batafsil geotexnik tadqiqotlardan söng yakuniylaştiriladi.

Hozirgi bosqiçda suv sathini pasaytirişning hisobiy davomiyligi, tezligi, jami hajmi haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Quriliş vaqtida olinadigan har qanday yer osti suvi amaldagi me'yoriy talablar va atrof-muhitni boşqaruv çoralariga rioya qilingan holda, taşqi drenaj tizimi orqali oxir-oqibat Çirçiq daryosiga çiqarilişi kutilmoqda. Suv sifatini boşqariş, eroziya yoki çökindilar çiqişining oldini oliş, oqim quyisidagi qabul qiluvçi obyektlarga ehtimoliy ta'sirni kamaytiriş uçun tegişli nazorat çoralari amalga oşiriladi.

2.21.3 Umumquriliş va aerodrom işlari

Yuqorida aytilgan hududni tayyorlaş işlaridan taşqari, umumquriliş işlariga zarur joylarda tuproqni mustahkamlaş hamda uçiş-qöniş yölaklari, rullaş yölaklari, perronlar, töxtaş joylari uçun aerodrom qoplamalarini quriş kiradi. Qoplama qurilişida tuproq asosi tayyorlanadi, quyi asos va asos qatlamlari yotqiziladi, söng havo kemalari yukiga çidaş beradigan asfalt yoki beton ustki qatlam örnatiladi. Qöşimça umumquriliş işlariga terminal binolari, boşqaruv minoralari, yuk va texnik xizmat körsatiş inşootlari, çegara tösiqlari, kiriş yöllari, avtoturargohlar, umumiy foydalaniş tomonidagi tegişli infratuzilmani quriş kiradi. Yomğir suvi oqimini boşqariş va qoplama yaxlitligini saqlaş uçun yerusti suv kanallari hamda suv ötkaziş quvurlaridan iborat drenaj tizimlari örnatiladi.

2.21.4 Konstruktiv va me'moriy işlar

Konstruktiv işlar terminal binolari va yordamçi inşootlarda temir-beton hamda konstruktiv pölat konstruksiyalarni qurişni öz içiga oladi. Me'moriy işlarga binoning taşqi qobiği,

tom tizimlari, içki tösiqlar, pardoz kiradi. Quriliş materiallari manbalardan olinadi, söng atrof-muhit va xavfsizlik talablariga muvofiq belgilangan saqlaş maydonlarida saqlanadi hamda ularga işlov beriladi.

2.21.5 Mexanik işlar

Mexanik işlar terminal va yordamçi binolar uçun IŞK/HVAC tizimlarini, suv-quvur va yonğindan himoya tizimlarini, tegişli joylarda yoqilği ta'minoti infratuzilmasini hamda bagajga işlov beriş tizimlari uçun mexanik uskunalarni örnatişni öz içiga oladi. Binoning muhandislik tarmoqlari va foydalaniş talablariga mosligini ta'minlaş uçun bu faoliyat umumquriliş hamda konstruktiv işlar bilan muvofiqlaştiriladi.

2.21.6 Elektr, yoritiş, navigatsiya vositalari

Elektr işlari elektr ta'minoti tarmoqlari, podstansiyalar, zaxira generatorlari, binolarning içki elektr tizimlarini örnatişni öz içiga oladi. Uçiş-qöniş yölagi, rullaş yölagi, perron yoritiş tizimlarini qamrab oladigan aerodrom yerusti yoritiş tizimlari XFAT/ICAOning 14-ilovasi talablariga muvofiq örnatiladi. Quriliş davom etgani sari navigatsiya vositalari, aloqa tizimlari va havo harakatini boşqarişni qöllab-quvvatlovçi infratuzilma bosqiçma-bosqiç örnatiladi va sinovdan ötkaziladi.

2.21.7 Muhandislik tarmoqlari, tizimlar, yordamçi işlar

Qöşimça işlar suv ta'minoti, oqova suv, drenaj tarmoqlari, telekommunikatsiya, xavfsizlik tizimlari hamda aeroportdan foydalaniş tizimlarini örnatişni öz içiga oladi. Loyiha idoralari, ustaxonalar, material saqlaş maydonlari va işçilar uçun maişiy inşootlar kabi vaqtinçalik quriliş inşootlari belgilangan quriliş hududlarida barpo etiladi va işlar tugagandan söng olib taşlanadi.

2.21.8 Vaqtinçalik quriliş inşootlari

Işçilarni joylaştiriş

Uşbu hisobotda avval bayon qilinganidek, quriliş davrida işçi soni eng yuqori paytda taxminan 5 000 nafarni taşkil etadi: umumiy foydalaniş tomonida 2 700 nafar va aerodrom tomonida 2 300 nafar. Ularning aksariyati loyiha hududidagi turar joy majmuasida yaşaşi kutilmoqda. MXQ/EPC pudratçisining quriliş xodimlari uçun turar joy 2.46-rasmda körsatilganidek, loyiha hududining ğarbiy qismida quriladi. Majmua yaşaş xonalari, sanitariya inşootlari, oşxonalar, boşqa umumiy joylar kabi qulayliklar hamda maişiy farovonlik inşootlarini öz içiga oladi.

Uşbu AMITB/ESIA tayyorlangan vaqtda aerodrom tomoni pudratçisining xodimlarini joylaştiriş va xodimlar tarkibiga oid tartiblar hali belgilanmagan. Bu tartiblar mahalliy işçilarning uyidan qatnaşi, mavjud turar joy inşootlaridan foydalaniş yoki vaqtinçalik işçilar turar joyidan foydalaniş variantlarining birikmasini qamrab olişi mumkin.

Loyiha hududidagi inşootlardan taşqari, aerodrom tomoni MXQ/EPC pudratçisining ayrim xodimlari va qurilişga jalb qilinadigan quyi pudratçilar uçun loyiha hududidan taşqarida muqobil turar joylar ham talab etilişi mumkin. Loyiha tomonlari taqdim etadigan yoki haqini tölaydigan, hudud içidagi va taşqarisidagi barça quriliş işçilari turar joylari XMK/IFC va YTTB/EBRDning "Işçilar turar joyi: jarayonlar va standartlar" hujjatidagi eng sönggi talablar asosida tekşiriladi. Bundan taşqari, MXQ/EPC pudratçisi safarbarlikdan oldin yaqin hududda yetarli hajmdagi munosib turar joy mavjudligini tasdiqlaş uçun turar joy variantlari va ularning mavjudligini baholaşi kerak.

Vaqtinçalik quriliş inşootlari maydon idoralari, quriliş hovlilari, çiqindilarni boşqariş va kimyoviy moddalarni saqlaş hududlari, ustaxonalar, beton qoriş zavodi hamda boşqa obyektlarni ham öz içiga oladi (2.46-rasmga qarang).

Quriliş muhandislik tarmoqlari

Quriliş bosqiçida talab qilinadigan asosiy ta'minot turlariga quriliş suvi, içimlik suvi, elektr energiyasi, yoqilği kiradi.

Quriliş maqsadlari uçun suv zarur ruxsatlar va gidrogeologik baholaş şarti bilan, asosan loyiha hududidagi quduqlardan yer osti suvi sifatida olinişi kutilmoqda. Amaldagi quriliş rejalari farazlariga köra, qurilişning eng yuqori davridagi xodimlar tarkibi taxminan 5 000

kişidan iborat böladi. Bir kişining maişiy suv sarfi kuniga 150 litr deb olinsa, maişiy suv talabi kuniga taxminan 750 kilolitr, ya'ni 750 m³ deb baholanadi. Beton tayyorlaş, çangni bostiriş, uskunalarni yuviş, quriliş bilan boğliq boşqa maqsadlarga talab etiladigan suv kuniga taxminan 1 752 kilolitr, ya'ni 1 752 m³ deb baholanadi.

Şunga muvofiq, qurilişning eng yuqori davridagi jami dastlabki suv talabi kuniga taxminan 2 500 kilolitr, aniqroği 2 502 m³ deb baholanadi. Quriliş usullari, bosqiçlari, suv manbalari, talabni boşqaruv çoralari yanada işlab çiqilgani sari bu hisob batafsil qurilişni rejalaştiriş bosqiçida aniqlaştiriladi.

Quriliş işlari uçun elektr energiyasiga talabni Özbekiston milliy elektr tarmoqlari aksiyadorlik jamiyati boşqaradigan milliy tarmoqdan qoplaş nazarda tutilmoqda. Quriliş vaqtida yiliga örtaça 5 500 MVt-soat elektr energiyasi talab etilişi hisoblangan. Tarmoqda uziliş yuz berganda işlarni uzluksiz davom ettiriş uçun zaxira elektr manbai sifatida dizel generatorlaridan foydalaniladi.

Zaxira generatorlari hamda boşqa quriliş qurilmalari va uskunalari uçun talab qilinadigan yoqilği asosan yuqori tezlikli dizel bölib, Uztransgaz aksiyadorlik jamiyatidan yoki MXQ/EPC pudratçisi tanlagan tasdiqlangan muqobil yetkazib beruvçilardan xarid qilinadi.

Quriliş maşina va uskunalarining taxminiy turlari hamda ularning kutilayotgan yoqilği sarfi 2.6-jadvalda körsatilgan.

2.6-jadval. Quriliş texnikasi va hisobiy yoqilği talabi

Texnika turi	Soni	Yoqilği sarfi, litr/kun
Buldozer	1	128
Ekskavator	3	80
Ğildirakli yuklağiç	2	80
Greyder	3	128
Tebranuvçi ğaltak	4	72
Suv sisternasi	3	32
Qoplama yotqiziş maşinasi	1	112
PTR	1	72
Tandem ğaltak	1	56
Bortli burilişli yuklağiç	1	32
Kiçik ğaltak	1	32
25 tonnalik kran	1	64
Beton aralaştirgiç avtomobili	3	67
25 tonnalik yuk avtomobili	8	89

Quriliş çiqindilarini boşqariş


Loyiha hududida çiqindi materiallarini yiğiş, ularga işlov beriş, vaqtinça saqlaş uçun maxsus joylar ajratiladi. Quriliş xodimlari uçun taqdim etilgan hojatxonalar, duşlar, rakovinalar, boşqa sanitariya qulayliklarini öz içiga olgan barça maişiy inşootlardan oqova suvni yiğiş uçun sanitariya oqova tarmoqlari örnatiladi.

Qurilişning eng yuqori davridagi taxminan 5 000 xodim va kuniga 750 kilolitr, ya'ni 750 m³ maişiy suv talabi asosida, içimlik suvi sarfining taxminan 80 foizi kanalizatsiyaga qaytişi faraz qilinsa, loyihada kuniga taxminan 600 kilolitr, ya'ni 600 m³ maişiy oqova suv hosil bölişi kutilmoqda. Bu oqova suvni boşqariş uçun vaqtinçalik quriliş inşootlari tarkibida loyiha hududida OSTI/WWTP örnatiladi. OSTI/WWTP maişiy oqova suvni tegişli hollarda çiqariş, qayta foydalaniş yoki yöq qilişdan oldin amaldagi milliy standartlar va xalqaro yetakçi amaliyotga muvofiq tozalaşga möljallab loyihalanadi. OSTI/WWTPning aniq loyihaviy quvvati, tozalaş jarayoni, boşqaruv tartibi batafsil muhandislik bosqiçida tasdiqlanadi.

MXQ/EPC pudratçisi turli quriliş çiqindi oqimlarini taşiş, yöq qiliş yoki ularga işlov beriş uçun litsenziyaga ega çiqindi xizmati körsatuvçilari bilan şartnomalar tuzadi (2.7-jadvalga qarang).

2.7-jadval. Quriliş çiqindilari turlari

Çiqindi turi	Tavsif
Xavfli çiqindi	Salomatlik yoki atrof-muhitga xavf tuğdiradigan moddalar bilan ifloslangan çiqindi materiallari, jumladan, işlatilgan yoki çiqindi moylar, moyli lattalar, moy filtrlari, dizel generatorlaridan çiqqan işlatilgan moy, kompressor moyi, transformator moyi, ustaxona çiqindilari, xavfli moddalar bilan ifloslangan taşlangan idiş yoki boçkalar, masalan, işlatilgan moy va böyoq boçkalari hamda saqlaş baklari yoki hududlari tubidagi loyqa.
Quriliş va buziş çiqindilari (QBÇ/C&D)	Quriliş va buziş işlarida hosil böladigan çiqindilar, jumladan, qazib olingan tuproq, beton siniqlari, ğişt, yoğoç, metall parçalari, boşqa inert yoki xavfli bölmagan quriliş qoldiqlari. Bu materiallardan qayta foydalaniş, ularni qayta işlaş yoki tegişli ravişda yöq qiliş mumkin.
Xavfli bölmagan çiqindi	QBÇ/C&D çiqindilaridan taşqari quriliş vaqtida hosil böladigan umumiy qattiq çiqindilar, jumladan, qoğoz, karton, qadoq çiqindilari, plastmassa, loyiha hududidagi işlarda hosil böladigan boşqa xavfli bölmagan çiqindilar.
Qattiq maişiy çiqindilar	Işçilar turar joylari va loyiha idoralarida hosil böladigan maişiy çiqindilar, jumladan, oziq-ovqat çiqindilari, qoğoz, plastmassa, odatiy uy çiqindilarining boşqa turlari.
Qadoq çiqindilari	Quriliş materiallari bilan birga keladigan qadoq materiallari, jumladan, karton qutilar, plastmassa örama, yoğoç yaşiklar, yorliq materiallari. Ular qayta işlanişi mumkin va şunga muvofiq alohida yiğilişi kerak.
Oqova suv	Quriliş işlari vaqtida ifloslangan yoki işlatilgan suv, jumladan, yerusti oqimi, suv sathini pasaytirişdagi oqova suv, beton tayyorlaş jarayoni suvi, işçilar inşootlaridan çiqadigan maişiy oqova suv.



2.46-rasm. Quriliş bosqiçidagi vaqtinçalik inşootlar joylaşuv rejasi

2.21.9 Atrof-muhit va xavfsizlikni boşqariş

Barça quriliş işlari atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlikka oid tegişli standartlarga rioya qilingan holda amalga oşiriladi. Şovqin, çang, çiqindi hosil bölişi, transport harakati hamda yerusti suvlari va atrofdagi qabul qiluvçi obyektlarga ehtimoliy ta'sirlarni nazorat qiliş uçun oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanadi. Batafsil quriliş usullari hamda ta'sirning oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari işlar boşlanişidan oldin işlab çiqiladigan, har bir pudratçiga xos boşqaruv rejalarida belgilanadi.

2.22 Aeroportdan foydalaniş va texnik xizmat körsatiş

2.22.1 Boşqaruv tuzilmasi va vazifalar

Yangi Toşkent xalqaro aeroportini MMK/SPV hisoblangan TAA rivojlantiradi, işlatadi, boşqaradi. TAA aeroportning umumiy foydalaniş tomoni va boşqa aktivlaridan foydalaniş uçun, Davlat hamkori esa aerodrom tomoni va uçiş maydoni aktivlaridan foydalaniş uçun javobgar böladi. MMK/SPV öz mas'uliyati doirasidagi faoliyatga oid barça asosiy foydalaniş va boşqaruv vazifalarini nazorat qiladi. Ayrim asosiy bölmagan xizmatlar va texnik işlarni esa ixtisoslaşgan taşkilotlarga, ya'ni obyektlarni boşqariş kompaniyasi va aeroport faoliyatini yurituvçi hamkorga (AFYH/AOP) maqsadli ravişda topşiradi. MMK/SPV barça foydalaniş, atrof-muhit, ijtimoiy va xavfsizlik jihatlari böyiça boşqaruv hamda nazoratni özida saqlab qoladi va aeroport faoliyati milliy qoidalar hamda xalqaro aviatsiya standartlariga muvofiq bölişini ta'minlaydi.

MMK/SPV yetarli xodimlar bilan ta'minlangan tuzilmani saqlaydi. Uning tarkibida atrof-muhit va ijtimoiy standartlarga muvofiqlikni nazorat qiliş, ta'sirni baholaş işlarini muvofiqlaştiriş, şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini amalga oşiriş, oldini oliş va kamaytiriş çoralarini kuzatiş hamda loyiha rahbariyati va tartibga soluvçi idoralarga hisobot beriş uçun javobgar atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruvçisi böladi. Aeroportda xavfsizlik böyiça boş direktor rahbarlik qiladigan maxsus salomatlik, xavfsizlik, atrof-muhit bölimi ham böladi. Uni salomatlik, xavfsizlik, atrof-muhit boşqaruvçilari, sifat boşqaruvçilari hamda mutaxassislar qöllab-quvvatlaydi. Bu jamoa salomatlik va xavfsizlik tartiblarini işlab çiqiş, xavflarni baholaş, xavfsizlik bayonnomalariga rioya etilişini ta'minlaş, hodisalar haqidagi hisobotlarni boşqariş uçun javobgar böladi.

2.22.2 Xodimlar tarkibi

Umumiy foydalaniş tomonidagi aeroport va obyektlarni boşqariş xizmatlarining doimiy içki xodimlari taxminan 3 000 kişidan iborat bölişi kutilmoqda. Yerusti xizmatlari va boşqa yordamçi xizmatlarni öz içiga olgan aerodrom tomonidagi umumiy aeroport işlarida esa qöşimça ravişda taxminan 2 000 xodim band böladi.

Xavfsizlik, atrof-muhit, foydalaniş standartlariga rioya etilişini ta'minlaş uçun öquv dasturlari amalga oşiriladi. Yuqori sifatli xizmat va me'yoriy talablarga muvofiqlikni saqlaş maqsadida xodimlarni işga qabul qilişdagi taniştiruv hamda ularning salohiyatini muntazam oşirib boriş odatiy iş tartiblarining bir qismi böladi.

2.22.3 Foydalaniş bosqiçidagi faoliyat

Işga tuşirilgandan söng aeroport havo kemalarining qönişi va uçişi, yölovçilarga işlov beriş, bagajga işlov beriş, yuk bilan boğliq işlar, havo harakatini boşqariş, yerusti transporti, texnik xizmat körsatiş, yoqilği quyiş, ovqatlaştiriş, tozalaş, çiqindilarni boşqariş kabi uzluksiz faoliyatlarni ta'minlaydi. Bojsiz savdo dökonlari, restoranlar, avtomobil ijarasi, mehmonxonalar kabi yordamçi tijorat xizmatlari ham aeroport faoliyatining ajralmas qismi böladi.

2.22.4 Texnik xizmat körsatiş faoliyati

Aeroportning barça infratuzilmasiga, jumladan, uçiş-qöniş yölaklari, rullaş yölaklari, perronlar, terminal binolari, foydalaniş uskunalariga odatiy hamda davriy texnik xizmat körsatiladi. Texnik xizmat körsatiş işlari qoplamani ta'mirlaş, konstruksiyalarni tekşiriş, mexanik va elektr tizimlariga, transport vositalariga hamda YXKU/GSEga xizmat körsatişni öz içiga oladi.

Oldini oluvçi va tuzatuvçi texnik xizmat körsatiş dasturlari aeroport işlarining xavfsizligi, işonçliligi va uzluksizligini ta'minlaydi, işdagi töxtaş va uzilişlarni kamaytiradi.

2.22.5 Muhandislik tarmoqlari va resurslarni boşqariş

[3] 2025-yil 18-noyabrdagi "Ekologiya va turizm sohalarida jamoatçilik talablariga tezkor javob berişni boşqariş tizimini yaratiş çora-tadbirlari töğrisida"gi UP-217-sonli farmonga muvofiq Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qiliş va iqlim özgarişi vazirligi Özbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim özgarişi milliy qömitasi deb qayta nomlangan.

Muassasa nomi	Asosiy vazifa
Özbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi xizmati	Uşbu xizmat Soğliqni saqlaş vazirligi tizimida soğliqni muhofaza qiliş zonasini (SMQH/HPZ) belgilaşga mas'ul. Loyihaga tatbiq etiladigan SMQH/HPZni uşbu davlat taşkiloti belgilaydi.

3.6 Milliy Atrof-muhitga ta'sirni baholaş talablari

Milliy ekologik baholaş tartibi 2025-yildagi "Ekologik ekspertiza, AMTB/EIA va strategik ekologik baholaş töğrisida"gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan, 2024-yilda oxirgi marta özgartirilgan "AMTB/EIA mexanizmini yanada takomillaştiriş töğrisida"gi nizom asosida tartibga solinadi. Qarorda Özbekistondagi ekologik baholaş hujjatlariga qöyiladigan huquqiy talablar belgilangan. Qonunga köra, ekologik baholaş rejalaştirilayotgan yoki amalga oşirilayotgan xöjalik va boşqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini hamda ekologik baholaş obyektini amalga oşirişga yöl qöyilişi yoki yöl qöyilmasligini aniqlaşga qaratilgan tartib-taomildir.

Ekologik baholaş bosqiçlari va ular böyiça talab etiladigan natijalar quyidagiça umumlaştiriladi:

I bosqiç: Taklif etilayotgan loyihani tayyorlaş jarayonida, uni rivojlantiriş uçun mablağ ajratilişidan oldin atrof-muhitga ta'sir töğrisidagi dastlabki bayonot tayyorlanişi kerak.

II bosqiç: Atrof-muhitga ta'sir töğrisidagi bayonot baholaşning birinçi bosqiçida berilgan ekologik ekspertiza xulosasi asosida tayyorlanişi kerak. Baholaşning ikkinçi bosqiçi ham Davlat ekologik ekspertizasi markaziga taqdim etiladi va quriliş boşlanişidan oldin xulosa olinişi şart.

III bosqiç: Davlat ekologik oqibatlari töğrisidagi bayonot DEE/SEE jarayonining yakuniy bosqiçi bölib, loyiha boşlanişidan oldin tayyorlanişi kerak. Hisobot quyidagilarni öz içiga oladi: (i) ekologik baholaş jarayonining dastlabki ikki bosqiçida Davlat ekologik ekspertizasi markazi ötkazgan körib çiqiş natijasida loyiha yeçimlariga kiritiladigan özgartirişlarning batafsil tavsifi; (ii) jamoatçilik maslahati davomida olingan fikrlar; (iii) loyihaga tatbiq etiladigan ekologik standartlar; (iv) loyihaga oid atrof-muhit kuzatuvi talablari; (v) asosiy xulosa.

Har qanday quriliş işlari boşlanişidan oldin I bosqiç uçun, zarur bölsa II bosqiç uçun ham EQ/NCECCning ruxsati, ya'ni ijobiy xulosasi olinişi zarur.

Loyihalarni işga tuşiriş va ulardan foydalanişga faqat III bosqiç uçun ruxsat, ya'ni ijobiy xulosa olinganidan keyin yöl qöyiladi.

Milliy AMTB/ElAda jamoatçilik iştiroki

Milliy AMTB/EIA jarayoniga oid qonunçilikdagi özgartirişlarga asosan, jamoatçilik bilan maslahatlaşuv endi baholaşning birinçi bosqiçida majburiy hisoblanadi.

Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son "AMTB/EIA jarayonini yanada takomillaştiriş töğrisida"gi qaroriga köra, jamoatçilik bilan maslahatlaşuv ötkaziş tartibi quyidagiça:

- 541-son qarorning 3-ilovasida jamoatçilik bilan maslahatlaşuv ötkaziş qoidalari va me'yorlari belgilangan. Ularga köra, jamoatçilik bilan maslahatlaşuv atrof-muhitga salbiy ta'sir körsatişi mumkin bölgan rejalaştirilayotgan faoliyat, jumladan, har qanday obyekt qurilişini muhokama qiliş va bu haqda qaror qabul qilişni qamrab oliş kerak.
- Milliy toifalaş talablariga muvofiq I va II guruhlarga kiritilgan har qanday rejalaştirilayotgan loyiha faoliyati uçun TBQB/NTS tayyorlanişi kerak. TBQB/NTSda quyidagi ma'lumotlar keltirilişi kerak:
  - Loyihaning qisqaça tavsifi.
  - Loyiha uçun texnologik yeçimlar va muqobil variantlar.
  - Tanlangan loyiha maydonidagi atrof-muhitning joriy holati.
  - Ijtimoiy-iqtisodiy şaroitlarning qisqaça bahosi.

- Loyiha natijasida yuzaga keladigan salbiy atrof-muhit ta’sirlarining sabablari va turlari haqida qisqaça ma’lumot.
- Atrof-muhit holati va ijtimoiy-iqtisodiy şaroitlardagi kutilayotgan özgarişlarni oldindan aniqlaş va baholaş.
- Loyihaga oid va loyihaga boğliq bölmagan kutilayotgan xavflarni oldindan aniqlaş va baholaş.
- Salbiy ta’sirlarning oldini oliş, ularni kamaytiriş yoki qoplaş çoralari;
- Ehtimoliy sezilarli salbiy çegaralararo ta’sirlarni baholaş.

- Jamoatçilik bilan maslahatlaşuv TBQB/NTSni körib çiqiş asosida ötkazilişi kerak. Bunda barça iştirokçilarga özlarini qiynayotgan masalalar, fikrlar, takliflarni bildiriş uçun teng huquq beriladi.
- Jamoatçilik bilan maslahatlaşuvda quyidagi tomonlar iştirok etadi:
  - Jamoatçilik bilan maslahatlaşuvlarda kuzatuvçi sifatida iştirok etadigan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiliş davlat qömitasi mahalliy bölinmalarining vakillari.
  - Yiğilişlarni taşkil etiş va iştirokçilarni taklif qiliş uçun mas’ul taşkilot hisoblanadigan mahalliy hokimiyat organlari.
  - Nodavlat notijorat taşkilotlari (NNT/NGO).
  - Barça manfaatdor tomonlar.
  - Mahalliy jamoalar.
  - Ommaviy axborot vositalari.
- Jamoatçilik bilan maslahatlaşuvga oid xarajatlar yuzaga kelsa, ularni loyiha taşabbuskori moliyalaştiradi.

Jamoatçilik bilan maslahatlaşuv ötkazişga doir yuqoridagi milliy talablardan taşqari, jismoniy va yuridik şaxslarning davlat organlari hamda ularning mansabdor şaxslariga murojaatlari ikki qonun bilan tartibga solinadi. Bular 2017-yil 17-avgustda özgartirilgan Özbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrdagi 378-son “Jismoniy va yuridik şaxslarning murojaatlari töğrisida”gi qonuni hamda 2024-yil 21-sentabrda özgartirilgan Özbekiston Respublikasining 2017-yil 12-sentabrdagi 445-son ““Jismoniy va yuridik şaxslarning murojaatlari töğrisida”gi Özbekiston Respublikasi Qonuniga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş haqida”gi qonunidir. Murojaatlar oğzaki, yozma yoki elektron şaklda bölişi mumkin hamda şakli va turidan qat’i nazar bir xil ahamiyatga ega. Xalq qabulxonasi aholi bilan bevosita muloqotni taşkil etadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini töliq himoya qilişga qaratilgan samarali murojaatlar tizimi faoliyatini ta’minlaydi. Arizalar kelib tuşgan kundan boşlab 15 kun içida körib çiqiladi, qöşimça körib çiqiş talab etilsa, bu jarayon 1 oy içida yakunlanadi.

3.7 Kreditorlar talablari

Loyihani kreditorlar mablağı hisobidan moliyalaştiriş kreditorlarning investitsiyalarini atrof-muhit va ijtimoiy xavflardan himoya qilişga qaratilgan muayyan içki siyosat va himoya çoralariga rioya etişni talab qiladi. Banklarning özida bunday siyosat yoki himoya çoralari işlab çiqilmagan bölsa, kreditorlar Ekvator tamoyillari kabi ixtiyoriy bitimlarga qöşilgan bölişi kutiladi.

Közda tutilgan kreditorlarni hisobga olgan holda, ularning talablari dastlab quyidagi taşkilotlar belgilagan standartlar va qöllanmalarni anglatadi:

- XMK/IFC faoliyat standartlari;
- YTTB/EBRDning atrof-muhit va ijtimoiy siyosati hamda atrof-muhit va ijtimoiy talablari;

Yuqoridagilarning barçasi turli jihatlarni körib çiqiş va loyihaning butun faoliyat muddati davomida atrof-muhitni muntazam boşqarişni ham qamrab olgan muayyan darajadagi ekologik baholaşni talab qiladi.

3.7.1 Xalqaro moliya korporatsiyasi faoliyat standartlari

Izoh: Ular Ekvator tamoyillari IV (ET/EP), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot taşkilotining (IHTT/OECD) Umumiy yondaşuvlari hamda boşqa kreditorlar tomonidan ham qöllanadi.

XMK/IFCning faoliyat standartlari hamda Jahon banki guruhining atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik qöllanmalari (JBG/WBG AMSX/EHS qöllanmalari) XMK/IFC moliyalaştiradigan loyihalarga tatbiq etiladi. Ular Ekvator tamoyillariga qöşilgan moliya muassasalari moliyalaştiradigan loyihalarda (qarang: ET/EP 3), şuningdek, eksport kredit

agentliklari IHTT/OECD Umumiy yondaşuvlari asosida moliyalaştiradigan loyihalarda ham talablarga rioya etiş uçun zarur. XMK/IFCning 2012-yildagi faoliyat standartlari quyida keltirilgan:

- XMK/IFCning 1-faoliyat standarti, atrof-muhit va ijtimoiy xavflar hamda ta'sirlarni baholaş va boşqariş
- XMK/IFCning 2-faoliyat standarti, mehnat va iş şaroitlari
- XMK/IFCning 3-faoliyat standarti, resurslardan samarali foydalaniş va ifloslanişning oldini oliş
- XMK/IFCning 4-faoliyat standarti, aholi salomatligi, xavfsizligi va himoyasi
- XMK/IFCning 5-faoliyat standarti, yerni oliş va majburiy köçiriş
- XMK/IFCning 6-faoliyat standarti, biologik xilma-xillikni saqlaş va tirik tabiiy resurslarni barqaror boşqariş
- XMK/IFCning 7-faoliyat standarti, tub xalqlar
- XMK/IFCning 8-faoliyat standarti, madaniy meros.

3.7.2 Jahon banki guruhi va Xalqaro moliya korporatsiyasining Atrof-muhit, salomatlik, xavfsizlik qöllanmalari hamda muayyan tarmoqqa oid qöllanmalar

- Quyidagi JBG/WBG va XMK/IFC AMSX/EHS qöllanmalari alohida ahamiyatga ega:
  - JBG/WBG va XMK/IFCning 2007-yildagi umumiy AMSX/EHS qöllanmalari;
  - JBG/WBG va XMK/IFCning 2007-yildagi aeroportlar sanoat tarmoği uçun AMSX/EHS qöllanmalari.

3.7.3 Yevropa tiklaniş va taraqqiyot bankining atrof-muhit va ijtimoiy siyosati hamda atrof-muhit va ijtimoiy talablari:

YTTB/EBRDning 2024-yil oktabrdagi eng sönggi atrof-muhit va ijtimoiy siyosati hamda atrof-muhit va ijtimoiy talablari quyida keltirilgan:

- YTTB/EBRDning 1-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, atrof-muhit va ijtimoiy xavflar hamda ta'sirlarni baholaş va boşqariş
- YTTB/EBRDning 2-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, mehnat va iş şaroitlari
- YTTB/EBRDning 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, resurslardan samarali foydalaniş, ifloslanişning oldini oliş va uni nazorat qiliş
- YTTB/EBRDning 4-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, salomatlik, xavfsizlik va himoya
- YTTB/EBRDning 5-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, yerni oliş, yerdan foydalanişni çeklaş va majburiy köçiriş
- YTTB/EBRDning 6-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, biologik xilma-xillikni saqlaş va tirik tabiiy resurslarni barqaror boşqariş
- YTTB/EBRDning 7-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, tub xalqlar
- YTTB/EBRDning 8-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, madaniy meros
- YTTB/EBRDning 9-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, moliyaviy vositaçilar;
- YTTB/EBRDning 10-atrof-muhit va ijtimoiy talabi, manfaatdor tomonlarni jalb etiş.

3.7.3.1 Yevropa Ittifoqining atrof-muhitga oid mazmuniy mezonlari

YTTB/EBRDning atrof-muhit va ijtimoiy siyosatiga köra, loyiha qayerda joylaşganidan qat'i nazar, YTTB/EBRD moliyalaştiradigan loyihalar loyiha darajasida tatbiq etiş mumkin bölgan YI/EUning tegişli ekologik tamoyillari, amaliyotlari, mazmuniy standartlariga muvofiq tuzilişi kerak.

Şunga muvofiq, uşbu AMITB/ESIAning tegişli texnik boblarida baholaş usulini belgilaş va oldini oliş hamda kamaytiriş çoralarini aniqlaşda amaldagi milliy qonunçilik, xalqaro yaxşi amaliyot, zarur hollarda YI/EUning atrof-muhitga oid mazmuniy talablari hisobga olingan. YI/EUning muayyan mazmuniy talablarini tatbiq etiş mumkinligi loyihaning tabiati, kölami, xususiyatlari hamda tegişli texnik yönaliş doirasida körib çiqilgan.

Uşbu AMITB/ESIAni tayyorlaşda hisobga olingan YI/EUning atrof-muhitga oid mazmuniy talablarini dastlabki saralaş natijalari bobning keyingi qismida keltirilgan.

3.7.4 AQŞ Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasining atrof-muhit va ijtimoiy siyosati

AQŞ XTMK/DFCning 2024-yildagi atrof-muhit va ijtimoiy siyosati hamda tartib-taomillari AQŞ XTMK/DFC qöllab-quvvatlaydigan loyihalarning atrof-muhit va ijtimoiy jihatdan barqaror bölişini ta'minlaydigan doiraviy asosni belgilaydi. Uşbu siyosat xalqaro yaxşi amaliyotga muvofiq bölib, XMK/IFCning faoliyat standartlari va JBG/WBG AMSX/EHS qöllanmalarini asosiy talablar sifatida qabul qilgan.

AQŞ XTMK/DFC loyihalarni baholaşda xavfga asoslangan yondaşuvni qöllaydi. Bu yondaşuv saralaş, loyihani A, B yoki C toifaga ajratiş hamda ehtimoliy ta'sirlarning kölami va ahamiyatlilik darajasiga mutanosib atrof-muhit va ijtimoiy tekşiruv ötkazişni qamrab oladi. Loyihalarda quriliş, foydalaniş va faoliyatni tugatiş bosqiçlarini qamrab olgan butun faoliyat muddati davomida xavflar aniqlanişi va boşqarilişi kerak.

Loyihani baholaşda issiqxona gazlarini hisobga oliş, energiya samaradorligi va iqlim ta'sirlariga bardöşlilik, şuningdek, kam uglerodli rivojlaniş yöli bilan muvofiqlik kabi iqlim masalalari birgalikda hisobga olinadi.

Umuman olganda, AQŞ XTMK/DFCning atrof-muhit va ijtimoiy siyosati hamda tartib-taomillari barqaror rivojlaniş natijalarini rağbatlantiradi va loyihalarning ekologik jihatdan maqbul, ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli hamda xalqaro standartlarga muvofiq tarzda işlab çiqilişini ta'minlaydi.

3.7.5 Koreya Eksport-import bankining atrof-muhit va ijtimoiy siyosati

KEIB/KEXIMning atrof-muhit va ijtimoiy siyosati bank moliyalaştiradigan loyihalarning atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarini boşqarişga doir keng qamrovli yondaşuvdir. Bankning atrof-muhit va ijtimoiy böyiça batafsil tekşiruvi doirasida ilgari yuz bergan atrof-muhit va ijtimoiy masalalarga oid xavf hodisalari hamda loyiha tomonlarining bu boradagi obrösi baholanadi. Bu içki kreditni ma'qullaş jarayoni uçun juda muhim. KEIB/KEXIM atrof-muhit va ijtimoiy masalalarga oid vazifalar bilan işlaydigan maxsus bölim taşkil etgan hamda kundalik faoliyatining barçasini qamrab oladigan ekologik, ijtimoiy va korporativ boşqaruv (atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, korporativ boşqaruv) yöl xaritasini işlab çiqqan. Bank köp tomonlama muhokamalarda ham iştirok etadi va atrof-muhit va ijtimoiy masalalarini hal qiliş uçun boşqa davlat idoralari va xalqaro taşkilotlar bilan bilim almaşadi.

3.7.6 Yaponiya xalqaro hamkorlik bankining atrof-muhit va ijtimoiy siyosati

YXHB/JBIC öz qöllovidagi loyihalarning atrof-muhit va ijtimoiy mas'uliyat bilan işlab çiqilişini ta'minlaş uçun "Atrof-muhit va ijtimoiy jihatlarni tasdiqlaş böyiça qöllanmalar"ni qabul qilgan. Bu qöllanmalar uşbu jarayon uçun asos yaratadi. Ularning amaldagi tahriri 2022-yil iyulda kuçga kirgan va xalqaro yetakçi amaliyotga, jumladan, XMK/IFCning Faoliyat standartlari hamda JBG/WBGning AMSX/EHS qöllanmalariga mos keladi.

Qöllanmalarda loyihalarni saralaş va A, B, C hamda moliyaviy vositaçi toifalariga ajratişda xavfga asoslangan yondaşuv qöllanadi. Bunda loyihalarning kölami, joylaşuvi, sezgirligi, ehtimoliy atrof-muhit hamda ijtimoiy ta'sirlari hisobga olinadi. YXHB/JBICning körib çiqiş jarayonida bevosita, bilvosita va umumiy ta'sirlar, boğliq obyektlardan kelib çiqadigan ta'sirlar, şuningdek, quriliş, foydalaniş, faoliyatni tugatiş bosqiçlarini öz içiga olgan loyiha faoliyatining butun muddati davomidagi ta'sirlar hisobga olinadi.

3.7.7 Nippon eksport va investitsiyalarni suğurtalaş taşkilotining atrof-muhit va ijtimoiy siyosati

NEIST/NEXIning atrof-muhit va ijtimoiy asosi "Savdo suğurtasida atrof-muhit va ijtimoiy jihatlarni hisobga oliş böyiça qöllanmalar"da belgilangan. Bu qöllanmalar NEIST/NEXI qöllab-quvvatlaydigan loyihalarning atrof-muhit va ijtimoiy xavflarini baholaş va boşqariş talablarini belgilaydi. Ular xalqaro yetakçi amaliyotga mos bölib, XMK/IFCning Faoliyat standartlari, IHTT/OECDning Umumiy yondaşuvlari hamda atrof-muhit va ijtimoiy sohaga oid tegişli xalqaro asoslarga tayanadi.

3.7.8 Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot taşkiloti Umumiy yondaşuvlari

Tavsiyada rasmiy qöllab-quvvatlanadigan eksport kreditlari böyiça arizalar bilan boğliq ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlar hamda xavflarni aniqlaş, körib çiqiş va bartaraf etiş uçun batafsil atrof-muhit va ijtimoiy tekşiruv ötkazişga doir "Umumiy yondaşuvlar" belgilangan.

Bu tekşiruv Tavsiyaga qoşilgan tomonlarning qaror qabul qiliş va xavflarni boşqariş tizimining ajralmas qismi bölib, quyidagi bosqiçlarni öz içiga oladi:

- **Saralaş**, bunda rasmiy qöllab-quvvatlanadigan eksport kreditlariga doir qaysi arizalar toifalanişi va zarur hollarda keyinçalik körib çiqilişi kerakligi aniqlanadi;
- **Toifalaş**, bunda arizalarni A, B va C loyiha toifalariga ajratiş orqali ehtimoliy ijobiy va salbiy atrof-muhit hamda ijtimoiy ta'sirlar aniqlanadi. A toifali loyihalarning namunaviy röyxati Tavsiyaning I ilovasida keltirilgan;
- **Atrof-muhit va ijtimoiy tekşiruv** Tavsiyada belgilangan hamda loyihaga tatbiq etiladigan xalqaro standartlarga muvofiq ötkaziladi;
- **Baholaş, qaror qabul qiliş, kuzatib boriş**, ular loyihalarni saralaş hamda körib çiqiş natijalariga asoslanadi;
- **Axborot almaşiş va uni oşkor etiş**, bunda boşqa qoşilgan tomonlar, moliya muassasalari, keng jamoatçilik bilan tajriba hamda axborot almaşiladi;
- **Tavsiya böyiça hisobot beriş va kuzatuv:** muntazam hisobotlar hamda axborot almaşiş orqali Tavsiyaning qöllanişi böyiça tajriba töplanadi. Maqsad umumiy amaliyotlarni yaxşilaş, qöllanmalar işlab çiqiş, teng raqobat şaroitlarini rağbatlantiriş.

3.7.9 Tatbiq etiladigan boşqa atrof-muhit va ijtimoiy standartlar

Yuqorida bayon etilganlardan taşqari, takliflar sörovida quyidagi standartlar ham iş kölami doirasida körib çiqilişi kerakligi ta'kidlangan:

- Xalqaro fuqaro aviatsiyasi töğrisidagi konvensiya (XFATK/CICA), ya'ni "Çikago konvensiyasi", xususan, Atrof-muhitni muhofaza qilişga oid XVI ilovaning IV jildi;
- BMT/UNning XFAT/ICAO hujjatlari va qarorlari:
  - 9829-son "Havo kemalari şovqiniga muvozanatli yondaşuv" hujjati hamda XFAT/ICAOning aviatsiya faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini boşqarişda jamoatçilikni jalb qilişga doir sirkulyari haqidagi A39-1-son qarori. Bu hujjatlar aeroportlarda va ularning atrofida havo kemalari şovqinini boşqarişga oid amaldagi siyosatni töldiradi;
  - XFAT/ICAOning "Aeroportlarda suvni boşqariş", "Aviatsiya va biologik xilma-xillikdagi özgarişlar", "Aviatsiya va yoğinlar" ma'lumot varaqalari;
- AQŞning federal qonunlari, kodekslari, idoralari, qoidalari:
  - AQŞ FAB/FAAning Federal qoidalar kodeksi (FMHK/CFR) 14-bölimida berilgan Federal aviatsiya qoidalarining (FAQ/FAR) aeroportlardagi şovqin va şovqinni rejalaştirişga oid 150 va 161-qismlari hamda boşqa tegişli qismlari;
  - AQŞ FAB/FAAning maslahat sirkulyarlari;
  - AQŞ Atrof-muhitni muhofaza qiliş agentligining (AQŞ AMMQA/EPA) atmosfera havosi sifati milliy standartlari (AQŞ atmosfera havosi sifati milliy standartlari);
  - AQŞ Mehnat xavfsizligi va salomatligi boşqarmasi (AQŞ MXSB/OSHA);
- Xalqaro aeroportlar kengaşining (XAK/ACI) atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, korporativ boşqaruvni boşqariş sohasidagi eng yaxşi amaliyotlari;
- Xalqaro standartlaştiriş taşkiloti (XST/ISO).

3.7.10 Yevropa Ittifoqining atrof-muhitga oid mazmuniy talablariga muvofiqlikni tekşiriş

3.3-jadvalda körib çiqilgan YI/EUning atrof-muhitga oid asosiy qonunçiligi, uning loyihaga aloqadorligi, tegişli talablar uşbu AMITB/ESIAning qaysi qismida körib çiqilgani umumlaştirilgan. Uşbu saralaş YI/EUning atrof-muhitga oid tegişli mazmuniy talablari hisobga olinganini körsatişga qaratilgan va YI/EUning atrof-muhit qonunçiligi majmuasiga huquqiy muvofiqlikni rasmiy baholaş hisoblanmaydi.
Talablarning batafsil tahlili tegişli texnik boblarda keltirilgan.

3.3-jadval. YI/EUning mazmuniy talablariga muvofiqlik tekşiruvi

Mavzu	YI/EUning tegişli mazmuniy talablari	Baholaş natijasi
Havo sifati	Atmosfera havosi sifati böyiça yöriqnomalar	Havo sifatini baholaşda milliy standartlar va Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti (JSST/WHO) qöllanmalariga qöşimça ravişda YI/EUning 2008/50/EC-son yöriqnomasidagi tegişli atmosfera havosi sifati standartlari qöllangan.
Şovqin	Atrof-muhitdagi şovqin töğrisidagi yöriqnoma tamoyillari	Şovqinni baholaş xalqaro amaliyot asosida ötkazilgan. Aeroportning foydalaniş bosqiçi uçun YTTB/EBRDning 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabidagi mazmuniy qoidalar hamda YI/EUga muvofiq tegişli yaxşi amaliyot asosida Şovqinni nazorat qiliş va kamaytiriş rejasi doiraviy dasturi tayyorlanadi.
Suv	Suv böyiça doiraviy yöriqnoma tamoyillari	Yerusti suvlarini muhofaza qiliş çoralari kiritilgan.
Çiqindilar	Çiqindilar böyiça doiraviy yöriqnoma	Çiqindilar bilan işlaş ketma-ketligi qabul qilingan, çiqindilarni boşqariş rejasi işlab çiqiladi.
Biologik xilma-xillik	Yaşaş muhitlari va quşlar töğrisidagi yöriqnomalar tamoyillari	Muhim yaşaş muhitini baholaş XMK/IFCning 6-faoliyat standarti asosida ötkazilgan.
Iqlim	YI/EUning iqlimga oid maqsadlari	IG/GHG çiqarilmalarini baholaş va iqlim ta'sirlariga bardöşlilikni aniqlaş işlari yakunlangan.

4.0 Atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni baholaşga yondaşuv

4.1 Baholaş kölami

Aeroport inşootlari va foydalaniş bosqiçidagi faoliyatni baholaş

Asosiy örganiş hududi loyiha egallaydigan maydonni qamrab oladi. U uşbu hududdagi yer, taklif etilayotgan inşootlar, uskunalar, şuningdek, quriliş hamda foydalaniş bosqiçidagi faoliyatni öz içiga oladi. Kiriş yöli ham şular jumlasidandir.

AMITB/ESIAda aeroportning odatiy foydalanişi natijasida yuzaga keladigan foydalaniş bosqiçidagi ta’sirlar baholanadi. Şuningdek, oqilona tarzda oldindan köra biliş mumkin bölgan ehtimoliy favqulodda vaziyatlarning atrof-muhit va ijtimoiy oqibatlarini boşqaruv çoralari belgilanadi.

Homiyning loyiha doirasi terminalni qamrab oladigan aeroportning yerusti hududini rivojlantiriş bilan çeklansa-da, AMITB/ESIA loyihaning töliq doirasi uçun ötkazilgan. Bu doiraga davlat hamkori mas’ul bölgan aerodrom hududini rivojlantiriş işlari ham kiradi.

Uşbu hisobotda yuqorida bayon etilganidek, hozir belgilangan rivojlantiriş bosqiçida aeroport dastlab yiliga 20 million yölovçigaça xizmat körsatişga möljallangan. Uzoq muddatda quvvatni qariyb yiliga 46 million yölovçigaça oşiriş imkoniyati dastlabki reja sifatida belgilangan. Biroq bu kengaytiriş joriy rejalaştiriş davridan taşqarida va kelajakdagi yölovçi talabi, me’yoriy ruxsatlar, moliyalaştiriş tartibi hamda batafsil loyiha yeçimlarini işlab çiqiş kabi köp noaniqliklarga boğliq. Şu sababli hozirgi bosqiçda uning amalga oşişi yetarli darajada aniq deb hisoblanmaydi.

Şunga köra, uşbu AMITB/ESIA kölami belgilangan loyiha körsatkiçlari va foydalanişga oid taxminlarga asoslangan dastlabki rivojlantiriş bosqiçi, ya’ni yiliga 20 million yölovçigaça xizmat körsatiş bilan çeklanadi. Uşbu AMITB/ESIAda keltirilgan barça baholaşlar, jumladan, havo kemalari qatnovi, şovqin, havo sifati, ular bilan boğliq ta’sirlar izçillikni ta’minlaş uçun uşbu rivojlantiriş ssenariysiga muvofiqlaştirilgan.

Kelajakdagi kengaytiriş tasdiqlansa, quvvat oşişi bilan boğliq ehtimoliy ta’sirlarni baholaş uçun amaldagi milliy va xalqaro talablarga muvofiq alohida atrof-muhit va ijtimoiy baholaş ötkaziladi.

4.2 Ta’sirni baholaş va ahamiyatlilik mezonlari

Atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlarni işonçli baholaş uçun aniqlangan har bir ta’sir oqibatining ahamiyatlilik darajasini belgilaş jarayoni puxta, izçil, şaffof bölişi kerak. Quyida bayon etilgan usul xalqaro eng yaxşi amaliyotga asoslanadi. Unga köra, resurslar yoki qabul qiluvçi obyektlarga körsatiladigan ta’sir ahamiyati uçta omilning özaro boğliqliği natijasida belgilanadi:

- Ta’sirning tabiati va kölami, ya’ni atrof-muhit, ijtimoiy soha yoki salomatlikning boşlanğiç holatidagi özgariş;
- Ta’sirga uçragan resurslar yoki qabul qiluvçi obyektlarning, ya’ni insonlar va atrof-muhit unsurlarining soni;
- Uşbu resurslar yoki qabul qiluvçi obyektlarning ekologik qiymati yoxud özgarişga sezgirligi.

Atrof-muhit oqibatlarining ahamiyatini belgilaşda quyidagi uç bosqiçli yondaşuv qöllangan:

- 1-bosqiç, resurs yoki qabul qiluvçi obyektning qiymati yoxud sezgirligini baholaş;
- 2-bosqiç, resurs yoki qabul qiluvçi obyektga ta’sir kölamini baholaş;
- 3-bosqiç, oqibatlarning ahamiyatlilik darajasini belgilaş.

Sezgir qabul qiluvçi obyektlarni aniqlaş va baholaş

Sezgir qabul qiluvçi obyektlar quyidagiça ta’riflanadi:

- Tabiiy tizimlarning işlaşi uçun ahamiyatli atrof-muhit unsurlari. Bularga ekologik, landşaft yoki meros qiymatiga ega hududlar va unsurlar, turlar, yaşaş muhitlari va ekotizimlar, tuproq, havo va suv havzalari hamda yerdan foydalaniş tartiblari kiradi;

- ***Inson*** bilan boğliq qabul qiluvçi obyektlar. Bularga manfaatdor tomonlar, ya'ni uy-joylar, dam oliş maskanlari, iş joylari va jamoat obyektlaridan foydalanuvçilar yoki köçiriladigan xonadonlar, şuningdek, mehnat bozori, aholining kasallikka moyilligi va kasallik yuqiş xavfi, kimyoviy moddalarning zaharli ta'siriga uçraş kabi inson tizimlari kiradi.

4.1-jadval. Qabul qiluvçi obyekt yoki resurslarning ekologik qiymati

Sezgirlik	Qiymat tavsifi
Juda yuqori	• Xalqaro miqyosda ahamiyati va noyobligi juda yuqori, almaştiriş imkoniyati çeklangan yoki mavjud emas. • Qabul qiluvçi obyekt yuklama kötara oliş quvvatining çegarasiga yetgan. Şu sababli har qanday qöşimça ta'sir u ta'minlaydigan tizimga haddan ziyod zarar yetkazişi mumkin. Masalan, kasalxona va maktab kabi infratuzilma hamda xizmatlar juda çeklangan yoki umuman mavjud emas, mavjud tabiiy, iqtisodiy yoki mahalliy resurslar esa barça mahalliy aholining tirikçilik manbalarini ta'minlaş uçun yetarli emas. • Körib çiqilayotgan atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirga juda zaif yoki jamiyat uçun öta muhim bölgan joylar yoxud jamoalar, masalan, tub aholi, kasalxonalar, maktablar. • Boşqa misollar qatoriga loyiha hududida zaif guruhlar, ya'ni ayollar, keksa şaxslar, nogironligi bölgan şaxslar, boşqalarning uluşi juda yuqori bölişi; Jinsga köra zöravonlikning juda tez-tez sodir bölişi; ayollarning qaror qabul qiliş va mehnat bozorida iştirok etiş ehtimoli juda past bölişi; xalqaro ahamiyatga ega arxeologik buyumlar yoki BMT/UNning Ta'lim, fan va madaniyat taşkiloti (YUNESKO/UNESCO) röyxatiga kiritilgan jahon merosi obyektlari; xalqaro tadqiqot maqsadlariga hissa qöşadigan moddiy yoki nomoddiy madaniy boyliklar va boşqalar kiradi.
Yuqori	• Milliy miqyosda ahamiyati va noyobligi yuqori, almaştiriş imkoniyati çeklangan. • Qabul qiluvçi obyekt yuklama kötara oliş quvvatining çegarasiga yaqin. Şu sababli qöşimça ta'sir u ta'minlaydigan tizimga sezilarli zarar yetkazişi mumkin. Masalan, jamoat infratuzilmasi va xizmatlari sifatsiz yoki çeklangan, ulardan foydalaniş imkoniyati kam, mavjud tabiiy yoki iqtisodiy resurslarga esa bosim yuqori. • Körib çiqilayotgan atrof-muhit ta'siriga ayniqsa zaif bölgan joylar yoki jamoalar, masalan, turar joy hududlari va zaif yoki çetga surilgan guruhlar. • Boşqa misollarga zaif yoki çetga surilgan guruhlar, ya'ni ayollar, keksa şaxslar, nogironligi bölgan şaxslar, boşqalarning uluşi yuqori bölişi; soğliqni saqlaş amaliyoti qoniqarsiz, ta'lim darajasi past yoki jinoyatçilik darajasi yuqori bölgan joylar; Jinsga köra zöravonlikning tez-tez sodir bölişi; milliy tadqiqot maqsadlariga hissa qöşadigan moddiy yoki nomoddiy madaniy boyliklar va boşqalar kiradi.
Örta	• Mintaqaviy miqyosda ahamiyati va noyobligi yuqori yoki örtaça bölib, almaştiriş imkoniyati çeklangan. • Qabul qiluvçi obyektga allaqaçon sezilarli ta'sir körsatilgan, biroq u yuklama kötara oliş quvvatining çegarasiga yaqin emas. Qöşimça ta'sirlar asosiy tizimga tuşadigan bosimni oşiradi, ammo dalillar tizimning keskin nuqtaga yaqinlaşganini körsatmaydi. Masalan, jamoat infratuzilmasi va xizmatlarida muayyan zaxira quvvat mavjud, muqobil tabiiy yoki iqtisodiy resurslar bor, biroq ular yetarli emas yoki ulardan foydalaniş oson emas. • Körib çiqilayotgan atrof-muhit ta'siriga nisbatan zaif bölgan joylar yoki guruhlar, masalan, tijorat hududlari. • Boşqa misollar qatoriga zaif yoki çetga surilgan guruhlarning örtaça uluşi; Jinsga köra zöravonlikning vaqti-vaqti bilan sodir bölişi; mintaqaviy tadqiqot maqsadlariga hissa qöşadigan moddiy yoki nomoddiy madaniy boyliklar va boşqalar kiradi.
Past	• Mahalliy miqyosda ahamiyati va noyobligi past yoki örtaça. • Qabul qiluvçi obyektga sezilarli ta'sir körsatilmagan va uning yuklama kötara oliş quvvati katta zaxiraga ega. Ta'sirlarning asosiy tizimda sezilarli bosim yuzaga keltiriş ehtimoli past. Masalan, jamoat infratuzilmasi va xizmatlari qoniqarli, tabiiy, iqtisodiy yoki mahalliy resurslar yetarli, biroq ulardan foydalaniş oson emas.

Sezgirlik	Qiymat tavsifi
	• Körib çiqilayotgan atrof-muhit ta'siriga nisbatan zaifligi past bölgan joylar yoki guruhlar, masalan, sanoat hududlari. • Boşqa misollar qatoriga zaif yoki çetga surilgan guruhlar uluşi past bölişi; Jinsga köra zöravonlikning kamdan-kam sodir bölişi; mahalliy tadqiqot maqsadlariga hissa qöşadigan moddiy yoki nomoddiy madaniy boyliklar va boşqalar kiradi.
Juda past	• Mahalliy miqyosda ahamiyati va noyobligi juda past. • Qabul qiluvçi obyektga ta'sir körsatilmagan va uning yuklama kötara oliş quvvati juda katta zaxiraga ega. Ta'sirlarning asosiy tizimda sezilarli bosim yuzaga keltiriş ehtimoli juda past. Masalan, muayyan zaxira quvvatga ega juda yaxşi jamoat in-fratuzilmasi va xizmatlari, şuningdek, oson foydalaniş mumkin bölgan teng qiymatli tabiiy, iqtisodiy yoki mahalliy resurslar mavjud. • Körib çiqilayotgan atrof-muhit ta'siriga nisbatan zaifligi juda past bölgan joylar yoki guruhlar, masalan, sanoat hududlari. • Boşqa misollar qatoriga zaif yoki çetga surilgan guruhlar uluşi juda past bölişi; Jinsga köra zöravonlik sodir bölmasligi; qonun bilan muhofaza qilinmaydigan va mahalliy aholi uçun ahamiyatsiz bölgan moddiy yoki nomoddiy madaniy boyliklar, ya'ni mahalliy aholi uşbu madaniy boylikdan endi foydalanmasligi va boşqalar kiradi.

Ehtimoliy ta'sirlarni aniqlaş va baholaş

Baholaş davomida quyidagi ta'sir turlari körib çiqiladi:

- Bevosita ta'sirlar: loyihaning qurilişi, foydalanişga topşirilişi, foydalaniş bosqiçidagi faoliyati natijasida atrof-muhit yoki ijtimoiy sohadagi qabul qiluvçi obyektga bevosita körsatilişi mumkin bölgan ta'sirlar;
- Bilvosita ta'sirlar: loyiha faoliyatining bevosita natijasi bölmagan, keyinroq yoki loyiha egallaydigan maydondan uzoqroqda, odatda murakkab ta'sir zanjiri orqali yuzaga çiqişi mumkin bölgan ta'sirlar;
- Umumiy ta'sirlar: muayyan harakatning ötmişdagi, hozirgi, kelajakdagi boşqa harakatlar bilan birgalikdagi ta'siri natijasida atrof-muhitda yuzaga keladigan özgarişlar;
- Ijobiy ta'sirlar: sezgir resurslar yoki qabul qiluvçi obyektlarda ijobiy, istalgan yoxud qulay özgarişlarni yuzaga keltiradigan ta'sirlar. Masalan, landşaftda turli turlar uçun sun'iy yaşaş muhitining yaratilişi yoki loyihaning qurilişi yoxud foydalaniş bosqiçlarida iş örinlari yaratilişi;
- Salbiy ta'sirlar: atrof-muhit, ijtimoiy tuzilmalar, resurslar yoki boşqa qabul qiluvçi obyektlarga zarar yetkazadigan ta'sirlar;
- Ikkilamçi ta'sirlar: ehtimoliy bevosita ta'sirlarni kamaytiriş uçun qöllanadigan himoya çoralari natijasida yuzaga kelişi mumkin bölgan ta'sirlar;
- Hodisa bilan boğliq ta'sirlar: yonğin, portlaş, neft tökilişi, şunga öxşaş kutilmagan hodisalardan kelib çiqadigan rejalaştirilmagan yoki tasodifiy ta'sirlar.

Ta'sir kölamini belgilaş

Imkon qadar ta'sir kölami miqdoriy körsatkiçlarda belgilanadi. Ta'sir kölami bir neçta tarkibiy qismdan iborat, jumladan:

- Jismoniy özgariş kölami;
- Atrof-muhit holatidagi özgariş darajasi;
- Ta'sirning doimiyligi va ta'sirga uçragan holatni tiklaş mumkinligi;
- Uning hududiy kölami;
- Uning davomiyligi va takrorlaniş tezligi;
- Ta'sir yuz berişi aniq bölmagan hollarda uning sodir böliş ehtimoli.

Zarur hollarda ta'sir kölamini aniqlaşda kompyuter modellaştirişidan foydalanilgan. Ta'sir kölamini aniqlaş uçun qöllangan mezonlar 4.2-jadvalda keltirilgan.

4.2-jadval. Ta’sir kölamini belgilaş mezonlari

Kölam	Kölam tavsifi
Yirik	Salbiy: resurs yoki uning sifati va yaxlitligi yöqoladi; asosiy xususiyatlar, belgilar yoki unsurlarga jiddiy zarar yetadi. Yirik ta’sir odatda keng kölamli, doimiy, qaytarilmas böladi. Ijobiy: resurs sifati keng kölamda yoki jiddiy yaxşilanadi; keng qamrovli tiklaş yoki yaxşilaniş yuz beradi; xususiyat sifati jiddiy yaxşilanadi.
Örtaça	Salbiy: resursga sezilarli ta’sir körsatadi, biroq uning yaxlitligini buzmaydi; asosiy xususiyatlar, belgilar yoki unsurlar qisman yöqoladi yoxud zarar köradi. Örtaça ta’sirlar odatda maydon çegarasidan taşqariga tarqaladi va köp hollarda doimiy, qaytarilmas yoki jamlama xususiyatga ega böladi. Ijobiy: asosiy xususiyatlar, belgilar yoki unsurlarga foyda keltiradi yoxud ularni töldiradi; xususiyat sifati yaxşilanadi.
Kiçik	Salbiy: xususiyat sifati yoki zaifligida muayyan ölçanadigan özgariş yuz beradi; bir yoki ehtimol bir neçta asosiy xususiyat, belgi yoxud unsur oz miqdorda yöqoladi yoki özgaradi. Kiçik ta’sirlar odatda faqat maydon doirasida seziladi hamda vaqtinça va qaytariladigan böladi. Ijobiy: bir yoki ehtimol bir neçta asosiy xususiyat, belgi yoxud unsurga oz miqdorda foyda keltiradi yoki ularni töldiradi; xususiyatga muayyan ijobiy ta’sir körsatadi yoxud salbiy ta’sir sodir böliş xavfini kamaytiradi.
Ahamiyatsiz	Salbiy: bir yoki bir neçta xususiyat, belgi yoxud unsur ozgina yöqoladi yoki ularda zararli özgariş yuz beradi. Ijobiy: bir yoki bir neçta xususiyat, belgi yoxud unsurga juda oz foyda keltiradi yoki ularni biroz yaxşilaydi.
Özgariş yöq	Xususiyatlar, belgilar yoki unsurlar yöqolmaydi va özgarmaydi; ijobiy ham, salbiy ham kuzatiladigan ta’sir yöq.

4.2.1 Oqibatlarning ahamiyatlilik darajasini belgilaş

Oqibatning ahamiyati qabul qiluvçi obyekt yoki resursning ekologik qiymati, yoxud sezgirligi bilan loyiha ta’siri kölamining, ya’ni özgariş darajasining birikmasi orqali belgilanadi. Boşqaça aytganda, qabul qiluvçi obyektga ta’sir körsatilişi natijasida atrof-muhit oqibati yuzaga keladi. Quyidagi matritsada ta’sirning ehtimoliy kölami va u bilan boğliq qabul qiluvçi obyektning sezgirligi asosida atrof-muhit oqibatlari ahamiyatini belgilaş mezonlari keltirilgan. Har bir ahamiyatlilik toifasiga ham ta’rif berilgan.

Matritsadan körinib turganidek, ayrim hollarda ahamiyatlilik natijasi oraliqni ifodalaydi. Masalan, ta’sir kölami “kiçik” va sezgirlik “juda yuqori” bölsa, ahamiyatlilik darajasi “örtaça yoki yirik” böladi. Bunday hollarda ta’sirning qaysi ahamiyatlilik darajasiga mansubligi mutaxassisning kasbiy mulohazasi asosida belgilanadi.

4.3-jadval. Ta’sir ahamiyatini belgilaş mezonlari

		Ta’sir kölami, ya’ni özgariş darajasi				
		Özgariş yöq	**Ahamiyatsiz**	**Kiçik**	**Örtaça**	**Yirik**
Qabul qiluvçi obyektning sezgirligi	**Juda yuqori**	Neytral	Kiçik	Örtaça yoki yirik	Yirik	Yirik
	Yuqori	Neytral	Kiçik	Kiçik yoki örtaça	Örtaça yoki yirik	Yirik
	Örta	Neytral	Sezilarsiz yoki kiçik	Kiçik	Örtaça	Örtaça yoki yirik
	Past	Neytral	Sezilarsiz yoki kiçik	Sezilarsiz yoki kiçik	Kiçik	Kiçik yoki örtaça
	Juda past	Neytral	Ahamiyatsiz	Sezilarsiz yoki kiçik	Kiçik	Kiçik

4.4-jadval. Ta’sir ahamiyatining ta’rifi

Ahamiyat toifasi	Mezonlar
Yirik (salbiy yoki ijobiy)	• Oqibat keng kölamli bölib, atrof-muhit holatining ança yaxşilanişi yoki yomonlaşişiga olib keladi. Bunday oqibat, odatda, milliy yoki xalqaro ahamiyatga ega joylar hamda xususiyatlarga taalluqli böladi, biroq faqat ular bilan çeklanmaydi. • Salbiy oqibatlar qonunda belgilangan me’yorlardan oşgani sababli nomaqbul deb topilişi mumkin. Ta’siri kamroq loyiha yeçimi yoki joylaşuvga oid muqobil variantlarni körib çiqiş zarurligini aniqlaş uçun qöşimça tadqiqotlar talab etilişi mumkin. Bunday oqibatlar qaror qabul qiliş jarayonidagi asosiy omillardir. • Bunday oqibatlar odatda eng kuçli zararli ta’sirga uçraşi va resurs yaxlitligini yöqotişi mumkin bölgan xalqaro, milliy yoki mintaqaviy ahamiyatga ega joylar yoxud xususiyatlar bilan boğliq böladi, biroq faqat ular bilan çeklanmaydi. Mahalliy ahamiyatga ega joy yoki xususiyatdagi yirik özgariş ham uşbu toifaga kirişi mumkin.
Örtaça (salbiy yoki ijobiy)	• Oqibat mintaqaviy yoki mahalliy miqyosda mavjud atrof-muhitning sezilarli yaxşilanişi yoki yomonlaşişiga olib keladi. • Oqibat salbiy bölsa, loyiha uçun ehtimoliy muammo tuğdiradi va qaror qabul qiliş jarayonida asosiy omilga aylanişi mumkin. • Oqibatlar sezilarli bölsa-da, oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda batafsil loyiha yeçimlari salbiy oqibatni kamaytirişi yoki ijobiy oqibatni kuçaytirişi mumkin. Şunga qaramay, ayrim qoldiq ta’sirlar saqlanib qoladi.
Kiçik (salbiy yoki ijobiy)	• Oqibat kiçik kölamli bölib, mavjud atrof-muhitning ozgina yaxşilanişi yoki yomonlaşişiga olib keladi. • Salbiy oqibatlar istalmagan bölsa-da, qabul qilinişi mumkin. Ular qonunda belgilangan me’yorlar doirasida böladi va qaror qabul qilişda asosiy masalaga aylaniş ehtimoli past. • Bunday oqibatlar uçun oldini oliş va kamaytiriş çoralari har doim ham talab etilmaydi. • Bunday ta’sirlarning jamlama oqibati muayyan hudud yoki resursga körsatiladigan umumiy ta’sirni oşirişi mumkin.

Ahamiyat toifasi	Mezonlar
Ahamiyatsiz	• Loyiha natijasida mavjud atrof-muhitda sezilarli yaxşilaniş yoki yomonlaşiş yuz bermaydi. • Mahalliy masala qaror qabul qiliş jarayonida muhim böliş ehtimoli past. • Oqibatlar qonunda belgilangan me'yorlardan oşmaydi. • Ular loyihaning keyingi yeçimlarini yaxşilaşda hamda oldini oliş va kamaytiriş yoki qoplaş çoralarini körib çiqişda ahamiyatga ega.
Neytral	• Oqibat yöq yoxud u idrok etiş darajasidan past, odatiy özgariş doirasida yoki oldindan baholaşdagi xato çegarasida böladi. • Oldini oliş va kamaytiriş çoralari talab etilmaydi.

Oqibat ahamiyatini belgilaş yondaşuvi mantiqiy dalillaş, mutaxassisning kasbiy mulohazasi hamda tegişli tartibga soluvçi organlar va taşkilotlarning maslahatlari va qaraşlarini hisobga olişga tayanadi. Ayrim texnik yönalişlarda bu daraja imkon qadar mahalliy, milliy yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan standartlar bilan qiyoslaş orqali belgilanadi. Standartlar mavjud bölmasa, zaruratga qarab qöllanmalar yoki eng yaxşi amaliyot asosida loyihaga xos me'yorlarni işlab çiqiş kerak.

4.2.2 Oldini oliş, kamaytiriş, boşqaruv çoralari

AMITB/ESIA jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri loyihani rivojlantiriş natijasida yuzaga kelişi mumkin bölgan sezilarli ta'sirlarning oldini oliş yoki ularni kamaytirişning amaliy yöllarini aniqlaşdir. Bu yöllar AMITB/ESIA hisobotida oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari sifatida keltirilgan. Tegişli tomonlar ularni kelgusida tayyorlaydigan quriliş bosqiçi uçun salomatlik, xavfsizlik, ijtimoiy masalalar, atrof-muhitni boşqariş tizimiga, şuningdek, foydalaniş bosqiçi uçun tuziladigan şunday tizimga ham töliq kiritişi kerak. Bu çoralar sezilarli salbiy ta'sirlarning oldini oliş, ularni amalda mumkin bölgan eng past darajagaça kamaytiriş yoki boşqarişga qaratilgan. Ular, şuningdek, loyihaning ehtimoliy ijobiy ta'sirlarini kuçaytiriş va imkon qadar oşirişga xizmat qiladi. Quyidagi ketma-ketlik qöllanadi: oldini oliş > kamaytiriş > tiklaş > qoplaş.

Oldini oliş va kamaytiriş çoralarini aniqlaş hamda loyihaga kiritiş yondaşuvi qarorlar va çoralarning odatiy ketma-ketligiga asoslanadi. Maqsad, imkon qadar, ta'sir yuz berganidan keyin tiklaş işlarini ötkaziş emas, balki ehtimoliy ta'sirning manbasida oldini oliş yoki uni kamaytirişdir.

4.2.3 Qoldiq ta'sir

AMITB/ESIAning qoldiq ta'sirlar bölimida loyiha yeçimiga oldindan kiritilmagan oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari amalga oşirilganidan keyin ta'sirlarning umumiy ahamiyati körib çiqiladi. Qoldiq ta'sirlarning ahamiyati yuqorida keltirilgan ayni mezonlar asosida qayta baholanadi.

4.2.4 Umumiy ta'sirni baholaş

XMK/IFCning Umumiy ta'sirni baholaş qöllanmasida umumiy ta'sirlar "*biror harakat, loyiha yoki faoliyatning mavjud, rejalaştirilgan yoxud kelajakda amalga oşirilişi oqilona kutiladigan boşqa harakatlar, loyihalar yoki faoliyatlar bilan qöşilganda yuzaga keladigan ketma-ket, bosqiçma-bosqiç yoki birgalikdagi ta'sirlar*" deb ta'riflangan (XMK/IFC, 2013).

Amaliyotda jamlama oqibatlarni baholaş bir qator tamoyillarni hisobga olişni talab qiladi:

- Çegaralararo yoki bir neçta ma'muriy-huquqiy hududni qamrab olişi mumkin bölgan kattaroq, ya'ni "mintaqaviy" hududdagi oqibatlarni baholaş, jumladan, atrof-muhit tarkibiy qismlariga ta'sir qiladigan tabiiy özgarişlar va inson faoliyatidan kelib çiqadigan oqibatlar;
- Ötmiş va kelajakni qamrab oladigan uzoqroq davrdagi oqibatlarni baholaş;
- Faqat körib çiqilayotgan yagona harakat oqibatlarini emas, balki boşqa harakatlar bilan özaro ta'sir tufayli muhim ekologik tarkibiy qismlar (METQ/VEC)ga körsatiladigan oqibatlarni ham baholaş;
- Ahamiyatlilik darajasini baholaşda mahalliy va bevosita oqibatlar bilangina çeklanmay, boşqa oqibatlarni ham hisobga oliş.

5.0 Manfaatdor tomonlarni jalb etiş

5.1 Tatbiq etiladigan talablar va standartlar

5.1.1 Milliy standartlar

5.1.1.1 Milliy Atrof-muhitga ta'sirni baholaş jarayonida jamoatçilik iştiroki

Milliy AMTB/EIA jarayoniga oid qonunçilikdagi özgarişlarga köra, jamoatçilik bilan maslahatlaşuv endi milliy AMTB/EIA jarayonining I bosqiçida majburiy tarkibiy qism hisoblanadi.

Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi "AMTB/EIA mexanizmini yanada takomillaştiriş töğrisida"gi 541-son qaroriga köra, jamoatçilik bilan maslahatlaşuv ötkaziş tartibi quyidagiça:

- 541-son qarorning 3-ilovasida bayon etilgan jamoatçilik bilan maslahatlaşuv ötkaziş qoidalari va me'yorlariga köra, maslahatlaşuvlar atrof-muhitga salbiy ta'sir körsatişi mumkin bölgan rejalaştirilayotgan faoliyat, ya'ni har qanday obyekt qurilişi yuzasidan muhokama va qaror qabul qiliş jarayonini qamrab olişi kerak.
- Milliy toifalaş talablariga muvofiq I va II guruhlarga kiritilgan har qanday rejalaştirilayotgan loyiha faoliyati uçun TBQB/NTS tayyorlanişi kerak. TBQB/NTS quyidagi ma'lumotlarni öz içiga olişi kerak:
    - Loyihaning qisqaça tavsifi;
    - Loyiha uçun texnologik yeçimlar va muqobil variantlar;
    - Tanlangan loyiha maydonidagi atrof-muhitning joriy holati;
    - Ijtimoiy-iqtisodiy şaroitlarning qisqaça bahosi;
    - Loyiha natijasida atrof-muhitga yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarning sabablari va turlarini qisqaça tavsiflaş;
    - Atrof-muhit holati va ijtimoiy-iqtisodiy şaroitlardagi kutilayotgan özgarişlarni oldindan aniqlaş va baholaş;
    - Loyihaga oid va u bilan boğliq bölmagan kutilayotgan xavflarni oldindan aniqlaş va baholaş;
    - Salbiy ta'sirlarning oldini oliş, ularni kamaytiriş yoki qoplaş çoralari;
    - Ehtimoliy sezilarli salbiy çegaralararo ta'sirlarni baholaş.
- Jamoatçilik bilan maslahatlaşuv TBQB/NTSni körib çiqişga asoslanişi hamda barça iştirokçilarga öz xavotirlari, fikrlari, takliflarini bildiriş uçun teng huquq berişi kerak.
- Quyidagi tomonlar jamoatçilik bilan maslahatlaşuv iştirokçilari sifatida körib çiqilişi kerak:
    - Jamoatçilik bilan maslahatlaşuvlarda kuzatuvçi sifatida qatnaşadigan Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qiliş davlat qömitasining mahalliy bölinmalari vakillari.
    - Yiğilişlarni taşkil etiş va iştirokçilarni taklif qiliş uçun mas'ul mahalliy hokimiyat organlari;
    - NNT/NGO;
    - Barça manfaatdor tomonlar;
    - Mahalliy jamoalar;
    - Ommaviy axborot vositalari.
- Jamoatçilik bilan maslahatlaşuvga oid har qanday xarajatlarni loyiha taşabbuskori qoplaydi. "Yer uçastkalarini jamoat ehtiyojlari uçun zararni qoplaş şartida olib qöyiş tartib-taomillari töğrisida"gi 781-son qonunga muvofiq, loyihani amalga oşiriş natijasida jismoniy yoki iqtisodiy köçirişga uçraşi mumkin bölgan LTŞ/PAP bilan mazmunli maslahatlaşuv ötkazilişi kerak.

5.1.1.2 Jamoatçilik şikoyatlarini körib çiqiş

728-son qarorda jamoatçilikning keng doiradagi şikoyatlarini hal qiliş uçun markazlaştirilgan şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi nazarda tutilgan. Uşbu tizim mamlakat böylab aholining şikoyatlarini töplaşga möljallangan, jamoatçilik uçun oçiq onlayn maydonçaga tayanadi. Portal jamoatçilikning har bir a'zosiga mahalliy va markaziy

davlat hokimiyatining turli sohalaridagi organlarga şikoyat yuboriş imkonini beradi. Şikoyatni hal qiliş haqidagi ariza ijro hokimiyati tizimidagi istalgan organga yuborilişi mumkin. Murojaat qilingan organ şikoyatni dastlab körib çiqqaç, uni keyingi körib çiqiş va tuzatiş çoralari uçun eng tegişli mahalliy davlat hokimiyati organiga yuboradi. Şikoyat öşa darajada hal qilinmasa, vakolatli organ tegişli ijro qarorini çiqarguniga qadar u ma'muriy tuzilma böylab ketma-ket yuqori darajalarga yuboriladi.

Bundan taşqari, Özbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrdagi "Jismoniy va yuridik şaxslarning murojaatlari töğrisida"gi 378-son qonuni, 2017-yil 17-avgustda kiritilgan özgartirişlar bilan birga, jismoniy va yuridik şaxslarning davlat taşkilotlari hamda ularning mansabdor şaxslari bilan muloqot qilişi uçun huquqiy asos yaratadi. Uşbu qonunga köra, jismoniy va yuridik şaxslar şikoyat va murojaatlarini istalgan şaklda, ya'ni oğzaki, yozma yoki elektron tarzda yuborişi mumkin. Murojaatlar kelib tuşgan kundan boşlab 15 kun içida körib çiqilişi kerak. Qöşimça örganiş talab qilinsa, javob bir oy içida yuborilişi kerak.

5.1.2 Kreditorlar talablari

Loyiha birgalikda "kreditorlar" deb yuritiladigan xalqaro taraqqiyot moliya muassasalari guruhidan mablağ jalb qilişni rejalaştirmoqda. Ular qatoriga XMK/IFC, YTTB/EBRD, AQŞ XTMK/DFC, YXHB/JBIC, NEIST/NEXI hamda KEIB/KEXIM kiradi. Kreditorlar mezonlariga muvofiq manfaatdor tomonlarni jalb etiş talablari keyingi bölimlarda bayon etilgan.

5.1.3 Xalqaro moliya korporatsiyasi faoliyat standartlari

Manfaatdor tomonlarni jalb etiş XMK/IFC faoliyat standartlarining asosiy talablaridan biridir. Bu talab avvalo 1-faoliyat standartida, qöşimça majburiyatlar esa 2-8-faoliyat standartlarida belgilangan. Şu sababli loyiha bu aholi va taşkilotlarni uşbu talablarga muvofiq jalb qiladi. XMK/IFCning "Atrof-muhit va ijtimoiy baholaş hamda boşqaruv tizimlari" töğrisidagi 1-faoliyat standartida manfaatdor tomonlarni jalb etiş talablari batafsil bayon etilib, quyidagilar belgilangan:

"Manfaatdor tomonlarni jalb etiş loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarini muvaffaqiyatli boşqariş uçun zarur bölgan mustahkam, konstruktiv, tezkor munosabatlarni qurişga asos böladi. Manfaatdor tomonlarni jalb etiş muntazam jarayon bölib, u turli darajada quyidagi unsurlarni öz içiga olişi mumkin:

- Manfaatdor tomonlarni tahlil qiliş va rejalaştiriş;
- Axborotni oşkor qiliş va tarqatiş;
- Maslahatlaşuv va qatnaşuv;
- Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi;
- Ta'sirlangan jamoalarga muntazam hisobot beriş.

Manfaatdor tomonlarni jalb etişning xususiyati, takroriyligi, sarflanadigan sa'y-harakat darajasi sezilarli farq qilişi mumkin. Ular loyihaning xavflari, salbiy ta'sirlari, rivojlaniş bosqiçiga mutanosib böladi".

XMK/IFC faoliyat standartlariga köra, ta'sirlangan jamoalar loyihaning aniqlangan xavflari va salbiy ta'sirlariga uçrasa, loyiha taşabbuskori yoki buyurtmaçi ular bilan maslahatlaşuv ötkazadi. Bu jarayon jamoalarga loyiha xavflari, ta'sirlari hamda oldini oliş va kamaytiriş çoralari yuzasidan fikr bildiriş, buyurtmaçiga esa ularni körib çiqiş va javob beriş imkonini yaratişi kerak. Samarali maslahatlaşuv quyidagilarni ta'minlaydigan ikki tomonlama jarayondir:

- Atrof-muhit va ijtimoiy xavflar hamda ta'sirlarni aniqlaş jarayonining ilk bosqiçida boşlanişi va xavf hamda ta'sirlar yuzaga kelgani sari muntazam davom etişi;

- Tegişli, şaffof, xolis, mazmunli va foydalaniş oson bölgan axborotni oldindan oşkor qiliş va tarqatişga asoslanişi. Bunda axborot madaniy jihatdan maqbul mahalliy til yoki tillarda, tegişli şaklda, ta'sirlangan jamoalar uçun tuşunarli bölişi;
- Barçani qamrab oladigan jalb qiliş jarayonini bevosita ta'sirlanmaganlarga emas, bevosita ta'sirlanganlarga qaratişi;
- Taşqi aldov, aralaşuv, majburlaş yoki qörqitişdan xoli bölişi;
- Tegişli hollarda mazmunli qatnaşuvga imkon yaratişi;
- Hujjatlaştirilişi.

5.1.4 Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki

YTTB/EBRD moliyalaştiradigan barça loyihalar YTTB/EBRDning 2024-yildagi Atrof-muhit va ijtimoiy siyosati talablariga muvofiq amalga oşirilişi kerak. Uşbu siyosat loyihalar rioya etişi kerak bölgan atrof-muhit va ijtimoiy barqarorlikning asosiy sohalariga oid ön (10) ta talabni, jumladan manfaatdor tomonlarni jalb etişga oid 10-atrof-muhit va ijtimoiy talabni öz içiga oladi.

YTTB/EBRD loyihalarning atrof-muhit va ijtimoiy xavflari hamda ta'sirlarini boşqariş uçun barça manfaatdor tomonlarni qamrab oluvçi va uzluksiz jalb qiliş jarayonlarini qöllaş tarafdoridir. Bu jarayon quyidagi unsurlarni qamrab oladi: (i) manfaatdor tomonlarni aniqlaş va tahlil qiliş; (ii) manfaatdor tomonlarni jalb etişni rejalaştiriş; (iii) axborotni oşkor qiliş; (iv) mazmunli maslahatlaşuv; (v) samarali şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini joriy etiş; (vi) tegişli manfaatdor tomonlarga muntazam hisobot beriş. Manfaatdor tomonlarni jalb etiş loyihani rejalaştirişning eng dastlabki bosqiçida boşlanişi va loyihaning butun faoliyat muddati davomida davom etişi kerak.

Mazmunli va samarali maslahatlaşuvni ta'minlaş uçun tegişli manfaatdor tomonlarni puxta aniqlaş, ularning xususiyatlarini hisobga oliş hamda xavotirlari, kutişlari va özlari tanlagan yondaşuvlarni körib çiqiş muhimdir. YTTB/EBRDning 10-atrof-muhit va ijtimoiy talabiga köra, buyurtmaçi muayyan şaroitlari sababli noqulay ahvolda yoki zaif bölişi mumkin bölgan, loyiha ta'siriga uçragan tomonlarni, ya'ni alohida şaxslar yoki guruhlarni aniqlaşi kerak. Zaif guruhlarni jalb qiliş tegişli tarzda rejalaştirilişi va alohida e'tibor bilan boşqarilişi kerak.

Bundan taşqari, YTTB/EBRD loyiha taşabbuskoridan loyiha xavflari va ta'sirlariga mutanosib samarali şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini örnatiş va saqlaşni talab qiladi. Bu mexanizm manfaatdor tomonlar bildirgan har qanday muammo va şikoyatning öz vaqtida qabul qilinişi hamda körib çiqilişini ta'minlaşi kerak. Loyiha taşabbuskori manfaatdor tomonlarni jalb etiş jarayonlari va şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi samaradorligini ham kuzatib boradi. Manfaatdor tomonlarga oldini oliş va kamaytiriş çoralari oşkor qilinişini ta'minlaş uçun manfaatdor tomonlarni jalb etiş rejasi (MTJER/SEP) loyiha faoliyati davomida yuz beradigan barça özgarişlar yuzasidan ularni jalb qiliş qoidalarini ham öz içiga olişi kerak.

YTTB/EBRD, şuningdek, loyihalar böyiça mustaqil hisobdorlik mexanizmini taşkil etgan. Uşbu mexanizm quyidagilarga möljallangan:

- Loyihadan ta'sirlangan şaxslar va fuqarolik jamiyati taşkilotlari kötargan ijtimoiy, ekologik hamda axborotni oşkor qilişga oid muammolarni hal qilişga yordam beriş;
- Manfaatdor tomonlar örtasidagi muloqotga yordam beriş;
- Bankning öz Atrof-muhit va ijtimoiy siyosatiga (AMIS/ESP) rioya etgan-etmaganini baholaş. Mazkur mexanizm bu siyosat talablariga rioya etmaslik holatlarini bartaraf qilişga va bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olişga yordam beradi.

5.2 Manfaatdor tomonlarni aniqlaş va tahlil qiliş

Manfaatdor tomonlar qamrovni belgilaş matritsasi va AMITB/ESIAni tayyorlaş jarayonida tizimli ravişda aniqlangan. Ularni jalb qiliş loyihaning butun faoliyat muddati davomida davom etadi. Aniqlangan manfaatdor tomonlar uçta asosiy toifaga ajratilgan:

- Ta'sirlangan manfaatdor tomonlar **(A)**: loyihaning bir yoki bir neçta ehtimoliy ta'siriga bevosita yoki bilvosita uçraşi mumkin bölgan alohida şaxslar yoki guruhlar.[4][5][6]
- Manfaatga asoslangan manfaatdor tomonlar **(I):** loyiha belgilagan har qanday tartib-taomildan manfaatdor tomonlar, loyiha naf oluvçilari, milliy va xalqaro nodavlat notijorat taşkilotlari hamda fuqarolik jamiyatiga aloqador aholi va taşkilotlar. Ular ta'sirlangan hududda joylaşmagan va salbiy ta'sirga uçramagan bölişi ham mumkin.
- Qaror qabul qiluvçi manfaatdor tomonlar (D): loyihani rivojlantiriş, moliyalaştiriş yoki nazorat qilişda iştirok etadigan tomonlar, jumladan tartibga soluvçi organ, ya'ni EQ/NCECC.
- Zaif guruhlar: zaif guruhlar ijtimoiy-iqtisodiy boşlanğiç holat va manfaatdor tomonlarni xaritalaş jarayoni orqali aniqlanadi. Ular qatoriga yoşi, jinsi, nogironligi, etnik kelib çiqişi, dini, ijtimoiy mavqeyi, köçirilişi yoki iqtisodiy zaifligi sababli nomutanosib ta'sirga uçraydigan şaxslar kirişi mumkin. Ularning xavotirlari va fikrlari mazmunli eşitilişi hamda hisobga olinişini ta'minlaş uçun umumiy ta'sirlangan manfaatdor tomonlardan farqli yondaşuv qöllanadi. Ular xonadon darajasidagi maslahatlaşuvlar, masalan ayollar bilan alohida maqsadli guruh muhokamalari, yakka tartibdagi uçraşuvlar, qulay axborot şakllari hamda ular uçun qulay vaqt va joylardagi tadbirlar orqali jalb qilinadi.

Aniqlangan manfaatdor tomonlarning barça toifalari bilan özaro aloqalarini tizimli yönaltiriş, şuningdek, muloqotning tuzilmali, izçil, manfaatdor tomonlarning ehtiyojlariga tezkor javob beradigan bölişini ta'minlaş uçun manfaatdor tomonlarni jalb etişning keng qamrovli matritsasi işlab çiqilgan.

5.1-jadval. Manfaatdor tomonlarni aniqlaş

Ma'muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
Davlat taşkilotlari va organlari			
Davlat organlari, jumladan vazirliklar va agentliklar	EQ/NCECC	**D:** Milliy AMTB/EIAni körib çiqqaç, ekologik ruxsatnoma beriş uçun mas'ul organ. Loyiha hududi va ta'sirlangan hududlardagi biologik xilma-xillik hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar haqida ma'lumot beradi. Bundan taşqari, Qömita milliy AMTB/EIA doirasidagi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlaşuv bayonnomalarining	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.

[4]Loyihaning ehtimoliy atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlari AMITB/ESIA doirasida aniqlangan va baholangan. Ular havo sifati, şovqin, tuproq va yer osti suvlari, quruqlik ekologiyasi, manzara va köriniş, qattiq çiqindilar va oqova suvlarni boşqariş, arxeologiya va madaniy meros, ijtimoiy-iqtisodiy şaroitlar, mahalliy aholi salomatligi, xavfsizligi va himoyasi, inson huquqlari, mehnat va iş şaroitlari hamda iqlim bilan boğliq masalalarni qamrab oladi.

[5] Bevosita ta'sirga uçragan manfaatdor tomonlar yoki guruhlar deganda loyiha ta'siriga uçragan hamda doimiy e'tibor talab qiladigan şaxslar yoki guruhlar tuşuniladi. Bunda zaiflik, loyiha bosqiçlari, madaniy va ijtimoiy şaroit hamda voqealar kabi özaro boğliq omillar tahlili hisobga olinadi.

[6] Bilvosita ta'sirga uçragan manfaatdor tomonlar deganda loyihaning bevosita ta'sirini sezmasligi mumkin bölgan şaxslar, guruhlar yoki jamoalar tuşuniladi. Ularga loyiha bilvosita ta'sir qilişi mumkin bölgan resurslar yoki xizmatlarga tayanadigan qöşni jamoalar, tadbirkorlik subyektlari va sanoat tarmoqlari kirişi mumkin. Loyiha rejalaştiriş va amalga oşiriş bosqiçlarida ularning manfaatlari, muammolari hamda qaraşlarini ham hisobga olişi kerak.

Ma’muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
		talablarga muvofiqligini tekşiradi.	
	Transport vazirligi	**D**: davlat hamkori. U loyihani amalga oşiriş va Özbekiston Respublikasi hukumati nomidan qaror qabul qiliş uçun mas’ul. Bundan taşqari, loyiha uçun yerlarni oliş jarayonlarida ham iştirok etadi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Suv xöjaligi vazirligi	**D**: suv obyektlarining turlari, jumladan daryo, kanal, hovuzlar haqida ma’lumot beradi, himoya oraliği hududlarini hamda quriliş işlari davomida rioya etiladigan talablarni belgilaydi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Soğliqni saqlaş vazirligi	**I**: loyiha hududidagi qabristonlarni köçiriş usuli va bunda amal qilinadigan sanitariya qoidalaridan manfaatdor bölişi mumkin.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Özbekiston Respublikasi Mehnat va ijtimoiy ta’minot vazirligi	**I:** loyihada bandlik, mehnat va iş şaroitlari hamda boşqa şunga öxşaş masalalar qanday hal qilinişidan manfaatdor bölişi mumkin.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Fanlar akademiyasi, Arxeologiya instituti	**D**: loyihadan ta’sirlangan hududlardagi moddiy va nomoddiy madaniy meros haqida ma’lumot beradi. Madaniy meros obyektlarining milliy röyxati uçun arxeologik tadqiqotlar ötkazadi va loyiha uçun zarur bölsa, quriliş işlariga doir xulosa yoki texnik şartlarni beradi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti	**I**: biologik xilma-xillik haqida ma’lumot beradi va muayyan ösimlik turlari hamda yaşaş joylari böyiça zarur bölsa, boşlanğiç holat tadqiqotlariga texnik yordam körsatadi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti	**I**: biologik xilma-xillik haqida ma’lumot beradi va muayyan hayvon turlari hamda yaşaş joylari böyiça zarur bölsa, boşlanğiç holat tadqiqotlariga texnik yordam körsatadi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Avtomobil yöllari qömitasi	**I**: loyihadan ta’sirlangan hududlardagi mavjud yöllar töğrisida ma’lumot beradi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Özbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat	**D**: amaldagi qoidalarga muvofiq loyiha va uning obyektlari uçun sanitariya-muhofaza hududi ölçamini belgilaydi. Qabristonlarni köçiriş yuzasidan, jumladan salomatlik va xavfsizlik nuqtayi nazaridan xulosa beradi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.

Ma’muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
	salomatligi xizmati		
	Madaniy meros agentligi	**I**: loyihadan ta’sirlangan hududlardagi moddiy va nomoddiy madaniy meros töğrisida ma’lumot beradi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; telefon qöngiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Özaviatsiya/CAA	**D**: yangi aeroportni taşkil etişda rioya qilinadigan asosiy talablarni, jumladan xavfsizlik çoralari va himoya oraliği hududlarini, şuningdek qöllanadigan qonunçilik asoslarini taqdim etadi.	Rasmiy yozişmalar; Ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qöngiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
Mahalliy davlat hokimiyati organlari	Toşkent viloyati hokimligi	**D:** mintaqaviy rejalaştiriş va rivojlantiriş loyihalarini ma’muriy boşqariş uçun mas’ul organ. Bir qator boşqa mintaqaviy va mahalliy davlat organlari bilan işlaşdan oldin maslahat qilinadigan yuqori turuvçi mintaqaviy organdir. Hokimlik loyiha qurilişi töğrisida qaror çiqaradi va yer ajratilişini tasdiqlaydi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qöngiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Yangiyöl tumani hokimligi	**D:** tuman darajasida rivojlantiriş loyihalarini rejalaştiradi va ma’muriy boşqaradi. Hokimlikning asosiy bölimlari bilan maslahatlaşuv ötkaziş hamda mahalliy jamoalar bilan uçraşuvlar taşkil etişga yordam berişi mumkin. Hokimlik ta’sirga uçragan ijaraçilarning ijara şartnomalarini bekor qiladi va yerni loyihaga ajratiş uçun davlat zaxirasiga qaytaradi. Şuningdek, hokimlik Sanitariya xizmati qaroriga muvofiq ta’sirlangan qabristonlar yuzasidan qaror çiqaradi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; telefon qöngiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Kadastr agentligining Toşkent viloyati boşqarmasi	**D:** loyiha hududi va uning yaqinidagi qişloq xöjaligi yerlari egalari haqidagi ma’lumotlarni yuritiş uçun mas’ul organ. Agentlik hokimlik qarori bilan loyihaga ajratilgan yer uçastkalarini loyiha nomiga röyxatdan ötkazadi va mavjud kadastr xaritalarini şunga muvofiq özgartiradi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qöngiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining Toşkent viloyati boşqarmasi	**D:** yer çegaralari, mulkiy huquqlar, tegişli huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi. Yer uçastkalarini huquqiy tekşiradi, ularning kimga tegişli ekanini va mulkiy huquqlar mavjudligini aniqlaydi; loyiha uçun zarur topografik ma’lumotlar, relyef, hududiy tadqiqotlarni taqdim etadi hamda mavjud inşootlarni aniqlaşga yordam beradi; bundan taşqari, davlat zaxirasiga qaytarilgan yerni röyxatdan ötkazadi va keyinçalik uni loyihaga ajratişni ta’minlaydi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qöngiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.

Ma’muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
	Toşkent viloyati Arxitektura va quriliş boşqarmasi	**I:** mavjud binolar, inşootlar, yer osti va yerusti aloqa tarmoqlari, jumladan, elektr, gaz, suv hamda boşqa infratuzilma töğrisida ma’lumot beradi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Toşkent viloyati Qişloq xöjaligi boşqarmasi	**I:** qişloq xöjaligi yerlari haqida ma’lumot beradi; loyiha hududida qişloq xöjaligi maqsadida foydalanilayotgan yer uçastkalarining huquqiy maqomi, unumdorligi, iqtisodiy ahamiyatini baholaydi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Çirçiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boşqarmasi	**D:** suğoriş infratuzilmasidan foydalaniş va unga texnik xizmat körsatişga oid qonun hamda qoidalarni ijro etiş uçun mas’ul. Loyiha hududidagi mavjud suğoriş suvi ta’minoti obyektlari haqida ma’lumot beradi va rioya etiladigan himoya oraliği hududlarini belgilaydi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	Toşkent viloyati Turizm va madaniy meros boşqarmasi	**D:** loyiha hududida madaniy meros obyektlari mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida ma’lumot beradi. Ta’sirlangan qabristonlar milliy ahamiyatga ega madaniy obyekt sifatida röyxatga olingan bölsa, ularni köçiriş uçun ruxsat talab qilinadi.	Rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar; Telefon qönğiroği yoki videoaloqa orqali maslahatlaşuvlar.
	“Toşkent hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati	**I:** elektr infratuzilmasidan foydalaniş va unga texnik xizmat körsatişga oid qonun hamda qoidalarni ijro etiş uçun mas’ul taşkilot. Loyiha hududi va uning yaqinidagi mavjud elektr ta’minoti obyektlari haqida ma’lumot beradi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	“Hududgaz Toşkent” gaz ta’minoti filiali	**I:** gaz ta’minoti infratuzilmasidan foydalaniş va unga texnik xizmat körsatişga oid qonun hamda qoidalarni ijro etiş uçun mas’ul taşkilot. Loyiha hududi va uning yaqinidagi mavjud gaz ta’minoti obyektlari haqida ma’lumot beradi. Loyiha hududi yaqinida quvurlar mavjud bölsa, quriliş uçun himoya oraliği hududlari va texnik şartlarni taqdim etadi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Toşkent viloyati Yöl qurilişi boşqarmasi	**I:** yöllar va ular bilan boğliq infratuzilmadan foydalaniş hamda unga texnik xizmat körsatişga oid qonun va qoidalarni ijro etiş uçun mas’ul taşkilot. Loyiha hududi va uning yaqinidagi mavjud yöl infratuzilmasi haqida ma’lumot beradi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Toşkent viloyati Soğliqni saqlaş boşqarmasi boşliği	**I:** jamoat salomatligi va xavfsizligiga oid qonun hamda qoidalarni ijro etiş uçun mas’ul taşkilot.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.

Ma’muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
	Toşkent viloyati Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi	**D:** jamoat salomatligi va xavfsizligiga oid qonun hamda qoidalarni amalga oşiriş uçun mas’ul idora. Sanitariya, salomatlik, xavfsizlik himoya hududlarini belgilaydi. Toşkent viloyati boşqarmasi ta’sirlangan qabristonlarni köçiriş mumkinligi, jumladan zarur salomatlik va xavfsizlik tartiblari haqida xulosa beriş uçun tegişli materiallarni töplaş va tavsiya tayyorlaşda respublika boşqarmasiga yordam beradi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Özbekiston Mahallalari uyuşmasining Toşkent viloyati boşqarmasi	**I:** Aholi bilan oçiq muloqotni yölga qöyadi. Loyiha faoliyati ta’sir qiladigan aholi punktlari fuqarolarini quriliş işlari haqida xabardor qiladi, ularning takliflari va har qanday xavotirlarini örganişga yordam beradi. Aholi bilan muloqot qiladi va axborot taqdim etadi.	Rasmiy yozişmalar, ikki tomonlama uçraşuvlar, telefon qöngiroği yoki videoqöngiroqlar.
	Fuqarolarning özini özi boşqariş organlari faoliyatini muvofiqlaştiriş böyiça viloyat kengaşi		Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	“Nuroniy” jamğarmasining Toşkent viloyati bölimi		Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Din işlari böyiça qömitaning Toşkent viloyati boşqarmasi	**D:** loyiha hududidagi ta’sirlangan qabristonlarni köçiriş mumkin yoki mumkin emasligi haqida qaror beradi**.**	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Özbekiston musulmonlari idorasining Toşkent viloyati vakilligi	**I:** Din işlari böyiça qömitaga böysunuvçi taşkilot bölib, zarur bölsa qabristonlarni köçirişga yordam beradi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Toşkent viloyati fermer, dehqon xöjaliklari va tomorqa yer egalari kengaşi	**I:** fermerlar, dehqonlar, tomorqa yer egalari bilan muloqotni yengillaştiradi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
Nodavlat notijorat taşkilotlari			
NNT/NGO	Ekologiya harakati (Özbekiston ekologik harakati)	**I:** atrof-muhit muammolarini hal etişda aholining fuqarolik faolligini oşirişga kömaklaşadi.	Zarur bölsa, rasmiy yozişmalar va ikki tomonlama uçraşuvlar.
	Ekosan	**I:** Özbekistonning ekologik holatini yaxşilaşga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oşiradi.	
	Istiqbolli avlod	**I:** zöravonlikning barça şakllari va jamiyatdagi nizolarni bartaraf etiş, odam immunitet tanqisligi virusi (OIV/HIV) va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromining (OITS) oldini oliş, bolalar	

Ma’muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
		huquqlarini himoya qiliş hamda odam savdosining oldini olişga qaratilgan faoliyatni amalga oşiradi.	
	Yuksak salohiyat	**I:** kuçli fuqarolik jamiyatini şakllantirişda fuqarolarning huquq va erkinliklardan foydalanişga oid taşabbuslarini rivojlantiriş va qöllab-quvvatlaşga kömaklaşadi.	
	“Qalb mehri” ayollar va ularning oilalarini ijtimoiy-huquqiy qöllab-quvvatlaş markazi	**I:** erkaklar va ayollarning teng huquqliligini tarğib qiladi hamda Jinsga köra zöravonlikdan jabr körganlarni qöllab-quvvatlaydi.	
	Inson huquqlari, madaniy meros, jamoalar bilan işlovçi NNT/NGO	**I:** madaniyatni saqlaş yoki jamoa huquqlariga e’tibor qaratadigan taşkilotlar bilan, ayniqsa inson huquqlari yoki madaniy ta’sirlar yuzasidan xavotirlar mavjud bölsa, maslahatlaşuv talab etilişi mumkin. Şuningdek, mahalliy jamoa guruhlari muloqotni yengillaştirişi va ta’sirlangan aholi fikrlarining yetarli darajada ifodalanişini ta’minlaşi mumkin.	Ikki tomonlama uçraşuvlar Telefon qönğiroği yoki videoqönğiroqlar
Loyiha ta’sir qilgan aholi va taşkilotlar			
Loyihadan ta’sirlangan yer egalari va yerdan foydalanuvçilar	Loyihaning ta’sir hududidagi ijaraçilar, yerdan foydalanuvçilar, işçilar, boşqalar	**A:** loyiha natijasida iqtisodiy va jismoniy köçirişga uçraşi mumkin bölgan xonadonlar hamda zaif guruhga mansub LTŞ/PAP.	Axborotni oşkor qiliş böyiça jamoat uçraşuvlari, alohida fermer xöjaligi egalari bilan yuzma-yuz maslahatlaşuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar.
	Turar joy binolari va mol-mulk egalari	**A**: loyiha natijasida jismoniy köçirişga uçraydigan xonadon.	Maslahatlaşuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar, xatlov tadqiqotlari. Axborotni oşkor qiliş böyiça jamoat uçraşuvlari.
	Tijorat subyektlari va ularning işçilari	**A**: loyiha tufayli jismoniy va iqtisodiy köçirişga uçraşi mumkin bölgan tijorat subyektlari operatorlari va işçilar.	Yuzma-yuz suhbatlar, maslahatlaşuvlar, xatlov tadqiqotlari, axborotni oşkor qiliş böyiça jamoat uçraşuvlari.
Mahalliy xizmat operatorlari	Mavjud infratuzilma va muhandislik tarmoqlari operatorlari (kabellar, gaz va suv quvurlari, HEUL/OHTL)	**A:** loyiha qurilişi tufayli inşootlarni köçiriş talab qilinişi mumkin.	Zarur bölsa, maslahatlaşuvlar, iş yozişmalari, joyni közdan keçiriş, xatlov tadqiqotlari.
Bevosita ta’sirlangan jamoalar	Yangitoş kabi yaqin atrofdagi	**A**: yaqin atrofdagi jamoalardagi qabul qiluvçi obyektlarga quriliş va foydalaniş bilan boğliq şovqin, havoga çiqarilmalar,	Xonadonlar bilan maqsadli guruh muhokamalari va

Ma’muriy tartib	Manfaatdor tomon	Aloqadorlik toifasi va kun tartibi	Maslahatlaşuv usuli
	jamoalarda yaşovçi aholi	transport, mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligi kabi omillar ta’sir körsatişi mumkin.	ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar, asosiy axborot beruvçilar hisoblangan jamoa rahbarlari bilan suhbatlar. Axborotni oşkor qiliş böyiça jamoat uçraşuvlari.
Ta’sirlangan qabristonlarni boşqaruvçi manfaatdor tomonlar			
Loyihadan ta’sirlangan jamoalar	Marhumlarning yaqin qarindoşlari	**A**: marhumlarning oila a’zolari köçiriş jarayoni, jumladan yangi dafn joyiga oid qarorlarni qabul qilişda maslahatlaşuvga jalb etilişi va qatnaşişi şart.	Xavotirlarni hamda qabrni köçiriş yoki uni öz joyida qoldirişga oid maqbul yeçimni aniqlaş uçun yuzma-yuz muhokama.
Işçilar	Qabriston işçilari	**A:** qabriston yangi joyga köçirilsa, qabriston işçilarining tirikçilik manbalariga ta’sir körsatilişi mumkin.	Zaruratga qarab yuzma-yuz maslahatlaşuv va telefon orqali suhbat.
Din peşvolari	Ruhoniylar, imomlar, boşqalar.	**D:** din peşvolari marhumlarning oila a’zolari bilan muloqot jarayoniga rahbarlik qiladi. Qabr bir joydan boşqa joyga köçirilsa, ular tegişli davlat organlari va marhumning yaqin qarindoşlari bilan maslahatlaşgan holda zarur marosim va rasm-rusumlarni amalga oşiradi.	Rioya etiladigan diniy yoki madaniy talablarni muhokama qiliş uçun yuzma-yuz maslahatlaşuv yoki telefon suhbati.
Loyihani moliyalaştiriş			
Moliyaviy kreditorlar	XMK/IFC, YTTB/EBRD, AQŞ XTMK/DFC, YXHB/JBIC, NEIST/NEXI va KEIB/KEXIM.	**D:** loyihaning AMITB/ESIA hujjatlarini, jumladan uşbu MTJER/SEPni tasdiqlaydi va loyihani moliyalaştiradi.	Loyiha böyiça atrof-muhit va ijtimoiy ekspertiza doirasidagi doimiy muloqot

5.2.1 Atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni baholaş bosqiçidagi manfaatdor tomonlarni jalb etiş

Loyiha egallaydigan hudud uçun katta kölamda yer egallaş talab etiladi va bu 5 km lik ta’sir hududidagi jamoalarga ehtimoliy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar keltirib çiqaradi. Xalqaro standartlarga muvofiq mazmunli qatnaşuv va şaffoflikni ta’minlaş maqsadida AMITB/ESIA guruhi manfaatdor tomonlarni jalb etiş böyiça keng kölamli tadbirlar ötkazgan. Jamoalar bilan maslahatlaşuvlar va maqsadli guruh muhokamalari quyidagi mahallalarning manfaatdor tomonlari bilan ötkazilgan: Aranşi, Beruniy, Döstlik, Kim Pen Xva, Kuşek, Surum, Sergeli, Taraqqiyot, Xalqobod, Yangiyöl va Yungiçokli. Bu tadbirlar jismoniy va iqtisodiy köçirişga uçraydigan xonadonlar, zaif guruhlar, şahar va tuman hokimiyati organlari, davlat idoralari, fermerlar uyuşmalari, mahalliy xizmat kör-satuvçilar hamda fuqarolik jamiyati taşkilotlarini qamrab olgan. Tadbirlar jamoalarning xavotirlarini örganiş, tirikçilik manbalariga ehtimoliy ta’sirlarni aniqlaş hamda quriliş va foydalaniş bosqiçlari uçun oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralarini işlab çiqişga asos yaratişga qaratilgan.

Maslahatlaşuvlarda maqsadli guruh muhokamalari, jamoat uçraşuvlari, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqot, uyma-uy taşriflar, onlayn sessiyalardan birgalikda foydalanilgan. Bu tadbirlarning maqsadlari quyidagilardan iborat bölgan:

- Loyiha haqidagi asosiy ma’lumotlar va rejalaştirilgan AMITB/ESIA tadbirlarini yetkaziş.
- Ehtimoliy atrof-muhit, ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlar, ayniqsa yer egallaş, tirikçilik manbalari, infratuzilmadan foydalaniş, jamoa xizmatlariga oid fikr-mulohazalarni töplaş.
- Manfaatdor tomonlarning ustuvor yönalişlari va xavotirlarini, jumladan loyiha foydalariga teng erişiş, zaif guruhlarni himoya qiliş, qişloq xöjaligi işlab çiqarişining uzluksizligini aniqlaş.
- Manfaatdor tomonlarning xavotirlarini bildirişi yoki yordam söraşi uçun qulay aloqa yöllari mavjudligini ta’minlagan holda, loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini tuşuntiriş.
- Loyiha va ta’sirlangan jamoalar örtasidagi işonç, şaffoflik, muammolarni hamkorlikda hal qilişni kuçaytiriş.

5.2.2 Milliy Atrof-muhitga ta’sirni baholaş jarayonidagi manfaatdor tomonlarni jalb etiş

Manfaatdor tomonlarni jalb etiş 2026-yil fevralda milliy AMTB/EIA jarayonining bir qismi sifatida ham amalga oşirilgan. Bu tadbirlar loyiha xalqaro kreditorlarining AMITB/ESIA va MTJER/SEP hujjatlari uçun manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlaridan oldin va ulardan alohida ötkazilgan.

Milliy AMTB/EIA jarayoni amaldagi milliy talablarga muvofiq tegişli mahalliy manfaatdor tomonlar va davlat vakillarini jalb qilişni qamrab olgan. Bundan maqsad taklif etilayotgan loyiha haqida axborot beriş, uning kutilayotgan atrof-muhit va ijtimoiy oqibatlarini taqdim etiş hamda manfaatdor tomonlar va ehtimoliy ta’sirlangan jamoalarga taklif etilayotgan loyiha yuzasidan savol, xavotir, tavsiyalarini bildiriş imkonini beriş bölgan.

Milliy AMTB/EIA jarayonida amalga oşirilgan tadbirlar manfaatdor tomonlarga loyiha haqida dastlabki bosqiçda ma’lumot oliş imkonini bergan va xalqaro kreditorlarning AMITB/ESIA jarayoni doirasida keyinçalik ötkazilgan tadbirlarni töldirgan. Milliy AMTB/EIA doirasida kötarilgan masalalar va bildirilgan xavotirlar mavjud hamda tegişli bölgan hollarda atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirlarni keyingi baholaşda, şuningdek oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralarini işlab çiqişda hisobga olingan.

Milliy AMTB/EIA doirasidagi maslahatlaşuv jarayoni loyiha böyiça keyinçalik kreditorlar talablariga muvofiq ötkazilgan manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlaridan farq qiladi. Keyingi tadbirlar amaldagi xalqaro standartlar va kreditorlar talablariga, jumladan mazmunli, barçani qamrab oluvçi, qulay, uzluksiz jalb qiliş tamoyillariga javob beriş uçun işlab çiqilgan. Şu sababli 2026-yil fevraldagi milliy AMTB/EIA doirasidagi tadbirlar loyiha MTJER/SEPiga muvofiq talab

qilinadigan manfaatdor tomonlarni aniqlaş, axborotni oşkor qiliş, maslahatlaşuv, uzluksiz jalb qiliş tadbirlarining örnini bosmaydi.

Quyidagi jamlama jadvalda mazkur maslahatlaşuvlarning asosiy körsatkiçlari, jalb qiliş natijalari, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalariga loyihaning javoblari umumiy tarzda keltirilgan.

5.2-jadval. Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlaşuvlarning umumiy körinişi

Bandlar	Manfaatdor tomonlarning nomi
Jalb qilingan manfaatdor tomonlarning guruhlari	• Loyihadan ta'sirlangan xonadonlar • Loyihaning ta'sir hududidagi jamoa a'zolari (5 km) • Uzsuvta'minot (Toşkent viloyati suv ta'minoti) • Toşkent viloyati maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi • Hududgaz Toşkent • Toşkent viloyati soğliqni saqlaş boşqarmasi • Örtaçirçiq tumani suv ta'minoti bölimi • Örtaçirçiq tumani melioratsiya bölimi • Örtaçirçiq tumani hokimligi: qişloq xöjaligi • Örtaçirçiq tumani hokimligi: quriliş • Örtaçirçiq tumani sanitariya-epidemiologiya xizmati • Örtaçirçiq tumani boş şifokor örinbosari • Örtaçirçiq tumani melioratsiya ekspeditsiyasi bölimi • UzAirports loyiha idorasi • Xalqobod mahalla qömitasi • Mahalla fuqarolar yiğinlari: • Aranşi • Beruniy • Döstlik • Kim Pen Xva • Koşek • Sarum • Sergeli • Taraqqiyot • Xalqobod • Yangiyöl • Yungiçokli • Örtaçirçiq tumani turizm bölimi • Örtaçirçiq tumani ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qiliş va iqlim özgarişi bölimi • Toşkent viloyati avtomobil yöllari boşqarmasi • Toşkent viloyati madaniy meros boşqarmasi • Quyiçirçiq tumani ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qiliş va iqlim özgarişi bölimi • Quyiçirçiq tumani yöllar bölimi • Quyiçirçiq tumani hokimligi • Örtaçirçiq tumani sanitariya-epidemiologiya xizmati bölimi • Mahalla raislari va jamoaning boşqa vakillari (jumladan maktab direktorlari, öqituvçilar, xotin-qizlar yetakçilari, mahalliy hokimlik vakillari) • Ayollar boşçiligidagi va töliqsiz oilali xonadonlar, kam daromadli va iqtisodiy jihatdan zaif xonadonlar, keksa şaxslar, nogironligi bölgan şaxslar, a'zolari muntazam tibbiy yordamga muhtoj xonadonlar, bolalar va yoşlar; qişloq xöjaligi, çorvaçilik, yerga boğliq boşqa tirikçilik manbalariga tayanuvçi xonadonlar; savodxonligi, axborotdan foydalaniş yoki raqamli ulaniş imkoniyati çeklangan şaxslar; ijtimoiy yoki iqtisodiy jihatdan çetda qolgan xonadonlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy boşlanğiç holat va loyihani amalga oşiriş jarayonida aniqlangan boşqa zaif şaxslar

Izoh: manfaatdor tomonlarni jalb etiş haqidagi batafsil ma'lumotlar, jumladan maslahatlaşuvlarning töliq qaydlari, fikr-mulohazalar, loyihaning javoblari loyiha uçun tayyorlangan MTJER/SEPda berilgan. Uşbu jamlama jadval ma'lumotnoma sifatida umumiy köriniş beradi.

5.2.3 Maslahatlaşuv usullari va ötkaziş davriyligi

2025-yil dekabrdan 2026-yil yanvargaça loyiha KÇR/RAP va AMITB/ESIA tadqiqotlarini qöllab-quvvatlaş uçun maqsadli guruh muhokamalari, jamoat uçraşuvlari, uyma-uy taşriflar, onlayn maslahatlaşuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqot ötkazgan. 5 km lik ta'sir hududida loyiha hududiga yaqinligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga köra tanlangan ön bitta mahalla, ya'ni Aranşi, Yungiçokli, Kim Pen Xva, Döstlik, Taraqqiyot, Xalqobod, Yangiyöl, Surum, Kuşek, Sergeli va Beruniy mahallalari jalb qilingan.

Jalb qiliş jarayonida tirikçilik manbalari, xonadon tarkibi, ijtimoiy tuzilmalar va mahalliy ustuvorliklar haqidagi jamoa qaraşlarini örganiş uçun maqsadli guruh muhokamalari va xonadonlar tadqiqoti ötkazilgan. Bunda jinsga oid masalalar va zaif guruhlarga alohida e'tibor qaratilgan. Sakkizta mahallada, ya'ni Surum, Yangiyöl, Xalqobod, Taraqqiyot, Kuşek, Beruniy, Sergeli va Döstlikda bir neçta maqsadli guruh muhokamasi ötkazilgan. Ularda qatnaşçilarning kamida 30 foizi ayollardan iborat aralaş guruhlar, faqat ayollardan iborat guruhlar hamda keksalar va kam daromadli xonadonlar kabi zaif iştirokçilar qatnaşgan sessiyalar qamrab olingan. Jami 8 105 ta xonadondan 272 tasi tasodifiy tanlangan. Muhokama yöriqnomalari va sörovnomalarda tirikçilik manbalari, daromad manbalari, xizmatlardan foydalaniş, boşqa ijtimoiy-iqtisodiy körsatkiçlar qamrab olingan.

5.3-jadval. Asosiy fikr-mulohazalar va xavotirlar

Asosiy fikr-mulohazalar va xavotirlar	Loyihaning javoblari va majburiyatlari
• Mavjud kollektor-zovur tarmoği va uni köçirişga oid loyiha yeçimlari. • Loyiha hududidan taşqaridagi infratuzilmani köçirişni moliyalaştiriş va bu uçun javobgarlik. • Loyiha hududidagi ornitologik şaroitlar va ehtimoliy ta'sirlarni kamaytiriş yoki şaroitni yaxşilaş çoralari. • Kollektor-zovur tarmoğini köçirişning yaqin atrofdagi aholiga ta'siri. • Qabristonlar va dafn joylarining holati hamda köçirilişi, jumladan milliy va diniy mansubligi. • Qabristonlarni köçirişda qonunçilik va sanitariya-epidemiologiya me'yorlariga muvofiqlik. • Qabristonlarni köçiriş yuzasidan mahalliy jamoalar bilan tuşuntiriş muhokamalarini ötkaziş. • Iş örinlarini yaratiş, mahalliy bandlikka ustuvorlik beriş, ehtimoliy öqitiş imkoniyatlari. • Mahalliy korxonalarning ovqatlaniş va yordamçi xizmatlarni taqdim etiş imkoniyatlari. • Infratuzilmani, jumladan yöllar, muhandislik tarmoqlari, transport ulanişini yaxşilaş. • Yangi va mavjud yöllarning transport harakati, şovqin, jamoat foydalanişiga ta'siri. • Aeroport faoliyatining şovqin, tebraniş, atmosfera havosi sifatiga ta'siri. • Yer osti suvlari, jumladan, sizot suvlariga ta'sirlar hamda ularning oldini oliş va kamaytiriş. • Loyiha hududi va uning 5 km radiusidagi madaniy meros obyektlarining mavjudligi va himoyasi. • Loyiha şaffofligi, şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari, jamoalar bilan axborot almaşiş. • Turizm, savdo, investitsiya, könikmalarni rivojlantirişni qamrab olgan ijobiy iqtisodiy oqibatlar.	• Atrof-muhit, ijtimoiy, madaniy ta'sirlarni baholaş uçun AMITB/ESIAni ötkaziş. • Kollektor-zovur tarmoqlari va infratuzilmani imkon qadar kam uziliş bilan köçiriş. • Qabristonni köçiriş qonunçilikka muvofiq va jamoalar bilan maslahatlaşgan holda amalga oşirilişini ta'minlaş. • Ekologik ta'sirlarni, jumladan ornitologiya va yer osti suvlariga ta'sirni kuzatiş va kamaytiriş. • Mahalliy bandlikka ustuvorlik beriş va imkon bölgan joylarda öqitişni ta'minlaş. • Xizmatlar va ovqatlaniş xizmatlarini şaffof xarid qiliş orqali mahalliy korxonalarni qöllab-quvvatlaş. • Yöllar va transport ulanişlarini vakolatli idoralar bilan muvofiqlaştirgan holda rejalaştiriş. • Aeroport faoliyatidan kelib çiqadigan şovqin, tebraniş va atmosfera havosi sifatiga ta'sirlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş. • Loyiha hududi va uning 5 km radiusidagi madaniy meros obyektlarini himoya qiliş. • Loyihaning butun faoliyat muddati davomida manfaatdor tomonlarni jalb etiş va şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlarini saqlaş.

AMITB/ESIAni jamoatçilikka taqdim etiş uçraşuvlari 2026-yil sentabr oyi oxiri va oktabr oyi boşida ötkaziladi. Bu uçraşuvlar manfaatdor tomonlarga AMITB/ESIA natijalari hamda taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralarini körib çiqiş va qöşimça fikr-mulohazalar bildiriş imkonini beradi. Manfaatdor tomonlar hujjatni körib çiqişi va izoh bildirişi uçun AMITB/ESIA 60 kun davomida jamoatçilik uçun oçiq e'lon qilinadi. Uçraşuvlar natijalari va oçiq e'lon qiliş davrida kelib tuşgan barça yozma fikr-mulohazalar hujjatlaştiriladi, körib çiqiladi va tegişli hollarda yakuniy AMITB/ESIA hujjatlari töplamiga kiritiladi. Bu hujjatlar loyihaning butun faoliyat muddati davomida jamoatçilik uçun oçiq bölib qoladi.

5.2.4 Quriliş va işga tuşiriş davridagi manfaatdor tomonlarni jalb etiş

Quriliş va işga tuşiriş bilan boğliq rejalaştirilgan manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlari quyida bayon etilgan.

5.4-jadval. Quriliş bosqiçi uçun MTJER/SEP jadvali

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Jalb qiliş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
Quriliş va işga tuşiriş işlari, jumladan ularning muddatlari haqida xabardor qiliş	Bevosita ta'sirlangan manfaatdor tomonlar: loyiha ta'sir hududidagi ijaraçilar va yerdan foydalanuvçilar; turar joy binolari va mol-mulk egalari; tijorat subyektlari va ularning işçilari; yaqin atrofdagi jamoalarda, masalan Yangitoşda yaşovçi aholi; mavjud infratuzilma va muhandislik tarmoqlari operatorlari.	Hudud çegaralari va kiriş yöllaridagi rasmiy e'lonlar; jamoa axborot taxtalari; varaqalarni tarqatiş; mahalla qömitalari orqali axborotni oşkor qiliş; ta'sirlangan tomonlar bilan ikki tomonlama uçraşuvlar; zarur joylarda telefon qönğiroqlari.	Quriliş va işga tuşiriş boşlanişidan oldin manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlari boşlanadi. Quriliş bosqiçi davomida loyiha faoliyatidagi har qanday özgarişni aks ettiriş uçun ular zarur darajada yangilanadi. Loyiha kölami, jadvali yoki ehtimoliy ta'sirlarida jiddiy özgariş yuz bersa, manfaatdor tomonlarni xabardor qiliş va ularga özgarişlar böyiça fikr bildiriş imkonini beriş uçun qöşimça uçraşuvlar ötkaziladi.	Loyiha kompaniyasi
	Bilvosita ta'sirlangan aholi va taşkilotlar: Toşkent viloyatidagi keng jamoalar, NNT/NGO, manfaatdor tomonlar	Mahalliy hokimiyat organlari, Mahallalar uyuşmasi, jamoat e'lonlari, axborot materiallari orqali axborotni oşkor qiliş.	Uçraşuvlar loyiha qurilişining butun bosqiçi davomida, şuningdek quriliş faoliyati yoki jarayonlarida jiddiy özgariş yuz bersa ötkaziladi. Bu tadbirlar tegişli manfaatdor tomonlar bilan uzluksiz muloqot maydoni bölib xizmat qiladi hamda ularni loyiha rivoji, kelgusi işlar, ehtimoliy ta'sirlardan xabardor qilib turadi. Uçraşuvlar, şuningdek, manfaatdor tomonlarning xavotirlarini körib çiqiş, tegişli hollarda fikr-mulohazalarni hisobga oliş hamda quriliş davrida şaffoflik va işonçni saqlaş imkonini beradi.	
Yer egallaş, tirikçilik manbalarini tiklaş, köçirişga oid manfaatdor	Ijaraçilar, yerdan foydalanuvçilar, ta'sirlangan xonadonlar, fermerlar, jumladan fermer, dehqon	Ta'sirlangan oilalar bilan bevosita işlaş, ularning xavotirlari, istaklari, ijtimoiy-iqtisodiy şaroitlarini aniq	Manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlari loyihaning qurilişdan oldingi va quriliş bosqiçlari davomida uzluksiz amalga oşirilib,	Loyiha kompaniyasi

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Jalb qiliş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
tomonlarni jalb etiş	xöjaliklari va tomorqa yer egalari kengaşi	tuşuniş hamda hujjatlaştiriş uçun xonadonlar darajasida maslahatlaşuvlar ötkaziladi. Barçani qamrab oluvçi va faol qatnaşuvga asoslangan muloqotni yengillaştiriş hamda turli qaraşlarni, ayniqsa zaif yoki çetda qolgan aholi fikrlarini töplaş uçun muayyan manfaatdor tomonlarning guruhlari bilan maqsadli guruh muhokamalari taşkil etiladi. Loyiha tovon va tirikçilik manbalarini tiklaş rejalarini şaffof tarzda oşkor qiladi hamda manfaatdor tomonlarga huquqlar, jarayonlar va amalga oşiriş muddatlari haqida aniq, tuşunarli, öz vaqtida axborot beradi. Bundan taşqari, alohida yondaşuvni talab qiladigan yoki kengroq maslahatlaşuvlarda yetarli darajada körib çiqib bölmaydigan muayyan xavotirlarga ega asosiy ta'sirlangan şaxslar va manfaatdor tomonlar bilan yakka tartibdagi uçraşuvlar ötkaziladi.	muntazam muloqot va qatnaşuv ta'minlanadi. Har qanday köçiriş yoki yerdan foydalaniş talabi yuzaga kelişidan oldin bu tadbirlar kuçaytiriladi. Bunda ta'sirlangan manfaatdor tomonlarga öz vaqtida axborot beriş, ularning xavotirlarini körib çiqiş, mazmunli maslahatlaşuvni yengillaştirişga e'tibor qaratiladi.	
Loyihadagi bandlik imkoniyatlari haqida axborot beriş	Manfaatdor tomonlarga mahalliy jamoalar, ta'sirlangan şaxslar, mahalliy hokimiyat organlari, kasbiy ta'lim muassasalari kiradi. Mahalliy jamoalar deganda loyiha ta'sir hududida va uning atrofida yaşaydigan, loyiha kundalik hayoti, xizmatlardan foydalanişi, ijtimoiy-iqtisodiy şaroitiga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilişi mumkin bölgan keng	Quriliş bosqiçida manfaatdor tomonlarni jalb etiş keng qamrov va şaffoflikni ta'minlaş maqsadida bir neçta tartibli aloqa yöli orqali amalga oşiriladi. Loyiha faoliyati va imkoniyatlari haqida öz vaqtida xabardor qiliş uçun qulay joylardagi jamoat e'lonlari orqali axborot tarqatiladi. Mahalliy bandlik idoralari bilan muvofiqlaştiriş iş örinlariga oid axborotni tarqatişga va mahalliy xodimlarning bandlik imkoniyatlaridan foydalanişiga yordam beradi. tegişli manfaatdor tomonlarga	Qurilişdan oldingi va xodimlarni işga oliş bosqiçlari davomida	Loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçisi

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Jalb qiliş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
	aholi qatlamidir. Ta'sirlangan şaxslar esa loyiha sababli yerdan foydalanişdagi özgarişlar, kun keçiriş manbalarining buzilişi yoki atrof-muhit va ijtimoiy oqibatlar kabi aniq ta'sirlarga uçraşi mumkin bölgan şaxslar yoki xonadonlardir.	yangiliklarni yetkaziş, fikr-mulohazalarni töplaş, xavotirlarni qatnaşuv asosida körib çiqiş uçun muntazam uçraşuvlar taşkil etiladi. Bundan taşqari, axborot jamoa darajasidagi asosiy muassasalar bölgan mahalla qömitalari orqali tarqatiladi. Bu uning xonadonlarga samarali yetib borişi va mahalliy şaroitni aks ettirişini ta'minlaydi.		
Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini amalga oşiriş	Barça manfaatdor tomonlar, jumladan loyihadan ta'sirlangan xonadonlar, ta'sirlangan jamoalar, işçilar, NNT/NGO, mahalliy hokimiyat organlari, zaif guruhlar	Barça manfaatdor tomonlar uçun loyiha qulay, şaffof va tezkor işlaydigan, XMK/IFC talablariga mos köp kanalli Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini (ŞKÇM/GRM) yölga qöyadi va işlatadi. Şikoyatlar maxsus telefon liniyasi, elektron poçta, qulay joylardagi şikoyat qutilari, jamoa uçraşuvlari yoki loyiha vakiliga şaxsan murojaat qiliş orqali berilişi mumkin. Bu usullar manfaatdor tomonlarning turli istaklari va savodxonlik darajalarini hisobga oladi. Natijada, ta'sirlangan, barça manfaatdor tomonlar muammolarini bildiriş, fikr-mulohaza beriş yoki ma'lumot söraş uçun aniq va qulay imkoniyatga ega böladi. Barça şikoyatlar tizimli ravişda qayd etiladi, baholanadi, belgilangan muddatda körib çiqiladi. Şikoyatçiga öz vaqtida va uning madaniyatiga mos tarzda javob beriladi.	Qurilişdan oldin yölga qöyiladi va quriliş hamda işga tuşiriş davomida uzluksiz saqlanadi	Loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçisi
Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni boşqarişga oid axborot almaşinuvi,	Yaqin atrofdagi jamoalar, tijorat subyektlari, zaif guruhlar, mahalla vakillari	Ta'sirlangan va manfaatdor tomonlarning barçani qamrab oluvçi hamda mazmunli qatnaşuvini ta'minlaş uçun manfaatdor tomonlarni jalb etiş jamoa	Yuqori ta'sirli işlardan oldin va quriliş davomida vaqti-vaqti bilan	MXQ/EPC pudratçisi va loyiha kompaniyasi

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Jalb qiliş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
masalan, şovqin, çang, transport, salomatlik va xavfsizlik	asosiy manfaatdor tomonlar sifatida aniqlangan. Bu guruhlar loyihadan bevosita yoki bilvosita ta'sirlangan yoki uning natijalariga ta'sir körsata oladigan tomonlar hisoblanadi.	uçraşuvlari va maqsadli guruh muhokamalari uyğunligida amalga oşiriladi. Bu tadbirlar oldini oliş va kamaytiriş çoralarini aniq hamda tuşunarli tarzda oşkor etiş, şuningdek loyihaning ta'sirlari, xatarlari, taklif etilayotgan boşqaruv strategiyalarini tuşunişga yordam beradigan tegişli axborot materiallarini tarqatiş bilan qöllab-quvvatlanadi.		
Transport harakati va kirişni boşqarişga oid axborot almaşinuvi	Asosiy manfaatdor tomonlarga yöl harakati qatnaşçilari, yaqin atrofdagi jamoalar, tijorat subyektlari, Avtomobil yöllari qömitasi va Toşkent viloyati yöl qurilişi boşqarmasi kiradi.	Loyiha transport harakati va aholi xavfsizligini tizimli boşqaradi. Buning uçun yöl belgilari örnatiladi, ommaviy e'lonlar tarqatiladi, tegişli idoralar va manfaatdor tomonlar bilan muntazam muvofiqlaştiriş uçraşuvlari ötkaziladi, transportni boşqariş rejalari esa loyiha ta'sir qilişi mumkin bölgan jamoalarga öz vaqtida yetkaziladi. Bu çoralar şaffoflikni va manfaatdor tomonlarning xabardorligini ta'minlaydi, şuningdek quriliş bosqiçlarida loyiha transporti sababli yuzaga keladigan xavf va uzilişlarni imkon qadar kamaytiradi.	Qurilişdan oldin va uning davomida, ayniqsa, işlar eng jadal bölgan davrlarda.	MXQ/EPC pudratçisi va loyiha kompaniyasi
Muhandislik tarmoqlari va infratuzilma ta'minotçilari bilan muvofiqlaştiriş	"Toşkent hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati, "Hududgaz Toşkent" gaz ta'minoti filiali hamda suv, gaz, elektr, telekommunikatsiya tarmoqlarini boşqaruvçi taşkilotlar loyihaga aloqador asosiy kommunal xizmat taşkilotlaridir. Ular	Quriliş va işga tuşiriş davrida manfaatdor tomonlarni jalb etiş tizimli texnik muvofiqlaştiriş uçraşuvlari, rasmiy yozişmalar, birgalikdagi joy tekşiruvlari orqali olib boriladi. Bu usullar axborotni öz vaqtida almaşişga, loyiha borişi va talablarga rioya qiliş böyiça tomonlarning uyğun işlaşiga, şuningdek masalalarni şaffof va muvofiqlaştirilgan tarzda aniqlaş hamda hal qilişga yordam beradi.	Quriliş bosqiçi davomida zaruratga köra	Loyiha kompaniyasi

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Jalb qiliş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
	loyiha hududida zarur xizmatlarni ta'minlaş, boşqariş, muvofiqlaştiriş uçun javobgardir.			
Atrof-muhit va ijtimoiy faoliyat körsatkiçlari böyiça hisobot beriş hamda tartibga soluvçi idoralar bilan işlaş	EQ/NCECC, Özaviatsiya/CAA, Transport vazirligi, tegişli viloyat hokimiyati organlari va kreditorlar.	Manfaatdor tomonlarni jalb etiş jarayoni loyiha rivoji, faoliyat körsatkiçlari, kelişilgan talablarga muvofiqlikni hujjatlaştiradigan muntazam kuzatuv hisobotlarini rasmiy taqdim etişni qamrab oladi. Jarayonni amalga oşiriş holatini körib çiqiş, yuzaga kelayotgan masalalarni muhokama qiliş, zarur tuzatiş çoralari böyiça kelişiş uçun tegişli manfaatdor tomonlar bilan davriy uçraşuvlar ham ötkaziladi.	Tartibga soluvçi idoralar va kreditorlar talablariga muvofiq, davriy ravişda	Loyiha kompaniyasi
Madaniy meros va tasodifiy topilmalar böyiça manfaatdor tomonlarni jalb etiş	Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti, ta'sirlangan jamoalar va zarur bölsa din peşvolari	Har qanday tegişli masala aniqlanişi bilan vakolatli idoralar va manfaatdor tomonlarga zudlik bilan xabar berilişi kerak. Söng masalani hujjatlaştiriş va körilgan çoralarning aniq qaydini yuritiş uçun rasmiy yozişmalar olib boriladi. Mahalliy manfaatdor tomonlarni jalb etiş va xavotirlarni tizimli körib çiqiş uçun muayyan joyga oid maslahatlaşuvlar ötkaziladi. Şu bilan bir vaqtda tasodifiy topilmalar tartibi qöllanadi: zarur hollarda işlar töxtatiladi, topilma hujjatlaştiriladi, uni tegişli tarzda boşqariş uçun vakolatli idoralar bilan muvofiqlaştiriş olib boriladi.	Har qanday ehtimoliy madaniy meros topilmasi aniqlanişi bilanoq	Loyiha kompaniyasi
NNT/NGO va zaif guruhlar bilan işlaş	Ekologik, ijtimoiy va jamoaga asoslangan NNT/NGO hamda zaif guruhlar, jumladan tegişli	Jalb qiliş yondaşuvi muayyan xavotir va qaraşlarni töplaş uçun asosiy manfaatdor tomonlar bilan maqsadli uçraşuvlar hamda aniq va öz vaqtida	Quriliş bosqiçi davomida davriy ravişda	Loyiha kompaniyasi

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Jalb qiliş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
	taşkilotlar orqali ayollar va keksalar	axborot oşkor qilişni qamrab oladi. Ikki tomonlama mazmunli muloqotni ta'minlaş uçun maslahatlaşuvlar ötkaziladi. Ayni paytda manfaatdor tomonlarning turli guruhlari, ayniqsa zaif va yetarli vakillikka ega bölmagan jamoalarning loyihaning butun faoliyat muddati davomidagi muhokamalarda qatnaşişi ta'minlanadi.		
Işçilar bilan işlaş va mehnat muhofazasi hamda xavfsizligi böyiça axborot almaşinuvi	Loyiha işçilari, jumladan pudratçilar va subpudratçilar, ayniqsa quriliş davrida loyihani amalga oşirişda bevosita qatnaşadi. Ular hududdagi işlarni loyiha talablariga muvofiq bajariş uçun javobgardir.	Işçilarga hudud bilan taniştiriş öquvlari, iş boşlanişidan oldingi qisqa xavfsizlik suhbatlari, işçi uçraşuvlari hamda mehnat salomatligi va xavfsizligi (MMX/OHS) böyiça yöriqlar muntazam ötkaziladi. Bu tadbirlar işçilarga hudud talablari, ehtimoliy xavflar va xavfsizlik tartiblarini tuşuntiradi, şuningdek muloqot, talablarga rioya qiliş, xavfsiz iş muhitini qöllabquvvatlaydi.	Işga oliş vaqtida va quriliş davomida uzluksiz	MXQ/EPC pudratçisi

5.2.5 Foydalaniş bosqiçidagi manfaatdor tomonlarni jalb etiş

Foydalaniş bosqiçida manfaatdor tomonlarni jalb etiş böyiça rejalaştirilgan tadbirlar quyidagi jadvalda bayon etilgan.

5.5-jadval. Foydalaniş bosqiçi uçun MTJER/SEP jadvali

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Işlaş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
Atrof-muhit va ijtimoiy körsatkiçlarni muntazam oşkor qiliş	EQ/NCECC, Özaviatsiya/CAA, Transport vazirligi, kreditorlar va tegişli viloyat hokimiyati organlari.	Muvofiqlikni namoyiş etiş uçun atrof-muhit va ijtimoiy masalalar böyiça muntazam kuzatuv hisobotlari tayyorlanadi hamda tegişli idoralar va kreditorlarga rasman taqdim etiladi. Faoliyat körsatkiçlarini körib çiqiş va har qanday masalani tezkor hal etiş uçun bu jarayon auditlar, muntazam uçraşuvlar, joy tekşiruvlari bilan töldiriladi.	Tartibga soluvçi idoralar va kreditorlar talablariga muvofiq, odatda har çorakda yoki har yili	Loyiha kompaniyasi va aeroport operatori
Foydalaniş bosqiçidagi şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi	Barça manfaatdor tomonlar, jumladan yaqin atrofdagi jamoalar, loyihadan ta'sirlangan xonadonlar va tegişli hollarda köçirilgan xonadonlar, yölovçilar, işçilar, NNT/NGO, mahalliy hokimiyat organlari.	Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi tezkor telefon liniyasi, elektron poçta, veb-sayt, şikoyat qutilari, şaxsan taqdim etişni qamrab olgan bir neçta qulay aloqa yöli orqali işlaydi. Barça şikoyatlar öz vaqtida va şaffof hal etilişini ta'minlaş uçun qayd etiladi, kuzatiladi, ular böyiça muntazam hisobot beriladi.	Foydalaniş bosqiçi davomida uzluksiz	Aeroport operatori
Foydalaniş bosqiçidagi ta'sirlar, masalan şovqin, havoga çiqarilmalar, transport, xavfsizlik böyiça jamoalar bilan işlaş	Yangitoş kabi yaqin atrofdagi jamoalarda yaşovçi aholi, jumladan qoldiq ta'sirlar davom etayotgan hollarda loyihadan ta'sirlangan xonadonlar va köçirilgan xonadonlar; tijorat subyektlari; mahalla vakillari	Loyiha davomida jamoalar bilan işlaş şaffof muloqot va mazmunli qatnaşuvni ta'minlaydigan turli tizimli hamda uzluksiz tadbirlarni qamrab oladi. Bular keng jamoatçilikka yangiliklarni yetkaziş, fikr-mulohazalarni töplaş va xavotirlarni körib çiqişga möljallangan jamoa uçraşuvlarini, şuningdek muayyan manfaatdor tomonlarning guruhlarining qaraşlari va ustuvorliklarini yaxşiroq tuşuniş uçun maqsadli guruh muhokamalarini öz içiga oladi.	Davriy ravişda, masalan yiliga ikki marta, şuningdek jiddiy özgariş yoki şikoyatlarga javoban	Aeroport operatori
Şovqin va atrof-muhit kuzatuvi natijalarini oşkor qiliş	Yaqin atrofdagi jamoalar, EQ/NCECC hamda tegişli NNT/NGO manfaatdor tomonlar guruhi sifatida jalb qilinadi.	Şaffoflikni ta'minlaş, manfaatdor tomonlarni xabardor qiliş hamda loyiha böyiça asosiy yangiliklar va faoliyat körsatkiçlarini yetkaziş uçun kuzatuv ma'lumotlari va hisobotlar oşkor	Kuzatuv dasturlari va tartibga soliş talablariga muvofiq davriy ravişda	Aeroport operatori

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Işlaş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
		qilinadi, jamoalar uçun esa axborot uçraşuvlari ötkaziladi.		
Tegişli bölsa, köçirişdan keyingi holat hamda tirikçilik manbalarini tiklaş işlarini kuzatiş	Loyihadan ta'sirlangan xonadonlar, tijorat korxonalari, dehqon xöjaliklari, tomorqa yer egalari.	Bevosita işlaşni davom ettiriş va har qanday xavotirni körib çiqiş uçun xonadonlar darajasida keyingi uçraşuvlar ötkaziladi. Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini töplaş va loyiha ta'sirlarini baholaş uçun tadqiqotlar ötkaziladi, maqsadli maslahatlaşuvlar esa muayyan va zaif guruhlar bilan bevosita işlaşni ta'minlaydi. Uşbu tadbirlar natijalari işlarning borişini kuzatiş va loyihani davomli boşqariş uçun axborot beradigan kuzatuv hisobotlarida hujjatlaştiriladi.	Tirikçilik manbalarini tiklaş maqsadlariga erişilgani aniq isbotlangunga qadar davriy ravişda	Loyiha kompaniyasi
Aviatsiya va aeroport faoliyati böyiça vakolatli organlar bilan işlaş	Uzbekistan Airports aksiyadorlik jamiyati, Özaviatsiya/CAA va Transport vazirligi.	Texnik uçraşuvlar, foydalanişni muvofiqlaştiriş uçraşuvlari, rasmiy hisobotlar, tasdiqlar loyihani amalga oşirişga yönaliş beradi. Ular texnik masalalar böyiça uyğunlikni ta'minlaydi, manfaatdor tomonlar örtasidagi kundalik muvofiqlaştirişni qöllab-quvvatlaydi hamda tizimli hujjatlaştiriş va qaror qabul qiliş orqali muvofiqlikni saqlaydi.	Foydalanişni muvofiqlaştiriş uçun uzluksiz va zaruratga köra	Aeroport operatori
Mahalliy davlat va ma'muriy organlar bilan muvofiqlaştiriş	Toşkent viloyati hokimligi, Yangiyöl tumani hokimligi, Mahallalar uyuşmasi va viloyat muvofiqlaştiriş organlari.	Barça jalb qilingan manfaatdor tomonlar örtasida samarali muloqot, maqsadlarni muvofiqlaştiriş va işlarning ravon amalga oşirilişini ta'minlaş uçun muvofiqlaştiriş uçraşuvlari, rasmiy yozişmalar, hamkorlikdagi rejalaştiriş sessiyalari ötkaziladi.	Davriy ravişda, masalan har çorakda va talab etilganidek	Aeroport operatori
Jamoat salomatligi va xavfsizligi böyiça işlaş	Sanitariya-epidemiologik osoyişta-lik va jamoat salomatligi xizmati, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi, Soğliqni saqlaş vazirligi va viloyat soğliqni saqlaş boşqarmasi.	Samarali kuzatuv, muvofiqlaştiriş hamda tartibga soliş va loyiha talablariga rioya qilişni ta'minlaş uçun hisobot beriş, tekşiruvlar, uçraşuvlar, muvofiqlik auditlari ötkaziladi.	Tartibga soliş talablariga va davriy tekşiruvlarga muvofiq	Aeroport operatori

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Işlaş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
Bandlik va xodimlar bilan işlaş	Aeroport işçilari, pudratçilar hamda Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi loyihaga aloqador asosiy şaxslar va taşkilotlar bölib, ularning har biri mehnat standartlariga rioya qiliş, xodimlarni boşqariş, tartibga soliş nazoratini ta'minlaşda muhim vazifani bajaradi.	Işçilar uçraşuvlari, öquvlar, içki aloqa maydonlari va muvofiqlik böyiça hisobotlar xodimlar bilan işlaş va ularni boşqarişning asosiy vositalaridir. Ular muntazam muloqot, salohiyatni rivojlantiriş, axborotni öz vaqtida almaşiş hamda loyiha va tartibga soliş talablariga rioya etilişini kuzatişni qöllabquvvatlaydi.	Foydalaniş bosqiçida uzluksiz	Aeroport operatori
Muhandislik tarmoqlari va infratuzilma ta'minotçilari bilan işlaş	"Toşkent hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati, "Hududgaz Toşkent" gaz ta'minoti filiali va boşqa infratuzilma operatorlari.	Manfaatdor tomonlarni jalb etiş davomida samarali axborot almaşinuvi, texnik masalalarda uyğunlik va jarayonning tegişli tarzda hujjatlaştirilişini ta'minlaş uçun muvofiqlaştiriş uçraşuvlari, texnik muhokamalar, rasmiy aloqa yöllaridan foydalaniladi.	Foydalaniş va texnik xizmat körsatiş davomida zaruratga köra	Aeroport operatori
NNT/NGO va zaif guruhlar bilan işlaş	Atrof-muhit va ijtimoiy NNT/NGO hamda zaif guruhlar, jumladan ayollar, keksalar, kam daromadli xonadonlar.	Jalb qiliş yondaşuvi tegişli manfaatdor tomonlar bilan maqsadli maslahatlaşuvlar, şaffoflikni ta'minlaş uçun axborotni faol oşkor qiliş, butun jarayon davomida mazmunli qatnaşuv hamda fikr-mulohazani qöllab-quvvatlaş maqsadida manfaatdor tomonlarni barça tadbirlarga jalb qilişni qamrab oladi.	Davriy ravişda va talab etilganidek	Aeroport operatori
Madaniy merosni boşqariş	Madaniy meros agentligi, Arxeologiya instituti, din peşvolari, ta'sirlangan jamoalar.	Jarayon tegişli faoliyat va natijalar böyiça hisobot beriş, fikr-mulohazalarni töplaş va şaffoflikni ta'minlaş uçun asosiy manfaatdor tomonlar bilan maslahatlaşuvlar ötkaziş hamda aniqlangan masalalarni hal etiş va loyihani samarali amalga oşiriş uçun tegişli boşqaruv çoralarini qöllaşni qamrab oladi.	Talab etilganidek	Aeroport operatori
Yölovçilar va foydalanuvçilar bilan işlaş	Aeroport foydalanuvçilari, ya'ni yölovçilar, taşrif buyuruvçilar, aviakompaniyalar, xizmat körsatuvçilar	Manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini töplaş va boşqariş uçun foydalanuvçilar fikr-mulohazasini qabul qiliş tizimlari, sörovnomalar, ma'lumot stollari, raqamli maydonlardan foydalaniladi. Bu öz vaqtida javob beriş va xizmatlarni uzluksiz yaxşilaş imkonini beradi.	Foydalaniş bosqiçida uzluksiz	Aeroport operatori

Faoliyat	Manfaatdor tomonlar	Işlaş usuli	Muddati va takroriyligi	Amalga oşiriş uçun mas'ul tomonlar
Favqulodda holatlarga tayyorgarlik va axborot almaşinuvi	Yaqin atrofdagi jamoalar, mahalliy hokimiyat organlari, aeroport foydalanuvçilari, işçilar.	Manfaatdor tomonlarni jalb etiş va tayyorgarlikni qöllab-quvvatlaş uçun xabardorlik materiallari, muvofiqlaştiriş uçraşuvlari, maşqlar qöllanadi. Xabardorlik materiallari asosiy ma'lumotlarni beradi, muvofiqlaştiriş uçraşuvlari manfaatdor tomonlar örtasida uyğunlikni ta'minlaydi, maşqlar esa javob berişga tayyorgarlikni sinaş va kuçaytirişga yordam beradi.	Davriy ravişda va foydalaniş tartiblariga muvofiq zaruratga köra	Aeroport operatori
MTJER/SEPni davriy körib çiqiş va yangilaş	Barça manfaatdor tomonlarning guruhlari	Jarayon tegişli hujjatlarni içki körib çiqişdan, söng manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda özgarişlar kiritişdan iborat. Zarur joylarda şaffoflikni ta'minlaş va körib çiqiş hamda maslahatlaşuv jarayonidan kelib çiqqan özgarişlarni aks ettiriş uçun yangilanişlar oşkor qilinadi.	Davriy ravişda, masalan har 2-3 yilda yoki jiddiy özgarişlar yuz berganda	Aeroport operatori

Quriliş bosqiçiga oid batafsil MTJER/SEP quriliş işlari boşlanişidan oldin işlab çiqiladi va oşkor qilinadi. Uşbu AMITB/ESIA esa loyihaning butun faoliyat muddati davomida manfaatdor tomonlarni jalb etiş uçun umumiy asosni belgilaydi. Bu asos mazmunli va barçani qamrab oluvçi jalb qiliş tamoyillari, maqsadlari va tartiblarini, jumladan manfaatdor tomonlarni aniqlaş va tahlil qiliş, axborotni oşkor qiliş, maslahatlaşuv va qatnaşuv mexanizmlari, şikoyatlarni boşqariş, kuzatiş va hisobot berişni qamrab oladi. Manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlari loyihaning har bir bosqiçi, ya'ni loyihalaş, quriliş, foydalaniş va yakuniy foydalanişdan çiqarişga xos xavf, ta'sir, manfaatdor tomonlarning qiziqişlariga moslaştiriladi. MTJER/SEP loyiha faoliyati, manfaatdor tomonlarning kutişlari, yuzaga kelayotgan masalalardagi özgarişlarni aks ettiriş uçun davriy ravişda yangilanadi. Bu orqali amaldagi milliy talablar va kreditorlar standartlari, jumladan AQŞ XTMK/DFC talablari hamda qöllanadigan boşqa yetakçi xalqaro amaliyot talablariga doimiy muvofiqlik ta'minlanadi.

5.2.6 Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi manfaatdor tomonlarni jalb etişning asosiy tarkibiy qismi bölib, loyiha amalga oşirilişi davomida faoliyat yuritadi. U aniq, şaffof, madaniy jihatdan maqbul, foydalaniş oson va bepul jarayonga asoslanadi hamda barça manfaatdor tomonlar va ta'sirlangan taraflarga xavotirlarini bildiriş imkonini beradi. Manfaatdor tomonlarning şikoyatlari diqqat bilan tinglanişi, hujjatlaştirilişi, tezkor körib çiqilişiga işonç hosil qilişi mumkin.

Loyiha butun faoliyat muddati davomida loyiha ta'sir qilgan aholi va taşkilotlar kötargan xavotirlar, arizalar va şikoyatlarni qabul qiliş, qayd etiş, baholaş, körib çiqiş uçun şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini joriy etadi. Mexanizm loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv tizimiga muvofiqlaştiriladi hamda amaldagi milliy qonunçilik va xalqaro kreditorlar standartlariga, jumladan XMK/IFCning 1-faoliyat standarti va IXTA/GIIPga muvofiq böladi.

5.2.7 Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmining asosiy tamoyillari

Loyiha şikoyatlarini körib çiqiş mexanizmi quyidagi tamoyillarga muvofiq böladi:

- Şikoyatlarni körib çiqiş tartibining maqsadi jarayon boşida aniq tuşuntiriladi.
- Jarayon kölami loyiha xavflari va ta'sirlariga mutanosib belgilanadi.
- Jarayon yozma şaklda rasmiylaştiriladi, e'lon qilinadi, tegişli manfaatdor tomonlarga tuşuntiriladi. Şu orqali u barça manfaatdor tomonlar uçun şaffof va hisobdor böladi.
- Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi aniq, tuşunarli, foydalaniş oson böladi. Ma'lumot mahalliy tilda, jamoa a'zolari öqiy olmaydigan hollarda esa oğzaki tarzda ham taqdim etiladi.
- Şikoyat yoki xavotirlar tezkor hal etiladi.
- Şikoyat beriş heç qanday xarajatni talab qilmaydi va qasosga sabab bölmaydi;
- Qasos olmaslik böyiça aniq siyosat, maxfiylik çoralari, şikoyatga doir töplangan şaxsiy ma'lumotlarni himoya qiliş, şikoyatni anonim beriş imkoniyati kabi ehtiyot çoralari joriy etiladi.

5.2.8 Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmining qamrovi

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi manfaatdor tomonlarning loyiha faoliyati hamda loyihaning butun faoliyat muddatidagi atrof-muhit va ijtimoiy körsatkiçlarga oid şikoyat va xavotirlarini baholaş hamda hal etişni qamrab oladi.

Loyiha ta'sir qilgan aholi va taşkilotlarning barça tegişli şikoyatlari qabul qilinadi. Şikoyat arzimas tuyulsa ham, tekşiruv ötkazilguniga qadar unga baho berilmaydi. Biroq yetakçi amaliyotga muvofiq quyidagi şikoyatlar loyiha darajasidagi mexanizmdan taşqariga yönaltiriladi:

- Dastlabki baholaşda loyihaga daxli yöqligi aniq bölgan şikoyatlar.
- Davlat siyosati va davlat muassasalariga oid masalalar.

- Jinoiy faoliyat va zöravonlikni taşkil etuvçi, adliya tizimiga yönaltiriladigan şikoyatlar;
- Tijorat nizolari: tijorat masalalari şartnomalarda tartibga solinadi, nizolar esa turli tijorat nizolarini hal etiş mexanizmlari yoki fuqarolik sudlari orqali hal qilinadi.

Şikoyat dastlabki saralaş bosqiçida rad etilsa, şikoyat beruvçiga qaror haqida xabar beriladi va rad etişning aniq asosi tuşuntiriladi.

5.2.9 Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini boşqariş bosqiçlari

5.2.9.1 Şikoyatlarni boşqariş tartiblarini jamoatçilikka e'lon qiliş

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi manfaatdor tomonlarga e'lon qilinadi va quyidagi ma'lumotlarni öz içiga oladi:

- Loyiha darajasida qanday mexanizmlar mavjudligi, ular qanday natijalarni ta'minlay olişi, şikoyat beruvçi boşqa hal etiş mexanizmlaridan farqli ölaroq kompaniyaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi orqali qanday tuzatiş yoki qoplov çoralarini olişi mumkinligi;
- Kim şikoyat kötarişi mumkinligi, ya'ni barça manfaatdor tomonlar;
- Jamoa a'zolari şikoyatni qayerda, qaçon, qanday berişi mumkinligi;
- Şikoyatlarni qabul qiliş va ularga javob beriş uçun kim javobgarligi;
- Şikoyat beruvçi kompaniyadan qanday javobni va uni qança muddatda kutişi mumkinligi; va
- Yana qanday huquqlar va himoya çoralari kafolatlangani.

5.2.9.2 Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi haqida axborot beriş usullari

Loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi hamda unga boğliq tartiblar haqidagi ma'lumotlar keng jamoatçilikka oçiq taqdim etiladi. Bu orqali barça manfaatdor tomonlar loyiha bilan boğliq muammo yoki e'tirozlar yuzasidan erkin murojaat qilişlari mumkinligi hamda buning uçun qaysi aloqa kanallaridan foydalaniş mumkinligi haqida xabardor qilinadi. Imkon qadar qulaylik va şaffoflikni ta'minlaş uçun mexanizm haqidagi ma'lumot bir neçta usulda taqdim etiladi.

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmining maqsadi, şikoyat taqdim etiş jarayoni, mavjud aloqa kanallari, kutilayotgan javob muddatlari va qaror ustidan şikoyat qiliş tartiblarini bayon etadigan loyiha şikoyatlari böyiça axborot varaqasi özbek, rus, ingliz tillarida tayyorlanadi. Axborot varaqasi manfaatdor tomonlarni jalb etiş tadbirlarida tarqatiladi hamda loyiha hududidagi idorada, quriliş oromgohida (işçilar uçun), tegişli mahalla qömitasi idoralarida, loyihaning ta'sir hududidagi jamoatçilik uçun oçiq boşqa joylarda taqdim etiladi.

Bundan taşqari, şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmiga oid ma'lumotlar va manfaatdor tomonlarni jalb etiş materiallari, jumladan, MTJER/SEP, loyiha haqidagi texnik bölmagan axborot, loyiha böyiça asosiy yangiliklar loyiha veb-sayti yoki loyiha kompaniyasining korporativ veb-sayti taşkil etilgaç, u orqali elektron şaklda oşkor qilinadi. Asosiy oşkor qiliş hujjatlarining qoğoz nusxalari manfaatdor tomonlar körib çiqişi uçun loyiha hududidagi idorada va jamoatçilik uçun belgilangan boşqa joylarda saqlanadi.

Loyiha faoliyati, maslahatlaşuv tadbirlari, şikoyat uçun aloqa ma'lumotlari va boşqa tegişli e'lonlarni joylaştiriş uçun loyiha hududiga kiriş joyidagi hamda jamoalarning boşqa tegişli joylaridagi loyiha e'lon taxtalari va mavjud bölsa, axborot şaxobçalaridan foydalaniladi. Quriliş davrida pudratçilar telefon raqamlari, elektron poçta va poçta manzillari, şuningdek jamoatçilik bilan aloqa uçun tayinlangan şaxslarning ma'lumotlarini qamrab olgan şikoyat beriş uçun aloqa ma'lumotlarini hududga kiriş joylari va işçilar yaşaş inşootlarida körinarli joyga qöyadi.

Loyiha kompaniyasi uşbu axborotni oşkor qiliş mexanizmlarining samaradorligini manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazasi asosida davriy ravişda körib çiqadi. Loyiha axboroti qulay, öz vaqtida, madaniy jihatdan maqbul, XMK/IFCning 1-faoliyat standarti talablariga muvofiq bölib qolişi uçun zarur hollarda oşkor qiliş yondaşuvi yangilanadi.

5.3 Quriliş va işga tuşiriş davridagi şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi

Loyiha kompaniyasi aeroport loyihasining quriliş va işga tuşiriş bosqiçlarida şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi barça manfaatdor tomonlar uçun qulay, şaffof, madaniy jihatdan maqbul bölişini ta'minlaydi.

Şikoyat beriş yöllari özbek va rus tillarida yölga qöyiladi. Ular loyiha axborot idoralari, hududga kiriş joylari, mahalla qömitalarini qamrab olgan mahalliy jamoalar bilan aloqa nuqtalari, tezkor telefon liniyalari, elektron poçta, maxsus şikoyat şakllari kabi bir neçta kiriş nuqtasini öz içiga oladi. Yozma şikoyat berişni yengillaştiriş uçun loyiha hududi va uning atrofidagi qulay joylarga xavfsiz va aniq belgilangan şikoyat qutilari ham örnatiladi. Qulflanadigan qutilar quyidagi joylarga örnatiladi:

- Loyiha axborot markazi
- Loyiha hududi idorasi
- Quriliş hududining asosiy darvozasi
- Işçilar yaşaş joyi
- Mahalla qömitalari idoralari
- Kelişilgan joylarda hokimlik idoralari
- Foydalaniş bosqiçida aeroport ma'muriyati idorasi

Qutilarda özbek va rus tillarida batafsil yoziladi.

Har qanday aloqa yöli orqali olingan barça şikoyatlar loyiha kompaniyasi yoki MXQ/EPC pudratçisi yuritadigan markazlaştirilgan şikoyatlar röyxatida rasman qayd etiladi, qabul qilingani tasdiqlanadi, kuzatiladi. Kuzatiş hamda öz vaqtida hal etişni ta'minlaş uçun har bir şikoyatga takrorlanmas röyxat raqami beriladi. Imkon bölgan hollarda javob şikoyatçi tanlagan aloqa usulida yetkaziladi.

Loyiha kompaniyasi şikoyatlar öz vaqtida, adolatli, madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda körib çiqilişini ta'minlaydi. Şikoyat rad etilsa yoki uni şikoyatçi foydasiga töliq hal qilib bölmasa, buning aniq asoslari taqdim etiladi. Natijalarni tuşuntiriş, texnik masalalarga aniqlik kiritiş, amalga oşirilişi mumkin bölgan muqobil yeçimlarni örganiş uçun uçraşuvlar yoki maslahatlaşuvlar orqali şikoyatçi bilan muloqot qilişga harakat qilinadi.

Har bir şikoyat böyiça masala tavsifi, tekşiruv natijalari, tub sabab tahlili, tuzatuvçi va oldini oluvçi çoralar hamda tegişli hollarda keyingi tekşiruvni qamrab olgan hujjatlar yuritiladi. Bu qaydlar şikoyatlarni boşqarişga möljallangan maxsus tizimda xavfsiz saqlanadi va sörovga köra kreditorlar, mustaqil auditorlar hamda tegişli tartibga soluvçi organlarga körib çiqiş uçun taqdim etiladi.

Maxfiylik va şaxsiy ma'lumotlar qat'iy himoya qilinadi. Şaxsiy ma'lumotlardan faqat şikoyatlarni boşqariş maqsadida foydalaniladi; ular jamoatçilikka oşkor qilinmaydi yoki bunga aloqasi bölmagan maqsadlarda qöllanmaydi.

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmining samaradorligi quriliş davridagi haftalik AMSX/EHS uçraşuvlari, har oylik boşqaruv körib çiqişlari hamda davriy içki va taşqi auditlar orqali muntazam kuzatiladi. XMK/IFCning 1-faoliyat standarti va IXTA/GIIPga muvofiqlikni ta'minlaş uçun tizim fikr-mulohazalarning umumiy yönalişlari, audit natijalari, manfaatdor tomonlarning takliflari asosida uzluksiz takomillaştiriladi.

5.4 Foydalaniş bosqiçidagi şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi

Aeroportning foydalaniş bosqiçida şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi manfaatdor tomonlarni jalb etişning asosiy tarkibiy qismi sifatida faoliyatini davom ettiradi. U barça manfaatdor tomonlar, jumladan yaqin atrofdagi jamoalar, qoldiq ta'sirlar davom etayotgan hollarda loyihadan ta'sirlangan xonadonlar, aeroport foydalanuvçilari, işçilar, pudratçilar, boşqa manfaatdor tomonlar uçun qulay bölib qoladi.

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini aeroport operatori yoki tegişli bölsa, loyiha kompaniyasi tarkibidagi tayinlangan mas'ul xodim boşqaradi. U şikoyatlarni qabul qiliş, röyxatga oliş, baholaş, tekşiriş, öz vaqtida hamda şaffof tarzda hal etişni nazorat qiladi. Zarur hollarda şikoyatlar tegişli tarzda hal etilişini ta'minlaş uçun tegişli texnik bölimlar yoki boşqaruv darajalariga yuboriladi.

Foydalaniş bosqiçi davomida şikoyat berişning bir neçta yöli saqlanadi. Ular maxsus tezkor telefon liniyasi yoki telefon raqami, elektron poçta, tegişli bölsa onlayn taqdim etiş maydoni, yozma arizalar hamda aeroportdagi yoki uning yaqinidagi belgilangan aloqa nuqtalari orqali şaxsan şikoyat berişni qamrab oladi. Şikoyat beriş tartibi haqidagi ma'lumot özbek va rus tillarida aeroport axborot taxtalari va jamoa e'lon nuqtalari kabi qulay joylarda, şuningdek mahalla qömitalarini qamrab olgan mahalliy ma'muriy tuzilmalar orqali jamoatçilikka oşkor qilinadi.

Barça şikoyatlar ularning mazmuni, körilgan çoralar, taqdim etilgan javoblar, yopiş holatini qamrab olgan holda şikoyatlar röyxatida tizimli ravişda qayd etiladi. Qaydlar va tasdiqlovçi hujjatlar IXTA/GIIP hamda kreditorlar talablariga muvofiq kamida beş yil saqlanadi.

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi uçun tayinlangan mas'ul şaxsning aloqa ma'lumotlari jamoatçilik uçun oçiq joylarda aniq körsatiladi va zarur hollarda yangilanadi. Işçilar şikoyatlari milliy mehnat qonunçiligi va XMK/IFCning 2-faoliyat standartiga muvofiq alohida, ammo uyğunlaştirilgan içki mexanizm orqali boşqariladi. Bunda maxfiylik va qasos olmaslik tamoyillari ta'minlanadi. Işçilar vakillari iş joyiga oid xavotirlarni samarali hal etiş uçun xodimlar va rahbariyat örtasidagi muloqotni qöllabquvvatlaydi.

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi şikoyatlardagi eğilişlar, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari, foydalaniş tajribasi asosida davriy ravişda körib çiqiladi hamda takomillaştiriladi. Bu uning samaradorligi va XMK/IFCning 1-faoliyat standarti talablariga uzluksiz muvofiqligini ta'minlaydi.

5.5 Ayollar hamda zaif va noqulay ahvoldagi guruhlar uçun şikoyat tartiblari

Genderga asoslangan zöravonlik va tazyiq (GAZT/GBVH) bilan boğliq xavflarni bartaraf etiş hamda ayollar, zaif va noqulay ahvoldagi guruhlarni qamrab oluvçi jalb qiliş va himoyani ta'minlaş uçun aeroport loyihasiga xos Jinslar tengligi böyiça harakatlar va boşqaruv rejasi işlab çiqiladi. Reja Özbekiston milliy qonunçiligi va qöllanadigan kreditorlar talablariga muvofiq tayyorlanadi. Uni loyiha taşabbuskorlari, ya'ni Vision Invest va Sojitz Corporation, loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçilari orqali amalga oşiradi.

Hozirgi bosqiçda loyiha taşabbuskorlari uçun alohida salomatlik, xavfsizlik, himoya, atrof-muhitni boşqariş tizimi mavjudligi jamoatçilikka rasman tasdiqlanmagan. Şu sababli loyiha uning örniga loyihaga xos atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, salomatlik, xavfsizlikni boşqariş asosini işlab çiqadi hamda amalga oşiradi. Uşbu asos xalqaro darajada tan olingan yetakçi amaliyot standartlariga muvofiq GAZT/GBVHning oldini oliş qoidalari, aniq xabar beriş yöllari, javob tartiblarini qamrab oladi.

Jinslar tengligi böyiça harakatlar va boşqaruv rejasida quyidagilar belgilanadi:

- Barça işçilar va pudratçilar uçun kutiladigan xulq-atvor standartlari.
- GAZT/GBVH bilan boğliq hodisalar haqida xabar beriş va ularga javob berişning aniq tartiblari.
- Mehnat şartnomasini bekor qilişgaça bölgan jazolarni qamrab oluvçi intizomiy çoralar.
- Jabrlangan şaxslarni tegişli qöllab-quvvatlaş xizmatlariga yönaltiriş yöllari.
- Maxfiylik va qasos olmaslik tamoyillari; va
- Kuzatiş va hisobot beriş tartiblari.

Loyihaning mehnatni boşqariş tartiblariga muvofiq, barça işçilarga taniştiriş va işga qabul qiliş jarayonida ular tuşunadigan tillarda Odob-axloq qoidalari haqida ma'lumot beriladi. Odob-axloq qoidalari GAZT/GBVHning oldini oliş, xabar beriş mexanizmlari, intizomiy oqibatlar, şikoyatlarni körib çiqiş tartiblariga oid aniq qoidalarni öz içiga oladi.

Loyiha kompaniyasi barça işçilar va pudratçilar uçun GAZT/GBVH xavflari, maqbul xulq-atvor, xabar beriş yöllari, nomaqbul xatti-harakat oqibatlari böyiça muntazam öquv hamda xabardorlik dasturlarini ta'minlaydi. Nazoratçi xodimlar va quyi pudratçilar xabardorligini kuçaytirişga alohida e'tibor beriladi. Tegişli vazifalarda ayollar va erkaklar vakilligini oşiriş, jumladan ayol işçilarga qulay va işonçli yordam körsatuvçi mas'ul şaxslarni tayinlaş uçun ham çoralar köriladi.

Işçilar va jamoa a'zolari GAZT/GBVH holatlari haqida qasosdan qörqmasdan xavfsiz xabar berişi uçun anonim va maxfiy vositalar yölga qöyiladi. Zaif işçilarga, jumladan ayollarga maqsadli xabardorlik va salohiyatni oşiriş taşabbuslari taqdim etiladi. Ular hayotiy könikmalar böyiça öquv, yetakçilikni rivojlantiriş, imkoniyatlarni kengaytiriş dasturlarini qamrab olişi mumkin. Bu tadbirlar ularning himoyasini hamda loyiha işçi kuçi tarkibidagi va jamoalar bilan muloqotdagi qatnaşuvini kuçaytirişga qaratiladi.

GAZT/GBVH bilan boğliq xavflar, xabar qilingan holatlar, javob çoralarining samaradorligi hamda oldini oliş çoralarining umumiy natijadorligini kuzatiş uçun kuzatuv va baholaş tizimi joriy etiladi. Natijalar oldini oliş va kamaytiriş çoralarini kuçaytiriş hamda tizimni uzluksiz takomillaştirişda qöllanadi.

5.5.1 Genderga asoslangan zöravonlik va tazyiq holatlari haqida xabar beriş

Loyiha işçilar va jamoa a'zolari GAZT/GBVH hodisalari haqida xavfsiz xabar berişi uçun bir neçta maxfiy va qulay xabar beriş yölini joriy etadi. Bu aloqa yöllari maxfiylik, qulaylik, qasosdan himoyani ta'minlaydi.

Jamoa a'zolari uçun xabar beriş yöllari quyidagilarni qamrab olişi mumkin:

- Jamoa şikoyat va fikr-mulohaza qutilari.
- Bepul tezkor telefon liniyasi.
- Mahalla qömitalari yoki mahalliy jamoa vakillari orqali xabar beriş.
- Mavjud bölsa, ayollarni qöllab-quvvatlaş taşkilotlari yoki fuqarolik jamiyati guruhlari bilan işlaş.
- Jamoalar bilan işlaş nuqtalaridagi tayinlangan mas'ul şaxslar.

Işçilar uçun xabar beriş yöllari quyidagilarni qamrab olişi mumkin:

- Iş joyidagi şikoyat va fikr-mulohaza qutilari.
- Loyiha kompaniyasi boşqaradigan maxsus tezkor telefon liniyasi va elektron poçta tizimi;
- Nazoratçilar yoki GAZT/GBVH böyiça tayinlangan mas'ul şaxslar orqali, yuqori bosqiçga yuborişda himoya çoralari ta'minlangan holda, xabar beriş;
- Tegişli bölsa, loyihaning aloqa maydonlari orqali şikoyatni onlayn taqdim etiş.

Yoş yoki zaif şaxslar xavotirlarini xavfsiz bildira olişini ta'minlaş uçun tegişli hollarda bolalar uçun qulay va anonim xabar beriş imkoniyatlari yaratiladi.

GAZT/GBVH bilan boğliq barça şikoyatlar umumiy şikoyatlar röyxatidan alohida maxfiy röyxatda qayd etiladi. Bu röyxatdan faqat tayinlangan va öqitilgan xodimlar foydalanişi mumkin. Şu tariqa maxfiylik, e'tiborli yondaşuv, şikoyatçilar şaxsini himoya qiliş ta'minlanadi.

Jinoiy qilmişlar, jiddiy zarar yoki xavfsizlik xavflari mavjud hollarda şikoyatlar Özbekiston qonunçiligi talablariga muvofiq tegişli vakolatli idoralarga yuboriladi. Bunda jabrlangan şaxsning xavfsizligi va maxfiyligi saqlanadi.

GAZT/GBVH bilan boğliq barça şikoyatlar quyidagilarga muvofiq körib çiqiladi:

- Özbekistonning amaldagi milliy qonunlari.
- XMK/IFC faoliyat standartlari va IXTA/GIIP.
- Loyihaga xos qasos olmaslik tamoyillari; va
- Qat'iy maxfiylik tartiblari.

5.6 Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi jarayoni va muddatlari

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi doirasida quyidagi jarayon va muddatlarga amal qilinadi. Murakkab şikoyatlar yoki boşqa omillar tekşiruv muddatini uzaytirsa, şikoyat beruvçiga keçikiş haqida xabar beriladi va javob berişning yangilangan kutilayotgan muddati bildiriladi.[7]

5.6-jadval. Şikoyatlarni körib çiqiş jarayoni va muddatlari

Bosqiç	Muddat
Şikoyat qabul qilindi yoki taqdim etildi	-
Şikoyat röyxatga olindi va qabul qilingani tasdiqlandi	Şikoyat taqdim etilganidan keyin yetti iş kuni içida
Şikoyat tekşirildi	Şikoyat taqdim etilganidan keyin 14 iş kuni içida
Taklif etilgan yeçim şikoyat beruvçiga yetkazildi (oddiy şikoyatlar)	Şikoyat taqdim etilganidan keyin 14 iş kuni içida
Taklif etilgan yeçim şikoyat beruvçiga yetkazildi (murakkab şikoyatlar)	Şikoyat taqdim etilganidan keyin 21 iş kuni içida
Tegişli bölsa, şikoyat beruvçi yeçimdan qoniqmaganidan keyingi bosqiç	
Şikoyatni qayta baholaş, yangi yeçim taklif etiş yoki yakuniy qarorni şikoyat beruvçiga yetkaziş	Şikoyat beruvçi qoniqmaganini bildirganidan keyin 14 iş kuni içida
Şikoyatni ikki tomon örtasida hal etib bölmasa, vositaçi, ya'ni Şikoyatlarni körib çiqiş qömitasi jalb qilinadi.	Şikoyat beruvçi qoniqmaganini bildirganidan keyin 14 iş kuni içida.

Loyiha darajasidagi şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi olingan barça şikoyatlar, körilgan çoralar, yopiliş holati böyiça töliq hamda audit qiliş mumkin bölgan qaydlarni yuritadi. Bu tizim masalalarni öz vaqtida hal etişga yordam beradi hamda zarur hollarda boşqaruv körib çiqişlari, vakolatli idoralar, kreditorlarga taşqi hisobot beriş uçun ma'lumot taqdim etadi.

Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmining samaradorligi va tezkor javob beriş qobiliyati asosiy samaradorlik körsatkiçlari orqali kuzatiladi.

5.7-jadval. Şikoyatlarni boşqariş va talablarga muvofiqlikni kuzatiş körsatkiçlari

T/r	Asosiy samaradorlik körsatkiçi	Ölçaş amali	Davriyligi	Maqsad

[7] Ta'sirga uçragan jamoalardagi turli manfaatlar yoki yer va mol-mulk nizolari bilan boğliq yoxud murakkabroq tekşiruvni talab qiladigan nozik şikoyatlar yuzasidan Vision Invest, Sojitz Corporation va AMITB/ESIA maslahatçisi Şikoyatlarni hal etiş qömitasidan maslahat oladi. Şundan söng ta'sirga uçragan tomonlar bilan maslahatlaşib, yeçim taklif qiladi. Bunday holatlar şikoyat berilganidan keyin 21 iş kuni içida körib çiqiladi va natijasi şikoyatçilarga yetkaziladi.

1	Taqdim etilgan asosli şikoyatlar soni	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har hafta	Boşqariladi va kuzatib boriladi
2	Hal etilgan şikoyatlar soni	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har hafta	100 foizini hal etiş
3	Hal etilmagan yoki oçiq şikoyatlar	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har hafta	Imkon qadar kamaytiriş, keçikkan şikoyat qoldirmaslik
4	Belgilangan muddatda körib çiqilmagan şikoyatlar	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har hafta	Nol
5	Genderga oid zöravonlik, jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol (JMF/SEA) hamda jinsiy tazyiq (JT/SH) bilan boğliq şikoyatlar soni	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har hafta	Mutlaqo murosasiz yondaşuv, barça holatlar belgilangan tartibga muvofiq körib çiqiladi
6	Şikoyatni hal etişning örtaça muddati, jiddiylik darajasi böyiça	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har hafta	Qabul qilinganidan keyin 14 kun içida
7	Şikoyatlar toifasi, masalan şovqin, çang, transport, xavfsizlik yoki bandlik	Loyiha şikoyatlari röyxati	Har oy	Tatbiq etilmaydi
8	MTJER/SEP yoki şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmidagi kamçiliklar bilan boğliq hodisalar yoki nomuvofiqliklar soni	Hodisa töğrisidagi hisobot yoki nomuvofiqlik töğrisidagi hisobotni taqdim etiş	Har hafta	Nol

Yuqoridagilarga qöşimça, barça şikoyatlar röyxatda hujjatlaştiriladi.

6.0 Havoga çiqarilmalar va atmosfera havosi sifati

Uşbu bobda loyihaning quriliş va foydalaniş bosqiçlaridagi faoliyati natijasida atmosfera havosi sifatiga körsatilişi mumkin bölgan ehtimoliy ta'sirlar baholanadi. Şuningdek, zarur hollarda bu ta'sirlarning oldini oliş va kamaytiriş, boşqariş hamda kuzatiş çoralari aniqlanadi.

6.1 Qöllanadigan talablar va standartlar

6.1.1 Milliy standartlar

Özbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qiliş töğrisida"gi qonuni (1996-yil, 2025-yilda özgartirilgan)

Uşbu huquqiy hujjatda standartlar, sifat va zararli ta'sir me'yorlari, yoqilği-moylaş materiallariga doir talablar, avtomobillar, boşqa transport vositalari, uskunalarni işlab çiqariş hamda ulardan foydalanişga doir talablar belgilanadi. Hujjatda ozon qatlamini muhofaza qiliş talablari, korxona, muassasa, taşkilotlarning atmosfera havosini muhofaza qiliş majburiyatlari hamda atmosfera ifloslanişi oqibatidagi zararni qoplaş tartibi ham nazarda tutiladi.

SQM/SanR&N 0053-23-son "Gigiyena me'yorlari. Özbekiston Respublikasi hududidagi aholi punktlarining atmosfera havosida ifloslantiruvçi moddalarning yöl qöyiladigan çegaraviy konsentratsiyalari röyxati" va unga Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi qömitasining "Turar joy xonalari havosidagi zararli va zaharli moddalar, produtsent mikroorganizmlar, bakterial preparatlar va aeroionlar miqdorining ruxsat etilgan gigiyena me'yorlariga qöşimça kiritiş töğrisida"gi qarori bilan kiritilgan qöşimça, 2024-yil 27-maydagi 253-son.

6.1-jadval. Atmosfera havosidagi ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiyalar (REYK/MPC), mg/m³

Ifloslantiruvçi modda	(REYK/MPC, mg/m³)			
	Bir martalik	24 soatlik	Oylik	Yillik
azot dioksidi	0,085	0,06	0,05	0,04
NO	0,6	0,25	0,12	0,06
CO	5	4	3,5	3
oltingugurt dioksidi	0,5	0,2	0,1	0,05
aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar	0,5	0,3	-	0,05
aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar	0,5	0,3	-	0,05

Izoh:

- Bir martalik eng yuqori konsentratsiya 20 dan 30 daqiqagaça bölgan namuna olişda aniqlangan eng yuqori konsentratsiya.
  - Örtaça kunlik konsentratsiya kun davomida aniqlangan bir martalik konsentratsiyalarning yoki uzluksiz 24 soatlik namuna oliş orqali olingan natijalarning örtaça qiymati.
  - Örtaça oylik konsentratsiya oy davomida aniqlangan örtaça kunlik konsentratsiyalarning örtaça qiymati.
  - Örtaça yillik konsentratsiya bir yil davomida bir martalik namuna oliş orqali aniqlangan örtaça oylik konsentratsiyalarning örtaça qiymati.

"Aeroportni rejalaştiriş böyiça yöriqnoma (Yerdan foydalaniş va atrof-muhitni boşqariş)" Özaviatsiya/CAA tomonidan 2023-yil 28-aprelda tasdiqlangan. Unda aeroport hududidagi havo sifati, ifloslantiruvçi moddalar, ifloslaniş manbalari haqida ma'lumot berilgan.

6.1.2 Kreditorlar talablari

XMK/IFC va YTTB/EBRD talablariga hamda IHTT/OECDning Umumiy yondaşuvlarida bayon etilgan talablarga köra, JBG/WBGning aeroportlar uçun AMSX/EHS yöriqnomalari loyihaga tatbiq etiladi. Ular aeroportdagi yerusti xizmatlaridan havoga çiqarilmalarning oldini oliş, ularni imkon qadar kamaytiriş, nazorat qiliş böyiça tavsiyalar beradi.

6.1.2.1 Jahon soğliqni saqlaş taşkilotining atmosfera havosi sifati standartlari

Kreditorlar köp hollarda talab qiladigan JSST/WHO atmosfera havosi sifati standartlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

6.2-jadval. JSST/WHOning atmosfera havosi sifati standartlari (µg/m³)

	Yöriqnoma qiymati	1-oraliq maqsad	2-oraliq maqsad	3-oraliq maqsad	4-oraliq maqsad
Azot dioksidi					
1 soatlik	200	-	-	-	-
24 soatlik*	25	120	50	-	-
Yillik	10	40	30	20	-
Uglerod monoksidi					
15 daqiqalik	100000	-	-	-	-
1 soatlik	35000	-	-	-	-
8 soatlik	10000	-	-	-	-
24 soatlik*	4000	7000	-	-	-
Oltingugurt dioksidi					
10 daqiqalik	500	-	-	-	-
24 soatlik*	40	125	50	-	-
Diametri 10 µmdan oşmaydigan muallaq zarraçalar (aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar)					
24 soatlik*	45	150	100	75	50
Yillik	15	70	50	30	20
Diametri 2,5 µmdan oşmaydigan muallaq zarraçalar (aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar)					
24 soatlik*	15	75	50	37,5	25
Yillik	5	35	25	15	10
Ozon					
Kunlik 8 soatlik eng yuqori qiymat	60	70	100	-	-
*Yiliga 3-4 kun me'yordan oşişga ruxsat etiladi, 99-persentil					

JSST/WHOning 1-oraliq maqsad qiymatlari loyihaga xos standartlar sifatida qabul qilingan. Ular JSST/WHO havo sifati yöriqnomasi qiymatlariga erişiş hali mumkin bölmagan hududlarda qöllaşga möljallangan, xalqaro darajada tan olingan va salomatlikka asoslangan oraliq maqsadlardir. Ayni paytda ular havo sifatini bosqiçma-bosqiç yaxşilaş yöli sifatida xizmat qiladi. JSST/WHOning yanada qat'iy 2, 3, 4-oraliq maqsadlari hamda havo sifati yöriqnomasi qiymatlari faqat kontekstual taqqoslaş uçun keltirilgan. Ular loyihaning salomatlikni tobora kuçliroq himoya qiladigan mezonlarga nisbatan körsatkiçlarini namoyiş etadi, biroq ta'sir ahamiyatini rasmiy baholaş tarkibiga kirmaydi.

JSST/WHO havo sifati standartlari va milliy qoidalardan taşqari, loyiha havoga çiqarilmalarni boşqarişga oid IXTA/GIIPni bayon etadigan XMK/IFCning Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik böyiça umumiy yöriqnomalarini (2007-yil) ham hisobga oladi.

6.1.2.2 Yevropa Ittifoqi standartlari

YTTB/EBRD Yevropa Ittifoqining atmosfera havosi sifati standartlariga rioya etilişini ham talab qiladi. Baholaşda Yevropa Ittifoqining 2008/50/EC direktivasida belgilangan tegişli havo sifati standartlaridan foydalanilgan; ular 6.3-jadvalda keltirilgan.

6.3-jadval. Yevropa Ittifoqining atmosfera havosi sifati standartlari

Ifloslantiruvçi modda	Örtaçalaş davri	Standart (μγ/μ≥)
Azot dioksidi	1 soatlik	200
	Yillik	40
Uglerod monoksidi	8 soatlik	10000
Muallaq zarraçalar (aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar)	24 soatlik	50
	Yillik	40
Muallaq zarraçalar (aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar)	Yillik	20
Benzol	Yillik	5

6.1.3 Loyihaga xos standartlar

AMITB/ESIA uçun loyihaga xos atmosfera havosi sifati standartlari amaldagi milliy standartlar, JSST/WHOning Havo sifati böyiça yöriqnomalaridagi 1-oraliq maqsad, Yevropa Ittifoqining çeklangan qiymatlari orasidagi eng qat'iy me'yorlarga asoslanib belgilangan. 6.4-jadvalda eng qat'iy me'yorlar alohida ajratilgan. Uşbu standartlar barça boşlanğiç holat baholari, modellaştiriş natijalarini baholaş, ta'sir ahamiyatini aniqlaş uçun asos böladi.

6.4-jadval. Loyihaga xos standartlar jamlanmasi

Ifloslantiruvçi modda	Örtaçalaş davri	Milliy	JSST/WHO	Yevropa Ittifoqi çeklovi
NO_2	1 soatlik	85	-	200
	24 soatlik	60	120	-
	Yillik	40	40	40
CO	8 soatlik	-	-	10000
	24 soatlik	4000	7000	-
	Yillik	3000	-	-
SO_2	24 soatlik	200	125	-
	Yillik	50	-	-
NH_3	24 soatlik	120	-	-
	Yillik	40	-	-
PM_{10}	24 soatlik	300	150	50
	Yillik	50	70	40
$PM_{2.5}$	24 soatlik	300	75	-
	Yillik	50	35	20
Ozon	8 soatlik	-	70	-
Benzol	Yillik	-	-	5

Diffuziya nayçalari bilan kuzatiş 3 haftalik davr böyiça birlaştirilgan konsentratsiyani beradi, bu esa JSST/WHO yoki Yevropa Ittifoqi havo sifati standartlarida belgilangan örtaçalaş davrlariga bevosita mos kelmaydi. Bu şaroitda, oylik qiymatlar kabi uzoqroq örtaçalaş davrlarini qamrab oladigan Özbekiston milliy REYK/MPC qiymatlari vaqt böyiça birlaştirilgan passiv namuna oliş natijalarini taqqoslaş uçun maqbulroq asosni beradi. Şu sababli diffuziya nayçasi ma'lumotlarini talqin qilişda milliy standartlardan foydalanilgan.

6.2 Baholaş doirasini belgilaş

Uşbu AMITB/ESIA doirasida havo sifatini baholaş quyidagilarni qamrab olgan:

- Loyiha yaqinidagi iqlim şaroitini tuşuniş maqsadida meteorologik ma’lumotlarni körib çiqiş.
- Atmosfera havosi sifatidagi özgarişlarga sezgir bölişi mumkin bölgan yaqin hududlarning joylaşuvini tasdiqlaş uçun mavjud ma’lumotlar asosida kameral tadqiqot va undan söng joyida tekşiruv ötkaziş.
- Quriliş uskunalarining kutilayotgan turlari hamda hozirgi va kelgusi çiqarilma manbalarini qamrab olgan mavjud quriliş va foydalaniş ma’lumotlarini körib çiqiş.

Loyiha hududi va uning atrofidagi atmosfera havosi sifatining boşlanğiç holati aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar, aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar, azot dioksidi, oltingugurt dioksidi, CO, uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC) böyiça diffuziya nayçalari yordamida namuna oliş hamda havo sifatini uzluksiz kuzatiş orqali belgilangan.

Quriliş çangi, gazsimon çiqarilmalar, hidning ehtimoliy ta’sirlariga nisbatan sifat jihatidan baholaş ötkazilgan.

Foydalaniş bosqiçidagi ehtimoliy ta’sirlar ADMS Airport atmosfera tarqalişini modellaştiriş dasturi yordamida baholangan. Model orqali aeroportning özidan hosil böladigan azot oksidlari, muallaq zarraçalar, CO, uglevodorodlar çiqarilmalarining kutilayotgan miqdori aniqlandi.

Aeroport faoliyati çiqarilmalaridan taşqari, mavjud dastlabki transport ma’lumotlari asosida aeroportga kiriş yölidagi avtomobillar çiqarilmalari ham baholaşga kiritilgan.

Yuqorida bayon etilganidek, aeroportning oçiliş yilidagi, ya’ni 2030-yildagi yiliga 20 million yölovçiga möljallangan tuzilişi uçun havo sifatining miqdoriy bahosi ötkazilgan. Bu hozir rivojlantiriş uçun taklif etilayotgan loyiha bölib, işonçli dispersiya modellaştirişini amalga oşiriş uçun yetarli loyiha va foydalaniş ma’lumotlari mavjud. Taxminan yiliga 46 million yölovçiga teng yakuniy boş reja quvvati miqdoriy modellaştirilmagan. Çunki bu kengayiş belgilangan loyiha bosqiçi emas, balki uzoq muddatli konseptual rivojlantirişdir.

Rejalaştirişning hozirgi bosqiçida havo sifatini texnik jihatdan işonçli baholaş uçun zarur asosiy körsatkiçlar hali belgilanmagan. Ularga quyidagilar kiradi, biroq röyxat şular bilan çeklanmaydi:

- Kelgusi kengaytiriş işlarining muddati va bosqiçlari;
- Kelgusidagi havo kemalari parki tarkibi, dvigatel texnologiyalari, foydalaniş xususiyatlari;
- Havo kemalari harakati körsatkiçlari, jumladan, uçiş-qöniş yölaklaridan foydalaniş, rullaş tartiblari, yordamçi quvvat qurilmalaridan (YQQ/APU) foydalaniş;
- Kelgusida aeroportning umumiy foydalaniş tomonidagi transport talabi va kiriş tartiblari, jumladan, yölovçi, xodim va yuk transporti hajmlari, kengroq hududdagi yöl tarmoğinin yakuniy tuzilişi, rejalaştirilgan yangi pullik yöl va unga boğliq çorrahalar, atrofdagi yöl tarmoği böylab transport oqimining taqsimoti hamda transport parki tarkibi.
- Aeroportning kelgusi energiya ta’minoti strategiyasi, jumladan, yerusti xizmat körsatiş uskunalarini elektrlaştiriş darajasi, hududning özida qayta tiklanuvçi energiya işlab çiqariş, boşqa kam çiqarilmali texnologiyalar; va
- Özgarib borayotgan tartibga soliş talablari va sohaning yetakçi amaliyotiga muvofiq çiqarilmalarni imkon qadar kamaytiriş uçun kelgusida amalga oşirilişi mumkin bölgan foydalaniş bosqiçidagi oldini oliş va kamaytiriş çoralari.

Uşbu noaniqliklar sababli yiliga 46 million yölovçiga möljallangan yakuniy ssenariyni miqdoriy modellaştiriş hozir asoslab bölmaydigan köp sonli farazlarga tayanişi muqarrar. Bunday farazlar baholaşning texnik puxtaligi va işonçliligini pasaytiradigan noaniqlikni keltirib çiqaradi. Natijada kelajakda faoliyat yuritadigan aeroportning haqiqiy holatiga mos kelmaydigan natijalar olinişi mumkin.

Bundan taşqari, yakuniy kengayiş uzoq muddatli rejalaştiriş davrida amalga oşişi kutilmoqda. Bu davrda aviatsiya, transport, energetika texnologiyalarida katta taraqqiyot yuz berişi kutilmoqda. Jumladan, havo kemalari dvigatellarining çiqarilma körsatkiçlari yaxşilanişi, barqaror aviatsiya yoqilğilaridan foydalaniş kengayişi, aeroportning yerusti faoliyati va umumiy

foydalaniş tomonidagi transport vositalari bosqiçma-bosqiç elektrlaştirilişi kutilmoqda. Şuningdek, havo kemalarining yordamçi quvvat qurilmalari örniga statsionar yerusti elektr ta'minotidan köproq foydalaniş, milliy elektr tarmoğini uglerodsizlaştiriş hamda tobora qat'iy xalqaro va milliy çiqarilma standartlarini joriy etiş nazarda tutilmoqda. Bu texnologik va tartibga soliş özgarişlari kelgusidagi havoga çiqarilmalar va ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyalariga ta'sir qilişi kutiladi. Biroq ularning kölami va muddatini miqdoriy modellaştiriş uçun hozir yetarli işonç bilan oldindan aniqlaş mumkin emas.

Şu sababli hozirgi bosqiçda yiliga 46 million yölovçiga möljallangan yakuniy ssenariy uçun dispersiya modellaştirişini ötkaziş mazmunli yoki mutanosib baho bermaydi va kelgusidagi atrof-muhit şaroitini yangliş ifodalaşi mumkin. Şuning uçun uşbu AMITB/ESIAda bosqiçli baholaş yondaşuvi qöllanadi. Belgilangan oçiliş yilidagi rivojlantiriş uçun miqdoriy modellaştiriş ötkaziladi. Hozir baholangan bosqiçdan keyingi har qanday kengayiş esa alohida loyihalaş, atrof-muhitni baholaş, tartibga soluvçi idoralar tasdiği jarayonlaridan ötadi. Kelgusidagi baholar doirasida öşa vaqtda mavjud batafsil loyiha ma'lumotlari, kutilayotgan foydalaniş körsatkiçlari, amaldagi çiqarilma omillari asosida loyihaga xos havo sifati bahosi ötkaziladi. Bu baholaş taklif etilayotgan kengayişning haqiqiy xususiyatlari hamda öşa davrdagi tartibga soliş va texnologik şaroitni aks ettiradi.

Aeroportning yakuniy rivojlantirilişi yölovçilar oqimi va havo kemalari harakatini oşirsa-da, bu mahalliy havo sifati ham mutanosib ravişda yomonlaşişini anglatmaydi. Yiliga 46 million yölovçiga möljallangan yakuniy ssenariyning uzoq muddatli rejalaştiriş davrida bir qator omillar asosiy mahalliy havo ifloslantiruvçi moddalar çiqarilmalarini kamaytirişi kutiladi. Bu omillarga havo kemalari dvigateli texnologiyasidagi taraqqiyot, barqaror aviatsiya yoqilğilaridan tobora köp foydalaniş, aeroportning yerusti xizmat körsatiş uskunalari va umumiy foydalaniş tomonidagi transport vositalarini bosqiçma-bosqiç elektrlaştiriş kiradi. Şuningdek, havo kemalarining yordamçi quvvat qurilmalari örniga statsionar yerusti elektr ta'minotidan köproq foydalaniş va elektr tarmoğini uglerodsizlaştirişni davom ettiriş ham çiqarilmalarni kamaytiradi. Bundan taşqari, kelgusi kengayiş bosqiçlarida amalga oşiriş vaqtidagi amaldagi tartibga soliş talablari va sohaning yetakçi amaliyotini aks ettiradigan zamonaviy loyiha standartlari hamda foydalaniş bosqiçidagi oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanadi.

6.3 Havo ifloslanişi qabul qiluvçi obyektlar

Atmosfera havosi sifatidagi özgarişlar qabul qiluvçi obyektlar quyidagi jadvalda körsatilgan.

6.5-jadval. Havo ifloslanişiga oid ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar

Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Yaqin atrofdagi Aholi yaşaş hududi	**Yuqori**	Turar joy hududlarida doimiy aholi va ehtimoliy zaif guruhlar, jumladan, bolalar, keksalar hamda avvaldan soğliq muammolari bölgan şaxslar yaşaydi. Bu qabul qiluvçi obyektlar quriliş va foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalar tufayli atmosfera havosi sifatidagi özgarişlarga juda sezgir.
Tijorat, sanoat, qişloq xöjaligi yerlaridan foydalaniş turlari	**Örta**	Bu qabul qiluvçi obyektlar kasbiy ta'sirga uçraşi mumkin bölgan işçilar va işlab çiqariş maqsadida foydalaniladigan yerlarni öz içiga oladi. Işçilar bu joylarda belgilangan soatlarda böladi, qişloq xöjaligi faoliyatiga esa çang çökişi va ifloslantiruvçi moddalar ta'sir qilişi mumkin. Ular havo sifati özgarişlariga sezgir bölsa-da, odatda doimiy turar joy va jamoa qabul qiluvçi obyektlariga qaraganda kamroq zaif.
Loyiha işçilari	**Örta**	Işçilar iş hududida havoga çiqarilmalarning qisqa muddatli ta'siriga uçraşi mumkinligi sababli örta sezgirlikka ega. Bu ta'sir kasbiy nazorat hamda salomatlik va xavfsizlik çoralari, jumladan, şaxsiy himoya vositalaridan (ŞHV/PPE) foydalaniş orqali boşqariladi.


6.4 Kuzatuvlar va boşlanğiç holat

6.4.1 Meteorologik şaroit

"Iqlim xatari böyiça mamlakat tavsifi: Özbekiston" hujjatiga (2021-yil, Osiyo taraqqiyot banki va JBG/WBG) köra, Özbekiston kunlar hamda fasllar örtasida harorat keskin özgaradigan quruq va kontinental iqlimga ega. Mamlakat maydonining katta qismi, ya'ni 79 foizi yarim çöl daştlari yoki çöl hududi körinişidagi tekis relyefdan iborat. Toşkent va Samarqand kabi yirik şaharlar joylaşgan qolgan janubi-şarqiy hududlar ham kontinental iqlimga ega. Bu hududlarda Tyanşan va Hisor-Oloy tizmalariga kiradigan baland toğlar mavjud. Mamlakatda yoz oylarining örtaça oylik harorati 27,2 °C[8] bölib, eng issiq oy iyuldir. Köp yirik şaharlarning örtaça kunlik eng yuqori harorati 35 °C ni taşkil etadi. Qiş oylarida, dekabrdan fevralgaça, örtaça oylik harorat -1 °C dan -3 °C gaça böladi.

Mamlakatning köp ğarbiy hududlariga yiliga 100 millimetrdan (mm) kam yoğin tuşadi, şarqiy va janubi-şarqiy hududlarga esa yiliga 800-900 mm gaça yoğin tuşişi mumkin. Jahon meteorologiya taşkiloti ma'lumotlariga köra, yanvardan dekabrgaça bölgan davrda örtaça kunlik eng past harorat dekabrda qayd etilib, -0,3 °C[9] ni taşkil etadi. Eng issiq oy iyul bölib, örtaça kunlik eng yuqori harorat 35,7 °C ga yetadi. Yoğinli kunlarning örtaça soni oylar böyiça farq qiladi: eng kam körsatkiç avgustda 1,9 kun, eng yuqori körsatkiç esa martda 13,8 kundir.

6.1-rasmda amaldagi Toşkent xalqaro aeroportida 2023 va 2024-yillarda qayd etilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan şamol guli tasvirlangan. Unga köra, şamol asosan şarqdan esadi.



6.1-rasm. Toşkent xalqaro aeroportidagi 2023 va 2024-yillar şamol guli

6.4.2 Havo sifatiga mahalliy ta'sir

Taklif etilayotgan loyiha hududi Toşkent şahridan qariyb 23 kilometr janubda va amaldagi Toşkent xalqaro aeroportidan taxminan 20 km uzoqlikda, Toşkent viloyatining Örtaçirçiq va Quyiçirçiq tumanlari hududidagi asosan tekis qişloq joyda joylaşgan.

Loyiha hududining amaldagi holati asosan qişloq joydan iborat bölib, undan qişloq xöjaligi, jumladan, mevali daraxtlar yetiştiriş uçun foydalaniladi. Loyiha hududida yoki uning yaqinida inson faoliyati bilan boğliq havoga çiqarilmalarning yirik manbalari yöq. Mahalliy dehqonçilik, ayniqsa, öğit qöllanadigan, qişloq xöjaligi qoldiqlari yoqiladigan, göng notöğri boşqariladigan joylarda ammiak (NH3) hamda mayda muallaq zarraçalar (masalan, aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar) orqali mahalliy

[8] https://climateknowledgeportal.worldbank.org/sites/default/files/2021-06/15838-Uzbekistan%20Country%20Profile-WEB.pdf

[9] https://worldweather.wmo.int/en/city.html?cityId=115

havo sifatiga ta’sir qilişi mumkin. Bunday ta’sirlar mavsumiy bölişi mumkin. Biroq kuzatilgan sodda dehqonçilik usullariga köra, ularning havo havzasiga uzoq muddatli jiddiy ta’sir keltirib çiqariş ehtimoli past.



6.2-rasm. Loyiha hududi atrofidagi şaroit

6.4.3 Havo sifatini kuzatiş haqida umumiy ma’lumot

Havo sifati ölçovlari AMITB/ESIA boşlanğiç holat tadqiqoti doirasida quyidagi körsatkiçlar böyiça ötkazilgan: PM_{10}, $PM_{2.5}$, NO_2, SO_2, CO, UOB/VOC. Atmosfera havosi sifati ikki (2) joyda, AQM-1 va AQM-2da, 10 kun davomida uzluksiz kuzatilgan. Uşbu kuzatuv joylari loyiha hududi va unga yaqin, loyiha qabul qiluvçi obyektlardagi havo sifatini ifodalaş uçun tanlangan.


Bundan taşqari, ön bir (11) joyda NO_2, SO_2, O_3, UOB/VOC böyiça örta muddatli passiv diffuziya nayçasi kuzatuvi ötkazilgan. Diffuziya nayçalari ikki (2) kuzatuv bosqiçida joylaştirilgan, har bir bosqiç uç haftalik ta’sir davridan iborat bölgan. Kuzatuv tarmoği mavjud atmosfera şaroitini ifodalovçi boşlanğiç joylar va transport havo sifati modelini tekşiriş hamda moslaştiriş imkonini beradigan mavjud yöllar böyidagi joylarni öz içiga olgan.

Kuzatuv ma’lumotlari uşbu AMITB/ESIAda µg/m³ birlikda keltirilgan. Ular JBG/WBG va XMK/IFCning AMSX/EHS yöriqnomalarida havola qilingan amaldagi milliy atmosfera havosi sifati standartlari hamda JSST/WHO Havo sifati yöriqnomalariga nisbatan baholangan.

Atmosfera havosi sifatini kuzatiş joylari 6.3-rasmda körsatilgan bölib, ular quyidagilardan iborat:

- AQ1dan AQ3gaça: transport modelini tekşiriş uçun foydalanilgan yöl böyidagi kuzatuv joylari. Ular mavjud yöllar çekkasidan taxminan 1-2 metr masofada joylaştirilgan.
- AQ4, AQ5, AQ6: loyiha hududiga yaqin joylaşgan aholi punktlaridagi kuzatuv joylari.
- AQ7: taklif etilayotgan yangi avtomobil yöli yönalişiga yaqin kuzatuv joyi.
- AQ8, AQ9, AQ10: loyiha hududiga yaqin aholi punktlaridagi qöşimça kuzatuv joylari.
- AQ11: loyiha hududi çegarasi içida joylaşgan kuzatuv joyi.

Yuqorida bayon etilganidek, kuzatuv joylari loyiha hududiga eng yaqin qabul qiluvçi obyektlarda va ehtimoliy kelgusi yöllar böylab tanlangan.



6.3-rasm. Havo sifatining boşlanğiç holatini kuzatiş joylari

6.4.4 Havo sifatini kuzatiş natijalari

6.4.4.1 Havo sifatini uzluksiz kuzatiş

Loyiha joyidagi mavjud atmosfera havosi sifati şaroitini tavsiflaş uçun ikki kuzatuv stansiyasida, AQM-1 va AQM-2da, havo sifatini uzluksiz kuzatiş ötkazilgan. AQM-2da kuzatuv 2025-yil 27-noyabrdan 9-dekabrgaça, AQM-1da esa 2025-yil 13-dekabrdan 26-dekabrgaça ötkazilgan.

Kuzatuv davrida CO, NO_2, O_3, SO_2, PM_{10}, $PM_{2.5}$ ölçangan. Har ikki joydagi ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyasining vaqt davomida özgarişi 6.4-rasmdan 6.15-rasmgaça bölgan rasmlarda keltirilgan.

Kuzatuv natijalariga köra:


AQM-1 va AQM-2 kuzatuv joylarining har ikkisida CO, NO_2, SO_2 konsentratsiyalari kuzatuv davri davomida umuman olganda amaldagi milliy atmosfera havosi sifati standartlari hamda tegişli yöriqnoma qiymatlariga mos bölgan.

O_3 konsentratsiyalari kuzatuv davrida amaldagi standartlar doirasida bölgan. Kuzatilgan sutkalik özgariş yer sathidagi ozon quyoş nuri ta'sirida azot oksidlari (NO_x) va UOB/VOC örtasidagi fotokimyoviy reaksiyalar orqali hosil böladigan ikkilamçi ifloslantiruvçi modda ekanligi sababli yuz beradi. Kunduzgi soatlarda, ayniqsa kuçli quyoş nurlanişida, ozon hosil bölişi kuçayadi. Keçasi quyoş nuri bölmaganda ozon hosil bölişi töxtaydi va atmosfera dispersiyasi hamda kimyoviy reaksiyalar tufayli uning konsentratsiyasi kamayadi.


AQM-1 va AQM-2 kuzatuv joylarining har ikkisida muallaq zarraçalarning (PM_{10} va $PM_{2.5}$) yuqori konsentratsiyalari qayd etilgan. Bu joylarda davom etayotgan mahalliy faoliyat va çiqarilmalarning qisqa muddatli oşişi bilan boğliq holda amaldagi standartlardan davriy oşişlar kuzatilgan. Natijalar bu oşişlar doimiy yuqori fon konsentratsiyalari emas, balki muayyan faoliyat davrlariga mos kelgan vaqtinçalik holat ekanini körsatadi.

Muallaq zarraçalarning yuqori konsentratsiyasiga mahalliy çiqarilma manbalari ta'sir qilgan deb hisoblanadi. Muallaq zarraçalarning odatiy manbalariga avtomobillar va turğun manbalarda yoqilği yoqiş, şuningdek, qişloq xöjaligi işlari kiradi. Kuzatuv joylari atrofidagi yerdan foydalaniş turlari va faoliyatni hisobga olganda, AQM-2da qayd etilgan oşişlarning asosiy sabablari qişloq xöjaligi işlari, jumladan, tuproqning buzilişi va oçiq yer sathlari hamda yaqin yöllardagi avtomobil çiqarilmalari deb baholanadi.


Uşbu natijalar gazsimon ifloslantiruvçi moddalar odatda maqbul çeklovlar doirasida bölganini, ammo muallaq zarraçalarning fon konsentratsiyasi, ayniqsa AQM-2da, vaqti-vaqti bilan yuqori bölişini körsatadi.




6.4-rasm. AQM-1dagi CO konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.5-rasm. AQM-2dagi CO konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.6-rasm. AQM-1dagi azot dioksidi konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.7-rasm. AQM-2dagi azot dioksidi konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.8-rasm. AQM-1dagi O_3 konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.9-rasm. AQM-2dagi O_3 konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.10-rasm. AQM-1dagi oltingugurt dioksidi konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.11-rasm. AQM-2dagi oltingugurt dioksidi konsentratsiyasining özgariş dinamikasi




6.12-rasm. AQM-1dagi PM_{10} konsentratsiyasi dinamikasi



6.13-rasm. AQM-2dagi PM_{10} konsentratsiyasi dinamikasi



6.14-rasm. AQM-1dagi $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi dinamikasi



6.15-rasm. AQM-2dagi $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi dinamikasi

6.4.4.2 Diffuziya nayçalari yordamida passiv havo namunasini oliş

Yuqorida bayon etilgan havo sifatini uzluksiz kuzatişdan taşqari, tanlangan gazsimon ifloslantiruvçi moddalar va UOB/VOCning örta muddatli atmosfera konsentratsiyalarini tavsiflaş uçun diffuziya nayçalari yordamida passiv havo namunalari olingan.

Passiv diffuziya nayçalari gazsimon ifloslantiruvçi moddalarning vaqt böyiça örtaçalaştirilgan konsentratsiyalarini kuzatişning keng tan olingan usulidir. Usul molekulyar diffuziya tamoyiliga asoslanadi, bunda ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiya gradiyenti böylab yutuvçi modda mavjud nayça içiga tarqaladi. Söng ifloslantiruvçi modda ta'sir davridagi örtaça atmosfera konsentratsiyasini aniqlaş uçun akkreditatsiyadan ötgan laboratoriyada tahlil qilinadi.

Avval bayon etilganidek, kuzatuvning ikki bosqiçi ötkazilgan. Har bir bosqiçda yöl böyi muhiti, aholi punktlari, hududdagi şaroitni ifodalaydigan köpi bilan ön bir (11) joyda qariyb uç hafta davomida kuzatuv olib borilgan. Har bir körsatkiç böyiça takroriy namunalar olingan.

1-bosqiç kuzatuv natijalari

SO_2, O_3, NO_2

SO_2, O_3, NO_2 böyiça 1-bosqiç kuzatuv natijalari 6.6-jadvalda keltirilgan, me'yordan oşgan qiymatlar alohida ajratilgan. Natijalar milliy standartlarda belgilangan amaldagi oylik REYK/MPC qiymatlari bilan taqqoslangan.

6.6-jadval. Diffuziya nayçasi orqali namuna olişning 1-bosqiçidagi oltingugurt dioksidi, O_3, azot dioksidi konsentratsiyalari

T/r	Joy	Körsatkiç					
		REYK/MPC*	oltingugurt dioksidi (µg/m³)	REYK/MPC*	O_3 (µg/m³)	REYK/MPC*	azot dioksidi (µg/m³)
1	AQ4 (A)	100	20,03	-	61,0	50	34,88
2	AQ4 (B)		3,33		28,7		26,30
3	AQ5 (A)		23,76		36,6		32,26
4	AQ5 (B)		23,49		35,2		32,55
5	AQ1 (A)		16,46		32,6		50,51
6	AQ1 (B)		16,20		23,6		51,68
7	AQ7 (A)		15,98		23,3		45,21
8	AQ7 (B)		16,53		27,2		44,28
9	AQ3 (A)		31,39		21,4		42,30
10	AQ3 (B)		29,55		27,5		41,38
11	AQ10 (A)		14,42		19,7		32,55
12	AQ10 (B)		17,52		23,0		31,59
13	AQ11 (A)		20,19		23,2		33,40
14	AQ11 (B)		20,66		23,1		34,16
15	AQ6 (A)		19,91		16,7		43,14
16	AQ6 (B)		20,08		19,11		43,54
17	AQ8 (A)		16,45		18,36		31,74
18	AQ8 (B)		16,48		15,3		33,01
19	AQ2 (A)		16,66		13,1		45,72
20	AQ2 (B)		10,82		20,5		47,78

* = milliy standartlar, oylik, µg/m³

Izoh: AQ9dagi nayçalar qaytarib olinmagan

Natijalarga köra:

SO_2 konsentratsiyalari amaldagi milliy oylik 100 µg/m³ REYK/MPCdan ança past, O_3 konsentratsiyalari esa 13,1 dan 61,0 µg/m³gaça bölgan. Ozon uçun oylik REYK/MPC belgilanmagan, biroq kuzatilgan konsentratsiyalar JSST/WHOning 8 soatlik örtaça çeklovlaridan past bölgan.

NO_2 konsentratsiyalari 26,30 dan 51,68 µg/m³gaça bölib, milliy oylik REYK/MPC 50 µg/m³dir.

Barça joylar SO_2 böyiça milliy standartlarga mos kelgan. NO_2 böyiça AQ1dan taşqari barça kuzatuv joylari muvofiq bölgan. AQ1dagi har ikki A va B nayçasida oylik REYK/MPCdan oz miqdorda oşiş, ya'ni 50,51 µg/m³ va 51,68 µg/m³ qayd etilgan. Uşbu biroz yuqori konsentratsiyalar mahalliy transport çiqarilmalari va yaqin atrofdagi inson faoliyati bilan boğliq bölişi ehtimol.

Umuman olganda, 1-bosqiçda SO_2 va NO_2ning atmosfera konsentratsiyalari loyiha hududida havo sifatining boşlanğiç holati asosan yaxşi ekanini, ayrim joylarda NO_2 konsentratsiyasi mahalliy tarzda oşganini körsatadi.

Benzol, toluol, etilbenzol, ksilol (BTEK/BTEX)

Benzol, toluol, etilbenzol, ksilol birikmalari 1-bosqiçda ayni joylarda ham kuzatilgan. Natijalar 6.7-jadvalda keltirilgan.

6.7-jadval. Diffuziya nayçasi bilan namuna olişning 1-bosqiçidagi BTEK/BTEX konsentratsiyasi

T/r	Joy	Körsatkiçlar			
		Benzol (µg/m³)	Toluol (µg/m³)	Etilbenzol (µg/m³)	m/p-ksilol (µg/m³)
1	AQ4 (A)	6,00	68,00	29,00	29,00
2	AQ5 (A)	5,70	50,00	36,00	36,00
3	AQ5 (B)	5,80	60,00	36,00	37,00
4	AQ1 (A)	11,00	78,00	51,00	55,00
5	AQ1 (B)	10,00	82,00	38,00	41,00
6	AQ7 (A)	11,00	67,00	45,00	48,00
7	AQ7 (B)	12,00	93,00	29,00	33,00
8	AQ3 (A)	6,30	58,00	46,00	47,00
9	AQ3 (B)	6,50	86,00	43,00	44,00
10	AQ9 (B)	6,20	76,00	41,00	41,00
11	AQ10 (A)	6,00	47,00	29,00	29,00
12	AQ10 (B)	6,20	71,00	31,00	32,00
13	AQ11 (A)	6,60	79,00	33,00	33,00
14	AQ11 (B)	6,50	96,00	55,00	56,00
15	AQ6 (A)	7,80	69,00	18,00	21,00
16	AQ6 (B)	7,40	76,00	47,00	49,00
17	AQ8 (A)	7,00	57,00	49,00	49,00
18	AQ8 (B)	6,90	70,00	49,00	50,00
19	AQ2 (A)	7,70	66,00	15,00	18,00
20	AQ2 (B)	8,20	84,00	32,00	34,00

Izoh: AQ4 va AQ9 joylarining har birida bittadan nayça qaytarib olinmagan

Özbekistonda benzol, toluol, etilbenzol, ksilol birikmalari uçun maxsus milliy atmosfera havosi sifati standartlari mavjud emas. Şu sababli natijalar salomatlikka asoslangan quyidagi xalqaro yöriqnomalarga nisbatan baholangan:

JSST/WHOning Global havo sifati yöriqnomalarida (2021-yil) benzol xavfsiz çeklovini belgilab bölmaydigan kanserogen ifloslantiruvçi modda sifatida körsatilgan. JSST/WHO benzol uçun yöriqnoma qiymatini bermaydi, biroq uning ta'sirini oqilona imkon qadar eng past darajagaça kamaytirişni tavsiya etadi.

XMK/IFC va JBG/WBGning Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik (AMSX/EHS) böyiça umumiy yöriqnomalarida atmosfera havosi sifatini baholaş uçun xalqaro darajada tan olingan, salomatlikka asoslangan qiymatlarga, jumladan, JSST/WHO va boşqa tan olingan idoralar qiymatlariga havola qilingan.

Dastlabki saralaş maqsadida ölçangan konsentratsiyalar AQŞ Atrof-muhitni muhofaza qiliş agentligining (AQŞ AMMQA/EPA) Integratsiyalaşgan xatarlar axborot tizimida (IRIS) keltirilgan, xalqaro darajada tan olingan va salomatlikka asoslangan referent konsentratsiyalar bilan taqqoslangan. Ular tartibga soliş standartlari emas, balki uzoq muddatli ta'sirni baholaş uçun ehtiyotkor qiymatlardir.

Dastlabki saralaşda foydalaniladigan odatiy surunkali nafas oliş referent konsentratsiyalariga quyidagilar kiradi:

- Benzol, kanserogen bölmagan ta'sirlar: 30 µg/m³
- Toluol: 5 000 µg/m³
- Etilbenzol: 1 000 µg/m³
- Ksilol, aralaş izomerlar: 100 µg/m³

Yevropa Ittifoqining yillik 5 µg/m³ çegaraviy qiymati töliq bir yillik kuzatuv ma'lumotlariga asoslangan uzoq muddatli ta'sir standartidir. Şuning uçun uni qisqa muddatli passiv namuna oliş natijalari bilan bevosita taqqoslab bölmaydi.

Kuzatuv joylarida ölçangan benzol konsentratsiyalari 5,7 dan 12,0 µg/m³gaça bölgan. Uşbu konsentratsiyalar kanserogen bölmagan ta'sirlar uçun odatda qöllanadigan 30 µg/m³ surunkali referent konsentratsiyadan past hamda transport çiqarilmalari ta'siridagi odatiy şahar yoki yöl böyi fon muhitiga mos. Qolgan birikmalar ham havola qilingan standartlar doirasida bölgan.

2-bosqiç kuzatuv natijalari

SO_2, O_3, NO_2

2-bosqiç kuzatuv natijalari 6.6-jadvalda keltirilgan. SO_2 konsentratsiyalari 4,38 dan 18,67 µg/m³gaça bölib, milliy oylik 100 µg/m³ REYK/MPCdan ança past bölgan. NO_2 konsentratsiyalari 31,28 dan 46,25 µg/m³gaça bölib, milliy oylik 50 µg/m³ REYK/MPCdan past bölgan. O_3 konsentratsiyalari kutilgan fon darajalari doirasida qolgan. 2-bosqiçda barça kuzatuv joylari amaldagi milliy standartlarga mos bölgan. 1-bosqiç bilan taqqoslaganda, NO_2 konsentratsiyalari pastroq bölgan va heç qanday me'yordan oşiş qayd etilmagan.

6.8-jadval. Diffuziya nayçasi bilan namuna olişning 1-bosqiçidagi SO_2, O_3, NO_2 konsentratsiyalari

T/r	Joy	Körsatkiç					
		REYK/MPC*	oltingugurt dioksidi (µg/m³)	REYK/MPC*	O_3 (µg/m³)	REYK/MPC*	azot di-oksidi (µg/m³)
1	AQ1 (A)	100	10,68	-	17,98	50	42,39
2	AQ1 (B)		6,22		18,90		45,76
3	AQ7 (A)		11,85		19,24		39,56
4	AQ7 (B)		6,73		15,69		40,75
5	AQ6 (A)		10,35		18,38		37,55
6	AQ6 (B)		6,08		14,71		38,08
7	AQ11 (A)		9,26		16,47		32,80
8	AQ11 (B)		7,04		20,92		33,19

T/r	Joy	Körsatkiç					
		REYK/MPC*	oltingugurt dioksidi (µg/m³)	REYK/MPC*	O_3 (µg/m³)	REYK/MPC*	azot di-oksidi (µg/m³)
9	AQ4 (A)		7,25		22,67		32,54
10	AQ4 (B)		11,49		22,29		34,81
11	AQ10 (A)		8,48		18,73		32,71
12	AQ10 (B)		4,38		19,94		31,28
13	AQ5 (A)		12,35		19,97		35,61
14	AQ5 (B)		7,59		19,77		32,19
15	AQ8 (A)		11,58		13,77		37,73
16	AQ8 (B)		10,41		15,63		38,07
17	AQ9 (A)		13,42		16,08		36,26
18	AQ9 (B)		12,66		20,34		36,10
19	AQ3 (A)		18,39		12,53		42,68
20	AQ3 (B)		16,96		13,08		44,60
21	AQ2 (A)		18,67		22,04		45,45
22	AQ2 (B)		16,01		20,11		46,25
* = milliy standartlar, oylik, µg/m³							

Benzol, toluol, etilbenzol, ksilol (BTEK/BTEX)

2-bosqiçda benzol konsentratsiyasi 4,7 dan 15,0 µg/m³gaça özgargan. Toluol konsentratsiyasi 15 µg/m³dan past, etilbenzol va ksilol konsentratsiyasi esa odatda 5 µg/m³dan past bölgan. 6.9-jadvalga qarang.

6.9-jadval. Diffuziya nayçasi bilan namuna olişning 2-bosqiçidagi BTEK/BTEX konsentratsiyasi

T/r	Joy	Körsatkiçlar			
		Benzol (µg/m³)	Toluol (µg/m³)	Etilbenzol (µg/m³)	m/p-ksilol (µg/m³)
1	AQ1 (A)	8,3	12,0	1,2	4,1
2	AQ1 (B)	8,7	14,0	1,5	4,7
3	AQ7 (A)	8,5	11,0	1,1	4,0
4	AQ7 (B)	15,0	11,0	1,1	3,8
5	AQ6 (A)	5,4	8,8	1,2	3,0
6	AQ6 (B)	5,3	8,3	0,8	2,6
7	AQ11 (A)	5,2	6,1	0,6	2,0
8	AQ11 (B)	5,0	5,3	0,5	1,7
9	AQ4 (A)	5,9	6,4	0,6	2,1
10	AQ4 (B)	4,9	5,4	0,5	1,8

11	AQ10 (A)	5,0	6,4	0,7	2,3
12	AQ10 (B)	4,8	6,4	0,7	2,3
13	AQ5 (A)	4,7	6,0	0,6	2,0
14	AQ5 (B)	4,9	8,1	0,9	2,5
15	AQ9 (A)	5,8	6,7	0,7	2,2
16	AQ9 (B)	5,5	6,4	0,6	2,1
17	AQ3 (A)	4,8	8,1	0,7	2,7
18	AQ3 (B)	8,8	8,5	0,8	3,0
19	AQ2 (A)	5,6	11,0	0,9	3,2
20	AQ2 (B)	5,4	9,9	0,7	2,6
Izoh: AQ8dagi nayçalar qaytarib olinmagan					

Barça ölçangan konsentratsiyalar xalqaro darajada tan olingan, salomatlikka asoslangan referent konsentratsiyalardan ança past bölgan. 1-bosqiç bilan taqqoslaganda, 2-bosqiçdagi benzol, toluol, etilbenzol va ksilol konsentratsiyalari umuman pastroq bölib, bu transport qatnovi jadalligi, meteorologik şaroit, mahalliy faoliyat xususiyatlari bilan boğliq ehtimoliy özgarişlarni körsatadi.

Natijalar kuzatuv vaqtida loyiha hududidagi atmosfera havosi sifati amaldagi standartlarga umuman mos bölgani, unga transport va atrofdagi inson faoliyati mahalliy ta’sir körsatganini körsatadi.

6.5 Ehtimoliy ta’sirlar, ularning oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari

6.5.1 Quriliş bosqiçi

Quriliş davrida, ayniqsa quriliş işlarining dastlabki bosqiçida, hududni tayyorlaş, quriliş işlari, transport vositalari harakati tufayli tarqoq çang kabi ifloslantiruvçi moddalar köpayişi mahalliy atmosfera havosi sifatiga ta’sir qilişi mumkin. Loyiha hududi yaqinidagi atmosfera havosiga quriliş transporti, uskunalari, vaqtinçalik elektr generatorlaridan çiqadigan gazlar ham ta’sir qilişi mumkin. Bu faoliyat turlaridan havoga çiqariladigan moddalar odatda azot oksidlari, oltingugurt dioksidi, uglerod monoksidi, uglerod dioksidi, uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC), muallaq zarraçalar va benzol, toluol, etilbenzol, ksilolni öz içiga oladi. Yoqilği va kimyoviy moddalar notöğri saqlansa, ular ham UOB/VOC manbai bölişi mumkin. Sanitariya çiqindilari va parçalanadigan organik qattiq çiqindilar tegişli tarzda boşqarilmasa, noxuş hidli gazlar ham çiqişi mumkin.

Havo sifatining ehtimoliy özgarişiga olib kelişi mumkin bölgan loyiha doirasidagi asosiy quriliş faoliyati turlari quyidagi jadvalda umumlaştirilgan va uşbu bölimda keyinroq batafsil muhokama qilinadi.

6.10-jadval. Quriliş bosqiçida havo sifati: ta’sirlar va ta’sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir hududi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Hududni tayyorlaş, yer işlari, quriliş çangi	Çang va muallaq zarraçalar hosil bölişi	Havodagi muallaq zarra-çalar miqdori va çang çökişining oşişi, manbadan 250 m masofagaça (*Buyuk Britaniya HSBI/IAQM*)	Tadqiqot hududidagi inson va ekologik qabul qiluvçi obyektlar.
Avtomobillarning qopla-masiz yöllarda hara-katlanişi			
Avtomobillar, köçma uskunalar, yoqilğida işlaydigan qurilmalardan foydalaniş	Gazlar, masalan azot oksidlari va muallaq zarraçalar çiqarilişi	Gazsimon ifloslantiruvçi moddalar konsen-tratsiyasining oşişi, manba-dan 200 m masofada fon darajasidan farqlanadigan darajada (Buyuk Britaniya Yöllar va köpriklarni loyihalaş qöllanmasi)	

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir hududi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Vaqtinçalik sanitariya inşootlari va oqova suvni saqlaş inşootlaridan foy-dalaniş	Sanitariya oqova suvining hidi, faqat notöğri boşqarilsa	Hududdagi vaqtinçalik ho-jatxonalar yoki septik baklar manbasidan köpi bilan 100 m masofada kutiladi.	
Yoqilği, kimyoviy modda-lar, boşqa uçuvçan moddalarni saqlaş	Uçuvçan organik bi-rikmalar (UOB/VOC) çiqarilmalari va hid, faqat notöğri boşqarilgan taqdirda	Quriliş davridagi oz miqdorli va tarqoq saqlaş manbalari-dan köpi bilan 100 m masofada kutiladi.	

6.5.1.1 Çang hosil bölişi

Quriliş davrida çang va muallaq zarraçalar çiqarilmalarining asosiy manbalari quyidagilar böladi:

- Qaziş va yer işlari, jumladan tuproq qatlamini oçiş, kesiş, töldiriş, tekislaş;
- Avtomobillarning qoplamasiz yoki ziçlangan yuzalarda harakatlanişi; va
- Usti yopilmagan yuk avtomobillaridagi materiallardan muallaq zarraçalar tarqalişi, masalan hududdan taşqaridagi karyerlardan material olib kelişda.

Hududni tayyorlaş va yer işlaridan çang çiqarilmalari

Boşlanğiç holat kuzatuvida aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar va aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar me'yorlaridan vaqti-vaqti bilan oşiş aniqlangan. Bu asosan davom etayotgan mahalliy faoliyat va çiqarilmalarning vaqtinçalik oşişi, masalan, qişloq xöjaligi işlari va avtomobil harakati bilan boğliq. Natijalar loyiha hududidagi muallaq zarraçalarning fon konsentratsiyasi muayyan şaroitlarda hozirning özida ham yuqori bölişi mumkinligini körsatadi. Şu sababli, ta'sirni qabul qiluvçi muhit qöşimça çang yuklamasiga, ayniqsa quruq va şamolli davrlarda, sezgir hisoblanadi.

Quriliş bosqiçida hududni tayyorlaş, jumladan, ösimlik qoplamasini tozalaş, tuproqning ustki qatlamini oliş, tekislaş, qaziş, qayta töldiriş, quriliş transportining harakati çang çiqarilmalarini hosil qilişi mumkin. Noqulaylik tuğdiruvçi çang, ya'ni inert çang, odatda 10 mikrondan katta muallaq zarraçalar, PM_{10} ölçamli va undan yirik fraksiyalar sifatida ta'riflanadi. Bu zarraçalar odatda tez va manbaga yaqin joyda çökadi, biroq ayrim meteorologik şaroitlarda uzoqroqqa taşilişi mumkin.

Yirik çang zarraçalaridan taşqari, quriliş faoliyati natijasida quyidagi manbalardan yanada mayda muallaq zarraçalar, jumladan, aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar va aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar fraksiyalari ham hosil bölişi mumkin:

- Quruq tuproqlarning mexanik buzilişi;
- Avtomobillarning qoplamasiz yuzalarda harakatlanişi; va
- Mayda materiallarga işlov beriş va ularni uyumlab saqlaş.

Hududdan taşqaridagi çang ta'siri ehtimoli quruq va şamolli şaroitda, tuproqdagi namlik past va şamol tezligi mayda zarraçalarni havoga kötariş hamda taşiş uçun yetarli bölgan paytda sezilarli darajada oşadi. Hududning quruq va mavsumiy quruq xususiyatlarini hisobga olganda, uzoq davom etadigan quruq davrlarda çang hosil böliş ehtimoli yuqoriroq böladi. Yaqin atrofdagi qabul qiluvçi obyektlar tomon esadigan kuçli şamollar qisqa muddatli çang hodisalari ehtimolini oşirişi mumkin.

Buyuk Britaniyaning Havo sifatini boşqariş instituti (HSBI/IAQM) dastlabki saralaş yöriqnomasiga köra, hudud çegarasidan 350 m içida odamlar yaşaydigan joy bölsa, çang ta'sirini batafsil baholaş talab etiladi. Bu mezonga faqat hudud çegarasidan taxminan 70 m janubda joylaşgan H1 turar joy obyekti mos keladi.

H1ning yaqinligini, ya'ni 100 m masofa içida joylaşganini hisobga olganda, hududni tayyorlaş va yer işlari davomida, ayniqsa şamol tezligi yuqori va tuproq namligi past davrlarda, çang bilan boğliq qisqa muddatli ta'sirlar yuz berişi mumkin. Kengroq hududda muallaq zarraçalar miqdori vaqti-vaqti bilan oşişini körsatuvçi boşlanğiç holat dalillarini hisobga olganda, tegişli tarzda boşqarilmasa, quriliş bosqiçi atmosferadagi muallaq zarraçalar konsentratsiyasining vaqtinçalik oşişiga olib kelişi mumkin.

Çang bilan boğliq ta'sir kölami quyidagilarga boğliq böladi:

- Tuproq turi va namlik miqdori;
- Yer işlarining takroriyligi va kölami;
- Şamol tezligi va yönalişi;
- Tuproq yuzalarining oçiq qoliş muddati;
- Çangni bostiriş va hududni boşqaruv çoralarining samaradorligi.

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari körilmasa, eng yaqin turar joy obyektida vaqtinçalik noqulayliklar, masalan, çang çökişi va ta'sirlaniş, şuningdek, faoliyat eng jadallaşgan davrlarda atmosferadagi PM_{10} konsentratsiyasining qisqa muddatli oşişi yuz berişi mumkin. Biroq bu ta'sirlar mahalliy va qaytariluvçi xususiyatga ega böladi.

Mavjud boşlanğiç holatdagi muallaq zarraçalar darajasining yomonlaşiş xavfini imkon qadar kamaytiriş uçun çangni tegişli tarzda boşqaruv çoralari, masalan quruq va şamolli şaroitda suv sepiş, qoplamasiz yöllarda tezlikni nazorat qiliş, oçiq yuzalarni tezda barqarorlaştiriş, material uyumlarini yopiş talab etiladi. Umuman olganda, çang bilan boğliq ehtimoliy ta'sir kölami, ayniqsa yaqin atrofdagi H1 qabul qiluvçi obyektga nisbatan, örta deb baholangan.

Avtomobillar harakatidan çang va muallaq zarraçalar çiqarilmalari

Hududdagi avtomobillar harakatidan taşqari, quriliş bosqiçida taşqi karyerlardan tuproq töldiriş materiallarini olib keliş bilan boğliq köp sonli yuk avtomobili qatnovi amalga oşiriladi. Materiallar va çiqindilarni taşiş, quriliş xodimlarining qatnab işlaşi kabi quriliş bilan boğliq boşqa transport harakati ham yuz beradi. Bu avtomobillar loyiha hududiga kiriş uçun mavjud qoplamali mahalliy yöllardan foydalanadi.

Qoplamali yöllar odatda qoplamasiz yuzalarga qaraganda kamroq çang hosil qilsa-da, oğir yuk transport vositalari (OYTV/HGV) harakatining oşişi quyidagilar orqali muallaq zarraçalar çiqarilmalarining yuzaga kelişiga olib kelişi mumkin:

- Şina harakati va avtomobil turbulentligi tufayli yölga çökkan çangning, jumladan ğildirak orqali taşqariga olib çiqilgan çangning qayta havoga kötarilişi;
- Egzoz gazlari, jumladan $PM_{2.5}$ va PM_{10} fraksiyalari;
- Yetarli darajada yopilmagan yuk avtomobillaridan mayda materiallarning soçilişi;
- Tuproq yoki çaqiq taşning yöl yuzasiga tökilişi, keyinçalik qurişi va ötib borayotgan transport vositalari ta'sirida havoga kötarilişi.

Yuk avtomobillari tegişli tarzda yopilmasa yoki yuklar yetarli darajada mahkamlanmasa, şamol ta'siri va transport vositasi harakatidan kelib çiqadigan girdoblar mayda materiallarning taşiş yönalişlari böylab tarqalişiga olib kelişi mumkin. Bunday çiqarilmalar yuk taşiş yöllari va quriliş maydoniga kiriş joyi yaqinidagi mahalliy havo sifatini vaqtinça yomonlaştirişi mumkin.

Boşlanğiç holat kuzatuvida ayrim şaroitlarda loyiha hududining kengroq qismida muallaq zarraçalar miqdori vaqti-vaqti bilan oşişi aniqlangan. Şu sababli, yuk avtomobillari harakatining köpayişidan yuzaga keladigan qöşimça zarraça çiqarilmalari, ayniqsa quruq va şamolli davrlarda, yuk taşiş yöllari yaqinidagi, çang qabul qiluvçi obyektlarda atmosfera havosidagi muallaq zarraçalar miqdorining qisqa muddatga oşişiga olib kelişi mumkin.

Buyuk Britaniya Havo sifati boşqaruvi institutining (HSBI/IAQM) buziş va quriliş çangini baholaş yöriqnomasiga muvofiq, quriliş transporti yönalişlaridan 50 m içida va quriliş maydoniga kiriş joyidan 500 m gaça masofada aholiga oid qabul qiluvçi obyektlar mavjud bölsa, transport vositalari harakatining ta'sirini batafsil baholaş talab etiladi.

Hozirgi vaqtda H18 va H19 turar joy qabul qiluvçi obyektlari ehtimoliy kiriş yöllaridan birining 50 m masofasida joylaşgani ma'lum. Biroq yakuniy yuk taşiş yöllari hali tasdiqlanmagani sababli, ta'sirga uçraşi mumkin bölgan aniq qabul qiluvçi obyektlar transport harakatini boşqariş rejasi yakunlangandan söng tekşiriladi.

MXQ/EPC pudratçisi quriliş boşlanişidan oldin transportni boşqariş rejasini (TBR/TMP) tayyorlaş va amalga oşirişga majbur böladi. Uşbu reja quyidagilarni qamrab oladi:

- Taşqi karyerlarga boriş va ulardan qaytiş uçun yakuniy yuk taşiş yöllarini belgilaydi;
- OYTV/HGVning kutilayotgan kunlik qatnovlar soni va jadvalini tasdiqlaydi;
- Amaliy jihatdan mumkin bölgan hollarda sezgir turar joy hududlari orqali harakatlanişga yöl qöymaslik yoki uni kamaytiriş çoralarini öz içiga oladi;
- Yuklarni majburiy ravişda yopiş talablarini belgilaydi;
- Ğildiraklarni yuviş va transport vositalarini tozalaş tartiblarini öz içiga oladi;
- Tezlik çeklovlari va haydovçilarning odob-axloq qoidalariga doir talablarni belgilaydi;

- Yölga tökilgan har qanday materialni tekşiriş va tezkor tozalaş tartiblarini nazarda tutadi;
- Zarur hollarda muntazam kuzatiş va tuzatiş çoralari mexanizmlarini öz içiga oladi.

XMK/IFC va JBG/WBGning Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik (AMSX/EHS) böyiça umumiy yöriqnomalariga, jumladan, “Havoga çiqarilmalar va atmosfera havosi sifati” yöriqnomasiga muvofiq, quriliş transportidan tarqaladigan çang çiqarilmalari yetakçi soha amaliyoti hamda transportni boşqariş rejasida (TBR/TMP) nazarda tutilgan çoralar orqali boşqariladi.

Quriliş faoliyati vaqtinçalik ekani, transport qoplamali yöllardan harakatlanişi, puxta transport harakatini boşqariş rejasi talab etilişi hisobga olinsa, quriliş transporti bilan boğliq ehtimoliy ta’sirlar mahalliy hamda qisqa muddatli bölişi kutiladi.

XMK/IFC va JBG/WBGning Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik (AMSX/EHS) böyiça umumiy yöriqnomalariga, jumladan, “Havoga çiqarilmalar va atmosfera havosi sifati” yöriqnomasiga muvofiq, quriliş transportidan tarqaladigan çang çiqarilmalarini quriliş maydonini samarali boşqariş amaliyotlari orqali nazorat qiliş kerak. Bunday amaliyotlar yuk avtomobillarini majburiy yopiş, yölga tökilgan materialni tezda tozalaş, quriliş maydonidan çiqişdan oldin ğildiraklarni yuviş, tezlikni çeklaş, zarur hollarda quruq şaroitda transport qatnovi yuqori bölgan hududlarni namlaşni öz içiga oladi.

Ta’sirlar faqat yuk taşiş yöllariga bevosita tutaş hududlarda yuzaga kelişi, faqat quriliş davrida kuzatiladigan vaqtinçalik xususiyatga egaligi, işlar tugagandan söng qaytariluvçi bölişi hisobga olinadi. Şu asosda, oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanişidan oldingi ta’sir kölami transport jadalligi va ob-havo şaroitiga qarab kiçikdan örtagaça deb baholanadi. Tegişli çoralar amalga oşirilganda esa ta’sir kölami kiçik darajagaça kamayadi.

6.5.1.2 Gazsimon çiqarilmalar

Quriliş davrida elektr energiyasi asosan tarmoqdan olinadi, bu esa yoniş natijasida hosil böladigan çiqarilmalar miqdorini kamaytiradi. Quriliş davridagi gazsimon çiqarilmalar asosan transport vositalari va suyuq yoqilğida işlaydigan quriliş uskunalaridan kelib çiqadi. Çiqarilmalar miqdori uskuna turi, undan foydalaniş muddati, texnik xizmat körsatiş holatiga boğliq böladi.

Asosiy quriliş maşina va uskunalarining ehtimoliy turlari hamda soni 2.6-jadvalda keltirilgan. Uşbu uskunalardan çiqadigan gazsimon çiqarilmalar miqdori ularning soni bilan birga, faoliyat soatlari, samaradorligiga ham boğliq.

Izoh: quriliş davridagi umumiy issiqxona gazi (IG/GHG) emissiyalari haqidagi batafsil ma’lumot uşbu AMITB/ESIAning 7-bobida keltirilgan.

HSBI/IAQMning 2014-yilgi yöriqnomasida quyidagilar qayd etilgan:

“*Quriliş maydonidagi maşina-uskunalar, ya’ni yöldan taşqarida harakatlanuvçi texnika (NRMM) va quriliş maydonidagi transportdan çiqadigan gazlarni baholaş tajribasi ularning mahalliy havo sifatiga sezilarli ta’sir körsatiş ehtimoli pastligini hamda aksariyat hollarda ularni miqdoriy baholaş talab etilmasligini körsatadi”.*

Gazsimon çiqarilmalar ta’sirining kölami quyidagiça baholanadi:

- Loyiha hududida, asosan işçilarga ta’sir körsatişi sababli kiçik; va
- Yaqin atrofdagi loyiha hududidan taşqarida joylaşgan qabul qiluvçi obyektlarda ahamiyatsiz.

6.5.1.3 Uçuvçan organik birikmalar çiqarilmalari

Quriliş paytida oz miqdorda yoqilği, böyoq, erituvçi, boşqa uçuvçan materiallardan foydalaniladi hamda ular maxsus ajratilgan saqlaş maydonlarida saqlanadi. Quriliş bilan boğliq uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC) çiqarilmalari hajmi çeklangan, qisqa muddatli, mahalliy bölişi kutiladi.

Tegişli saqlaş va muomala çoralari joriy etilganda, uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC) çiqarilmalari bevosita iş hududlaridan taşqaridagi atmosfera havosi sifatiga sezilarli ta’sir körsatişi kutilmaydi. Şu sababli, UOB/VOC bilan boğliq ta’sir kölami barça qabul qiluvçi obyektlar uçun ahamiyatsiz salbiy deb baholanadi.

6.5.1.4 Hid tarqalişi

Quriliş xodimlari uçun vaqtinçalik sanitariya inşootlari va oqova suvni saqlaş tizimlari taqdim etiladi. Oqova suvni saqlaş yetarli darajada boşqarilmasa, mahalliy hid paydo bölişi mumkin. Har qanday hid ta'siri qisqa muddatli, vaqti-vaqti bilan yuz beradigan hamda loyiha hududi yoki uning bevosita atrofi bilan çeklanişi kutiladi.

Quriliş paytida vaqtinçalik turar joy va sanitariya inşootlari loyiha hududida taqdim etiladi. Çiqindilar notöğri boşqarilganda, masalan, biologik parçalanadigan çiqindilar töplanib qolganda H_2S kabi gazlar ajralişi sababli hid bilan boğliq muammolar yuzaga kelişi mumkin. Hojatxonalar va saqlaş baklari kabi vaqtinçalik sanitariya inşootlaridan hosil bölgan oqova suv tegişli tarzda boşqarilmasa, yoqimsiz hid paydo qilişi mumkin. Hid ta'siri, ayniqsa, odamlar yuqori qulaylik darajasini kutişi mumkin bölgan joylarda noqulaylik tuğdirsa-da, bu jismoniy salomatlikka ta'sir nuqtayi nazaridan kamdan kam hollarda xavotir tuğdiradi.

Hid ta'sirining kölami kiçik deb baholanadi va u asosan quriliş maydonidagi işçilarga ta'sir körsatadi.

6.5.2 Quriliş davridagi havo sifatiga ta'sirlarni baholaş yakuni

Quriliş paytidagi havoni ifloslantiruvçi moddalar çiqarilmalarining ehtimoliy ta'sirlari va ularning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga ta'siri, tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda ular amalga oşirilgandan keyingi qoldiq ta'sirlar bilan birga quyidagi jadvalda umumlaştirilgan.

6.11-jadval. Quriliş bosqiçidagi havo sifati ta'sirlarini baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta'sirlar	Ta'sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta'sir Ta'sir ahamiyati	Qoldiq ta'sirlar
Quriliş maydonini tayyorlaş, qaziş işlari, transport vositalarining qoplamasiz yuzalarda harakatlanişi natijasidagi çang çiqarilmalari	Örtaça	Turar joy hududlari	Yuqori	Yirik	Kiçik
		Tijorat, sanoat, qişloq xöjaligi hududlari	Örta	Örtaça	Ahamiyatsiz
		Loyiha işçilari	Örta	Örtaça	Ahamiyatsiz
Transport vositalari va maşina-uskunalar dvigatellari çiqindi gazlaridan hosil böladigan gazsimon çiqarilmalar	Kiçik	Loyiha işçilari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
	Ahamiyatsiz	Turar joy hududlari	Yuqori	Kiçik	Ahamiyatsiz
		Tijorat hududlari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
Çiqindilar va quriliş maydonidagi sanitariya inşootlaridan tarqaladigan hid	Kiçik	Loyiha işçilari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
Uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC) va boşqa xavfli uçuvçan moddalar çiqarilmalari	Ahamiyatsiz	Turar joy hududlari	Yuqori	Kiçik	Ahamiyatsiz

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Çangni nazorat qiliş çoralari

- Kuçli şamol şaroitida yerni tekislaş, qaziş işlari hamda yopilmagan çiqindi yoki materiallarni köçirişga yöl qöyilmaydi. Har qanday paytda oçiq qoladigan yer yuzasi maydoni imkon qadar kamaytiriladi.
- Şamolda uçadigan çangni boşqarişga kömaklaşadigan ehtimoliy kuçli şamol haqida oldindan ogohlantiriş uçun ob-havo yangiliklari har kuni körib çiqiladi.
- Kiriş yöli va suv quvuri yölagi qurilişi paytida quriliş hududiga tutaş va undan 50 m içida joylaşgan qabul qiluvçi obyektlar hisobga olinadi. Transport tezligini nazorat qiliş bilan birga, baland tösiqlar örnatiş kabi kuçaytirilgan çang nazorati çoralari amalga oşiriladi. Transport harakatidan tarqaladigan çangni kamaytiriş uçun MXQ/EPC pudratçisi bu qabul qiluvçi obyektlarga, masalan, H1ga yaqin joylarda kiriş yöli qoplamasini oldindan yotqiziş imkoniyatini körib çiqadi.
- Qum va boşqa çangli materiallar loyiha hududiga yoki undan taşqariga taşilganda, yuk avtomobillariga me'yordan ortiq yuk ortilmaydi va yöl davomida material yöqotilişining oldini oliş uçun ular tegişli tarzda yopiladi.
- Çangli faoliyat olib boriladigan joylar yoki quriliş maydoni çegarasi atrofida balandligi quriliş maydonidagi har qanday material uyumidan kam bölmagan yaxlit ekranlar yoki tösiqlar örnatiladi.
- Imkoniyat mavjud joylarda uskunalarga çangni bostiriş moslamalari örnatiladi.
- Materiallarga işlov berişda, jumladan, ularni yukdan tuşirişda erkin tuşiş balandligi kamaytiriladi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar

- Uyma sement va boşqa mayda kukun materiallar yopiq sisternalarda yetkazilişi hamda yetkazib beriş paytida materialning taşqariga çiqişi va ortiqça töldirişning oldini oladigan mos çiqarilmalarni nazorat qiliş tizimlari bilan jihozlangan siloslarda saqlanişi ta’minlanadi.
- Sement va boşqa mayda kukunlar foydalanilgandan söng germetik yopiladi yoki himoya tösiği bilan öralgan idişlarga joylanadi.
- Quriliş maydonidagi barça yöllarda va turar joy hududi yaqinidagi loyiha hududiga olib boradigan kiriş yölida transport vositalari tezligi 20 km/soat bilan çeklanadi.
- Qoplamali yöllar mavjud bölmagan joylarda transport vositalarining harakat yönalişlari aniq belgilanadi va quriliş maydoni böylab tegişli belgilar örnatiladi.
- Loyiha hududidagi içki yöllar ziçlanadi, çunki bu transport vositalarining quvvat sarfi va tarqaladigan çang çiqarilmalarini kamaytiradi.
- Çang hosil bölişini kamaytiriş uçun quriliş maydonidagi barça qoplamasiz yöllar namlanadi.
- Loyiha işçilariga çang niqoblari ham kiradigan töliq ŞHV/PPE töplami beriladi.
- Loyiha hududida çiqindilarni yoqişga ruxsat berilmaydi.
- Agar köp çang hosil qilişi mumkin bölgan faoliyat rejalaştirilsa, loyiha hududi yaqinida joylaşgan va çang qabul qiluvçi obyektlarga imkon qadar erta, kamida bir hafta oldin xabar beriladi.
- Yaqin atrofdagi yerdan foydalanuvçilardan kelib tuşgan har qanday şikoyat qayd etiladi hamda tuzatiş va oldini oliş çoralari körilib, tezda hal qilinadi.
- Loyiha hududidan çiqib, umumfoydalanişdagi qoplamali yöllar tarmoğiga kirişdan oldin quriliş transporti uçun titratuvçi yölaklar kabi ğildirak tozalaş inşootidan foydalaniladi.
- Çangli materiallar, ya’ni har qanday mayda kukunlar va qum uyumlari hamda çang hosil qiladigan faoliyatlar quriliş maydoni çegaralaridan uzoqda joylaştiriladi va saqlaş yoki foydalaniş paytida çang tarqalişining oldini oliş uçun yopiladi.
- MXQ/EPC pudratçisi beton qorişmasi tayyorlaş qurilmasini örnatsa, uni quriş va undan foydalaniş bilan boğliq barça zarur ruxsatnomalarni oladi.
- Loyiha hududida yoki undan taşqarida çang va yoxud havoga çiqarilmalarga sabab bölgan har qanday favqulodda hodisa hamda vaziyatni bartaraf etiş uçun körilgan çora qayd etiladi.

<u>Gazsimon çiqarilmalarning oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari</u>

- Loyiha hududidagi quriliş yöllari belgilanadi va yöllar böylab yönaliş hamda tezlik çeklovi belgilarini örnatiş orqali haydovçilarga aniq körsatiladi.
- Transport vositalari, maşina va uskunalardan zaruratsiz foydalaniş imkon qadar kamaytiriladi hamda transport vositalari, maşinalarning zaruratsiz salt işlaşiga yöl qöyilmaydi.
- Qatnovlar sonini kamaytiriş uçun quriliş maydoniga uskuna va maşinalarni yetkazib beriş samarali boşqariladi.
- Yuk avtomobillari va boşqa transport vositalaridan çiqadigan gazlar hamda zarraçalar imkon qadar kamaytiriladi. Buning uçun texnik holati yaxşi va çiqarilmalar böyiça talablarga javob beradigan transport vositalaridan foydalaniladi.
- Mahalliy ta’minot zanjiri orqali mavjud bölgan taqdirda, oltingugurti kam dizel yoqilğisi işlatiladi.
- Quriliş maydonidagi transport vositalari hududga kirişdan oldin qora tutun çiqarmasligi majburiy talab sifatida belgilanadi; qora tutun çiqarayotgani aniqlangan har qanday maşina yoki transport vositasi qayta foydalanişga berilişidan oldin texnik xizmat körsatişdan ötkaziladi va qayta baholanadi.
- Gazsimon çiqarilmalarni kamaytiriş uçun loyiha hududida kutib turgan yuk avtomobillarining dvigatellari öçiriladi. Haydovçilar transport vositalari içida kutib qolmasligi uçun maxsus kutiş, yuklaş, yuk tuşiriş joylarida havosi sovitiladigan yoki isitiladigan pana joylar taşkil etiladi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar

Hid çiqarilmalarining oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari

- Quriliş maydoni işçilari uçun yetarli miqdorda va talabga javob beradigan sanitariya inşootlari taqdim etilişi kerak.
- Hid tarqalişining oldini oliş uçun hojatxonalar samarali tozalanadi va ularga texnik xizmat körsatiladi, tozalaş qaydlari hamda tekşiruv varaqlari esa hojatxonalarda körinadigan joyga ilib qöyiladi.
- Barça septik baklar germetik yopilgan va töliq işlaydigan holatda bölişi kerak.
- Septik baklardan işlab çiqaruvçi tavsiyalariga muvofiq foydalaniladi va ularga texnik xizmat körsatiladi.
- Sanitariya çiqindilari litsenziyaga ega pudratçilar tomonidan loyiha hududidan olib çiqiladi va mahalliy hokimiyat tasdiqlagan çiqindilarga işlov beriş inşootlarida tegişli tartibda yöq qilinadi.

Uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC) çiqarilmalarining oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari

- Loyiha hududida saqlanadigan va işlatiladigan, gaz çiqarilişi mumkin bölgan xavfli materiallar, masalan, uçuvçan organik birikmalar yaxşi şamollatiladigan, ammo xavfsizligi ta’minlangan, xavfi past hududlarga, asosiy transport yöllari hamda quriliş maydoni çegarasidan uzoqqa joylaştiriladi.
- Uçuvçan yoqilğilar va kimyoviy moddalar, jumladan, xavfli çiqindilar germetik yopilgan idişlarda saqlanadi. Loyiha hududida katta miqdordagi uçuvçan yoqilğini saqlaşga, şuningdek, ularni uzoq vaqt bevosita quyoş nuri va issiqlik ta’sirida qoldirişga yöl qöyilmaydi.
- Loyiha hududida olov yoqiş va materiallarni yondirişga ruxsat berilmaydi.
- Kimyoviy moddalarni saqlaş joylari maxsus quriladi va yaxşi holatda saqlanadi. Saqlaş inşootining oson erişiladigan joyida barça kimyoviy moddalarning qayd jurnali va materiallar xavfsizligi böyiça ma’lumotlar varaqlari (MXBMV/MSDS) mavjud böladi.

6.5.3 Foydalaniş bosqiçi

Inşoot faoliyatiga boğliq jihatlar va ta'sirlanişi mumkin bölgan qabul qiluvçi obyektlar asosida havoga çiqarilmalar bilan boğliq ehtimoliy ta'sirlar aniqlangan. Ular 6.12-jadvalda keltirilgan va uşbu bölimda batafsil muhokama qilingan.

6.12-jadval. Foydalaniş bosqiçida havo sifati: jihatlar va ta'sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta'sirlar va ta'sir hududi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Havo kemalari faoliyati, jumladan, havoga kötariliş, qöniş, rullaş, dvigatellarni sinovdan ötkaziş, yordamçi quvvat qurilmalari (YQQ/APU), yerusti elektr ta'minoti qurilmalari (YETQ/GPU)	azot oksidlari, CO, oltingugurt dioksidi, muallaq zarraçalar, uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC) çiqarilmalari	Manbadan 1 km doirasida.	Tadqiqot hududidagi odamlar va ekologik qabul qiluvçi obyektlar.
Yerusti xizmat körsatiş transport vositalari	azot oksidlari va muallaq zarraçalar çiqarilmalari	Aeroportdan 200 m doirasida.	
Elektr energiyasi işlab çiqariş inşooti	azot oksidlari va muallaq zarraçalar çiqarilmalari	Manbadan 1 km doirasida.	
Havo kemalari yoqilğisi	Yoqilği quyiş jarayonlari va saqlaş baklaridan uglevodorodlar hamda uçuvçan organik birikmalarning sizib çiqişi	Manbadan 200 m doirasida.	
Mahalliy yöllardan foydalanadigan avtomobil transporti	azot oksidlari va muallaq zarraçalar çiqarilmalari	Ta'sirga uçragan yöllardan 200 m doirasida.	Ta'sirga uçragan yöllardan 200 m doirasidagi odamlar va ekologik qabul qiluvçi obyektlar.

6.5.3.1 Aeroportdan foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalar

Havoda tarqalişni modellaştiriş haqida umumiy ma'lumot

Aeroport faoliyati havo kemalari harakati, umumiy foydalaniş tomonidagi transport oqimi, muqim yoniş qurilmalari hamda yoqilğini qabul qiliş va uzatiş bilan boğliq turli havoga çiqarilma manbalarini yuzaga keltiradi. Ular 6.12-jadvalda umumlaştirilgan.

Foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalarning mahalliy atmosfera havosi sifatiga ehtimoliy ta'sirini miqdoriy baholaş uçun AMITB/ESIA doirasida havoda tarqaliş batafsil modellaştirilgan. Modellaştiriş quyidagilarni qamrab oladi:

- Havo kemalarining kutilayotgan harakati va foydalaniş tavsiflari;
- Yerusti xizmat körsatiş uskunalari va transport vositalarining faoliyati;
- Kiriş yölidagi transport harakati böyiça mavjud dastlabki ma'lumotlar;
- Elektr energiyasi işlab çiqariş inşooti çiqarilmalarining xususiyatlari;
- Loyiha hududini aks ettiradigan meteorologik ma'lumotlar; va
- Joylarda ötkazilgan kuzatuv orqali aniqlangan havoning mavjud boşlanğiç holati.

Modellaştiriş orqali tadqiqot hududida aniqlangan aholiga oid qabul qiluvçi obyektlar joylaşgan nuqtalardagi ifloslantiruvçi moddalarning yer sathidagi kutilayotgan konsentratsiyalari aniqlanadi. Natijalar foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalarning fazoviy qamrovini, ya'ni ta'sir hududini va ta'sirga uçraşi mumkin bölgan qabul qiluvçi obyektlarni aniqlaş imkonini ham beradi.

Loyiha hududining markaziy qismida, yölovçi terminali binosi yaqinida avtoturargoh rejalaştirilgan. Biroq uning loyiha hududi içida joylaşgani va loyiha qabul qiluvçi obyektlardan uzoqligi hisobga olinsa, mahalliy havo sifatiga ehtimoliy ta'siri ahamiyatsiz bölişi kutiladi. Şu asosda avtoturargohdan çiqadigan çiqarilmalar havo sifatini batafsil baholaş doirasiga kiritilmagan. Havoda tarqalişni modellaştirişning qöşimça farazlari va qamrovi 3-ilovada berilgan modellaştiriş hisobotida bayon qilingan.

Quyidagi bölimlarda modellaştiriş natijalari keltiriladi hamda aeroportdan foydalaniş bosqiçida aniqlangan va loyiha qabul qiluvçi obyektlarga kutilayotgan ta’sirlar baholanadi.

AMITB/ESIA uçun asoslovçi texnik tadqiqot hisoblangan batafsil modellaştiriş hisoboti 3-ilovada keltirilgan. Unda ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyasining kutilayotgan miqdoriy qiymatlari berilgan. Ular Özbekiston milliy standartlari, JSST/WHO yöriqnomalari, Yevropa Ittifoqi standartlari hamda XMK/IFC va YTTB/EBRD kreditorlarining talablari bilan taqqoslangan. Bu talablar loyiha hissasi amaldagi havo sifati standartlarining 25 foizidan oşmasligi qoidasini ham öz içiga oladi.

Modelni tuzişda qabul qilingan şartlar

Kutilayotgan ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyalari ehtimoliy ta’sirlarni kam baholamasligini ta’minlaş uçun baholaşda ehtiyotkorona modellaştiriş farazlari qöllanilgan. Modellaştiriş aeroportdan odatdagi örtaça foydalanişni emas, balki taklif etilayotgan aeroport uçun haqiqatga yaqin eng noqulay foydalaniş ssenariysini aks ettiradi.

Baholaşda qabul qilingan asosiy ehtiyotkorona farazlar quyidagilarni öz içiga oladi:

- Xalqaro fuqaro aviatsiyasi taşkilotining (XFAT/ICAO) havo kemalari çiqarilmalari koeffitsiyentlaridan foydalangan holda barça havo kemalarining qöniş, havoga kötariliş, balandlik oliş, yaqinlaşuv, rullaş faoliyatidan çiqadigan çiqarilmalarni hisobga oliş;
- Atmosferada tarqaliş şaroitining keng doirasini, jumladan, yomon tarqaliş davrlarini qamrab oliş uçun ketma-ket beş yil, 2020-2024-yillarga oid soatlik meteorologik ma’lumotlardan foydalaniş;
- Havo kemalari harakatining taqsimoti va uçiş-qöniş yölaklaridan foydalanişga oid ehtiyotkorona farazlar;
- Atmosfera havosi sifati standartlari bilan taqqoslaş uçun tegişli qisqa muddatli örtaçalaştiriş davrida zaxira dizel generatorlari uzluksiz işlaydi deb modellaştiriş. Vaholanki, odatiy foydalaniş şaroitida bu generatorlar faqat har oylik muntazam sinov, ya’ni oyiga taxminan bir soat va milliy elektr ta’minotidagi uzilişlar paytida favqulodda foydalaniş uçun möljallangan;
- Havo kemalarining qöniş va havoga kötariliş paytidagi harakat masofalariga oid, loyiha qabul qiluvçi obyektlarga eng yaqin uçiş-qöniş yölagi qismlaridagi çiqarilmalarni ataylab eng yuqori darajada hisoblaydigan ehtiyotkorona farazlar.

Şu bilan birga, baholaş odatiy aeroportga nisbatan foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalarni kamaytirişi kutiladigan qator loyiha farazlarini ham aks ettiradi. Bular asosan elektr quvvatida işlaydigan YXKU/GSEdan foydalanişni va havo kemasi turar joylaridagi havo kemalarini statsionar yerusti elektr ta’minoti bilan ta’minlaşni öz içiga oladi. Bu yordamçi quvvat qurilmalaridan (YQQ/APU) foydalaniş zaruratini kamaytiradi.

Demak, modellaştiriş odatiy foydalaniş ssenariysini emas, balki haqiqatga yaqin eng noqulay şaroitda talablarga muvofiqlikni namoyiş etişga qaratilgan ehtiyotkorona baholaşni aks ettiradi. Zaxira generatorlaridan kamdan kam foydalaniş, havo kemalari dvigateli texnologiyalarining takomillaşib borişi, çiqarilmasi kam aeroport yerusti xizmat tizimlaridan foydalaniş rejalaştirilgani sababli, haqiqiy çiqarilmalar modelda hisoblanganidan kam bölişi kutiladi. Şu sababli, aeroportning janubiy çegarasiga tutaş, maqsadli oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda doimiy kuzatuv taklif etilgan çeklangan hudud bundan mustasno, baholaş foydalaniş bosqiçidagi havo sifati ta’sirlari amaldagi milliy va xalqaro baholaş mezonlari doirasida qolişi haqidagi xulosa uçun işonçli asos beradi.

Baholaş qamrovi

Foydalaniş bosqiçidagi havo sifatini baholaşda markazi aeroport hududida joylaşgan 10 × 10 km lik modellaştiriş hududidagi ifloslantiruvçi moddalar çiqarilmalari körib çiqilgan. Ta’sirlar asosan atrofdagi aholi punktlaridagi turar joylardan iborat loyihaning aniqlangan 30 ta qabul qiluvçi obyektida baholangan.

Modellaştirişda quyidagi ifloslantiruvçi moddalar baholangan:

- Azot dioksidi (NO_2),

- Uglerod monoksidi (CO),
- Muallaq zarraçalar (PM_{10} va $PM_{2.5}$), hamda
- Uglevodorodlar, jumladan, benzol.

Bu ifloslantiruvçi moddalar aeroport çiqarilmalari manbalarining xususiyati va ularning milliy hamda xalqaro atmosfera havosi sifati standartlariga aloqadorligi asosida tanlangan. Havo kemalari yoqilğisi tarkibida oltingugurt mavjud, biroq uning miqdori nisbatan kam, odatda 600-800 ppmni taşkil etadi. Şu sababli, oltingugurt dioksidi çiqarilmalari bu baholaş doirasiga kiritilmagan.

Çiqarilma manbalariga havo kemalari faoliyati, jumladan, töliq qöniş va uçiş sikli (QUS/LTO) hamda rullaş, har oy sinovdan ötkaziladigan zaxira dizel generatorlari, aeroportga kiriş yöli bilan boğliq avtomobil harakati kiritilgan. Havo kemalari harakati 1-uçiş-qöniş yölagi va 2-uçiş-qöniş yölagi örtasida teng taqsimlanadi deb faraz qilingan. Uçiş-qöniş yölagi yönalişi, 06 yoki 24, ustun şamol şaroitiga qarab belgilanadi. Bunda havo kemalari odatiy aviatsiya amaliyotiga muvofiq şamolga qarşi havoga kötariladi va qönadi.

Havoda tarqaliş ADMS Airport v5.1 dasturi, ya'ni aeroport baholaşlari uçun maxsus işlab çiqilgan va tan olingan zamonaviy tarqaliş modeli yordamida modellaştirilgan. Modellaştirişda beş yillik, 2020-2024-yillarga oid xos meteorologik ma'lumotlar, binolar ortidagi pastga yönalgan oqim ta'sirlari, NO_xning NO_2ga aylanişi uçun batafsil atmosfera kimyosi, dizel generatorlaridan foydalanişga oid ehtiyotkorona farazlar hisobga olingan. Bunga eng noqulay holatni ifodalaş uçun qisqa muddatli örtaçalaştiriş davrlarida uzluksiz işlaş farazi ham kiradi.

Modellaştirişda har bir qabul qiluvçi obyektdagi ifloslantiruvçi moddalarning yer sathidagi kutilayotgan konsentratsiyalari aniqlangan. Keyin ular boşlanğiç konsentratsiyalarga qöşilib, kutilayotgan atrof-muhit konsentratsiyalari (BQAMK/PEC) aniqlangan. Bu körsatkiçlar amaldagi milliy standartlar, JSST/WHOning Havo sifati yöriqnomalari, jumladan, oraliq maqsadlar, Yevropa Ittifoqining çegaraviy qiymatlari hamda XMK/IFC va JBG/WBG yöriqnomalari bilan taqqoslangan.

Yuqorida bayon qilinganidek, foydalaniş bosqiçidagi havo sifatini baholaşda aniqlangan va loyiha qabul qiluvçi obyektlarda atmosfera havosidagi ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyasiga sezilarli hissa qöşişi kutiladigan çiqarilma manbalariga e'tibor qaratilgan. Şu sababli, hissasi ahamiyatsiz bölişi kutilgan aeroportga oid ayrim çiqarilma manbalari batafsil baholaş doirasiga kiritilmagan.

Terminalga tutaş barça havo kemasi turar joylarida yerusti elektr ta'minoti beriladi. Terminaldan uzoqdagi havo kemasi turar joylarida turgan havo kemalari esa navbatdagi parvozga tayyorlaş paytida faqat zarur hollarda yordamçi quvvat qurilmalari (YQQ/APU) yoki köçma yerusti elektr ta'minoti qurilmalaridan (YETQ/GPU) foydalanadi. Bu joylardagi YQQ/APU va YETQ/GPU çiqarilmalari batafsil baholaş doirasiga kiritilmagan. Çunki bu qurilmalar vaqti-vaqti bilan hamda nisbatan qisqa muddat işlaydi, manbalar esa aeroportning markaziy aerodrom tomonida, eng yaqin qabul qiluvçi obyektlardan ança uzoqda joylaşgan. Havo kemalari dvigatellarining qöniş, rullaş, havoga kötariliş paytidagi çiqarilmalari esa aeroportdan foydalaniş bosqiçidagi havoga çiqarilmalarning asosiy manbai hisoblanadi. Şu sababli, baholaşda ularga e'tibor qaratilgan.

Xuddi şuningdek, aeroport avtoturargohlardagi yölovçi transporti harakati bilan boğliq çiqarilmalar batafsil baholaş doirasiga kiritilmagan. Asosiy avtoturargohlar aeroportning markaziy umumiy foydalaniş tomonida, eng yaqin turar joy qabul qiluvçi obyektlaridan taxminan 1 km masofada joylaşgan. Transport vositalari tezligining pastligi, çiqarilma darajasining nisbatan kamligi, çiqarilmalarning tarqoq xususiyati va loyiha qabul qiluvçi obyektlargaça ança masofa borligi hisobga olinsa, bu faoliyatlardan çiqadigan çiqarilmalar havo kemalari faoliyati va atrofdagi yöl tarmoğidagi transport harakatiga nisbatan ahamiyatsiz bölişi kutiladi. Şu sababli, bu manbalar yaqin atrofdagi, loyiha qabul qiluvçi obyektlarda atmosfera havosidagi ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyasiga yoki foydalaniş bosqiçidagi havo sifatini baholaş xulosalariga sezilarli ta'sir körsatişi kutilmaydi.

Ta'sir ahamiyati mezonlari

Özbekistonda rivojlaniş loyihalarining maqbul ta’sirini baholaş mezonlarini belgilaydigan mahalliy rejalaştiriş siyosati mavjud emas. XMK/IFC yöriqnomasida “ayni havo havzasida kelgusida qöşimça barqaror rivojlaniş imkonini saqlaş uçun bitta loyiha çiqarilmalari amaldagi atmosfera havosi sifati standartlarining 25 foizidan ortiq hissa qöşmasligi kerak” deb körsatilgan.


Maxsus ta’sir ahamiyati mezonlari mavjud bölmagani sababli, bu qoida taklif etilayotgan aeroport çiqarilmalarining mahalliy hududdagi ta’sir ahamiyatini aniqlaş uçun qöllanilgan.

Kutilayotgan ta’sirlar

Azot dioksidi (NO_2)

Modellaştiriş natijalariga köra, NO_2ning yillik örtaça konsentratsiyasi uçiş-qöniş yölagining janubidagi kiçik aholi punktida joylaşgan H1 nuqtasidan taşqari, barça qabul qiluvçi obyektlarda amaldagi standartlarga mos keladi. Bu qabul qiluvçi obyektdagi kutilayotgan atrof-muhit konsentratsiyasi (BQAMK/PEC) 43,0 µg/m³ni taşkil etadi va yillik örtaça 40 µg/m³ standartdan biroz oşadi. Tegişli mezonlarga milliy standart, JSST/WHOning 1-oraliq maqsadi, Yevropa Ittifoqi standarti kiradi.

6.16-rasmdagi kontur xaritasida rejadagi kök çiziq bilan çegaralangan me’yordan oşiş hududi körsatilgan.



6.16-rasm. NO_2ning eng yuqori yillik örtaça konsentratsiyasi kontur xaritasi (µg/m³)


Bu oşiş juda mahalliy bölib, unga ehtiyotkorona modellaştiriş farazlari ta'sir qilgan. Bunday farazlarga uçiş-qöniş yölaklaridan teng foydalaniş va eng noqulay meteorologik şaroitda qabul qiluvçi obyekt yaqinidagi havo kemalari faoliyati kiradi. Boşqa barça qabul qiluvçi obyektlarda aeroportning yillik NO_2 konsentratsiyasiga hissasi amaldagi standartlarning 25 foizidan ança past. Şu sababli, XMK/IFC mezonlariga köra u ahamiyatsiz deb hisoblanadi.

Qisqa muddatli NO_2 konsentratsiyalari, jumladan, 1 soatlik, 24 soatlik, 15 daqiqalik örtaçalaştiriş davrlari hamda eng noqulay farazlar asosida zaxira dizel generatorlaridan foydalaniş bilan boğliq konsentratsiyalar barça qabul qiluvçi obyektlarda amaldagi standartlarning 25 foizidan past qolişi kutiladi. Şu sababli, ular ahamiyatli emas. Şuningdek, hududiy transport vositalari parkining tobora elektrlaştirilişi va transport çiqarilmalari standartlarining bosqiçma-bosqiç qat'iylaşi sababli boşlanğiç NO_2 konsentratsiyasi vaqt ötişi bilan pasayişi kutiladi. Bu kelajakdagi foydalaniş bosqiçi ta'sirlari kutilganidan kam bölişi mumkinligini körsatadi.


Havodagi mayda zarraçalar (PM_{10} va $PM_{2.5}$)

Muallaq zarraçalar$_{10}$ böyiça aeroportdan foydalaniş natijasida milliy standart yoki JSST/WHOning 1 va 2-oraliq maqsadlaridan oşiş kutilmaydi. JSST/WHOning qat'iyroq yöriqnoma darajalaridan, ya'ni 3 va 4-oraliq maqsadlardan oşiş kuzatiladigan joylarda bunga aeroport hissasi emas, mavjud boşlanğiç holat sabab böladi. Barça qabul qiluvçi obyektlarda aeroportning PM_{10} konsentratsiyasiga hissasi amaldagi standartlarning 25 foizidan past. Şu sababli, u ahamiyatsiz deb hisoblanadi.

Xuddi şuningdek, aeroport hissasi sababli $PM_{2.5}$ böyiça milliy standartdan oşiş kuzatilmaydi. Tadqiqot hududining ayrim qismlarida boşlanğiç $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi JSST/WHOning ayrim yöriqnoma qiymatlari va Yevropa Ittifoqi standartlaridan yuqori bölsa-da, aeroport hissasi nihoyatda kiçik, odatda tegişli standartning 1 foizidan kam. Şu sababli, foydalaniş bosqiçidagi mayda muallaq zarraçalar konsentratsiyasiga ta'sir ahamiyatsiz deb baholanadi.



6.17-rasm. PM_{10}ning eng yuqori yillik örtaça konsentratsiyasi kontur xaritasi (µg/m³)



6.18-rasm. $PM_{2.5}$ning eng yuqori yillik örtaça konsentratsiyasi kontur xaritasi (µg/m³)

Uglerod monoksidi (CO)

Kutilayotgan CO konsentratsiyasi barça qabul qiluvçi obyektlarda milliy, JSST/WHO, Yevropa Ittifoqi standartlariga mos keladi. Generatorlardan foydalanişga doir ehtiyotkorona farazlar qöllanganda ham aeroport hissasi amaldagi standartlarning 25 foizidan ança past böladi. Şu sababli, CO bilan boğliq foydalaniş bosqiçi ta'siri ahamiyatsiz deb baholanadi.

Uglevodorodlar, jumladan, benzol

Aeroportning benzol konsentratsiyasiga hissasi barça qabul qiluvçi obyektlarda Yevropa Ittifoqining amaldagi çegaraviy qiymatining 25 foizidan kam bölişi kutiladi. Ayrim joylarda umumiy konsentratsiya Yevropa Ittifoqining benzol böyiça çegaraviy qiymatidan oşsa-da, bunga aeroport çiqarilmalari emas, mavjud boşlanğiç holat sabab böladi. Aeroportning qöşimça hissasi kiçik va mavjud havo sifati şaroitini sezilarli darajada özgartirmaydi.

Ta'sirlarning umumiy ahamiyati

Butun modellaştiriş hududi böyiça baholanganda, taklif etilayotgan aeroport XMK/IFC va JBG/WBG mezonlariga köra deyarli barça qabul qiluvçi obyektlarda havo sifatiga ahamiyatsiz ta'sir körsatişi kutiladi.

Loyiha hududi çegarasidan taxminan 70 m janubdagi kiçik aholi punktida joylaşgan H1 qabul qiluvçi obyektda yillik örtaça NO_2 böyiça amaldagi baholaş mezonidan bitta mahalliy oşiş kutiladi. Kutilayotgan yillik örtaça konsentratsiya 43 µg/m³, amaldagi baholaş mezoni esa 40 µg/m³ni taşkil etadi. Bu oşiş juda kiçik, bevosita uçiş-qöniş yölagi yonidagi bitta qabul qiluvçi obyekt bilan çeklangan. Boşqa aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarda oşiş kutilmaydi. NO_2, CO, PM_{10}, $PM_{2.5}$ning barça kutilayotgan qisqa muddatli konsentratsiyalari amaldagi baholaş mezonlaridan past qolişi kutiladi.

H1dagi kutilayotgan oşiş atmosfera havosi sifatining keng miqyosda yomonlaşişini emas, balki qabul qiluvçi obyektning havo kemalari qönişi va havoga kötarilişi bilan boğliq asosiy çiqarilma manbalariga yaqinligini aks ettiradi. Baholaş uslubida ehtimoliy ta'sirlarni kam baholamaslik uçun havo kemalari faoliyatiga, jumladan, harakat tartibi, qöniş va havoga kötariliş çiqarilmalari hamda atmosferada tarqalişga oid ehtiyotkorona farazlar qöllanilgan. Şu sababli, kutilayotgan konsentratsiyalar foydalaniş bosqiçidagi havo sifatiga ehtimoliy ta'sirlarning ehtiyotkorona bahosini ifodalaydi.

Oşiş kölami çeklangan, ya'ni amaldagi yillik örtaça mezondan taxminan 3 µg/m³ yuqori va juda mahalliydir. Uçiş-qöniş yölagidan uzoqlaşgan sari ifloslantiruvçi moddalar konsentratsiyasi tez kamayadi. Şu sababli, modellaştiriş bu ehtimoliy ta'sir atrofdagi jamoalarga keng miqyosda tarqalmasdan, aeroportga eng yaqin joylaşgan qabul qiluvçi obyekt bilan çeklanişini körsatadi.

Yuqorida bayon qilinganidek, baholaşda havo kemalari faoliyatiga, jumladan, qöniş va havoga kötariliş çiqarilmalarining fazoviy qamroviga doir ehtiyotkorona modellaştiriş farazlari qöllanilgan. Ular H1 qabul qiluvçi obyektdagi yer sathi konsentratsiyasini ortiqça baholaşi mumkin. Şunga qaramay, hozirgi baholaş bu ehtiyotkorona farazlar asosida yillik örtaça mezondan biroz oşişi kutilayotganini körsatadi.

Aeroportdan foydalaniş boşlanişi bilan aeroport operatori manbadagi çiqarilmalarni kamaytiriş çoralarini qamrab oladigan Havo sifatini boşqariş dasturini amalga oşiradi. Bu çoralarga aerodrom tomonidagi transport vositalari va YXKU/GSEni bosqiçma-bosqiç elektrlaştiriş, havo kemalarining YQQ/APUdan foydalanişini kamaytiriş uçun statsionar yerusti elektr ta'minotini taqdim etiş, havo kemalarining yerusti harakati va yerda harakatlanişini maqbullaştiriş, dvigatellarning salt işlaşini kamaytiriş hamda aviakompaniyalar bilan hamkorlikda parkni izçil yangilaş kiradi. Bu çoralar vaqt ötişi bilan foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalarni bosqiçma-bosqiç kamaytirişi kutiladi.

Havo sifatini boşqariş dasturi haqiqiy havo sifati körsatkiçlarini tekşiriş va amalga oşirilgan oldini oliş hamda kamaytiriş çoralarining samaradorligini tasdiqlaş uçun foydalaniş bosqiçidagi atmosfera havosi sifatini muntazam kuzatişni ham öz içiga oladi. Kuzatuv natijalari vaqti-vaqti bilan amaldagi baholaş mezonlariga soliştiriladi. Kuzatuvda amaldagi yillik örtaça mezonga yaqinlaşayotgan yoki undan oşayotgan konsentratsiyalar aniqlansa, aeroport operatori çiqarilmalarni kamaytiriş va amaldagi havo sifati standartiga muvofiqlikni ta'minlaş uçun moslaşuvçan boşqaruv jarayoni orqali qöşimça oldini oliş va kamaytiriş çoralarini amalga oşiradi.

Modellaştirişning ehtiyotkorona xususiyati, kutilayotgan oşiş kölami va fazoviy qamrovining çeklanganligi, şuningdek, natijaga asoslangan kuzatuv va moslaşuvçan boşqaruv bilan qöllab-quvvatlanadigan foydalaniş bosqiçidagi oldini oliş va kamaytiriş çoralarini amalga oşiriş majburiyati hisobga olinadi. Şu asosda, foydalaniş bosqiçidagi havo sifatiga qoldiq ta'sir kiçik, ya'ni ahamiyatsiz va boşqariladigan deb hisoblanadi.

Barça qisqa muddatli ifloslantiruvçi moddalar miqdori, jumladan, NO_2, CO, PM_{10}, $PM_{2.5}$ amaldagi standartlardan ança past böladi.

Tadqiqot hududida aniqlangan JSST/WHO va Yevropa Ittifoqi yöriqnoma qiymatlaridan oşişlarning aksariyati aeroport hissasiga emas, mavjud hududiy fon konsentratsiyalariga boğliq.

Bu baholaşda qöllanilgan modellaştiriş yondaşuvi ataylab ehtiyotkorona tanlangan. Unda uçiş-qöniş yölaklaridan va generatorlardan foydalaniş hamda atmosfera kimyosiga doir eng noqulay holat farazlari hisobga olingan. Natijada foydalaniş bosqiçidagi haqiqiy ta'sirlar modelda hisoblangan darajaga teng yoki undan past bölişi kutiladi.

Aeroportning foydalaniş bosqiçida NO_2, PM_{10}, $PM_{2.5}$, CO, uglevodorodlar konsentratsiyasiga qöşadigan hissasi asosan kiçik bölib, tegişli milliy hamda xalqaro standartlarga mos keladi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan aeroportdan foydalanişning atmosfera havosi sifatiga ta'siri xalqaro AMITB/ESIA ta'sir ahamiyati mezonlari, jumladan, XMK/IFC va JBG/WBGning 25 foizlik hissa çegarasiga muvofiq past va maqbul deb baholanadi.

6.5.4 Foydalaniş bosqiçida havo sifatiga ta'sirni baholaş xulosasi

Foydalaniş bosqiçidagi havoni ifloslantiruvçi moddalar çiqarilmalarining ehtimoliy ta'sirlari va ularning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga oqibatlari quyidagi jadvalda umumlaştirilgan. Jadvalda tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda ular amalga oşirilgandan keyingi qoldiq ta'sirlar ham keltirilgan.

6.13-jadval. Foydalaniş bosqiçidagi havo sifati ta'sirlarini baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta'sirlar	Ta'sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta'sir Ta'sir ahamiyati	Qoldiq ta'sirlar
Havoni ifloslantiruvçi gazsimon moddalar çiqarilmalari, jumladan, havo kemalari faoliyati, yerusti xizmat transport vositalari, yoqilğini saqlaş, energetika qurilmalari: NO_2, PM_{10}, $PM_{2.5}$, CO, SO_2, uçuvçan organik birikmalar (UOB/VOC)	Örtaça *Ehtiyotkorona farazlar asosida yillik NO_2 miqdorining mahalliy oşişi*	H1 turar joy qabul qiluvçi obyekti	Yuqori	Örtaça	Kiçik
	Ahamiyatsiz	Ta'sir hududi (TH/AoI) doirasidagi boşqa yaqin turar joy qabul qiluvçi obyektlari	Yuqori	Kiçik	Ahamiyatsiz
	Ahamiyatsiz	Tijorat, sanoat, qişloq xöjaligi yerdan foydalanuvçilari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
	Ahamiyatsiz	Loyiha işçilari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
Mahalliy yöllarda aeroport bilan boğliq avtomobil harakatidan çiqadigan çiqarilmalar	Ahamiyatsiz	Mahalliy yöllar böylab joylaşgan turar joy qabul qiluvçi obyektlari	Yuqori	Kiçik	Ahamiyatsiz
	Ahamiyatsiz	Tijorat, sanoat, qişloq xöjaligi yerdan foydalanuvçilari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Aeroport operatori, ya'ni Tashkent Airport Alliance, foydalaniş bosqiçidagi atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv tizimining (AMIBT/ESMS) bir qismi sifatida keng qamrovli Havo sifatini boşqariş dasturini amalga oşiradi. Dastur quyidagi çoralarni qamrab oladi.

<u>Gazsimon çiqarilmalarning oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari</u>

Havo kemalari harakati, yerusti xizmatlari, statsionar manbalar bilan boğliq çiqarilmalarni kamaytiriş uçun aeroport operatori quyidagilarni amalga oşiradi:

- Foydalaniş imkon bergan va aviatsiya xavfsizligi talablariga muvofiq bölgan hollarda rullaş masofalari va dvigatellarning işlaş vaqtini kamaytiradi. Buning uçun uçiş-qöniş yölaklarini taqsimlaş hamda uçiş tartiblarini havo harakatini boşqariş idoralari bilan muvofiqlaştirgan holda maqbullaştiradi.
- Havo kemasi turar joylarini boşqariş tartiblarini joriy etib, yordamçi quvvat qurilmalarining (YQQ/APU) işlaş vaqtini kamaytiradi.
- Yerda xizmat körsatiş uskunalari / yerda xizmat körsatiş transport vositalari (YXKU/GSE va YXTV/GSV) dvigatellarining salt işlaşiga qarşi talablarni belgilaydi hamda ularga rioya etilişini ta'minlaydi.
- Texnik va iqtisodiy jihatdan mumkin bölgan hollarda barça yerusti xizmat körsatiş uskunalarini (YXKU/GSE) elektr yoki gibrid qurilmalar kabi çiqarilmasi kam texnologiyalarga bosqiçma-bosqiç ötkazadi.
- Kelajakda barqaror yoki sun'iy aviatsiya yoqilğisidan (BAY/SAF) foydalaniş imkonini yaratadi.
- Aerodrom tomonida faoliyat yuritadigan barça pudratçilardan aeroportning atrof-muhit talablariga, jumladan, uskuna va transport vositalari çiqarilmalariga oid samaradorlik standartlariga rioya etişni talab qiladi.
- Yonişning eng yuqori samaradorligini ta'minlaş va çiqindi gaz çiqarilmalarini kamaytiriş uçun aeroportga qaraşli barça transport vositalari, maşina, uskunalarga rejali profilaktik texnik xizmat körsatiş dasturini amalga oşiradi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar

- Körinadigan qora tutun yoki me’yordan ortiq çiqindi gaz çiqaradigan transport vositalari va uskunalar ta’mirlanib, talablarga muvofiq holga keltirilgunga qadar xizmatdan çiqarilişini ta’minlaş uçun davriy tekşiruvlar ötkazadi.
- Yoqilğini saqlaş va u bilan işlaş inşootlari uglevodorodlarning tarqoq çiqarilmalarini kamaytiriş uçun xalqaro standartlarga muvofiq loyihalanadi va ulardan foydalaniladi.

<u>Zaxira dizel generatori çiqarilmalarining oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari</u>

Favqulodda dizel generatorlaridan işlab çiqaruvçi tavsiyalari va me’yoriy talablarga muvofiq faqat favqulodda holatlarda hamda rejali sinovlar uçun foydalaniladi. Çiqarilmalarni kamaytiriş uçun:

- Generatorlarda oltingugurt miqdori juda kam bölgan dizel yoqilğisi işlatiladi.
- Yetarli tarqalişni ta’minlaş uçun tutun quvurlari generator qobiğidan kamida 3 metr balandlikka çiqadigan qilib va tarqalişni modellaştiriş farazlariga muvofiq loyihalanadi.
- Samarali yonişni ta’minlaş uçun işlab çiqaruvçi talablari asosida profilaktik texnik xizmat körsatiladi.
- Yaqin atrofdagi qabul qiluvçi obyektlarning ehtimoliy qisqa muddatli ta’sirga uçraşini kamaytiriş uçun generator sinovlari kunduzgi vaqtda, noqulay meteorologik şaroit kuzatilmagan paytda ötkaziladi.

<u>Foydalaniş bosqiçidagi avtomobil harakati çiqarilmalarining oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari</u>

Kiriş yöllari va aeroport hududidagi aeroport bilan boğliq avtomobil harakati çiqarilmalarini boşqariş uçun:

- Transport vositalari yönalişlarini maqbullaştiriş va tirbandlikni kamaytiriş uçun transport harakatini boşqariş rejasi amalga oşiriladi.
- Aeroport hududidagi taksi, avtobus, xizmat transporti dvigatellarining salt işlaşiga qarşi talablar ijrosi ta’minlanadi.
- Aeroport transport vositalari parki bosqiçma-bosqiç çiqarilmasi kam yoki elektr transport vositalariga ötkaziladi.
- Aeroport foydalanadigan barça transport vositalari muntazam tekşiruv va texnik xizmat körsatiş dasturlaridan ötkaziladi hamda ularning qaydlari yuritiladi.
- Me’yordan ortiq tutun çiqaradigan yoki çiqarilmalar tekşiruvidan öta olmagan transport vositalari kamçiligi bartaraf etilgunga qadar foydalanişdan çiqariladi.
- Aeroport çegarasida faoliyat yuritadigan barça şertnoma asosidagi xizmat körsatuvçilar milliy transport vositalari çiqarilmalari standartlariga rioya etişi şart.

6.6 Muntazam kuzatiş

MXQ/EPC pudratçisi va loyiha kompaniyasi tegişli ravişda loyihaning quriliş, işga tuşiriş, foydalaniş bosqiçlarida havo sifatini kuzatadi. Bu çoralar 6.14-jadvalda bayon qilingan. Kuzatuv joylari, davriyligi, davomiyligi, körsatkiçlari kabi aniq tafsilotlarni öz içiga olgan yakuniy uslubiyat maxsus atrof-muhit kuzatuv rejasida işlab çiqiladi.

6.14-jadval. Havo sifatini kuzatiş

Muntazam kuzatiş	Körsatkiçlar	Davriylik va davomiylik	Joylaşuv
Quriliş			
Çang hosil bölişi va tarqalişi	Közga körinadigan çang çiqarilmalari	Faol yer işlari va transport vositalari harakati paytida har kuni közdan keçiriş. Miqdoriy kuzatiş, masalan, köçma PM_{10} ölçagiçi yordamida har oy, şuningdek, çang me'yordan ortiq kuzatilganda, uzoq davom etadigan quruq yoki şamolli şaroitda yoxud şikoyatlarga javoban amalga oşiriladi.	Loyiha çegarasidan taşqaridagi 4 ta joyda va H1 qabul qiluvçi obyektda
Quriliş transporti çiqarilmalari	Közga körinadigan çiqindi gazlar, jumladan, qora tutun va transport vositasi holati	Faol transport vositalari va maşinalarni har kuni közdan keçiriş. Loyiha hududiga kirişdan oldin amaldagi yillik tekşiruv guvohnomalarini tekşiriş.	Loyiha hududidagi barça pudratçi transport vositalari va loyiha hududiga kiriş joyi.
Quriliş maşinalari va uskunalari	Çiqindi gazlar körsatkiçlari	Safarbarlikdan oldingi tekşiruv va quriliş paytidagi muntazam tanlab tekşirişlar.	Loyiha hududida foydalaniladigan, yöldan taşqarida harakatlanuvçi barça maşinalar.
Yoqilğini saqlaş, xavfli materiallar, sanitariya inşootlari	Hid, közga körinadigan sizib çiqiş	Yoqilği saqlaş, yoqilği quyiş joylari, xavfli materiallar omborlarini har kuni tekşiriş.	Yoqilği saqlaş joylari, yoqilği quyiş hududlari, material saqlaş maydonlari, pudratçi oromgohlari, sanitariya inşootlari.
Foydalaniş bosqiçi			
Havo kemalari va yerusti faoliyati çiqarilmalari	Yordamçi quvvat qurilmalari (YQQ/APU) uçun belgilangan çeklovlarga va dvigatellarni salt işlatmaslik talablariga rioya qiliş hamda yerusti elektr ta'minotidan foydaliniş	Aeroport tartiblari asosida uzluksiz nazorat. Muvofiqlikni vaqti-vaqti bilan, kamida yiliga bir marta tekşiriş.	Aerodrom tomonidagi perronlar, havo kemasi turar joylari, rullaş yölaklari.
Avtomobil va yerusti xizmat körsatiş transport vositalari çiqarilmalari	Avtomobil va yerusti xizmat körsatiş transport vositalari çiqarilmalari	Işlab çiqaruvçi jadvaliga muvofiq muntazam profilaktik texnik xizmat körsatiş. Aeroport foydalanadigan transport vositalari parkini har yili tekşiriş va sertifikatlaş. Közga körinadigan tutun böyiça tanlab tekşiriş.	Aeroport çegarasidagi aeroport va pudratçi foydalanadigan barça transport vositalari; kiriş yöllari

Muntazam kuzatiş	Körsatkiçlar	Davriylik va davomiylik	Joylaşuv
Atmosfera havosi sifatini tasdiqlovçi muntazam kuzatiş	azot dioksidi, aerodinamik diametri 10 mikrometr yoki undan kiçik muallaq zarraçalar, aerodinamik diametri 2,5 mikrometr yoki undan kiçik mayda muallaq zarraçalar, benzol, toluol, etilbenzol, ksilol (BTEK/BTEX)	Dastlab foydalanişning birinçi yilida har çorakda bir hafta davomida uzluksiz kuzatiş amalga oşiriladi. Natijalar asosida davriylik qayta körib çiqiladi.	H1 qabul qiluvçi obyekt yaqinida

7.0 Iqlim özgarişi ta’sirlari va moslaşuv

Yangi Toşkent xalqaro aeroporti uçun iqlim özgarişi ta’sirini batafsil baholaş (IÖTB/CCIA) tayyorlangan va 4-ilovada berilgan. Ilovada töliq uslubiy asos, iqlim ma’lumotlari tahlili, issiqxona gazlari hisobi, iqlim xavfini baholaş hamda yordamçi texnik jadvallar va rasmlar keltirilgan. Quyidagi bölimda uşbu baholaşning qisqaça mazmuni bayon etilgan.

7.1 Amaldagi talablar

7.1.1 Milliy talablar

Parij iqlim bitimining ratifikatsiya qilinişi Özbekiston zimmasiga yaşil iqtisodiyotga ötiş va quyidagi me’yoriy hujjatlarni qabul qiliş majburiyatini yuklagan:

- Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi, 2024-yilda özgartiriş kiritilgan PD-4477-son “Özbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarda “yaşil” iqtisodiyotga ötiş strategiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi Farmoni
- Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi, 2024-yilda özgartiriş kiritilgan PD-5863-son “Özbekiston Respublikasining 2030-yilgaça atrof-muhitni muhofaza qiliş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi Farmoni
- 2021-yilda Özbekiston Respublikasi özining milliy darajada belgilangan hissasini (MDBH/NDC) yangilagan va 2030-yilga qadar yalpi içki mahsulot (YAIM/GDP) birligiga töğri keladigan issiqxona gazi emissiyalarini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirişni maqsad qilgan. Özbekistonning MDBH/NDC hujjati strategik infratuzilmaning çidamliligini oşiriş va gidrometeorologik xavflar böyiça erta ogohlantiriş tizimlarini rivojlantiriş kabi moslaşuv majburiyatlarini ham öz içiga oladi.

7.1.2 Kreditorlar talablari

XMK/IFCning faoliyat standartlari

XMK/IFC Faoliyat standartlarida iqlim özgarişi bir neçta standart doirasida körib çiqilişi mumkin bölgan masala sifatida tan olinadi. XMK/IFCning FS1/PS1ga köra, iqlim özgarişi bilan boğliq tegişli xavflar aniqlanişi kerak.

“Issiqxona gazlari”ga doir XMK/IFCning FS3/PS3 muqobil variantlarni körib çiqişni hamda loyiha “*loyihalaş va foydalaniş bosqiçlarida loyiha bilan boğliq issiqxona gazi (IG/GHG) emissiyalarini kamaytiriş uçun texnik va moliyaviy jihatdan amalga oşirilişi mumkin hamda iqtisodiy samarali variantlar”ni joriy etişini talab qiladi.*

YTTB/EBRD, Parij bitimiga muvofiqlik

YTTB/EBRD öz investitsiyalarini Parij bitimi maqsadlariga muvofiqlaştiriş majburiyatini olgan. Şu sababli loyiha bankning iqlimga oid talablariga muvofiqligi böyiça, zarur hollarda esa YTTB/EBRD investitsiyalarining Parij bitimiga muvofiqligini aniqlaş uslubiyatining 2024-yil martdagi tahriri asosida baholanadi.

Ekvator tamoyillari IV, yetakçi amaliyot

Ekvator tamoyillari IVda iqlimga ta’sirning imkon qadar oldini oliş belgilangan. 2016-yilgi Parij bitimini qöllab-quvvatlaş doirasida Ekvator tamoyillarini qabul qilgan moliya institutlarining (ETQMI/EPFIs) iqlimga oid axborot mavjudligini yaxşilaşdagi örni e’tirof etilgan.

Iqlim özgarişi kabi omillar loyihani körib çiqiş va toifalaş jarayoniga, ya’ni EP1ga kiritilişi kerak. ET/EP IVning asosiy unsurlaridan biri bölgan atrof-muhit va ijtimoiy baholaşga oid EP2 esa AMITB/ESIA doirasida iqlim özgarişi xavflarini baholaşni talab qiladi.

1 va 2-qamrovdagi issiqxona gazi (IG/GHG) emissiyalari yiliga 100 000 tonna CO_2 ekvivalentidan ortiq bölgan loyihalar uçun muqobil variantlar tahlili hamda buyurtmaçining issiqxona gazi (IG/GHG) emissiyalari böyiça yillik hisobot berişiga boğliq boşqa talablar ham mavjud.

Yevropa komissiyasining infratuzilmani iqlim ta’siriga çidamli qiliş talablari

Yevropa komissiyasining infratuzilmani iqlim ta’siriga çidamli qiliş böyiça texnik qöllanmasi 2021-2027-yillardagi dastur davrini qamrab oladi. Parij bitimi va Yevropa Ittifoqining iqlim maqsadlariga muvofiq, qöllanma Yevropa Ittifoqining 2018/1999-son

reglamenti 2-moddasi 18-bandida belgilangan “avvalo energiya samaradorligi” tamoyiliga hamda Yevropa Ittifoqining 2020/852-son reglamentida, ya’ni Tasniflaş reglamentida belgilangan “jiddiy zarar yetkazmaslik” tamoyiliga amal qiladi. U infratuzilmani iqlim ta’siriga çidamli qiliş jarayonini AMTB/EIA bilan birlaştiradi.

7.2 Iqlim özgarişi, milliy va hududiy şaroit

Özbekiston 1993-yil 20-iyunda Birlaşgan Millatlar Taşkilotining Iqlim özgarişi töğrisidagi doiraviy konvensiyasiga (BMTIÖDK/UNFCCC) qoşilgan. Özbekiston BMTIÖDK/UNFCCC talablari va qöllanmalariga muvofiq uçta Milliy axborot hujjatini, 2021-yilgi Birinçi ikki yillik yangilaniş hisobotini hamda 1990-2017-yillar uçun çiqarilmalar röyxati hisobotlarini tayyorlab, taqdim etgan.


Hozir Törtinçi Milliy axborot hujjati tayyorlanmoqda. Özbekiston 2017-yil 19-aprelda BMTIÖDK/UNFCCC kotibiyatiga milliy darajada belgilanişi möljallangan hissasini (MDBMH/INDC)1 taqdim etib, Parij bitimini imzolagan. Mamlakat 2018-yil 2-oktabrda Özbekiston Respublikasining 491-son Qonuni bilan Parij bitimini ratifikatsiya qilgan. Şu tariqa MDBMH/INDC mamlakatning birinçi milliy darajada belgilangan hissasiga (MDBH1/NDC1) aylangan. MDBH1/NDC1ga muvofiq, Özbekiston Respublikasi 2030-yilgaça bölgan uzoq muddatli istiqbolda iqlim özgarişiga qarşi kuraş çoralari va harakatlarini kuçaytiriş, şuningdek, yalpi içki mahsulot (YAIM/GDP) birligiga töğri keladigan issiqxona gazi emissiyalarini 2030-yilgaça 2010-yil darajasiga nisbatan 10 foizga kamaytirişga intiladi.

1/CP.21-sonli qarorda Parij bitimi 4-moddasining 9-bandiga muvofiq, milliy hissalarni 2020-yilgaça va undan keyin har beş yilda yangilaş talab qilingan. Özbekiston global iqlim özgarişining oldini oliş uçun bor kuçni sarflaş zarurligi haqidagi jahon hamjamiyati fikriga qöşiladi. Öz imkoniyati va mas’uliyatidan kelib çiqib hamda iqtisodiyotni uglerodsizlaştirişga asoslangan, resurslardan samarali foydalanuvçi “yaşil” rivojlaniş modeliga ötiş va mamlakatda davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni hisobga olgan holda, Özbekiston 2030-yilgaça bölgan davr uçun Parij bitimi doirasidagi MDBH/NDC majburiyatlarini yangilagan va kuçaytirgan.

7.3 Boşlanğiç iqlim şaroiti va kutilayotgan özgarişlar

7.3.1 Haroratning tarixiy özgariş yönalişlari

Özbekiston vaqt va hudud böyiça harorat hamda yoğin miqdori katta farq qiladigan quruq kontinental iqlimga ega. Mamlakat hududining 79 foizida yarim çöl, daşt yoki çöl mintaqalari körinişidagi tekis relyef ustunlik qiladi. Toşkent va Samarqand kabi yirik şaharlarni qamrab olgan qolgan janubi-şarqiy hududlarda ham kontinental iqlim hukmron. 1991-2020-yillarda Özbekistonda yoz uzoq, issiq, quruq bölgan. Iyuldagi örtaça oylik harorat 27,2 °Cni taşkil etgan, şaharlarda kunlik eng yuqori harorat esa 35 °Cga yetişi mumkin. Qişdagi örtaça oylik harorat -1 °Cdan -3 °Cgaça böladi (Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki, Mamlakat iqlim xavfi tavsifi). 1950-2020-yillarda Özbekistondagi örtaça harorat 2,9 °Cga oşgan, yoğin miqdoridagi özgariş esa statistik jihatdan sezilarli bölmagan (Jahon banki, Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisoboti).




7.1-rasm. Özbekistondagi örtaça haroratlar

7.3.2 Kutilayotgan harorat özgarişlari

Kelajakdagi özgariş yönalişlari

Jahon bankining 2023-yilgi Mamlakat iqlimi va taraqqiyoti hisobotiga köra, asr oxiriga borib Özbekistonda harorat yana 1,21-1,94°Cga oşişi kutiladi. Harorat oşişi sel oqimlari va muzliklarning erişi kabi boşqa ofatlarga olib kelişi, ayni paytda suv tanqisligini oğirlaştirişi mumkin. Kuçli yoğinlar takroriyligining ham oşişi kutiladi, bu öz navbatida suv toşqini xavfini oşiradi.


Quyidagi xaritada Özbekiston böyiça 2030-yil uçun kutilayotgan iqlim xavfi ballari körsatilgan. Ball tört körsatkiçning örtaçasiga asoslanadi: standartlaştirilgan yoğin-buğlaniş indeksidagi me’yordan oğişlar, bir kunlik eng yuqori yoğin miqdori, yillik örtaça yoğin miqdori, vegetatsiya davri uzunligidagi me’yordan oğişlar. Loyiha hududi iqlim xavfi bali past bölgan hududda joylaşgan.



7.2-rasm. Özbekiston böyiça kutilgan iqlim xavfi ballari

7.3.3 Yoğin miqdorining tarixiy özgariş yönalişlari

Örtaça haroratdagi yaqqol yönalişdan farqli ravişda, sönggi ön yilliklarda Özbekistondagi yillik örtaça yoğin miqdorida statistik jihatdan sezilarli özgariş kuzatilmagan. 1950-2013-yillarda yillik örtaça yoğin miqdori biroz kamaygan. Tyan-Şan va Hisor-Oloy toğ tizmalari böyiça kuzatuvlar fasllar orasidagi ayrim farqlarni körsatadi. Qiş oylarida, ya'ni dekabrdan fevralgaça kuzatilgan biroz oşiş yilning boşqa oylaridagi biroz kamayiş bilan muvozanatlaşadi. El-Ninyo Janubiy tebranişi köp yillik quruq va nam iqlim özgaruvçanligiga kuçli ta'sir körsatadi.



7.3-rasm. Özbekistonda 1901-2024-yillardagi yillik yoğin miqdori dinamikasi

7.3.4 Yoğin miqdoridagi kutilayotgan özgarişlar

Zaiflik va moslaşuvni baholaş uçun iqlim ssenariylarini yaratadigan MAGIC/SCENGEN5.3 modelidan foydalanib, 8 ta global iqlim modeli natijalari örtaçalaştirilgan. Butun Özbekiston hamda Sirdaryo va Amudaryo havzalarining yuqori suv

yiğiş hududlari uçun tuzilgan iqlim özgarişi ssenariylariga köra, iqlim isişi şaroitida sovuq tölqinlar saqlanib qolişi bilan birga issiq tölqinlar ehtimoli ham oşadi. Yoğin miqdoridagi özgarişlar harorat özgarişlariga qaraganda noaniqroq. Örta ta'sirli ssenariy çöl va daşt mintaqalarida yoğin miqdori yiliga taxminan 48 mm, toğoldi mintaqasida yiliga 42 mm oşişini, baland toğli hududda esa yiliga taxminan 10 mm kamayişini körsatadi.

Yoğin miqdori umuman oşişiga qaramay, butun mamlakatda, ayniqsa, Özbekistonning ğarbiy qismlarida quruqçilik ham kuçayişi kutiladi. Bundan taşqari, mavjud suv resurslarining kutilayotgan kamayişi tufayli Özbekistonda suv tanqisligi sezilarli darajada oğirlaşi mumkin. Hisob-kitoblarga köra, 2050-yilga borib Sirdaryo havzasida suv oqimi 2-5 foizga, Amudaryo havzasida esa 10-15 foizga kamayişi mumkin. Harorat oşişi tufayli suğoriş suviga talab ortadi va iqlim özgarişi suv resurslari uçun mavjud raqobatni kuçaytiradi. Suvni baholaş va rejalaştiriş tizimi (WEAP) modelidan foydalanib ötkazilgan tahlil ham iqlim özgarişi natijasida suv resurslari tanqisligi ança oşişini körsatadi. 2040-yillarga borib, Amudaryo va Sirdaryo oqimi oşgan taqdirda ham, Özbekistonda suğoriş suvi tanqisligi past ta'sirli ssenariyda 8,0 foiz, örta ta'sirli ssenariyda 15,4 foiz, yuqori ta'sirli ssenariyda 33,5 foizni taşkil etişi mumkin (Özbekiston Respublikasining 2016-yilgi Uçinçi milliy axborot hujjati).

7.4 Iqlim özgarişi ta'sirini baholaş

7.4.1 Umumiy ma'lumot

Uşbu hisobotda yuqorida bayon qilinganidek, loyiha uçun keng qamrovli IÖTB/CCIA ötkazilgan. Ma'lumotlar töplami, iqlimni modellaştiriş natijalari, issiqxona gazlari hisob-kitoblari, moslaşuvning batafsil tahlilini qamrab olgan töliq texnik baholaş 4-ilovada taqdim etilgan. Quyidagi qisqaça bayonda AMITB/ESIA uçun muhim asosiy xulosalar keltirilgan.

IÖTB/CCIAda (i) loyihaning foydalaniş bosqiçi va aviatsiya bilan boğliq issiqxona gazi emissiyalari orqali iqlim özgarişiga ta'siri hamda (ii) tarixiy va kutilayotgan iqlim özgaruvçilari va ular bilan boğliq jismoniy xavflarni hisobga olgan holda iqlim özgarişining loyihaga ta'siri baholanadi. Baholaş quyidagilarga muvofiq ötkazilgan:

- Yevropa komissiyasining infratuzilmani iqlim ta'siriga çidamli qiliş qöllanmasi, 2021-2027-yillar
- Yevropa investitsiya bankining (YIB/EIB) loyihalardagi uglerod izini hisoblaş uslubiyati
- XMK/IFCning faoliyat standartlari, Ekvator tamoyillari IV (EP4), Iqlimga oid moliyaviy axborotni oşkor qiliş böyiça işçi guruh (TCFD) tavsiyalari

7.4.2 Loyihaning iqlim özgarişiga ta'siri

7.4.2.1 Issiqxona gazi emissiyalari

Quriliş va foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalar

Loyihaning issiqxona gazi emissiyalari quriliş va foydalaniş bosqiçlari uçun miqdoriy baholangan. Taxminan 3,5-yillik quriliş davrida köçma dizel yoqilğisi yonişidan 14 514 tCO_2 ekvivalenti va xarid qilingan elektr energiyasidan 8 990 tCO_2 ekvivalenti miqdorida çiqarilma hosil bölişi hisoblangan. Şuningdek, 7.1-jadvalga va 7.2-jadvalga qarang.

Foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalar yillik 20 million yölovçi quvvatiga nisbatan baholangan. Natijada YXKU/GSEda yoqilği yonişi va xarid qilingan elektr energiyasini öz içiga olgan 1 va 2-qamrov manbalaridan yiliga 58 800 tCO_2 ekvivalenti çiqarilişi aniqlangan (7.3-jadvalga qarang). Havo kemalarining qöniş va uçiş siklidan kelib çiqadigan qöşimça 3-qamrov çiqarilmalari ança yuqori bölib, yiliga 972 122 tCO_2 ekvivalenti deb baholangan. Bu aeroport uglerod izida aviatsiya çiqarilmalari ustunligini körsatadi (7.4-jadvalga qarang).

7.1-jadval. Quriliş davrida qazilma yoqilği sarfidan hisoblangan çiqarilmalar

Tavsif	Birliklar	Qiymat
Qazilma yoqilğinin jami sarfi [a]	L	5,375,552
Standart çiqarilma koeffitsiyenti [b]	$kgCO_2e/kWh$	2,7
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001
Jami issiqxona gazi emissiyalari	**tCO_2e**	**14,514**
Manbalar:		

Tavsif	Birliklar	Qiymat
[a]Vision Invest. [b]YIB/EIB, 2023-yil. *YIB/EIBning loyihalardagi uglerod izini hisoblaş uslubiyatlari* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].		

7.2-jadval. Quriliş davrida xarid qilingan elektr energiyasidan hisoblangan çiqarilmalar

Tavsif	Birliklar	Qiymat
Elektr energiyasining jami sarfi [a]	kWh	19,250,000
Mamlakat tarmoğiga xos çiqarilma koeffitsiyenti [b]	gCO_2e/kWh	467
Ötkaziş koeffitsiyenti	tCO_2e/gCO_2e	0,000001
Jami issiqxona gazi emissiyalari	**tCO_2e**	**8,990**
Manbalar: [a]Vision Invest. [b]YIB/EIB, 2023-yil. *YIB/EIBning loyihalardagi uglerod izini hisoblaş uslubiyatlari* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].		

7.3-jadval. Foydalaniş bosqiçidagi 1 va 2-qamrov issiqxona gazi emissiyalarining hisoblangan miqdori

Tavsif	Birliklar	Qiymat
Yölovçilarning jami soni [a]	yölovçi/yil	20,000,000
Har bir yölovçiga töğri keladigan örtaça çiqarilma [b]	$kgCO_2e/pax$	2,94
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001
Yillik issiqxona gazi emissiyalari	**tCO2e/yil**	**58,800**
Manbalar: [a]5 Capitals, 2025-yil. *Özbekiston, Yangi Toşkent xalqaro aeroporti: AMITB/ESIA doirasini belgilaş hisoboti*. [b]Aeroportlarning uglerod böyiça akkreditatsiyasi, 2024-yil. *2023-2024-yillar uçun yillik hisobot* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].		

7.4-jadval. Qöniş va uçiş sikli uçun hisoblangan 3-qamrov issiqxona gazi emissiyalari

Tavsif	Birliklar	Qiymat
Yillik yölovçilarning örtaça soni [a]	yölovçi/yil	20,000,000
Yillik uçişlarning örtaça soni, 20 million yölovçi uçun [b]	parvoz/yil	125,984
Içki uçişlar uluşi [c]	%	1%
Yillik içki uçişlarning örtaça soni	parvoz/yil	1,260
Içki uçişlardagi örtaça yoqilği sarfi [d]	kg/parvoz	800
Ötkaziş koeffitsiyenti	t/kg	0,001
Içki uçişlardagi yillik yoqilği sarfi	t/yil	1,008
CO_2 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCO_2/LTO$	3,104
N_2O çiqarilma koeffitsiyenti [e]	kgN_2O/LTO	0
CH_4 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCH_4/LTO$	0
CO_2 GWPe		1
N_2O GWPe		28
CH_4 GWPe		265
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001
Içki uçişlarning yillik issiqxona gazi emissiyalari	**tCO_2e**	**3,914**
Xalqaro uçişlar uluşi	%	99%
Yillik xalqaro uçişlarning örtaça soni	parvoz/yil	124,724
Xalqaro uçişdagi örtaça yoqilği sarfi	kg/parvoz	2,500
Ötkaziş koeffitsiyenti	t/kg	0,001
Xalqaro uçişlarning yillik yoqilği sarfi [d]	t/yil	311,810

Tavsif	Birliklar	Qiymat
CO_2 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCO_2/LTO$	3,104
N_2O çiqarilma koeffitsiyenti [e]	kgN_2O/LTO	0
CH_4 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCH_4/LTO$	0
CO_2 GWPe		1
N_2O GWPe		28
CH_4 GWPe		265
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001
Xalqaro uçişlarning yillik issiqxona gazi emissiyalari	**tCO_2e**	**968,208**
Yillik issiqxona gazi emissiyalari	**tCO2e/yil**	**972,122**

Manbalar:
[a]5 Capitals, 2025-yil. *Özbekiston, Yangi Toşkent xalqaro aeroporti: AMITB/ESIA doirasini belgilaş hisoboti*.
[b]20 million yölovçi uçun qayta hisoblangan.
[c]Islom Karimov nomidagi Toşkent xalqaro aeroportining 2025-yil 1-yanvardan 21-dekabrgaça bölgan uçiş ma'lumotlari asosida.
[d]Iqlim özgarişi böyiça hukumatlararo ekspertlar guruhi (IÖHEG/IPCC), 2006-yil. *Havo kemalari çiqarilmalari* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].
[e]YIB/EIB, 2023-yil. *YIB/EIBning loyihalardagi uglerod izini hisoblaş uslubiyatlari* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].

yiliga 46 million yölovçi, ya'ni yiliga 46 million yölovçigaça ehtimoliy kengayiş bilan boğliq ta'sirlar baholanmagan. Bunday kengayiş hozirça noaniq bölgan kelajakdagi rivojlaniş ssenariysining bir qismi bölib, amaldagi AMITB/ESIA doirasiga kirmaydi. Bu yondaşuv boşqa ixtisoslaştirilgan tadqiqotlarning aksariyatida qöllangan yondaşuvga mos keladi. Ular faqat joriy arizaning belgilangan doirasiga kiritilgan loyiha qismlari va faoliyatini baholaydi.

Kelajakdagi har qanday kengayiş va yölovçilar soni oşişidan kelib çiqadigan ta'sirlar alohida atrof-muhit baholaş jarayonidan ötkaziladi. Uşbu bosqiçda tegişli ta'sirlar, jumladan, issiqxona gazi emissiyalari batafsil baholanadi.

Nisbiy çiqarilmalar

Yevropa Ittifoqining texnik qöllanmasiga köra, boşlanğiç çiqarilmalar (Be) "loyiha amalga oşirilmaganida yuzaga keladigan çiqarilmalarni asosli tarzda ifodalaydigan kutilayotgan muqobil ssenariyda hosil böladigan çiqarilmalar"dir. Uşbu baholaşda loyihaga muqobil boşlanğiç holatda Islom Karimov nomidagi Toşkent xalqaro aeroporti (TXA/TAS) hozirgi quvvatida, ya'ni 2025-yil darajasiga muvofiq yiliga taxminan 10 million yölovçiga xizmat körsatişni davom ettiradi, deb faraz qilingan.

Nisbiy issiqxona gazi emissiyalari odatiy foydalaniş yilidagi mutlaq emissiyalar va boşlanğiç emissiyalar örtasidagi farqni ifodalaydi. Mutlaq issiqxona gazi emissiyalari loyihaning örtaça bir foydalaniş yili uçun hisoblangan yillik emissiyalardir.

1 va 2-qamrov çiqarilmalari

Tahlilga köra, yiliga 20 million yölovçiga xizmat körsatadigan loyiha 1 va 2-qamrov çiqarilmalarini boşlanğiç ssenariyga, ya'ni yiliga 10 million yölovçiga nisbatan yiliga taxminan 29 400 tCO_2 ekvivalentiga oşiradi. Bu 7.5-jadvalda körsatilgan.

7.5-jadval. Hisoblangan nisbiy 1 va 2-qamrov issiqxona gazi emissiyalari

Tavsif	Birliklar	Mutlaq çiqarilmalar (A_b)	Boşlanğiç çiqarilmalar (B_e)
Yölovçilarning jami soni [a]	yölovçi/yil	20,000,000	10,000,000
Har bir yölovçiga töğri keladigan örtaça çiqarilma [b]	$kgCO_2e/pax$	2,94	2,94
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001	0,001
Yillik issiqxona gazi emissiyalari	tCO2e/yil	58,800	29,400
Nisbiy çiqarilmalar (R_e)	**tCO2e/yil**		**29,400**

Manbalar:

Tavsif	Birliklar	Mutlaq çiqarilmalar (A_b)	Boşlanğiç çiqarilmalar (B_e)
[a]5 Capitals, 2025-yil. *Özbekiston, Yangi Toşkent xalqaro aeroporti: AMITB/ESIA doirasini belgilaş hisoboti*. [b]Aeroportlarning uglerod böyiça akkreditatsiyasi, 2024-yil. *2023-2024-yillar uçun yillik hisobot* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].			

3-qamrov çiqarilmalari, QUS/LTO sikli

Tahlilga köra, yiliga 20 million yölovçiga xizmat körsatadigan loyihaning qöniş va uçiş siklidagi 3-qamrov çiqarilmalarini boşlanğiç ssenariyga, ya'ni yiliga 10 million yölovçiga nisbatan yiliga taxminan 486 061 tCO_2 ekvivalentiga oşiradi. Bu 7.6-jadvalda körsatilgan. QUS/LTO siklidan taşqaridagi uçişlar baholaşga kiritilmagan. Çunki havo kemalarining QUS/LTO siklidan taşqaridagi 3-qamrov çiqarilmalarini miqdoriy hisoblaş aviakompaniya, yönaliş, havo kemalari parki va uçiş profili haqidagi ma'lumotlarga katta darajada boğliq. Loyihaning hozirgi bosqiçida bu ma'lumotlar mavjud emas yoki yetarli darajada aniqlanmagan.

7.6-jadval. Qöniş va uçiş sikli uçun hisoblangan nisbiy 3-qamrov issiqxona gazi emissiyalari

Tavsif	Birliklar	Mutlaq çiqarilmalar (A_b)	Boşlanğiç çiqarilmalar (B_e)
Yillik yölovçilarning örtaça soni [a]	yölovçi/yil	20,000,000	10,000,000
Yillik uçişlarning örtaça soni, 20 million yölovçi uçun [b]	parvoz/yil	125,984	62,992
Içki uçişlar uluşi [c]	%	1%	1%
Yillik içki uçişlarning örtaça soni	parvoz/yil	1,260	630
Içki uçişlardagi örtaça yoqilği sarfi [d]	kg/parvoz	800	800
Ötkaziş koeffitsiyenti	t/kg	0,001	0,001
Içki uçişlardagi yillik yoqilği sarfi	t/yil	1,008	504
CO_2 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCO_2/LTO$	3,104	3,104
N_2O çiqarilma koeffitsiyenti [e]	kgN_2O/LTO	0	0
CH_4 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCH_4/LTO$	0	0
CO_2 GWPe		1	1
N_2O GWPe		28	28
CH_4 GWPe		265	265
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001	0,001
Içki uçişlarning yillik issiqxona gazi emissiyalari	**tCO_2e**	**3,914**	**1,957**
Xalqaro uçişlar uluşi	%	99%	99%
Yillik xalqaro uçişlarning örtaça soni	parvoz/yil	124,724	62,362
Xalqaro uçişdagi örtaça yoqilği sarfi	kg/parvoz	2,500	2,500
Ötkaziş koeffitsiyenti	t/kg	0,001	0,001
Xalqaro uçişlardagi yillik yoqilği sarfi [d]	t/yil	311,810	155,905
CO_2 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCO_2/LTO$	3,104	3,104
N_2O çiqarilma koeffitsiyenti [e]	kgN_2O/LTO	0	0
CH_4 çiqarilma koeffitsiyenti [e]	$kgCH_4/LTO$	0	0
CO_2 GWPe		1	1
N_2O GWPe		28	28
CH_4 GWPe		265	265
Ötkaziş koeffitsiyenti	$tCO_2e/kgCO_2e$	0,001	0,001
Xalqaro uçişlarning yillik issiqxona gazi emissiyalari	**tCO_2e**	**968,208**	**484,104**
Nisbiy çiqarilmalar (R_e)	**tCO2e/yil**		**486,061**

Tavsif	Birliklar	Mutlaq çiqarilmalar (A_b)	Boşlanğiç çiqarilmalar (B_e)
Manbalar: [a]5 Capitals, 2025-yil. *Özbekiston, Yangi Toşkent xalqaro aeroporti: AMITB/ESIA doirasini belgilaş hisoboti*. [b]20 million yölovçi uçun qayta hisoblangan. [c]Islom Karimov nomidagi Toşkent xalqaro aeroportining 2025-yil 1-yanvardan 21-dekabrgaça bölgan uçiş ma'lumotlari asosida. [d]IÖHEG/IPCC, 2006-yil. *Havo kemalari çiqarilmalari* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan]. [e]YIB/EIB, 2023-yil. *YIB/EIBning loyihalardagi uglerod izini hisoblaş uslubiyatlari* (Havola) [2026-yil 4-fevralda körib çiqilgan].			

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Foydalaniş bosqiçidagi 1 va 2-qamrov çiqarilmalari YIB/EIBning 20 000 tCO_2e/year çegarasidan oşadi. Şu sababli ular ahamiyatli hisoblanadi va töliq baholaşni talab qiladi. Loyihada hududga örnatiladigan quyoş fotoelektr qurilmasi (FE/PV) va Energiya va atrof-muhitga mos loyihalaşdagi yetakçilik talablariga muvofiq energiya tejamkor loyiha yeçimlari kabi oldini oliş va kamaytiriş çoralari nazarda tutilgan. IÖTB/CCIAda tavsiya etilgan qöşimça çoralarga yuqori samarali IŞK/HVAC tizimlari, moslaşuvçan LED hamda aerodrom yoritgiçlari, yerusti xizmat uskunalarini elektrlaştiriş, binoni boşqarişning yetakçi tizimi kiradi.

7.4.2.2 Uglerodning hisob-kitob uçun belgilangan qiymati va milliy issiqxona gazlari trayektoriyasiga moslik

Yevropa Ittifoqining uglerodga soyaviy narxi qöllanganda, loyihaning foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalari 2029-yilda taxminan 8 million yevrolik boşlanğiç uglerod qiymatini yuzaga keltiradi. Bu qiymat uglerod narxining oşiş yönalişlariga muvofiq vaqt ötişi bilan ortadi. Özbekistonning milliy yönalişiga nisbatan ötkazilgan baholaşga köra, 2035-yilgaça loyiha çiqarilmalari mamlakatning kutilayotgan jami çiqarilmalarining atigi 0,010-0,011 foizini taşkil etadi. Bu mamlakatning çiqarilmalar jadalligini 2010-yilgi boşlanğiç holatga nisbatan 50 foizga kamaytiriş böyiça MDBH/NDC maqsadiga muvofiqlikni körsatadi.

7.4.3 Iqlim özgarişining loyihaga ta'siri

7.4.3.1 Iqlim xavflari

IÖTB/CCIAda 2025, 2050, 2075-yillar uçun SSP2-4.5 va SSP5-8.5 ssenariylari asosida tarixiy yönalişlar va iqlimdagi kutilayotgan özgarişlar baholanadi. Örtaça oylik haroratning 25,8 foizgaça oşişi kutiladi. "Öta xavfli" issiqlik zöriqişi kuzatiladigan kunlar soni esa ssenariyga qarab 2075-yilgaça 167-771,9 foizga keskin oşişi mumkin. Sovitiş daraja-kunlari soni sezilarli oşib, energiyaga talabni oşirişi, isitiş daraja-kunlari soni esa asr örtalariga borib kamayişi kutiladi. 24 soat davom etadigan va 100 yilda bir marta yuz beradigan kuçli böron hodisalarida ekstremal yoğin miqdorining 14,4-23,7 foizga oşişi kutiladi. Bu mahalliy suv toşqinlari, uçiş-qöniş yölagi samaradorligining pasayişi, faoliyatdagi uzilişlar xavfini oşiradi.

Tizimli zaiflik baholaşi suv toşqini, haddan taşqari issiqlik, ekstremal yoğin, haddan taşqari sovuqni batafsil baholaş talab etiladigan eng muhim iqlim xavflari sifatida aniqlagan. Suv toşqini, ayniqsa, ekstremal yoğinlarning köpayişi va aeroport hududining tekis relyefi tufayli infratuzilma hamda uçiş faoliyatiga xavf tuğdiradi. Haddan taşqari issiqlik, ayniqsa, aerodrom hududidagi xodimlar xavfsizligi va faoliyat samaradorligiga tahdid soladi. Harorat oşişi havo kemasining kötaruvçi kuçini kamaytirişi, yoqilği sarfini oşirişi, uçiş-qöniş yölagi yaxlitligiga ta'sir qilişi mumkin. Ekstremal yoğin hodisalari tormozlaş samaradorligini pasaytirişi va past köriniş şaroitida maxsus tartiblarni qöllaşni talab qilişi mumkin. Haddan taşqari sovuq esa havo kemalari va uçiş-qöniş yölagining muzlaş xavfini oşiradi hamda muzdan tozalaş imkoniyatlarini kengaytirişni talab qiladi.

Bundan taşqari, ekstremal şamol loyiha uçun jiddiy iqlim xavfi sifatida aniqlangan. Ekstremal şamol hodisalarining kutilayotgan köpayişi havo kemalarining havoga kötariliş va qöniş körsatkiçlariga ta'sir qilişi mumkin. Natijada keçikişlar, boşqa aeroportga yönaltirişlar, vaqtinçalik foydalaniş çeklovlari ehtimoli oşib, aeroport faoliyati buzilişi mumkin. Kuçli şamol

qum böronlarini ham yuzaga keltirişi, körinişni kamaytirişi, aerodrom hududidagi xavfsizlikka ta’sir qilişi, havo kemalari hamda aeroport infratuzilmasining uzoq muddat davomida yeyilişini tezlaştirişi mumkin. Iqlimga çidamlilikni oşiriş uçun loyihada tegişli muhandislik va foydalaniş çoralari nazarda tutiladi. Ular jumlasiga, amalda mumkin bölgan hollarda, batafsil loyihalaşda ustun şamol şaroitini hisobga oliş, ob-havoni kuzatiş va kelgusi holatini oldindan baholaş hamda ekstremal şamol davrida aeroportning xavfsiz faoliyatini ta’minlaydigan tartiblar kiradi.

7.4.3.2 Moslaşuv çoralari

IÖTB/CCIAda quyidagi moslaşuv çoralari tavsiya etilgan: kutilayotgan yoğin köpayişini hisobga olgan holda yomğir suvi infratuzilmasini yangilaş; uçiş-qöniş yölaklarida ariqçalar hosil qiliş; ob-havoni oldindan kuzatiş; issiqlik zöriqişiga qarşi tartiblarni kuçaytiriş; köp mehnat talab qiladigan işlarni salqinroq davrlarga köçiriş; aerodrom hududi uçun şaxsiy himoya vositalarini (ŞHV/PPE) xarid qiliş; muzdan tozalaş uskunalari va foydalaniş quvvatini oşiriş.

7.4.4 Jamoalar va ekotizim xizmatlariga ta’sirlar

Yomğir suvi samarali boşqarilib, oqimning quyi qismida suv toşqinining oldi olinsa hamda qişloq xöjaligi foydalanuvçilariga ta’sir körsatmaslik uçun yer osti suvini oliş barqaror çeklovlar doirasida qolsa, loyihaning atrofdagi jamoalarga iqlim bilan boğliq ta’siri sezilarsiz deb baholanadi. Loyiha hududi tabiiy holatidan deyarli töliq özgartirilgan hamda örmonlar, sohil ekotizimlari yoki muhim yaşaş muhitlarini qamrab olmaydi. Şu sababli iqlim bilan boğliq ekotizim xizmatlariga yoki iqlimga moslaşuv va iqlim ta’sirini kamaytiriş uçun muhim hududlarga ta’sir sezilarsiz deb hisoblanadi.

7.4.5 Iqlim özgarişi ta’sirini baholaş xulosasi

IÖTB/CCIA xulosasiga köra, loyiha asosan aviatsiya faoliyati tufayli sezilarli çiqarilmalar hosil qilsa-da, foydalaniş bosqiçidagi çiqarilmalarni taklif etilgan loyiha yeçimlari va texnologik takomillaştirişlar orqali samarali kamaytiriş mumkin.

Iqlim özgarişi loyiha uçun bir neçta jiddiy xavf tuğdiradi. Biroq tavsiya etilgan moslaşuv çoralari joriy etilsa, qoldiq xavflarni maqbul darajagaça kamaytiriş mumkin. Umuman olganda, loyiha Özbekistonning milliy iqlim majburiyatlari va iqlim xavfini boşqariş böyiça xalqaro yetakçi amaliyotga muvofiqdir.

7.4.6 Uglerod va energiyani boşqariş rejasi

Aeroportning foydalaniş bosqiçi boşlanişidan oldin loyiha kompaniyasi Uglerod va energiyani boşqariş rejasini (UEBR/CEMP) tayyorlaydi va amalga oşiradi. Reja loyihaning butun foydalaniş muddati davomida issiqxona gazi emissiyalari va iqlim bilan boğliq ötiş xavflarini muntazam boşqarişni ta’minlaydi.

Reja quyidagi harakatlar uçun asos yaratadi:

- IÖTB/CCIAda qöllangan usullarga muvofiq, xalqaro miqyosda tan olingan issiqxona gazlarini (IG/GHG) hisoblaş uslubiyatlaridan foydalanib, 1-qamrov, 2-qamrov, tegişli 3-qamrov emissiyalarini qamrab oladigan issiqxona gazlarining yillik inventarizatsiyasini tayyorlaş.
- Issiqxona gazi emissiyalari va energiya sarfini har yili muntazam kuzatiş, tekşiriş, ular böyiça hisobot beriş.
- Energiya samaradorligini oşiriş va issiqxona gazi emissiyalarini kamaytiriş çoralarini, jumladan, qayta tiklanuvçi energiyadan köproq foydalaniş hamda kam uglerodli texnologiyalarni qöllaş imkoniyatlarini aniqlaş, amalga oşiriş, vaqti-vaqti bilan körib çiqiş.
- Iqlim bilan boğliq ötiş xavflarini, jumladan, iqlim siyosati, me’yoriy talablar, uglerod narxini belgilaş mexanizmlari, texnologik rivojlanişdagi özgarişlarni vaqti-vaqti bilan körib çiqiş.
- Moliyalaştiriş bitimlarida talab etilganidek, issiqxona gazlari körsatkiçlari va rejani amalga oşiriş haqida Loyiha kompaniyasi hamda kreditorlarga har yili hisobot taqdim etiş.

UEBR/CEMP aeroport faoliyati, me’yoriy talablar, xalqaro yetakçi amaliyotdagi özgarişlarni aks ettiriş uçun foydalaniş bosqiçi davomida vaqti-vaqti bilan körib çiqiladi.

8.0 Şovqin va tebraniş

Uşbu bobda loyihaning quriliş va foydalaniş bosqiçlaridagi faoliyati natijasida şovqin muhitiga körsatilişi mumkin bölgan ta'sirlar baholanadi. Şuningdek, bunday ta'sirlarning oldini oliş va kamaytiriş, ularni boşqariş hamda kuzatib boriş çoralari aniqlanadi.

8.1 Amaldagi talablar va standartlar

8.1.1 Milliy me'yoriy hujjatlar

0331-16-son SQM/SanR&N "Binolar içida va taşqarisidagi yaşaş hududlarida ruxsat etiladigan şovqin darajasi"

Uşbu qonunda Özbekistondagi binolar içida va taşqarisidagi yaşaş hududlari uçun maqbul şovqin darajalari belgilangan; ular 8.1-jadvalda körsatilgan.

8.1-jadval. 0331-16-sonli SanPiNga muvofiq şovqin çeklovlari

Joylaşuv	Vaqt	0331-16-son SanPiN
Turar joy va jamoat binolari xonalari hamda turar joy hududlaridagi şovqin darajasi	Soat 07:00 dan 23:00 gaça	55 dB LAeq,T
	Soat 23:00 dan 07:00 gaça	45 dB LAeq,T
Idora va tijorat joylari	Soat 07:00 dan 23:00 gaça	45 dB LAeq,T

0325-16-son SQM/SanR&N "Iş joyidagi ruxsat etiladigan şovqin darajasiga oid sanitariya me'yorlari"

Uşbu qonun iş joyidagi xodimlar va işçilar salomatligini himoya qilişga qaratilgan. Unda turli içki va taşqi muhitlar uçun şovqin darajalari 8.2-jadvalda va 8.3-jadvalda körsatilgan.

8.2-jadval. Iş muhitidagi şovqin çeklovlari

Iş turi, iş joyi	Talab
Sanoat binolari va korxonalardagi doimiy iş joylarida barça turdagi işlarni bajariş	80 dB(A)

Turar joylardagi tebraniş darajasiga oid milliy standartlar 0331-16-son SQM/SanR&N "Özbekiston iqlim şaroitida turar joyni loyihalaş" hujjatida keltirilgan. Turar joylar uçun standart 37 va 61 Hz çastotada tunda 67 dB, kunduz kuni esa 72 dBni taşkil etadi. Uzlukli tebraniş uçun standartlar 10 dBga kamaytirilişi kerak. Biroq standartda poyezd ötişi kabi kam takrorlanadigan hodisalar uçun tuzatiş koeffitsiyenti yoki yöl qöyiladigan çeklanma nazarda tutilmagan. Quriliş bosqiçi uçun tebraniş çeklovi 72 dB böladi.

8.3-jadval. Milliy tebraniş standartlari

Davr	Doimiy tebraniş, dB	Çastota (Hz)	Qöllaşga doir izoh
Kunduzgi vaqt	72	61	Uzluksiz manbalarga qöllanadi; uzlukli hodisalar uçun 10 dBga kamaytiriladi.
Tungi vaqt	67	37	Qabul qiluvçi obyektlar yaqinidagi tungi faoliyatga yöl qöymaslik uçun ehtiyotkorroq jadval qöllanadi.

Qöllanmada AQŞ Federal tranzit ma'muriyati işlab çiqqan mezonlar keltirilgan. Ular odamlar odatda uxlaydigan turar joylar va binolarga tebraniş ta'siri darajalarini belgilaydi (8.4-jadvalga qarang).

8.4-jadval. Federal tranzit boşqarmasining tebraniş ta’siri mezonlari

Yerdan foydalaniş toifasi	Tez-tez yuz beradigan hodisalar uçun tebraniş ta’siri darajasi, tebraniş detsibeli	Kam yuz beradigan hodisalar uçun tebraniş ta’siri darajasi, tebraniş detsibeli
I toifa: içki faoliyat uçun atrof tebranişi darajasi past bölişi muhim bölgan binolar	65	65
II toifa: odamlar odatda uxlaydigan turar joylar va binolar	72	80
III toifa: asosan kunduz kuni foydalaniladigan muassasa hududlari	75	83

Izoh: “tez-tez yuz beradigan hodisalar” kuniga 70 martadan köp, “kam yuz beradigan hodisalar” esa kuniga 70 martadan kam yuz beradigan hodisalar sifatida ta’riflanadi.

Turar joy bölmagan hududlarda binolar yaxlitligi standartlari 8.5-jadvalga va 8.6-jadvalga muvofiq qabul qilingan. Uşbu jadvallarda AQŞ Ştat avtomobil yöllari va transport xizmati xodimlari uyuşmasi hamda Şveytsariya standartlaştiriş uyuşmasi (SAS) tomonidan turli binolarga zarar yetişining oldini oliş uçun belgilangan eng yuqori uzluksiz tebraniş darajalari keltirilgan. Bu ma’lumotlardan quriliş va foydalaniş bosqiçlarida bino hamda uylarning konstruktiv yaxlitligi uçun çeklov qiymatlari sifatida foydalaniş mumkin.

8.5-jadval. Zararning oldini oliş uçun eng yuqori uzluksiz tebraniş darajalari

Bino turi tavsifi	AQŞ Ştat avtomobil yöllari va transport xizmati xodimlari uyuşmasi, 1990-yil		Şveytsariya standartlaştiriş uyuşmasi, 1992-yil	
	mm/s	dB*	mm/s	dB*
Tarixiy joylar yoki boşqa muhim joylar	2,5	94	2,5	94
Devorlari suvalgan turar joy binolari yoki poydevor devorlari va pollari beton, şifti yoğoç, devorlari ğiştdan bölgan bino	5.1-7.6	100-104	5,1	100
Yaxşi ta’mirlangan turar joy binolari yoki poydevor devorlari va pollari beton, devorlari beton yoki ğiştdan bölgan bino	10.2-12.7	106-108	7,6	100
Suvoqsiz muhandislik inşootlari yoki pölat yoxud temir-betondan qurilgan binolar	25.4-38.1	114-118	12,7	108

Izohlar

AASHTO = AQŞ Ştat avtomobil yöllari va transport xizmati xodimlari uyuşmasi; SAS = Şveytsariya standartlaştiriş uyuşmasi.

Manba: Kaliforniya transport departamenti, 2013-yil; AQŞ Transport tadqiqotlari kengaşi, 2012-yil.

Tebraniş böyiça xalqaro standartlardan foydalanilgan. Odamlarning binodagi tebranişga munosabatiga oid umumiy qöllanma standartlari quyidagi hujjatlarda keltirilgan:

- AS 2670.2-1990 “Odamning butun tanasi tebraniş ta’siriga uçraşini baholaş: binolardagi uzluksiz va zarba ta’sirida yuzaga keladigan tebraniş”, 1 Hzdan 80 Hzgaça;
- XST/ISO 2631-2:2003 “Mexanik tebraniş va zarba: odamning butun tanasi tebraniş ta’siriga uçraşini baholaş, 2-qism: binolardagi tebraniş”, 1 Hzdan 80 Hzgaça;
- Britaniya standarti 6472-1:2008 “Odamlarning binolardagi tebraniş ta’siriga uçraşini baholaş yöriqnomasi. Portlatiş işlaridan taşqari tebraniş manbalari”. Uşbu yöriqnoma asosida yer tebranişi çeklovlari 8.6-jadvalda keltirilgan.

8.6-jadval. Odamlar qulayligi uçun yer tebranişi çeklovlari

Toifa	Davr	Zarraça tezligi tarkibiy qismining eng yuqori qiymati (mm/s)	Tebraniş, dB
Turar joy	Tungi vaqt	0,2 mm/s	72
	Kunduzgi vaqt	0,3 mm/s	76
Idoralar	Foydalanilayotgan paytda	0,6 mm/s	82
Zavod va tijorat binolari kabi foydalaniladigan, sezgir bölmagan joylar	Foydalanilayotgan paytda	2,5 mm/s	94

Sezgir joylarga uylar va yakka turar joy binolari, teatrlar, maktablar hamda odamlar foydalanadigan boşqa şunga öxşaş binolar kiradi.

Tebraniş böyiça milliy va xalqaro standartlar taqqoslanganda, turar joy hududlaridagi tebranişga oid milliy standartlar qat'iyroq ekani aniqlangan. Şu sababli loyihada kunduz kuni 72 dB va tunda 65 dB bölgan milliy standartlar qöllanadi.

8.1.1.1 Havo kemalari şovqini standartlari

Hozirda Özbekistonda havo kemalari şovqini darajasiga talablarni belgilaydigan quyidagi me'yoriy hujjatlar amal qiladi:

davlatlararo standart 22283-14 "Havo kemalari şovqini. Turar joy hududlaridagi ruxsat etiladigan şovqin darajalari va uni ölçaş usullari" aviatsiya şovqinini baholaş va tartibga soliş uçun qöllanadi (Davlatlararo standart, 2009-yil). Standart mavjud aerodrom va aeroportlar yaqinidagi yangi loyihalanayotgan turar joy hududlarida, şuningdek, yangi loyihalanayotgan aerodrom va aeroportlar atrofidagi şaharlar hamda şahar turidagi aholi punktlarining turar joy hududlarida havo kemalari şovqinining ruxsat etiladigan eng yuqori darajalarini belgilaydi. Bu talablar havo kemalari va vertolyotlarning havoga kötarilişi, uçişi, qönişi paytida, şuningdek, aerodromlarda dvigatellar sinovdan ötkazilganda qöllanadi. Standart havo kemalari şovqinini ölçaş usullarini ham belgilaydi.

davlatlararo standart 23337-2014 "Şovqin. Turar joy hududlari, turar joy va jamoat binolaridagi şovqinni ölçaş usullari" (Davlatlararo standart). Standart tabiiy şaroitda şaharlar, şaharçalar va boşqa aholi punktlarining turar joy hududlarida taşqi manbalardan, turar joy va jamoat binolarida esa taşqi hamda içki manbalardan keladigan şovqin darajasini ölçaş usullarini belgilaydi.

Davlatlararo standart 17228-2014 "Yölovçi va transport havo kemalari. Yerda hosil qilinadigan ruxsat etiladigan şovqin darajalari" (Davlatlararo standart). Standart uçiş-qöniş yölagi (RWY) uzunligi 610 m dan ortiq bölgan, barça oğirlik toifalaridagi turbojet yoki turboventilyator dvigatelli, tovuş tezligidan past tezlikda uçadigan yölovçi va transport havo kemalariga tatbiq etiladi. U, şuningdek, havoga kötariliş oğirligi 8 618 kg dan ortiq bölgan porşenli, turbovintli, turboventilyatorli havo kemalariga ham tatbiq etiladi. Standart davlatlararo standart 17229da belgilangan dastlabki şaroitda uşbu havo kemalari yerda, nazorat nuqtalarida hosil qiladigan ruxsat etiladigan eng yuqori şovqin darajalarini belgilaydi. Uşbu standart aeroport va aerodromlar yaqinidagi turar joy qurilişini çeklaş uçun şovqin me'yorlarini belgilamaydi. Bunday me'yorlar davlatlararo standart 22283 bilan tartibga solinadi.

davlatlararo standart 17229-2014 "Yölovçi va transport havo kemalari. Yerda hosil qilinadigan şovqin darajasini aniqlaş usuli" (Davlatlararo standart). Uşbu standart yuqorida qayd etilgan havo kemalari havoga kötariliş, balandlikka kötariliş, qöniş paytida yerda hosil qiladigan şovqin darajasini aniqlaş usulini belgilaydi.

8.1.2 Kreditorlar talablari

8.1.2.1 Xalqaro moliya korporatsiyasi va Jahon banki guruhi qöllanmalari

XMK/IFC va Jahon banki guruhining (JBG/WBG) "Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik yöriqnomalari" (umumiy AMSX/EHS yöriqnomalari), şuningdek, ayrim sohalarga xos yetakçi xalqaro tarmoq amaliyoti (IXTA/GIIP) misollarida quyidagilar bayon qilingan (8.7-jadvalga qarang).

8.7-jadval. JSST/WHOning şovqin böyiça yöriqnomalari

Qabul qiluvçi obyekt	Umumiy atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik qöllanmalari (AMSX/EHS)	
	Kunduzgi vaqt, soat 07:00 dan 22:00 gaça	Tungi vaqt, soat 22:00 dan 07:00 gaça
	ekvivalent uzluksiz tovuş darajasi, 1 soat, dB	
Turar joy	55*	45*
Idora, tijorat, sanoat joylari	70	70

* Şovqin ta'siri yuqorida keltirilgan darajalardan oşmasligi yoki loyiha hududidan taşqaridagi loyihaning eng yaqin qabul qiluvçi obyekti joyida fon şovqini darajasini 3 dB(A)dan ortiq oşirmasligi kerak.

Yuqoridagi qöllanmalar yangi aeroportlarga tatbiq etilsa, şovqin modeli 1 soatlik qöllanma qiymatlari örniga Lday (LAeq,15hr) va Lnight (LAeq,9hr) körsatkiçlari asosida körib çiqiladi. Bundan taşqari, havo kemalari bilan boğliq hodisalar xususiyati tufayli ayrim mahallalarda boşlanğiç şovqin darajasidan 3 dB(A) oşmaslik talabiga rioya etiş ehtimoli past.

8.1.2.2 Xalqaro moliya korporatsiyasining yetakçi xalqaro tarmoq amaliyoti (IXTA/GIIP yoki GIP)

IXTA/GIIPga misol sifatida XFAT/ICAOning havo kemalari şovqiniga doir asosiy umumiy siyosati bölgan "Havo kemalari şovqinini boşqarişga muvozanatli yondaşuv" keltiriladi. U XFAT/ICAO Assambleyasining 33-sessiyasida, 2001-yilda qabul qilingan va Assambleyaning keyingi barça sessiyalarida qayta tasdiqlangan. Uşbu hujjatda tört asosiy unsur bayon qilingan:

- Manbadagi şovqinni kamaytiriş
- Yerdan foydalanişni rejalaştiriş va boşqariş
- Şovqinni kamaytirişga qaratilgan foydalaniş tartiblari
- Havo kemalaridan foydalanişga doir çeklovlar

8.1.2.3 Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki qöllanmalari

YTTB/EBRD özining atrof-muhit va ijtimoiy talablarini (AMIT/ESR) ön hujjatda belgilagan. Ulardan quyidagilari şovqinni baholaş uçun asosiy ahamiyatga ega:

- YTTB/EBRDning 1-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 1): atrof-muhit va ijtimoiy xavflar hamda ta'sirlarni baholaş va boşqariş
- YTTB/EBRDning 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 3): resurs samaradorligi, ifloslanişning oldini oliş va nazorat qiliş
- YTTB/EBRDning 4-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 4): salomatlik, xavfsizlik va himoya
- YTTB/EBRDning 8-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 8): madaniy meros
- YTTB/EBRDning 10-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 10): manfaatdor tomonlarni jalb etiş

YTTB/EBRDning 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabida (AMIT/ESR 3) quyidagilar bayon qilingan:

- *Buyurtmaçilar atrof-muhit va ijtimoiy xavflarni baholaş natijalari asosida loyihaning şovqin va tebraniş ta'sirlarini baholaydi. Buning uçun boşlanğiç holat ma'lumotlarini töplaş, asosiy qabul qiluvçi obyektlarni aniqlaş hamda salbiy va ijobiy ta'sirlar, milliy qonunçilik va IXTA/GIIPga muvofiqlikni hisobga olgan holda loyiha ta'sirlarini baholaş talab etilişi mumkin.*

8.2 Baholaş doirasini belgilaş

Uşbu AMITB/ESIA doirasida şovqin va tebranişni baholaş boşlanğiç holatni tavsiflaş, foydalaniş bosqiçidagi şovqinning kutilayotgan darajasini modellaştiriş, quriliş şovqini va tebranişining ehtimoliy ta'sirlarini baholaş hamda oldini oliş va kamaytiriş çoralari bilan kuzatuv talablarini aniqlaşni qamrab oladi.

Baholaşning asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

Mavjud kunduzgi va tungi atrof şovqini şaroitini belgilaş uçun loyiha hududi va uning atrofidagi namunaviy joylarda boşlanğiç şovqin tadqiqotlari bir neçta bosqiçda ötkazilgan. Kuzatuv joylari yaqin atrofdagi turar joy qabul qiluvçi obyektlari va loyiha ta'siriga uçraşi mumkin bölgan boşqa şovqinga sezgir hududlarni ifodalaş uçun tanlangan.

Aeroport şovqinining kutilayotgan darajasini aniqlaşga möljallangan tan olingan modellaştiriş vositalaridan foydalanib, foydalaniş bosqiçidagi şovqin batafsil baholangan. Modellaştirişda havo kemalarining kutilayotgan harakati, havo kemalari parki tarkibi, uçiş-qöniş yölaklaridan foydalaniş tartibi, uçiş yöllari, dvigatellarning yerda işlaşi, u bilan boğliq yerusti transporti harakati hisobga olingan. Modellaştirişdan maqsad aniqlangan va şovqin qabul qiluvçi obyektlarda kelajakdagi şovqin darajasini oldindan aniqlaş hamda foydalaniş bosqiçidagi şovqin çiziqlarining hududiy qamrovini aniqlaşdan iborat.

Baholaşda quyidagi manbalardan keladigan şovqin körib çiqiladi:

- Havo kemalarining havoga kötarilişi va qönişi, havodagi şovqin;
- Rullaş va dvigatellarning yerda işlaşi;
- Avtomobil harakati;
- Yerusti xizmat uskunalari.

Quriliş bosqiçidagi şovqin va tebraniş ta'sirlari ham uskuna turlari, işlar davomiyligi, qabul qiluvçi obyektlarga yaqinlikni hisobga olgan holda sifat jihatidan hamda zarur hollarda miqdoriy baholangan.

Kutilayotgan şovqin darajalari amaldagi milliy me'yoriy hujjatlar va tegişli xalqaro qöllanmalar, jumladan, zarur hollarda XMK/IFC va JBG/WBGning AMSX/EHS qöllanmalari asosida baholangan. Baholaşda qöllanma qiymatlaridan ehtimoliy oşişlar va jiddiy salbiy oqibatlar ham körib çiqilgan.

Tadqiqotda amalda mumkin bölgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari aniqlangan. Quriliş va foydalaniş bosqiçidagi şovqinni boşqariş, me'yoriy talablarga rioya etişni ta'minlaş, yaqin atrofdagi jamoalarga ehtimoliy noqulaylikni kamaytiriş uçun kuzatuv tizimi ham belgilangan.

Şovqin va tebranişni baholaşning umumiy maqsadi aeroportni rivojlantiriş bilan boğliq ta'sirlarning ehtimoliy kölami va ta'sir ahamiyatini aniqlaş hamda atrofdagi qabul qiluvçi obyektlarga şovqin ta'sirini kamaytiriş uçun tegişli oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralarini belgilaşdir.

8.3 Şovqin qabul qiluvçi obyektlar

Uşbu AMITB/ESIA doirasida körib çiqilgan şovqinga sezgir qabul qiluvçi obyektlarga turar joylar va jamoalar, kiriş yöllari böylab joylaşgan yölböyi qabul qiluvçi obyektlar, tijorat binolari, sanoat inşootlari, loyiha hududidagi işçilar kiradi. Turar joy qabul qiluvçi obyektlari, jumladan, loyiha çegarasidan taxminan 70 m masofada joylaşgan eng yaqin uy, H1 şovqinga eng sezgir hisoblanadi. Sanoat va tijorat qabul qiluvçi obyektlarining yuqoriroq atrof şovqini şaroitiga mosligi sababli, ular pastroq sezgirlikka ega deb hisoblanadi.

Sezgir yaşaş muhitlari va ekologik qabul qiluvçi obyektlar ham şovqinga ehtimoliy sezgir deb tan olinadi; biroq ekologik qabul qiluvçi obyektlarga ta'sir uşbu AMITB/ESIAning Quruqlik ekologiyasi bobida alohida baholanadi.

Şovqinga sezgir qabul qiluvçi obyektlar sönggi sun'iy yöldoş tasvirlarini körib çiqiş va AMITB/ESIA jarayonida joyga bir neçta taşrif buyiriş orqali aniqlangan. 10 km lik tadqiqot hududidagi qabul qiluvçi obyektlar belgilangan. Aniqlangan barça inson qabul qiluvçi obyektlari 5-ilovadagi foydalaniş bosqiçi şovqinini batafsil modellaştiriş hisobotida alohida hisobga olingan. Baholaşni aniq bayon etiş uçun AMITB/ESIAda ular guruhlangan toifalar, masalan, Aholi yaşaş hududi, yölböyi qabul qiluvçi obyektlari, sanoat hududlari sifatida berilgan.

Eng yuqori ehtimoliy ta'sirga uçraşi kutilayotgan qabul qiluvçi obyektlar loyiha hududidan taxminan 4 km doirasida, ayniqsa, uçiş-qöniş yölagi yönalişi va uçiş yöllariga eng yaqin joylarda joylaşgan. Boşlanğiç şovqin tadqiqotlari aniqlangan qabul qiluvçi obyekt turlarining keng doirasini ifodalaş uçun tanlangan namunaviy kuzatiş joylarida ötkazilgan. Kuzatiş joylariga eng yaqin turar joy qabul qiluvçi obyektlarini, jumladan, eng yaqin uyni, H1ni

hamda kengroq atrof şovqini muhitini tavsiflaş uçun uzoqroq masofadagi qabul qiluvçi obyektlarni ifodalovçi nuqtalar kiritilgan.

8.8-jadval. Şovqin qabul qiluvçi obyektlar

Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Aholi yaşaş hududi	**Yuqori**	Doimiy yaşovçilar, jumladan, bolalar, keksalar, salomatligida muammosi bölgan şaxslar kabi zaif guruhlar mavjudligi sababli sezgirlik yuqori. Turar joy qabul qiluvçi obyektlari, ayniqsa, uyqu, dam oliş, umumiy farovonlik buzilişi mumkin bölgan keçki hamda tungi davrlarda şovqinga juda sezgir. Bunga jamoalar tarkibida joylaşgan ta'lim va ibodat joylari hamda şunga öxşaş obyektlar ham kiradi.
Loyiha işçilari	**Örta**	Işçilar loyiha hududidagi quriliş va foydalaniş bosqiçlarida yuqori şovqin darajasiga uçraşi mumkinligi sababli sezgirlik örta. Biroq ta'sir kasbiy xususiyatga ega va vaqt jihatidan çeklangan. U mehnatni muhofaza qiliş va xavfsizlik çoralari, jumladan, ma'muriy çoralar hamda tegişli şaxsiy himoya vositalaridan (ŞHV/PPE) foydalaniş orqali boşqariladi.
Yölböyi qabul qiluvçi obyektlari, jumladan, kiriş yöllari böylab joylaşgan turar joylar	**Örta**	Quriliş transporti, ayniqsa, oğir yuk transport vositalari (OYTV/HGV) şovqini oşişining vaqtinça va vaqti-vaqti bilan ta'sir qilişi sababli sezgirlik örta. Ta'sir davomiyligi odatda qisqa, ya'ni transport vositasining ötiş hodisalari bilan çeklangan bölsa-da, kiriş yöllariga yaqin qabul qiluvçi obyektlarda kunduzgi şovqin darajasining sezilarli oşişi kuzatilişi mumkin. Turar joylar bevosita yöl yölagiga tutaş joylaşgan bölsa, sezgirlik ortişi mumkin.
Tijorat va sanoat inşootlari	**Past**	Atrofdagi sanoat va tijorat qabul qiluvçi obyektlari odatda yuqoriroq atrof şovqini muhitiga mos bölganligi va asosan kunduzgi vaqtda faoliyat yuritişi sababli sezgirlik past. Uşbu qabul qiluvçi obyektlar sanoat va quriliş faoliyati bilan boğliq şovqinning vaqtinçalik yoki qöşimça oşişiga köproq çidamli.

8.4 Kuzatuvlar va boşlanğiç holat

Loyiha hududida yirik şovqin manbalari mavjud emas. Loyiha hududi va uning atrofidagi akustik muhitga asosan qişloq hududiga xos faoliyat ta'sir qiladi. Boşlanğiç kuzatuv natijalariga köra, atrof şovqini darajasini uzluksiz sanoat yoki transport şovqini emas, balki tabiiy manbalar, masalan, şamol va hayvonot, şuningdek, vaqti-vaqti bilan yuz beradigan inson faoliyati belgilaydi.

Mavjud asosiy antropogen şovqin manbalari quyidagilardan iborat:

- Loyiha hududining şarqida joylaşgan temiryöl, poyezdlar takroriyligi, tezligi, turiga qarab vaqti-vaqti bilan ötiş şovqini hodisalarini yuzaga keltiradi;
- Loyiha hududining markaziy qismidan ötadigan mahalliy yöl, vaqti-vaqti bilan transport vositasi şovqiniga hissa qöşadi;
- Qişloq xöjaligi faoliyati, jumladan, traktorlar va qişloq xöjaligi maşinalaridan foydalaniş; va
- Mahalliy qoplamasiz yöllarda transport vositalarining vaqti-vaqti bilan harakatlanişi.

Uşbu manbalar şovqin darajasining vaqti-vaqti bilan va qisqa muddatga oşişiga olib keladi. Biroq loyiha hududining bevosita yaqinida yirik uzluksiz sanoat şovqini manbalari yoki qatnovi yoğun yöllardan keladigan şovqin manbalari aniqlanmagan.

8.4.1 Boşlanğiç holat tadqiqotlari

Baholaş doirasini belgilaş bosqiçida aniqlangan ön bitta (11 ta) qabul qiluvçi obyekt joyida atrof şovqini kuzatilgan. Barça joylardagi boşlanğiç holatni tegişli tarzda ifodalaydigan ma'lumot oliş uçun kuzatuv uçta alohida bosqiçda ötkazilgan. Har bir bosqiçda har bir joyda ketma-ket ikki (2) kun davomida ölçovlar olingan. Aeroportning foydalaniş bosqiçidagi şovqin ta'siri uçiş yöllari, havo kemasi balandligi, foydalaniş tartiblariga boğliq holda kengroq hududga

tarqaladi. Şu sababli şovqinni kuzatiş va baholaşda qabul qiluvçi obyektlarni qamrab oladigan kengroq hudud hisobga olingan.

Kuzatişning bir neçta bosqiçda ötkazilişi qulay meteorologik şaroit va qişki ob-havo bilan boğliq kiriş çeklovlarini hisobga olgan holda barça aniqlangan joylarni töliq qamrab oliş imkonini bergan. Uşbu bosqiçli yondaşuv barça joylarda ma'lumotlarning mos şaroitda yiğilişini va boşlanğiç akustik muhitning yetarli tavsiflanişini ta'minlagan.


Aeroportning foydalaniş bosqiçidagi şovqini yaqin atrofdagi qabul qiluvçi obyektlarga jiddiy ta'sir körsatişi mumkinligi sababli keng qamrovli tadqiqot dasturi amalga oşirilgan. Kuzatuv atrof şovqinini ölçaş böyiça yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq kalibrlangan 1-toifali umumlaştiruvçi tovuş darajasi ölçağiçlari (TDÖ/SLM) yordamida ötkazilgan.

Kuzatilgan körsatkiçlarga quyidagilar kiradi:

- LAeq,T (ekvivalent uzluksiz tovuş darajasi)
- LA90,T (fon şovqini darajasi)
- LA50,T va LA10,T, statistik şovqin darajalari
- LAmax (A-ölçovli maksimal tovuş darajasi)
- Lpeak, tuzatişli va tuzatişsiz tovuş bosimining eng yuqori darajasi

Muntazam kuzatiş joylari aniqlangan şovqinga sezgir qabul qiluvçi obyektlarning turli xillarini ifodalaş uçun tanlangan va imkon qadar aks-sado yoki taşqi mahalliy şovqin manbalari ta'sirini kamaytiriş maqsadida oçiq yerdagi xavfsiz joylarga örnatilgan.

Şovqin va tebraniş tadqiqoti ötkazilişi möljallangan joylar 8.1-rasmda keltirilgan. Joylar kutilayotgan uçiş-qöniş yölaklari yönalişi va havo kemalarining ehtimoliy uçiş yöllari hisobga olinib tanlangan. Bu yöllar ustun şamol yönalişi hamda unga mos keluvçi yaqinlaşuv va uçib ketiş tartiblariga boğliq. Şovqinni kuzatiş jarayoni aks etgan namunaviy tasvirlar 8.2-rasmda körsatilgan.



8.1-rasm. Şovqin va tebraniş tadqiqoti joylari



8.2-rasm. Loyiha atrofidagi hududda şovqin kuzatuvi

8.4.1.1 Şovqinni muntazam kuzatiş natijalari

Kuzatuv tadqiqotlari davomida joylarda qayd etilgan ma’lumotlarga köra, mavjud akustik muhit qişloq joylariga xos bölib, unga asosan vaqti-vaqti bilan yuz beradigan mahalliy faoliyat ta’sir qiladi. Fon şovqini darajasini (LA90,T) odatda tabiiy va past darajadagi antropogen manbalar belgilaydi.

Uşbu hisobotda yuqorida bayon qilinganidek, muntazam kuzatiş davrida qayd etilgan asosiy şovqin manbalariga quyidagilar kiradi:


- Vaqti-vaqti bilan bajariladigan qişloq xöjaligi işlari, masalan, traktorlarning işlaşi;
- Yaqin atrofdagi yöllarda transport vositalarining vaqti-vaqti bilan ötişi;
- Aholi punktlaridagi inson faoliyati;
- Hayvonlar bilan boğliq şovqin, masalan, itlar, eşaklar, qurbaqalar, haşarotlar.

Ayrim kuzatuv joylarida poyezdlarning qatnov takroriyligi va ötiş vaqtiga qarab, ularning vaqti-vaqti bilan ötişi şovqin darajasining qisqa muddatli oşişiga, ya’ni LAmax (A-ölçovli maksimal tovuş darajasi) körsatkiçining kötarilişiga sabab bölgan.


Keçki va tungi davrlarda fon şovqiniga köp hollarda qurbaqalar va çirildoq haşarotlar kabi tabiiy manbalar ta’sir körsatgan. Uşbu manbalar tungi fon şovqini darajasining nisbatan barqaror bölişiga sabab bölgan. Ular antropogen noqulaylik emas, balki qişloq hududidagi boşlanğiç holatga xos manbalar deb hisoblanadi.

8.3-rasmdan 8.13-rasmgaça bölgan rasmlarda har bir joydagi töliq kuzatuv davrida qayd etilgan boşlanğiç şovqin darajalari keltirilgan. Natijalarga köra, loyiha hududi yaqinidagi atrof şovqini odatda past va qişloq xöjaligi hududlariga xos. Ölçangan kunduzgi va tungi LAeq,T qiymatlari amaldagi milliy hamda xalqaro yöriqnoma qiymatlariga umuman mos kelgan. Muayyan vaqtlarda şovqin darajasining qisqa muddatli oşişi kuzatilgan. Bu, asosan, transport vositalarining ötib ketişi, temiryöl harakati yoki qişloq xöjaligi faoliyati kabi manbasi aniq bölgan vaqtinçalik hodisalar bilan boğliq.


Umuman olganda, boşlanğiç holat natijalari loyiha hududida, ayniqsa, tungi davrda nisbatan tinç akustik muhit mavjudligini tasdiqlaydi. Bu aeroportning foydalaniş bosqiçidagi şovqini ehtimoliy ta’sirining kölamini baholaşda muhim omildir.




8.3-rasm. NS-1 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi




8.4-rasm. NS-2 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi




8.5-rasm. NS-3 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi




8.6-rasm. NS-4 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi




8.7-rasm. NS-5 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi




8.8-rasm. NS-6 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi



8.9-rasm. NS-7 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi



8.10-rasm. NS-8 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi





8.11-rasm. NS-9 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi





8.12-rasm. NS-10 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi





8.13-rasm. NS-11 kuzatuv joyida qayd etilgan şovqin darajasi dinamikasi

8.5 Ehtimoliy ta’sirlar, oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv

8.5.1 Quriliş bosqiçi

Quriliş bosqiçidagi ehtimoliy şovqin va tebraniş ta’sirlarini aniqlaş uçun loyiha qurilişiga boğliq jihatlar hamda ta’sirlanişi mumkin bölgan qabul qiluvçi obyektlar aniqlangan. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan va muhokama qilingan. Şovqinning bilvosita ta’siri, masalan, yovvoyi hayvonlarning ehtimoliy bezovta bölişi “Quruqlik ekologiyasi va quşlar” nomli 9.0-bölimda bayon etilgan.

8.9-jadval. Quriliş bosqiçida şovqin va tebraniş: jihatlar va ta’sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir hududi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Loyiha hududidagi quriliş faoliyati, jumladan, vaqtinçalik maşina va köçma uskunalardan foydalaniş	Şovqin tarqalişi	Qabul qiluvçi obyektlarda şovqin ta’sirining oşişi 500 m gaça, juda sokin va tinç atrof şaroitida esa eng köp 2 km gaça kutiladi.	Ta’sir hududidagi odamlar va ekologik qabul qiluvçi obyektlar, jumladan, turar joylar
	Tebraniş	Loyiha egallaydigan maydon va unga bevosita tutaş joylardagi ta’sirlar.	
Transport vositalarining loyiha hududiga va undan taşqariga harakati	Şovqin tarqalişi	Quriliş transporti loyiha hududiga borişda foydalanadigan yöllar böylab, ayniqsa, oğir yuk transport vositalari (OYTV/HGV) qatnovining köpayişi tufayli yuzaga keladigan ta’sirlar.	

Quriliş şovqinining hududiy qamrovi mahalliy bölib, asosan loyiha egallaydigan maydon bilan çeklanadi. Alohida şovqin çiqariliş hodisalari loyihaning faoliyat muddatiga nisbatan qisqa bölgani sababli ta’sir davomiyligi ham qisqa böladi. Şovqin har kuni yuzaga keliş mumkinligi sababli uning takroriyligi yuqori. Biroq faoliyat töxtatilganda şovqin ta’siri ham yöqoladi.

8.5.1.1 Loyiha hududidagi qurilişfaoliyatidan keladigan şovqin

Şovqinni baholaş uslubiyati

Qurilişda qöllanişi mumkin bölgan asosiy maşina va uskunalarning turlari hamda soni MXQ/EPC pudratçisi tomonidan taqdim etilgan. Ular uşbu hisobotda oldinroq röyxatlangan va mazkur baholaşda hisobga olingan. Möljaldagi maşina va uskunalarning şovqin hosil qilişiga oid ma'lumotlar "Britaniya standartlari: Quriliş va oçiq maydonlarda şovqin hamda tebraniş böyiça amaliyot kodeksi"dan olingan. Baholaşda MXQ/EPC pudratçisi taqdim etgan va 2.6-jadvalda keltirilgan möljaldagi quriliş maşina hamda uskunalaridan foydalanilgan.

Baholaş uçun qabul qilingan quriliş maşinalari röyxati loyiha yeçimi va qurilişni rejalaştirişning joriy darajasidan kelib çiqib, eng şovqinli quriliş işlari davomida bir vaqtda işlaşi kutiladigan asosiy maşinalarni ifodalaydi. U işlar davomida maydonda böladigan quriliş maşinalarining jami tarkibini ifodalaşga möljallanmagan. Quriliş işlari bosqiçma-bosqiç va turli iş hududlarida bajariladi, şuning uçun barça uskunalar bir joyda bir vaqtda işlamaydi. Şu sababli AMITB/ESIA bosqiçida quriliş şovqinining eng noqulay holatdagi darajalarini oldindan baholaş uçun mutanosib asos yaratadigan, har bir quriliş faoliyatiga xos bir vaqtda işlaydigan maşinalarning namunaviy röyxati qabul qilingan.

Quriliş maşinalarining qabul qiluvçi obyektlarga ta'siridan kelib çiqadigan şovqin darajalari uskunalarning yuqorida keltirilgan şovqin körsatkiçlari va qabul qiluvçi obyektlargaça bölgan masofa ortgani sari tovuşning pasayişi birgalikda hisobga olinib aniqlangan. Hisob-kitoblarda har bir uskuna iş kunining faqat 50 foizida işlaşi nazarda tutilgan. Ehtiyotkor yondaşuv sifatida har bir turdagi uskunadan bittasi maydon çegarasidagi bir joyda joylaşgan deb ham qabul qilingan.

Quriliş şovqinini hisoblaş uçun namunaviy darajani aniqlaş maqsadida har bir joy va kuzatuv davri böyiça kunduzgi hamda tungi boşlanğiç şovqin darajalari hisoblangan. Bunda muayyan davrda olingan barça ölçovlarning logarifmik örtaça qiymati asosida har bir joy va kuzatuv davri uçun yagona fon şovqini darajasi aniqlangan. Natijalar yuqoridagi 8.4.1.1-bölimda keltirilgan.

Quyidagi jadvalda körsatilgan mexanik va örnatiş işlari bilan boğliq şovqinning masofaga tarqalişi va yer yuzasida yutilişi natijasida kutiladigan darajani aniqlaş uçun "Britaniya standarti 5228 quriliş va oçiq maydonlardagi şovqin hamda tebranişni nazorat qiliş amaliyot kodeksi-1:2009, 1-qism, Şovqin" standartining F ilovasidagi tenglamalar asosida sodda model tuzilgan. Yaqin atrofdagi barça qabul qiluvçi obyektlar manbadan >25 m masofada joylaşgani hisobga olinib, yer yuzasida yutilişga doir tuzatiş "25*LOG(10/qabul qiluvçi obyektgaça masofa)+2" tenglamasi asosida kiritilgan. Izoh: har bir qabul qiluvçi obyekt uçun unga eng yaqin boşlanğiç holat kuzatuv joyi tegişli şovqin kuzatuv joyi sifatida tanlangan. Umumiy ta'sir umumiy şovqin asosida belgilanib, boşlanğiç şovqin va quriliş şovqini darajalarini hisobga oladi.

Quriliş şovqiniga köproq sezgir turar joy qabul qiluvçi obyektlari mezonlari Britaniya standarti 5228 "Quriliş va oçiq maydonlardagi şovqin hamda tebranişni nazorat qiliş amaliyot kodeksi-1:2009+A1:2014"ning E.3-ilovasida berilgan. Unda quriliş işlari tufayli atrof şovqinidagi özgarişga qarab ta'sirning ahamiyati baholanadi. Britaniya standarti 5228ga köra, bu usul "quriliş şovqini darajalarining ahamiyatini aniqlaşning muqobil yoki qöşimça usuli" sifatida qöllanişi mumkin.

E.3.2-bandda 1-namunaviy usul, ya'ni ABC usuli bayon etilgan. U quriliş şovqiniga sezgir qöşni qabul qiluvçi obyektlardagi mavjud atrof şovqini şaroitini, ya'ni ekvivalent uzluksiz tovuş darajasini hisobga oladi va oşib ketganda sezilarli salbiy oqibat yuzaga keladi deb qaraladigan darajalarni belgilaydi. Uşbu usul faqat turar joy qabul qiluvçi obyektlariga tatbiq etilişi qayd etilgan.

Britaniya standarti 5228 quriliş va oçiq maydonlardagi şovqin hamda tebranişni nazorat qiliş amaliyot kodeksi standartining E.1-jadvalida qabul qiluvçi obyektlardagi ta'sir ahamiyatining çegaraviy qiymatlari belgilangan. Buni aniqlaş uçun tegişli qabul qiluvçi obyektdagi atrof şovqini darajasi eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanadi va quriliş şovqinining kutilayotgan darajasini ham qamrab olgan umumiy şovqin darajasi bilan taqqoslanadi.

Umumiy şovqin darajasi tegişli toifa qiymatidan oşsa, ta’sir sezilarli deb hisoblanadi. E.1-jadvaldagi tegişli körsatkiçlar quyida keltirilgan.

8.10-jadval. Quriliş bosqiçidagi şovqinni ABC usulida baholaş

Baholaş toifasi va çegaraviy qiymat davri (ekvivalent uzluksiz tovuş darajasi)	Çegaraviy qiymat, detsibelda, dB(A)		
	A toifa	B toifa	C toifa
Kunduzgi vaqt, 07:00 dan 19:00 gaça va şanba kunlari 07:00 dan 13:00 gaça	65	70	75
Oqşom va dam oliş kunlari [D)]	55	60	65
Tungi vaqt, 23:00 dan 07:00 gaça	45	50	55
1-IZOH Maydondan kelib çiqadigan LAeq,T şovqin darajasi atrof şovqini darajasiga mos toifa uçun çegaraviy qiymatdan oşsa, ehtimoliy sezilarli oqibat mavjud deb hisoblanadi.			
2-IZOH Atrof şovqini darajasi jadvalda berilgan C toifa çegaraviy qiymatlaridan, ya’ni yuqoridagi qiymatlardan baland bölsa, maydon şovqini tufayli davr uçun umumiy LAeq,T şovqin darajasi 3 dBdan köproqqa oşganda ehtimoliy sezilarli oqibat mavjud deb hisoblanadi.			
3-IZOH Faqat turar joylardagi qabul qiluvçi obyektlarga tatbiq etiladi. *A) A toifa: atrof şovqini darajalari eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanganda uşbu qiymatlardan past bölgan hollarda qöllanadigan çegaraviy qiymatlar.* *B) B toifa: atrof şovqini darajalari eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanganda A toifa qiymatlariga teng bölgan hollarda qöllanadigan çegaraviy qiymatlar.* *C) C toifa: atrof şovqini darajalari eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanganda A toifa qiymatlaridan yuqori bölgan hollarda qöllanadigan çegaraviy qiymatlar.* *D) Iş kunlari 19:00 dan 23:00 gaça, şanba kunlari 13:00 dan 23:00 gaça, yakşanba kunlari 07:00 dan 23:00 gaça*			

Izoh: *ABC usulida ta’sir ahamiyati darajalari belgilanmagan. Şu sababli keyingi ta’sir ahamiyati jadvallarida ularni aniqlaş uçun mutaxassisning kasbiy mulohazasi qöllangan.*

Loyiha hududidagi quriliş işlarining turar joylardagi qabul qiluvçi obyektlarga ta’siri

Loyihaning quriliş bosqiçida atrof hududga qöşimça şovqin tarqaladi. U maydonni tayyorlaş va rivojlantirişda qöllanadigan köçma hamda turğun maşinalardan kelib çiqadi. Qurilişning har bir bosqiçida turli joylarda işlaydigan turli maşina va uskunalardan foydalaniladi.

Qurilişda qöllanişi rejalaştirilgan barça maşina va uskunalar bir vaqtda işlaganda yuzaga keladigan umumiy şovqinning kutilayotgan darajasi boşlanğiç şovqin darajasi bilan birga hisobga olingan. Bu ma’lumotlardan aniqlangan qabul qiluvçi obyektlar joylaşgan nuqtalardagi umumiy şovqin darajasi va uning boşlanğiç holatga nisbatan kutilayotgan özgarişini aniqlaşda foydalanilgan.

8.11-jadval. Quriliş faoliyatidan kutilayotgan şovqin ta’sirlari xulosasi

Qabul qiluvçi obyekt	Tegişli şovqinni kuzatiş joyi	Boşlanğiç şovqin darajasi		Qabul qiluvçi obyektdagi kutilayotgan quriliş şovqini, dBA	Qabul qiluvçi obyekt joylaşgan nuqtadagi hisoblangan şovqin darajasi, dBA		Boşlanğiç holatga nisbatan özgariş	
		Kunduz	Tun		Kunduz	Tun	Kunduz	Tun
H1	NS-1	51,4	44,2	58,3	59,1	58,4	7,7	14,2
H2	NS-2	47,9	43,9	21,2	47,9	43,9	0,0	0,0
H3	NS-2	47,9	43,9	27,5	47,9	44,0	0,0	0,1
H4	NS-4	49,7	48,0	38,6	50,0	48,4	0,3	0,4
H5	NS-3	54,2	54,4	33,2	54,2	54,4	0,0	0,0

Şovqinning kutilayotgan darajalari ABC baholaş usuli qöllanib, Britaniya standarti 5228 quriliş va oçiq maydonlardagi şovqin hamda tebranişni nazorat qiliş amaliyot kodeksi-1:2009+A1:2014 standartiga muvofiq eng yaqin beşta turar joy qabul qiluvçi obyektida, H1dan H5gaça, baholangan.

ABC usulida ta'sir ahamiyati quriliş şovqinining kutilayotgan umumiy darajasini, ya'ni atrof şovqini kiritilgan ekvivalent uzluksiz tovuş darajasi qiymatini mavjud atrof şovqini şaroitiga köra belgilangan çegaraviy qiymatlar bilan taqqoslaş orqali aniqlanadi. Turar joy qabul qiluvçi obyektlari uçun:

- Boşlanğiç atrof şovqini darajalari eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanganda A toifa çegarasidan past bölsa, A toifa qöllanadi.
- Boşlanğiç darajalar A toifa çegaralariga taxminan teng bölsa, B toifa qöllanadi.
- Boşlanğiç darajalar A toifa çegaralaridan oşsa, C toifa qöllanadi.

Quyidagi hollarda sezilarli oqibat yuz beradi deb hisoblanadi:

- Quriliş şovqinining kutilayotgan umumiy darajasi tegişli davr uçun ABC çegarasidan oşsa;
- Boşlanğiç şovqin darajasi çegaradan allaqaçon oşgan va quriliş işlari şovqin darajasini 3 dBdan ortiq oşirsa.

Baholaşda barça maşinalar maydon çegarasiga eng yaqin nuqtada bir vaqtda işlaşi hamda işlar kunduzgi va tungi davrlarda ham bajarilişi mumkinligi nazarda tutilgan ehtiyotkor eng noqulay holat qabul qilingan.

Kunduzgi davrni baholaş (07:00 dan 19:00 gaça)

Baholangan qabul qiluvçi obyektlardagi kunduzgi boşlanğiç darajalar taxminan 48 dan 54 dBAgaça özgaradi. Eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanganda, ya'ni 55 dBA, ular A toifaning 65 dBA kunduzgi çegarasidan past böladi. Şu sababli A toifa mezonlari qöllanadi.

H1da quriliş şovqinining kutilayotgan kunduzgi umumiy darajasi taxminan 59 dBAni taşkil etadi. Bu A toifaning 65 dBA kunduzgi çegarasidan past. Şu sababli, boşlanğiç holatga nisbatan 7 dBdan sal köproq oşişni anglatsa-da, Britaniya standarti 5228 quriliş va oçiq maydonlardagi şovqin hamda tebranişni nazorat qiliş amaliyot kodeksi-1:2009+A1:2014 standartiga köra sezilarli oqibat hisoblanmaydi.

H2, H3, H4, H5da kutilayotgan kunduzgi şovqin darajalari boşlanğiç holat darajasiga teng yoki undan juda oz yuqori, ya'ni oşiş 1 dBdan kam böladi. Umumiy darajalar esa 65 dBA çegarasidan ança past böladi. Şu sababli uşbu qabul qiluvçi obyektlardagi quriliş şovqini ta'sirlari kunduzgi davrda sezilarli emas.

Tungi davrni baholaş (23:00 dan 07:00 gaça)

Tungi boşlanğiç darajalar taxminan 44 dan 54 dBAgaça özgaradi. Eng yaqin 5 dBgaça yaxlitlanganda ular taxminan 55 dBAni taşkil etadi. Bu C toifaning 55 dBA tungi çegarasiga teng.

H1da quriliş şovqinining kutilayotgan tungi umumiy darajasi taxminan 58,4 dBAni taşkil etadi. Bu C toifaning 55 dBA tungi çegarasidan 3,4 dBAga yuqori. Boşlanğiç şovqin darajasiga nisbatan oşiş taxminan 14,2 dBni taşkil etadi. ABC usuliga köra, tungi işlar bajarilsa, bu sezilarli salbiy oqibat hisoblanadi.

H2 va H3da kutilayotgan tungi darajalar boşlanğiç holatga nisbatan amalda özgarmaydi va tegişli çegaralardan past bölib, sezilarli oqibatga olib kelmaydi. Şuningdek, H5dagi boşlanğiç şovqin darajasi 54,4 dBA bölib, C toifa çegarasiga yaqin. Biroq quriliş davomida sezilarli oşiş kutilmagani sababli, u yerda ham sezilarli oqibat yuz bermaydi.

H4da kutilayotgan oşiş 1 dBdan kam va umumiy darajalar boşlanğiç holat darajasiga yaqin bölib qoladi. Sezilarsiz oşiş ABC mezonlariga köra sezilarli oqibat yuz bermasligini anglatadi.

Quriliş şovqini ta'siri ahamiyatining qisqaça bayoni

Baholaş quyidagilarni körsatadi:

- Baholangan barça turar joylardagi qabul qiluvçi obyektlarda kunduzgi quriliş şovqini Britaniya standarti 5228 quriliş va oçiq maydonlardagi şovqin hamda tebranişni nazorat qiliş amaliyot kodeksi-1:2009+A1:2014 standartining A toifa çegaraviy darajalaridan past bölişi kutiladi va şuning uçun u sezilarli emas.
- Eng noqulay holatga oid taxminlarga köra, tungi quriliş şovqini H1da sezilarli salbiy oqibatga olib keladi.
- Boşqa qabul qiluvçi obyektlarda, H2 dan H5 gaça, quriliş şovqinining sezilarli oqibatlari yuz berişi kutilmaydi.

Baholaşda barça maşinalar maydon çegarasida bir vaqtda işlaydi deb qabul qilingani va faraziy tungi iş ssenariysi kiritilganini ta'kidlaş kerak. Amalda quriliş işlari bosqiçma-bosqiç bajarilişi va asosan kunduzgi soatlar bilan çeklanişi kutiladi. Iş vaqtini nazorat qiliş va eng yaxşi amaliyot çoralarini qöllaş kabi tegişli boşqaruv çoralari joriy etilganda, quriliş şovqini ta'sirlari vaqtinçalik, mahalliy, boşqariladigan darajada bölişi kutiladi.

Hisobotning oldingi qismida bayon etilganidek, odatiy quriliş dasturi doirasida quriliş işlarini töliq kölamda amalga oşiriş kutilmaydi. Tungi iş zarur bölsa, işlar amalda mumkin qadar kamaytiriladi hamda oldini oliş va kamaytiriş çoralari, manfaatdor tomonlarni xabardor qiliş, tegişli organlarning zarur ruxsatlarini oliş orqali boşqariladi.

Quriliş şovqinining oldini oliş va kamaytiriş talablariga rioya qiliş hamda IXTA/GIIPni qöllaş muhandislik, xarid va quriliş pudratçisining (MXQ/EPC) şartnomaviy atrof-muhit va ijtimoiy majburiyatlarining bir qismi böladi. Uşbu talablar bajarilişini maxsus maqsadli kompaniya (MMK/SPV) kuzatib boradi va nazorat qiladi.

8.5.1.2 Yer tebranişining ta'sirlari

Odamlarning tebranişni seza boşlaş çegarasi odatda 0,14 mm/s dan 0,3 mm/s gaça bölgan oraliqni taşkil etadi (Britaniya standarti 5228). Uşbu qiymatlardan yuqori tebraniş ta'siri sezilarli bölişi, bezovtalik yoki çöçişga sabab bölişi, noqulaylik tuğdirişi yoxud iş faoliyatiga xalaqit berişi mumkin.

Şnek yordamida qoqiladigan qoziqlar hosil qiladigan tebraniş darajasining masofaga qarab pasayişini aniqlaş uçun Britaniya standarti 5228dagi ma'lumotlar körib çiqilgan. Uşbu faoliyat quriliş işlari davomida tebraniş hosil qiliş ehtimoli eng yuqori bölgan iş sifatida tanlangan. Ma'lumotlarga köra, manbadan 20 m yoki undan uzoq masofada tebraniş darajasi 0,14 mm/sdan ança past böladi. Bu quriliş işlari va quriliş transporti harakatidan kelib çiqadigan tebranişning maydondan taşqaridagi ta'siri ahamiyatsiz bölişini körsatadi.

8.5.1.3 Avtomobil qatnovi şovqini

Quriliş işlari, ayniqsa, yerni tayyorlaş bosqiçida töldirma material, uskuna, quriliş buyumlarini taşiş uçun oğir yuk avtomobillarining juda köp qatnovini talab qiladi. Uşbu AMITB/ESIAning oldingi qismida bayon etilganidek, bunday qatnov faol quriliş davrlarining barçasida yuz beradi va yer işlari hamda yer yuzasini tayyorlaş paytida eng jadal bölişi kutiladi.

Quriliş transporti bilan boğliq şovqin ta'sirlari quyidagilarga qarab özgaradi:

- Işlar bosqiçi;
- Oğir yuk transport vositalarining (OYTV/HGV) soni va qatnov takroriyligi;
- Yetkazib beriş vaqti, masalan, eng tiğiz yoki tiğiz bölmagan davrlar;
- Mavjud transport oqimlariga nisbatan oğir transport vositalari uluşi.

Oğir transport vositalari dvigatel ölçami, çiqindi gaz tizimlari, tormozlaş va kuzovning qaltiraşi sababli, ayniqsa, tezlaşiş, sekinlaşiş, uzatma almaştiriş paytida yengil avtomobillarga qaraganda balandroq şovqin hosil qiladi. Uşbu AMITB/ESIAni tayyorlaş vaqtida quriliş transporti foydalanadigan aniq yönaliş belgilanmagan va u MXQ/EPC pudratçisi tayyorlaydigan Transportni boşqariş rejasida batafsil körsatiladi.

Yetkazib beriş eng köp bölgan davrlarda oğir transport vositalari qatnovining qisqa muddatli va mahalliy oşişi yuz berişi mumkin bölsa-da, loyiha bilan boğliq qatnovning asosiy avtomobil yöllaridagi mavjud transport hajmiga nisbatan hissasi kiçik bölib qolişi kutiladi. Şu sababli asosiy yöllar va katta avtomobil yöli böylab ta'sirlar kiçik hamda vaqtinça bölişi kutiladi.

Aksinça, içki qişloq yöllarida joylaşgan qabul qiluvçi obyektlarda şovqinning vaqtinça oşişi köproq sezilişi mumkin. Bu, ayniqsa, yuk avtomobillari qatnovi eng köp bölişi kutiladigan yerni tayyorlaş bosqiçiga tegişli.

Loyiha hududida mavjud fon şovqini pastligini hisobga olganda, quriliş transporti örta kölamdagi ta’sirga olib keladi. Biroq uşbu ta’sir vaqtinçalik va qaytariladigan böladi. Quriliş işlari tugagandan söng transport hajmi boşlanğiç holatga qaytadi.

Transportni boşqarişning yaxşi amaliyotlari, masalan, yönalişlarni nazorat qiliş, yetkazib berişni kunduzgi soatlarga rejalaştiriş, tezlik çeklovlari va transport vositalariga texnik xizmat körsatiş talablari joriy etilganda, transport bilan boğliq şovqin ta’sirlari boşqariladigan darajada qoladi va uzoq muddatda sezilarli bölmaydi.

8.5.2 Quriliş davridagi şovqin ta’sirlarini baholaş yakuni

Quriliş davridagi şovqin çiqarilmalari tufayli yuzaga kelişi mumkin bölgan ta’sirlar, ularning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga oqibatlari, tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda uşbu çoralar amalga oşirilgandan keyingi qoldiq ta’sirlar quyidagi jadvalda umumlaştirilgan. Quriliş bosqiçi uçun atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv rejasi (QAMIBR/CESMP) işlab çiqilgandan söng qoldiq ta’sirlar qayta baholanadi.

Muhandislik, xarid va quriliş pudratçilari (MXQ/EPC) şovqin çiqarilmalarini kamaytiriş uçun butun quriliş davrida IXTA/GIIP va eng maqbul amaliy usullar tamoyillarini qöllaydi. Bunda işlarning xususiyati, mavjud texnologiyalar, maydonga xos çeklovlar hamda yaqin atrofdagi, quriliş şovqiniga sezgir turar joy qabul qiluvçi obyektlari, asosan, loyiha çegarasidan qariyb 70 m janubda joylaşgan H1 hisobga olinadi. Eng maqbul amaliy usullarda mahalliy şaroitlar, texnik bilimlarning joriy darajasi, çoralarning moliyaviy oqibatlari hisobga olinadi. Amalda mumkin bölgan hollarda bular quyidagilarni qamrab oladi: şovqini pastroq uskunalarni tanlaş; maşina va mexanizmlarga muntazam texnik xizmat körsatiş; dvigatellarning zaruratsiz salt işlaşiga yöl qöymaslik; zarur joylarda vaqtinçalik akustik tösiqlardan foydalaniş; ayniqsa şovqinli işlarni puxta rejalaştiriş; maşina va mexanizmlar joylaşuvini maqbullaştiriş; xodimlarning xabardorligini oşiriş. Maşina va uskunalarni loyihalaş, tanlaş, örnatiş va texnik xizmat körsatiş, ulardan foydalaniş tartibi va davrlari, şuningdek, binolar va akustik inşootlarni loyihalaş, quriş, texnik xizmat körsatiş ham hisobga olinadi. Çoralar xavfsizlik talablari va xavfsiz mehnat şaroitlariga muvofiq amalga oşiriladi. Uşbu talablar quriliş bosqiçidagi atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv rejasiga (QAMIBR/CESMP) va unga boğliq Quriliş şovqinini nazorat qiliş va kamaytiriş rejasiga kiritiladi.

Eng maqbul amaliy usullar va IXTA/GIIP qöllanayotganini körsatiş uçun QAMIBR/CESMP tarkibida Quriliş şovqinini nazorat qiliş va kamaytiriş rejalari tayyorlanadi. Uşbu rejalarda quriliş işlariga tatbiq etiladigan oldini oliş va kamaytiriş, kuzatuv hamda boşqaruv çoralari belgilanadi. Jumladan, şovqini yuqori işlarni rejalaştiriş; zarur hollarda quriliş şovqini va tebranişini kuzatiş; jamoatçilik şikoyatlarini qayd etiş va ularga javob beriş; çoralar samaradorligini körib çiqiş; zarur hollarda tuzatiş çoralarini amalga oşiriş tartiblari nazarda tutiladi. Quriliş işlari va şaroitlar özgargan sari rejalar körib çiqiladi va yangilanadi.

Amalda mumkin bölgan hollarda, foydalaniş bosqiçidagi havo kemalari şovqinidan himoya qiliş uçun rejalaştirilgan şovqin izolyatsiyasi çoralari loyihaning dastlabki bosqiçida amalga oşiriladi. Bu ta’sirga uçragan aholini quriliş şovqinidan, keyinçalik esa foydalaniş bosqiçidagi havo kemalari şovqinidan himoya qiladi.

Maxsus maqsadli kompaniya (MMK/SPV) özining atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv tizimi (AMIBT/ESMS) hamda pudratçilarni boşqariş tartib-taomillari orqali Quriliş şovqinini nazorat qiliş va kamaytiriş rejasining amalga oşirilişini nazorat qiladi.

Quriliş işlari vaqtinçalik va bosqiçma-bosqiç bajarilişini hisobga olganda, şovqinni boşqarişning asosiy yondaşuvi eng maqbul amaliy usullar va IXTA/GIIPga muvofiq manbada hamda tarqaliş yöli böylab oldini oliş va kamaytiriş çoralarini qöllaşdan iborat. Qurilişni kuzatiş natijalari yoki manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari şovqinga sezgir ayrim qabul qiluvçi obyektlarda kutilmagan ta’sirlarni körsatsa, kutilayotgan şovqin darajalari, ta’sir davomiyligi, ta’sirga uçragan qabul qiluvçi obyektning xususiyati hisobga olinib, maydonga xos qöşimça çoralar zaruratga köra körib çiqiladi.

8.12-jadval. Quriliş bosqiçida şovqin va tebraniş ta’sirlarini baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
Loyiha hududidagi quriliş işlari tufayli yuzaga keladigan şovqin ta’sirlari	Yirik	Eng yaqin turar joy qabul qiluvçi obyekti (H1, loyiha çegarasidan taxminan 70 m)	Yuqori	Yirik	Örtaça
	Örtaça	Yaqin atrofdagi boşqa Aholi yaşaş hududi	Yuqori	Örtaça	Kiçik
		Loyiha işçilari	Örta	Örtaça	Kiçik
		Tijorat va sanoat obyektlari	Past	Kiçik	Ahamiyatsiz
Transport vositalari şovqini	Kiçik	Yaqin atrofdagi boşqa Aholi yaşaş hududi	Yuqori	Örtaça	Kiçik
		Yöl böyidagi qabul qiluvçi obyektlar, jumladan, kiriş yöllaridagi turar joylar	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Quriliş işlari şovqinining turar joylarga ta’sirining oldini oliş va kamaytiriş çoralari

- Generatorlar kabi köçmas uskunalar yaqinida yoki ta’siri yuqoriroq deb baholanişi mumkin bölgan asosiy qabul qiluvçi obyektlar tomonidagi çegaralarda şovqin tösiqlari yoxud quriliş şovqinini pasaytirişning boşqa usullarini qöllaş talab etiladi.
- MXQ/EPC pudratçisi barça işlarni har doim şovqindan kelib çiqadigan bezovtalikni eng past darajada saqlaydigan tarzda bajaradi. Buning uçun şovqinli işlar bosqiçlarga bölib amalga oşiriladi.
- Maşina dvigatellaridagi akustik himoya qopqoqlari tegişli hollarda doimo yopiq saqlanadi.
- Amaliy jihatdan mumkin bölgan hollarda mexanik quvvatli uskunalar örniga elektr quvvatli uskunalarga ustuvorlik beriladi.
- Barça mexanik quvvatli uskunalar, dizel dvigatelli transport vositalari va siqiş uskunalariga işlab çiqaruvçi taklif etadigan şovqinni nazorat qiliş qurilmalari, jumladan çiqindi gaz şovqinini söndirgiçlar va tovuş pasaytirgiçlar örnatiladi.
- Eng köp şovqin çiqaradigan işlar maydonning markaziy qismida yoki yopiq inşoot içida bajariladi. Masalan, materiallarni tayyorlaş işlari maydon çegaralaridan uzoqda yoki inşootlar içida amalga oşiriladi.
- Şovqinning qöşnilarga ta’sirini kamaytiriş uçun işlar ketma-ketligi puxta rejalaştiriladi.
- Materiallar va çiqindilar ehtiyotkorlik bilan taşiladi, masalan, buyumlar taşlab yuborilmay, pastga tuşiriladi.
- Amaliy jihatdan mumkin bölgan hollarda barça uskunalar işlayotgan paytda qurilma tösiğidan 1 m taşqaridagi eng yuqori şovqin darajasi 70 dB(A)dan, oçiq havodagi qurilmalardan 1 m masofadagi eng yuqori şovqin darajasi esa 85 dB(A)dan oşmasligini ta’minlaş uçun qöşimça şovqin tösiqlari yoki pasaytiriş vositalari qöllanadi.
- Maydonda vaqti-vaqti bilan işlaydigan uskunalar foydalanilmaydigan oraliqlarda öçirib qöyiladi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar

- Eng yaqin şovqinga sezgir qabul qiluvçi obyektlarga ta’sirning oldini oliş uçun tungi quriliş işlari imkon qadar kamaytiriladi. Tungi işlarni bajariş muqarrar bölsa, zarur hollarda tegişli organlardan ruxsatnoma olinadi.
- Muayyan quriliş va işga tuşiriş tadbirlaridagi nisbatan şovqinli iş davrlari hamda ularning kutilayotgan davomiyligi haqida şovqin qabul qiluvçi obyektlar, masalan H1, MTJER/SEPga muvofiq imkon qadar erta, kamida bir hafta oldin xabardor qilinadi.
- Ta’sirlangan qabul qiluvçi obyektlar quriliş bosqiçidagi şovqin yuzasidan şikoyat beriş uçun loyiha MTJER/SEPiga muvofiq şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmidan foydalanişi mumkin.
- QAMIBR/CESMP doirasida MXQ/EPC pudratçisi amalga oşiradigan Şovqinni nazorat qiliş va kamaytiriş rejasi tayyorlanadi.

<u>Quriliş işlari şovqinining quriliş işçilariga ta’sirining oldini oliş va kamaytiriş çoralari</u>

- 80 dB(A)ga teng yoki undan yuqori şovqin ta’siriga uçraşi mumkin bölgan işçilar aniqlanadi va ularga şovqin ta’sirining kasbiy xavflari tuşuntiriladi. Işçilarga şovqinni kamaytiruvçi şaxsiy himoya vositalari (ŞHV/PPE) beriladi. Işçilar yoki yaqin atrofdagi boşqa qabul qiluvçi obyektlardan şovqinga oid şikoyat kelib tuşsa, unga javob beriladi hamda zarur tuzatiş va oldini oliş çoralari köriladi.
- Işçilarga ta’sirni kamaytiriş uçun nazorat çoralari ketma-ketligi quyidagi tartibda qöllanadi: şovqin manbasini jismonan olib taşlaş, uni şovqini pastroq variant bilan almaştiriş, işçilarni yuqori şovqin manbalaridan ajratiş, iş usulini özgartiriş, ŞHV/PPEdan foydalaniş.
- Qölda tutiladigan tebranişli uskunalarda işlaydigan xodimlarga, agar bunday işlar bölsa, tegişli ŞHV/PPE, masalan himoya qölqoplari va quloqçinlar yoki quloq tiqinlari beriladi. Tebraniş ta’sirini kamaytiriş uçun bunday uskunalardan foydalanişda tegişli tanaffuslar ajratiladi.
- Yuqori şovqin va tebraniş ta’siriga uçraşi mumkin bölgan işçilarga uşbu faoliyat böyiça ötkazilgan kasbiy salomatlik va xavfsizlik xavflarini baholaş natijalariga muvofiq tegişli ŞHV/PPE beriladi.
- Yuqori şovqin va tebraniş ta’siriga uçraşi mumkin bölgan işçilarga ŞHV/PPE qaysi vaziyatlarda taqilişi kerakligini aniqlaş va undan samarali foydalaniş böyiça öquv ötkaziladi.
- Uşbu oldini oliş va kamaytiriş çoralari MXQ/EPC pudratçisi işlab çiqayotgan tegişli kasbiy salomatlik va xavfsizlik rejasiga kiritiladi hamda maydonda amalga oşiriladi.

<u>Transport vositalari harakatining ta’sirini oldini oliş va kamaytiriş çoralari</u>

- MXQ/EPC pudratçisi şovqin, mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligi bilan boğliq barça jihatlarni hisobga oladigan Transportni boşqariş rejasini tayyorlaydi va amalga oşiradi.
- Transport vositalari va uskunalardan keraksiz foydalaniş çeklanadi, dvigatellarning zaruratsiz salt işlaşiga yöl qöyilmaydi, vaqti-vaqti bilan foydalaniladigan uskunalar esa öçiriladi yoki quvvati pasaytiriladi.
- Yetkazib beruvçi transport vositalarining maydon taşqarisida dvigateli işlab turgan holda kutişi taqiqlanadi.
- Maydonga yetkazib berişlar va odatiy iş vaqtidan taşqarida bajariladigan har qanday iş uçun tegişli ruxsatnomalar mavjudligi ta’minlanadi.
- Yetkazib beruvçilarning texnik talablari körib çiqiladi. Maydon uskunalari va transport vositalari, ayniqsa oğir transport vositalari amaliy imkoniyat doirasida ularning şovqin çiqariş körsatkiçlariga qarab qabul qilinadi.
- Amaliy jihatdan mumkin bölgan barça hollarda oğir transport vositalarining tunda harakatlanişiga yöl qöyilmaydi.

8.5.3 Foydalaniş bosqiçi

Loyihadan foydalaniş bilan boğliq jihatlar va ulardan ta'sirlanişi mumkin bölgan qabul qiluvçi obyektlar aniqlanib, foydalaniş bosqiçidagi ehtimoliy şovqin oqibatlari belgilangan. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan va uşbu bölimning keyingi qismida batafsil muhokama qilingan.

8.13-jadval. Foydalaniş bosqiçida şovqin va tebraniş: jihatlar va ta'sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta'sirlar va ta'sir hududi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Aerodrom tomonidagi şovqin Uçiş yönalişlari böylab yetib kelayotgan va uçib ketayotgan havo kemalaridan tarqaladigan şovqin hamda atrof hududga yon tomondan tarqaladigan şovqin ta'sirlari.	Şovqinning tarqalişi	Har ikkala jihat yaqin atrofdagi hududlar, şuningdek, uçiş yönalişlari ostidagi va ularga yaqin aholi punktlarining kunduzgi hamda tungi şovqin şaroitiga ta'sir qilişi mumkin.	Ta'sir hududidagi inson va ekologik qabul qiluvçi obyektlar, jumladan, turar joylar
Yerusti şovqini Perronlarda yerda harakatlanişi, yerusti va yordamçi quvvat qurilmalari, dvigatellarni sinaş hamda terminalga boğliq faoliyat tufayli yuzaga keladigan yerusti şovqini ta'sirlari	Şovqinning tarqalişi		
Havodagi qatnov va yerusti foydalaniş faoliyati	Havodagi va yerdagi tebraniş	Uçayotgan havo kemalari va rullaş yölaklariga eng yaqin mavjud inşootlar. Buyuk Britaniyada töplangan ma'lumotlarga asoslangan: "Angliyada aeroportlarni kengaytiriş takliflarining tarixiy muhitga ehtimoliy şovqin ta'sirlari böyiça tadqiqot", 2014-yil.	Yaqin atrofdagi binolar, jumladan, turar joylar va boşqa inşootlar. Atrof hududdagi har qanday meros obyektlari.

8.5.4 Aeroportdan foydalaniş bosqiçida şovqin darajalari oşişining oqibatlari

8.5.4.1 Şovqinning kutilayotgan darajasini modellaştiriş haqida umumiy ma'lumot

Uşbu bölimda taklif etilayotgan yangi Toşkent xalqaro aeroporti uçun şovqin va tebraniş bahosi keltirilgan. Baholaş yangi aeroport bilan boğliq havo kemalari parvozi, yerusti faoliyati, avtomobil qatnovidan kelib çiqişi mumkin bölgan şovqinning kutilayotgan oqibatlarini aniqlaş hamda baholaş uçun ötkazilgan. Unda yetakçi xalqaro tarmoq amaliyoti (IXTA/GIIP), Özbekiston hukumati va xalqaro kreditorlar talablariga muvofiq tegişli oldini oliş va kamaytiriş çoralari ham belgilangan.

Loyihaning bosqiçma-bosqiç rivojlanişini aks ettiriş uçun havo kemalari şovqini modeli ketma-ket yangilangan. Dastlabki AMITB/ESIA baholaşi yakunlangaç, xalqaro kreditorlar fikrlari, Uzbekistan Airports bilan muhokamalar hamda sanitariya-muhofaza hududini (SMH/SPZ) belgilaş böyiça Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi qömitasi bilan maslahatlaşuvga javoban qöşimça texnik işlar bajarilgan. Natijada Entran Ltd.ning 2026-yil iyundagi "Şovqinni baholaşga doir qöşimça hisoboti" tayyorlangan. Unda foydalaniş taxminlari aniqlaştirilgan, jamoatçilikning şovqin ta'siriga uçraşini kamaytirişga qaratilgan qöşimça foydalaniş bosqiçi çoralari variantlari baholangan hamda qayta körib

çiqilgan 2030-yilgi oçiliş yili va kelajakdagi 2045-yilgi baholaş yili uçun şovqin darajalari modellaştirilgan. Tegişli hollarda qöşimça hisobot xulosalari dastlabki Şovqinni baholaş hisobotidagi havo kemalari şovqiniga oid baholaş örnini bosadi.

Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi qömitasining sanitariya-muhofaza hududi (SMH/SPZ) böyiça yakuniy xulosasida aeroportning sanitariya-muhofaza hududi qat'iy ajratiş masofasi emas, balki havo kemalari şovqinining 60 dBA çiziği asosida belgilanişi tasdiqlangan. Şu sababli uşbu AMITB/ESIA tasdiqlangan SMH/SPZ yondaşuvi va qöşimça hisobotdagi aniqlaştirilgan havo kemalari şovqini modelini aks ettiriş uçun yangilangan.

Entran Ltd. 2026-yilda tayyorlagan alohida Şovqinni baholaş hisoboti va qöşimça hisobot uşbu AMITB/ESIAga 4-ilova sifatida berilgan. Unda töliq texnik modellaştiriş ma'lumotlar bazasi, taxminlar, şovqin çiziqlari natijalari keltirilgan. Uşbu AMITB/ESIA bobida asosiy xulosalar umumlaştirilib, ular atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarning kengroq doirasida bayon etilgan.

8.5.4.2 Me'yoriy va siyosiy asos

Uçayotgan havo kemalari uçun Özbekistonga xos şovqin standartlari mavjud emas. Şu sababli baholaşda quyidagilarga tayanilgan:

- Özbekistonning 0339-16-sonli sanitariya qoidalari va me'yorlari (SanPiN) hamda aeroportning sanitariya-muhofaza hududini (SMH/SPZ) belgilaş böyiça Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi qömitasi keyinçalik bergan yöriqnomalar;
- Aeroportning sanitariya-muhofaza hududini (SMH/SPZ) havo kemalari şovqinining 60 dBA çiziği asosida belgilaydigan tasdiqlangan xulosa;
- XMK/IFC va Jahon banki guruhining (JBG/WBG) umumiy hamda aeroportlar uçun atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik (AMSX/EHS) qöllanmalari. Ularda havo kemalari şovqiniga oid raqamli muvofiqlik çegaralari örniga aeroportni rejalaştiriş, foydalaniş tartiblari, uçiş yönalişlarini belgilaş, yerdan foydalanişni rejalaştiriş orqali havo kemalari şovqinini kamaytiriş ta'kidlangan;
- Havo kemalari şovqinini baholaş va boşqarişga oid YTTB/EBRDning yetakçi xalqaro amaliyoti (IXTA/GIIP);
- Uyqu buzilişi ehtimolini körib çiqişda salomatlikka asoslangan manba sifatida qöllangan Jahon soğliqni saqlaş taşkilotining (JSST/WHO) 2009-yildagi tungi şovqin qöllanmalari.

Şu sababli havo kemalari şovqini baholaşida xalqaro miqyosda tan olingan modellaştiriş usullari, amaldagi milliy sanitariya-muhofaza hududi (SMH/SPZ) talablari, yetakçi xalqaro amaliyot birgalikda qöllangan. Bu yondaşuv ehtimoliy ta'sirlarni baholaş, oldini oliş va kamaytiriş çoralarini işlab çiqiş hamda aeroport şovqinini uzoq muddat boşqarişga asos yaratadi.

Loyiha XMK/IFC va JBG/WBGning atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik (AMSX/EHS) qöllanmalari hamda ulardagi turar joy qabul qiluvçi obyektlari uçun kunduzgi 55 dBA va tungi 45 dBA tavsiya qiymatlari tatbiq etilişini tan oladi. Biroq aeroport qurilişi infratuzilmaning alohida toifasi ekani ham e'tirof etiladi. Bunday loyihalarning şovqin ta'sirlari odatda aviatsiyaga xos usullar, yerdan foydalanişni rejalaştiriş asoslari, boşqaruv yondaşuvlari orqali baholanadi.

9.0 Quruqlik ekologiyasi va quşlar

Uşbu bobda loyiha qurilişi va foydalaniş bosqiçidagi faoliyat, jumladan, unga boğliq obyektlar faoliyati natijasida quruqlik ekologiyasiga yuzaga kelişi mumkin bölgan ta'sirlar körib çiqiladi va baholanadi. Şuningdek, bu ta'sirlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş, boşqariş hamda kuzatiş çoralari aniqlanadi.

9.1 Amaldagi talablar va standartlar

9.1.1 Milliy me'yoriy hujjatlar

Özbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qiliş töğrisida"gi Qonuni, 1992-yil, 2024-yilda özgartirilgan

Uşbu Qonun Özbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilişning asosiy huquqiy doirasini taşkil etadi va uni amalga oşiriş mas'uliyati Özbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qiliş va iqlim özgarişi vazirligiga (MEEPCC) yuklangan. Unda atrof-muhitni saqlaş, biologik xilma-xillikni muhofaza qiliş, tabiiy resurslardan barqaror foydalaniş tamoyillari, mas'uliyatlari hamda mexanizmlari belgilanadi.

Qonundagi asosiy me'yoriy talablar quyidagilarni öz içiga oladi:

- Ekologik muvozanatni saqlaş, biologik xilma-xillikni muhofaza qiliş, tabiiy resurslardan barqaror foydalaniş kabi asosiy tamoyillarga amal qiliş;
- Hayvon va ösimlik turlarini muhofaza qiliş, qayta köpaytiriş, ulardan oqilona foydalaniş, jumladan, yaşaş muhitlarini saqlaş çoralarini belgilaş;
- Yerni boşqariş amaliyotlari ekotizimlar yomonlaşişining oldini olişi hamda quruqlik va quş turlarining muhim yaşaş muhitlarini saqlaşini ta'minlaydigan qoidalar;
- Davlat ekologik kuzatuvini, jumladan, ösimlik va hayvonot dunyosi holatini kuzatiş hamda kuzatuv ma'lumotlarini qaror qabul qiliş jarayonlariga kiritiş talabi.

Qonun, şuningdek, barça xöjalik va rivojlantiriş faoliyatlari quşlar hamda quruqlik ekotizimlarini ham qamrab olgan biologik xilma-xillikka sezilarli xavf tuğdirmasligini ta'minlaş uçun Davlat ekologik ekspertizasidan (DEE/SEE) ötişini talab qiladi.

Bundan taşqari, Qonunda örmonlar, suv-botqoq hududlari hamda noyob yoki köçib yuruvçi quşlarning köpayiş joylari kabi ekologik sezgir hududlar atrofida muhofaza zonalarini belgilaş nazarda tutilgan. Qonun AMITB/ESIA uçun huquqiy asos yaratadi hamda quruqlik va quşlarning yaşaş muhitiga ehtimoliy ta'sirlarni batafsil baholaş, ularning oldini oliş va ularni kamaytirişni talab qiladi. Qonun, ayniqsa, milliy Qizil kitobga kiritilgan yoki xalqaro konvensiyalar bilan qamrab olingan xavf ostidagi turlarni muhofaza qilişni ham qöllab-quvvatlaydi.

Özbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qiliş va undan foydalaniş töğrisida"gi Qonuni, 2016-yil, 2024-yilda özgartirilgan

Uşbu Qonun tabiiy yaşaş muhitidagi turlarni muhofaza qiliş va ularning xilma-xilligini ta'minlaş maqsadida hayvonot dunyosidan foydalaniş, uni muhofaza qiliş, qayta köpaytiriş, tiklaşni tartibga soladi.

Boşqa qonun va qoidalar quyidagilarni öz içiga oladi:

- Özbekiston Respublikasining "Ösimlik dunyosini muhofaza qiliş va undan foydalaniş töğrisida"gi Qonuni, 2016-yil, 2024-yilda özgartirilgan;
- Vazirlar Mahkamasining 290-son "Ösimlik dunyosi obyektlaridan foydalaniş va ösimlik dunyosi obyektlaridan foydalaniş sohasidagi ruxsat beriş tartib-taomillaridan ötiş tartibi töğrisidagi nizom" qarori, 2014-yil, 2024-yilda özgartirilgan, quriliş maydoni hududidagi daraxt va butalarni kesiş uçun ruxsat oliş talablarini belgilaydi;
- Özbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik töğrisidagi kodeksining (2017-yil, 2025-yilda özgartirilgan) 94-moddasi noyob yoki yöqolib ketiş xavfi ostidagi hayvonlarni yöq qiliş va tutişni, şuningdek, ularning nobud bölişi, soni kamayişi yoki yaşaş muhiti buzilişiga olib kelişi mumkin bölgan boşqa harakatlarni tartibga soladi.

9.1.2 Kreditorlar talablari

XMK/IFC

XMK/IFCning “Biologik xilma-xillikni muhofaza qiliş va tirik tabiiy resurslarni barqaror boşqariş” nomli 6-faoliyat standarti (FS6/PS6) biologik xilma-xillik xavflarini boşqariş va ekotizimlarni muhofaza qilişga doir keng qamrovli talablarni belgilaydi. Loyihalar AMITB/ESIA doirasida biologik xilma-xillikka ehtimoliy ta’sirlarni aniqlaşi va baholaşi kerak. Bunda ta’sirning oldini oliş, uni imkon qadar kamaytiriş, buzilgan muhitni tiklaş hamda zarur hollarda biologik xilma-xillik yöqotilişini qoplaş çoralaridan iborat ketma-ketlik qöllanadi. XMK/IFCning 6-faoliyat standarti (FS6/PS6) özgartirilgan, tabiiy, muhim yaşaş muhitlarini bir-biridan farqlaydi hamda muhim yaşaş muhitiga ta’sir qilişi mumkin bölgan loyihalar uçun ayniqsa qat’iy talablarni belgilaydi. Jumladan, asosiy biologik xilma-xillik xususiyatlari yoki ekologik jarayonlarga ölçab böladigan salbiy ta’sir yuz bermasligini isbotlaş talab etiladi. Bunday hududlarda buyurtmaçilar biologik xilma-xillikning sof yöqotilişiga yöl qöymasligi, ayrim hollarda esa uning sof ösişiga erişişi kerak. Standartda ekotizim xizmatlarining ahamiyati ham ta’kidlangan. Loyiha faoliyatining bu xizmatlarga ehtimoliy ta’siri, ayniqsa, jamoalar tirikçilik manbalari uçun ularga tayanadigan hollarda baholanişi kerak.

YTTB/EBRD

YTTB/EBRDning 2024-yilgi atrof-muhit va ijtimoiy siyosatidagi 6-atrof-muhit va ijtimoiy talab (AMIT/ESR 6) biologik xilma-xillikni muhofaza qiliş hamda tirik tabiiy resurslarni barqaror boşqarişga qaratilgan. U biologik xilma-xillikni himoya qiliş majburiyatini belgilaydi.

XMK/IFCning 6-faoliyat standarti (FS6/PS6) kabi YTTB/EBRDning 6-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 6) ham biologik xilma-xillikni muhofaza qilişda ehtiyotkor yondaşuvni ta’kidlaydi. Loyihalar biologik xilma-xillikning sof yöqotilişiga yöl qöymaslik va tegişli hollarda uning sof ösişiga erişiş uçun ta’sirning oldini oliş, uni imkon qadar kamaytiriş, buzilgan muhitni tiklaş hamda zarur hollarda yöqotilişni qoplaş çoralaridan iborat ketma-ketlikni qöllaşi kerak.

9.2 Baholaş doirasini belgilaş

Uşbu AMITB/ESIA doirasida biologik xilma-xillikni baholaş doirasi quyidagiça umumlaştirilgan:

- Dala tadqiqotlari: turlarning mavjudligi, soni, mavsumiy faolligini qayd etiş uçun loyiha hududi hamda atrofdagi hududlarda tizimli boşlanğiç holat tadqiqotlari ötkazilgan. Bunda quşlar, sutemizuvçilar, suvda hamda quruqlikda yaşovçilar, sudralib yuruvçilar, ösimlik turlari qamrab olinib, muhofaza nuqtayi nazaridan muhim turlarga alohida e’tibor qaratilgan.
- Yaşaş muhitlarini xaritalaş va baholaş: özgartirilgan va tabiiy yaşaş muhitlari, çiziqli unsurlar, jumladan, suğoriş kanallari hamda yerdan umumiy foydalaniş turlarini aniqlaş uçun loyiha egallaydigan maydonlar tavsiflangan.
- Me’yoriy va muhofaza konteksti: loyiha hududidagi yaşaş muhitlari va turlarning huquqiy hamda ekologik ahamiyatini baholaş uçun milliy va xalqaro qonunçilik, şuningdek, Qizil röyxat ma’lumotlari körib çiqilgan.
- Muhim yaşaş muhitini baholaş: loyiha XMK/IFCning 6-faoliyat standarti (FS6/PS6) va YTTB/EBRD mezonlari asosida muhim yaşaş muhiti mavjudligi böyiça baholangan.
- Ta’sirlarni aniqlaş: xavf ostidagi hududlar va qabul qiluvçi obyektlarni aniqlaş uçun quriliş va foydalaniş bosqiçidagi ehtimoliy ta’sirlar baholangan. Ular yaşaş muhitining yöqolişi va bölaklanişi, hayvonlarni bezovta qiliş, ifloslaniş, yovvoyi hayvonlarning aeroport faoliyati bilan özaro ta’siri, boşqa ta’sirlarni öz içiga oladi.
- Oldini oliş va kamaytiriş çoralarini körib çiqiş: batafsil çoralarni rejalaştirişga yönaliş beriş hamda yetakçi amaliyot va xalqaro yöriqnomalarga muvofiqlikni ta’minlaş uçun ta’sirning oldini oliş va uni kamaytirişga doir ehtimoliy çoralar aniqlangan.
- Xavflarni ustuvorlaştiriş: sezgir turlar hamda yaşaş muhitlari yoki joylari ularning zaifligi va loyiha faoliyati ta’siriga uçraş darajasi asosida belgilangan. Bu keyingi loyiha bosqiçlarida maqsadli kuzatuv yoki boşqaruv çoralarini amalga oşiriş uçun asos yaratadi.

Baholaş doirasini belgilaş jarayoni ekologik boşlanğiç holatni belgilaydi, biologik xilma-xillikning asosiy xususiyatlarini ajratib körsatadi hamda ehtimoliy ta’sirlarni, şuningdek, ularning oldini oliş va kamaytiriş çoralarini aniqlaydi. Bu ösimlik va hayvonot dunyosiga

ehtimoliy ta’sirlarning yetarli darajada tuşunilişini hamda ularga qarşi tegişli çoralar körilişini ta’minlaydi.

9.3 Boşlanğiç holat

9.3.1 Biologik xilma-xillik uçun muhim hududlar va qonun bilan muhofaza qilinadigan hududlarga yaqinlik

Loyiha hududining xalqaro miqyosda tan olingan biologik xilma-xillik uçun muhim hududlar (BXMH/KBA) va qonun bilan muhofaza qilinadigan hududlar bilan ustma-ust kelişi yoki ularga yaqinligi baholangan. Bunday ustma-ust keliş öz-özidan hududni muhim yaşaş muhiti (MYM/CH) deb belgilaşga olib kelmaydi, biroq ular örtasida köp hollarda kuçli boğliqlik mavjud. Çunki xalqaro miqyosda keng tan olingan Tabiatni muhofaza qiliş xalqaro ittifoqining (TMQXI/IUCN) BXMH/KBA standarti XMK/IFCning 6-faoliyat standarti (FS6/PS6) va YTTB/EBRDning 6-atrof-muhit va ijtimoiy talabi (AMIT/ESR 6) doirasidagi muhim yaşaş muhiti mezonlariga kiritilgan.

Muhim yaşaş muhiti bilan boğliq jihatlardan taşqari, BXMH/KBA va qonun bilan muhofaza qilinadigan hududlarga yaqinlik ekologik xavfni baholaşdagi asosiy omildir. Bu toifalarga yaqin yoki ular bilan ustma-ust keladigan hududlar odatda ekologik jihatdan juda sezgir böladi. Ular köp hollarda mintaqaviy hamda xalqaro muhofaza taşkilotlari uçun ustuvor ahamiyatga ega turlar, yaşaş muhitlari yoki biologik xilma-xillikning boşqa xususiyatlarini öz içiga oladi.

Uşbu tahlilni asoslaş uçun loyihaning biologik xilma-xillik uçun muhim hududlar (BXMH/KBA) va qonun bilan muhofaza etiladigan hududlarga (MEH/PA) nisbatan joylaşuvi biologik xilma-xillikni kompleks baholaş vositasi (BXKBV/IBAT) yordamida baholangan. Tahlil loyiha heç bir BXMH/KBA yoki muhofaza etiladigan hudud (MEH/PA) bilan ustma-ust kelmasligini hamda loyiha maydonidan 10 kilometr radiusda bunday hududlar mavjud emasligini tasdiqlaydi. Biroq 50 kilometr radiusda törtta muhofaza etiladigan hudud (MEH/PA) va törtta BXMH/KBA joylaşgan. Uşbu joylar haqidagi tafsilotlar 9.1-jadvalda, 9.1-rasmda va 9.2-rasmda keltirilgan.


Tuyaboğuz suv ombori loyiha maydonidan taxminan 11 km janubi-şarqda joylaşgan quşlar va biologik xilma-xillik uçun eng yaqin muhim hududdir (QBXMH/IBAs). Bu QBXMH/IBAs A1 mezoni böyiça bitta tur, ya’ni zaif toifadagi qizilboş ördak (zaif) mavjudligi sababli belgilangan.[10]

9.1-jadval. Mintaqadagi ekologik ahamiyatga ega hududlar


Tartib raqami	Muhofaza etiladigan tabiiy hudud/ BXMH/KBA	Joy	Maqomi	TMQXI/IUCN toifasi	Loyiha maydonidan taxminiy masofa
1	Muhofaza qilinadigan hudud (MEH/PA)	Ugom-Çotqol davlat milliy tabiat boği	Milliy tabiat boği	II	39 km
2	Muhofaza etiladigan hudud	Çotqol toğlari biosfera qöriqxonasi	YUNESKO/UNESCOning “Inson va biosfera” (MAB) biosfera qöriqxonasi	Tatbiq etilmaydi	Taxminan 40 km

[10] https://datazone.birdlife.org/site/factsheet/20681-tuyabuguz-reservoir

Tartib raqami	Muhofaza etiladigan tabiiy hudud/ BXMH/KBA	Joy	Maqomi	TMQXI/IUCN toifasi	Loyiha maydonidan taxminiy masofa
	(MEH/PA)				
3	Muhofaza etiladigan hudud (MEH/PA)	Ğarbiy Tyanşan	Butunjahon merosi obyekti (tabiiy yoki aralaş)	Tatbiq etilmaydi	Taxminan 40 km
4	Muhofaza etiladigan hudud (MEH/PA)	Ugom-Çotqol davlat biosfera qöriqxonasi	Davlat biosfera qöriqxonasi	Belgilanmagan	Taxminan 40 km
5	BXMH/KBA	Çordara suv ombori	QBXMH/IBAs	Tatbiq etilmaydi	47 km
6	BXMH/KBA	Çotqol toğlari biosfera qöriqxonasining Başqizilsoy bölmasi	QBXMH/IBAs	Tatbiq etilmaydi	Taxminan 40 km
7	BXMH/KBA	Baliqçi baliq yetiştiriş xöjaligi	QBXMH/IBAs	Tatbiq etilmaydi	35 km
8	BXMH/KBA	Tuyaboğuz suv ombori	QBXMH/IBAs	Tatbiq etilmaydi	11 km



9.1-rasm. BXMH/KBA hududlarining loyiha maydoniga nisbatan joylaşuvi



9.2-rasm. Muhofaza etiladigan hududlarning (MEH/PA) loyiha maydoniga nisbatan joylaşuvi

9.3.2 Ekologik umumiy tavsif

Loyiha hududi taxminan 1300 gektarni egallaydi va Toşkent viloyatining Quyi Çirçiq hamda Örta Çirçiq tumanlarida, Çirçiq daryosi quyi havzasi doirasidagi Çirçiq va Ohangaron daryolari orasidagi yassi allyuvial hamda prolyuvial tekisliklarda joylaşgan. Ekologik jihatdan maydon va uning atrofi suğoriladigan ekin maydonlari, boğlar, zovur va suğoriş kanallari hamda aholi manzilgohlari ustun bölgan, inson faoliyati natijasida keskin özgargan qişloq xöjaligi ekotizimidir. Tabiiy ösimlik qoplami, asosan, daraxt va butalardan iborat daryo böyi jamoalarining qoldiqlari, botqoqlangan pastliklardagi qamişzorlar hamda qabristonlar va balandroq hududlar bilan boğliq kiçik daraxtzorlar bilan çeklangan. Yer yuzasi tekis, dengiz sathidan 300-360 metr balandlikda bölib, suğoriş tarmoqlari bilan kuçli bölingan. Iqlim jihatidan hudud yozi issiq Örta yer dengizi iqlim mintaqasiga kiradi. Bu mintaqa issiq va quruq yoz

hamda yumşoq qiş bilan tavsiflanadi; yillik örtaça harorat qariyb 14,1°Cni, asosan qiş va bahorda tuşadigan yillik yoğin miqdori esa taxminan 427 mmni taşkil etadi.

Ösimliklar geografiyasi nuqtayi nazaridan maydon Turon viloyatining Örta Sirdaryo okrugidagi Çinaz hududida joylaşgan. Bu yerda tabiiy ekologik xususiyatlar inson faoliyati ustun bölgan muhitda faqat parçalangan va özgargan körinişda saqlanib qolgan.

9.3.3 Boşlanğiç holat tadqiqotlari

9.3.3.1 Tadqiqot usullari va kölami haqida qisqa ma’lumot


5 Capitals/SLR boşlanğiç holat tadqiqotlarini ötkaziş uçun mahalliy maslahatçi”Nazar Business Technology”bilan hamkorlik qilgan. Loyiha hududida biologik xilma-xillikning boşlanğiç holatini belgilaş maqsadida ösimlik turlari va umurtqali hayvonlarga qaratilgan tizimli dala kuzatuvlari orqali hayvonot va ösimlik dunyosi tadqiq qilingan. Quşlar statsionar nuqtalardan kuzatilgan, bir neçta takson guruhi, ya’ni sutemizuvçilar, quşlar, sudralib yuruvçilar hamda suvda va quruqlikda yaşovçilar haqida ma’lumot töplaş uçun piyoda transektlar ötkazilgan. Şuningdek, körşapalaklar maqsadli usulda, ösimlik turlari esa transektlar böyiça tadqiq qilingan. Transektlar loyiha hududida hamda loyiha maydonining ğarbida, Çirçiq daryosi böylab ötkazilgan.

Taklif etilayotgan uçiş-qöniş yölagining har bir uçida quşlarni kuzatiş uçun bittadan, jami ikkita kuzatuv nuqtasidan foydalanildi: 1-kuzatuv nuqtasi 41.085915 şimoliy kenglik va 69.183674 şarqiy uzunlikda, 2-kuzatuv nuqtasi esa 41.097756 şimoliy kenglik va 69.231150 şarqiy uzunlikda joylaşgan. Har bir kuzatuv nuqtasi 2 kilometr radiusdagi hududni qamrab oldi. Bahor, kuz, qiş mavsumlarining har birida har bir nuqtada 36 soatdan kuzatuv ötkazildi. Uzunligi 710-3900 metr bölgan önta transekt qişloq xöjaligi dalalari, suğoriş kanallari, baliq hovuzlari, oq laylak koloniyalari kabi turli yaşaş muhitlarini qamrab oldi. Tadqiqot tafsilotlari **9.2-jadval**da keltirilgan.

9.2-jadval. Boşlanğiç holat tadqiqotlari tavsifi

Tadqiqot turi	Sarflangan iş hajmi	Ötkazilgan davr
Hayvonot dunyosi tadqiqotlari (sutemizuvçilar, sudralib yuruvçilar, suvda hamda quruqlikda yaşovçilar, doimiy hamda uya quruvçi quşlar)	10 ta transekt (jami taxminan 12,41 km)	2025-yil aprel-may
Kuzatuv nuqtalaridagi bahorgi tadqiqotlar	Har bir kuzatuv nuqtasida 36 soat (2 ta kuzatuv nuqtasi); har bir kuzatuv 6 soatdan	2025-yil aprel-may
Kuzatuv nuqtalaridagi kuzgi tadqiqotlar	Har bir kuzatuv nuqtasida 36 soat (2 ta kuzatuv nuqtasi); har bir kuzatuv 6 soatdan	2025-yil sentabr-oktabr
Kuzatuv nuqtasidagi qişki tadqiqot	Har bir kuzatuv nuqtasida 36 soat (2 ta kuzatuv nuqtasi); har bir kuzatuv 6 soatdan	2025-yil dekabridan 2026-yil yanvarigaça
Köşapalaklarni tadqiq qiliş	5 ta transekt (ertalab/keçqurun); akustik tadqiqot	2025-yil may
Botanika va yaşaş muhiti tadqiqoti	Loyiha hududidagi 14 ta namuna maydonçasi yoki joyi	2025-yil aprel


Namuna oliş joylari 9.3-rasmda körsatilgan.



9.3-rasm. Namuna oliş joylari xaritasi

9.3.3.2 Yaşaş muhitlari

Loyiha hududi asosan inson faoliyati şakllantirgan manzaralar bilan tavsiflanadigan özgartirilgan yaşaş muhitlaridan iborat. Hududning katta qismini paxta, buğdoy, şoli kabi ekinlar yetiştiriladigan suğoriladigan haydalma yerlar egallaydi. Bundan taşqari, hudud böylab olma, örik, gilos kabi mevali daraxtlar yetiştiriladigan meva boğlari tarqoq joylaşgan. Suğoriş kanallari, zovurlar, çegara yölaklari suvni boşqariş hamda ayrim ösimlik turlari uçun yaşaş muhitini ta'minlaydigan muhim manzara unsurlaridir. Daraxtzor himoya yölaklari odatda yöllar va suğoriş kanallari böylab ekilgan daraxtlarning tor yölaklari bölib, tabiiy yaşaş muhitlariga qaraganda çeklangan biologik xilma-xillikni ta'minlaydi. Loyiha hududida yarim tabiiy ösimliklar, jumladan mahalliy va begona öt turlarini uçratiş mumkin bölgan bir neçta eski qabriston hududi ham mavjud. Taşlandiq yaylovlar va aholi punktlari ham loyiha hududida mavjud bölib, manzaraning özgartirilgan xususiyatiga hissa qöşadi. Umuman olganda, loyiha hududidagi yaşaş muhitlari asosan inson faoliyati natijasida paydo bölgan va özgartirilgan bölib, tabiiy yaşaş muhitlari juda kam yoki umuman yöq.



9.4-rasm. Yaşaş muhitlarining tavsifi



9.5-rasm. Yaşaş muhitlarining fotosuratlari

9.3.3.3 Flora

Loyiha hududida botanika tadqiqoti 2025-yil aprelda ötkazilgan. Uning maqsadi ösimlik turlari tarkibi va yaşaş muhiti turlarini hujjatlaştiriş, mavjud botanika adabiyotlarini körib çiqiş hamda xavf ostidagi turlarni aniqlaşdan iborat bölgan.

Dala tadqiqotlari standart botanika usullari yordamida ötkazilgan. Loyiha hududidagi suğoriladigan qişloq xöjaligi yerlari, boğlar, himoya daraxt yölaklari, boş yerlar, kanallar, inson faoliyati bilan özgartirilgan boşqa hududlar kabi namunaviy yaşaş muhitlarida ön törtta namuna maydonçasi, ya'ni 50 × 50 mli kvadratlar tadqiq qilingan. Har bir maydonçada yaşaş muhiti turi va holati, yerdan foydalaniş, bezovta qiluvçi omillar, ösimlik qoplami tuzilişi baholangan. Mavjud barça ösimlik turlari qayd etilgan, ularning miqdori va qoplama darajasi ustun, köp, tez-tez, vaqti-vaqti bilan, kam uçraydigan toifalar (D = ustun; A = köp; F = tez-tez; O = vaqti-vaqti bilan; R = kam uçraydigan) hamda Braun-Blanquet şkalalari yordamida baholangan. Turlar mintaqaviy floralar va taksonomik manbalar asosida aniqlangan, ularning muhofaza maqomi esa Özbekiston Qizil kitobi va TMQXI/IUCN Qizil röyxati asosida baholangan.

Yaşaş muhitlari dala ma'lumotlari va sun'iy yöldoş tasvirlari talqini asosida tasniflanib, xaritaga tuşirilgan. Milliy yaşaş muhitlarini tasniflaş tizimi mavjud bölmagani sababli TMQXI/IUCNning Yaşaş muhitlarini tasniflaş tizimi, Global ekotizim tipologiyasi, tegişli joylarda Yevropa tabiat axborot tizimi (EUNIS) qöllangan. Yaşaş muhitlari XMK/IFCning 6-faoliyat standarti talablariga muvofiq baholanib, XMK/IFC va TMQXI/IUCN yöriqnomalari asosida özgartirilgan, tabiiy yoki muhim deb tasniflangan.

Dala tadqiqoti natijalarini mintaqaviy kontekstda baholaş uçun adabiyotlar keng qamrovda körib çiqilgan. Toşkent viloyatining toğli hududlari botanika jihatidan yaxşi örganilgan bölsa-da, Çirçiq daryosi havzasining pasttekislik qismi nisbatan kam örganilgan. Asosiy manbalar klassik va zamonaviy floristik işlar, milliy floralar, mintaqaviy turlar röyxatlari, Özbekiston Qizil kitobi, TMQXI/IUCN baholari, Toşkent viloyati florasining sönggi xatlovlarini qamrab olgan. Biologik xilma-xillikning onlayn ma'lumotlar bazalari va raqamli gerbariylar, jumladan, Global biologik xilma-xillik axborot tizimi va Plantarium ham körib çiqilgan.

Loyiha hududida jami 132 ta ösimlik turi, jumladan, 116 ta mahalliy va 16 ta begona tur qayd etilgan. Begona turlarning törttasi, ya'ni Ambrosia artemisiifolia, Bidens frondosa, Xanthium orientale va Xanthium spinosum Yevropa va Örta yer dengizi ösimliklarni himoya qiliş taşkilotining (YDÖHQT/EPPO) Global ma'lumotlar bazasida Özbekistondagi invaziv turlar sifatida körsatilgan. Florada Özbekistonning inson faoliyati bilan özgartirilgan hududlariga xos keng tarqalgan begona ötlar bilan birga mahalliy ösimliklar ustunlik qiladi. Hududda yöqolib ketiş xavfi öta yuqori, yöqolib ketiş xavfi yuqori yoki zaif toifalaridagi xavf ostidagi turlar ham, endemik turlar ham topilmagan.[11]

Loyiha hududi Çirçiq va Ohangaron daryolari örtasidagi qişloq xöjaligida keng foydalaniladigan allyuvial tekislikda, qadimiy Toşkent vohasida joylaşgan. Dala tadqiqotlari va sun'iy yöldoş tasvirlari loyiha hududidagi deyarli barça yaşaş muhitlari özgartirilgan, inson faoliyati bilan boğliq turga mansub ekanini körsatgan.

Loyiha hududidagi özgartirilgan yaşaş muhitlarining sakkizta asosiy turi quyidagilardir:

- Suğoriladigan haydalma yerlar, paxta, buğdoy, şoli, makkajöxori,
- Meva boğlari, olma, örik, gilos, şaftoli,
- Daraxtzor himoya yölaklari, tut, terak, tol,
- Çegara yölaklari, begona ötlardan iborat ötsimon ösimlik qoplami,
- Suğoriş kanallari va zovurlar, qamiş va qiyoq,
- Eski qabristonlar, yarim tabiiy ösimlik qoplami,
- Aholi punktlari, ekilgan mevali va manzarali daraxtlar,
- Yöllar, şahar infratuzilmasi.

Flora asosan qişloq xöjaligi ekinlari, ekilgan daraxtlar, ikkilamçi begona öt ösimliklaridan iborat. Eski qabristonlar va suğoriş kanallari böylab ayrim yarim tabiiy ösimlik qoplami ham mavjud.

Aeroport qurilişi ösimlik qoplamining yöqolişiga olib kelsa-da, yaşaş muhitlari özgartirilganini hisobga olganda, uning biologik xilma-xillikka ta'siri jiddiy bölişi kutilmaydi. Quriliş davrida ösimlik qoplamiga yetkazilgan zarar uçun tovon Özbekiston milliy qoidalariga, 2014-yildagi 290-son qarorga muvofiq böladi.

[11] Makhkamov T, Kortz A, Hejda M, Brundu G, Pyšek P (2024). Özbekistonning tabiiylaşgan begona florasi: turlar boyligi, kelib çiqişi, yaşaş muhitlari. Biological Invasions, 26-jild, 2819-2830-betlar. https://doi.org/10.1007/s10530-024-03371-w

	
Allium suworowii	*Asperugo procumbens* (mahalliy begona öt ösimligi)
	
Salix babylonica (olib kelingan begona daraxt)	*Bromus tectorum* (mahalliy bir yillik begona öt)

9.6-rasm. Kuzatilgan ösimlik turlarining fotosuratlari

9.3.3.4 Quşlar

Quşlar tadqiqoti eng yaxşi köriniş şaroitida tizimli kuzatuv ötkaziş imkonini beradigan ikkita statsionar kuzatuv nuqtasidan foydalangan holda ötkazilgan. Bahor mavsumida, 2025-yil aprel va may oylarida, har bir kuzatuv nuqtasida jami 36 soat kuzatuv olib borilgan. Eng issiq davrga töğri kelmasligi uçun kuzatuvlar ertalab va keçqurun ötkazilgan. Qayd etilgan parametrlar turning aniqlanişi, individlar soni, uçiş balandligi va yönalişi, kuzatuv nuqtasidan masofa, hududdan foydalaniş hamda mavjud ob-havo şaroitini qamrab olgan.

Kuz va qiş tadqiqotlarida ham ayni usul qöllangan. 2025-yil sentabr-oktabr hamda 2025-yil dekabr-2026-yil yanvar oylarida har bir VPda 36 soat kuzatuv olib borilgan. Bundan taşqari, bahor davrida qişloq xöjaligi dalalari, suğoriş kanallari, baliq hovuzlari, oq laylakning (*Ciconia ciconia*) ma'lum uya quriş koloniyalari kabi turli yaşaş muhitlarini qamrab olgan önta piyoda transekt orqali qöşimça ma'lumot töplangan.

Kuz va bahor mavsumlaridagi barça tadqiqotlarda jami 56 ta quş turi qayd etilgan. Ulardan 50 tasi bahor tadqiqotlarida kuzatilgan, 35 tasi har ikki kuzatuv nuqtasida uçragan, kuzda esa 41 tur qayd etilgan. Qişki kuzatuv nuqtasi tadqiqoti natijalari tahlil qilinmoqda va AMITB/ESIAning keyingi nusxasiga kiritiladi. Turlar tadqiqot hududi böylab umuman bir tekis tarqalgan. Biroq asosan mahalliy oziqlaniş şaroiti tufayli kuzatuv nuqtalari örtasida farqlar qayd etilgan: beş tur faqat VP1da, önta tur esa faqat VP2da qayd etilgan. Bahorda turlar tarkibi 22 ta uya quruvçi köçib yuruvçi (uya quruvçi köçmançi quş), 14 ta muqim tur (R), yettita uya quruvçi va qişlovçi (uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş), törtta köçib yuruvçi (M) hamda uçta köçib yuruvçi qişlovçi turni (MW) qamrab olgan. Kuzda bahorda qayd etilgan 15 ta köçib yuruvçi tur endi uçramagan, biroq oltita qöşimça muqim yoki qişlovçi tur qayd etilgan.

Özbekiston Qizil kitobiga kiritilgan uç tur tadqiqot mavsumlari davomida muntazam qayd etilgan: kiçik oq qarqara (*Egretta garzetta*; Özbekiston Qizil kitobining 2-toifasi, ya'ni zaif yoki kamayib borayotgan; TMQXI/IUCNning eng kam xavotirli toifasi), oq laylak (*Ciconia*

ciconia; Özbekiston Qizil kitobining 3-toifasi, ya'ni xavfga yaqin; TMQXI/IUCNning eng kam xavotirli toifasi) va qoravoy (*Plegadis falcinellus*; Özbekiston Qizil kitobining 2-toifasi, ya'ni zaif yoki kamayib borayotgan; TMQXI/IUCNning eng kam xavotirli toifasi). Şimol lapvingi (Vanellus vanellus) ham qayd etilgan va TMQXI/IUCN Qizil röyxatida xavfga yaqin deb tasniflangan. Piyoda transektlar röyxatga yana oltita turni, jumladan, Özbekiston Qizil kitobiga kiritilgan ikkita turni qöşgan: kiçik qorabuzov (*Microcarbo pygmaeus*; Özbekiston Qizil kitobining 3-toifasi, ya'ni xavfga yaqin; TMQXI/IUCNning eng kam xavotirli toifasi) va qora kalxat (*Aegypius monachus*; Özbekiston Qizil kitobining 3-toifasi, ya'ni xavfga yaqin; TMQXI/IUCNning xavfga yaqin toifasi). Biroq TMQXI/IUCN mezonlariga köra xavf ostidagi heç bir tur qayd etilmagan. Suv quşlari asosan Çirçiq daryosi va yaqin baliq hovuzlari bilan boğliq joylarda kuzatilgan, loyihaning asosiy hududida esa qayd etilmagan.

Qayd etilgan boşqa e'tiborga molik turlarga odatda gala bölib kuzatilgan oddiy qirğovul *(Phasianus colchicus*), şarq qora qargasi (*Corvus corone orientalis*), oddiy mayna *(Acridotheres tristis*) kiradi.

Kuzatuv nuqtalaridagi tadqiqotlardan taşqari, loyiha hududi içida va taşqarisidagi kengroq hududda quşlar faolligini qayd etiş uçun transekt tadqiqotlari ötkazilgan. Transektlar Çirçiq daryosi böyidagi hududlarni ham qamrab olgan. Natijalar daryo yölagi böylab quşlar soni va faolligi nisbatan yuqori bölgani körsatgan. Eng köp quş aynan şu yerda qayd etilgan va suv yaşaş muhitiga boğliq turlar ustunlik qilgan. Bu hududlarda kiçik qorabuzov, katta qorabuzov, yovvoyi ördak, Xazar çaykasi, qora boşli çayka, oddiy qaşqaldoq, oddiy suv tovugi qayd etilgan. Biroq tadqiqotlarda bu hududlardagi eng köp sonli tur kök kaptar bölgan.

Oq laylak uya koloniyalari

Oq laylakning uya quriş koloniyalari hududning asosiy ekologik xususiyatlaridan biridir. Oq laylak loyiha hududi yaqinida koloniya bölib uya quradigan eng köp sonli muqim quş turidir. Turning asosiy koloniyalarini aniqlaş uçun avtomobilda transekt tadqiqoti ötkazilgan. Tadqiqotda asosan elektr uzatiş infratuzilmasida joylaşgan uçta asosiy uya koloniyasi va alohida uyalar qayd etilgan.

Taxminan 50 ta uyadan iborat eng yirik uya quriş koloniyasi avtomobil yöli böylab elektr uzatiş tarmoği tayançlarida, loyiha hududi çegarasidan qariyb 1,1 km şimoli-ğarbda, Yelibay qişloği yaqinida joylaşgan. Tadqiqotlar bu koloniyada kamida 41 ta faol uya quruvçi juft mavjudligini tasdiqlagan. Taxminan 30 ta uyadan iborat ikkinçi koloniya temir yöl yölagi böylab elektr uzatiş tarmoği tayançlarida joylaşgan. Bu koloniya şimoldan janubga taxminan 3 km davom etadi, eng yaqin uya esa loyiha hududi çegarasidan qariyb 2 km janubi-şarqda joylaşgan. Taxminan 12 ta uyadan iborat uçinçi, kiçikroq koloniya loyiha hududidan qariyb 4 km şimolda, Çirçiq daryosi yaqinida qayd etilgan.


Uşbu koloniyalardan taşqari, loyiha hududiga yaqinroq joylarda alohida uyalar qayd etilgan. Loyiha hududining janubi-ğarbiy burçagidagi elektr ustunida voyaga yetgan quşlar jufti va polaponlari bölgan bitta uya kuzatilgan. Polaponlari bölgan yana ikkita alohida uya 2-kuzatuv nuqtasidan qariyb 1-1,5 km janubda, loyiha hududi çegarasidan taşqarida qayd etilgan (9.8-rasmga qarang).

2024-yil iyun-avgust oylarida ötkazilgan IIXX Xalqaro oq laylak sanoği natijalariga köra, Toşkent viloyatida örtaça mahsuldorlik har bir uya quruvçi juftga 2,63 ta polaponni taşkil etgan. Bu qiymat va loyiha hududi yaqinida qayd etilgan taxminan 86 ta uyaga asoslanib, loyiha hududidagi mahalliy oq laylak populyatsiyasi qariyb 400 ta quşdan iborat deb baholangan.

Tadqiqotda qayd etilgan sutemizuvçilar röyxati 9.3-jadvalda keltirilgan.

	
Loyiha hududidan ~1,1 km masofadagi 1-oq laylak uya koloniyasi	Polaponlari bölgan uya
	
Loyiha hududidan ~3 km janubdagi 2-koloniyada joylaşgan uyalar	Botqoq boztaroği
	
Qora tojli tungi qarqara	Qoravoy

9.7-rasm. Kuzatilgan quş turlari va uya koloniyalarining fotosuratlari



9.8-rasm. Oq laylaklarning loyiha hududiga nisbatan uya quriş joylari

9.3-jadval. Qayd etilgan quş turlari röyxati

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	1-kuzatuv nuqtasi[12]	2-kuzatuv nuqtasi[12]	Muqim yoki köçib yuruvçi maqomi[13]	Jahon populyatsiya sining taxminiy 0,1 foizlik çegaraviy qiymati[14]
1	Qişloq qaldirğoçi	*Hirundo rustica*	-	eng kam xavotir	721	1067	uya quruvçi köçmançi quş	290,000
2	Qora tojli tungi qarqara	*Nycticorax nycticorax*	-	eng kam xavotir	183	190	uya quruvçi köçmançi quş	440
3	Qora qanotli uzunoyoq	*Himantopus himantopus*	-	eng kam xavotir	513	522	uya quruvçi köçmançi quş	486
4	Kök yonoqli kurkunak	*Merops persicus*	-	eng kam xavotir	71	13	uya quruvçi köçmançi quş	150
5	Yoqali sohil qaldirğoçi	*Riparia riparia*	-	eng kam xavotir	-	18	uya quruvçi köçmançi quş	29,000
6	Oddiy kakku	*Cuculus canorus*	-	eng kam xavotir	2	2	uya quruvçi köçmançi quş	34,600
7	Sassiqpopişak	*Upupa epops*	-	eng kam xavotir	83	2	uya quruvçi köçmançi quş	50,00
8	Oddiy miqqiy	*Falco tinnunculus*	-	eng kam xavotir	3	4	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	4,330
9	Oddiy baliqçi quş	*Alcedo atthis*	-	eng kam xavotir	14	3	R	716
10	Zağizğon	*Pica pica*	-	eng kam xavotir	709	472	R	64,300
11	Oddiy suv tovugi	*Gallinula chloropus*	-	eng kam xavotir	51	34	R	9,069

[12] Sonlar barça fasllardagi kuzatuvlarning umumiy miqdorini bildiradi. Biroq ular ayni bir individlar guruhining takroran aniqlanişini öz içiga olişi mumkin. Şu sababli bu sonlar landşaft yoki loyiha hududidagi tegişli turlarning haqiqiy populyatsiya sonini aniq aks ettirmasligi mumkin.

[13] R: ötroq tur; uya quruvçi köçmançi quş: uya quruvçi tur; uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş: uya quruvçi va qişlovçi tur; MW: qişlovçi tur; M: köçib yuruvçi tur

[14] Keltirilgan qiymatlar faqat yönaltiruvçi ma'lumot yoki dastlabki saralaş mezonlari bölib, ularni nobud bölişning biologik jihatdan maqbul yoxud yöl qöyiladigan çegaralari deb talqin qilmaslik kerak. Izçillik va ehtiyotkorlikni ta'minlaş maqsadida hisoblarda, ma'lumot mavjud bölgan hollarda, TMQXI/IUCN yoki BirdLife bergan tegişli jahon populyatsiyasi quyi bahosining 0,1 foizi qöllanilgan. Bu qiymatlar faqat populyatsiya darajasidagi umumiy şaroitni körsatiş uçun möljallangan.

T /r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	1-kuzatuv nuqtasi[12]	2-kuzatuv nuqtasi[12]	Muqim yoki köçib yuruvçi maqomi[13]	Jahon populyatsiya sining taxminiy 0,1 foizlik çegaraviy qiymati[14]
12	Oddiy mayna	*Acridotheres tristis*	-	eng kam xavotir	1149	792	R	200,000
13	Oddiy qirğovul	*Phasianus colchicus*	-	eng kam xavotir	95	105	R	50,000
14	Oddiy qizilquyruq	*Phoenicurus phoenicurus*	-	eng kam xavotir	-	1	uya quruvçi köçmançi quş	17,500
15	Oddiy qiziltoş	*Carpodacus erythrinus*	-	eng kam xavotir	5	-	uya quruvçi köçmançi quş	27,300
16	Oddiy loyxörak	*Actitis hypoleucos*	-	eng kam xavotir	97	28	uya quruvçi köçmançi quş	3,230
17	Oddiy uzunqanot	*Apus apus*	-	eng kam xavotir	-	29	uya quruvçi köçmançi quş	80,000
18	Oddiy çurrak	*Anas crecca*	-	eng kam xavotir	37	23	M	2,800
19	Örmon kaptari	*Columba palumbus*	-	eng kam xavotir	-	4	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	51,000
20	Kokilli törğay	*Galerida cristata*	-	eng kam xavotir	14	10	R	172,000
21	Yevrosiyo qora sayroqi quşi	*Turdus merula*	-	eng kam xavotir	39	34	R	145,000
22	Yevrosiyo halqali musiçasi	*Streptopelia decaocto*	-	eng kam xavotir	96	39	R	40,000
23	Yevrosiyo jiğaltoyi	*Falco subbuteo*	-	eng kam xavotir	-	1	uya quruvçi köçmançi quş	900
24	Yevrosiyo zağçasi	*Corvus monedula*	-	eng kam xavotir	3000	530	R	39,000
25	Daraxt çumçuği	*Passer montanus*	-	eng kam xavotir	1910	1161	R	53,700
26	Yevropa kurkunagi	*Merops apiaster*	-	eng kam xavotir	50	6	uya quruvçi köçmançi quş	18,400

T /r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	1-kuzatuv nuqtasi[12]	2-kuzatuv nuqtasi[12]	Muqim yoki köçib yuruvçi maqomi[13]	Jahon populyatsiya sining taxminiy 0,1 foizlik çegaraviy qiymati[14]
27	Kökkarğa	*Coracias garrulus*	-	eng kam xavotir	20	8	uya quruvçi köçmançi quş	100
28	Qoravoy	*Plegadis falcinellus*	2(zaif:D)	eng kam xavotir	159	221	uya quruvçi köçmançi quş	119
29	Katta qorabuzov	*Phalacrocorax carbo*	-	-	-	9	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	1400
30	Kulrang qarqara	*Ardea cinerea*	-	eng kam xavotir	2	3	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	500
31	Ola qarğa	*Corvus cornix*	-	eng kam xavotir	142	60	MW	Ma'lumot mavjud emas, ehtimol bir neça mingta
32	Uy çumçuği	*Passer domesticus*	-	eng kam xavotir	347	505	R	896,000
33	Hind çumçuği	*Passer indicus*	-	eng kam xavotir	1165	1317	uya quruvçi köçmançi quş	Ma'lumot mavjud emas, ehtimol bir neça mingta
34	Malla qarqunoq	*Lanius isabellinus*	-	eng kam xavotir	73	9	uya quruvçi köçmançi quş	Ma'lumot mavjud emas
35	Kulguçi musiça	*Streptopelia senegalensis*	-	eng kam xavotir	55	104	R	2,400
36	Kiçik oq qarqara	*Egretta garzetta*	2(zaif:D)	eng kam xavotir	18	21	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	430
37	Uzun oyoqli sariç	*Buteo rufinus*	-	eng kam xavotir	68	8	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	100
38	Yovvoyi ördak	*Anas platyrhynchos*	-	eng kam xavotir	63	44	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	26,152
39	Şimol lapvingi	*Vanellus vanellus*	-	xavfga yaqin	13	12	MW	4,300

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	1-kuzatuv nuqtasi[12]	2-kuzatuv nuqtasi[12]	Muqim yoki köçib yuruvçi maqomi[13]	Jahon populyatsiya sining taxminiy 0,1 foizlik çegaraviy qiymati[14]
40	Şimol uzunquloq yapaloqquşi	*Asio otus*	-	eng kam xavotir	24	4	MW	2,230
41	Şarq qora qarğasi	*Corvus orientalis*	-	eng kam xavotir	433	453	R	Ma'lumot mavjud emas
42	Şarq gurragi	*Streptopelia orientalis*	-	eng kam xavotir	9	4	uya quruvçi köçmançi quş	Ma'lumot mavjud emas
43	Qizil qarqara	*Ardea purpurea*	-	eng kam xavotir	5	2	uya quruvçi köçmançi quş	180
44	Qizil kokilli şönğuvçi ördak	*Netta rufina*	-	eng kam xavotir	19	24	uya quruvçi köçmançi va qişlovçi quş	420
45	Qizil boşli dehqonçumçuq	*Granativora bruniceps*	-	eng kam xavotir	-	2	uya quruvçi köçmançi quş	Ma'lumot mavjud emas
46	Qizilquyruq qarqunoq	*Lanius collurio*	-	eng kam xavotir	1	-	M	21,900
47	Kök kaptar	*Columba livia*	-	eng kam xavotir	9527	7927	R	Ma'lumot mavjud emas, ehtimol bir neça mingta
48	Puşti çuğurçiq	*Pastor roseus*	-	eng kam xavotir	1000	470	uya quruvçi köçmançi quş	400
49	Anğirt	*Tadorna ferruginea*	-	eng kam xavotir	36	4	M	134
50	Şikra	*Accipiter badius*	-	eng kam xavotir	-	2	uya quruvçi köçmançi quş	500
51	Sibir toşçumiği	*Saxicola maurus*	-	eng kam xavotir	88	27	uya quruvçi köçmançi quş	Ma'lumot mavjud emas
52	Ola paşşaxör	*Muscicapa striata*	-	eng kam xavotir	2	-	uya quruvçi köçmançi quş	54,000
53	Ğarbiy botqoq boztaroği	*Circus aeruginosus*	-	eng kam xavotir	31	29	R	600

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	1-kuzatuv nuqtasi[12]	2-kuzatuv nuqtasi[12]	Muqim yoki köçib yuruvçi maqomi[13]	Jahon populyatsiya sining taxminiy 0,1 foizlik çegaraviy qiymati[14]
54	Oq laylak	*Ciconia ciconia*	3(xavfga yaqin)	eng kam xavotir	876	800	R	526
55	Oq jiblajibon	*Motacilla alba*	-	eng kam xavotir	159	34	MW	Ma'lumot mavjud emas
56	Sariq jiblajibon	*Motacilla flava*	-	eng kam xavotir	-	140	M	Ma'lumot mavjud emas

9.3.3.5 Sutemizuvçilar

Sutemizuvçilar tadqiqoti bahor davrida, 2025-yil aprel-iyun oylarida, önta piyoda transekt yordamida ötkazilgan. Ma'lumot töplaşda bevosita kuzatuvlarga, şuningdek, izlar, inlar, oziqlaniş belgilari kabi mavjudlikning bilvosita dalillariga e'tibor qaratilgan. Transektlar tadqiqot hududidagi qişloq xöjaligi dalalari, boş yerlar, suğoriş kanallari, çorva boqiladigan joylar kabi turli namunaviy yaşaş muhitlaridan namuna oliş uçun belgilangan.

Mavjud adabiyotlarni körib çiqiş orqali qöşimça ma'lumot olingan. Muhofaza maqomi Özbekiston Qizil kitobi va TMQXI/IUCN Qizil röyxati asosida baholangan.

Tadqiqotlarda jami önta sutemizuvçi turi qayd etilgan. Ularning barçasi TMQXI/IUCN Qizil röyxatida eng kam xavotirli deb tasniflangan va heç biri Özbekiston Qizil kitobiga kiritilmagan. Sutemizuvçilar majmuasi qişloq xöjaligi va suv-botqoq hududlari ta'siridagi manzaralarga xos bölib, unda inson özgartirgan muhitga çidamli turlar ustunlik qiladi.

Uy siçqoni (*Mus musculus*) kabi odamlar yaqinida yaşovçi kemiruvçilar ekin maydonlari va aholi punktlari yaqinida köp uçragan. Zaysan körsiçqoni (*Ellobius tancrei*) tadqiqot hududi böylab keng tarqalgan bölib, unga xos belgilar barça transektlarda qayd etilgan. Qizil tulki (*Vulpes vulpes*) va çiya böri (*Canis aureus*) kabi örtaça kattalikdagi yirtqiçlar mavjudligi ham tasdiqlangan. VP1 yaqinida tulki ini, 1-transekt böylab esa çiya böri izlari aniqlangan. Bu uşbu turlarning mavjudligini körsatadi.

Yarim suvda yaşovçi turlar, xususan, ondatra (*Ondatra zibethicus*) va nutriya (*Myocastor coypus*) faqat suğoriş kanallari hamda ular bilan boğliq suvli-botqoq joylarda uçragan va jadal ekin yetiştiriladigan hududlarda qayd etilmagan. Tadqiqotda qayd etilgan sutemizuvçilar röyxati 9.4-jadvalda keltirilgan.

9.4-jadval. Tadqiqotlarda qayd etilgan sutemizuvçilar

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	Soni
1	Nutriya	*Myocastor coypus*	-	eng kam xavotir	1
2	Tulki	*Vulpes vulpes*	-	eng kam xavotir	1
3	Çiya böri	*Canis aureus*	-	eng kam xavotir	2
4	Uy siçqoni	*Mus musculus*	-	eng kam xavotir	Keng tarqalgan
5	Yirik yumronqoziq	*Spermophilus fulvus*	-	eng kam xavotir	5
6	Uzunquloq tipratikan	*Hemiechinus auritus*	-	eng kam xavotir	1
7	Ondatra	*Ondatra zibethicus*	-	eng kam xavotir	3
8	Tolay quyoni	*Lepus tolai*	-	eng kam xavotir	1
9	Lasaq	*Mustela nivalis*	-	eng kam xavotir	1
10	Zaysan körsiçqoni	*Ellobius tancrei*	-	eng kam xavotir	Keng tarqalgan


	
Ondatra (muşk kalamuş)	Yirik yumronqoziq

9.9-rasm. Kuzatilgan sutemizuvçilarning fotosuratlari

9.3.3.6 Körşapalaklar

Loyiha hududidagi körşapalak turlarini aniqlaş uçun akustik tadqiqot va ehtimoliy qönim joylarini qidiriş işlari ötkazildi. Dastlabki közdan keçirişda qönim joyi uçun qulay şaroit yaratişi ehtimoli yuqori bölgan yoki suv manbasi yoxud oziqlaniş hududi sifatida juda jozibador 14 ta asosiy joy aniqlandi. Ulardan törttasi loyiha hududida, 10 tasi esa loyiha çegarasidan 4 km radiusda joylaşgan. Tadqiqot davomida uşbu xususiyatlar yaqinida körşapalak tovuşlarini qayd etiş uçun mazkur joylarga borildi. Tadqiqotlar Bat Logger M2 ultratovuş detektori yordamida ötkazildi. Transektlar suv havzalari, qişloq xöjaligi dalalari, aholi punktlarini öz içiga olgan ehtimoliy qönim joylari hamda oziqlaniş hududlarini qamrab oldi. Tört keçada beşta transekt tekşirilib, 114 ta tadqiqot nuqtasidan ma'lumot töplandi (9.10-rasmga qarang).

Izoh: loyiha hududi içidagi yoki unga yaqin turar joy binolari va sun'iy inşootlarda körşapalaklarning qönim joylari tadqiq qilinmagan. Çunki bu inşootlarni tadqiq qiliş loyihaga oid maxfiy ma'lumotlarni oşkor qilişi va muddatidan oldin jamoatçilik muhokamasi yoki savollarini yuzaga keltirişi mumkin degan xavotir bölgan. Şu sababli, körşapalak turlarining boşlanğiç holatini belgilaş uçun binolardagi qönim joylarini vizual tekşiriş örniga körşapalaklarning ultratovuş signallarini qayd etuvçi uskunadan foydalangan holda avtomobil transektlari böyiça tadqiqotlar ötkazilgan.



9.10-rasm. Körşapalak transektlari


Tadqiqot beş uruğga mansub oltita körşapalak turini qayd etgan, ulardan oddiy mitti körşapalak (*Pipistrellus pipistrellus*) eng köp sonli bölib, barça qaydlarning taxminan 96 foizini taşkil etgan. Qayd etilgan boşqa turlarga keçki körşapalak (*Eptesicus serotinus*), David tunşapalagi (*Myotis davidii*), Geoffroy tunşapalagi (*Myotis emarginatus*), ikki rangli körşapalak (*Vespertilio murinus*), kam uçraydigan şarq barbastellasi (*Barbastella caspica*) kiradi.

Körşapalaklar 114 ta tadqiqot nuqtasining 111 tasida qayd etildi. Bu ularning loyiha hududi va atrofdagi landşaft böylab keng faolligini körsatadi. Faollik ayniqsa suv havzalari va aholi punktlari yaqinida, şuningdek hududning şarqiy qismida yuqori bölgan. Körşapalak tovuşlarining aksariyati antropogen inşootlarda qayd etilgani, ular inson qurgan va tabiiy pana joylardan foydalanayotganini körsatadi. Biroq TMQXI/IUCN Qizil röyxati yoki Özbekiston Qizil kitobida xavf ostidagi deb körsatilgan heç bir tur aniqlanmadi.


Tadqiqot loyiha hududida körşapalaklarning oziqlaniş hududlari mavjudligini, ularning faolligi esa aholi punktlari va suv manbalari yaqinida yuqoriligini körsatdi. Tadqiqot natijalari hamda qayd etilgan tovuşlar asosida tahlil qilingan faollik 9.11-rasmda va 9.12-rasmda keltirilgan.

9.5-jadval. Tadqiqot davomida qayd etilgan körşapalak turlari

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	TMQXI/IUCN maqomi	Özbekiston Qizil kitobidagi maqomi	Qayd etilgan transektlar
1	Oddiy mitti körşapalak	*Pipistrellus pipistrellus*	eng kam xavotir	Röyxatga kiritilmagan	1-5-transektlar
2	David tunşapalagi	*Myotis davidii*	eng kam xavotir	Röyxatga kiritilmagan	2-5-transektlar
3	Şarq barbastellasi	*Barbastella caspica*	eng kam xavotir	Röyxatga kiritilmagan	3-transekt
4	Geoffroy tunşapalagi	*Myotis emarginatus*	eng kam xavotir	Röyxatga kiritilmagan	1, 2, 4, 5-transektlar
5	Ikki rangli körşapalak	*Vespertilio murinus*	eng kam xavotir	Röyxatga kiritilmagan	1-3 va 5-transektlar
6	Keçki körşapalak	*Eptesicus serotinus*	eng kam xavotir	Röyxatga kiritilmagan	1-5-transektlar



9.11-rasm. Körşapalak tadqiqoti natijalari



9.12-rasm. Qayd etilgan tovuşlarga asoslangan körşapalak faolligi

9.3.3.7 Sudralib yuruvçilar va amfibiyalar

Gerpetofauna tadqiqotlari 2025-yilning aprel-iyun oylarida, bahor mavsumida, xuddi şu önta piyoda transekt böylab ötkazildi. Tadqiqot amfibiyalar uçun suğoriş kanallari va hovuzlarni, sudralib yuruvçilar uçun esa ötloq, şudgor qilinmay qolgan, yarim tabiiy maydonlarni, ya'ni bu turlar uçraşi ehtimoli eng yuqori bölgan yaşaş muhitlarini qamrab oldi. Turlar bevosita kuzatuvlar hamda inlar va boşqa xos belgilar kabi bilvosita dalillar asosida qayd etildi. Tadqiqotlar faollik eng yuqori bölgan davrlarda, asosan ertalab va keçqurun ötkazildi.

Tadqiqotlarda jami oltita gerpetofauna turi, ya'ni ikkita amfibiya va törtta sudralib yuruvçi turi qayd etildi. Amfibiyalar nam yaşaş muhitlarida, ayniqsa suğoriş kanallari va ular bilan boğliq suv havzalarida köp uçradi. Sudralib yuruvçilar esa tadqiqot hududidagi ötloq va şudgor qilinmay qolgan maydonlarda keng tarqalgan.

Özbekiston Qizil kitobida 2-toifaga, ya'ni zaif turlar qatoriga kiritilgan va TMQXI/IUCN Qizil röyxatida ham zaif deb tasniflangan Örta Osiyo toşbaqasining (*Testudo horsfieldii*) ikki individi qabriston hududlarida qayd etildi. Bu kuzatuvlar turning tabiiy yaşaş muhiti uçun noodatiy. Individlar loyiha hududidagi tabiiy populyatsiyaga mansub emas, balki tutqunlikda saqlanib, keyin qöyib yuborilgan bölişi ehtimoli yuqori.

Qayd etilgan barça boşqa sudralib yuruvçi va suvda hamda quruqlikda yaşovçi turlar TMQXI/IUCN Qizil röyxatida eng kam xavotirli turlar deb tasniflangan. Qulay yaşaş muhiti mavjud joylarda ular mahalliy miqyosda köp uçradi. Xususan, çöl qovoqsiz kaltakesagi (*Ablepharus deserti*) tadqiqot hududi böylab keng tarqalgan.

Tadqiqotda qayd etilgan gerpetofauna röyxati 9.6-jadvalda keltirilgan.

9.6-jadval. Qayd etilgan gerpetofauna turlari röyxati

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	Özbekiston Qizil kitobi	TMQXI/IUCN	Soni
1	Yaşil qurbaqa	*Bufo viridis*	-	eng kam xavotir	2
2	Yevrosiyo botqoq baqasi	*Pelophylax ridibundus*	-	eng kam xavotir	5
3	Örta Osiyo toşbaqasi	*Testudo horsfieldii*	2(zaif)	zaif	2
4	Sariq ilon	*Pseudopus apodus*	-	eng kam xavotir	3
5	Çöl qovoqsiz kaltakesagi	*Ablepharus deserti*	-	eng kam xavotir	12
6	Katakli suv iloni	*Natrix tessellata*	-	eng kam xavotir	2



Sariq ilon



Çöl qovoqsiz kaltakesagi

9.13-rasm. Kuzatilgan gerpetofauna turlarining fotosuratlari

9.3.3.8 Umurtqasizlar

Umurtqasizlarning boşlanğiç holati Toşkent viloyati va Çirçiq daryosi havzasi böyiça mavjud Global biologik xilma-xillik axborot tizimi, iNaturalist ma'lumotlari hamda çop etilgan adabiyotlarni kameral tahlil qiliş orqali töldirilgan. Mavjud ma'lumotlarga köra, kengroq hududda suğoriladigan qişloq xöjaligi yerlari, dala çetlari, ruderal ösimlik qoplami, suğoriş kanallari, baliq hovuzlari, çuçuk suv yaşaş muhitlariga xos umurtqasizlar majmuasi mavjud. Qayd etilgan guruhlarga Odonata, Lepidoptera, Hymenoptera, Coleoptera kiradi. Tabiatni muhofaza qiliş xalqaro ittifoqi (TMQXI/IUCN) baholagan turlarning aksariyati eng kam xavotirli deb tasniflangan; loyiha hududida muhofaza nuqtayi nazaridan yuqori ahamiyatga ega heç bir tur tasdiqlanmagan. Milliy darajada zaif deb tasniflangan ikkita haşarot turi, Sulaymon zarlatqönğizi (Ancylocheira salomonii) va töqay tasmaqanot kapalagi (Catocala remissa), Toşkent viloyatining kengroq hududida qayd etilgan hamda yetuk terakzorlar mavjud qulay joylarda uçraşi mumkin. 9.7-jadvalda keltirilgan turlar kengroq mintaqadagi qaydlarga asoslangan; ularni loyiha hududida tasdiqlangan turlar deb talqin qiliş mumkin emas.[15]

9.7-jadval. Kengroq mintaqada uçraydigan umurtqasizlar

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	TMQXI/IUCN Qizil röyxatidagi maqomi
1	Oddiy kökquyruq ninaçi	*Ischnura elegans*	yöqolib ketiş xavfi past
2	Kiçik kökquyruq ninaçi	*Ischnura pumilio*	yöqolib ketiş xavfi past

[15] Özbekiston Respublikasi Qizil kitobi. II jild: Hayvonlar. J. A. Azimov umumiy tahriri ostida. Toşkent: Tasvir naşriyoti, 2019-yil. 392 bet.

T/r	Umumiy nomi	Ilmiy nomi	TMQXI/IUCN Qizil röyxatidagi maqomi
3	Kök imperator ninaçi	*Anax imperator*	yöqolib ketiş xavfi past
4	Kiçik imperator ninaçi	*Anax parthenope*	yöqolib ketiş xavfi past
5	Qora bayroqça ninaçi	*Selysiothemis nigra*	yöqolib ketiş xavfi past
6	Qizil suzuvçi ninaçi	*Crocothemis servilia*	yöqolib ketiş xavfi past
7	Qoraquyruq suzuvçi ninaçi	*Orthetrum cancellatum*	yöqolib ketiş xavfi past
8	Oqquyruq suzuvçi ninaçi	*Orthetrum albistylum*	yöqolib ketiş xavfi past
9	Nozik suzuvçi ninaçi	*Orthetrum sabina*	yöqolib ketiş xavfi past
10	Yevropa qoğoz arisi	*Polistes dominula*	baholanmagan
11	Watt qoğoz arisi	*Polistes wattii*	baholanmagan
12	Şarq qovoğarisi	*Vespa orientalis*	baholanmagan
13	Örta yer dengizi kulol arisi	*Eumenes mediterraneus*	baholanmagan
14	Devorkaş ari	*Euodynerus strigatus*	baholanmagan
15	Devorkaş ari	*Odynerus melanocephalus*	baholanmagan
16	Oddiy kök kapalak	*Polyommatus icarus*	baholanmagan
17	Qadimgi dunyo yelkanli kapalagi	*Papilio machaon*	baholanmagan
18	Rangdor xonim kapalagi	*Vanessa cardui*	yöqolib ketiş xavfi past
19	Yetti nuqtali xonqizi	*Coccinella septempunctata*	baholanmagan
20	Ola xonqizi	*Hippodamia variegata*	baholanmagan
21	Arlekin xonqizi	*Harmonia axyridis*	baholanmagan
22	Sulaymon zarlatqönğizi	*Ancylocheira salomonii*	baholanmagan
23	Töqay tasmaqanot kapalagi	*Catocala remissa*	baholanmagan

9.3.3.9 Muhim yaşaş muhiti

Muhim yaşaş muhiti (MYM/CH) yoki ustuvor biologik xilma-xillik xususiyati sifatida belgilaşga sabab böladigan omillar dastlab XMK/IFC va YTTB/EBRDning eng sönggi tegişli yöriqnomalariga muvofiq saralandi. Loyiha hududida XMK/IFCning MYM/CH böyiça 4- yoki 5-mezoni yoxud YTTB/EBRDning 1-mezoniga köra MYM/CH sifatida belgilaşga olib keladigan nihoyatda noyob yoki xavf ostidagi ekotizimlar yoxud öziga xos evolyutsion jarayonlar mavjud emas. Şu sababli MYM/CH saralovi turlar hamda bir neça turni birlaştirgan biologik takson guruhlari bilan çeklandi. Ehtimoliy MYM/CH yoki ustuvor biologik xilma-xillik xususiyatini belgilovçi turlarning dastlabki röyxati Biologik xilma-xillikni kompleks baholaş vositasi (BXKBV/IBAT) hisoboti, TMQXI/IUCNning xavf ostidagi turlar Qizil röyxati, eBird ma'lumotlar bazasi, milliy Qizil röyxatni körib çiqiş orqali tuzildi. Uşbu röyxatdan quyidagi toifalarga kiradigan turlar loyihadan ta'sirlaniş ehtimoli juda kam deb baholanib, çiqarib taşlandi:[16][17][18]

- Mamlakat yoki mintaqada yöqolib ketgan turlar;
- Özbekistonda faqat juda kam, ya'ni adaşib keluvçi yoki tasodifiy tur sifatida uçray-digan turlar;
- Loyiha hududi bilan geografik yoki ekologik jihatdan ustma-ust kelmaydigan turlar.

Muhim yaşaş muhitini baholaş jarayonida körib çiqilgan ikkilamçi manbalar röyxati 9.8-jadvalda keltirilgan.

[16] XMK/IFCning 6-faoliyat standarti va Jahon bankining 6-atrof-muhit va ijtimoiy standarti böyiça BXKBV/IBAT hisoboti. Hisobot Biologik xilma-xillikni kompleks baholaş vositasi (BXKBV/IBAT) yordamida 39087-85860-sonli litsenziya asosida quyidagi sanada yaratildi:

2025-yil 14-may (Grinviç örtaça vaqti, GMT). www.ibat-alliance.org

[17] https://www.iucnredlist.org/

[18] https://ebird.org/home

9.8-jadval. Körib çiqilgan ikkilamçi manbalar röyxati

T/r	Ma’lumot manbai	Maqsad
1	TMQXI/IUCNning xavf ostidagi turlar Qizil röyxati, 2025-2 onlayn versiyasi	Bu turlarning jahon miqyosidagi muhofaza maqomini qamrab oluvçi dunyodagi eng töliq röyxatdir. Unda turlarning jahon böylab tarqalişi, populyatsiya holati, tendensiyalari asosida ular eng kam xavotirli (eng kam xavotir) toifadan yöqolib ketgan (EX) toifagaça tasniflanadi hamda xavf ostidagi turlar röyxati beriladi. Şuningdek, turlarning tasnifi, tarqalişi, yaşaş muhitiga oid talablari, ularga tahdidlar keltiriladi.
2	ebird.org	ebird.org ma’lum hududda aniqlangan quş turlarining geografik havolali röyxatini taqdim etadi.
3	Yöqolib ketişga barham beriş alyansi (AZE)	AZE xavf ostidagi turlarning saqlanib qolişi uçun muhim joylarni aniqlaş va himoya qiliş orqali turlar yöqolib ketişining oldini olişga qaratilgan jahon taşabbusidir. AZE hududlari deb ataladigan bu joylarda yöqolib ketiş yoqasidagi turlarning sönggi saqlanib qolgan yaşaş muhitlari joylaşgan.
4	Biologik xilma-xillikni kompleks baholaş vositasi (BXKBV/IBAT)	U loyiha landşaftida TMQXI/IUCN böyiça xavf ostidagi, köçib yuruvçi, endemik turlar mavjudligini dastlabki saralovdan ötkazadi hamda baholaş uçun ehtimoliy turlar röyxatini beradi.
5	BirdLife International ma’lumotlar zonasi	BirdLife International quşlar va biologik xilma-xillik uçun muhim hududlar (QBXMH/IBAs) ma’lumotlar bazasini yuritadi. Bazada uşbu hududlarda uçraydigan turlar röyxati va yaşaş muhitlarining sezgirlik darajasi keltiriladi, şuningdek hududdagi köçib yuruvçi, töplanib yaşovçi, xavf ostidagi turlar aniqlanadi.
Fauna böyiça boşlanğiç holat ma'lumotlari oq laylaklar, kaptarlar, çuğurçiqlar va boşqa yirik yoki gala bölib uçuvçi quşlarning loyiha havo hududidan oziqlaniş hamda yaqin uya quriş koloniyalari, suğoriladigan dalalar, suğoriş kanallari örtasida qatnov uçun foydalanişini tasdiqlaydi. Uşbu hudud havo kemalari uçib kötariladigan, balandlik oladigan, yaqinlaşadigan, qönadigan kritik past balandlik mintaqasi bilan ustma-ust tuşadi. AQŞ Yovvoyi tabiat bilan urilişlar milliy ma'lumotlar bazasining 1990-2004-yillardagi ma'lumotlari tahlili (Dolbeer, 2006) qayd etilgan quş urilişlarining taxminan 74 foizi va katta zarar yetkazgan urilişlarning 66 foizi yer sathidan 500 fut yoki undan past balandlikda (YSB/AGL) sodir bölişini körsatadi. Bu havo kemalari odatda yer sathidan 500 futdan pastda uçadigan, uçiş-qöniş yölagi boşidan gorizontal yönalişda taxminan 10 000 futgaça çözilgan aeroport hududiga töğri keladi. Loyiha şaroitida quş va havo kemasi urilişlarining aksariyati havo kemalari harakati oziqlanayotgan quşlar va oq laylaklarning mahalliy uçiş balandliklari bilan kesişadigan past balandlikdagi yölakda sodir bölişi mumkin. Şu sababli urilş[40]larning oldini oliş çoralari aeroport perimetri hamda yaqinlaşiş yoki uçib çiqiş hududidagi, ayniqsa yer sathidan 500 futgaça balandlikdagi yaşaş muhitlaridan quşlarning foydalanişini kamaytirişga qaratilişi kerak.

Boşlanğiç holat tadqiqotlari qayd etilgan 56 ga yaqin quş turi havo hududidan jadal foydalanişini tasdiqladi. Kuzatuv nuqtalarida oq laylaklarning bahorgi harakati eng yuqori davrda har bir nuqtada jami 800 dan ortiq kuzatuv qayd etildi. Bundan taşqari, gala hosil qiluvçi turlar qatoriga oddiy mayna, 1-kuzatuv nuqtasida 1 149 ta kuzatuv; puşti çuğurçiq, 1-kuzatuv nuqtasida köpayiş davrida 1 000 ta kuzatuv; qişloq qaldirğoçi, 2-kuzatuv nuqtasida 1 067 ta kuzatuv; kök kaptar, 1-kuzatuv nuqtasida 9 527 ta kuzatuv, Yevrosiyo zağçasi, 1-kuzatuv nuqtasida 3 000 ta kuzatuv kiradi. Landşaftdagi baliq hovuzlari va suğoriş kanallarida oziqlanadigan suv quşlaridan qora qanotli uzunoyoq böyiça 513-522 ta, yovvoyi ördak böyiça esa 63-44 ta kuzatuv qayd etilgan. Kuzatuvlarning umumiy soni landşaftdagi uşbu turlarning haqiqiy köpligini aks ettirmasa-da, havo hududidan yuqori darajada foydalanilayotganini yaqqol körsatadi.

Quş va havo kemasi urilişi xavfi past balandlikdagi foydalaniş yölağida, ya'ni uçib kötariliş, balandlik oliş, yaqinlaşiş, qöniş bosqiçlarida havo kemalari harakati bilan quşlarning muntazam harakati makon hamda vaqt jihatidan ustma-ust tuşişi natijasida yuzaga keladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Uya quriş koloniyalari va oziqlaniş hududlari orasidagi kundalik qatnov uçişlari;
- Yirik gavdali turlarning havoda suzib uçişi va issiq havo oqimlaridan foydalanişi;
- Kaptarlar, çuğurçiqlar, qarğasimonlarning gala bölib harakatlanişi;
- Atrofdagi landşaftdagi suğoriladigan dalalar va turğun suvning quşlarni jalb qilişi.

Yirik gavdali turlar, masalan oq laylaklar, tana oğirligi hamda dvigatelga tortilib kiriş yoki old oynaga uriliş ehtimoli sababli oğir oqibatlar xavfini tuğdiradi. Kaptarlar, çuğurçiqlar, zağçalar kabi gala hosil qiluvçi turlar esa bir neçta quş iştirokidagi uriliş hodisalari ehtimolini oşiradi. Loyiha havo hududida quşlar faoliyatining hujjatlaştirilgan jadal darajasi, örta va yirik gavdali hamda gala hosil qiluvçi turlar mavjudligi, şuningdek quşlarga kutilayotgan ta'sirlarning asosan mahalliy va mintaqaviy darajada bölişi hisobga olinib, ta'sir kölami örtaça deb baholandi. Oldini oliş va kamaytiriş çoralaridan oldingi umumiy ta'sir ahamiyati esa yirik deb baholangan.

9.5.2.2 Şovqin va yoruğlik tufayli doimiy bezovtalik

Foydalaniş bosqiçida havo kemalari harakati, yerda xizmat körsatiş faoliyati, xizmat transport vositalari, yordamçi uskunalar uzluksiz fon şovqini hamda vaqti-vaqti bilan yuqori şovqin hodisalarini yuzaga keltiradi. Şovqin darajasining oşişi aeroport atrofidagi yovvoyi hayvonlarni bezovta qilib, ayniqsa köpayişning nozik davrlarida

[40] Dolbeer, Richard A. "Fuqaro havo kemalari bilan töqnaşuvlarda qayd etilgan quşlarning balandlik böyiça taqsimlanişi" (2006). Amerika Qöşma Ştatlari Qişloq xöjaligi vazirligi (AQŞ QXV/USDA).
National Wildlife Research Center - Staff Publications, 500.

ularning mahalliy siqib çiqarilişi, oziqlaniş xatti-harakatlari özgarişi, yaşaş muhitidan kamroq foydalanişi yoki uya quriş faoliyati buzilişiga olib kelişi mumkin. Uçiş-qöniş va rullaş yölaklari, perronlar hamda terminal obyektlarining tungi yoritişi tungi turlarning harakat tarzi va xatti-harakatini özgartirib, qöşimça ta’sir körsatişi mumkin. Atrofdagi landşaft asosan özgartirilgan va bezovtalikka çidamli turlarni qöllab-quvvatlasa-da, ayniqsa yaqin atrofdagi uya quriş koloniyalariga mahalliy ta’sirlarni istisno qilib bölmaydi. Umuman olganda, foydalaniş bosqiçidagi şovqin va yoritişning biologik xilma-xillikka ta’siri çeklangan hamda makon jihatidan tor doirada bölişi kutiladi.

9.14-jadval. Foydalaniş bosqiçida biologik xilma-xillikka ta’sirlarni baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
Quş va havo kemasi urilişi	Örtaça	Yirik gavdali quşlar, jumladan uya quruvçi oq laylaklar va örta gavdali gala hosil qiluvçi quşlar	Yuqori	Yirik	Kiçik
Şovqin va yoruğlik tufayli doimiy bezovtalik	Örtaça	Uya quruvçi quşlar va sutemizuvçilar	Yuqori	Örtaça	Kiçik

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Quş va havo kemasi urilişi xavfining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari

- Xalqaro fuqaro aviatsiyasi taşkilotining (XFAT/ICAO) 14-ilovasi hamda XFAT/ICAO Doc 9137 hujjatining 3-qismi va XFAT/ICAO Doc 9981 hujjatidagi körsatmalarga muvofiq hududga xos Yovvoyi tabiat xavflarini boşqariş rejasi (YTXBR/WHMP) işlab çiqilişi va amalga oşirilişi kerak. YTXBR/WHMP yovvoyi tabiat xavfini rasmiy baholaşni, ya’ni turlarni aniqlaş, urilişlar tarixi, mavsumiy qonuniyatlar hamda ehtimollik, oqibat oğirligi böyiça tasniflaşni öz içiga olişi kerak. Unda belgilangan vazifa va javobgarliklar, öqitiş talablari, yovvoyi tabiatni nazorat qilişning standart iş tartiblari, hisobot beriş tartiblari, natijadorlik körsatkiçlari hamda aeroportning xavfsizlikni boşqariş tizimi (XBT/SMS) doirasida har yilgi körib çiqiş ham nazarda tutilişi lozim.
- Biologik xilma-xillikni kuzatiş talablari va majburiyatlari Biologik xilma-xillikni kuzatiş va baholaş dasturi (BXKBD/BMEP) hamda Yovvoyi tabiat xavflarini boşqariş rejasiga (YTXBR/WHMP) kiritilişi kerak. Bunga ustuvor biologik xilma-xillik xususiyati sifatida aniqlangan turlar uçun kuzatuv davomiyligi va mavsumiy tadqiqot talablari, maqsadli oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda foydalaniş bosqiçidagi yovvoyi tabiat xavfini boşqaruv çoralari kiradi.
- Aeroportning aviatsiya faoliyati ta’siriga tuşişi mumkin bölgan quş turlari populyatsiyalarini muhofaza qiladigan, biologik asosga ega nobud bölиş che-garalari belgilangan; ekspluatatsiya faoliyati davomida töqnaşuvlar haqidagi ma’lumotlar töplanib borişi bilan aniqroq chegaralar belgilanadi.
- Aeroport va uning bevosita atrofida yovvoyi hayvonlarni jalb qiluvçi omillarni kamaytiriş uçun yaşaş muhitini boşqaruv çoralari amalga oşirilişi kerak. Bunga uçiş-qöniş yölaklaridagi, rullaş yölaklaridagi öt balandligini taxminan 15-20 sm darajada saqlaş, samarali drenaj va texnik xizmat körsatiş orqali turğun suvni bartaraf etiş, mevali daraxtlar, qalin butalar yoki manzarali suv obyektlari paydo bölişiga yöl qöymaslik, qopqoqli va yovvoyi hayvonlar kirolmaydigan çiqindi idişlaridan foydalaniş hamda çiqindilarni öz vaqtida yiğiş va olib çiqiş kiradi.
- Yovvoyi hayvonlarning çöçitiş usullariga örganib qolişining oldini oliş uçun tayyorlangan xodimlar kunduzi va quşlar faolligi eng yuqori bölgan davr-larda, masalan tongda, oqşomda, köçiş mavsumlarida ularni faol ravişda tarqatişi kerak. Bunda pirotexnika vositalari, xavf signal tovuşlari, lazerlar, loçinlar yordamida çöçitiş yoki boşqa tasdiqlangan tizimlar kabi tegişli usullar navbatma-navbat qöllanişi lozim.
- Sana, vaqt, tur, imkoni bölsa tasdiqlangan holda, joy, havo kemasi turi, uçiş bosqiçi, zarar darajasi, ob-havo şaroitlari qayd etiladigan quş urilişlari hamda yovvoyi tabiat bilan boğliq hodisalarning batafsil jurnali yuritilişi kerak. Tendensiyalar va yuqori xavfli davrlarni aniqlaş uçun ma’lumotlar har çorakda tahlil qilinişi, milliy organlarga esa talab etilgan hisobotlar taqdim etilişi lozim.
- Quş urilişi hodisalarini qayd etiş va tahlil qilişdan taşqari, loyiha hududi yaqinida aniqlangan oq laylak uya quriş koloniyalari uçun kuzatuv dasturi amalga oşirilişi kerak. Kuzatuv köpayiş mavsumiga qaratilişi va aeroport faoliyatining har qanday ta’sirini baholaş uçun qurilиş tugaganidan keyin uç yil davomida mutaxassislarning davriy taşriflari hamda kuzatuvlari orqali ötkazilişi lozim.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar

- Ma’lum bir tur iştirokidagi takroriy urilişlar, köpayişning muvaffaqiyatsizligi, uyaning taşlab ketilişi, koloniya hajmining sezilarli qisqarişi kabi moslaşuvçan boşqarişni işga tuşiradigan aniq çegaraviy körsatkiçlar belgilanişi kerak. Sezilarli ta’sirlar aniqlansa, malakali ornitologlar va tegişli organlar bilan maslahatlaşgan holda tuzatiş çoralari işlab çiqilişi va amalga oşirilişi lozim. Bu çoralar maqsadli yaşaş muhiti özgartirişlari, uçiş yöllaridan uzoqdagi xavfsiz joylarda muqobil uya quriş maydonçalarini yaratiş yoki aviatsiya xavfsizligi bilan turlarni muhofaza qilişni muvozanatlaydigan dalillarga asoslangan boşqa aralaşuvlarni öz içiga olişi mumkin.
- Uzluksiz takomillaştirişni hamda rivojlanib borayotgan XFAT/ICAO körsatmalari va eng yaxşi xalqaro amaliyotga muvofiqlikni ta’minlaş uçun barça oldini oliş va kamaytiriş çoralarining samaradorligi har yili yoki yovvoyi tabiat bilan boğliq jiddiy hodisadan keyin körib çiqilişi kerak. YTXBR/WHMP tegişli ravişda yangilanişi lozim.

<u>Şovqin va yoruğlik tufayli doimiy bezovtalikning oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari</u>

- XFAT/ICAO tavsiya etgan şovqinni kamaytirişga oid foydalaniş tartiblari amalga oşirilişi kerak.
- Aeroport yoritiş tizimi yoruğlikning taşqariga tarqalişini çeklaydigan tarzda loyihalanişi va boşqarilişi kerak. Buning uçun himoyalangan, pastga yönaltirilgan yoritqiçlar qöllanişi hamda yoritiş jadalligi aviatsiya xavfsizligi uçun zarur eng past darajada belgilanişi lozim.
- XFAT/ICAOga muvofiq tartiblar yaqin yaşaş muhitlari va quşlarning uya quriş koloniyalaridagi bezovtalikni samarali kamaytirayotganini tasdiqlaş uçun muntazam kuzatiş hamda moslaşuvçan boşqariş amalga oşirilişi kerak. Bu havo kemalari şovqini çiziqlari va yovvoyi tabiat kuzatuvlarini davriy körib çiqişni öz içiga oladi.

9.6 Muntazam kuzatiş

MXQ/EPC pudratçisi va Loyiha kompaniyasi loyihaning quriliş, işga tuşiriş hamda foydalaniş bosqiçlarida biologik xilma-xillik kuzatuvini BXKBD/BMEP hamda YTXBR/WHMPga muvofiq amalga oşiradi.

Kuzatuv moslaşuvçan boşqariş tizimi doirasida amalga oşiriladi. Natijalar muntazam körib çiqiladi va zarur hollarda oldini oliş hamda kamaytiriş çoralari mos-laştiriladi. Kuzatuv natijalari davriy hisobotlarda hujjatlaştiriladi va tuzatiş çoralarini bel-gilaşda qöllanadi.

Batafsil kuzatuv uslubiyati loyihaning BXKBD/BMEPda belgilanişi hamda tegişli hollarda YTXBR/WHMPga kiritilişi kerak.

9.7 Yovvoyi tabiat xavflarini boşqariş rejasi

Loyiha kompaniyasi aeroport faoliyati boşlamasidan oldin YTXBR/WHMPni işlab çiqişi, amalga oşirişi, doimiy amal qilişini ta’minlaşi kerak. YTXBR/WHMP aviatsiya xavfsizligi va biologik xilma-xillik uçun yovvoyi tabiat bilan boğliq xavflarni aniqlaş, baholaş, boşqarişga amaliy asos yaratadi. Reja amaldagi milliy talablar va tegişli XFAT/ICAO körsatmalariga muvofiq işlab çiqiladi.

YTXBR/WHMP quyidagilarni öz içiga oladi: (i) aeroport içida va atrofida yovvoyi hayvonlarni jalb qiluvçi omillar hamda xavfi yuqoriroq hududlarni aniqlaş va xaritalaş; (ii) boşlanğiç holat tadqiqotlari, mavsumiy harakatlar, keyingi kuzatuvlarga asoslangan turga xos xavfni baholaş; (iii) yaşaş muhiti va jalb qiluvçi omillarni, şu jumladan ötloq, drenaj unsurlari, çiqindi, turğun suvni boşqariş tartiblari; (iv) yovvoyi hayvonlarni çöçitiş va zarur hollarda nazorat qilinadigan aralaşuv tartiblari; (v) yovvoyi hayvonlar bilan urilişlar va ularning nobud bölişini tizimli qayd etiş hamda tekşiriş; (vi) belgilangan vazifalar, javobgarliklar, hisobot beriş, favqulodda vaziyatga javob qaytariş tartiblari.

YTXBR/WHMP işga tuşiriş yoki uçişlar boşlanişidan oldin yakunlanadi. Uni amalga oşiriş uçun loyiha kompaniyasi yoki aeroport operatori va yovvoyi tabiatni boşqariş böyiça tegişli malakaga ega xodimlar mas’ul etib belgilanadi. Reja AMITB/ESIAdagi biologik xilma-xillikning boşlanğiç holati ma’lumotlariga asoslanadi va foydalaniş bosqiçidagi kuzatuv hamda uriliş ma’lumotlari bilan yangilanadi. Rejaning samaradorligi davriy körib çiqiladi. Oldini oliş va kamaytiriş çoralari davom etayotgan kuzatuvlar, takroriy uriliş hodisalari, muhofaza nuqtai nazaridan ahamiyatli turlarning nobud bölişi yoki yuzaga kelayotgan boşqa xavflar asosida moslaştiriladi.

9.15-jadval. Quruqlik ekologiyasini kuzatiş rejasi

Kuzatuv	Körsatkiçlar	Davriylik va davomiylik	Joy	Tegişli boşqariş rejasi
Quriliş bosqiçi				
Ösimliklarni tozalaş	Tozalanadigan maydon, muhofaza qilinadigan turlarning mavjudligi, invaziv turlarning uçraşi	Tozalaşdan oldin va faol yer işlari davomida davriy tekşirişlar	Loyiha egallaydigan maydon, material saqlaş maydonlari, kiriş yölagi	BXKBD/BMEP
Fauna bezovtaligi	Köpayiş faoliyati va uya quruvçi quşlarning mavjudligi, siqib çiqariş dalillari	Köpayiş mavsumiga töğri keladigan jadal quriliş davrida haftalik tekşirişlar	Quriliş hududi va qöşni hududlar	BXKBD/BMEP
Faunaning nobud bölişi	Tasodifiy nobud böliş, ya'ni transport vositalari bilan uriliş va handaqqa tuşib qoliş	Butun quriliş davomida uzluksiz qayd etiş	Kiriş yölagi, qaziş hududlari, boşqalar	BXKBD/BMEP
Foydalaniş bosqiçi, YTXBR/WHMP, moslaşuvçan boşqariş				
Yovvoyi tabiat va havo kemalari örtasidagi özaro ta'sir (XFAT/ICAO körsatmalariga muvofiq)	Kuzatilgan turlar, gala hajmi, uriliş qaydlari	Uriliş ma'lumotlarini uzluksiz qayd etiş; har çorakda ekologik körib çiqiş	Aerodrom, yaqinlaşiş, uçib çiqiş yölağı	YTXBR/WHMP
Uya quruvçi quşlarni kuzatiş	Atrofdagi landşaftda uya quriş koloniyalarining mavjudligi va holati	Mavsumiy tadqiqotlar, köpayiş davrida	Ta'sir hududida aniqlangan uya quriş joylari, qurilişdan keyin uç yil davomida	YTXBR/WHMP

10.0 Topografiya, geologiya, tuproq, gidrogeologiya

10.1 Amaldagi talablar va standartlar

10.1.1 Milliy me'yoriy hujjatlar

Tuproq sifati standartlari 2005-yilgi 0191-05-sonli Sanitariya qoidalari va me'yorlari (SQM/SanR&N)ning "Tuproqdagi ekzogen ifloslantiruvçi moddalarning sanitariya jihatidan ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiyalari va taxminan maqbul konsentratsiyalari" hujjatida belgilangan. Ular 10.1-jadvalda keltirilgan.

10.1-jadval. Tuproq uçun ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiyalar (REYK/MPC)

Körsatkiç	Özbekiston standarti (mg/kg)
Surma	4,5
Margimuş	2,0
Xrom	6,0
Kobalt	5,0
Mis	3,0
Simob, organik	2,1
Qörğoşin	32,0
Molibden	10,0
Nikel	4,0
Rux	23,0
Benzol	0,3
Toluol	0,3
Stirol, vinilbenzol	0,1
Vanadiy	150,0
Nitratlar	130,0
Sulfat (H2SO4)	160,0

Yer osti suvlari ham kiradigan suv obyektlaridagi ifloslantiruvçi moddalarning REYK/MPCini suv obyektlarining asosiy foydalaniş maqsadiga qarab belgilovçi mahalliy me'yoriy hujjatlar mavjud. Uşbu qiymatlar 10.2-jadvalda körsatilgan.[41]

10.2-jadval. Yer osti va yerusti suv obyektlaridagi kimyoviy moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyalari

Ifloslantiruvçi moddalar	Kommunal-maişiy maqsadlar[42]	Aralaştirmasdan bevosita suğorişda foydalaniş BMT Oziq-ovqat va qişloq xöjaligi taşkiloti (FAO/FAO)[43]
Kislorodga kimyoviy ehtiyoj (KKE/COD)	30	-
20 kunlik kislorodga biokimyoviy ehtiyoj (BOD20), mg O2/L	3-6	-
pH	6.5-8.5	6.5-8.5
Minerallaniş	1000	0-2000
Sulfatlar	500	1900
Xloridlar	350	300
Ammoniyli azot + (ammoniy tuzi) (NH4)	2	0-5

[41] Yer osti va yerusti suv havzalarini muhofaza qiliş böyiça 0083-24-sonli sanitariya qoidalari va me'yorlari (SQM/SanR&N), 5-ilova, 2024-yil.

[42] Yer osti va yerusti suv havzalarini muhofaza qiliş böyiça 0083-24-sonli SQM/SanR&N, 6-ilova, 2024-yil

[43] BMT Oziq-ovqat va qişloq xöjaligi taşkilotining (FAO), "Qişloq xöjaligi uçun suv sifati" qöllanmasi, 1985-yil (1994-yil). http://www.fao.org/3/t0234e/t0234e01.htm http://www.fao.org/3/t0234e/t0234e01.htm

Ifloslantiruvçi moddalar	Kommunal-maişiy maqsadlar[42]	Aralaştirmasdan bevosita suğorişda foydalaniş BMT Oziq-ovqat va qişloq xöjaligi taşkiloti (FAO/FAO)[43]
Azot	25	-
Nitritli azot	0,5	0-10
Nitrit	3,0	-
Nitrat	45	-
Fosfat (PO3-)	1	0-2
Efirda eriydigan moddalar	0,8	-
Neft mahsulotlari	0,3	
Sintetik sirt-faol moddalar (Şveytsariya standartlaştiriş uyuşmasi)	0,5	
Fenol	0,001	
Ftor (F)	1,5	
Margimuş (As)	0,01	
Temir (Fe)	0,3	
Xrom (Cr6+)	0,1	
Mis (Cu)	1	
Rux (Zn)	5	
Sianidlar	0,07	
Qörğoşin (Pb)	0,01	
Nikel (Ni)	0,02	
Kadmiy (Cd)	0,001	
Kobalt (Co)	0,1	
Molibden (Mo)	0,07	
Stronsiy (Sr2+)	7	
Selen (Se)	0,01	
Simob (Hg)	0,0005	
Bor (B)	0,5	0-7-3

10.1.2 Kreditor talablari

Xalqaro moliya korporatsiyasining (XMK/IFC) “Resurslardan samarali foydalaniş va ifloslanişning oldini oliş”ga oid 3-faoliyat standarti buyurtmaçidan, loyihadan yoki ularning ikkalasidan quyidagilarni talab qiladi:

- *Loyiha faoliyatidan kelib çiqadigan ifloslanişning oldini oliş yoki uni kamaytiriş orqali inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarning oldini oliş yoki ularni kamaytiriş;*
- *Muntazam, nomuntazam, tasodifiy holatlarda ifloslantiruvçi moddalarni suv yoki yerga çiqarişning oldini oliş; buning imkoni bölmasa, çiqarilmalarning jadalligi va massa oqimini kamaytiriş yoki nazorat qiliş.*

Yevropa tiklaniş va taraqqiyot bankining (YTTB/EBRD) “Resurslardan samarali foydalaniş va ifloslanişning oldini oliş”ga oid 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabi quyidagilarni nazarda tutadi:

Buyurtmaçining atrof-muhit va ijtimoiy baholaş jarayonida loyihaga qöllanadigan ifloslanişning oldini oliş va nazorat qiliş usullari, texnologiyalari hamda amaliyotlari belgilanadi. Baholaşda loyiha tarkibidagi obyektlar va faoliyatlarning xususiyatlari, loyihaning geografik joylaşuvi hamda mahalliy atrof-muhit şaroiti hisobga olinadi. Buyurtmaçi bankka loyiha xavflari va ta’sirlarining xususiyati hamda kölamiga mutanosib hajmda havoga çiqarilmalar va suvga oqizilmalar haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

Yetakçi xalqaro amaliyot

Niderlandiya standartlarida maqsadli va aralaşuv qiymatlari keltirilgan. Maqsadli qiymatlar tuproqda tabiiy ravişda uçraydigan, Niderlandiya şaroitiga asoslangan fon konsentratsiyalarini anglatadi. Ular ifloslanişni bartaraf etiş çoralarini talab qilmaydigan yaxşi tuproq sifatini aks ettiradi deb hisoblanadi. Aralaşuv qiymatlari inson salomatligi va tabiiy atrof-muhit uçun xavfli bölgan tuproq hamda yer osti suvlari ifloslanişi holatlariga tegişli. Bunday ifloslaniş darajalari odatda ifloslanişni bartaraf etiş, tegişli işlov beriş, olib çiqib joylaştirişni talab qiladi. Eng muhim ifloslantiruvçi moddalar uçun Niderlandiya standartlari 10.3-jadvalda keltirilgan. Yuqoridagi 10.2-jadvalda körsatilgan milliy standartlar biror körsatkiçni qamrab olmasa, qiyosiy baholaş uçun Niderlandiya standartlariga murojaat qilinadi.

10.3-jadval. Tuproq va yer osti suvlari ifloslanişiga oid Niderlandiya standartlari (2013)

Körsatkiçlar	Tuproq, mg/kg quruq modda		Yer osti suvi (µg/l)	
	Maqsadli qiymat*	Aralaşuv qiymati	Maqsadli qiymat	Aralaşuv qiymati
Oğir metallar				
Margimuş	29	76	10	60
Bariy	160	-	50	625
Kadmiy	0,8	13	0,4	6
Xrom	100	-	1	30
Xrom III	-	180	-	-
Xrom IV	-	78	-	-
Kobalt	-	190	20	100
Mis	36	190	15	75
Qörğoşin	85	530	15	75
Simob	0,3	36 (noorganik) 4 (organik)	0,05	0,3
Molibden	3	190	5	300
Nikel	35	100	15	75
Rux	140	720	65	800
Aromatik birikmalar				
Benzol	0,01	1,1	0,2	30
Etilbenzol	0,03	110	4	150
Toluol	0,01	32	7	1000
Ksilollar, jami	0,1	17	0,2	70
Stirol, vinilbenzol	0,3	86	6	300
Fenol	0,05	14	0,2	2000
Krezollar, jami	0,05	13	0,2	200
Xlorlangan uglevodorodlar				
Uçuvçan uglevodorodlar				
Monoxloroeten, vinilxlorid	0,01	0,1	0,01	5
Dixlorometan	0,4	3,9	0,01	1,000
1,1-dixloroetan	0,02	15	7	900
1,2-dixloroetan	0,02	6,4	7	400
1,1-dixloroeten	0,1	0,3	0,01	10
1,2-dixloroeten, jami	-	1	0,01	20
Dixlorpropanlar, jami	-	2	0,8	80
Trixlorometan, xloroform	0,02	5,6	6	400
1,1,1-trixloroetan	0,07	15	0,01	300
1,1,2-trixloroetan	0,4	10	0,01	130
Trixloroeten (Tri)	0,1	2,5	24	500
Tetraxlorometan (Tetra)	0,4	0,7	0,01	10
Tetraxloroeten (Per)	0,002	8,8	0,01	40
Xlorbenzollar				
Monoxlorbenzol	-	15	7	180

Körsatkiçlar	Tuproq, mg/kg quruq modda		Yer osti suvi (µg/l)	
	Maqsadli qiymat*	Aralaşuv qiymati	Maqsadli qiymat	Aralaşuv qiymati
Dixlorbenzollar, jami	-	19	3	50
Trixlorbenzollar, jami	-	11	0,01	10
Tetraxlorbenzollar, jami	-	2,2	0,01	2,5
Pentaxlorbenzol	-	6,7	0,003	1
Geksaxlorbenzol	-	2,0	0,00009	0,5
Xlorfenollar				
Monoxlorfenollar, jami	-	5,4	0,3	100
Dixlorfenollar, jami	-	22	0,2	30
Trixlorfenollar, jami	-	22	0,03	10
Tetraxlorfenollar, jami	-	21	0,01	10
Pentaxlorfenol	-	12	0,04	3
Manba: Tuproqni tozalaş böyiça 2013-yilgi sirkulyar. *Tuproq uçun maqsadli qiymatlar 2000-yilgi talqindan olingan, çunki ular 2013-yilgi talqinda mavjud emas.				

10.2 Baholaş qamrovi

Baholaş qamrovi loyihaning xususiyati va kölami, şuningdek ta’sirni qabul qiluvçi atrof-muhitning sezgirligi asosida belgilandi. Baholaş boşlanğiç fizik şaroitlarni aniqlaşga hamda hududni tayyorlaş, quriliş, foydalaniş bosqiçlari bilan boğliq ehtimoliy xavflarni baholaşga qaratilgan. Bu xavflarga tuproqning buzilişi, eroziya, tasodifiy tökiliş va sizib çiqişlar, şuningdek sayoz yer osti suvi resurslariga ehtimoliy ta’sirlar kiradi.

Mavjud gidrogeologik va geotexnik ma’lumotlar, jumladan, çop etilgan xaritalar va avvalgi tadqiqot hisobotlari atrofliça körib çiqildi. Bu kameral tahlil yer şaroitlarini tekşiriş, yerusti suvi va drenaj obyektlarini aniqlaş, yer osti suvini oliş belgilarini kuzatiş hamda loyiha hududi va uning atrofidagi yerdan foydalaniş xususiyatlarini baholaş maqsadida hududni bir neça marta piyoda körikdan ötkaziş bilan töldirildi.

Ta’sirlarni sifat jihatidan baholaş bilan birga, yer osti şaroiti haqida yanada işonçli tuşunçaviy tasavvur hosil qiliş uçun maqsadli dala tadqiqotlari dasturi ham amalga oşirildi. Dastur doirasida loyiha egallaydigan maydondan vakillik qiluvçi tuproq namunalari, loyiha hududi yaqinidagi mavjud yer osti suvini oliş manbasidan esa yer osti suvi namunalari olindi va laboratoriyada tahlil qilindi. Namuna oliş dasturi tuproq va yer osti suvi sifatining boşlanğiç holatini aniqlovçi ma’lumotlarni oliş hamda taklif etilayotgan rivojlantiriş uçun ahamiyatli avvaldan mavjud ifloslaniş yoki sezgir jihatlarni aniqlaş maqsadida işlab çiqildi.

Kameral tadqiqot, hududni körikdan ötkaziş, namuna oliş kampaniyasi natijalari birlaştirilib, Maydonning konseptual modeli (MKM/CSM) işlab çiqildi. MKM/CSM mahalliy stratigrafiya, suvli qatlam xususiyatlari, yer osti suvi sathi, töyiniş va oqib çiqiş mexanizmlari hamda yer osti suvining ehtimoliy oqiş yöllarini tavsiflaydi. Model loyiha bilan boğliq asosiy manba-yöl-qabul qiluvçi obyekt (SPR) boğliqliklarini ham aniqlaydi. Şu tariqa u ehtimoliy ta’sir mexanizmlarini aniqlaş, yer osti suvi va u bilan boğliq qabul qiluvçi obyektlarga xavflarni baholaş, şuningdek quriliş va foydalaniş bosqiçlari uçun tegişli oldini oliş va kamaytiriş çoralarini işlab çiqişga asos yaratadi.

Baholaşda quyidagi bevosita va bilvosita ta’sirlar hisobga olingan:

- Yer işlari davomida tuproqning fizik buzilişi va ziçlaşuvi;
- Eroziya ehtimolining ortişi va çökindilar köçişining kuçayişi;
- Yoqilği, moy, xavfli materiallarni saqlaş hamda ular bilan muomala qilişga boğliq xavflar;
- Yoqilği infratuzilmasi va boşqa foydalaniş bosqiçidagi obyektlardan ehtimoliy sizib çiqişlar; hamda
- Suv ötkazmaydigan yuzalar maydonining oşişi natijasida yer osti suvi töyinişi tartibining özgarişi.

Tegişli hollarda tadqiqot hududi loyiha bevosita egallaydigan maydondan taşqarini ham qamrab oladi. Bu, ayniqsa, yer osti suvi oqimi yönalişi hamda yaqin atrofdagi qabul qiluvçi

obyektlar, jumladan, qişloq xöjaligi yerlari va yer osti suvini oliş nuqtalarining joylaşuviga taalluqli.

10.3 Loyiha qabul qiluvçi obyektlar

Rejalaştirilgan loyiha faoliyati bilan tegişli qimmatli qabul qiluvçi obyektlar örtasidagi özaro boğliqliklar loyihaning ehtimoliy ta'sirlarini ifodalaydi. Quyidagi jadvalda loyiha hududidagi mavjud geologiya, tuproq, yer osti suviga tegişli qabul qiluvçi obyektlarning tavsifiy röyxati keltirilgan.

10.4-jadval. Loyihaning tuproq va yer osti suviga oid qabul qiluvçi obyektlari

Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Tuproq sifati	**Örta**	Loyiha hududidagi tuproq sifati qöşni fermer xöjaliklarida uçraydigan tuproq xususiyatlari va tuzilişiga xosdir. Tuproq mahalliy miqyosda noyoblik jihatidan yuqori ahamiyatga ega bölmasa-da, ekin yerlari va qişloq xöjaligi mahsuldorligi hisobga olinganda, qöşni jamoaning yerga boğliq tirikçilik manbalari uçun muhim deb hisoblanadi.
Yer osti suvi sifati va sathi	**Yuqori**	Hududdagi statik suv sathi sayoz, ya'ni 1-2 m bölib, yerustida amalga oşiriladigan loyiha faoliyati tufayli ifloslaniş ehtimoli mavjud. Bundan taşqari, Özbekistonda suv tanqis va yuqori qiymatli tabiiy resurs hisoblanadi. Yer osti suvidan içimlik va boşqa maişiy maqsadlarda foydalaniladi.
Tuproq yaxlitligi	**Past**	Hozirda tuproq yaxlitligi yaxşi bölib, yuzaki, jöyak, jarlik eroziyasi belgilari mavjud emas. Şuningdek, tik qiyaliklar hamda qazuv va yer köçiriş faoliyati kuzatilmaydi.
Hudud işçilari (bevosita ta'sirga uçraş)	**Örta**	Hudud işçilari tarkibida ifloslantiruvçi moddalar bölgan tuproqning bevosita ta'siriga uçraşi sababli ularning salomatligi uçun xavf yuzaga kelişi mumkin. Biroq xavflardan xabardorlikni va şaxsiy himoya vositalaridan (ŞHV/PPE) tegişli ravişda foydalanişni ta'minlaş uçun işçilar öqitilişi kutiladi.
Boşqa tuproqlar (tuproq ifloslanişi oqibatida)	**Örta**	Tuproq namunalarini hududdan taşqariga jönatişdan oldin xavflarning oldini oliş maqsadida baholaş ötkaziladi. Yakuniy joylaştiriş joylari ta'sir xavflarini hisobga olgan holda tanlanadi. Ehtiyotkor yondaşuv asosida örta sezgirlik darajasi belgilangan.
Qöşni yer foydalanuvçilari	**Yuqori**	Qöşni jamoalardagi köplab odamlar asosiy daromad va tirikçilik manbai sifatida qişloq xöjaligi yerlariga tayanadi. Fermerlar yer osti suvlari xususiyatlaridagi ehtimoliy özgarişlarga ayniqsa sezgir böladi.

10.4 Kuzatuvlar va boşlanğiç holat

10.4.1 Topografiya

Loyiha hududi va uning atrofi asosan ekin yerlari va turar joylardan iborat. Hudud şimoli-şarqdan janubi-ğarbga tomon yotiq qiyalanadi: balandlik şimoli-şarqda dengiz sathidan taxminan 370 m dan janubi-ğarbda dengiz sathidan 350 m gaça pasayadi. Uşbu topografik farq 10.1-rasmda tasvirlangan. Hudud yaqin atrofdagi Çirçiq daryosi va suğoriş tizimlarining suv sathiga nisbatan pasttekislikda joylaşgan. Bunga mintaqadagi qişloq xöjaligi dalalarini suvning öz oqimi bilan suğoriş zarurati sabab bölgan. Şu sababli hududdagi yer osti suvi sathi sayoz bölişi kutiladi. Bu holat hisobotning uşbu bölimida keyinroq muhokama qilinadigan geotexnik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan.

10.4.2 Geologiya

Loyiha hududi Çirçiq daryosi vodiysida joylaşgan va uning ostida katta qalinlikdagi allyuviy hamda daryo terrasalarining şağali yotadi. Loyiha hududining geologik tuzilişida törtlamçi davr yotqiziqlari alohida ahamiyatga ega. Ular uçta genetik tur bilan ifodalangan: allyuviy, prolyuviy, delyuviy. Çirçiq allyuviysi bir qator terrasalarni hosil qiladigan şağal va konglomeratlardan iborat. Şağal tarkibi barça joyda bir xil bölib, kulrang kvars qumi orasida


yaxşi yumaloqlangan mayda taşlar joylaşgan. Prolyuvial yotqiziqlar qadimgi terrasalar allyuvial şağali va konglomeratlari ustida yotadigan lyoss hamda lyossga öxşaş jinslardan iborat. Loyiha hududi joylaşuvini körsatuvçi Toşkent viloyati geologik xaritasi 10.2-rasmda keltirilgan.

ÖZGAŞKLITI LLC 2024-yilda yigirma bir (21)ta burğu quduği va tört (4)ta sinov çuqurini qaziş, şuningdek boşqa yer tadqiqotlarini qamrab olgan geotexnik tadqiqot ötkazdi. Qöşimça tafsilotlar 6-ilovada keltirilgan. Tadqiqot loyiha hududida quyidagi uçta asosiy geologik qatlamni aniqladi:

- Qalinligi 0,0-2,9 m bölgan birinçi qatlam oç jigarrang, qattiq holatdagi, plastikligi past çangli gildan iborat.
- Ikkinçi qatlam mayda donali sarğiş qumdan iborat bölib, uning holati namlikdan suvga töyinganlikkaça özgaradi va ziçligi yuqori.
- Uçinçi geologik qatlam burğu quduqlarining 50 m gaça bölgan butun çuqurligi böylab davom etadi hamda yirik xarsang va qayroqlar aralaşgan qumli şağaldan iborat.

Yuqorida qayd etilgan geotexnik tadqiqotga köra, tadqiqot hududining geologik şaroiti Sirdaryo majmuasining (QIVsd) gilli va yirik donali yotqiziqlari bilan tavsiflanadi. Yirik donali tuproqlar asosan granit materialidan tarkib topgan, ayrim joylarda ohaktaş va marmar parçalari uçraydigan yaxşi yumaloqlangan şağaldan iborat. Şağal donalarining ölçami odatda 10-20 cm, kamdan kam hollarda esa 100 cm gaça yetadi; ular kulrang kvars qumi bilan aralaşgan. Şağal kulrang va puşti tuslarda uçraydi, ayrim joylarda ziçlaniş, ohaktaşli sementlaşuv, alohida konglomerat linzalari kuzatiladi. Yuqori terrasa va qayirni hosil qiladigan şağal yotqiziqlarining qalinligi odatda 5-10 m ni taşkil etadi.


Gilli tuproqlar qumoq qatlamçalari bölgan, oç jigarrang, qattiq holatdan plastik holatgaça özgaradigan lyossimon gildan iborat. Ayrim joylarda şağal yotqiziqlari suvga töyingan bölib, bu sayoz yer osti suvi şaroitining ta’sirini aks ettiradi. Yon tomonga keng tarqalgan suvga töyingan şağal yotqiziqlarining mavjudligi yer osti suvining gidravlik ötkazuvçanligi örtadan yuqori darajagaça ekanini körsatadi. Bu yer osti suvi oqimi asosan yirik donali terrasa va qayir yotqiziqlarida faol ekanini anglatadi. Gilli qatlamçalar ayrim joylarda vertikal oqimni çeklaşi mumkin, biroq yer osti suvining gorizontal harakatiga sezilarli tösiq bölişi kutilmaydi.



Balandliklar jadvali

Raqam	Minimal balandlik	Maksimal balandlik	Rang
1	-12.000	-10.000	
2	340.000	342.000	
3	342.000	344.000	
4	344.000	346.000	
5	346.000	348.000	
6	348.000	350.000	
7	350.000	352.000	
8	352.000	354.000	
9	354.000	356.000	
10	356.000	358.000	
11	358.000	360.000	
12	360.000	362.000	
13	362.000	364.000	
14	364.000	366.000	
15	366.000	368.000	
16	368.000	370.000	
17	370.000	372.000	
18	372.000	374.000	

10.1-rasm. Loyiha hududining topografik xaritasi



10.2-rasm. Toşkent viloyatining geologik xaritasi

10.4.3 Gidrogeologik konseptual model

10.4.3.1 Kiriş

Mavjud ma’lumotlar asosida loyiha hududi va uning atrofidagi yer osti şaroiti haqida yaxlit tasavvur hosil qiliş uçun gidrogeologik konseptual model işlab çiqildi. Bundan maqsad geologik tuzilma, suvli qatlam xususiyatlari, yer osti suvi sathi va oqim rejimi, töyiniş mexanizmlari hamda yerusti suvi obyektlari bilan gidravlik boğliqlikni tavsiflaş edi.

MKM/CSM mavjud geologik va geotexnik ma’lumotlarni körib çiqiş, yer osti suvi sathini kuzatiş, tuproq va yer osti suvi namunalarini laboratoriyada tahlil qiliş, hududni piyoda körikdan ötkaziş hamda hududiy gidrogeologik ma’lumotlarni talqin qiliş natijalari asosida tayyorlandi. MKM/CSM loyiha qurilişi va foydalaniş bosqiçida tuproq hamda yer osti suvi resurslariga ehtimoliy ta’sirlarni sifat va yarim miqdoriy jihatdan baholaş uçun texnik asos beradi. Batafsil “Gidrogeologik konseptual model” texnik qaydi 6-ilovaga kiritilgan.

Gidrogeologik konseptual model boşlanğiç holat haqida yetarli tasavvur bersa-da, quyidagi ayrim noaniqliklar saqlanib qoladi:

- Hududga xos gidravlik sinov ma’lumotlari, masalan, nasos sinovlari yoki slug-sinovlar mavjud emas;
- Qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş tizimi loyihasining tasdiqlangan parametrlari mavjud emas;
- Yer osti suvi faqat tört bosqiçda kuzatilgani sababli vaqt qamrovi çeklangan;
- Drenaj infratuzilmasining geodezik balandlik belgilari va daryo sathi ma’lumotlari mavjud emas;
- Yaqin atrofdagi yer osti suvini oliş nuqtalari, masalan, xususiy yoki suğoriş quduqlari töliq röyxatga olinmagan.

Şu sababli uşbu tahlildagi barça xulosalar loyihalaş uçun emas, ta’sirni baholaş maqsadida körsatkiç sifatida qaralişi kerak. Qöşimça ma’lumotlar olinişi bilan ular yanada aniqlaştiriladi.

Uşbu ma’lumot boşliqlari yer osti suvi harakatining kelgusidagi holatini miqdoriy baholaşda noaniqlik tuğdiradi. Biroq ular hududiy daryo va suğoriş tarmoği bilan gidravlik boğlangan sayoz, öta ötkazuvçan, bosimsiz allyuvial suvli qatlam haqidagi umumiy tuşunçani jiddiy özgartirmaydi.

10.4.3.2 Gidrogeologik şaroitga umumiy nazar

Loyiha hududi Çirçiq daryosining ekin ekiladigan allyuvial qayirida, hozirgi daryo özanidan eng yaqin nuqtada taxminan 2 km janubi-şarqda joylaşgan. Hududda şoli yetiştiriş keng tarqalgan. Dalalar ösiş davrida, odatda aprel-oktabr oylarida, mavsumiy ravişda suv bostiriladi, bu esa katta maydonlarga uzluksiz suv berilişini anglatadi.

Loyiha hududida topografik farqlar kiçik bölib, yer osti suvi oqimi tartibiga jiddiy ta’sir körsatişi mumkin bölgan sezilarli mahalliy relyef unsurlari yöq. Butun hudud ostida alevrit, qum, şağal, qayroqlardan iborat ziçlaşmagan Törtlamçi davr allyuvial yotqiziqlari yotadi. Tadqiq qilingan çuqurlik oraliğida mustahkam tub jins uçramadi.

Uşbu yotqiziqlar yuqori ötkazuvçanlik bilan tavsiflanadigan sayoz, bosimsiz suvli qatlam tizimini hosil qiladi. Muhandislik-geologik element 3 (MGE/EGE-3) sifatida belgilangan, yon tomonga keng tarqalgan şağal qatlami asosiy suvli qatlamdir va taxminan 50 m çuqurlikkaça davom etadi. U loyiha hududi ostidagi asosiy suvli ufqni hosil qiladi.

Loyiha hududi topografiyasi odatda tekis bölib, dengiz sathidan taxminan 328-396 m balandlikda joylaşgan va yerlar jadal dehqonçilikda foydalaniladi. Ziç suğoriş va drenaj kanallari tarmoği hududni kesib ötadi hamda sayoz yer osti suvi şaroiti bilan bevosita özaro boğlangan.

10.4.3.3 Iqlim va gidrologik şaroit

Hudud yozi issiq va quruq, yoğin miqdori yiliga 400-600 mm bölgan keskin kontinental iqlimga ega. Mö’tadil miqdordagi yoğin fasllar böyiça keskin farqlanadi va asosan qiş oxiri hamda bahorda yoğadi. Evapotranspiratsiya yuqori bölişi kutiladi, bu yer osti suvi töyinişiga hissa qöşadigan yoğin uluşini kamaytiradi.

Hududdagi asosiy daryo tizimi bölgan Çirçiq daryosi loyiha suvli qatlami bilan gidravlik boğlangan. Loyiha hududi uning allyuvial tekisligida joylaşgan va odatda eni 3-5 m, çuqurligi

1,5-2 m bölgan suğoriş hamda drenaj kanallari tarmoği bilan kesilgan. Uşbu kanallarning aksariyatiga qoplama yotqizilmagan va ulardan suvli qatlamga katta miqdorda suv sizadi.

Izoh: uşbu körib çiqişda kutilayotgan iqlim özgarişlari yoki tegişli tuzatişlar qöllanilmagan.


10.4.3.4 Geologik va gidrostratigrafik şaroitlar

Yer osti qatlamlari uçta asosiy allyuvial birlikdan iborat:

- MGE/EGE-1, yuza yaqinidagi alevritlar va gillar
- MGE/EGE-2, oraliq qumli yotqiziqlar
- MGE/EGE-3, yon tomonga keng tarqalgan şağal qatlami (asosiy suvli qatlam)

MGE/EGE-3 (10.3-rasmga qarang) asosan qumli, donalari yaxşidan yomon saralangangaça bölgan şağaldan iborat bölib, mayda zarraçalar miqdori kam: taxminan 83 foiz şağal, 15 foiz qum, 1,5 foiz mayda zarraça. Uşbu qatlam öta yuqori ötkazuvçanlik va gil miqdorining kamligi bilan tavsiflanadi, bu esa yer osti suvining tez harakatlanişiga imkon beradi. Geotexnik tadqiqot paytida burğu quduğidan olingan grunt namunasi 10.4-rasmda körsatilgan.

Mavjud kesimlar şağal qatlamining nisbatan bir xil va loyiha hududi böylab yon tomonga uzluksiz ekanini körsatadi. Yer osti suvi sathi uşbu qatlamni kesib ötadi. Suğoriş kanallari esa odatda şağal ufqining yuqori qismigaça yoki uning yaqinigaça davom etib, yerusti suvi obyektlari bilan yer osti suvi örtasidagi gidravlik boğliqlikni kuçaytiradi.



10.3-rasm. Kuzatuv quduği va MGE/EGE-3 kesimi (manba: Özgaşkliti, 2024-yil)




10.4-rasm. Burğu quduğidan olingan tuproq namunalari: yuqori 5 mda mayda zarraçali tuproq (alevrit), 25 mda şağal (manba: Ozgashkliti, 2024-yil)

10.4.3.5 Yer osti suvi sathi va oqim tartibi

Yuqoridagi bölimda bayon qilingan dastlabki geotexnik tadqiqot natijalariga köra, loyiha hududida qazilgan burğu quduqlarining aksariyatida yer osti suvi aniqlandi. Örnatilgan kuzatuv quduqlari qaydlariga köra, yer osti suvi sathi odatda sayoz bölib, ölçangan çuqurlik yer sathidan taxminan 1,2-2,6 m past (bgl), örtaça esa 1,8 m bgl ni taşkil etadi.

Loyiha hududidagi yer osti suvi sathining fazoviy farqlari asosan burğu quduqlari joylaşgan yer balandliklaridagi farqlar bilan boğliq va mahalliy topografik relyefni aks ettiradi. Bunday farqlar sayoz yer osti suvi tizimlari uçun odatiy. Ularga tuproq ötkazuvçanligi, yerusti suvi obyektlariga yaqinlik, mavsumiy töyiniş tartibi kabi hududga xos gidrogeologik şaroit ham ta'sir qilişi mumkin. Şu sababli yer osti suvi sathi yoğin, evapotranspiratsiya, mavsumiy gidrologik şaroitga javoban vaqt ötişi bilan özgarib turişi kutiladi.

Hudud böylab gidravlik nişablik nisbatan past, taxminan 0,0034. Yer osti suvi oqimi, 10.5-rasmda körsatilganidek, odatda janubi-ğarbga, Çirçiq daryosi tomonga yönalgan deb talqin qilingan.



10.5-rasm. Yer osti suvi sathi konturi (manba: Özgaskliti, 2024-yil)

10.4.3.6 Suvli qatlamning gidravlik xususiyatlari

Loyiha hududi ostidagi qatlamlarda ziçlaşmagan Törtlamçi davr allyuvial çökindilariga xos yirik şağal va qum yotqiziqlari ustunlik qiladi. Uşbu materiallarning donalararo gidravlik ötkazuvçanligi (K) juda yuqori, ğovakligi esa örtadan yuqori darajagaça bölişi kutiladi. Bu şağalli suvli qatlamlar uçun e'lon qilingan manba qiymatlariga mos. Manbalarda şağalning gidravlik ötkazuvçanligi odatda taxminan 10^{-3}-1 m/s, ğovakligi esa mayda material uluşiga qarab 25-40 foiz oraliğida ekani körsatiladi. Yirik şağal ustun bölgan va mayda material az bölgan joylarda ötkazuvçanlik uşbu oraliqning yuqori çegarasida bölişi kutiladi.

Bunday gidrogeologik şaroit katta hajmdagi yer osti suvini bera oladigan hamda qazuv işlari, qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş, töyiniş oqimlariga tez javob beradigan, suv ötkaziş qobiliyati yuqori bosimsiz suvli qatlam mavjudligini körsatadi.

Burğu quduği tadqiqotlari paytida olingan 211 ta tuproq namunasining zarraçalar ölçamining taqsimoti (ZÖT/PSD) ma'lumotlari yordamida ötkazuvçanlik baholandi. Körsatkiç sifatidagi gidravlik ötkazuvçanlik qiymatlarini aniqlaş uçun empirik hisoblaş usullari qöllandi. Uşbu usullar yirik şağal uçun töliq tasdiqlanmagan va uslubiy çeklovlar sababli haqiqatga mos kelmaydigan darajada yuqori mutlaq qiymatlar berişga moyil. Şunga qaramay, natijalar asosiy şağal qatlamida ötkazuvçanlik izçil ravişda juda yuqori ekanini körsatadi. Baholangan qiymatlar odatda 10^{-1}-10^{0} m/s darajasida bölib, öta ötkazuvçan suvli qatlam haqidagi talqinni tasdiqlaydi.

Yuza yaqinidagi materiallar (0-2 m) özgaruvçanroq xususiyat körsatadi. Ularning ötkazuvçanligi ostidagi şağalniki bilan bir xil bölişi yoki mayda donali ustki tuproq ufqlari mavjud joylarda ança past bölişi mumkin.

Aniq miqdoriy qiymatlarni olişda uslubiy çeklovlar mavjud bölsa-da, barça dalillar loyiha hududi ostidagi asosiy şağalli suvli qatlam öta ötkazuvçan va gidravlik özgarişlarga tez javob berişini tasdiqlaydi. Bu quriliş paytida yer osti suvini boşqariş, jumladan qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş talablari hamda ifloslantiruvçi moddalar köçişining ehtimoliy yöllarini baholaş uçun muhimdir.

Öxşaş allyuvial şağal yotqiziqlarining odatiy ğovaklik qiymati 25-40 foiz oraliğida, hududga xos ayrim namunalarda esa 50 foizga yaqin. Uşbu xususiyatlar yer osti suvi tez harakatlanadigan, suv ötkaziş qobiliyati yuqori bosimsiz suvli qatlam mavjudligini körsatadi. Ifloslantiruvçi modda çiqarilgan taqdirda esa tabiiy susayiş imkoniyati çeklangan böladi.

Yer yuzasida suv şimişini sinaş natijalariga köra, şimiş tezligi örta darajada, taxminan 0,00096-0,00110 cm/s. Bu yirik şağal qatlami ustida nisbatan mayda donali yuza tuproqlar mavjudligini aks ettiradi. Demak, ustki tuproq şaroiti yer yuzasidan vertikal şimişni biroz sekinlaştirsa-da, töyiniş suvi töyingan hududga yetib borgandan söng ostidagi şağalli suvli qatlamda yer osti suvi tez oqişi kutiladi.

Gidravlik ötkazuvçanlikni hisoblaş usullari va ularni asoslovçi zarraçalar ölçamining taqsimoti (ZÖT/PSD) tahlilining batafsil texnik bahosi 6-ilovada keltirilgan.

10.4.3.7 Töyiniş mexanizmlari va yerusti suvi bilan özaro ta'sir

Loyiha hududida yer osti suvi töyinişi bevosita yoğindan köra asosan antropogen va mavsumiy yerusti suvi kirimlariga boğliq. Asosiy töyiniş mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- Qoplamasiz suğoriş kanallaridan sizib ötiş;
- Mavsumiy suv bostiriladigan şoli dalalaridan suv şimişi;
- Qiş oxiri va bahorda qor erişidan töyiniş.

Evapotranspiratsiya tufayli yöqotişlar katta bölgani sababli yoğindan bevosita töyiniş çeklangan deb hisoblanadi.

Suğoriş tarmoği samarali drenaj mexanizmidan köra asosan töyiniş manbai vazifasini bajaradi. Bu yer osti suvi sathining doimiy sayoz bölişiga va suğoriş davrlarida mavsumiy kötarilişiga sabab böladi.

10.4.3.8 Maydonning konseptual modeli xulosasi

Loyiha atrofdagi suğoriş tarmoği va Çirçiq daryosi bilan gidravlik boğlangan sayoz, öta ötkazuvçan, bosimsiz allyuvial suvli qatlamda joylaşgan. Yer osti suvi asosan suğoriş kanallari va suğoriladigan qişloq xöjaligi yerlaridan sizadigan suv hisobiga töyinadi, uning oqimi esa odatda hududiy gidravlik nişab böylab Çirçiq daryosi tomonga yönaladi. Şağalli suvli qatlamning yuqori ötkazuvçanligi va yer osti suvi sathining sayozligi sababli qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş talab etiladigan quriliş faoliyati yer osti suvi sathi va oqimi, suğoriş tizimlari hamda ular bilan boğliq yerusti suvlariga eng katta ta'sir körsatişi mumkin. Boşqa ehtimoliy ta'sir mexanizmlariga suğoriş kanallarini burib yuboriş, yer osti suvi sathidan pastda qazuv işlarini olib boriş, şuningdek quriliş va foydalaniş bosqiçlarida ifloslantiruvçi moddalarning tasodifiy çiqarilişi kiradi. Uşbu manba-yöl-qabul qiluvçi obyekt munosabatlari gidrogeologik ta'sirni baholaş va oldini oliş va kamaytiriş çoralarini aniqlaşga asos böladi.

Quyidagi jadvalda MKM/CSMning asosini taşkil etadigan va gidrogeologik ta'sirni baholaşga xizmat qiladigan manba-yöl-qabul qiluvçi obyekt boğliqliklari keltirilgan.

10.5-jadval. Maydonning konseptual modelidagi manba, tarqaliş yöli, qabul qiluvçi obyekt orasidagi aloqalar

Manba yoki faoliyat	Yöl	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyekt
Çuqur qazilmalar bilan boğliq quriliş davrida qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş	Öta ötkazuvçan sayoz allyuvial suvli qatlamda (MGE/EGE-3da) sathning pasayişi	Sayoz yer osti suvi resursi; yaqin atrofdagi suğoriş kanallari; drenaj tarmoği; qişloq xöjaligi yerlari; yer osti suvidan foydalanuvçilar; Çirçiq daryosi
Aeroport atrofidagi suğoriş va drenaj kanallarini burib yuboriş	Sayoz suvli qatlam töyinişini özgartiriş hamda yer osti suvi va yerusti suvi örtasidagi özaro ta'sirning özgarişi	Suğoriş tarmoği; sayoz suvli qatlam; qişloq xöjaligi yerlari; oqimning quyi qismidagi suvdan foydalanuvçilar
Quriliş paytida yoqilği, moy, kimyoviy moddalarning tasodifiy çiqarilişi	Ötkazuvçan, töyinmagan tuproq orqali şimiş, söng öta ötkazuvçan şağalli suvli qatlamda köçiş	Yer osti suvi sifati; suğoriş kanallari; drenaj tarmoği; Çirçiq daryosi; yer osti suvidan foydalanuvçilar
Beton işlari, qoziq qoqiş, poydevor qurilişi	Suvga töyingan tuproq va yer osti suvi bilan bevosita özaro ta'sir; ustuvor köçiş yöllarining hosil bölişi	Sayoz suvli qatlam
Foydalaniş bosqiçidagi yoqilği saqlaş va texnik xizmat körsatiş hududlari	Ötkazuvçan allyuvial yotqiziqlar orqali tuproq kesimidan yer osti suviga sizib ötiş	Yer osti suvi sifati; yer osti suvidan foydalanuvçilar; Çirçiq daryosi


10.4.4 Boşlanğiç holat tadqiqotlari

Loyiha hududi va uning bevosita atrofida tuproq ifloslanişi, çiqindi taşlaş yoki yer ifloslanişining boşqa ehtimoliy manbalariga oid közga körinadigan belgilarni aniqlaş uçun AMITB/ESIA tadqiqotlari doirasidagi bir neçta taşrif paytida I bosqiç turidagi piyoda köriklar ötkazildi. AMITB/ESIAning turli bosqiçlarida ötkazilgan bu köriklarda tuproqdagi doğlar, noodatiy hidlar, zararlangan ösimliklar, yerustidagi qoldiqlar, norasmiy çiqindi uyumlari, foydalanilmayotgan infratuzilma hamda ifloslaniş xavfini tuğdirişi mumkin bölgan ötmişdagi yoki davom etayotgan faoliyat belgilari közdan keçirildi. Past joylar, drenaj yöllari, tarixiy yoki joriy yerdan foydalaniş bilan boğliq hududlarga alohida e'tibor qaratildi. Umuman olganda, piyoda köriklar davomida nazoratsiz çiqindi taşlaş yoki yer ifloslanişining boşqa muhim manbalariga oid közga körinadigan dalillar aniqlanmadi.

10.4.4.1 Tuproq namunalari va tahlili

Loyiha hududidagi sakkizta joydan (1S-8S) ustki tuproq namunalari olinib, tanlangan oğir metallar va tuproqning umumiy kimyoviy körsatkiçlari böyiça tahlil qilindi. Natijalar amaldagi milliy ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiyalar (REYK/MPC) hamda Niderlandiya tuproq sifati standartlaridagi maqsad va aralaşuv qiymatlari bilan taqqoslandi. Bu qiymatlar dastlabki saralaş darajasidagi baholaşda xalqaro taqqoslaş mezonlari sifatida keng qöllanadi.

Hudud uzoq vaqt davomida qişloq xöjaligi ekinlarini yetiştiriş uçun qöllangan. Şu sababli ötmişda va hozirda öğitlar, pestitsidlar, tuproq yaxşilovçi moddalar qöllanişi hamda qaytgan suğoriş suvi oqimi boşlanğiç tuproq kimyosiga ta'sir qilgan bölişi mumkin. Laboratoriya natijalari 10.3-jadvalda körsatilgan. Tuproqdan namuna oliş joylari 10.6-rasmda keltirilgan.



10.6-rasm. Tuproqdan namuna oliş joylari

Oğir metallar

Mis (Cu) miqdori 36,1-55,5 mg/kg oraliğida. Barça namunalardagi miqdor milliy REYK/MPC (3 mg/kg)dan yuqori. Niderlandiya standartlariga köra, qiymatlarning aksariyati maqsad qiymatiga (36 mg/kg) teng yoki undan bir oz yuqori, eng yuqori qiymat esa 55,5 mg/kg. Biroq barça miqdorlar Niderlandiya aralaşuv qiymatidan (190 mg/kg) ança past. Qişloq xöjaligi tuproğida mis miqdorining yuqoriligi odatda ayrim fungitsidlar va öğitlarning uzoq muddat qöllanişi bilan boğliq. Kuzatilgan miqdorlar mahalliy ifloslanişdan köra qişloq xöjaligi faoliyati tufayli moddalarning tarqoq tuşişiga mos keladi.

Rux (Zn) miqdori 116-146 mg/kg oraliğida. Barça namunalardagi miqdor milliy REYK/MPCdan (23 mg/kg) yuqori. Niderlandiya mezonlari bilan taqqoslaganda, qiymatlarning aksariyati maqsad qiymatiga (140 mg/kg) yaqin yoki undan biroz yuqori, ammo aralaşuv qiymatidan (720 mg/kg) ança past. Ekin tuproqlarining rux bilan boyişi köp hollarda öğitlar va göng qöllaş bilan boğliq bölib, qayd etilgan darajalarda jiddiy ifloslanişni körsatmaydi.

Qörğoşin (Pb) miqdori 60,4-78,2 mg/kg oraliğida. Barça joyda bu qiymatlar milliy REYK/MPCdan (32 mg/kg) yuqori. Biroq ölçangan barça miqdorlar Niderlandiya maqsad qiymatidan (85 mg/kg) va aralaşuv qiymatidan (530 mg/kg) ança past. Natijalar allyuvial qişloq xöjaligi tuproqlaridagi tabiiy fon darajalariga mos keladi va hududga xos ifloslanişni körsatmaydi.

Kadmiy (Cd) miqdori 1,728-1,989 mg/kg oraliğida. Taqqoslaş uçun milliy REYK/MPC keltirilmagan bölsa-da, barça qiymatlar Niderlandiya maqsad qiymatidan (0,8 mg/kg) yuqori, ammo Niderlandiya aralaşuv qiymatidan (13 mg/kg) ança past. Qişloq xöjaligi tuproğida kadmiy töplanişi fosfatli öğitlar bilan boğliq bölişi mumkin. Namuna oliş joylaridagi nisbatan bir xil taqsimot nuqtaviy ifloslaniş manbasidan köra qişloq xöjaligi faoliyatining tarqoq ta'sirini körsatadi.

Umuman olganda, oğir metallar miqdori nisbatan qat'iy milliy REYK/MPC saralaş çegaralaridan yuqori, ammo xalqaro miqyosda tan olingan Niderlandiya aralaşuv qiymatlaridan past. Natijalarning loyiha hududi böylab fazoviy bir xilligi miqdorlar alohida ifloslaniş öçoqlaridan köra uzoq muddatli qişloq xöjaligi faoliyati ta'siri va tabiiy allyuvial fon şaroitini aks ettirişini körsatadi.

Oziqa moddalari va tuproqning umumiy kimyosi

Nitrat azoti miqdori (4,62-14,3 mg/kg) milliy REYK/MPCdan (130 mg/kg) ança past. Bu uzoq muddatli qişloq xöjaligi faoliyatiga qaramay, nitrat bilan ifloslaniş dalillari yöqligini körsatadi.

Fosfor miqdori 2-149 mg/kg oraliğida sezilarli özgaradi, bu öğit qöllanadigan ekin tuproqlariga xos. Uşbu özgaruvçanlik tarixiy qişloq xöjaligi amaliyotiga mos keladi.

Sulfatlar miqdori 321-1 179 mg/kg oraliğida bölib, barça joyda milliy REYK/MPCdan (160 mg/kg) yuqori. Sulfat miqdorining yuqoriligi allyuvial qayir muhitidagi tabiiy tuproq şaroiti va vaqt ötişi bilan suğorişga boğliq töplanişni birgalikda aks ettirişi mumkin.

Suvda eruvçan ftoridlar miqdori 1,5-4,5 mg/kg bölib, milliy REYK/MPCdan (10 mg/kg) past.

Tuproqning pH qiymatlari (7,75-8,1) hududdagi suğoriladigan qişloq xöjaligi tuproqlariga xos biroz işqoriy şaroitni körsatadi. Çirindi miqdori (1,57-2,8 foiz) ekin yerlariga mos keladi.

Umumiy talqin

Tahlil natijalariga köra, ayrim körsatkiçlar milliy REYK/MPC çegaralaridan yuqori bölsa-da, miqdorlar Niderlandiya aralaşuv qiymatlaridan past va odatda Niderlandiya maqsad qiymatlariga mos yoki ulardan biroz yuqori. Hududdan uzoq vaqt qişloq xöjaligi maqsadida foydalanilgani, jumladan, öğitlar va agrokimyoviy moddalar qöllangan bölişi ehtimoli hisobga olinsa, kuzatilgan yuqori qiymatlar jiddiy ifloslanişdan köra qişloq xöjaligi faoliyati tufayli tarqoq boyiş va tabiiy allyuvial fon şaroitiga mos keladi.

10.6-jadval. Loyiha hududidan olingan tuproq namunalari tahlili natijalari

Tarkibiy qism	Tuproq namunalaridagi tarkibiy qism miqdori								Milliy REYK/MPC, mg/kg	Niderlandiya standarti	
	1S	2S	3S	4S	5S	6S	7S	8S		Maqsad qiymati*	Aralaşuv qiymati
Mis, mg/kg	36,1	42	42,8	41,2	36,3	36,3	55,5	45,2	3	36	190
Rux, mg/kg	138	142	135	137	125	116	146	141	23	140	720
Qörğoşin, mg/kg	70,8	78,2	70,3	60,9	60,4	69,7	75,6	72,8	32	85	530
Kadmiy, mg/kg	1,920	1,989	1,970	1,851	1,808	1,923	1,909	1,728	-	0,8	13
Nitrat azoti, mg/kg	14,3	12,3	9,76	10,3	11,3	4,62	13,3	11,3	130	-	-
Harakatçan fosfor, mg/kg	110	36	5	8	149	2	6	15	-	-	-
Sulfatlar, mg/kg	321	536	357	964	500	429	1107	1179	160	-	-
Suvda eruvçan ftoridlar, mg/kg	1,5	2	3,1	3,1	4,1	4,3	4,5	4,5	10	-	-
pH	7,75	7,9	8	8,1	8,1	8,1	8	8	-	-	-
Çirindi, %	1,78	2,37	2,29	1,57	2,08	2,8	2,21	2,25	-	-	-

Izoh: Ham REYK/MPC, ham Niderlandiya maqsad qiymatidan oşgan natijalar puşti rangda ajratilgan.
Faqat REYK/MPCdan oşgan natijalar kök rangda ajratilgan.

10.4.4.2 Yer osti suvi namunalari va tahlili

AMITB/ESIA tadqiqotlari doirasida yangi burğu quduqlari qazilmadi va maxsus yer osti suvini kuzatiş quduqlari örnatilmadi. Yer osti suvi sifati namunalarini oliş uçun yaqin atrofdagi jamoalarda joylaşgan va kiriş imkoni mavjud amaldagi nasos quvurlaridan foydalanildi. Bu quduqlar loyiha hududi ostidagi öşa sayoz suvli qatlam tizimidan suv oladi deb hisoblanadi. Şu sababli ular hudud yaqinidagi yer osti suvi sifatining boşlanğiç holati haqida vakillik qiluvçi ma'lumot beriş uçun mos.

Mavjud suv oliş nuqtalaridan foydalaniş AMITB/ESIA bosqiçida keng tarqalgan va tan olingan amaliyotdir. Bu yondaşuv qöşimça yer buzilişini kamaytirgan holda boşlanğiç holatni baholaş uçun yer osti suvi sifatini tavsiflaydigan yetarli ma'lumot beradi. Namuna oliş joylari yer osti suvi sifatining boşlanğiç holatini yetarli darajada ifodalasa-da, natijalarni yakuniy emas, vakillik xususiyatiga ega deb hisoblaş kerak. Zarur bölsa, loyihaning keyingi bosqiçlarida hududga xos qöşimça kuzatuv ötkazilişi mumkin.

Yer osti suvi namunalari loyiha hududi içida va unga yaqin joylaşgan, 10.7-rasmda körsatilgan yettita quduqdan, 1-quduqdan 7-quduqqaça olindi. Ular umumiy fizik-kimyoviy körsatkiçlar va tanlangan metallar böyiça tahlil qilindi. Natijalar 0083-24-sonli SQM/SanR&N hujjatidagi amaldagi milliy REYK/MPC qiymatlari hamda xalqaro miqyosda tan olingan dastlabki saralaş mezonlarini beruvçi Niderlandiya yer osti suvi standartlari, ya'ni maqsadli va aralaşuv qiymatlari bilan taqqoslandi.

Suv sifatining umumiy körsatkiçlari

Ölçangan pH qiymatlari 7,00-7,16 oraliğida bölib, milliy ruxsat etilgan 6,5-8,5 oraliğiga bemalol mos keladi. Demak, yer osti suvi neytral yoki biroz işqoriy bölib, hududiy allyuvial suvli qatlam şaroitiga mos.

Nitrat miqdori 1,55-5,09 mg/l oraliğida bölib, milliy REYK/MPCdan (45 mg/l) ança past. Bu qiymatlar nitrat bilan ifloslaniş dalili yöqligini va namuna olingan joylarda qişloq xöjaligi öğitlarining yuvilişi ta'siri çeklanganini körsatadi.

Fosfat miqdori 0,003 dan 0,635 mg/l gaça bölib, barça quduqlarda milliy REYK/MPCdan (1 mg/l) past. 5-quduqdagi qiymat nisbatan yuqori, ya'ni 0,635 mg/l, ammo bu ham ruxsat etilgan çegaradan oşmaydi.

Organik yuk körsatkiçlari, jumladan, 5 kunlik kislorodga biokimyoviy ehtiyoj (BOD5) (0,94-3,23 mg O/l) va kislorodga kimyoviy ehtiyoj (KKE/COD) (7,74-15,3 mg O/l), tegişli milliy REYK/MPC qiymatlaridan, ya'ni 5 kunlik kislorodga biokimyoviy ehtiyoj uçun 6 mg O/l va KKE/COD uçun 30 mg O/l dan ança past. Bu yer osti suvining umumiy sifati yaxşi ekanini va jiddiy organik ifloslaniş dalili yöqligini körsatadi.

Elektr ötkazuvçanlik qiymati 795-1 061 µS/cm oraliğida bölib, suğoriladigan qişloq xöjaligi hududlaridagi sayoz allyuvial yer osti suviga xos örta darajadagi minerallaşuvni aks ettiradi.

Oğir metallar

Mis miqdori 2,78-5,15 µg/l oraliğida. Ölçangan barça qiymatlar milliy REYK/MPCdan (1 µg/l) yuqori. Biroq ular Niderlandiya maqsad qiymatidan (15 µg/l) ança past va Niderlandiya aralaşuv qiymatidan (75 µg/l) sezilarli darajada past. Bu milliy saralaş çegarasidan kiçik oşiş mavjudligini, ammo xalqaro standartlarga köra jiddiy ifloslaniş belgisi yöqligini körsatadi.

Rux miqdori 8,69-24,5 µg/l oraliğida. Barça namunalardagi miqdor milliy REYK/MPCdan (5 µg/l) yuqori. Biroq qiymatlar Niderlandiya maqsad qiymatidan (65 µg/l) ança past va aralaşuv qiymatidan (800 µg/l) juda past. Bu jiddiy ifloslaniş muammosi yöqligini körsatadi.


Kadmiy miqdori 2,61-3,17 µg/l oraliğida. Bu qiymatlar öta qat'iy milliy REYK/MPCdan (0,001 µg/l) sezilarli darajada yuqori va Niderlandiya maqsad qiymatidan (0,4 µg/l) ham yuqori. Biroq ölçangan barça miqdorlar Niderlandiya aralaşuv qiymatidan (6 µg/l) past. Kadmiy miqdorining barça quduqda bir xilligi nuqtaviy ifloslanişdan köra uzoq muddatli qişloq xöjaligi

faoliyati, masalan, fosfatli öğitlar yoki tabiiy geokimyoviy şaroit bilan boğliq tarqoq fon mavjudligini körsatadi.

Umumiy talqin

Tahlil natijalariga köra, yer osti suvi sifatining umumiy körsatkiçlari, jumladan, pH, nitratlar, fosfatlar, 5 kunlik kislorodga biokimyoviy ehtiyoj, KKE/COD milliy standartlarga mos hamda jiddiy organik yoki oziqa moddalar bilan ifloslanişni körsatmaydi.

Oğir metallardan mis va rux miqdori milliy REYK/MPC qiymatlaridan yuqori, ammo Niderlandiya maqsad va aralaşuv qiymatlaridan ança past. Kadmiy miqdori ham milliy REYK/MPC, ham Niderlandiya maqsad qiymatidan yuqori, biroq Niderlandiya aralaşuv qiymatidan past. Hududning qişloq xöjaligi tarixi va barça namuna oliş joylaridagi natijalarning bir xilligi hisobga olinsa, metallarning yuqori miqdori mahalliy ifloslanişdan köra tarqoq fon şaroitini körsatadi.



10.7-rasm. Yer osti va yerusti suvlaridan namuna oliş joylari

10.7-jadval. Yer osti suvi tahlili natijalari

Körsatkiçlar	Namuna oliş joyi							REYK/MPC 0083-24-sonli SQM/SanR&N	Niderlandiya standartlari, mg/l	
	1-quduq	2-quduq	3-quduq	4-quduq	5-quduq	6-quduq	7-quduq		Maqsad qiymati	Aralaşuv qiymati
pH	7,04	7,01	7,11	7	7,12	7,14	7,16	6,5 dan 8,5 gaça	-	-
Nitratlar, mg/l	3,32	5,09	3,67	3,85	1,55	3,45	2,3	45	-	-
Fosfatlar, mg/l	0,037	0,003	0,015	0,061	0,635	0,021	0,092	1	-	-
5 kunlik kislorodga biokimyoviy ehtiyoj, mg O/l	1,48	2,39	0,94	3,23	1,82	2,3	1,16	6	-	-
KKE/COD, mg O/l	13,2	8,99	11,2	11,8	12,6	7,74	15,3	30	-	-
Mis, µg/l	3,38	4,51	3,26	5,15	2,83	3,8	2,78	1	15	75
Rux, µg/l	13,3	19	8,69	9,69	23,5	24,5	13,9	5	65	800
Kadmiy, µg/l	3,02	3,11	3,05	3,16	2,7	2,61	3,17	0,001	0,4	6
Elektr ötkazuvçanlik, µS/cm	947	886	850	895	841	795	1061	-	-	-

Izoh: Ham REYK/MPC, ham Niderlandiya maqsad qiymatidan oşgan natijalar puşti rangda ajratilgan.
Faqat REYK/MPCdan oşişlar kök rangda ajratilgan.

10.5 Ehtimoliy ta’sirlar, oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv

10.5.1 Quriliş bosqiçi

Hududni tayyorlaş, quriliş, elektr va mexanik işlar, materiallarni yetkazib beriş, kimyoviy moddalarni saqlaş va çiqindilarni boşqariş kabi quriliş faoliyati geotexnik özgarişlar hamda tuproq va yer osti suvining ifloslanişi oqibatida yer holatining yomonlaşuviga olib kelişi mumkin.

Quriliş paytida tuproq, geologiya, gidrogeologiyaga ehtimoliy ta’sirlar 10.8-jadvalda keltirilgan.

10.8-jadval. Quriliş bosqiçida geologiya, tuproq va yer osti suvi: jihatlar va ta’sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir hududi	Qabul qiluvçi obyektlar
Loyiha hududini tayyorlaş işlari	Mavjud suğoriş kanallari va kollektorlar yopilişi sababli yer osti suvi kötarilişi hamda suv toşqini	Loyiha hududi va atrofdagi joylar, ehtimol loyiha hududi markazidan bir kilometrlik doira	Qöşni jamoalar va fermerlar
Loyiha hududidagi mavjud tuproq şaroiti	Qişloq xöjaligida moddalar qöllanişi natijasida ifloslantiruvçi moddalarning tarixiy töplanişi.	Quriliş joylari (tuproqda töplangan pestitsidlar ta’siri). Hududni tozalaş va töldiriş materiallarini olib kiriş paytida özaro ifloslaniş.	Loyiha hududi işçilari, bevosita ta’sir. Özaro ifloslanişdan boşqa tuproqlarga ta’sir.
Kiriş yöllari, quvur xandaqlari, bino poydevorini quriş	Qazuv işlari va ziçlaşuv	Tuproq eroziyasi, unumdor ustki tuproqning siljişi, şuningdek yöl işlari va oğir maşinalar tufayli tuproqning ziçlanişi oqibatida loyiha egallaydigan maydon va uning bevosita atrofida yer holatining yomonlaşuvi.	Loyiha hududi geologiyasi
Yer osti suvini quriliş maqsadida oliş va sayoz yer osti suvi sathini hisobga olgan holda qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş	Suvni boşqariş va ehtimol çiqariş (zarur bölsa hamda tarkibida umumiy muallaq qattiq moddalar (UMQ/TSS) yoki loyqalik darajasi yuqori bölişi kutilsa)	Qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş davrida, çökindilar töliq çökkunga qadar suv sifatining vaqtinçalik mahalliy yomonlaşuvi, ehtimol Çirçiq daryosida	Loyiha hududi yuzalari, daryo suvi, daryo suvidan foydalanuvçilar.
Xavfli materiallar, kimyoviy moddalar, yoqilğilar, çiqindilar va quriliş oqova suvini saqlaş, ular bilan muomala qiliş, ulardan foydalaniş	Ifloslantiruvçi moddalarning ehtimoliy tökilişi, sizib çiqişi yoki yuvilib ketişi	Tuproqqa va ehtimol yer osti suviga yoki boşqa suv obyektlariga bevosita ta’sir, bunda drenaj ariqlari va ehtimol yaqin atrofdagi qişloq xöjaligi dalalariga oqib boriş ehtimoli mavjud	Loyiha hududi tuproği va ehtimol yer osti suvi. Drenaj ariqlariga ta’sir, uning boşqa hududlar va suvdan foydalanuvçilarga tarqalişi.

10.5.1.1 Yer osti suvi sathining kötarilişi va suv toşqini

Hududni tayyorlaş işlari doirasida mavjud oqova suv kollektorlarining bir qismi doimiy yopiladi va kömiladi. Bu kollektorlar asosan atrofdagi qişloq xöjaligi yerlaridan oqimni çiqarib yuborişga xizmat qiladi. Ular odatda yer yuzasidan taxminan 1-2 m çuqurlikda joylaşgan sayoz yer osti suvi sathini saqlaşga ham yordam beradi.

Loyiha hududidagi drenaj kollektorlarining yopilişi yer osti suvi sathining mahalliy kötarilişi va suvning vaqtinça töplanişiga olib kelişi mumkin. Loyiha hududi ostida suvni juda

tez ötkazadigan şağalli tuproqlar bor; ular yer osti suvining tez oqişini va suvning yerga şimişini osonlaştiradi. Bu xususiyat yer yuzasida suv töplanib turadigan vaqtni qisqartirişi mumkin. Biroq sayoz yer osti suvi sathi kutilganidan kattaroq hududda kötarilib, qöşni qişloq xöjaligi yerlari va yaqin jamoalarga ta'sir qilişi mumkin. Yerning ortiqça namlanişi fermerlar ekinlarining hosildorligini paşaytirişi, mahalliy suv toşqinlari esa kiriş yöllariga yoki past joylarga ta'sir qilişi mumkin.

Uşbu ehtimoliy ta'sirlarning kölami va qamrovi loyiha hududining batafsil gidrogeologik va geotexnik xususiyatlariga, jumladan, şağal qatlamlarining boğliqligi va mavjud drenaj tizimining samaradorligiga boğliq. Batafsil geotexnik va gidrogeologik tadqiqot yakunlangandan söng qöşimça baholaş talab etilişi mumkin. Bu ehtimoliy suv toşqini hududlarini aniq xaritalaş va oldini oliş va kamaytiriş çoralarini loyihalaşga asos böladi. Hozirgi bosqiçda ta'sirlar ehtimoliy, bevosita, qaytariladigan deb hisoblanadi. Ularni quriliş paytida tegişli drenajni rejalaştiriş va suvni vaqtinça boşqariş orqali nazorat qiliş mumkin.

Atrofdagi hududda saqlanib qoladigan kollektor va kanallarning keng tarmoği mavjudligi, şuningdek, loyiha hududi atrofida qöşimça kollektorlar quriş rejasi hisobga olinsa, bevosita atrofda yer osti suvi kötarilişi va suv toşqinining ehtimoliy ta'sir kölami örta deb baholanadi.

10.5.1.2 Tuproqni qaziş va olib taşlaş, jumladan, özaro ifloslaniş

Loyiha yölovçi terminali binosi kabi asosiy inşootlarning poydevorini barpo etiş uçun qazuv işlarini öz içiga oladi. Uşbu hisobotda yuqorida bayon qilinganidek, yertöla uçun jami taxminan 13 000 m² maydon qazilişi kerak, eng çuqur qazilma esa yer sathidan 8,5 m çuqurlikkaça boradi. Qazuv işlari tarkibida ifloslantiruvçi moddalar bölişi mumkin bölgan kömilgan tuproqni oçişi va harakatga keltirişi mumkin.

Qazib çiqarilgan tuproqning katta qismidan loyiha hududida qayta töldiriş va zarur sathni hosil qiliş uçun yer sathini kötarişda qayta foydalaniş kutiladi. Biroq yer sathini kötariş uçun taşqi karyerlardan taxminan 12 million m³ töldiriş materiali olib kiriş rejalaştirilgani sababli özaro ifloslaniş xavfi mavjud. Uşbu xavfni kamaytiriş, maqbul sifat standartlariga muvofiqlikni ta'minlaş hamda ehtimoliy salomatlik va atrof-muhit xavflarining oldini oliş uçun yetkazib berişdan oldin olib kelinadigan tuproq manbalaridan vakillik qiluvçi namunalar olinadi va tahlil qilinadi.

Qazuv va tuproq bilan muomala qiliş paytida tuproqning bevosita ta'sirini kamaytiriş uçun hudud işçilari tegişli şaxsiy himoya vositalari (ŞHV/PPE) bilan ta'minlanadi. MXQ/EPC pudratçisi ustki va ostki tuproqni alohida saqlaydi hamda tuproq sifatini saqlaş va qayta töldirişda tabiiy qatlamlaşuvni imkon qadar tiklaşga yordam beradigan materiallarni uyumlab saqlaşning yetakçi tartiblarini qöllaydi. Boşlanğiç tuproq şaroiti, qazib çiqarilgan materialdan asosan loyiha hududida qayta foydalaniş va olib kelinadigan töldiriş tuproği sifatining tekşirilişi hisobga olinsa, tuproq ifloslanişi va işçilarning ta'sirga uçraşi bilan boğliq ehtimoliy ta'sirlarning umumiy kölami kiçik deb baholanadi.

10.5.1.3 Tuproq ziçlanişi va eroziyasi

Loyihaning quriliş bosqiçi kiriş yöllari, bino poydevorlari va himoya tösiği inşootlarini barpo etiş uçun qazuv, qayta töldiriş, tekislaş işlarini qamrab oladi. Katta hajmdagi qazuv işlari eroziyaga moyil tuproqni beqarorlaştirişi va ustki tuproqni siljitişi oqibatida tuproq unumdorligining yöqolişiga olib kelişi mumkin. Bundan taşqari, oğir maşinalardan foydalaniş va ziçlaş işlari tuproqni ziçlaştirişi mumkin.

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanmasa, uşbu ta'sirlar salbiy, bevosita va kiçik deb baholanadi, çunki tuproq ziçlanişi, eroziya, ustki tuproq siljişi loyiha egallaydigan maydon bilan çeklanişi kutiladi. Hudud relyefi odatda tekis va tik nişabliklar yöq. Quyidagi jadvalda bayon qilingan oldini oliş va kamaytiriş çoralari amalga oşirilganda, uşbu ta'sirlar ahamiyatsiz darajagaça kamayişi kutiladi.

10.5.1.4 Yer osti suvini oliş va qaziş joyidagi yer osti suvini çiqarib turiş

<u>Ta'sir mexanizmi</u>

Aeroport infratuzilmasining bir neçta asosiy qismi, jumladan, terminal binosi, bagajga işlov beriş tizimi (BIBT/BHS) yertölasi, oqova suvlarni tozalaş inşooti, kommunal inşootlar, elektr energiyasini taqsimlaş markazlari mavjud yer osti suvi sathidan pastda qazuv işlarini talab qiladi. Kutilayotgan qazilma çuqurligi yer osti suvi sathidan taxminan 2-6,7 m past. Faqat BIBT/BHS yertölasining özi taxminan 13 152 m² maydonni egallaydi va yer osti suvi sathidan taxminan 2 m pastga davom etadi.

Yuqoridagi gidrogeologik konseptual model bölimida bayon qilinganidek, loyiha hududi ostida yon tomonga keng tarqalgan, öta ötkazuvçan şağalli suvli qatlam (MGE/EGE-3) yotadi va uning gidravlik ötkazuvçanligi taxminan 10^{-3}-10^{-1} m/s deb baholangan. Yer osti suvi sathi sayoz va suğoriş kanallari hamda kengroq qayir tizimi bilan gidravlik boğlangan. Hududiy nişab past, ammo barqaror, taxminan 0,0034 bölib, Çirçiq daryosi tomonga yönalgan.

Uşbu gidrogeologik şaroitda qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş qazilmalarga katta miqdorda yer osti suvi oqib kirişiga sabab böladi va suv tortilayotgan joylardan yon tomonga kengayadigan, ölçaş mumkin bölgan pasayiş konusini hosil qiladi. Suvli qatlamning suv ötkaziş qobiliyati yuqori ekanligi sababli sath pasayişi ta’siri ötkazuvçanligi past şaroitga nisbatan ança uzoq masofaga tarqalişi mumkin.

Qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş talabi va ta’sir hududi

Dastlabki tahliliy hisob-kitoblarga köra, BIBT/BHS yertölasi kabi inşoot uçun qaziş hududidagi yer osti suvi sathini yer osti suvi sathidan taxminan 3 m pastgaça pasaytiriş qazilmaga kuniga 1 200 m³ dan ortiq suv oqib kirişiga olib kelişi mumkin. Biroq uşbu soddalaştirilgan arifmetik hisob-kitoblar çegara şaroiti va suvli qatlamning bir xilligi haqidagi farazlar sababli oqib kirişni kam baholaşi mumkin.

Dastlabki barqaror holatdagi sonli modellaştiriş ehtiyotkor farazlar asosida suv oqib kirişi kuniga 10 000 m³ dan oşişi mumkinligini körsatadi. Barqaror holatni modellaştiriş uzoq muddatli suv tortiş talablarini ortiqça baholaşga moyil, çunki u vaqtinçalik saqlaş ta’siri yoki sath pasayişining asta-sekin barqarorlaşuvini hisobga olmaydi. Şunga qaramay, natijalar suv tortiş talabi katta bölişi mumkinligini tasdiqlaydi.

Yirik şağal yotqiziqlari va loyiha hududidagi yuqori gidravlik boğliqlik sababli ta’sir radiusi nisbatan katta bölişi kutiladi. Faqat yerusti drenaj tarmoğini burib yuboriş yer osti suvining oqib kirişini sezilarli darajada kamaytirişi yoki qazilma maydoni doirasidagi şağalni töyinmagan holga keltirişi ehtimoli past.

Batafsil loyihalaş bosqiçida suv tortiş tezligi, sath pasayişi qamrovi, loyiha qabul qiluvçi obyektlarga ehtimoliy ta’sirni aniqlaştiriş uçun vaqtga boğliq qöşimça sonli modellaştiriş talab etiladi.

Quriliş paytida sayoz yer osti suvi sathining pasaytirilişi qöşni ekin yerlarida tuproq namligini vaqtinça kamaytirişi mumkin. Sayoz yer osti suvi hissasi yoki kapillyar kötarilişga boğliq hududlarda bu ekinlarga qisqa muddatli salbiy ta’sir körsatişi yoki suğorişga talabni oşirişi mumkin.

Quriliş davrida qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş vaqtinçalik bölişi, ya’ni qazuv davri bilan çeklanişi kutilgani va suğoriş ta’minoti davom etişi hisobga olinsa, uşbu ta’sir kölami Örta deb baholanadi.

Atrofdagi sayoz şağalli suvli qatlamdan suv oladigan mahalliy içimlik yoki suğoriş quduqlarida ta’sir radiusi doirasida suv sathi yoki suv beriş quvvati vaqtinça kamayişi mumkin. Ta’sir qamrovi quduq çuqurligi, qazilmadan masofa, suv tortiş davomiyligiga boğliq böladi. Qabul qiluvçi obyektlarning tasdiqlangan röyxati mavjud bölmagani sababli bu ta’sir yöli ehtimoliy yuqori sezgirlikka ega deb hisoblanadi. Suv sathining pasayişi bilan boğliq ehtimoliy ta’sir kölami Örta deb baholanadi.

10.5.1.5 Tuproq va yer osti suvining ifloslanişi

Loyihaning quriliş bosqiçi kimyoviy moddalar, yoqilğilar, moylaş materiallari va boşqa xavfli moddalarni saqlaş, ular bilan muomala qiliş, ulardan foydalanişni öz içiga oladi. Loyihaning kiriş yöllari, yuk tuşiriş va oliş joylaridagi oçiq tuproq taşilayotgan mahsulotlarning tasodifiy tökilişi tufayli ifloslanişga moyil böladi. Tasodifiy tökiliş, sizib çiqiş yoki xavfli moddalar bilan nötöğri muomala qiliş tuproq ifloslanişiga olib kelişi mumkin.

Bundan taşqari, quriliş bosqiçida umumiy hamda xavfli qattiq va suyuq çiqindilar hosil qiladigan faoliyat amalga oşiriladi. Quriliş bosqiçida hosil böladigan xavfli çiqindilarni boşqariş va ular bilan muomala qiliş alohida taşviş tuğdiradi. Quriliş çiqindilarining xavfli qismi, masalan, foydalanilgan moy, beton yuviş suvi, gidravlik suyuqliklar, moylaş materiallari, böyoqlar umumiy çiqindi miqdorining kiçik qismini taşkil etadi. Biroq ularning tarkibidagi kimyoviy moddalarning zaharliligi, uzoq saqlanişi va tirik organizmlarda töplaniş ehtimoli boşqariş va yakuniy joylaştirişga alohida e'tibor berişni talab qiladi. Bunday çiqindilar işlov beriş yoki yakuniy joylaştiriş uçun yiğib olingunga qadar quriliş maydonida talabga muvofiq saqlanmasa yoki ular bilan nötöğri muomala qilinsa, ayniqsa nam mavsumda tuproq, yer osti suvi, yerusti suvi ifloslanişi mumkin. Xavfli çiqindilar hosil bölişidan kelib çiqadigan ehtimoliy atrof-muhit ta'sirlari uşbu hisobotning "Qattiq çiqindilar va oqova suvni boşqariş" bölimida yoritilgan.

Loyiha hududida yer osti suvi sathining sayozligi va öta ötkazuvçan şağalli tuproqlar mavjudligi sababli xavfli kimyoviy modda yoki yoqilği katta miqdorda çiqarilgan taqdirda, ifloslantiruvçi moddalar yer ostida tez köçişi, yer osti suviga yetib borişi, tökiliş joyidan taşqariga tarqalişi mumkin.

Ehtimoliy ta'sirlar quyidagilarni öz içiga oladi:

- Saqlaş, yoqilği quyiş, kimyoviy moddalar bilan muomala qiliş joylarida tuproqning bevosita ifloslanişi.
- Ötkazuvçan şağal qatlamlari orqali tik köçiş sababli yer osti suvi sifatining yomonlaşuvi.
- Ifloslangan yer osti suvi yerusti kanallari yoki suğoriş tizimlariga çiqqan taqdirda, yaqin atrofdagi qişloq xöjaligi yerlari yoki yerusti suvi obyektlariga bilvosita ta'sir.
- Teri yoki nafas orqali ta'sirga uçraş oqibatida hudud işçilari salomatligi va xavfsizligiga xavf.

Sayoz yer osti suvi, tuproqning yuqori ötkazuvçanligi hamda loyiha hududida saqlanişi kutilayotgan kimyoviy moddalar va yoqilği hajmining birgalikdagi ta'siri sababli ehtimoliy ta'sir kölami Örta deb hisoblanadi. Tezkor çegaralaş va ifloslanişni bartaraf etiş çoralari körilsa, ta'sirlar bevosita va ehtimol qaytariladigan böladi. Biroq ta'sirlar töğri boşqarilmasa, ifloslaniş loyiha çegarasidan taşqariga tarqalişi mumkin.

10.5.2 Quriliş bosqiçida geologiya, tuproq, yer osti suviga ta'sirlarni baholaş yakuni

Quriliş davrida geologiya, tuproq va yer osti suviga ehtimoliy ta'sirlar hamda ularning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga ta'siri, taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda ular amalga oşirilgandan keyingi qoldiq ta'sirlar bilan birga quyidagi jadvalda umumlaştirilgan.

10.9-jadval. Quriliş bosqiçida geologiya, tuproq, yer osti suviga ta’sirlarni baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
Mavjud suğoriş kanallari va kollektorlar yopilişi sababli yer osti suvi kötarilişi hamda suv toşqini	Örtaça	Qöşni jamoalar va fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Quriliş paytida tuproqning özaro ifloslanişi va ta’sirga uçraş xavflari	Kiçik	Tuproq sifati	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
		Loyiha hududi işçilari	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
Tuproq eroziyasi, unumdor ustki tuproqning siljişi, şuningdek, yöl işlari va oğir maşinalar mavjudligi sababli tuproq ziçlanişi natijasida yerning yomonlaşuvi.	Kiçik	Tuproq yaxlitligi	Past	Kiçik	Ahamiyatsiz
Yer osti suvi sathining mahalliy pasayişi	Örtaça	Atrofdagi yerdan foydalanuvçilar, yer osti suvi sathi	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Kimyoviy mahsulotlar va çiqindilarning tasodifiy tökilişi, sizib çiqişi, nazoratsiz taşlaşi sababli tuproq hamda yer osti suvining ifloslanişi.	Örtaça	Tuproq sifati	Örta	Örtaça	Ahamiyatsiz
	Örtaça	Yer osti suvi sifati	Yuqori	Örtaça	Kiçik

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Yer osti suvi sathining kötarilişi va suv toşqinining oldini oliş va kamaytiriş çoralari

- MXQ/EPC pudratçisi drenaj kollektorlarini yopişdan va qurilişni boşlaşdan oldin hokimlik va melioratsiya bölimi kabi tegişli idoralar bilan işlarni muvofiqlaştiradi hamda qurilişdan oldin qöşimça gidrogeologik baholaş zarurligini aniqlaydi.
- Yerusti va yer osti suvini samarali çiqarib yuborişni ta’minlaş uçun suv ötkaziş quvurlari yoki şunga öxşaş oldini oliş va kamaytirişga qaratilgan muhandislik çoralarini qamrab olgan tiklaş işlari bajariladi.

Mavjud ifloslaniş ta’sirining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari

- Taşqi karyerlardan olib kelinadigan töldiriş materiali loyiha hududiga taşilmasidan oldin uning amaldagi tuproq sifati standartlariga muvofiqligini tasdiqlaş maqsadida vakillik qiluvçi tuproq namunalarini oliş va laboratoriya tahlili orqali qabul qilişdan oldingi sinovdan ötkaziladi.
- Tuproqni qaziş, u bilan muomala qiliş, uyum qiliş, qayta foydalaniş va yakuniy joylaştiriş tartiblarini batafsil belgilaydigan Tuproq va qazilma materiallarni boşqariş rejasi işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. Rejada loyiha hududidagi va olib kelinadigan materiallarning özaro ifloslanişining oldini oliş çoralari ham nazarda tutiladi.
- Tuproq sifatini saqlaş va qayta töldiriş hamda yer sathini kötarişda tegişli qayta foydalanişni osonlaştiriş uçun qazuv va uyum qiliş paytida ustki va ostki tuproq aniq ajratilgan hamda yorliqlangan uyumlarda alohida saqlanadi.
- Ifloslangan tuproqlar harakatga kelişi ehtimolini va çang hosil bölişini kamaytiriş uçun oçiq qoldiriladigan maydon hamda oçiq qazilmalar davomiyligi çeklanadi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
• Qazuv va tuproq bilan muomala qilişda qatnaşadigan barça hudud xodimlari tegişli şaxsiy himoya vositalari (ŞHV/PPE) bilan ta’minlanişi va ulardan foydalanişi, şuningdek tuproq bilan boğliq salomatlik va xavfsizlik xatarlari böyiça öqitilişi ta’minlanadi. • Kutilmagan ifloslanişni aniqlaş va zarur bölsa tuzatiş çoralarini köriş uçun quriliş paytida qazib çiqarilgan va olib kelingan tuproq közdan keçiriladi hamda vaqti-vaqti bilan kuzatiladi. <u>Tuproq eroziyasi, siljişi va ziçlanişining oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari</u> • Transport vositalarining harakati va toxtaşi belgilangan kiriş yöllari, ajratilgan iş maydonlari, toxtaş joylari bilan çeklanadi. • Köp yoğin va tezkor suv toşqini şaroitida iş maydonlarining faoliyatini saqlaş uçun yomğir suvi drenaj tizimlari va eroziyani nazorat qiliş çoralari loyihalanadi hamda barpo etiladi. • Materiallarni tik nişabliklarda saqlaş taqiqlanadi; • Uzoq davom etadigan kuçli yoğin yoki qorli şaroit tufayli keyingi muomala tuproq va ekiş qatlamiga zarar yetkazişi kutilsa, tuproq bilan muomala qiliş töxtatiladi. • Loyiha hududi izini kesib ötadigan mavjud suğoriş kanallari yopiladi va foydalanişdan çiqariladi. <u>Yer osti suvi sathi pasayişining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari</u> • Qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş işlari faqat zarur paytda, asosan qazuv va poydevor qurilişi paytida ötkaziladi hamda işlar tugaşi bilan darhol töxtatiladi. • Qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş tizimi qurilişdan oldin ötkaziladigan batafsil yer tadqiqotlari natijalari asosida loyihalanadi. Bunda atrofdagi yer osti suviga boğliq jamoalarga ehtimoliy ta’sirlarning oldini oliş hisobga olinadi. • Milliy qonunlar va me’yoriy hujjatlarga muvofiq, yer osti suvini oliş va çiqarişdan oldin barça zarur ruxsatnomalar olinadi. • Jamoalar va yaqin atrofdagi boşqa yerdan foydalanuvçilar mavjud quduqlardagi yer osti suvi sathining pasayişi bilan boğliq har qanday şikoyatni loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi yoki boşqa vositalar orqali bildirişga undaladi. Bu şikoyatlar asosida ta’sirlarning oldini oliş va kamaytiriş uçun qöşimça çoralar köriladi. • Yer osti suvi sathining barqaror pasayiş konusini hosil qiliş uçun köp bosqiçli ignasimon quduqlar va çuqur quduqlar örnatiladi. • Qaziş hududidan yer osti suvini çiqarib turiş paytida yon tomondan suv oqib kirişini çeklaş uçun şpunt-qoziqlar yoki diafragma devorlaridan foydalaniladi. • Tortib çiqarilgan suvdan imkon qadar suğoriş tarmoqlarida qayta foydalaniladi. <u>Tuproq va yer osti suvi ifloslanişining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari</u> • Uskuna, maşina, transport vositalarini yuvişga faqat suv ötkazmaydigan yuzaga ega hamda alohida suv yiğiş çuqurlari, tozalaş inşootlari yoki qoplamali buğlatiş hovuzlariga olib boradigan maxsus drenaj tizimlari bilan jihozlangan belgilangan joylarda ruxsat beriladi. • Beton yuviş joylari yomğir suvi drenaji va kanallardan uzoqda joylaştiriladi hamda yetarli siğimga ega qilib loyihalanadi. Oqova suv maxsus suv ötkazmaydigan himoya tösiği içida saqlanadi. • Beton taşiydigan avtomobillar faqat beton qorişmasi tayyorlaş qurilmasidagi belgilangan joylarda yoki loyiha hududidagi boşqa tasdiqlangan beton yuviş joylarida yuviladi. • Quriliş faoliyati paytida ifloslangan tuproq aniqlansa, özaro ifloslanişning oldini oliş uçun u alohida qazib olinadi va ÇBR/WMPga muvofiq xavfli çiqindi sifatida saqlanadi yoki yakuniy joylaştiriladi. • Loyiha hududiga olib kelinadigan har qanday tuproq sifat guvohnomasiga ega akkreditatsiyadan ötgan karyerlardan olinadi.					

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
• Yoqilği va kimyoviy moddalar kabi barça xavfli materiallar suv ötkazmaydigan, qoplamali asosda yoki asosiy saqlaş idişi hajmining 110%ini hamda bir neçta idiş jami hajmining 25%ini siğdira oladigan ikkilamçi tutib qoliş tösiği içida saqlanadi. • Barça kimyoviy moddalar va materiallar işlab çiqaruvçi körsatmalari hamda materiallar xavfsizligi böyiça ma’lumot varağiga (MXBMV/MSDS) muvofiq saqlanadi. • Kimyoviy moddalarni saqlaş joyi tegişli şamollatişga va ob-havo ta’siridan, ya’ni yoğin, qor, quyoşdan himoya qoplamasiga ega böladi, bir-biriga mos kelmaydigan kimyoviy moddalarni ajratib saqlaş uçun alohida joylar yaratiladi. • Moylardan foydalanadigan barça uskunalar ostiga sizib çiqqan yoki tomgan moyni tutiş uçun tagliklar örnatiladi. • Pudratçi favqulodda vaziyatlarga javob beriş rejasini (FVJR/ERP), şuningdek tökilişlarga javob beriş va kutilmagan vaziyatlar tartibini işlab çiqadi hamda amalga oşiradi. • Loyiha hududida foydalaniladigan va saqlanadigan barça ehtimoliy xavfli materiallar hamda kimyoviy moddalar röyxati yuritiladi. • Barça tökiliş va sizib çiqişlar haqida quriliş rahbariga darhol xabar beriladi. Ularning sababini tasdiqlaş hamda tegişli tuzatiş va oldini oliş çoralarini joriy etiş uçun tekşiruv ötkaziladi. • Kimyoviy moddalarni saqlaş joylarida tökilişni bartaraf etiş töplamlari mavjud böladi va ular tegişli şimdiruvçi materiallar bilan töliq ta’minlanadi. • Transport vositalari va uskunalarga yoqilği quyiş hamda texnik xizmat körsatiş loyiha hududidagi suv ötkazmaydigan yuzali maxsus ustaxona hududida amalga oşiriladi. • Loyiha hududidagi muayyan joylarda, masalan, yoqilği quyiş joylarida moddalar tarqalişini çegaralaş va tökilişni tozalaş uçun mos materiallar hamda uskunalar mavjud böladi. • Tegişli xodimlar favqulodda holat va tökilişga javob beriş, moddalar tarqalişini çegaralaş, materiallar bilan muomala qiliş, saqlaş tartiblari böyiça öqitiladi. • Tökilişga öz vaqtida va samarali javob berişni maşq qiliş uçun muntazam favqulodda holat maşğulotlari ötkaziladi. • Yoqilği taşiydigan transport vositalari va uskunalarga texnik xizmat körsatiladi. Bak, nasos, quvur tizimi, transport vositasining özida sizib çiqiş yöqligi hamda ularning maqsadga yaroqliligini ta’minlaş uçun ular muntazam tekşiriladi. Kamçiliklar bartaraf etilmagunça heç qanday uskuna işga tuşirilmaydi. • Sizib çiqiş yoki mexanik nosozliklarni kamaytiriş uçun transport vositalari va uskunalarga muntazam texnik xizmat körsatiş dasturi amalga oşiriladi hamda hujjatli dalillar saqlanadi. • Loyiha hududidagi suv yöllaridan 100 m doirasida xavfli kimyoviy moddalar, moy yoki yoqilği saqlanmaydi. • MXQ/EPC pudratçisi Özbekiston me’yoriy hujjatlariga muvofiq, zarur hollarda, katta miqdordagi dizel va boşqa xavfli materiallarni saqlaş uçun tegişli ruxsatnomalarni oladi. • Loyihaning QAMIBR/CESMP hamda u bilan boğliq ÇBR/WMP va tartiblari amalga oşirilişi tökilişlarni imkon qadar kamaytirişni va xavfli hududlarda joylaştirilgan tökilişni bartaraf etiş töplamlari yordamida tez tozalaşni ta’minlaydi. • Hosil bölgan xavfli çiqindilarni, ularning yakuniy joylaştiriş yönalişini va saqlaş-topşiriş zanjirini hujjatlaştiriş, kuzatib boriş hamda körsatiş uçun xavfli çiqindilar röyxati işlab çiqiladi va yuritiladi. • Quriliş faoliyati paytida ozodalik va tartibni saqlaşning yetakçi amaliyoti qöllanadi. Bu xavfli materiallar va çiqindilar bilan töğri muomala qiliş, ularni saqlaş, taşiş tartiblari hamda talablarini qamrab oladi. • MXQ/EPC pudratçisi va quyi pudratçilar xavfli materiallar hamda çiqindilarni boşqariş, taşiş, ular bilan muomala qilişga oid kiriş yöriqnomasi hamda işoldi xavfsizlik suhbatlarini (IXS/TBT) ötkazadi.					

10.5.3 Resurs samaradorligi va tuproqdan qayta foydalaniş

Resurs samaradorligi va aylanma iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq, loyiha qazib çiqarilgan tuproqdan foydali maqsadlarda qayta foydalanişni imkon qadar kengaytirişga va loyiha hududidan taşqarida yakuniy joylaştiriş talab etiladigan çiqindi hosil bölişini kamaytirişga intiladi. Taklif etilgan hudud sathini hosil qiliş uçun katta miqdorda töldiriş materiali olib kiriş talab etilsa-da, muhandislik yoki obodonlaştiriş maqsadlariga yaroqli qazib çiqarilgan tuproq va boşqa yer materiallaridan amaliy jihatdan mumkin bölgan hollarda avvalo loyiha doirasida qayta foydalaniladi.

Batafsil loyihalaş va qurilişni rejalaştiriş bosqiçlarida qazib çiqarilgan materiallar geotexnik va atrof-muhit nuqtayi nazaridan yaroqliligiga köra tavsiflanadi hamda ajratiladi. Texnik jihatdan mumkin bölgan hollarda yaroqli materiallardan qayta töldiriş, kommunal tarmoq xandaqlarini tiklaş, obodonlaştiriş, drenaj unsurlari, kötarmalar, boşqa muhandislik işlarida loyiha doirasida qayta foydalaniladi. Uşbu yondaşuv çiqindi hosil bölişini kamaytiradi va qayta foydalaniş imkoni mavjud joylarda olib kelinadigan qöşimça materiallarga talabni pasaytiradi.

Qazib çiqarilgan materiallardan loyiha doirasida foydali qayta foydalaniş mumkin bölmasa, amaldagi me'yoriy talablarga rioya etiş va materialning yaroqliligini tasdiqlaş şarti bilan, ularni boşqa mos quriliş loyihalari yoki tasdiqlangan qayta tiklaş inşootlarida qayta foydalaniş imkoniyati körib çiqiladi. Yakuniy joylaştiriş faqat geotexnik xususiyatlari, ifloslaniş holati yoki boşqa texnik çeklovlar tufayli foydali qayta foydalanişga yaroqsiz materiallarga nisbatan qöllanadi.

MXQ/EPC pudratçisi materiallarning xususiyatlarini aniqlaş, ularni ajratiş, vaqtinça saqlaş, qayta işlatiş, yakuniy joylaştiriş tartibini QAMIBR/CESMP tarkibidagi yer işlarini boşqariş rejasida batafsil belgilaydi. Rejada materiallarni foydali maqsadda qayta işlatiş imkoniyatlarini aniqlaş va qayd etiş, çiqindi miqdorini kamaytiriş hamda qazilgan tuproqni quriliş davomida çiqindi ierarxiyasi va resurslardan samarali foydalaniş qoidalariga muvofiq boşqariş tartibi körsatiladi.

10.5.4 Foydalaniş bosqiçi

Aeroportdan foydalaniş bosqiçida geologiya, tuproq va yer osti suviga ta'sirlar asosan kiçik va loyiha hududi bilan çeklanişi kutiladi. Ammo ayrim işler töğri boşqarilmasa, tuproq va yer osti suvi ifloslanişi mumkin. Bunday xavf yoqilği, kimyoviy moddalar, muzdan tozalaş vositalari, texnik xizmat körsatişda işlatiladigan moddalarni muntazam işlatiş hamda saqlaşdan kelib çiqadi. Bundan taşqari, qoplamali maydonlar va infratuzilma yerusti suvlarining oqib ketişi hamda yerga şimişini özgartirişi mumkin. Yer osti suvi sayoz, yer qatlamlari esa suvni tez ötkazadi. Şu bois baholaş ifloslaniş xavfiga, yer osti suvlari zaxirasining tölişidagi özgarişlarga hamda bu resurslarni uzoq muddat himoya qiliş uçun nazorat va muntazam kuzatuv çoralarining samaradorligiga qaratiladi.

Havo kemalarining qönişi, havoga kötarilişi, yerda harakatlanişi dinamik yuklar hamda past çastotali yer tebranişlarini hosil qiladi. Uşbu kuçlar uçiş-qöniş yölagi qoplamalari va poydevorlarini loyihalaşda töliq hisobga olinadi. Bu ostidagi tuproq va geologik tuzilmalarga uzatiladigan zöriqişlar deformatsiya yoki beqarorlikka olib kelişi mumkin bölgan darajadan ança past qolişini ta'minlaydi. Havo kemalari harakati bilan boğliq yer tebranişi qisqa muddatli va masofa ortgan sari tez susayadi. Geologiyaga salbiy ta'sir kutilmaydi, tebraniş ta'siri mahalliy bölib, foydalaniş yuzalarining bevosita yaqinidan taşqarida ahamiyatsiz bölişi kutiladi. Şu sababli uşbu jihat baholaşga kiritilmagan.

Aniqlangan ehtimoliy ta'sirlar 10.10-jadvalda qisqaça jamlangan va quyida muhokama qilingan.

10.10-jadval. Foydalaniş bosqiçida geologiya, tuproq va yer osti suvi: jihatlar va ta'sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta'sirlar va ta'sir hududi	Qabul qiluvçi obyektlar
Havo kemalariga yoqilği quyiş va yoqilğini saqlaş	Yoqilği va uglevodorodlarning tökilişi yoki sizib çiqişi	Yoqilği saqlaş joylari, perronlar, yer osti saqlaş baklari (YSI/UST) tagidagi tuproq hamda yer osti suvining ifloslanişi	Tuproq, sayoz yer osti suvi, loyiha hududi işçilari, yaqin atrofdagi suv ta'minotidan foydalanuvçilar
Havo kemalari va transport vositalariga texnik xizmat körsatiş	Moy, moylaş materiallari, erituvçilardan foydalaniş hamda ularni yakuniy joylaştiriş	Tuproqning mahalliy ifloslanişi, yer osti suviga ehtimoliy sizib ötiş	Tuproq, yer osti suvi, yaqin atrofdagi aholi
Muzdan tozalaş va muzlaşning oldini oliş çoralari	Glikol, karbamid, boşqa boğliq kimyoviy moddalarni qöllaş	Oqimning şimişi natijasida yer osti suvi ifloslanişi; tuproqning yomonlaşuvi	Yer osti suvi sifati
Yonğin söndiriş maşğulotlari va favqulodda holatga javob çoralari	Yonğin söndiriş köpiklaridan, jumladan per- va poliftoralkil moddalardan (PFM/PFAS) foydalaniş	Barqaror yer osti suvi ifloslanişi; tirik organizmlarda töplaniş xavfi	Yer osti suvi, yaqin atrofdagi ekotizimlar
Qoplamali yuzalardan yomğir suvi oqimi	Uglevodorod, metall, kimyoviy moddalar bilan ifloslangan oqim	Oqimning quyi qismidagi tuproq va sayoz yer osti suvining ifloslanişi; drenaj çiqariş joylari yaqinidagi eroziya	Yerusti suvi, drenaj kanallari böylab tuproq, yaqin atrofdagi jamoalar
Yer osti saqlaş baklari (YSI/UST) va quvurlardan foydalaniş	Yoqilğini uzoq muddat saqlaş va taşiş	Aniqlanmagan sizib çiqişlar vaqt ötişi bilan yer ostining surunkali ifloslanişiga olib kelişi	Yer osti suvi, tuproq, suv ta'minoti, yaqin atrofdagi yer osti suvidan foydalanuvçilar
Çiqindilar bilan muomala qiliş va ularni yakuniy joylaştiriş	Xavfli va xavfli bölmagan materiallar bilan muomala qiliş	Filtratning şimişi, çiqindilarni noqonuniy taşlaş yoki tasodifiy tökilişlar	Tuproq, sayoz yer osti suvi.

10.5.4.1 Yoqilği bilan muomala qiliş va texnik xizmat körsatiş faoliyati natijasida tuproq hamda yer osti suvining ifloslanişi

Havo kemalariga yoqilği quyiş, yoqilğini saqlaş, havo kemalari va transport vositalariga texnik xizmat körsatiş yoqilği, moylar, moylaş materiallari hamda erituvçilar bilan muntazam muomala qilişni öz içiga oladi. Uşbu faoliyatning aksariyati qoplamali va çeklangan yuzalarda amalga oşiriladi, bu ostidagi tuproqqa bevosita şimiş ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Biroq ayniqsa materiallarni ötkaziş işlari yoki uskuna nosozligi paytida yoqilği saqlaş joylari, gidrant tizimlari, yer osti saqlaş idişlari (YSI/UST), quvurlar yoki köçma yoqilği quyiş uskunalaridan tasodifiy tökiliş yoki sizib çiqiş yuz berişi mumkin.

Qoplamali yuzalarda tökiliş yuz bersa, ifloslantiruvçi moddalar yerusti drenaj tizimlari orqali taşilişi mumkin. Qoplamasiz yoki obodonlaştirilgan joylarda, jumladan qayta töldiriş orqali hosil qilingan kötarilgan maydonlarda esa ular bevosita tuproqqa şimişi mumkin. Yer osti suvi sathining sayozligi va yer ostidagi şağalli qatlamning öta ötkazuvçanligi hisobga

olinsa, şimigan uglevodorodlar yer osti suviga tez yetib borişi va aeroport çegarasidan taşqariga tarqalişi mumkin.

Şu sababli bilvosita ta’sir yaqin atrofdagi fermerlar va jamoalar foydalanadigan yer osti suvini oliş nuqtalariga yetib borişi hamda suğoriş suvi sifati va qişloq xöjaligi hosildorligiga salbiy oqibatlar tuğdirişi mumkin. Qoplamali maydonlarning ustunligi va yer osti suvi qabul qiluvçi obyektlarining sezgirligi hisobga olinib, uşbu ta’sir kölami kiçik deb baholanadi.

10.5.4.2 Muzdan tozalaş va muzlaşning oldini oliş işlarining yer osti suviga ta’siri

Muzdan tozalaş va muzlaşning oldini oliş işlari havo kemalari hamda qoplamali foydalaniş maydonlariga glikollar, karbamid, ular bilan boğliq kimyoviy moddalarni mavsumiy qöllaşni öz içiga oladi. Işlov berilgan yuzalarning aksariyati suv ötkazmaydi, bu oqimni tutiş va aeroportning maxsus drenaj tarmoği orqali olib ketiş imkonini beradi. Bu yer ostiga bevosita şimişni sezilarli darajada çeklaydi. Biroq jadalligi yuqori hodisalarda yoki tizim quvvati yetarli bölmaganda oqim qöşni qoplamasiz joylar yoki şimiş hududlariga yetib borişi mumkin.

Bunday hududlarda muzdan tozalaş kimyoviy moddalari ostidagi tuproqqa şimişi va sayoz yer osti suvi sathiga sizib ötişi mumkin. Yer osti materiallarining yuqori ötkazuvçanligi sababli yer osti suvi sifatiga, jumladan yaqin atrofdagi fermerlar suğoriş uçun yoki jamoalar maişiy maqsadda foydalanadigan suvga bilvosita ta’sir ehtimoli mavjud. Ta’sirlar fazo va vaqt böyiça çeklangan bölişi kutilsa-da, yer osti suvi qabul qiluvçi obyektlarining sezgirligi ta’sir kölamini Örta darajaga olib keladi.

10.5.4.3 Yonğin söndiriş va favqulodda holatga javob faoliyatidan yer osti suvining ehtimoliy ifloslanişi

Yonğin söndiriş va favqulodda vaziyatlarga javob berişda, jumladan öquv maşğulotlarida, yonğin söndiriş köpigi işlatilişi mumkin. Bu köpiklarda per- va poliftoralkil moddalar (PFM/PFAS) bölişi mumkin. PFM/PFAS uglevodorod yoqilğisi yonğinlarini samarali söndiriş uçun ilgari suvli parda hosil qiluvçi köpiklarda (SPHK/AFFF) qöllangan sun’iy ftorli organik moddalar guruhidir. Ular tabiatda uzoq saqlanadi, juda sekin parçalanadi, yer osti suvlari orqali oson tarqaladi, inson salomatligiga xavf tuğdirişi mumkin. Şu bois xalqaro yetakçi amaliyotda, jumladan XMK/IFCning AMSX/EHS yöriqnomalarida, PFM/PFAS xavf tuğdiruvçi moddalar sifatida tan olingan.

Yevropa Ittifoqida tarkibida per- va poliftoralkil moddalar bölgan yonğin söndiriş köpiklariga nisbatan me’yoriy çeklovlar bosqiçma-bosqiç kuçaytirildi va köp fuqarolik aeroportlari xavfsizroq muqobil sifatida ftorsiz yonğin söndiriş köpiklariga (F3) ötdi. Xalqaro kreditorlar va aviatsiya idoralari yangi aeroport loyihalari uçun ftorsiz köpiklardan foydalanişni tobora köproq eng yaxşi mavjud amaliyot deb hisoblamoqda.

Yonğin söndiriş işlari odatda maxsus belgilangan, qoplamali va çeklangan joylarda ötkazilsa-da, moddalarning tasodifiy çiqarilişi baribir xavf tuğdirişi mumkin. Yonğin söndiriş vositalari qoplamasiz joylarga tuşsa, tuproqqa bevosita şimiş ehtimoli yuzaga keladi.

Per- va poliftoralkil moddalarning uzoq saqlanişi, harakatçanligi va tirik organizmlarda töplaniş xususiyati, yer osti suvi sathining sayozligi va yer osti qatlamlarining öta ötkazuvçanligi ifloslantiruvçi moddalarning tez köçişi va uzoq vaqt saqlanişiga olib kelişi mumkin. Bilvosita ta’sir aeroport çegarasidan taşqaridagi yer osti suvidan foydalanuvçilar, qişloq xöjaligi yerlari, boğlangan ekotizimlarga yetib borişi mumkin. Bunday faoliyat kamdan kam ötkazilişiga qaramay, qat’iy nazorat bölmasa, ifloslanişning ehtimoliy oğirligi va uzoq muddatli oqibatlari ta’sir kölamini örta darajaga olib keladi.

10.5.4.4 Yomğir suvi oqimining ta’siri

Aeroportdagi qoplamali joylardan, jumladan uçiş-qöniş yölaklari, rullaş yölaklari, perronlar, xizmat yöllari va boşqa foydalaniş yuzalaridan oqadigan yomğir suvida aeroport faoliyati bilan boğliq uglevodorodlar, oğir metallar, rezina qoldiqlari, boşqa ifloslantiruvçi moddalar bölişi mumkin. Uşbu joylarning aksariyati suv ötkazmaydigan böladi va oqim maxsus içki drenaj tizimiga yönaltiriladi. Bu tuproq hamda yer osti suvi ifloslanişi ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

Aeroportdagi ifloslaniş ehtimoli bölgan suv yiğiş hududlaridan, masalan, yoqilği bilan muomala qiliş joylari, texnik xizmat körsatiş hududlari va perronlardan keladigan barça yomğir suvi toza oqimdan alohida yiğiladi va boşqariladi. Uglevodorodlar, muallaq qattiq moddalar va boşqa ifloslantiruvçi moddalarni olib taşlaş uçun uşbu suv zaruratga qarab çökindini tutiş qurilmalari, moy-suv ajratgiçlari hamda saqlaş yoki vaqtinça tutiş inşootlari kabi tozalaş va nazorat inşootlari orqali ötkaziladi. Loyiha hududidan faqat tegişli milliy atrof-muhit me'yorlari va suv sifati böyiça çiqariş standartlariga javob beradigan yomğir suvi çiqariladi.

Loyihaning hozirgi loyihalaş yeçimlariga köra, uçta asosiy çiqariş nuqtasi içki yomğir suvi tizimini aeroport hududining ğarbiy çegarasi böylab joylaşgan taşqi drenaj kollektorlariga ulaydi. Bu drenajlar tozalangan yomğir suvini oxir-oqibat Çirçiq daryosiga yetkazadi. Şu tariqa mahalliy yerusti suvi resurslarini himoya qilgan holda nazorat qilinadigan va talablarga muvofiq çiqariş ta'minlanadi.

Qoplamali va nazorat qilinadigan yuzalar ustun bölişiga qaramay, qoplamasiz yoki obodonlaştirilgan joylar, drenaj kollektorlari, çiqariş nuqtalaridan suv şimişi baribir yuz berişi mumkin. Loyiha hududida yer osti suvi sathining sayozligi va yer osti tuproqlarining öta ötkazuvçanligi hisobga olinsa, tuproqning mahalliy ifloslanişi hamda yaqin atrofdagi qişloq xöjaligi yerlari, suğoriş kanallari, yer osti suvidan foydalanuvçilarga bilvosita ta'sir ehtimoli mavjud.

Yomğir suvi tizimining loyihasi, ifloslaniş ehtimoli bölgan oqimning ajratilişi va tozalanişi hamda Çirçiq daryosiga nazorat ostida çiqarilişi hisobga olinsa, tuproq, yer osti suvi, yaqin atrofdagi qabul qiluvçi obyektlarga ehtimoliy ta'sir kölami kiçik deb baholanadi. Xavflarni kamaytiriş uçun quriliş va foydalaniş bosqiçlarida hududga xos qöşimça kuzatuv va moslaşuvçan boşqaruv çoralari qöllanadi.

10.5.4.5 Çiqindilar bilan muomala qiliş va ularni yakuniy joylaştirişga boğliq ta'sirlar

Foydalaniş bosqiçidagi çiqindilarni boşqariş faoliyati xavfli va xavfli bölmagan çiqindilar, jumladan texnik xizmat körsatiş natijasida hosil böladigan çiqindilar hamda kimyoviy modda idişlari bilan muomala qiliş va vaqtinça saqlaşni öz içiga oladi. Çiqindilar bilan muomala qiliş joylari odatda qoplamali va himoya tösiqlari bilan öralgan böladi, bu tuproqning bevosita ta'sirga uçraşini kamaytiradi. Biroq yaqin atrofdagi qoplamasiz joylarda tasodifiy tökilişlar, sizib çiqişlar yoki hududni talab darajasida ozoda saqlamaslik tuproq ifloslanişiga olib kelişi mumkin.

Çiqindilar bilan boğliq ifloslantiruvçi moddalar qayta töldirilgan yoki tabiiy tuproqqa şimigan taqdirda, yuqori ötkazuvçanlik sababli sayoz yer osti suviga tez yetib borişi mumkin. Çiqindilarni töğri boşqariş amaliyoti qöllansa, bunday ta'sirlar mahalliy doirada qolişi kutiladi. Şunga qaramay, yer osti suvi resurslaridan foydalanadigan yaqin atrofdagi fermerlar va jamoalarga bilvosita ta'sir körsatişi mumkin. Şu sababli ta'sir kölami kiçik deb baholanadi.

10.5.5 Foydalaniş bosqiçida geologiya, tuproq, yer osti suviga ta'sirlarni baholaş yakuni

Tuproq va yer osti suvi qabul qiluvçi obyektlariga ehtimoliy ta'sirlar, tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda bu çoralar qöllanganidan keyingi qoldiq ta'sirlar quyidagi jadvalda umumlaştirilgan.

10.11-jadval. Foydalaniş bosqiçida geologiya, tuproq, yer osti suviga ta’sirlarni baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
Yoqilği bilan muomala qiliş va texnik xizmat körsatiş faoliyati natijasida tuproq hamda yer osti suvining ifloslanişi	Kiçik	Tuproq sifati	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
		Yer osti suvi sifati	Yuqori	Örtaça	Kiçik
		Loyiha hududidagi işçilar	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
Muzdan tozalaş faoliyati natijasida yer osti suviga ta’sirlar	Örtaça	Yer osti suvi sifati	Yuqori	Örtaça	Ahamiyatsiz
Yonğin söndiriş va favqulodda vaziyatlarga javob beriş faoliyati natijasida yer osti suvining ifloslanişi	Örtaça	Yer osti suvi va yaqin atrofdagi ekotizimlar	Yuqori	Örtaça	Ahamiyatsiz
Qoplamali yuzalardan yomğir suvi oqimi	Kiçik	Tuproq sifati	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
		Yer osti suvi sifati	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Çiqindilar bilan muomala qiliş va ularni yakuniy joylaştirişga boğliq ta’sirlar	Kiçik	Tuproq sifati	Örta	Kiçik	Ahamiyatsiz
		Yer osti suvi sifati	Yuqori	Örtaça	Ahamiyatsiz

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Kimyoviy moddalar, yoqilği va texnik xizmat körsatiş faoliyati natijasidagi ifloslanişning oldini oliş va kamaytiriş çoralari

- Ifloslaniş ehtimoli bölgan joylardan, jumladan, yoqilği omborlari va perronlardan oqadigan yomğir suvi toza oqimdan ajratiladi.
- Yoqilği saqlaş baklari va yoqilği quyiş nuqtalari atrofida moy-suv ajratgiçlari, tomçi yiğiş tagliklari hamda tutib qoliş tösiqlari örnatiladi va soz holda saqlanadi.
- Tökilişni bartaraf etiş töplamlari, şimdiruvçi materiallar, tayyorlangan xodimlardan zudlik bilan foydalaniş imkonini qamrab oladigan tökilişlarga javob beriş tartiblari joriy etiladi.
- Yoqilği saqlaş joylari, yoqilği quyiş hududlari, yer osti saqlaş idişlarida (YSI/UST) sizib çiqiş yoki yomonlaşiş belgilari mavjudligi muntazam tekşiriladi.
- Moddalarning şimiş xavfini kamaytiriş uçun yer osti suvi sathi sayoz bölgan hududlarga bevosita kiriş çeklanadi.
- Texnik xizmat körsatiş va muzdan tozalaş hududlaridan oqadigan suv alohida yiğiladi hamda maxsus tozalaş inşootlariga yönaltiriladi.
- Barça kimyoviy moddalar ikkilamçi tutib qoliş tizimlarida, masalan, tösiq bilan öralgan hududlar yoki qoplamali saqlaş maydonçalarida saqlanadi.
- Kimyoviy moddalardan xavfsiz foydalaniş, ularni saqlaş, yakuniy joylaştiriş böyiça xodimlarni öqitişni ham qamrab oladigan tegişli muomala tartiblari qöllanadi.
- Ifloslanişni erta aniqlaş uçun texnik xizmat körsatiş va kimyoviy moddalar bilan muomala qiliş hududlari yaqinidagi tuproq hamda yer osti suvi kuzatiladi.
- Ayniqsa, ötkazuvçan tuproqlarga yaqin joylarda muzdan tozalaş va muzlaşning oldini oliş kimyoviy moddalari eng kam miqdorda va nazorat ostida qöllanadi.

per- va poliftoralkil moddalar va yonğin söndiriş köpigidan foydalanişga oid oldini oliş va kamaytiriş çoralari

- Texnik jihatdan mumkin bölgan joylarda ftorsiz yonğin söndiriş köpiklaridan (F3) foydalanişga ustuvorlik beriladi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
• Yonğinni söndiriş köpigidan faqat ikkilamçi tutib qoliş vositalari mavjud belgilangan öquv-maşq va favqulodda vaziyat hududlarida foydalaniladi. • per- va poliftoralkil moddalarning tuproq yoki yer osti suviga köçişining oldini oliş uçun yonğin söndiriş maşqlaridan oqib çiqqan suv çiqarişdan oldin yiğiladi va tozalanadi. • Tarkibida per- va poliftoralkil moddalar bölgan köpikdan foydalanişga oid barça qaydlar yuritiladi hamda mavjud eski zaxiralar xavfsiz saqlanadi. • Köpik qöllanişi mumkin bölgan hududlar yaqinidagi yer osti suvi muntazam kuzatiladi. <u>Yomğir suvi oqimi ta’sirining oldini oliş va kamaytiriş çoralari</u> • Uçiş-qöniş yölaklari, rullaş yölaklari, perronlar, xizmat yöllaridan oqadigan barça suv moy-suv ajratgiçlari hamda çökindini tutiş qurilmalari örnatilgan muhandislik drenaj tizimlari orqali yönaltiriladi. • Tozalangan yomğir suvini Çirçiq daryosiga xavfsiz yetkaziş uçun ğarbiy çegaradagi uçta nazorat qilinadigan çiqariş nuqtasi soz holda saqlanadi. • Uglevodorodlar, oğir metallar va rezina qoldiqlari töplanişining oldini oliş uçun qoplamali yuzalar muntazam tozalanadi va ularga texnik xizmat körsatiladi. • Oqim eng yuqori bölgandagi suv hajmini boşqariş va çiqariş nuqtalaridagi eroziyani kamaytiriş uçun suvni saqlaş yoki vaqtinça tutiş havzalaridan foydalaniladi. • Suv sifati standartlariga muvofiqlikni ta’minlaş uçun yomğir suvining sifati çiqarişdan oldin kuzatiladi. <u>Çiqindilarni boşqariş bilan boğliq oldini oliş va kamaytiriş çoralari</u> • Tuproqqa şimişning oldini oliş uçun barça xavfli çiqindilar ikkilamçi tutib qoliş vositalari bölgan maxsus, qoplamali, tösiqlar bilan öralgan joylarda saqlanadi. • Xavfli çiqindilarni saqlaş joylari yopiq, aniq belgilangan, suv ötkazmaydigan pol va tökilişlarni tutib qoliş tizimlari bilan jihozlangan böladi. • Çiqindilar bilan muomala qiliş joylariga xos tökilişlarning oldini oliş va favqulodda vaziyatlarga javob beriş tartiblari joriy etiladi. • Milliy me’yoriy hujjatlarga muvofiq, litsenziyaga ega çiqindi pudratçilari çiqindilarni muntazam yiğib, ularga loyiha hududidan taşqarida işlov berişi yoki ularni yakuniy joylaştirişi ta’minlanadi. • XMK/IFCning AMSX/EHS yöriqnomalariga muvofiq Çiqindilarni boşqariş rejasi (ÇBR/WMP) işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. Rejada çiqindilarni tasniflaş, saqlaş, ular bilan muomala qiliş, taşiş, yakuniy joylaştiriş tartiblari batafsil bayon etiladi.					

10.6 Kuzatuv

Kuzatuvga qöyiladigan eng kam talablar quyidagi jadvalda bayon etilgan. Yakuniy kuzatuv usuli tegişli qurilişyoki foydalaniş bosqiçi uçun maxsus “Atrof-muhit va ijtimoiy kuzatuv rejasi”da işlab çiqiladi. Bu reja AMIBT/ESMSning bir qismi böladi va kuzatuv joylari, davriyligi, davomiyligi hamda körsatkiçlarini aniq belgilaydi.

10.12-jadval. Tuproq va yer osti suvini kuzatiş talablari

Kuzatuv	Körsatkiçlar	Davriylik va davomiylik	Joy
Qurilişş			
Tuproq va yer osti suvi sifati	Uglevodorodlar va boşqa ehtimoliy xavfli kimyoviy moddalarning közga körinadigan tökilişlari hamda sizib çiqişlari	Qurilişş davrida haftasiga bir marta	Qurilişş davrida butun loyiha hududi
	Yer osti suvida ammoniy azoti, uglevodorodlar, oğir metallar, erkin xlor, şörlik yoki erigan qattiq moddalarning umumiy miqdori, moylar va yoğlar, KBE/BOD, kislorodga kimyoviy ehtiyoj (KKE/COD), fenollar hamda pH konsentratsiyasi	Qurilişş davrida har çorakda	Loyiha hududida örnatiladigan qöşimça quduqlar
	Uglevodorodlar, jumladan, UNU/TPH hamda benzol, toluol, etilbenzol va ksilol (BTEX)	Qurilişdan oldin	AMITB/ESIA doirasidagi boşlanğiç holat uçun namuna olingan joylardan tuproq namunalari.
Taşqaridan keltirilgan töldirma materialni tekşiriş	Taşqi karyerlardan keltirilgan tuproqni joylaştirişdan oldin maqbul tuproq sifati mezonlariga muvofiqligini tasdiqlaş uçun undan vakillik qiluvçi namunalar olinadi. Eng kamida oğir metallar va UNU/TPH tekşiriladi.	Vakillik joylaridan tasodifiy namuna oliş	Töldirma material olinadigan barça karyerlar
Foydalaniş bosqiçi			
Ifloslaniş belgilarini aniqlaş uçun tekşiruvlar	Quyidagilarni davriy közdan keçiriş:	Haftasiga bir marta	Qoplamasiz va obodonlaştirilgan joylar, drenaj kanallari hamda çiqindilar bilan muomala qiliş joylari
Yer osti suvi sifati	Yer osti suvida uglevodorodlar, oğir metallar, erkin xlor, şörlik, moylar va yoğlar hamda pH konsentratsiyasi	Yiliga bir marta	Aeroport çegaralari içida örnatilgan kuzatuv quduqlari

11.0 Suv va suv resurslari

11.1 Amaldagi talablar va standartlar

11.1.1 Milliy standartlar

Özbekistonda suv resurslarini boşqariş, taqsimlaş va ulardan foydalaniş Özbekiston Respublikasi Suv xöjaligi vazirligi vakolatiga kiradi. Vazirlik suv resurslari böyiça milliy ixtisoslaştirilgan birlaşmalar, viloyat va tuman bölimlari, şuningdek, viloyatlararo hamda tumanlararo kanallarni boşqariş idoralari faoliyatini nazorat qiladi.

Özbekistonda suv obyektlarining turiga qarab turli standartlar qöllanadi. Foydalaniş maqsadiga köra, suv obyektlari maişiy, baliq xöjaligi, kommunal va suğoriş toifalariga ajratiladi. Maişiy suv obyektlari tozalangandan keyin içimlik suvi manbai sifatida qöllanişi mumkin. 11.1-jadvalda foydalaniş turi böyiça tasniflangan suv obyektlariga oqova suv çiqarişga doir umumiy milliy standartlar keltirilgan.

11.1-jadval. Yer osti va yer usti suv obyektlarining tarkibi hamda xususiyatlari[44]

Körsatkiçlar	Suvdan foydalaniş maqsadi va toifalari	
	I	II
Muallaq qattiq moddalar	Oqova suv çiqarilganidan, suv havzasida, sohil hududida va nazorat nuqtasida işlar bajarilganidan söng suvdagi qattiq moddalar miqdori quyidagi me'yordan oşmasligi kerak:	
	0,25 mg/dm^3	0,75 mg/dm^3
	Muallaq qattiq moddalar miqdori 30 mg/dm^3 dan ortiq bölgan suv havzalarida ularning miqdori 5 foizdan oşmasligi kerak.	
	Oqimi yuqori suv havzalarida çökindi zarraçalarining çökiş tezligi 0,4 mm/s dan oşmasligi, oqimi past suv havzalarida esa 0,2 mm/s dan yuqori bölişi kerak.	
Suzuvçi moddalar	Suv yuzasida neft mahsulotlari, moylar yoki boşqa ifloslantiruvçi moddalar töplanişi yoxud parda hosil bölişi mumkin emas.	
Rang	Belgilangan balandlikdagi ustunda aniqlanmasligi kerak	
	20 m	10 m
Hid	Suv hidining kuçi 2 balldan oşmasligi kerak:	
	Bevosita yoki keyingi xlorlaş vaqtida	Bevosita
Harorat	Oqova suv çiqarilişi natijasida yoz faslidagi suv harorati sönggi 10 yil davomidagi yilning eng issiq oyiga xos örtaça oylik suv haroratidan 3 °C dan ortiq oşmasligi kerak	
Vodorod körsatkiçi (pH)	6,5-8,5 oraliğidan çiqmasligi kerak	
Minerallaniş	1000 mg/dm³ dan, şuningdek, xloridlar 350 mg/dm³ dan oşmasligi kerak; sulfatlar 500 mg/dm³ dan oşmasligi kerak	
Erigan kislorod	Yilning istalgan vaqtida soat 12 ga qadar olingan namunadagi miqdor kamida 6 mg/dm^3 bölişi kerak.	Yilning istalgan vaqtida soat 12 ga qadar olingan namunadagi miqdor kamida 4 mg/dm^3 bölişi kerak.
KBE/BOD	Harorat 20˚C dan oşmasligi kerak.	
	3 mgO_2/dm^3	6 mgO_2/dm^3
KKE/COD	Harorat 20˚C dan oşmasligi kerak.	
	15 mgO_2/dm^3	30 mgO_2/dm^3

[44] Yer osti va yer usti suv havzalarini muhofaza qiliş böyiça 0083-24-sonli SQM/SanR&N, 5-ilova, 2024-yil.

Körsatkiçlar	Suvdan foydalaniş maqsadi va toifalari	
	I	II
Içak infeksiyalarini keltirib çiqaruvçilar	Suvda içak infeksiyalarini keltirib çiqaradigan kasallik qözğatuvçilar bölmasligi kerak	
Yaşovçan gelmint tuxumlari va kasallik qözğatuvçi içak sodda jonivorlarining yaşovçan sistalari	25 litr suvda bölmasligi kerak.	
Issiqqa çidamli koliform bakteriyalar	Mavjud bölmasligi kerak:	
	100 koloniya hosil qiluvçi birlik/100 ml[45]	100 koloniya hosil qiluvçi birlik/100 ml
Koliform bakteriyalar guruhi	Mavjud bölmasligi kerak:	
	1000 koloniya hosil qiluvçi birlik/100 ml	N/A
Kolifaglar	Mavjud bölmasligi kerak:	
	10 blyaşka hosil qiluvçi birlik/100 ml[46]	N/A

Suv obyektlarining asosiy foydalaniş maqsadiga qarab, ifloslantiruvçi moddalarning REYK/MPC qiymatini belgilovçi mahalliy me'yoriy hujjatlar mavjud. Bu konsentratsiyalar [47]11.2-jadvalda körsatilgan.

11.2-jadval. Yer osti va yer usti suv obyektlaridagi kimyoviy moddalarning ruxsat etilgan konsentratsiyalari

Ifloslantiruvçi moddalar	Kommunal maqsadlar[48]	Aralaştirmasdan bevosita suğoriş uçun foydalaniş BMT OOQXT/FAO[49]	Içimlik suvi	
			Milliy[50]	JSST/WHO[51]
KKE/COD	30	-	30	
KBE_{20}/BOD_{20}, mg O_2/l	3-6	-	3-6	
pH	6.5-8.5	6.5-8.5	6-9	6.5-8.5
Minerallaniş	1000	0-2000	1000(1500)	1000
Sulfatlar	500	1900	400(500)	-
Xloridlar	350	300	250(350)	-
Ammoniy azoti + (ammoniy tuzi) (NH4)	2	0-5	0.5	-
Azot	25	-	45	
Nitrit azoti	0.5	0-10	3	
Nitrit	3.0	-	3	3
Nitrat	45	-	45	50
Fosfat (PO3-)	1	0-2	3.5	-
Efirda eruvçi moddalar	0.8	-	0.8	-

[45] Koloniya hosil qiluvçi birliklar
[46] Pilakça hosil qiluvçi birliklar

[47] Yer osti va yer usti suv havzalarini muhofaza qiliş böyiça 0083-24-sonli SQM/SanR&N, 5-ilova, 2024-yil.
[48] Yer osti va yer usti suv havzalarini muhofaza qiliş böyiça 0083-24-sonli SQM/SanR&N, 6-ilova, 2024-yil
[49] BMT OOQXT/FAO, «Qişloq xöjaligi uçun suv sifati» qöllanmasi, 1985-yil (1994-yil). http://www.fao.org/3/t0234e/t0234e01.htm
[50] ÖzMSt 133:2024, «Içimlik suviga qöyiladigan gigiyena talablari va sifat nazorati», 2024-yil
[51] JSST/WHO, «Içimlik suvi sifati böyiça qöllanma», törtinçi naşr, 2017-yil

Ifloslantiruvçi moddalar	Kommunal maqsadlar[48]	Aralaştirmasdan bevosita suğoriş uçun foydalaniş BMT OOQXT/FAO[49]	Içimlik suvi	
			Milliy[50]	JSST/WHO[51]
Neft mahsulotlari	0.3		0.1	-
Sirt faol moddalar	0.5		0.5	-
Fenol	0.001		0.001	-
Ftor (F)	1.5		0.7	1.5
Margimuş (As)	0.01		0.05	0.01
Temir (Fe)	0.3		0.3	-
Xrom (Cr6+)	0.1		0.05	0.05
Mis (Cu)	1		1	2
Rux (Zn)	5		3	-
Sianidlar	0,07		0,035	0
Qörğoşin (Pb)	0,01		0,03	0.01
Nikel (Ni)	0,02		0,1	0.07
Kadmiy (Cd)	0,001		-	0.003
Kobalt (Co)	0.1		-	-
Molibden (Mo)	0,07		0,25	-
Stronsiy (Sr2+)	7		7	-
Selen (Se)	0.01		0,01	0.04
Simob (Hg)	0,0005		0,0005	0.006
Bor (B)	0.5	0-7-3	0.5	2.4

11.1.2 Kreditorlar talablari

XMK/IFCning faoliyat standartlari, YTTB/EBRDning atrof-muhit va ijtimoiy talablari hamda JBG/WBGning atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik böyiça yöriqnomalari

Suv sarfi

Loyiha kreditorlari XMK/IFCning “Resurslardan samarali foydalaniş va ifloslanişning oldini oliş” nomli 3-faoliyat standartiga rioya etilişini talab qiladi. Standart *iqtisodiy faoliyat va şaharlanişning ösişi köpinça havo, suv va yer ifloslanişini kuçaytirişini tan oladi. Şuningdek, çeklangan resurslarning sarflanişi mahalliy, mintaqaviy va jahon miqyosida insonlar hamda atrof-muhitga tahdid tuğdirişi mumkinligini qayd etadi.*

XMK/IFCning 3-faoliyat standartiga köra, buyurtmaçi suv sarfiga nisbatan resurslardan samarali foydalaniş çoralarini qöllaşi kerak. Bundan taşqari, *loyiha suv sarfi boşqalarga sezilarli salbiy ta’sir körsatmasligi uçun buyurtmaçi suvdan foydalanişning oldini oladigan yoki uni kamaytiradigan çoralarni qabul qilişi kerak*. *Bu çoralar buyurtmaçi faoliyatida texnik jihatdan mumkin bölgan qöşimça suv tejaş usullarini va muqobil suv manbalaridan foydalanişni qamrab oladi. Ular, şuningdek, suv resurslariga jami talabni mavjud ta’minot darajasigaça kamaytiradigan suv sarfini qoplaş çoralari va loyiha joylaşuvining muqobil variantlarini baholaşni qamrab oladi. Röyxat bu çoralar bilan çeklanmaydi.*

JBG/WBGning Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik böyiça umumiy yöriqnomalarida ham suvni tejaşga doir batafsil tavsiyalar berilgan. Ular jarayon suvidan qayta foydalaniş va uni qayta işlaş, bino inşootlaridan samarali foydalaniş hamda isitiş va sovitiş tizimlarini boşqarişni qamrab oladi. Yöriqnomalarda, şuningdek, yer usti suv havzalariga oqizişdan oldin suv sifatini kuzatiş va suv resurslarini umumiy boşqariş kabi suv kuzatuvining yetakçi amaliyotlari ta’kidlangan.

YTTB/EBRDning 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabida quyidagilar tavsiya etiladi:

Xalqaro yetakçi amaliyotga muvofiq suv sarfini kamaytiriş va suvni qayta yiğiş uçun texnik hamda moliyaviy jihatdan amalga oşiriş mumkin, şuningdek, iqtisodiy samarali bölgan barça imkoniyatlar aniqlanadi va loyiha yeçimida körib çiqiladi. Loyiha uçun alohida suv ta’minotini yölga qöyiş zarur bölsa, buyurtmaçi imkon qadar texnik maqsadlarda inson iste’moli uçun yaroqsiz suvdan foydalanişga intiladi.

Suv sifati

JBG/WBGning Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik böyiça umumiy yöriqnomalarining 3.1-bölimida suv sifati va uning mavjudligi masalasi yoritilgan. Unda oqova suvni oqiziş, suv oliş, oqimni özgartiriş yoki suvni töplab qöyiş bilan boğliq loyiha faoliyati yer osti va yer usti suv resurslarining sifati hamda mavjudligiga salbiy ta’sir körsatmasligi kerakligi belgilangan.

Atrofdagi suv sifatiga doir maxsus standartlar mavjud emas, şuning uçun bunday sifat körsatkiçlari milliy standartlar yoki sohadagi boşqa yetakçi amaliyot standartlariga asoslanadi.

JBG/WBGning atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik böyiça umumiy yöriqnomalaridan taşqari, JBG/WBGning aeroportlar uçun atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik yöriqnomalari ham loyihaga qöllanadi. Bu yöriqnomalarda jala suvi va oqova suv uçun muayyan sifat standartlari belgilanmagan bölsa-da, mahalliy aholiga körsatilişi mumkin bölgan salbiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlarning oldini oliş uçun bu suvlarni samarali boşqariş zarur. Yöriqnomalarda jala suvi va oqova suv oqizilmalari bilan boğliq ta’sirlarning oldini oliş va ularni nazorat qilişga qaratilgan bir neça usul tavsiya etiladi. Bular kimyoviy moddalar va yoqilği sizib çiqişi yoki tökilişi xavfi yuqori joylardan keladigan jala suvini boşqa oqimlardan ajratiş va tozalaşni, şuningdek, yer usti suv havzalariga oqizişdan oldin moy-suv ajratgiçlaridan foydalanişni qamrab oladi.

Aviatsiya sohasi talablari

XFAT/ICAO suv resurslarini muhofaza qiliş, ifloslanişning oldini oliş hamda suv resurslaridan barqaror foydalaniş va ularni oqilona sarflaşga qaratilgan “Aeroportlarda suvni boşqariş” yöriqnomasini işlab çiqqan.

XFAT/ICAO belgilagan ayrim talablar aeroportni loyihalaş bosqiçiga oid bölib, unda muayyan loyihaviy jihatlar hisobga olinişi kerak. Ular jala suvi drenaj tizimining loyihasi va ötkaziş quvvatini qamrab oladi; bunda takrorlaniş davri va qiyalik darajalari asosiy loyiha körsatkiçlari hisoblanadi. Şuningdek, ifloslanişni nazorat qiliş masalasi loyihalaş bosqiçidayoq hal etilişi, yoqilği tökilişi xavfi mavjud joylarda esa moy-suv ajratgiç tizimi nazarda tutilişi kerak.

XFAT/ICAO yöriqnomalari va talablarida muzdan tozalaş hamda muzlaşning oldini oliş suyuqliklarini boşqarişga alohida urğu beriladi. Aeroportlar glikolni qayta yiğiş va boşqariş tartiblarining bir qismi sifatida işlatilgan muzdan tozalaş suyuqliklarining kamida 60 foizini qayta yiğişi kerak (XFAT/ICAO Doc 9137). Muzdan tozalaş hududlarida suv ötkazmaydigan maydonçalar va yiğuvçi drenajlar bilan jihozlangan tutib qoliş tizimlari örnatilişi kerak.

XFAT/ICAO oqizişdan oldin yuza oqimidagi glikol konsentratsiyasi 10 mg/l dan kam bölişini ekologik çegaraviy qiymat sifatida belgilaydi.

11.2 Baholaş doirasini belgilaş

Bu bobda quriliş va foydalaniş bosqiçlarida loyihaning hududdagi yer usti suv tizimlariga ehtimoliy ta’sirlari körib çiqiladi. Yer osti suvlari “Gidrogeologiya” bobida alohida baholangani uçun bu bölim qamroviga kiritilmagan.

Baholaş doirasini belgilaşda loyihaning faol qişloq xöjaligi hududida joylaşgani, loyiha egallaydigan maydonda keng suğoriş va drenaj tarmoği mavjudligi hamda kengroq hududdagi asosiy qabul qiluvçi suv havzasi bölgan Çirçiq daryosining yaqinligi hisobga olingan.

Yer usti suvlarining boşlanğiç holati böyiça namuna oliş hamda mavjud gidrologik va yerdan foydalaniş ma’lumotlarini körib çiqişga tayangan sifat jihatidan ta’sirni baholaş yondaşuvi qabul qilingan. Baholaşda quriliş va foydalaniş bosqiçlarida suv sifati, drenaj tartibi, yuza oqimi xususiyatlari hamda oqimning quyi qismidagi qabul qiluvçi obyektlarda yuz berişi mumkin bölgan özgarişlar hisobga olinadi.

11.3 Loyiha ta’sir qilişi mumkin bölgan obyekt

Suv va suv resurslari böyiça loyiha ta’sir qilişi mumkin deb aniqlangan obyektlar 11.3-jadvalda keltirilgan.

11.3-jadval. Loyiha suv resurslari orqali ta’sir qilişi mumkin bölgan obyektlar

Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Çirçiq daryosi	**Yuqori**	Çirçiq daryosi suğoriş, baliqçilik, sanoat ta’minoti va içimlik suvi oliş uçun foydalaniladigan mintaqaviy ahamiyatga ega suv resursidir. U strategik ahamiyatga ega, köp maqsadda foydalaniladigan qabul qiluvçi obyekt hisoblanadi. Suv sifatining har qanday yomonlaşişi yoki oqim tartibining özgarişi keng hududga ta’sir körsatişi va bir neçta foydalanuvçi guruhga zarar yetkazişi mumkin.
Suğoriş kanallari	**Yuqori**	Suğoriş kanallari atrofdagi ekin maydonlarining qişloq xöjaligi unumdorligi uçun juda muhim. Ular fermer xöjaliklariga suvni bevosita yetkazib beradi va gidravlik jihatdan oqimning quyi qismidagi foydalanuvçilar bilan boğlangan. Quriliş yoki foydalaniş bosqiçida oqimning kamayişi, tösiq paydo bölişi, çökindi töplanişi yoki ifloslaniş ekinlar hosildorligi hamda fermerlarning tirikçilik manbalariga bevosita ta’sir körsatişi mumkin.
Yer usti va yer osti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar,	**Yuqori**	Suğoriş, maişiy ehtiyojlar va baliqçilik uçun kanal hamda daryo suviga tayanadigan oqimning quyi qismidagi foydalanuvçilar suv resurslarining miqdoriy va sifat özgarişlariga sezgir. Suv sifatining hatto qisqa muddatli yomonlaşişi, masalan, uglevodorodlar, çökindilar yoki oqova

Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
xonadonlar va baliqçilar		suv oqizilişi tirikçilik manbalari va soğliqqa ta'sir körsatişi mumkin.
Loyiha hududidagi qişloq xöjaligi drenaj kanallari	**Örta**	Drenaj ariqlari asosan qişloq xöjaligi yerlaridan qaytadigan suv va ortiqça suğoriş suvini yiğadi. Ulardan odatda bevosita suv olinmasa-da, ular kengroq suğoriş tarmoğining bir qismidir va ular orqali oqim loyiha yanada kuçliroq ta'sir qilişi mumkin bölgan obyektlarga yetib borişi mumkin. Suv sifatining vaqtinçalik yomonlaşişi, katta ehtimol bilan, mahalliy hudud bilan çeklanadi va dastlabki holatiga qaytadi.

11.4 Kuzatuvlar va boşlanğiç holat

11.4.1 Suv resurslari

Loyiha hududi çegarasida tabiiy yer usti suv havzalari mavjud emas. Biroq hududni atrofdagi keng ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydigan yirikroq mintaqaviy suğoriş tizimiga kiruvçi suğoriş va qişloq xöjaligi drenaj kanallari tarmoği kesib ötadi. Bu kanallar mahalliy qişloq xöjaligi işlab çiqarişining ajralmas qismi hamda suvni boşqarişning muhim infratuzilmasidir.

Oçiq drenaj ariqlari (2.7-rasmga qarang) loyiha egallaydigan hudud içidagi va unga tutaş qişloq xöjaligi dalalari orasida, odatda, yer sathidan past joylarda kuzatilgan. Bu kanallar atrofdagi qişloq xöjaligi yerlaridan qaytadigan suğoriş suvi va yer usti oqimini töplab, kengroq suğoriş tarmoği orqali oqimning quyi qismiga uzatadi. Demak, loyiha hududida tabiiy suv oqimlari bölmasa-da, hudud gidrologik jihatdan mintaqaviy yer usti suvi tizimi bilan boğlangan.

Eng yaqin tabiiy yer usti suv obyekti Çirçiq daryosi bölib (2.17-rasmga qarang), u loyiha çegarasidan taxminan 2,3 km ğarbda joylaşgan. Çirçiq daryosi Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo bölgan Sirdaryoning yirik irmoğidir. Daryoning umumiy uzunligi taxminan 174 km, suv yiğiş havzasining maydoni esa taxminan 14 240 km².

Gidromorfologik jihatdan Çirçiq daryosi ikki asosiy qismga bölinadi. Yuqori oqim Çotqol va Piskom daryolari qöşilgan joydan Çirçiq gidroelektr stansiyasining suv oliş inşootlarigaça taxminan 29 km davom etadi. Quyi oqim esa gidroelektr stansiyasining suv oliş inşootlaridan Sirdaryo bilan qöşilgan joygaça taxminan 145 km davom etadi.

Çirçiq daryosi strategik ahamiyatga ega mintaqaviy suv resursidir. Undan suğoriş, sanoat ta'minoti, baliqçilik va içimlik suvi oliş uçun foydalaniladi. Toşkent viloyatidagi qişloq xöjaligi faoliyatini qöllab-quvvatlaş uçun köp sonli suğoriş kanallari daryodan suv oladi. Daryo baliq xöjaligi suv havzasi sifatida ham tasniflangan bölib, bu oqova suv çiqariş sifatiga muayyan me'yoriy talablarni belgilaydi.

Bu baholaşda hududdagi yer usti suv resurslari ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim qabul qiluvçi obyektlar hisoblanadi. Bunga loyiha hududidagi suğoriş tarmoği bilan kengroq daryo havzasi örtasidagi gidravlik boğliqlik sabab böladi. Çirçiq daryosidan oqimning quyi qismida köp maqsadda foydalanilgani ham hisobga olinadi.

11.4.2 Aholining suvdan foydalanişi

AMITB/ESIA bosqiçida ötkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqot yaqin atrofdagi aholi punktlari maişiy va içimlik suvi ehtiyojlari uçun asosan mahalliy yer osti suvini tortib oliş tizimlariga tayanişini körsatadi. Bu ma'lumotlar 11.4- va 11.5-jadvallarda aks etgan. Xonadonlarning köpçiligi suvni umumiy maişiy va içimlik ehtiyojlari uçun asosiy ta'minot manbai bölgan suv nasos qurilmalari, ya'ni "kaçalka"lar orqali oladi.

Uy içidagi markazlaştirilgan quvurli suv tarmoğidan foydalaniş imkoniyati nisbatan çeklangan bölib, xonadonlarning faqat oz qismiga xizmat körsatadi. Xonadonlarning bir oz köproq qismi taşqi yoki umumiy suv ta'minoti tizimlaridan foydalaniş imkoniga ega ekanini bildirgan, ammo bu ham yer osti suvini nasos orqali olişga nisbatan ikkilamçi manba bölib qolmoqda.

Içimlik suvi uçun ham nasos qurilmalariga tayaniş asosiy örinda qolmoqda, biroq xonadonlarning sezilarli qismi yetkazib beriladigan va sotib olinadigan yoki idişga quyilgan suv bilan ta'minotini töldiradi. Bu yer osti suvini nasos orqali oliş suvdan keng foydalaniş imkonini ta'minlasa-da, ayrim aholi vakillari içimlik suvi sifatiga işonç hosil qiliş uçun muqobil manbalarni izlaşi mumkinligini körsatadi. Daryo kabi yer usti suvi manbalaridan maişiy yoki içimlik maqsadlarda foydalaniş juda kam uçraydi.

Umuman olganda, ma'lumotlar xonadonlarni suv bilan ta'minlaşda sayoz qatlamdagi yer osti suvlarini tortib olişga kuçli qaramlik va rasmiy markazlaştirilgan suv infratuzilmasiga çeklangan darajada tayaniş mavjudligini körsatadi. Bu holat loyiha hududidagi yer osti suvlarining sifati va mavjudligini muhofaza qiliş naqadar muhimligini körsatadi, çunki mahalliy gidrogeologik şaroitlarning özgarişi aholining barqaror suv ta'minotiga bevosita ta'sir qilişi mumkin.

11.4-jadval. Jamoalarning maişiy suv manbalari

Maişiy ehtiyojlar uçun suv manbai	Erkak boşçiligidagi xonadon	Ayol boşçiligidagi xonadon
Uydagi markaziy suv quvuri	10%	11%
Taşqi suv ta'minoti tizimi	1%	2%
Mahalliy artezian quduği	3%	1%
Tabiiy buloqlar	0.5%	1%
Qöl nasoslari (kaçalka)	81%	83%
Yetkazib beriladigan va sotib olinadigan suv	1%	0%
Daryo, kanal, hovuz va ariqlardagi suv	1%	1%
Boşqa manbalar	0.5%	0%

11.5-jadval. Jamoalarning içimlik suvi manbalari

Içimlik maqsadidagi suv manbai	Erkak boşçiligidagi xonadon	Ayol boşçiligidagi xonadon
Uydagi markaziy suv quvuri	10%	13%
Taşqi suv ta'minoti tizimi	6%	2%
Mahalliy artezian quduği	3%	1%
Qöl nasoslari (kaçalka)	61%	67%
Yetkazib beriladigan va sotib olinadigan suv	10%	11%
Dökonlar yoki savdo avtomatidan olinadigan idişdagi suv	7%	4%
Daryo, kanal, hovuz va ariqlardagi suv	1%	1%
Boşqa manbalar	0.5%	0%

11.4.3 Yer usti suvlarining sifati

11.4.3.1 Yer usti suvlarining boşlanğiç holati tadqiqotlari

Yer usti suvlarining boşlanğiç holatini aniqlaş uçun loyiha egallaydigan hududdagi mavjud suğoriş va drenaj kanallaridan namunalar olingan. Hozir bu kanallardan qişloq xöjaligini suv bilan ta'minlaş va qaytma oqimlarni ötkaziş uçun foydalaniladi. Mahalliy dehqonçilik uçun muhim bölganligi sababli, ular loyiha ta'sir qilişi mumkin bölgan obyektlar hisoblanadi.


Bundan taşqari, loyiha hududining Çirçiq daryosiga yaqinligi va tozalangan yuza oqimi oxir-oqibat bu daryo tizimiga oqizilişi mumkinligi taxmin qilingani sababli, Çirçiq daryosining boşlanğiç holati böyiça namuna oliş ham baholaş doirasiga kiritilgan.

Çirçiq daryosidan jami tört (4) ta, suğoriş va drenaj kanallaridan esa tört (4) ta namuna olingan. Namuna oliş joylari 11.1-rasmda körsatilgan. Barça namunalar Toşkentdagi tasdiqlangan laboratoriyada tahlil qilingan.

Yer usti suvlaridan namuna oliş Çirçiq daryosi hamda loyiha hududini kesib ötadigan va uning atrofida joylaşgan suğoriş va drenaj kanallari tarmoğinin vakillik boşlanğiç holatini aniqlaş uçun rejalaştirilgan. Bular loyihaning ehtimoliy ta'siriga uçraşi mumkin bölgan asosiy yer usti suvi qabul qiluvçi obyektlaridir.

Namuna oliş joylari loyiha hududiga yaqinlik, mahalliy drenaj va suğoriş tarmoği, yetib boriş imkoniyati hamda suv sifatidagi ehtimoliy hududiy farqlarni qamrab oliş zarurati kabi omillar birikmasi asosida tanlangan. Loyihaga eng yaqin daryo qismida vakillik qamrovini ta'minlaş va oqimning yuqori hamda quyi qismidagi ta'sirlar bilan boğliq suv sifati özgarişlarini hisobga oliş uçun Çirçiq daryosidan namunalar olingan.

Şu tariqa, umumiy namuna oliş strategiyasi asosiy tabiiy suv oqimi, ya'ni Çirçiq daryosi hamda loyiha hududiga xos mahalliy suğoriş va drenaj tarmoğinin boşlanğiç holatini vakillik darajasida qamrab oliş uçun işlab çiqilgan. Bu kelajakda loyiha bilan boğliq har qanday özgarişni taqqoslab baholaş uçun tegişli boşlanğiç asosni yaratgan.



11.1-rasm. Yer usti va yer osti suvlaridan namuna olingan joylar

Tahlil körsatkiçlari majmuasi qişloq xöjaligida yerdan foydalaniş ta'siri va aeroport bilan boğliq ehtimoliy ifloslantiruvçi moddalarni aks ettirişga möljallangan. Quyidagi körsatkiçlar tahlil qilingan:

- pH
- Nitrat va fosfat
- Tanlangan oğir metallar
- KBE/BOD
- KKE/COD

Laboratoriya tahlili natijalari 11.6-jadvalda keltirilgan va yer osti hamda yer usti suv obyektlarini himoya qilişga doir amaldagi milliy REYK/MPClar bilan taqqoslangan.

11.6-jadval. Yer usti suvi kimyoviy tahlili natijalari

Körsatkiç	Konsentratsiyalar, laboratoriya natijalari								REYK/MPC, 0083-24-son SQM/SanR&N
	Çirçiq daryosi				Drenaj ariqlari va kanallar				
	1	2	3	4	5	6	7[1]	8	
pH	7.54	7.7	7.62	7.54	7.57	7.73	7.74	7.69	6.5-8.5
Nitratlar, mg/l	4.96	1.8	2.08	2.04	1.15	0.93	3.09	1.5	45
Fosfatlar, mg/l	0.06	0.1	0.05	0.06	0.01	0.01	0	0.35	1
KBE_5/BOD_5, mg O/l	2.62	2.4	3.5	4.03	1.77	5.78	1.01	6.46	3[2]
KKE/COD, mg O/l	8.99	5.6	7.49	5.99	7.05	10.5	8.99	6.77	30
Mis, µg/l	2.87	2.3	2.66	2.4	2.45	2.69	2.49	5.8	1
Rux, µg/l	13.2	6.4	24.8	8.61	10.9	9.16	8.03	15.8	5
Kadmiy, µg/l	2.17	2.3	2.41	2.54	2.74	2.92	2.77	2.84	0.001

Izoh: [1] Bu suğoriş kanalidir.
[2] Bu KBE_{20}/BOD_{20} körsatkiçidir.
Me'yordan oşgan qiymatlar puşti va kök rangda, ehtimoliy oşişlar esa kök rangda ajratilgan

Loyiha hududidagi yer usti suvlarining boşlanğiç holati Çirçiq daryosi hamda loyiha hududidagi mahalliy suğoriş va drenaj tarmoğidan maqsadli namuna oliş orqali tavsiflangan. Toşkentdagi akkreditatsiyadan ötgan laboratoriyada jami sakkiz (8) ta namuna pH, oziqa moddalar (nitrat va fosfatlar), kislorodga biokimyoviy ehtiyoj (KBE_5/BOD_5), KKE/COD hamda tanlangan iz metallar (mis, rux va kadmiy) böyiça tahlil qilingan.

Ölçangan pH qiymatlari 7,54 dan 7,74 gaça bölgan. Bu qiymatlar mintaqaviy allyuvial suvlarga xos neytral yoki biroz işqoriy şaroitni körsatadi. Ular 6,5 dan 8,5 gaça bölgan milliy suv sifati oraliğiga töliq mos keladi. Nitrat konsentratsiyasi past, ya'ni 0,93 dan 4,96 mg/l gaça bölib, 45 mg/l milliy REYK/MPCdan ança past bölgan. Bu qişloq xöjaligi qaytma oqimlari va tabiiy boşlanğiç şaroitdan oziqa moddalar kelib tuşişi kamligini körsatadi. Fosfat konsentratsiyasi ham past bölib, eng yuqori qiymat 0,1 mg/lni taşkil etgan. Bu 1 mg/l REYK/MPCdan past va nuqtaviy oqizilmalardan köra tarqoq qişloq xöjaligi faoliyati ta'siridagi yer usti suvlariga xosdir.

Organik modda körsatkiçlari örtaça darajada bölgan. KBE_5/BOD_5 1,01 dan 6,46 mg/l gaça özgargan. Tört namuna milliy REYK/MPCning 3 mg/l quyi çegarasidan oşgan; ulardan ikkitasi Çirçiq daryosidan, yana ikkitasi drenaj kollektoridan olingan. KBE_5/BOD_5 beş kunlik kislorod talabini ölçaydi. KBE_{20}/BOD_{20} kabi uzoq muddatli sinovlar esa REYK/MPC standartida nazarda tutilgan 20 kun davomida ötkaziladi va odatda yuqoriroq qiymat beradi, köp hollarda bu qiymat KBE_5/BOD_5dan 1,3-1,5 baravar yuqori böladi. Şu sababli, bu suvlardagi biologik parçalanadigan organik yuk faqat KBE_5/BOD_5 bilan baholanganda kam körsatilişi mumkin. Biroq tegişli KKE/COD qiymatlari 5,6-10,5 mg/l bölib, 30 mg/l REYK/MPCdan past bölgan. Standartlar örtasidagi yuqorida qayd etilgan farq hisobga olinsa,

Çirçiq daryosidan olingan 1- va 2-namunalar ham KBE_{20}/BOD_{20} uçun amaldagi 3 mg/l standartdan biroz oşişi mumkin. Bu umumiy organik ta'sir örtaça ekanini körsatadi.

Iz metallar tahlili barça joylarda mis, rux va kadmiy konsentratsiyalari tegişli milliy REYK/MPC qiymatlaridan yuqori ekanini körsatgan. Mis 2,3-5,8 mg/l oraliğida bölgan, bunda REYK/MPC 1 mg/lni taşkil etadi. Rux 6,4-24,8 mg/l oraliğida bölib, uning REYK/MPC qiymati 5 mg/l, kadmiy esa 2,17-2,92 mg/l oraliğida bölib, uning REYK/MPC qiymati 0,001 mg/lni taşkil etadi. Bu me'yordan oşişlar mahalliy nuqtaviy ifloslanişdan köra uzoq muddatli qişloq xöjaligi faoliyati va allyuvial tekislikning geologik ona jinsi ta'siridagi boşlanğiç geokimyoviy şaroitni aks ettirişi ehtimoli yuqori. Xususan, kadmiy fosfatli öğitlarda iz aralaşma sifatida uçraşi ma'lum va qişloq xöjaligida takror qöllaniş natijasida tuproq hamda suvda asta-sekin töplanişi mumkin. Mis va rux ham ayrim öğitlar va pestitsidlar tarkibidagi mikrooziqa moddalaridir; suğoriş amaliyoti hamda tuproq bilan suvning özaro ta'siri ularning harakatçanligini kuçaytirişi mumkin. Bunday tarqoq tarixiy qişloq xöjaligi kirimlari suvni yaxşi ötkazuvçi allyuvial tizim va suğoriş qaytma oqimlari bilan birga kuzatilgan yuqori iz metall konsentratsiyalariga hissa qöşişi mumkin.

Umuman olganda, Çirçiq daryosi va mahalliy suğoriş tarmoğidagi yer usti suvi sifati qişloq xöjaligi ta'siridagi allyuvial tizim uçun xosdir.

11.5 Ehtimoliy ta'sirlar, oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda boşqaruv

11.5.1 Quriliş bosqiçi

Bu bölimda loyihaning quriliş va foydalaniş bosqiçlarida suv hamda suv resurslariga ehtimoliy ta'sirlar baholanadi. Baholaşda suv mavjudligidagi özgarişlar, suğoriş va drenaj infratuzilmasining özgarişi, yer usti suvi sifati ehtimoliy yomonlaşuvi hamda oqimning quyi qismidagi foydalanuvçilarga bilvosita ta'sirlar hisobga olinadi. Quriliş davridagi ehtimoliy ta'sirlar 11.7-jadvalda keltirilgan.

11.7-jadval. Quriliş bosqiçida suv va suv resurslari: jihatlar va ta'sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta'sirlar va ta'sir doirasi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Quriliş uçun suvga ehtiyoj	Suv resurslaridan foydalaniş	Suvga talab tufayli boşqa foydalanuvçilarga suv ta'minotining ehtimoliy kamayişi	Yon-atrofdagi qişloq xöjaligi yerlari va aholi manzillaridagi suv foydalanuvçilari
Yerni tozalaş, mavjud inşootlarni buziş, qaziş va tayyorgarlik işlari	Mavjud kiçik suğoriş kanallari, drenaj ariqlari va oqova suv kanallarini köçiriş hamda ularning faoliyatini buziş	Yon-atrofdagi yoki yaqin boşqa dalalarni suğoriş suvi bilan ta'minlaydigan suğoriş kanallariga, şuningdek, loyiha yaqinidagi qişloq xöjaligi yerlari va aholi manzillariga xizmat körsatadigan oqova suv kanallariga ehtimoliy ta'sirlar.	Yon-atrofdagi qişloq xöjaligi yerlaridan foydalanuvçilar va aholi manzillari
		Dalalardan suvni çiqariş quvvatining kamayişi.	
		Mavjud suv infratuzilmasi tarmoğidagi suv sifatiga, asosan, çökindi va loyqalik darajalari oşişi tufayli paydo böladigan ehtimoliy ta'sirlar.	
Qaziş işlari	Çökindi töplanişi	Mavjud suv tuzilmalari tarmoğida, jumladan, suğoriş va oqova suv kanallari hamda drenaj ariqlarida çökindilar töplanişi.	Suğoriş va oqova suv kanallari hamda drenaj ariqlari

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir doirasi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Turli quriliş işlari	Oqova suv, jumladan, sanitariya oqova suvi va beton yuvindi suvining hosil bölişi	Oqova suvlar samarali tutib qolinmasa, boşqarilmasa yoki yetarli darajada tozalanmasdan oqizilsa, drenaj ariqlaridagi suv sifati yomonlaşişi va ifloslaniş paydo bölişi mumkin.	Drenaj ariqlaridagi suv sifati va suvda yaşovçi turlar
Yer osti suvi sathini pasaytiriş	Suv sathini pasaytirişda tortib çiqarilgan suvni oqiziş.	Suv çiqariladigan joy va dastlabki aralaşiş hududi. Oqiziladigan suv hajmiga qarab, oqimning yanada quyi qismi	Çirçiq daryosi va oqimning quyi qismidagi suv foydalanuvçilari
Yoğin	Muallaq çökindi yuki ortgan yuza oqimi	Drenaj ariqlaridagi suv sifatiga çökindi yuki va quriliş işlari olib boriladigan joylardan yuvilib çiqişi mumkin bölgan boşqa ifloslantiruvçilar sabab körsatilişi mumkin bölgan ta’sirlar	Drenaj kollektorlari

11.5.1.1 Quriliş uçun suvga ehtiyoj

MXQ/EPC pudratçisi bergan ma’lumotlarga köra, quriliş uçun zarur suv asosan quriliş maydonidagi işlab çiqariş quduqlaridan olinadigan yer osti suvi hisobidan ta’minlanişi kutiladi. Bu suv çangni bostiriş, beton işlari, uskunalarni yuviş, quriliş maydonidagi umumiy ehtiyojlar va maişiy maqsadlarda işlatiladi. Zarur hollarda suvga talabning bir qismi tasdiqlangan taşqi suv yetkazib beruvçi tomonidan ham qoplanişi mumkin. Bu hisobotda avval keltirilganidek, qurilişning eng qizğin davrida suvga jami taxminiy ehtiyoj qariyb 2 500 m³/kun deb baholangan.

Kengroq hududdagi mahalliy aholi va qişloq xöjaligi foydalanuvçilari ham yer osti suvidan foydalanadi. Biroq mavjud gidrogeologik ma’lumotlarga köra, mahalliy yer osti suvi manbasi taklif etilayotgan vaqtinçalik quriliş bosqiçidagi suv olişni mavjud foydalanuvçilarga jiddiy salbiy ta’sir körsatmagan holda ta’minlay oladi deb hisoblanadi. Bundan taşqari, yer osti suvini oliş amaldagi ruxsatnoma talablariga va vakolatli idoralar belgilaydigan tegişli şartlarga, jumladan, zarur hollarda suv oliş çeklovlari hamda kuzatuv talablariga rioya qilgan holda amalga oşiriladi.

Şunga köra, quriliş işlari yer osti suvini olişning vaqtinçalik oşişiga olib keladi. Tegişli oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanmasa, mavjud foydalanuvçilar uçun yer osti suvining mavjudligiga ehtimoliy ta’sir örtaça deb baholanadi.

11.5.1.2 Suğoriş va drenaj infratuzilmasining buzilişi

Yerni tozalaş, mavjud inşootlarni buziş, qaziş va quriliş maydonini tayyorlaş işlari maydon orqali ötadigan kiçik suğoriş kanallari, drenaj ariqlari va oqova suv kanallarini köçiriş, boşqa tomonga buriş yoki vaqtinça töxtatişni talab qiladi. Bu kanallar yon-atrofdagi dalalarni ta’minlaydigan kengroq qişloq xöjaligi suvini boşqariş tizimining bir qismidir.

Bu kanallarning jismonan tösilişi yoki şikastlanişi oqimning quyi qismidagi xöjaliklarga suğoriş suvi yetkazib berilişini vaqtinça kamaytirişi yoki drenaj imkoniyatini çeklaşi mumkin. Natijada yerlarni suv bosişi yoki suğoriş samaradorligi pasayişi mumkin. Özaro boğlangan kanallar tizimi tufayli ta’sir doirasi loyiha çegarasidan taşqariga çiqadi.

Mahalliy qişloq xöjaligi uçun suğorişning ahamiyati va kanal hamda nasos tizimlariga hujjatlarda qayd etilgan boğliqlik tufayli qabul qiluvçi obyektlarning sezgirligi yuqoridir. Tegişli tarzda boşqarilmasa, quriliş davrida ta’sir kölami örtaça bölişi mumkin. Biroq rejalaştirilgan oqimni buriş işlari, qurilişni bosqiçma-bosqiç amalga oşiriş va kanallarni qayta tiklaş natijasida ta’sirlar vaqtinçalik hamda qaytar bölişi kutiladi.

11.5.1.3 Çökindilar va quriliş maydonidan oqadigan suv

Qaziş işlari va oçilib qolgan tuproq yuzalari eroziya hamda çökindilarning yaqin atrofdagi drenaj ariqlari va suğoriş kanallariga taşilişi xavfini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yoğin paytida jala suvi oqimi quriliş bilan boğliq ifloslantiruvçilarni, jumladan, muallaq qattiq moddalar, iz miqdordagi uglevodorodlar va beton yuviş qoldiqlarini harakatga keltirişi mumkin.

Yer usti suvlarida boşlanğiç oziqa modda va organik yuk nisbatan pastligi sababli çökindi yoki ifloslantiruvçi moddalar miqdorining oşişi, asosan, loyqalik va muallaq qattiq moddalar darajasi kötarilişi orqali mahalliy suv sifatini vaqtinça özgartirişi mumkin. Bunday ta'sirlar vaqti-vaqti bilan yuz beradi va asosan kuçli yoğin davrlari bilan çeklanadi.

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari qöllanmasa, ayniqsa, kuçli jala paytida ta'sir kölami örtaça bölişi mumkin. Eroziya va çökindini nazorat qilişga doir tegişli çoralar amalga oşirilsa, ta'sirlar kiçik, mahalliy va quriliş davri bilan çeklangan bölişi kutiladi. Tegişli boşqaruv bölmasa, oqibatlar yon-atrofdagi drenaj infratuzilmasi va oqimning quyi qismidagi qisqa uçastkalar bilan çeklanişi mumkin.

11.5.1.4 Quriliş oqova suvi va tasodifiy tökilişlar

Quriliş işçilari hosil qiladigan sanitariya oqova suvi va beton yuviş kabi faoliyatlardan çiqadigan oqova suv töğri tutib qolinmasa hamda tozalanmasa, ifloslaniş yöllarini yuzaga keltiradi. Tozalanmagan oqova suvning drenaj ariqlariga oqizilişi oziqa moddalar miqdori, organik yuk, ya'ni KBE/BOD va pH darajasi oşişiga olib kelişi mumkin.

Yer usti suvlarining boşlanğiç holati kuzatuvi KBE_5/BOD_5 qiymatlari odatda me'yoriy çegaralar doirasida yoki ularga yaqinligini hamda oziqa moddalar konsentratsiyasi pastligini körsatadi. Şu sababli har qanday nazoratsiz oqiziş standartlardan qisqa muddatli oşişlarga olib kelişi mumkin.

Nazorat çoralari mavjud bölmaganda bu ta'sir kölami örtaça deb hisoblanadi, ammo oqova suvni boşqarişning tegişli tizimlari, tutib qoliş çoralari va maxsus yuviş joylari taşkil etilsa, u past darajagaça kamayadi. Ta'sirlar mahalliy va vaqtinçalik böladi.

11.5.1.5 Suv sathini pasaytirişda olingan yer osti suvini oqiziş

Yer ostidagi inşootlarni qurişda suv sathini vaqtinça pasaytiriş kerak va natijada katta hajmda yer osti suvi tortib çiqariladi. Gidrogeologik baholaşga köra, pastdagi şağalli suvli qatlam suvni juda yaxşi ötkazadi, unda yer osti suvi tez harakatlanadi va gidravlik boğlaniş kuçlidir. Suv sathini pasaytirişda çiqarilgan yer osti suvini me'yoriy tasdiq asosida Çirçiq daryosiga oqiziş nazarda tutilmoqda.

Yer osti suvining boşlanğiç sifati natijalariga köra, pH neytral, nitrat va fosfat konsentratsiyalari past, organik körsatkiçlar esa örtaça bölgan. Biroq ayrim iz metallar, ayniqsa, mis, rux va kadmiy konsentratsiyalari milliy REYK/MPC saralaş mezonlaridan yuqori bölgan. Bu yuqori metall konsentratsiyalari muayyan quriliş maydonidagi ifloslanişdan köra mintaqaviy geokimyoviy şaroit va qişloq xöjaligining uzoq muddatli ta'sirlarini aks ettiradi deb hisoblanadi.

Suv sathini pasaytirişda olingan yer osti suvi tozalanmay oqizilsa, qabul qiluvçi suv obyektlarida iz metallar miqdori yanada oşişi mumkin. Bu xavf ayniqsa muhim, çunki yer usti suvining boşlanğiç namunalarida ham metall miqdori milliy standartlardan yuqori bölgan. Suvning umumiy kimyoviy tarkibi oğir ifloslanişni körsatmasa-da, suğoriş, baliqçilik va içimlik maqsadlarida foydalaniladigan Çirçiq daryosining yuqori sezgirligi har qanday oqizişni ehtiyotkorlik bilan boşqarişni talab qiladi.

Tozalaş yoki nazoratli oqiziş bölmasa, ehtimoliy ta'sir kölami örtaça deb baholanadi. Bunga oqizilişi kutilayotgan katta hajmlar va mavjud boşlanğiç metall konsentratsiyalariga qöşiladigan umumiy hissa sabab böladi. Tegişli boşqariş çoralari qöllansa, qoldiq ta'sir faqat quriliş bosqiçida yuz beradi hamda kiçik va vaqtinçalik böladi. Bu çoralar çöktiriş idişlaridan foydalaniş, zarur bölsa suvni filtrlaş, suvni çiqariş tezligini nazorat qiliş, şuningdek, uni çiqarişda amaldagi standartlarga rioya etilayotganini muntazam tekşirişni öz içiga oladi.

11.5.2 Quriliş davrida suv va suv resurslariga ta’sirlarni baholaş xulosasi

Quriliş davrida suv manbalariga ehtimoliy ta’sirlar va ularning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga oqibatlari quyidagi jadvalda tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda bu çoralar bajarilgandan keyingi qoldiq ta’sirlar bilan birga umumlaştirilgan.

11.8-jadval. Quriliş bosqiçida suv va suv resurslariga ta’sirlarni baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
Quriliş bosqiçida suv sarfi	Örtaça	Yer osti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Suğoriş va drenaj infratuzilmasining buzilişi	Örtaça	Yer usti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
		Suğoriş kanallari	Yuqori	Örtaça	Sezilarsiz
Quriliş maydonidan yuza oqimi va çökindi töplanişi	Örtaça	Suğoriş kanallari	Yuqori	Örtaça	Sezilarsiz
		Yer usti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Quriliş suvining tökilişi va kimyoviy moddalarning tasodifan tökilişi	Örtaça	Suğoriş kanallari	Yuqori	Örtaça	Sezilarsiz
		Yer usti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Suv sathini pasaytirişda olingan yer osti suvini oqiziş	Örtaça	Çirçiq daryosi	Yuqori	Örtaça	Kiçik

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Quriliş bosqiçida yer osti suvini oliş ta’sirining oldini oliş va uni kamaytiriş

- Yer osti suvini olişdan oldin vakolatli idoradan barça zarur ruxsatnomalar olinadi hamda suv oliş çeklovlari, kuzatuv talablari va ruxsatnoma şartlariga töliq rioya qilinadi.
- Katta kölamda suv olişdan oldin işlab çiqariş quduqlarida suv beriş va sath pasayişi sinovlari ötkaziladi. Bu sinovlar suvli qatlamning barqaror suv beriş quvvatini tekşiradi va taklif etilgan suv oliş tezligi yaqin atrofdagi yer osti suvi foydalanuvçilariga salbiy ta’sir körsatmasligini tasdiqlaydi.
- Olinadigan suv hajmi quriliş uçun zarur eng kam miqdor bilan çeklanadi.
- Samarali quriliş amaliyoti orqali suvdan foydalaniş maqbullaştiriladi.
- Quriliş maydonida suv oliş talabni barqaror tarzda qondira olmaydigan har bir holatda taşqi suv yetkazib beruvçilar xizmatidan foydalaniladi.
- Quriliş davrida yer osti suvi sathini muntazam kuzatiş va har kuni olingan suv hajmini qayd etiş uçun kuzatuv quduqlari quriladi yoki maqsadga muvofiq hollarda işlab çiqariş quduqlaridan foydalaniladi.
- Maqsadga muvofiq va idoralar bilan kelişilgan hollarda mahalliy aholi va qişloq xöjaligi foydalanadigan yaqin atrofdagi vakillik quduqlari kuzatiladi. Loyiha doirasida suv oliş bilan boğliq bölişi mumkin bölgan har qanday kutilmagan sath pasayişi tekşiriladi.
- Agar kuzatuv natijalari qabul qilib bölmaydigan ta’sirlarni körsatsa, quyidagi çoralar qöllanadi: suv oliş tezligi kamaytiriladi; suv oliş navbatma-navbat turli quduqlarda amalga oşiriladi; ta’minot taşqaridan keltiriladigan suv bilan töldiriladi; yoki yer osti suvi sathi tiklangunigaça suv oliş vaqtinça töxtatiladi.
- Amaliy jihatdan mumkin bölsa, tozalangan oqova suvdan, masalan, çangni bostiriş uçun takror foydalaniladi.
- Içimlik suvdan içişga möljallanmagan quriliş işlarida foydalanişga imkon qadar yöl qöyilmaydi.

Suğoriş va drenaj kollektorlarining işida paydo böladigan buzilişlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
• Işlar boşlanişidan oldin tegişli mahalliy taşkilot tomonidan suvni boşqariş va amalga oşiriş rejasi tayyorlanadi hamda bajariladi. • Vaqtinçalik aylanma kanallar yoki bosqiçma-bosqiç buriş işlari orqali uzluksiz suv oqimi saqlanadi. • Quriliş yakunlangandan söng barça suğoriş va drenaj tuzilmalari avvalgi darajaga teng yoki undan yaxşiroq gidravlik quvvat bilan qayta tiklanadi. • Barça işlar mahalliy suv foydalanuvçilari, jumladan, fermerlar bilan, ayniqsa, suğorişning eng qizğin mavsumlarida muvofiqlaştiriladi. Çökindili yuza oqimi va çökindi töplanişining oldini oliş va ularni kamaytiriş • Zarur joylarda qazilayotgan hududlar atrofiga loy tutqiç tösiqlar, çökindi tutqiçlar va tindiriş hovuzlari örnatiladi. • Oçilib qolgan tuproq yuzalari ziçlaş, vaqtinça uruğ sepiş yoki qoplaş orqali tezda barqarorlaştiriladi. • Kuçli yoğin kutilayotgan davrlarda oçiq qaziladigan maydonlar çeklanadi. • Kanallarga nazoratsiz suv oqizilişining oldini oliş uçun quriliş maydonida boşqariladigan drenaj tizimi joriy etiladi. Izoh: tuproq va yer osti suvi bölimida keltirilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari suv manbalariga ehtimoliy ta’sirlarni nazorat qiliş uçun ham qöllanadi.					

11.6 Foydalaniş bosqiçi

Aeroportdan odatiy foydalaniş natijasida hududdagi suv va suv resurslariga ehtimoliy ta’sirlar 11.9-jadvalda keltirilgan.

11.9-jadval. Foydalaniş bosqiçida suv va suv resurslari: jihatlar va ta’sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir doirasi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Havo kemalari va yer usti transport vositalarini yuviş, şuningdek, uçiş-qöniş yölagi hamda havo kemalari turar maydonini tozalaş	Yuvindi suvda yuviş vositalari, moy va boşqa kimyoviy moddalar, masalan, muzlaşga qarşi işlov berişdan qolgan qoldiqlarning mavjudligi	Ifloslantiruvçilar jala suvi tizimiga yuvilib tuşişi va yaqin atrofdagi suv obyektlariga yetib borişi mumkin	Yaqin atrofdagi qişloq xöjaligi yerlaridan foydalanuvçilar Yer usti suvlarining sifati va suvda yaşovçi turlar Oqimning quyi qismidagi suv foydalanuvçilari
Aeroportning muntazam faoliyatidan oqova suv hosil bölişi	Tozalanmagan oqova suvni oqiziş	Tozalaş tizimlarining ortiqça yuklanişi hamda tozalanmagan yoki qisman tozalangan oqova suvning daryo va boşqa yer usti suv obyektlariga tuşiş xavfi	
Jala suvi yuza oqimi	Yuzalarda moy, yoqilği va oğir metallar töplanişi	Ifloslangan yuza oqimining yaqin drenaj tarmoğiga kirişi hamda Çirçiq daryosi va boşqa suv obyektlariga ehtimoliy oqiziliş xavfi	
Obodonlaştirilgan hududlarni suğoriş	Ortiqça oziqa moddalar va zararkunandalarga qarşi vositalardan foydalaniş	Öğitlar va kimyoviy moddalarning drenaj ariqlari yoki sayoz yer osti suviga sizib ötişi	Yer osti suvi va yaqin atrofdagi drenaj ariqlari

11.6.1.1 Havo kemalari va yer usti transport vositalarini yuviş, uçiş-qöniş yölagi hamda havo kemalari turar maydonini tozalaş

Foydalaniş bosqiçida havo kemalari va yer usti transport vositalarini yuviş, şuningdek, qoplamali yuzalarni tozalaş natijasida oqova suv hosil bölişi mumkin. Uning tarkibida yuviş vositalari, uglevodorodlar, rezina qoldiqlari, iz metallar va muzlaşga qarşi kimyoviy moddalar bölişi mumkin. Bu ifloslantiruvçilar samarali tutib qolinmasa va tozalanmasa, jala suvi tizimiga kiriş, keyin esa suğoriş kanallariga yoki oxir-oqibat Çirçiq daryosiga oqiziliş ehtimoli mavjud.

Boşlanğiç holat natijalari iz metallarning mavjud konsentratsiyalari milliy REYK/MPC qiymatlaridan yuqori ekanini körsatadi. Bu qişloq xöjaligi va tabiiy geologik manbalar bilan boğliq bölişi mumkin. Aeroport faoliyatidan keladigan qöşimça moddalar qabul qiluvçi suv obyektlaridagi konsentratsiyalarni umumiy hisobda oşirişi mumkin.

Oqimning quyi qismida suvdan qişloq xöjaligi, baliqçilik va içimlik suvi ta’minoti uçun foydalanuvçilarning sezgirligi hisobga olinsa, jala suvi yetarli darajada tozalanmaganda ta’sir kölami örtaça bölişi mumkin. Tegişli moy-suv ajratgiçlari, tutib qoliş tizimlari va tozalaş infratuzilmasi mavjud bölsa, qoldiq ta’sir sezilarsiz bölişi kutiladi.

11.6.1.2 Aeroportning muntazam faoliyatidan oqova suv hosil bölişi

Aeroport faoliyati natijasida maişiy va ehtimol sanoat oqova suvlari hosil böladi hamda ular oqizilişdan oldin tozalanişi kerak. Tozalaş samaradorligining yetarli bölmasligi yoki tizimning ortiqça yuklanişi qabul qiluvçi suv obyektlariga oziqa moddalar va organik yukning yuqori miqdorda kirişiga olib kelişi mumkin.

Boşlanğiç holatdagi KBE_5/BOD_5 qiymatlari me'yoriy oraliqlar doirasida. Çirçiq daryosidan baliqçilik va içimlik suvi olişni qamrab olgan turli maqsadlarda foydalaniladi. Şu sababli qabul qiluvçi obyektning sezgirligi yuqori.

Tizim işdan çiqqan taqdirda ta'sir kölami örtaçadan yuqorigaça bölişi mumkin. Biroq töğri loyihalangan va texnik xizmat körsatiladigan tozalaş inşootlaridan odatdagi foydalaniş şaroitida ta'sir past bölişi hamda standartlarga muvofiq kelişi kutiladi.

11.6.1.3 Foydalaniş maydonlaridan oqadigan jala suvi

Vaqt ötişi bilan aeroport qoplamalarida moy qoldiqlari, tökilgan yoqilği, oğir metallar va zarraçalar töplanişi mumkin. Yoğin paytida bu ifloslantiruvçilar harakatga kelib, jala suvi drenaj tizimi orqali taşilişi mumkin.

Qişloq xöjaligi kanallarining yaqinligi va drenaj tarmoğinin Çirçiq daryosi bilan gidravlik boğliqligi sababli yomon boşqarilgan yuza oqimi suv sifatining umumiy yomonlaşişiga hissa qöşişi mumkin.

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari bölmaganda, ayniqsa, kuçli yoğin paytida ta'sir kölami örtaça deb baholanadi. Çökindi tutqiçlar, moy ajratgiçlar va nazoratli oqiziş tizimlarini qamrab oladigan jala suvini boşqarişning samarali loyihasi mavjud bölsa, ta'sir past deb baholanadi.

11.6.1.4 Obodonlaştirilgan hududlarni suğoriş

Aeroport faoliyati bilan boğliq obodonlaştirişda suğoriş va öğitlar yoki zararkunandalarga qarşi vositalarni qöllaş talab etilişi mumkin. Ortiqça oziqa moddalar yoki kimyoviy moddalar drenaj ariqlariga sizib ötişi yoxud sayoz yer osti suviga singişi va vaqt ötişi bilan tarqoq ifloslanişga hissa qöşişi mumkin.

Suvning boşlanğiç holatdagi sifati uzoq muddatli qişloq xöjaligi ta'sirlarini allaqaçon aks ettirişini hisobga olganda, qöşimça oziqa modda yuki mahalliy drenaj suvlaridagi konsentratsiyalarni asta-sekin oşirişi mumkin.

Kimyoviy moddalarni qöllaş kölami va suğoriş amaliyotiga qarab, bu ta'sir kölami örtaçadan kiçikkaça deb baholanadi. Nazoratli qöllaş me'yorlari va zararkunandalarga qarşi kompleks kuraş yondaşuvlari joriy etilsa, ta'sirlar kiçik darajada qolişi kutiladi.

11.6.1.5 Foydalaniş bosqiçida suvdan foydalaniş va suv resurslariga ta'sirlar

Foydalaniş bosqiçida loyiha terminal faoliyati, yölovçilar ehtiyoji, xodimlar inşootlari, tijorat faoliyati va aeroportning boşqa yordamçi vazifalari uçun içimlik suv talab qiladi. Aeroport oçiliş yilida içimlik suvga talab taxminan 1 310 m³/kun, aeroport töliq rivojlantirilganda esa taxminan 3 340 m³/kun deb baholangan. Şu sababli umumiy ta'sirlarni baholaşda aeroportning yakuniy boş rejasiga boğliq foydalaniş bosqiçidagi suvga talab oşişi hisobga olinadi.

Amaldagi loyiha yeçimida, uzoq muddatli suv ta'minoti strategiyasi tasdiqlanguniga hamda mintaqaviy yirik suv ta'minoti infratuzilmasidan kelajakda foydalaniş imkoniyati aniqlanguniga qadar, aeroportni dastlab çuqur quduqlardan olinadigan yer osti suvi bilan ta'minlaş taklif etilgan. Hozirgi bosqiçda suv ta'minotining yakuniy yeçimi, suv oliş joylari va suv olişning barqaror tezligi tasdiqlanmagan. Ular batafsil loyihalaş vaqtida gidrogeologik tadqiqotlar ötkazilib, tegişli idoralar bilan maslahatlaşilgandan söng belgilanadi. Şu sababli baholaş sifat jihatidan amalga oşirilgan.

Kengroq ta'sir doirasida yer osti suvini oliş va suğoriş suviga talab haqidagi ma'lumotlar çeklangan. Qişloq xöjaligi atrofdagi asosiy suv foydalanuvçisi deb tan olingan bölsa-da, aeroportning kelajakdagi foydalaniş bosqiçidagi suv talabi bilan mintaqada hozir olinayotgan suv hajmlarini puxta taqqoslaş uçun yetarli miqdoriy boşlanğiç holat ma'lumotlari mavjud emas. Şu sababli baholaşda ehtiyotkor yondaşuv qöllangan. Yer osti suvining barqaror mavjudligi va suv oliş tezligini tasdiqlaş foydalaniş bosqiçidagi suv ta'minoti strategiyasi yakunlanişidan oldin ötkaziladigan batafsil gidrogeologik tadqiqotlarning muhim qismi böladi.

Loyihada foydalaniş bosqiçidagi suv talabini kamaytirişga qaratilgan bir neça çora nazarda tutilgan. Terminal binosi Energiya va atrof-muhitga mos loyihalaşdagi yetakçilik (LEED) tizimining Silver sertifikati talablariga muvofiq loyihalanmoqda. Unda içimlik suv sarfini kamaytiradigan suv tejamkor qurilmalar, jihozlar va suvni boşqariş amaliyotlari qöllanadi. Bundan taşqari, taklif etilayotgan suv ta'minoti tizimida içimlik va içişga möljallanmagan suv uçun alohida tarmoqlar böladi. Bu tozalangan oqova suvdan suğoriş, unitazlarni yuviş va

boşqa tegişli maqsadlarda qayta foydalaniş imkonini beradi hamda içimlik suv resurslariga qaramlikni kamaytiradi.

Mintaqadagi umumiy suv sarfiga nisbatan aeroportning suvga talabi unça katta emas. Suvni tejaş çoralari amalga oşirilsa va yer osti suvi faqat amaldagi ruxsatnoma hamda me'yoriy talablarga muvofiq olinsa, yer osti suv resurslari yoki mavjud suv foydalanuvçilariga jiddiy salbiy ta'sir kutilmaydi. Şunga qaramay, yer osti suvidan vaqtinçalik suv manbasi sifatida foydalanilsa, mahalliy suv resurslariga talabning oşişi sababli kiçik salbiy ta'sirlar yuz berişi mumkin.

Şu sababli, bu ta'sir kiçik darajada salbiy deb baholanadi. Bu baholaş suvni barqaror boşqariş çoralari, me'yoriy nazorat va yer osti suvlarini kuzatiş amalga oşirilişini nazarda tutadi. Suv ta'minotining yakuniy strategiyasi va unga boğliq barça boşqaruv hamda kuzatuv talablari batafsil loyihalaş vaqtida tasdiqlanadi va foydalaniş bosqiçidagi atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv rejasiga (FAMIBR/OESMP) kiritiladi.

11.6.2 Foydalaniş bosqiçida suv va suv resurslariga ta'sirlarni baholaş xulosasi

Foydalaniş bosqiçida suv manbalariga ehtimoliy ta'sirlar va ularning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga oqibatlari quyidagi jadvalda tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda bu çoralar bajarilgandan keyingi qoldiq ta'sirlar bilan birga umumlaştirilgan.

11.10-jadval. Foydalaniş bosqiçida suv va suv resurslariga ta’sirlarni baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
Aeroport hududidan jala suvi oqimi bilan boğliq ta’sirlar	Örtaça	Yer usti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
		Suğoriş kanallari	Yuqori	Örtaça	Sezilarsiz
		Çirçiq daryosi	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Oqova suvni yaqin atrofdagi qabul qiluvçi suv obyektlariga oqiziş	Örtaça	Suğoriş kanallari	Yuqori	Örtaça	Sezilarsiz
		Yer usti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Obodonlaştirilgan hududlarni suğorişdan kelib çiqadigan ta’sirlar	Örtaça	Suğoriş kanallari	Yuqori	Örtaça	Sezilarsiz
		Yer usti suvidan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Örtaça	Kiçik
Foydalaniş bosqiçida suvdan foydalaniş	Kiçik	Suv manbalaridan foydalanuvçilar, jumladan, fermerlar	Yuqori	Kiçik	Sezilarsiz

Taklif etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari

Havo kemalari va transport vositalarini yuviş hamda aerodrom tomonini tozalaş ta’sirining oldini oliş va uni kamaytiriş

- Havo kemalari va transport vositalari faqat oqova suvni tozalaş tizimiga ulangan, suv ötkazmaydigan maxsus yuviş joylarida yuviladi. Bu oqova suvning jala suvi tarmoğiga oqizilişining oldini oladi.
- Barça yuvindi suv yer usti suv kanallari bilan bevosita gidravlik boğlanmagan yopiq drenaj tizimi orqali tutib qolinadi.
- Tozalaş inşootiga oqizişdan oldin uglevodorodlar, muallaq qattiq moddalar va ular bilan boğliq iz metallarni ajratiş uçun tegişli ölçamdagi moy-suv ajratgiçlari hamda çökindi tutqiçlar örnatiladi.
- Kimyoviy yukni kamaytiriş uçun biologik parçalanadigan, zaharliligi past yuviş vositalari va tasdiqlangan muzlaşga qarşi vositalar tanlanadi.
- Ajratgiçlar va drenaj tuzilmalarining loyini muntazam tozalaş, ularni tekşiriş hamda ularga texnik xizmat körsatiş orqali loyihaviy samaradorlik saqlanişi ta’minlanadi.

Jala suvi oqimi ta’sirining oldini oliş va uni kamaytiriş

- Moy-suv ajratgiçlari, tindiriş bölinmalari va oqimni nazorat qiliş inşootlarini qamrab olgan yopiq jala suvi drenaj tarmoği loyihalanadi.
- Odatda ifloslantiruvçilar eng köp miqdorda bölgan dastlabki yuza oqimini tozalaş uçun birinçi oqimni tutib qoliş tizimlari kiritiladi.

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sirlar
• Yoğindan oldin ifloslantiruvçilar töplanişini kamaytiriş uçun havo kemalari turar maydonlari, samolyotlarning yerda harakatlaniş yöllari va avtomobil töxtaş joylari muntazam ravişda mexanik supuriladi. • Tozalaş tizimlarining samaradorligini tasdiqlaş uçun jala suvi oqizilmalari sifati, ayniqsa, sezilarli yoğin paytida kuzatiladi. <u>Foydalaniş bosqiçida suv sarfi ta’sirining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari</u> • Terminal va unga boğliq inşootlar suv tejamkor qurilmalar, jihozlar va asboblarni qamrab olgan LEED Silver sertifikati talablariga muvofiq loyihalanadi va ulardan şu talablarga muvofiq foydalaniladi. • Amaliy jihatdan mumkin va maqsadga muvofiq bölsa, tozalangan oqova suvdan obodonlaştirilgan hududlarni suğoriş va boşqa mos maqsadlarda, ya’ni içişga möljallanmagan ehtiyojlar uçun qayta foydalaniladi. • FAMIBR/OESMP doirasida suv sarfini kuzatiş, ğayrioddiy suv sarfini tekşiriş va suvni tejaş imkoniyatlarini aniqlaş tartiblarini qamrab oladigan suvni boşqariş rejasi işlab çiqiladi hamda amalga oşiriladi. • Yer osti suvi faqat amaldagi ruxsatnomalar, tasdiqlar va me’yoriy talablarga muvofiq olinişi ta’minlanadi. • Muntazam tekşiriş, profilaktik texnik xizmat va nuqsonlarni öz vaqtida tuzatiş orqali sizib çiqiş hamda suv yöqotilişini kamaytiriş uçun suv ta’minoti infratuzilmasiga texnik xizmat körsatiladi. • Mavjud bölsa, rejalaştirilgan mintaqaviy yirik suv ta’minoti infratuzilmasiga uzoq muddatli ulaniş masalasi böyiça tegişli idoralar bilan hamkorlik qilinadi. • Loyihaga aloqador aholi va taşkilotlarning suv ta’minoti yoki mahalliy suv foydalanuvçilariga taxmin qilinayotgan ta’sirlar haqidagi şikoyatlarini qabul qiliş va ularga javob beriş uçun şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmidan foydalaniladi. Izoh: tuproq va yer osti suvi bölimida keltirilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari suv manbalariga ehtimoliy ta’sirlarni nazorat qiliş uçun ham qöllanadi.					

11.7 Kuzatuv

Suv sifatini kuzatişga oid eng kam talablar quyidagi jadvalda keltirilgan. Joylar, davriylik, davomiylik, körsatkiçlar va boşqa aniq tafsilotlarni qamrab oladigan yakuniy kuzatuv usuli tegişli quriliş yoki foydalaniş bosqiçidagi AMIBT/ESMS doirasida alohida “Atrof-muhit va ijtimoiy kuzatuv rejasi”da işlab çiqiladi.

11.11-jadval. Tuproq va yer osti suvini kuzatiş talablari

Kuzatuv	Körsatkiçlar	Davriylik va davomiylik	Joy
Quriliş			
Çökindi nazorati çoralarini közdan keçiriş	Loy tutqiç tösiqlar, çökindi tutqiçlar va tindiriş hovuzlarining butligi, eroziya belgilari	Quriliş davomida har hafta va kuçli yoğindan keyin	Qazilayotgan joylar atrofi, quriliş maydoni çegarasi va yon-atrofdagi drenaj kanallari
Suğoriş va drenaj kanallarining işlaşini közdan keçiriş	Oqim uzluksizligi, tösiliş va çökindi töplanişi	Quriliş davrida har oy va oqimni buriş işlaridan keyin	Loyiha hududi içidagi va yon-atrofidagi suğoriş kanallari hamda drenaj ariqlari
Suv sathini pasaytirişda çiqarilgan yer osti suvi oqizilişini kuzatiş	pH, loyqalik, jami muallaq qattiq moddalar, KBE_5/BOD_5, KKE/COD, nitratlar, fosfatlar, moy va surkov moddasi, oğir metallar, kamida mis, rux va kadmiy	Suv sathini faol pasaytiriş vaqtida har hafta, suvni oqiziş boşlanişidan oldin, keyin esa tartibga soliş talablariga qarab özgartiriladi	Drenaj tizimi yoki daryoga oqizişdan oldin suv sathini pasaytiriş suvi çiqadigan joyda
Foydalaniş			
Jala suvi oqizilmasi sifatini kuzatiş	pH, loyqalik, jami muallaq qattiq moddalar, moy va surkov moddasi, KKE/COD, mis, rux hamda boşqa tegişli ifloslantiruvçilar	Har çorakda va yoğinli mavsumdagi birinçi sezilarli yoğin paytida	Drenaj kanallari yoki qabul qiluvçi suv obyektlariga oqizişdan oldin asosiy jala suvi çiqiş joylarida
Qabul qiluvçi yer usti suvi sifatini kuzatiş	pH, loyqalik, jami muallaq qattiq moddalar, KBE_5/BOD_5, KKE/COD, nitratlar, fosfatlar, moy va surkov moddasi, oğir metallar, kamida mis, rux va kadmiy	Har olti oyda, nomuvofiqlik aniqlansa qöşimça namuna olinadi	Suğoriş kanallarining oqim böyiça yuqori va quyi qismlarida hamda tegişli bölsa, Çirçiq daryosida oqiziş joyidan quyi tomonda

12.0 Çiqindilar va ularni boşqariş

E'tibor bering: bu bölimda qattiq çiqindilar va oqova suvni boşqariş masalalari körib çiqiladi, ularning atrof-muhitdagi qabul qiluvçi obyektlarga ta'siri esa baholanmaydi. Bunday ta'sirlar AMITB/ESIAning boşqa tegişli boblarida körib çiqilgan.

12.1 Amaldagi talablar va standartlar

12.1.1 Milliy standartlar

Çiqindilarni boşqarişga oid qonunçilik "Çiqindilar töğrisida"gi Qonun va quyida sanab ötilgan boşqa qonun hujjatlaridan iborat.

Özbekiston Respublikasining 362-II-son "Çiqindilar töğrisida"gi Qonuni (2002-yil, 2025-yilda özgartirilgan) çiqindilarni, jumladan, xavfli çiqindilarni boşqariş sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning asosiy maqsadlari çiqindilarning fuqarolar hayoti va salomatligiga hamda atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini oliş, çiqindi hosil bölişini kamaytiriş va xöjalik faoliyatida ulardan oqilona foydalanişni ta'minlaşdan iborat.

"Çiqindilar töğrisida"gi Qonunga köra, "xavfli çiqindi" deganda tarkibida kamida bitta xavfli xususiyatga ega modda bölgan çiqindi tuşuniladi. Bunday xususiyatlarga zaharlilik, yuqumlilik, portlaş xavfi, yonğin xavfi, yuqori reaksiyaga kirişuvçanlik va radiofaollik kiradi. Bu moddalar öz holiça yoki boşqa moddalar bilan aloqada bölganida, ularning miqdori va şakli fuqarolar hayoti va salomatligi yoki atrof-muhit uçun bevosita yoxud ehtimoliy xavf tuğdiradi.

Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-son "Ekologik normativlar loyihalarini işlab çiqiş va tasdiqlaş tartibi töğrisidagi nizomlarni tasdiqlaş haqida"gi qarori (2014-yil, 2022-yilda özgartirilgan)

Çiqindi hosil bölişi va joylaştirilişini xatlovdan ötkaziş bu qarorning 14-ilovasi talablariga muvofiq amalga oşiriladi. Hujjatning V bobida çiqindi hosil bölişi va joylaştirilişi uçun ekologik normativlarni işlab çiqiş tartibi bayon etilgan. Çiqindining atrof-muhit uçun xavflilik sinfi qarorning 15-ilovasidagi şaklga muvofiq çiqindilarni tasniflaş katalogi orqali aniqlanadi.

0127-02-son "Sanoat çiqindilarini xatlovdan ötkaziş, tasniflaş, saqlaş va joylaştiriş sanitariya qoidalari" SQM/SanR&N sanoat çiqindilarini xatlovdan ötkaziş, tasniflaş, saqlaş va joylaştiriş tartibini belgilaydi. Unda çiqindilarning xavflilik sinfini hisobga olgan holda ularni töplaş va hosil bölişini hisobga oliş hamda xatlovdan ötkazişga doir talablar bayon etilgan. Çiqindi xavfi bu hujjat, sanoat xavfli çiqindilarining gigiyenik tasniflagiçi va 0127-02-son SQM/SanR&N asosida baholanadi. Çiqindilarning xavflilik sinflari quyidagilardan iborat:

- I sinf: öta xavfli çiqindilar;
- II sinf: yuqori xavfli çiqindilar;
- III sinf: örtaça xavfli çiqindilar;
- IV sinf: kam xavfli çiqindilar.

Bu nizomga muvofiq sanoat çiqindilarining xavflilik sinfini aniqlaşda uning tarkibidagi barça xavfli kimyoviy moddalar imkon qadar töliq hisobga olinişi kerak. Buni çiqindi tarkibini laboratoriyada örganiş yoki adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida amalga oşiriş mumkin. Sanoat çiqindisi tarkibidagi va tuproqni ifloslantirişi mumkin bölgan barça tarkibiy qismlarni aniqlaş imkoni bölmasa, gigiyenik baholaş eng zaharli kimyoviy moddalarga, ya'ni inson uçun eng xavfli birikmalarga nisbatan ötkazilişi kerak. Foydalanilayotgan me'yoriy va loyiha hujjatlarida kimyoviy moddaning xavflilik sinfi körsatilmagan bölsa, u xavflilik körsatkiçi orqali belgilanadi. Bu körsatkiç tuproqdagi zararli moddaning REYK/MPC qiymati, zararli moddaning tajriba hayvonlarining 50 foizi uçun ölimga olib keluvçi örtaça dozasi (LD50) hamda iş joyi havosidagi zararli moddaning xavflilik sinfi asosida hisoblanadi.[52]

0128-02-sonli "Özbekiston Respublikasi şaroitida zaharli sanoat çiqindilarining gigiyenik tasniflagiçi" SQM/SanR&N qöllanadi. Bu standart ma'lumotlari sanoat çiqindilarining

[52] Örtaça ölim dozasi (LD50): ta'sirga uçragan tajriba hayvonlarining yarmi (50%) uçun ölimga olib keladigan kimyoviy modda miqdori.
https://ec.europa.eu/health/scientific_committees/opinions_layman/en/tooth-whiteners/glossary/jkl/ld50.htm

kimyoviy tarkibini örganiş natijalari mavjud bölmaganda qöllanadi va zaharli sanoat çiqindilarini hisobga oliş hamda ular böyiça hisobot berişni yaxşilaş, ularni zararsizlantiriş, qayta işlaş yoki atrof-muhitga joylaştiriş usullarini aniqlaşga qaratilgan. Tasniflagiçda 134 turdagi zaharli sanoat çiqindisi, jumladan, I sinfga mansub 16 ta, II sinfga mansub 53 ta, III sinfga mansub 37 ta va IV sinfga mansub 28 ta çiqindining qiymatlari körsatilgan.

0300-11-son "Özbekiston şaroitida sanoat çiqindilarini töplaş, xatlovdan ötkaziş, tasniflaş, zararsizlantiriş, saqlaş va joylaştirişni taşkil etişga doir sanitariya qoidalari va me'yorlari" SQM/SanR&N sanoat çiqindilarini zararsizlantiriş va joylaştiriş usulini tanlaş tartibini belgilaydi. Bu talab zaharli çiqindilarni ham qamrab oladi. Unda, şuningdek, tarkibida asbest bölgan çiqindilarni töplaş, taşiş va joylaştiriş sanitariya qoidalari bayon etilgan.

12.1.1.1 Aeroportlarda çiqindilarni boşqariş

2023-yil 28-apreldagi "Aeroportni rejalaştiriş qöllanmasi (yerdan foydalaniş va atrof-muhitni boşqariş)"[53]ga köra, Özbekistondagi aeroportlarda çiqindilarni boşqariş bu qöllanma va yuqorida bayon etilgan SQM/SanR&Nga muvofiq tartibga solinadi. Özaviatsiya/CAA tasdiqlagan va qöllanmada keltirilgan Aviatsiya qoidalari hamda yöriqnomalari ham qöllanadi.

Aeroportni rejalaştiriş qöllanmasiga köra, aeroportlarda çiqindilarni boşqariş faoliyati mahalliy qoidalarga böysunadi va odatda pudratçi zimmasida böladi. Umuman olganda, har qanday xöjalik yurituvçi subyekt uçun yetakçi amaliyot törtta umumiy qabul qilingan qoidadan, ya'ni kamaytiriş, qayta foydalaniş, qayta işlaş va qayta tiklaşdan iborat.

Aeroport çiqindilari töqqizta umumiy toifaga bölinadi. Birinçi beş toifa: 1) qattiq maişiy çiqindilar; 2) quriliş va buziş qoldiqlari; 3) yaşil çiqindilar, masalan, obodonlaştiriş işlaridan hosil böladigan çiqindilar; 4) oziq-ovqat çiqindilari (maişiy); 5) havo kemasida hosil bölgan, ya'ni havo kemasidan yiğib olingan çiqindilar. Qolgan toifalar: 6) havo kemasi hojatxonasi çiqindilari; 7) tökilişni bartaraf etiş va tozalaş çiqindilari; 8) xavfli materiallar; 9) xalqaro reyslarning ovqat ta'minoti çiqindilari.

Çiqindilarni boşqariş dasturi uçta jihatni, ya'ni rejalaştiriş, tartiblar va maxsus qoidalarni qamrab olişi kerak. Rejalaştiriş çiqindilarni boşqariş çoralariga doir maxsus reja va dasturlarni işlab çiqişni qamrab oladi. Tartiblar çiqindilarni boşqariş samaradorligini yaxşilaşga qaratilgan maxsus çoralarni, masalan, çiqindilarni ajratiş, aeroport va havo kemasi çiqindilaridan qayta foydalaniş hamda ularni qayta işlaş, organik çiqindilarni kompostlaşni qamrab oladi. Xavfli çiqindilarni boşqariş uçun maxsus qoidalar talab etilişi mumkin. Bu qoidalar quyidagilarni qamrab olişi mumkin:

- hudud tevaragiga panjara örnatiş;
- darvozalar va panjaralarga ogohlantiriş tizimlarini örnatiş;
- transport vositalarini yuviş joyini ta'minlaş;
- materiallarni saqlaş uçun maxsus bino yoki omborxona ajratiş;
- yonğin signalizatsiyasi va gaz aniqlagiçlari kabi yonğindan himoya çoralarini qöllaş;
- şamollatiş tizimlari, uçqun çiqarmaydigan elektr jihozlari va öt öçirgiçlarni örnatiş;
- xodimlarni maxsus öqitiş;
- ayniqsa, çiqindi saqlaş joylari va çiqindilarni boşqarişning boşqa inşootlariga nisbatan yovvoyi tabiat xavfining oldini oliş dasturini amalga oşiriş.

12.1.2 Kreditorlar talablari

XMK/IFCning faoliyat standartlari va JBG/WBGning AMSX/EHS yöriqnomalari

Qattiq çiqindilar

XMK/IFC va JBG/WBGning Umumiy AMSX/EHS yöriqnomalari 1.6-bölimi "Çiqindilarni boşqariş" deb nomlanadi hamda har qanday miqdorda çiqindi hosil qiladigan, saqlaydigan yoki u bilan muomala qiladigan barça loyihalarga qöllanadi. XMK/IFCning AMSX/EHS yöriqnomalari 1.5-bölimida esa xavfli materiallarni boşqariş yoritilgan. Çiqindilarni boşqariş yöriqnomasiga köra, çiqindi hosil qiladigan va saqlaydigan inşootlarda quyidagi amaliyotlar qöllanişi kerak:

[53] https://www.uzcaa.uz/ru/acts

- faoliyat boşlanişidayoq çiqindilarni boşqarişning ustuvorliklarini belgilaş;
- atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlikka oid xavf va ta'sirlarni aniqlaş, çiqindi hosil bölişi hamda uning oqibatlarini hisobga oliş;
- çiqindilarni boşqarişning ustuvor ketma-ketligini belgilaş; bunda çiqindi hosil bölişining oldini oliş, uning miqdorini kamaytiriş, undan qayta foydalaniş, uni qayta tiklaş, qayta işlaş, hududdan olib çiqiş va eng oxirida yakuniy joylaştiriş çoralari hisobga olinişi kerak;
- amalda imkon qadar çiqindi materiallari hosil bölişiga yöl qöymaslik yoki uni kamaytiriş;
- çiqindi hosil bölişining oldini oliş imkoni bölmagan, biroq uning miqdorini kamaytiriş mumkin bölgan holatlarni yoki çiqindini qayta tiklaş va undan qayta foydalaniş imkoniyatlarini aniqlaş; va
- çiqindini resurs sifatida qayta tiklaş yoki undan qayta foydalaniş imkoni bölmasa, uni atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan tarzda tozalaş, yöq qiliş va joylaştiriş usullarini aniqlaş.

XMK/IFC va JBG/WBGning 2007-yilgi Aeroportlar uçun AMSX/EHS yöriqnomalarida çiqindilarni boşqarişning quyidagi yondaşuvlari tavsiya etiladi:

- mahalliy inşootlar mavjudligiga qarab, qattiq çiqindilarni qayta işlaş dasturini joriy etiş. Bunda yölovçi terminallarida metall, şişa, qoğoz va plastmassa uçun belgilangan çiqindi idişlari joylaştiriladi. Ovqatlaniş korxonalari kompostlaş mumkin bölgan va boşqa oziq-ovqat çiqindilarini qişloq xöjaligi öğiti hamda hayvonlar ozuqasi sifatida qayta işlaş uçun alohida töplaşi kerak;
- aviataşuvçilar va samolyotlarni tozalaş pudratçilari gazetalar va qoğozlar, plastmassa, metall idişlar hamda işlatilgan yostiqlarni alohida yiğiş orqali havo kemasining özidayoq çiqindilarni ajratişga rağbatlantirilişi kerak. Işlatilgan yostiqlar mebel işlab çiqarişda yoki issiqlik izolyatsiyasi sifatida qayta işlanişi kerak;
- havo kemalaridan çiqadigan ovqat yetkazib beriş çiqindilari inson va hayvon salomatligini himoya qilişga qaratilgan amaldagi mahalliy qoidalarga muvofiq boşqarilişi kerak. Mahalliy talablarda ovqat yetkazib beriş çiqindilari va bunday çiqindilar aralaşgan çiqindilarni qayta eritib işlaş, yoqiş yoki poligonga joylaştiriş talab etilişi mumkin.

Oqova suv

JBG/WBGning 2007-yilgi Umumiy AMSX/EHS yöriqnomalari işlab çiqariş jarayoni oqova suvi, yordamçi xizmatlar faoliyatidan oqova suv yoki jala suvining atrof-muhitga bevosita yoxud bilvosita oqizilişiga doir umumiy talablarni belgilaydi.

"Işlab çiqariş jarayoni oqova suvi, sanitariya, ya'ni maişiy kanalizatsiya suvi yoki jala suvi hosil qilişi mumkin bölgan loyihalar inson salomatligi va xavfsizligiga yoxud atrof-muhitga salbiy ta'sirlarning oldini oliş, ularni kamaytiriş va nazorat qiliş uçun zarur ehtiyot çoralarini öz içiga olişi kerak".

Biroq oqova suvdagi ifloslantiruvçi moddalar çeklovlari faqat sanitariya kanalizatsiya tizimlariga oqiziladigan sanitariya oqova suvi uçun belgilangan. Yer usti suvlariga oqiziladigan sanoat oqova suvi böyiça yöriqnomalar Jahon bankining AMSX/EHS yöriqnomalarida energetika sohasi uçun belgilangan.

JBG/WBGning 2007-yilgi Umumiy AMSX/EHS yöriqnomalarida, XMK/IFC yöriqnomasining 1.3.1-jadvalida tozalangan sanitariya oqova suvi oqizilmalari uçun tavsiya qiymatlari keltirilgan.

YTTB/EBRDning 3-atrof-muhit va ijtimoiy talabiga köra, buyurtmaçi çiqindi materiallari hosil bölişining oldini oladi yoki uni kamaytiradi hamda amaliy jihatdan mumkin qadar ularning ta'sirlarini pasaytiradi. Çiqindi hosil bölişining oldini oliş imkoni bölmasa, buyurtmaçi uning miqdorini imkon qadar kamaytiradi. Buyurtmaçi bunday çiqindidan qayta foydalanadi, uni qayta işlaydi yoki resurs sifatida qayta tiklaydi. Çiqindini inson salomatligi va atrof-muhit uçun xavfsiz tarzda energiya manbasi sifatida işlatiş

ham mumkin. Çiqindini qayta işlaş, undan qayta foydalaniş yoki uni qayta tiklaş mumkin bölmasa, buyurtmaçi unga atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va xavfsiz tarzda işlov beradi yoki uni joylaştiradi. Bunda çiqindi materialiga işlov beriş va uni qayta işlaş natijasidagi çiqarilmalar hamda qoldiqlar töğri nazorat qilinadi. Zarur hollarda Yevropa Ittifoqining asosiy ekologik standartlari yoki ularga teng xalqaro yetakçi amaliyot standartlariga rioya qilinadi.

12.1.3 Aviatsiya sohasi talablari - XFAT/ICAO

XFAT/ICAO aeroportlarda çiqindilar va oqova suvni boşqariş asoslarini belgilaydigan atrof-muhitni muhofaza qiliş siyosatlarini, ya'ni Doc 9501 va Doc 9988 hujjatlarini işlab çiqqan. XFAT/ICAO çiqindilarni boşqariş tartiblarining ijrosini majburan ta'minlamasa-da, çiqindilarni ajratiş, ular bilan muomala qiliş, qayta işlaş va joylaştirişga doir yetakçi amaliyotni tarğib qiladi. Batafsil ma'lumot XFAT/ICAOning Ekologik aeroport vositalari töplamidagi "Aeroportlarda çiqindilarni boşqariş" bölimida keltirilgan. XFAT/ICAO, şuningdek, xavfli çiqindilarni boşqarişda Bazel konvensiyasiga muvofiq iş tutiş zarurligini ta'kidlaydi.

12.2 Baholaş doirasini belgilaş

Mavjud çiqindilarni boşqariş inşootlari va ular bilan boğliq xizmatlar haqidagi oçiq ma'lumotlar hamda uçinçi tomon manbalari töplangan va loyiha hosil qiladigan çiqindi oqimlarini boşqariş imkoniyatini baholaşda foydalanilgan. Baholaş doirasi quyidagilardan iborat:

- kutilayotgan çiqindi va oqova suv hajmlarini qabul qilişga mos hamda ruxsat berilgan inşootlarni aniqlaş;
- mahalliy infratuzilma va xizmat körsatuvçilarning quvvati hamda ekologik talablarga muvofiqligini baholaş;
- milliy me'yoriy talablar va kreditorlar kutgan natijalarga mos çiqindilarni boşqariş rejasini işlab çiqişga asos yaratiş. Bu reja çiqindilar bilan notöğri muomala qilişga boğliq atrof-muhit va aholi salomatligiga ehtimoliy ta'sirlarni kamaytirişga xizmat qiladi.

12.3 Loyiha ta'sir qilişi mumkin bölgan obyektlar

Rejalaştirilgan loyiha faoliyati bilan tegişli muhim qabul qiluvçi obyektlar örtasidagi özaro ta'sirlar loyihaning ehtimoliy ta'sirlarini ifodalaydi. Quyidagi jadvalda loyihaning ta'sir hududlarida çiqindilar va oqova suvni boşqarişga boğliq bevosita hamda bilvosita qabul qiluvçi obyektlarning tavsifiy röyxati keltirilgan.

12.1-jadval. Loyiha çiqindilar orqali ta'sir qilişi mumkin bölgan obyektlar

Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Çiqindi inşootlari va atrof-muhitdagi qabul qiluvçi obyektlar	**Örtaça**	Mintaqada çiqindilarni boşqariş inşootlari mavjudligi ma'lum, biroq ularning loyiha çiqindilarini qabul qiliş quvvati aniq emas. Şu sababli çiqindi infratuzilmasiga ehtimoliy yuk jihatidan ehtiyotkor yondaşuv asosida örtaça sezgirlik belgilangan.

12.4 Mahalliy şaroitlar va kuzatuvlar

12.4.1 Loyiha hududida çiqindilarni boşqariş

Oçiq ma'lumotlar va uçinçi tomon manbalariga köra, kengroq loyiha hududi va Toşkent viloyatida çiqindi hamda oqova suvni boşqarişga möljallangan bir neçta inşoot mavjud. Bu inşootlar qattiq maişiy çiqindilar va kommunal oqova suvni tozalaş hamda joylaştiriş uçun mavjud infratuzilmani taşkil etadi. Me'yoriy tasdiqlar olingan va quvvati tasdiqlangan taqdirda, ular loyiha hosil qiladigan çiqindi oqimlarini boşqariş uçun ehtimoliy variantlardir.

12.4.1.1 Oqova suvni tozalaş inşootlari

Kengroq hududda quyidagi kommunal oqova suvlarni tozalaş inşootlari (OSTI/WWTP) joylaşgan:

- Nurafşon OSTI/WWTP
- Yangiyöl OSTI/WWTP

Bundan taşqari, ma'lumotlarga köra, Surum hududida yangi OSTI/WWTP quriş rejalaştirilgan va kelajakda işga tuşirilişi kutiladi. Biroq bu AMITB/ESIA tayyorlangan paytda inşootni işga tuşiriş sanasi va amaldagi holati rasman tasdiqlanmagan. Bu inşootlar atrofdagi şahar va şahar atrofi aholi manzillariga xizmat körsatadi hamda mintaqaviy oqova suvni boşqariş tarmoğinin bir qismidir.

12.4.1.2 Qattiq çiqindilarni joylaştiriş inşootlari

Mintaqada kommunal va xavfli bölmagan qattiq çiqindilarni joylaştiriş uçun quyidagi poligonlar mavjud:

- Yangiyöl çiqindi poligoni
- Ohangaron

Bu inşootlardan taşqari, Toşkent va uning atrofida bir neçta litsenziyaga ega çiqindilarni boşqariş kompaniyasi faoliyat yuritadi. Ular kommunal, sanoat va ayrim xavfli çiqindi oqimlarini yiğiş, taşiş, qayta işlaş, ularga işlov beriş hamda joylaştiriş xizmatlarini körsatadi. Toşkent mintaqasida litsenziyaga ega xizmat körsatuvçilar va inşootlar mavjud bölgan çiqindilar bilan muomala qilişning odatiy tartiblari 12.2-jadvalda keltirilgan.

Ohangaron çiqindi poligoni[54]

Ohangaron çiqindi poligoni Toşkent markazidan taxminan 35 km janubda, Toşkent viloyatining Ohangaron tumanida joylaşgan. Inşoot 1967-yildan buyon faoliyat yuritadi hamda Toşkent şahri va atrofdagi hududlardan qattiq maişiy çiqindilarni qabul qiladi. Çiqindilarni boşqarişni takomillaştiriş dasturi doirasida inşoot takomillaştirilgan.

Dastlabki poligon loyihaviy quvvatiga yetgani sababli Özbekiston Hukumati mavjud poligonga bevosita tutaş yangi çiqindi poligoni qurilişini tasdiqlagan. Jami 30 gektar maydon ajratilgan, şundan taxminan 25 gektari poligon faoliyati, 5 gektari esa yordamçi infratuzilma uçun möljallangan. Yangi inşoot xalqaro miqyosda tan olingan ekologik standartlarga muvofiq loyihalangan va ayni paytda amaldagi milliy ekologik hamda quriliş talablariga javob beradi.

[54] https://www.adb.org/sites/default/files/project-documents/45366/45366-004-ecar-en.pdf

12.2-jadval. Toşkent hududida çiqindilarni boşqariş amaliyoti

Çiqindi turi	Tavsif	Mavjud çiqindilarni boşqariş infratuzilmasi / litsenziyaga ega operatorlar
Xavfli çiqindilar, ya'ni moy bilan ifloslangan va kimyoviy çiqindilar	Xavfli moddalar bilan ifloslangan çiqindi materiallariga işlatilgan moylar, jumladan, dizel generatori moyi, kompressor moyi va transformator moyi kiradi. Bu toifaga moyli lattalar, moy filtrlari va ifloslangan idişlar, jumladan, moy yoki böyoq boçkalari ham kiradi. Ustaxona çiqindilari va saqlaş idişlaridagi loyqa ham şunday materiallardir.	Toşkent viloyatida faoliyat yuritadigan, litsenziyaga ega xavfli çiqindilarni boşqariş va moyni qayta tiklaş kompaniyalari tomonidan qayta işlaş yoki işlov beriş uçun qabul qilinadi. Kam ifloslangan metall boçkalar litsenziyaga ega metallni qayta tiklaş inşootlari tomonidan qabul qilinişi mumkin.
Quriliş va buziş çiqindilari	Buziş va quriliş işlarida hosil böladigan beton parçalari, ğişt, metall siniqlari, yoğoç va boşqa inert yoki xavfli bölmagan quriliş çiqindilari.	Belgilangan qattiq maişiy çiqindi poligonlariga joylaştirişga ruxsat beriladi. Qayta işlaş mumkin bölgan metallar litsenziyaga ega qora va rangli metallni qayta işlaş inşootlari tomonidan qabul qilinadi.
Qazib olingan tuproq	Yer işlarida hosil böladigan unumdor ustki tuproq va quyi qatlam tuproği.	Qayta işlatilsa, çiqindi sifatida tasniflanmaydi. Mos materialdan quriliş maydonida obodonlaştiriş, qayta töldiriş va tekislaş uçun foydalaniş mumkin. Ortiqça material mahalliy idoralar tasdiqlagan joylarda joylaştiriladi.
Xavfli bölmagan umumiy çiqindilar	Quriliş işlarida hosil böladigan qoğoz, karton, plastmassa, qadoqlaş materiallari va boşqa xavfli bölmagan çiqindilar, quriliş va buziş çiqindilari bundan mustasno.	Toşkent viloyatidagi litsenziyaga ega qayta işlaş kompaniyalari va kommunal çiqindi operatorlari tomonidan qabul qilinadi.
Qattiq maişiy çiqindilar	Işçilar yaşaş joylari, quriliş maydoni idoralari va foydalaniş bosqiçidagi inşootlarda hosil böladigan maişiy turdagi çiqindilar, jumladan, oziq-ovqat çiqindisi, qoğoz, plastmassa va boşqalar.	Mintaqaviy kommunal çiqindi operatori tomonidan yiğiladi va belgilangan kommunal poligonlarga taşiladi. Qayta işlaş mumkin bölgan qismlar litsenziyaga ega qayta işlaş kompaniyalariga yuborilişi mumkin.
Qadoq çiqindilari	Yetkazib berilgan materiallarga boğliq karton qutilar, plastmassa öramalar, polietilen parda, yoğoç qutilar, yorliqlar, töqima materiallar, rezina va şişa	Qayta işlaş mumkin bölgan materiallar mintaqada qoğoz va karton, plastmassa, yoğoç, rezina, töqima materiallar hamda şişani qayta işlaşga ixtisoslaşgan, litsenziyaga ega kompaniyalar tomonidan qabul qilinadi.
Tibbiy çiqindilar	Birinçi yordam punktlarida oz miqdorda hosil böladigan tibbiy çiqindilar, masalan, işlatilgan şpritslar, boğlov materiallari va tibbiy sarf buyumlari.	Litsenziyaga ega tibbiy çiqindilarni boşqariş kompaniyalari tomonidan yiğiladi va joylaştiriladi.
Oqova suv	Işlab çiqariş jarayoni oqova suvi, masalan, beton qoriş qurilmasining yuvindi suvi, quriliş maydonidan yuza oqimi, suv sathini pasaytirişda oqiziladigan suv va işçilar inşootlaridagi maişiy oqova suv.	Işlab çiqariş jarayoni oqova suvi tindiriladi va mumkin bölgan hollarda undan qayta foydalaniladi. Maişiy oqova suv litsenziyaga ega operatorlar tomonidan kommunal oqova suvni tozalaş inşootlariga taşiladi.

12.5 Ta’sirlar, oldini oliş va kamaytiriş çoralari, boşqaruv hamda qoldiq ta’sir

12.5.1 Quriliş bosqiçi

Rejalaştirilgan quriliş işlarida turli miqdorda xavfli va xavfli bölmagan qattiq hamda suyuq çiqindilar hosil böladi. Bundan taşqari, moy tökilişi, yonğinlar, toşqin suvlari va yonğinni öçirişda hosil böladigan ifloslangan yuvindi suvlar quriliş bosqiçidagi qöşimça çiqindi manbalarini taşkil etadi. Quriliş çiqindilari hosil bölişining ehtimoliy ta’sirlari keyingi bölimlarda körib çiqiladi.

12.5.1.1 Quriliş çiqindi oqimlari

Quriliş işlari quriliş maydonini tayyorlaş, quriliş va muhandislik işlari, elektr hamda mexanik qurilmalarni örnatiş, quriliş materiallarini yetkazib beriş va saqlaş, şuningdek, işçilar yaşaş inşootlaridan foydalanişni qamrab oladi. Bu faoliyatlarda quriliş va buziş çiqindilari, umumiy maişiy çiqindilar, xavfli çiqindilar va oqova suvni qamrab olgan turli çiqindi oqimlari hosil bölişi kutiladi. Quriliş bosqiçida hosil böladigan çiqindi qattiq yoki suyuq şaklda bölişi mumkin.

Quyidagi jadvalda quriliş bosqiçidagi çiqindilarni ularning manbasi va inson salomatligi hamda ekologik qabul qiluvçi obyektlar uçun ehtimoliy xavf darajasiga köra tasniflaş asosi keltirilgan.

12.3-jadval. Quriliş çiqindi oqimlarining tasnifi

Çiqindi toifasi	Kelib çiqişi	Tavsif
Xavfli bölmagan quriliş çiqindilari	Bu çiqindi oqimi odatda quriliş maydonini tayyorlaş, qaziş, quriliş va muhandislik işlari hamda mexanik va elektr qurilmalarni örnatişdan kelib çiqadi.	Bu çiqindi toifasi quyida keltirilgan xavfli çiqindilarning aniq xususiyatlariga ega bölmagani sababli, odatda atrof-muhit va inson salomatligi uçun kiçik xavf tuğdiradi. Şu bois çiqindini kamaytiriş imkoniyatlari tugagandan va tegişli tasdiq olingandan söng uni odatiy kommunal inşootlarda joylaştiriş mumkin. Qattiq, xavfli bölmagan quriliş çiqindilariga quyidagilar kiradi: • taşlab yuboriladigan töldirgiç materiallar, jumladan, beton, asfalt va qazilma qoldiqlari; • metall siniqlari; • quriliş materiallari va qadoqlaridan qoladigan şişa, plastmassa, rezina, karton hamda yoğoç çiqindilari; • ösimlik qoplamini olib taşlaşdan hosil böladigan organik çiqindilar.
Xavfli bölmagan maişiy çiqindilar	Quriliş loyihalarida maişiy çiqindilar işçilar lagerlari, idoralar va maişiy xizmat inşootlari faoliyatidan hosil böladi.	Bu çiqindilar atrof-muhit uçun e’tiborga arzimas yoki kiçik xavf tuğdiradi va asosan işlatilgan yoki işlov berilgan maişiy turdagi materiallardan iborat. Qattiq, xavfli bölmagan maişiy çiqindilarga quyidagilar kiradi: • taşlab yuboriladigan oziq-ovqat mahsulotlari; • taşlab yuboriladigan kiyim-keçaklar; • taşlab yuboriladigan sanitariya materiallari va uy-rözğor buyumlari; • idora işlari va qadoqlardan hosil böladigan çiqindi qoğoz; • suyuq, xavfli bölmagan maişiy çiqindilarga kulrang va qora oqova suv kiradi.
Xavfli çiqindilar	Quriliş loyihalarida xavfli çiqindilar odatda xavfli moddalarning tökilişi yoki sizib çiqişi, şuningdek,	Bu çiqindi toifasi inson salomatligi yoki atrof-muhitga zarar yetkazişi mumkin. U keskin, surunkali yoki qaytarib bölmaydigan salomatlik oqibatlarini, oğir hollarda esa ölim xavfining oşişini keltirib çiqarişi mumkin.

Çiqindi toifasi	Kelib çiqişi	Tavsif
	konsentrlangan kimyoviy mahsulotlardan foydalaniş va ularni saqlaş natijasida hosil böladi. Ular tarkibida xavfli materiallar bölgan uskuna qismlari yaroqsiz holga kelganda yoki almaştirilganda ham hosil böladi. Bunday moddalar bilan ifloslangan uskuna yoxud yuzalarni tozalaş ham xavfli çiqindi hosil qiladi.	Çiqindi bitta yoki bir neçta xavfli xususiyatni namoyon etsa yoxud zaharli, portlovçi, oson alangalanadigan, yonuvçan, oksidlovçi, yemiruvçi, reaksiyaga kirişuvçan, radiofaol yoki yuqumli moddalarni öz içiga olsa, xavfli deb tasniflanadi. Qattiq şakldagi xavfli quriliş va maişiy çiqindilarga quyidagilar kiradi: • işlatilgan akkumulatorlar; • taşlab yuborilgan kimyoviy modda idişlari; • işlatilgan moy filtrlari; • ifloslangan tozalaş materiallari; • tökilgan kimyoviy moddalar bilan ifloslangan tuproq; • tarkibida xavfli materiallar bölgan yoki ular bilan ifloslangan, yaroqsiz holga kelgan maşina va uskuna qismlari; • tibbiy çiqindilar; Suyuq şakldagi xavfli quriliş va maişiy çiqindilarga quyidagilar kiradi: • işlatilgan moylar, jumladan, surkov moylari va gidravlik suyuqliklar; • beton yuvindi suvi; • transport vositalarini yuviş joylarida hosil böladigan oqova suv; • ifloslangan jala suvi yoki toşqin suvi.

Loyihaning quriliş bosqiçi jami 48 oy davom etişi rejalaştirilgan. Eng yuqori bandlik davrida köpi bilan 5 000 kişi, jumladan, terminal tomonida 2 700 kişi va aerodrom tomonida 2 300 kişi işlaşi kutiladi. Bu AMITB/ESIA tayyorlanayotgan paytda çiqindi miqdori böyiça hisob-kitoblar mavjud emas, çunki yakuniy loyiha talablari, quriliş usullari, materiallar miqdori va pudratçining xarid strategiyasi hali belgilanmagan. Quriliş davrida çiqindi hosil böliş darajasi yakuniy loyiha tuzilişi, tanlangan materiallar, quriliş ketma-ketligi, işçi kuçi soni va quriliş maydoniga xos boşqaruv amaliyotiga boğliq böladi.

Loyiha batafsil loyihalaş va xarid bosqiçiga ötganda, MXQ/EPC pudratçisi çiqindilarni boşqariş böyiça keng qamrovli reja (ÇBR/WMP) tayyorlaşi kerak. ÇBR/WMP beş yönalişni qamrab oladi. Bular: i) kutilayotgan çiqindi oqimlarining miqdoriy hisobi; ii) milliy tartibga soliş talablariga muvofiq çiqindilar tasnifi; iii) çiqindilarni ajratiş, saqlaş, qayta foydalaniş, qayta işlaş, taşiş va joylaştiriş tartiblari. Reja, şuningdek, iv) litsenziyaga ega çiqindilarni boşqariş inşootlarini aniqlaş va v) kuzatuv hamda hisobot mexanizmlarini qamrab oladi. Bu yondaşuv çiqindilarni boşqariş tasdiqlangan quriliş usullari asosida rejalaştirilişini hamda tartibga soliş talablari va yetakçi xalqaro tarmoq amaliyotiga (IXTA/GIIP) muvofiq bölişini ta’minlaydi.

12.5.1.2 Çiqindilarni yetarli darajada boşqarmaslik oqibatidagi ta’sirlar

Quriliş çiqindilarini yetarli darajada boşqarmaslik oqibatidagi ehtimoliy ta’sirlarni quyidagi guruhlarga ajratiş mumkin:

- Loyihada katta hajmda quriliş çiqindilari hosil bölişi tufayli mavjud kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi.
- Tuproq va yer osti suvining ifloslanişi;
- yer usti suvlarining, ya’ni yuza oqimi va qabul qiluvçi suv obyektlarining bevosita yoki bilvosita ifloslanişi; va
- yaqin atrofdagi aholi uçun salomatlik muammolari va noqulaylik.

Yer usti suv manbalariga ta’sirlarni tahlil qiliş va baholaş, ularning oldini oliş va kamaytiriş hamda kuzatuv talablarini körib çiqiş uçun 11-bobga, tuproq va yer osti suvlariga ta’sirlar böyiça esa 10-bobga qarang.

Mavjud kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi

Quriliş bosqiçida qisqa muddat içida katta miqdorda quriliş, maişiy va xavfli çiqindilar hosil böladi. Bu mintaqadagi mavjud kommunal çiqindi poligonlari, qayta işlaş inşootlari, xavfli çiqindiga işlov beruvçi operatorlar va oqova suvni tozalaş inşootlariga qöşimça yuk tuşirişi mumkin.

Tegişli muvofiqlaştiriş bölmasa, katta hajmdagi çiqindilar qabul qiluvçi inşootlarda vaqtinçalik quvvat çeklovlari yoki ortiqça iş yukini yuzaga keltirişi mumkin. Biroq oldindan şartnoma tuziş, çiqindini bosqiçma-bosqiç olib çiqiş jadvalini tuziş, çiqindilarni ajratiş va imkon qadar köp qayta işlaş, şuningdek, litsenziyaga ega operatorlar bilan muvofiqlaştiriş natijasida qoldiq ta’sir kiçik va boşqariladigan bölişi kutiladi.

Bu AMITB/ESIA tayyorlangan paytda bu inşootlarning mavjud quvvati va faoliyat zaxirasi haqidagi batafsil ma’lumotlar töliq tasdiqlanmagan. Şu sababli qabul qiluvçi çiqindilarni boşqariş tuzilmalarining sezgirligi ehtiyotkorlik jihatidan örta deb baholanadi.

Mavjud ma’lumotlarga köra, mintaqaviy çiqindilarni boşqariş tuzilmalari quriliş va foydalaniş bosqiçlarida loyihani qöllab-quvvatlaşga qodir deb hisoblanadi. Şunga qaramay, yakuniy çiqindilarni boşqariş inşootlari va pudratçilar hali tanlanmagan. Şartnoma tuzişdan oldin loyiha taklif etilgan çiqindilarni boşqariş inşootlari va xizmat körsatuvçilarini tartibga soliş talablariga muvofiqlik, mavjud quvvat hamda IXTA/GIIPga muvofiqlikni tasdiqlaş uçun kompleks tekşiruvdan ötkazadi. Kamçiliklar aniqlansa, muqobil litsenziyaga ega inşootlar tanlanadi yoki qöşimça boşqaruv çoralari amalga oşiriladi.

Mavjud oqova suvni tozalaş inşootlari, çiqindi poligonlari va litsenziyaga ega çiqindi operatorlari mintaqaviy çiqindilarni boşqariş infratuzilmasi quriliş davrida loyihani qöllab-quvvatlaşi mumkinligini körsatadi. Buning uçun mavjud quvvat baholanişi va tegişli şartnomalar tuzilişi kerak.

Çiqindilarni yetarli darajada boşqarmaslik oqibatidagi salomatlik va ijtimoiy ta’sirlar

Quriliş çiqindilari va kanalizatsiya suvini notöğri boşqariş atrof-muhit hamda jamiyatga jiddiy ta’sir körsatişi mumkin. Çiqindilar töğri ajratilmasa, saqlanmasa va joylaştirilmasa, sizindi suv yoki tasodifiy tökilişlar orqali tuproq va yer usti suvlari ifloslanişi mumkin. Natijada mahalliy ekotizimlar xavf ostida qoladi, ifloslantiruvçi moddalar esa aholi foydalanadigan qişloq xöjaligi yerlari va suv manbalariga tuşişi mumkin. Xavfli çiqindilarni notöğri boşqariş zaharli moddalar yoki kasallik tuğdiruvçi omillar ta’sirida işçilar, yaqin atrofdagi aholi va yovvoyi hayvonlarda keskin yoki surunkali salomatlik oqibatlarini keltirib çiqarişi mumkin.

Kanalizatsiya suvini yetarli darajada boşqarmaslik, masalan, septik baklar yoki saqlaş inşootlariga tegişli texnik xizmat körsatmaslik, ularning toşib çiqişi yoki sizib çiqişiga olib kelişi mumkin. Bu yoqimsiz hidlar tarqalişi, yaqin drenaj kanallari ifloslanişi hamda suv orqali yuqadigan kasalliklar avj olişi xavfini tuğdiradi. Bunday şaroit mahalliy yaşaş şaroitini yomonlaştirib, aholi şikoyatlari yoki qarşiligiga sabab bölişi mumkin. Natijada loyiha işlari keçikişi va loyihaning faoliyat yuritişiga berilgan ijtimoiy rozilikka putur yetişi mumkin.

Bundan taşqari, quriliş maydonida boşqarilmaydigan qattiq çiqindilar töplanişi kemiruvçilar va haşarotlarni jalb qiladi. Bu qöşimça salomatlik xavflarini yuzaga keltirib, işçilar va mahalliy aholi uçun noqulaylikni oşirişi mumkin.

Şu sababli çiqindilar va kanalizatsiya suvini samarali boşqariş atrof-muhitdagi qabul qiluvçi obyektlarni muhofaza qiliş, ta’sirga uçragan aholi bilan yaxşi munosabatlarni saqlaş hamda işçilar salomatligi va xavfsizligini himoya qiliş uçun juda muhim. IXTA/GIIPga rioya qiliş bu xavflarning oldini oliş va ularni kamaytiriş uçun zarur. Bunga muntazam kuzatuv, işçilarni öqitiş va aholi bilan hamkorlik kiradi. Bu çoralar loyihada çiqindilar bilan muomala qiliş inson salomatligi yoki atrof-muhitga salbiy ta’sir körsatmasligini ta’minlaydi.

12.5.1.3 Çiqindilar bilan muomala qilişdagi nazorat çoralari

MXQ/EPC pudratçisi loyihaning quriliş bosqiçi uçun çiqindilarni boşqarişning tegişli tartiblarini belgilaydi. Bunga quriliş işlarida hosil bölgan çiqindilarni yiğiş, taşiş, ularga işlov beriş, qayta işlaş va joylaştiriş böyiça litsenziyaga ega mahalliy çiqindilarni boşqariş inşootlari bilan muvofiqlaştiriş hamda rasmiy şartnomalar tuziş kiradi.

Quyidagi jadvalda mavjud çiqindi inşootlariga ortiqça yukni kamaytiriş uçun quriliş bosqiçida hosil bölişi kutilayotgan turli çiqindi oqimlari uçun taklif etilgan boşqaruv yondaşuvi umumlaştirilgan.

12.4-jadval. Quriliş davrida çiqindilarni boşqariş

Quriliş çiqindisi toifasi	Boşqariş usuli
Xavfli bölmagan quriliş çiqindilari	Qattiq çiqindilar quriliş maydoni böylab joylaştirilgan çiqindi idişlari va katta çiqindi qutilarida yiğiladi hamda ajratiladi; bu jarayonni markaziy çiqindi saqlaş va yiğiş maydoni qöllab-quvvatlaydi. Materiallarni qayta tiklaşga kömaklaşiş uçun qayta işlanadigan va qayta işlanmaydigan qismlar hosil böliş joyidayoq ajratiladi. Çiqindilar qayta işlaş yoki belgilangan inşootlarda yakuniy joylaştiriş uçun litsenziyaga ega hamda mahalliy idoralar tasdiqlagan çiqindilarni boşqariş xizmatini körsatuvçilarga topşiriladi.
Xavfli bölmagan maişiy çiqindilar	Işçilar inşootlarida hosil böladigan qattiq maişiy çiqindilar maxsus çiqindi idişlari va katta çiqindi qutilarida yiğiladi hamda ajratiladi, söng markaziy yiğiş joyida vaqtinça saqlanadi. Amaliy jihatdan mumkin bölsa, qayta işlanadigan materiallar alohida ajratiladi. Çiqindilar litsenziyaga ega hamda mahalliy idoralar tasdiqlagan çiqindilarni boşqariş xizmatini körsatuvçilarga topşiriladi. Quriliş davrida hosil böladigan kanalizatsiya suvi berk saqlaş baklarida yiğiladi. Vakolatli kanalizatsiya suvini boşqariş kompaniyasi uni vaqti-vaqti bilan kommunal oqova suvlarni tozalaş inşootiga (OSTI/WWTP) tozalaş va joylaştiriş uçun olib ketadi.
Xavfli çiqindilar	Qattiq xavfli çiqindilar aniq yorliqlangan maxsus idişlarda yiğiladi va suv ötkazmaydigan yuzasi, ikkilamçi tutib qoliş tösiği hamda ob-havodan himoyasi bölgan nazorat qilinadigan hududlarda saqlanadi. Bu çiqindilar faqat litsenziyaga ega va mahalliy idoralar tasdiqlagan xavfli çiqindilarni boşqariş xizmatini körsatuvçilarga topşiriladi.

MXQ/EPC pudratçisi IXTA/GIIPga muvofiq ÇBR/WMPni tayyorlaydi va amalga oşiradi. ÇBR/WMP ehtiyotkorlik majburiyati tamoyilini qamrab oladi. Unga köra, barça uçinçi tomon çiqindi taşuvçilari va çiqindini joylaştiriş yoki qayta işlaş inşootlarining tegişli litsenziyalarga egaligi hamda amaldagi ekologik talablarga muvofiq faoliyat yuritişi tekşiriladi. Zarur hollarda muvofiqlikni tasdiqlaş uçun çiqindini qabul qiluvçi inşootlarda audit yoki kompleks tekşiruv ötkaziladi.

Bu yondaşuv 2026-yil 1-iyundan kuçga kirişi belgilangan yangi milliy qarorga muvofiq. Qarorga köra, binolar, yöllar va muhandislik tarmoqlarini quriş, qayta quriş yoki buzişda hosil böladigan çiqindilar rasmiy şartnoma asosida faqat bunday çiqindiga işlov berişga ruxsat etilgan korxona yoki poligonlarga topşirilişi kerak. Qarorda çiqindi hajmini tegişli hisobga oliş, belgilangan yiğiş joylarini aniqlaş hamda çang hosil bölişi va hidni nazorat qiliş çoralarini amalga oşiriş ham majburiy etib belgilangan.[55]

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari bölmaganda, mavjud çiqindilarni boşqariş inşootlariga ehtimoliy ortiqça yuk bilan boğliq ta’sir salbiy, bevosita va örta kölamli deb baholanadi. Quyidagi jadvalda bayon etilgan çoralar, jumladan, oldindan şartnoma tuziş, çiqindilarni kamaytiriş, ajratiş va qayta işlaş hamda inşootlarni kompleks tekşiriş amalga oşirilsa, qoldiq ta’sir ahamiyati kiçik darajagaça kamayişi kutiladi.

[55] https://darakchi.uz/en/208828

12.5.2 Quriliş bosqiçida çiqindilar va oqova suvni boşqariş ta’sirlarini baholaş xulosasi

Quyidagi jadvalda quriliş bosqiçida loyiha çiqindilarining aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga ehtimoliy ta’sirlari, tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda bu çoralar bajarilgandan keyingi qoldiq ta’sirlar umumlaştirilgan.

12.5-jadval. Quriliş bosqiçida çiqindilar va oqova suvni boşqariş ta’sirlarini baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sir
Katta hajmdagi xavfli bölmagan quriliş çiqindilari tufayli mavjud kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Kiçik	Toşkent viloyatidagi kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlari.	Örta	Kiçik	Sezilarsiz
Katta hajmdagi xavfli bölmagan maişiy çiqindilar tufayli mavjud kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Kiçik	Toşkent viloyatidagi kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlari.	Örta	Kiçik	Sezilarsiz
Katta hajmdagi xavfli çiqindilar tufayli mavjud kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Örta	Toşkent viloyatidagi kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlari.	Örta	Örta	Kiçik

Mavjud çiqindi tuzilmalariga ortiqça yuk tuşişining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari

- MXQ/EPC pudratçisi Toşkent viloyatidagi mahalliy davlat idoralari, masalan, hokimliklar bilan loyiha çiqindilarini qabul qilişga mos, litsenziyaga ega çiqindilarni boşqariş inşootlarini aniqlaş uçun muvofiqlaştiriş olib boradi. Bundan taşqari, mavjud tuzilmalar faoliyati va kommunal xizmatlarning ehtimoliy buzilişini bartaraf etiş uçun qöşimça oldini oliş va kamaytiriş rejalari zarurligini aniqlaş uçun tegişli kommunal xizmatlar hamda aholi bilan maslahatlaşiladi.
- Quriliş boşlanişidan oldin MXQ/EPC pudratçisi belgilangan poligonlar, qayta işlaş markazlari, xavfli çiqindi inşootlari va OSTI/WWTPlardagi mavjud quvvatni tasdiqlaydi. Qabul qiluvçi inşootlarga ortiqça yuk tuşişining oldini oliş uçun ruxsat etilgan çiqindi turlari, kutilayotgan hajmlar va yetkazib beriş jadvallari körsatilgan rasmiy şartnomalar tuziladi.
- Quriliş bosqiçi uçun ÇBR/WMP IXTA/GIIPga muvofiq tayyorlanadi va amalga oşiriladi.
- Çiqindini yetkazib berişda qisqa muddatli keskin oşişlarning oldini oliş uçun loyiha çiqindilarni taşiş jadvalini quriliş bosqiçlariga muvofiq bosqiçma-bosqiç amalga oşiradi.
- MXQ/EPC pudratçisi quriliş maydonidan taşqarida işlov beriş yoki joylaştiriş talab etiladigan barça çiqindi yuklari faqat tegişli idoralar belgilagan litsenziyaga ega çiqindilarni boşqariş inşootlariga topşirilişini ta’minlaydi.
- Çiqindini taşişga qaysi tomon javobgar ekaniga qarab, uçinçi tomonning kommunal tuzilmalariga zarar yetganda MXQ/EPC pudratçisi xizmat operatori yoki tuzilma egasi bilan maslahatlaşib, bu haqda xabar beriş va tezkor ta’mirni taşkil qiladi. Zararlangan har qanday tuzilmani ta’mirlaş jadvali xizmat operatori yoki tuzilma egasi bilan kelişiladi va zarur hollarda ta’sirga uçragan aholiga yetkaziladi.
- Kesilgan qoldiqlar, buzilgan materiallar va qadoq çiqindilarini kamaytiriş uçun materiallarni xarid qiliş va saqlaş amaliyoti maqbullaştiriladi. Ortiqça materiallarni kamaytiriş uçun ularning miqdori aniq hisoblanadi va amaliy jihatdan mumkin joylarda modulli quriliş usullari qöllanadi.
- Qazib olingan tuproq, inert quriliş materiallari va mos töldirgiçlardan quriliş maydonida qayta töldiriş hamda obodonlaştiriş uçun imkon qadar köp foydalaniladi. Qayta işlanadigan materiallar, jumladan, metall, yoğoç, plastmassa va kartonni qayta tiklaş darajasini oşiriş uçun maxsus ajratiş joylari taşkil etiladi.

12.5.3 Foydalaniş bosqiçi

Rejalaştirilgan foydalaniş faoliyati va favqulodda vaziyatlar turli miqdorda xavfli hamda xavfli bölmagan qattiq va suyuq çiqindilar hosil qiladi. Foydalaniş bosqiçida moy tökilişi, yonğin çiqişi va toşqin suvi ehtimoliy çiqindi manbalari hisoblanadi. Yonğinni öçirişdagi ifloslangan yuvindi suv ham şunday manbadir. 12.6-jadvalda loyihaning foydalaniş bosqiçida çiqindilar va oqova suvni boşqarişga boğliq bevosita ehtimoliy ekologik jihatlar, ta'sirlar hamda qabul qiluvçi obyektlar keltirilgan.

12.6-jadval. Foydalaniş bosqiçidagi ehtimoliy ta'sirlar

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta'sirlar va ta'sir doirasi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
Terminal faoliyati, yölovçi va yuk	Qattiq maişiy çiqindi hosil bölişi	Qattiq maişiy çiqindi hajmining oşişi terminal va uning atrofidagi çiqindi yiğiş hududlarida mahalliy çiqindi tizimlariga bosim tuğdirişi	Mahalliy çiqindilarni boşqariş inşootlari, mahalliy hokimlik va mahalliy aholi
Havo kemalari va aerodrom tomoni faoliyati	Xavfli va xavfli bölmagan çiqindi hosil bölişi	Qattiq maişiy va xavfli çiqindilar hajmining oşişi terminal va uning atrofidagi çiqindi yiğiş hududlarida mahalliy çiqindi tizimlariga bosim tuğdirişi	Mahalliy çiqindilarni boşqariş inşootlari, mahalliy hokimlik va mahalliy aholi
Texnik xizmat körsatiş, ta'mirlaş va kapital ta'mirlaş inşootlaridagi faoliyat, YXKU/GSE hamda transport vositalariga texnik xizmat körsatiş			
Yuk bilan işlaş faoliyatidan çiqindilar, masalan, qadoqlar	Plastmassa, yoğoç va metall qadoq çiqindilari	Çiqindi oqimlarining töplanişi havo yuk terminali va logistika hududlarida çiqindilarni boşqariş bilan boğliq hamda körinişga ta'sirlarni yuzaga keltirişi	Mahalliy çiqindilarni boşqariş inşootlari, qayta işlaş korxonalari va poligon operatorlari
Oziq-ovqat va içimlik sotuv joylari	Organik va qadoq çiqindilari	Terminal va yuklaş maydonlarida hid, zararkunandalar jalb qilinişi va oziq-ovqat çiqindisi hajmining oşişi	Aholi salomatligi, yölovçilar va foydalaniş bosqiçi xodimlari, masalan, farroşlar
Terminal hojatxonalari va yölovçi inşootlari	Sanitariya oqova suvi hosil bölişi	Mahalliy kanalizatsiya suvini tozalaş tizimlariga yukning oşişi; tizim işdan çiqqanda tozalanmagan suv oqizilişi xavfi	Kommunal kanalizatsiya tarmoği va mahalliy tozalaş inşootlari
Ovqat tayyorlaş joylari, jumladan, restoranlar va dam oliş zallari	Yoğ va organik moddalarga boy oqova suv hosil bölişi	Oldindan tozalanmasa, drenaj tizimlarining tösilişi, nojöya hid va ifloslaniş	Mavjud kanalizatsiya tuzilmalari va tozalaş inşootlari
Havo kemalarini tozalaş va ularning hojatxonalariga xizmat körsatiş	Kimyoviy moddali va qora oqova suvni oqiziş	Kimyoviy tozalaş vositalari yoki tozalanmagan çiqindi tufayli havo kemalari turar maydoni va xizmat hududlariga ta'sir etadigan ifloslaniş xavfi	Aeroport drenaj tizimlari
Transport vositalari va uskunalarni	Xavfli oqova suv hosil bölişi	Oğir metallar bilan ifloslaniş xavfi; yuvindi suv	Suvdagi yaşaş muhitlari, suv

Faoliyat	Atrof-muhit jihati	Ta’sirlar va ta’sir doirasi	Ehtimoliy qabul qiluvçi obyektlar
yuviş hamda muzdan tozalaş		yomon boşqarilganda YXKU/GSE va texnik xizmat hovlilarida yer usti suvi hamda tuproq ifloslanişi. Yaqin suvlarda KBE/BODning oşişi; havo kemalari turar maydonlari va uçiş-qöniş yölaklari	obyektlari va oqimning quyi qismidagi yer usti suvi foydalanuvçilari, masalan, Çirçiq daryosi mahalliy tozalaş inşootlari
Favqulodda vaziyatlar, masalan, tökilişga javob çoralari	Tasodifan xavfli çiqindi hosil bölişi	Darhol javob çoralarini talab qiladigan yuqori xavfli çiqindi hajmining keskin oşişi; ta’sir hodisa joylari doirasi bilan çeklanadi	Mahalliy çiqindilarni boşqariş inşootlari

Aeroportning foydalaniş bosqiçida terminal işlari, havo kemalari va yölovçilarga xizmatlar, texnik xizmat hamda tijorat nuqtalaridan köp miqdorda qattiq va suyuq çiqindi hosil böladi. Ularni samarali boşqariş atrof-muhitga ta’sirni kamaytiriş va inson salomatligini himoya qiliş uçun zarur.

Çiqindi turlari XFAT/ICAOning “Aeroportlarda çiqindilarni boşqariş” yöriqnomasidagi toifalarga mos: qattiq maişiy, quriliş va buziş, havo kemalaridan tuşiriladigan, kompostlanadigan organik, xavfli va sanoat çiqindilari hamda hojatxonalardan çiqadigan kulrang va qora oqova suv. Har bir tur özига xos boşqaruv muammolari va xavflarni yuzaga keltiradi.

12.5.3.1 Qattiq maişiy çiqindilar

Aeroportdagi qattiq maişiy çiqindi asosan terminalning umumiy joylari, çakana savdo nuqtalari, aviakompaniya idoralari va yuk bilan işlaşda hosil böladi. U plastmassa, qoğoz, karton, şişa butilka va qadoq materiallari kabi kundalik buyumlarni qamrab oladi. Uning köpayişi mahalliy yiğiş xizmatlari va poligon quvvatiga qöşimça bosim yaratadi hamda terminal içidagi va atrofidagi aholi va kommunal çiqindi tuzilmalariga ta’sir körsatişi mumkin.

12.5.3.2 Xavfli va sanoat çiqindilari

Havo kemalari va yer usti transport vositalarini yuviş, yoqilği quyiş, texnik xizmat körsatiş, muzdan tozalaş va ta’mirlaş işlarida hosil böladigan çiqindilar moylar, erituvçilar, kimyoviy qoldiqlar va ifloslangan materiallarni qamrab oladi. Bu çiqindilar töğri boşqarilmasa, atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy xavf tuğdiradi. Özbekistonning SanN&RRUz N 0127-02 kabi me’yoriy hujjatlari bunday çiqindilarni tasniflaş, saqlaş va joylaştirişni qat’iy tartibga soladi.

12.5.3.3 Oqova suv va sanitariya çiqindilari

Foydalaniş bosqiçida asosan terminal hojatxonalari, ovqat tayyorlaş joylari va havo kemalari hojatxonalariga xizmat körsatişdan sanitariya oqova suvi hamda yoğli oqova suv hosil böladi. Kommunal oqova suvlarni tozalaş inşootlariga yuk oşişi, tizim işdan çiqqanda esa tozalanmagan yoki yetarli tozalanmagan suv oqizilişi xavfi paydo bölişi mumkin. Yoğ va organik çiqindilar sababli tösilişlar hamda nojöya hidlar mavjud kanalizatsiya tuzilmalariga ham ta’sir qiladi. Bu mahalliy aholi salomatligi va qabul qiluvçi suv obyektlariga, jumladan, Çirçiq daryosiga ta’sir körsatişi mumkin.

Foydalaniş bosqiçida hosil böladigan oqova suv asosan loyiha hududida taklif etilayotgan OSTI/WWTPda tozalanadi. Faqat zarur hollarda çeklangan hajmdagi suvni loyiha hududidan taşqarida boşqariş kerak.

12.5.3.4 Ovqat xizmatlaridan organik va qadoq çiqindilari

Oziq-ovqat va içimlik sotuv joylarida organik çiqindilar hamda qadoq materiallari hosil böladi. Ular töğri ajratilmasa va öz vaqtida olib çiqilmasa, terminal va yuklaş joylarida hid muammolari, zararkunandalar köpayişi hamda aholi salomatligi uçun xavflar oşişi mumkin.

12.5.3.5 Yuk bilan işlaş faoliyatidan qadoq çiqindilari

Yuk bilan muomala qilişda plastmassa, yoğoç va metall kabi qadoq materiallari töplanişi, ayniqsa, havo yuk terminallari va logistika hududlarida çiqindilarni boşqariş bilan boğliq hamda körinişga ta’sirlarni yuzaga keltirişi mumkin. Atrof-muhit yomonlaşişining oldini oliş uçun ularni töğri yiğiş va qayta işlaş zarur.

12.5.3.6 Karantin çiqindilari

Xalqaro uçişlardan çiqadigan hamda zararkunandalar yoki kasalliklar kirib kelişi xavfini tuğdirişi mumkin bölgan karantin çiqindilariga alohida e’tibor beriş kerak. Bu çiqindilarni alohida boşqariş, köp hollarda joyning özida yoqiş yoki xavfsiz qadoqlaş va joylaştiriş kerak.

12.5.4 Foydalaniş bosqiçida çiqindilar va oqova suvlarni boşqariş ta’sirini baholaş böyiça xulosa

Mavjud oqova suvni tozalaş inşootlari, çiqindi poligonlari va litsenziyali çiqindi operatorlari mintaqadagi çiqindilarni boşqariş tizimi loyihani foydalaniş bosqiçida qöllab-quvvatlay olişini körsatadi. Buning uçun mavjud quvvatni baholaş va tegişli şartnomalarni tuziş kerak.

Umuman olganda, foydalaniş bosqiçida atrof-muhit ifloslanişi, salomatlik xavflari va noqulayliklarning oldini oliş uçun özaro muvofiqlaştirilgan boşqaruv yondaşuvlarini talab qiladigan turli çiqindi turlari hosil böladi. Oldini oliş va kamaytiriş çoralari bölmasa, çiqindi hajmi va xavfli materiallar köpayadi. Natijadagi umumiy ta’sir mahalliy çiqindilarni boşqariş inşootlariga örta darajada salbiy bosim tuğdirişi mumkin. Yer usti suvlari va yaqin atrofdagi aholi kabi qabul qiluvçi obyektlar ham şunday bosimga uçraydi.

Quyidagi jadvalda foydalaniş bosqiçidagi çiqindilarning aniqlangan qabul qiluvçi obyektlarga ehtimoliy ta’sirlari, tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari hamda ular bajarilgandan keyingi qoldiq ta’sirlar umumlaştirilgan.

12.7-jadval. Foydalaniş bosqiçida çiqindilar va oqova suvni boşqariş ta’sirlarini baholaş xulosasi

Ehtimoliy ta’sirlar	Ta’sir kölami	Qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ta’sir ahamiyati	Qoldiq ta’sir
Foydalaniş bosqiçidagi xavfli bölmagan çiqindilar, jumladan, qattiq maişiy çiqindi, oziq-ovqat va qadoq çiqindilari hosil bölişi tufayli kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Örta	Toşkent şahri va Toşkent viloyatidagi kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlari	Örta	Örta	Kiçik
Texnologik jarayon çiqindilari va xavfli çiqindilar, masalan, moylar, erituvçilar, kimyoviy qoldiqlar va hojatxona çiqindisi hosil bölişi tufayli sanoat hamda xavfli çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Örta	Litsenziyaga ega xavfli çiqindiga işlov beriş va uni joylaştiriş inşootlari	Örta	Örta	Kiçik

Çiqindi tuzilmalariga ortiqça yuk tuşişining oldini oliş va uni kamaytiriş çoralari

- Loyiha kompaniyasi barça çiqindi oqimlarini tegişli tartibda boşqariş uçun yetarli quvvat mavjud bölişini ta’minlaş maqsadida Toşkent şahri va Toşkent viloyatidagi mahalliy davlat hokimiyati organlari, kommunal xizmat körsatuvçi taşkilotlar hamda litsenziyaga ega çiqindilarni boşqariş inşootlari bilan hamkorlik qiladi. Mavjud tuzilmalar yoki xizmatlarning ehtimoliy buzilişini bartaraf etiş maqsadida tegişli kommunal xizmatlar va aholi bilan maslahatlaşuvlar ötkaziladi.
- Loyiha hududidan taşqarida işlov beriş yoki joylaştiriş talab etiladigan barça çiqindi yuklari, jumladan, foydalaniş bosqiçidagi xavfli va xavfli bölmagan çiqindilar faqat idoralar belgilagan litsenziyaga ega hamda vakolatli inşootlarga topşiriladi.
- Çiqindini taşiş tartiblarida taşiş paytida zarar yetgan uçinçi tomonning kommunal tarmoqlari haqida xabar beriş va ularni tezkor ta’mirlaş nazarda tutiladi. Ta’mir jadvallari kommunal xizmat operatorlari bilan kelişiladi va zarur hollarda ta’sirga uçragan aholiga yetkaziladi.
- Oqova suvni tozalaş inşootlari işlab çiqaruvçi körsatmalari va tegişli ruxsatnomalarga muvofiq işlatiladi. Oqizilmalar milliy qoidalar va loyihaning ekologik standartlariga mos bölişi kerak.
- Oqova suvni tozalaşdan qolgan qattiq qoldiqlar loyihaning ÇBR/WMPi va milliy qonunlarga muvofiq boşqariladi.
- Loyiha kompaniyasi quyidagilarni batafsil bayon etadigan Suv va çiqindilarni boşqariş rejasini tayyorlaydi:
  - barça oqova suv manbalari, ularning ehtimoliy tarkibi, tozalaş usullari va oqiziş joylarini aniqlaş;
  - talabni kamaytiriş va samaradorlikni maqbullaştirişga qaratilgan suvni tejaş çoralari.
  - tasodifiy tökilişlar, toşib çiqiş yoki hid tarqalişiga qarşi hamda favqulodda vaziyatlarda javob beriş tartiblari.
  - Ifloslaniş, hid muammolari, zararkunandalar jalb qilinişi hamda inson salomatligi yoki atrof-muhitga xavflarning oldini oliş uçun xavfli va xavfli bölmagan çiqindilar töğri ajratiladi, saqlanadi va ular bilan muomala qilinadi.
- Drenaj tizimlari, yer usti suvlari yoki tuproqqa tasodifiy oqizilmalarning oldini oliş uçun havo kemalari va terminallardan çiqadigan hojatxona hamda kimyoviy çiqindilar boşqariladi.

12.5.5 Aylanma iqtisodiyot va manbalar samaradorligi

Aeroport operatori çiqindi hosil bölişini kamaytiriş hamda materiallarni qayta tiklaş va ulardan foydali tarzda qayta foydalanişni imkon qadar köpaytiriş uçun foydalaniş bosqiçidagi çiqindilarni boşqarişda resurslar samaradorligi va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qöllaydi. FÇBR/OWMP çiqindilar iyerarxiyasiga muvofiq çiqindining oldini oliş, uni qayta foydalaniş, qayta işlaş va qayta tiklaşni ustuvor deb belgilaydi. Poligonga joylaştiriş faqat boşqa imkoniyatlar qolmaganda qöllanadigan sönggi variantdir.

Bu tamoyillarni amalga oşiriş uçun aeroport faoliyatida hosil böladigan çiqindilar amaliy jihatdan mumkin bölsa, qayta işlaş va tiklaşni osonlaştiriş uçun hosil böliş joyidayoq ajratiladi. Aeroport böylab çiqindi yiğiş uçun tegişli tuzilmalar, jumladan, qoğoz va karton, plastmassa, metall, şişa hamda boşqa mos materiallar kabi asosiy qayta işlanadigan çiqindi oqimlari uçun alohida yiğiş tizimlari joriy etiladi. Aeroportning foydalaniş bosqiçidagi manbalar samaradorligi dasturi doirasida bir martalik materiallarni kamaytiriş hamda qayta işlatiladigan va qayta işlanadigan mahsulotlar xaridini köpaytiriş imkoniyatlari ham körib çiqiladi.

Aeroport operatori FÇBR/OWMP samaradorligini kuzatiş va uzluksiz yaxşilaş imkoniyatlarini aniqlaş uçun çiqindilarni boşqariş natijadorligi körsatkiçlarini belgilaydi. Bu körsatkiçlar zaruriyatga qarab jami hosil bölgan qattiq maişiy çiqindi va har bir yölovçiga töğri keladigan çiqindi miqdorini qamrab olişi kutiladi. Ular qayta işlatilgan, qayta işlangan va tiklangan çiqindi miqdori hamda asosiy çiqindi oqimlarini qayta işlaş darajasini ham qamrab oladi. Poligonga joylaştirilgan çiqindi uluşi ham hisobga olinadi. Çiqindilarni boşqariş natijadorligi davriy ravişda körib çiqiladi va resurslarni qayta tiklaşni köpaytiriş hamda aylanma iqtisodiyot maqsadlarini qöllab-quvvatlaş uçun zarur yaxşilaş çoralari amalga oşiriladi.

Aeroport faoliyatida resurslardan samarali foydalaniş va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amalga oşirişning batafsil yondaşuvi faoliyat boşlanişidan oldin tayyorlanadigan FÇBR/OWMPda bayon etiladi. FÇBR/OWMP çiqindilar hosil bölişini kamaytiriş, qayta qöllaş, qayta işlaş va foydali tarzda tiklaşni uzluksiz yaxşilaşga xizmat qiladigan çiqindilarni boşqariş maqsadlari, tartiblari va samaradorlik körsatkiçlarini belgilaydi. Aeroport operatori çiqindilarni boşqariş dasturining samaradorligini baholaş va resurslardan foydalaniş samaradorligini yanada oşiriş imkoniyatlarini aniqlaş uçun, kamida, 12.8-jadvalda keltirilgan asosiy samaradorlik körsatkiçlarini kuzatadi hamda davriy ravişda körib çiqadi.

12.8-jadval. Aeroportda çiqindilarni boşqariş samaradorligi körsatkiçlari

Çiqindi körsatkiçi	Maqsad
Jami hosil bölgan qattiq maişiy çiqindi, t/yil	Umumiy çiqindi hosil bölişi
Har bir yölovçiga töğri keladigan qattiq maişiy çiqindi, kg/yölovçi	Manbalar samaradorligi
Qayta işlaş darajasi, %	Aylanma iqtisodiyot natijadorligi
Qayta tiklaş darajasi, %	Resurslarni qayta tiklaş
Poligonga yuborilmagan çiqindi uluşi, %	Joylaştiriş hajmini kamaytiriş
Poligonga yuborilmagan oziq-ovqat çiqindisi uluşi, %	Aeroportda ovqat tayyorlaş va yetkazib beriş xizmati bölsa, ixtiyoriy
Jami hosil bölgan qattiq maişiy çiqindi, t/yil	Umumiy çiqindi hosil bölişi
Manbada ajratiş darajasi, %	Manbada ajratiş darajasi, %

12.6 Kuzatuv

Çiqindilarni boşqariş böyiça tavsiya etilgan oldini oliş va kamaytiriş çoralari samaradorligini kuzatiş uçun zarur asosiy talablar quyidagi jadvalda umumlaştirilgan. Joylar, davriylik, davomiylik, körsatkiçlar va boşqa aniq tafsilotlarni qamrab olgan yakuniy kuzatuv usuli maxsus atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv rejasida (AMIBR/ESMP) işlab çiqiladi.

12.9-jadval. Quriliş va foydalaniş bosqiçlarida çiqindilarni boşqariş kuzatuvi

Kuzatuv	Körsatkiç	Davriylik va davomiylik	Kuzatuv joyi
Quriliş davrida mahalliy kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Çiqindilarni boşqariş xizmatini körsatuvçilar, ta'sirga uçragan aholi yoki tijorat va sanoat taşkilotlaridan çiqindilarni boşqariş xizmatlari buzilişi yuzasidan kelib tuşgan şikoyatlar soni	Har oy	Kommunal çiqindilarni boşqariş xizmati idoralari
	Tartibga soluvçi ruxsatnomalarsiz loyiha hududidan taşqariga olib çiqilgan çiqindi yuklari soni.	Har oy	Loyiha idoralari
Foydalaniş bosqiçida mahalliy kommunal çiqindilarni boşqariş inşootlariga ortiqça yuk tuşişi	Çiqindilarni boşqariş xizmatini körsatuvçilar, ta'sirga uçragan aholi yoki tijorat va sanoat taşkilotlaridan çiqindilarni boşqariş xizmatlari buzilişi yuzasidan kelib tuşgan şikoyatlar soni	Har oy	Kommunal çiqindilarni boşqariş xizmati idoralari
Çiqindi materiallari töğri boşqarilişi va saqlanişini tekşiriş hamda kuzatiş	QAMIBR/CESMP yoki FAMIBR/OESMPga muvofiq saqlaş joylaridagi tutib qoliş va nazorat tartiblarini tekşiriş	Har kuni	Quriliş maydonidagi saqlaş joylari
	Tartibga soluvçi ruxsatnomalarsiz loyiha hududidan taşqariga olib çiqilgan çiqindi yuklari soni.	Har oy	Korxona idoralari
Uçinçi tomon çiqindi pudratçilari va çiqindini joylaştiriş inşootlarini tekşiriş hamda kuzatiş	Jalb qilingan pudratçilar, ularning transport vositalari va çiqindilarni boşqariş inşootlari xarid vaqtida amaldagi röyxatdan ötiş hujjatlari yoki litsenziyalarga egaligini ta'minlaş	Xarid vaqtida va undan keyin har yili	Pudratçilar, transport vositalari va çiqindilarni boşqariş inşootlari
Çiqindilarni topşiriş	Çiqindini topşiriş qaydnomalarini yuritiş	Uzluksiz	Quriliş va foydalaniş bosqiçlarida çiqindi topşirilgan sari.
Oqova suv	Aeroport operatori, ya'ni Tashkent Airport Alliance, foydalaniş bosqiçidagi auditlarda muvofiqlikni tekşiriş uçun barça oqova suv tahlillari qaydlarini saqlaydi.	Uzluksiz	Oqova suv tahlili qaydlari.
	pH, loyqalik, elektr ötkazuvçanlik va erigan kislorod kabi joyning özida ölçanadigan tanlangan körsatkiçlar uzluksiz kuzatiladi. Barça tozalangan oqova suv sifati belgilangan qayta foydalaniş yoki kanalga oqiziş standartlariga muvofiq bölişini ta'minlaş uçun laboratoriyada tahlil qilinadigan körsatkiçlar işga tuşiriş davrida har oy, foydalaniş bosqiçida esa har çorakda kuzatiladi.	Joyning özida uzluksiz kuzatuv.	Kanalga oqiziş yoki qayta foydalaniş nuqtasi
		Laboratoriyada, odatiy foydalaniş bosqiçida har çorakda.	

13.0 Manzara va köriniş

13.1 Amaldagi talablar va standartlar

13.1.1 Milliy qoidalar

Özbekistonda manzara va körinişga ta’sirlar böyiça maxsus qonun hujjatlari mavjudligi ma’lum emas; kreditorlar yöriqnomalarida ham bunga doir maxsus talablar yöq. Biroq madaniy manbalarga ta’sir qilişi mumkin bölgan har qanday loyiha faoliyati yoki loyiha yeçimini tegişli madaniy manba jihatidan baholaş talab etilişi mumkin.

13.1.2 Kreditorlar talablari

XMK/IFCning faoliyat standartlari aholi farovonligi va madaniy merosni muhofaza qiliş uçun manzara va körinişga ta’sirlarni boşqarişni talab qiladi. XMK/IFCning 1-faoliyat standarti doirasida loyiha hududning “estetik qiymati”ga xavflarni aniqlaşi kutiladi. Jismoniy muhitga nisbatan XMK/IFCning madaniy merosga oid 8-faoliyat standarti “madaniy manzaralar”ni muhofaza qilişni talab qiladi. Bu aeroport infratuzilmasi, jumladan, terminallar va minoralar muhim tarixiy yoki an’anaviy joylarning köriniş yaxlitligiga salbiy ta’sir körsatmasligini ta’minlaşni nazarda tutadi.

Ekvator tamoyillarining IV tahririga köra, köriniş muhiti va mahalliy manzara xususiyatiga ta’sirlarning imkon qadar oldi olinişi kerak. Bu tahrir Ekvator tamoyillarini qöllovçi moliya taşkilotlari loyihaning ijtimoiy jihatdan maqbulligini ta’minlaşi kerakligini tan oladi. Bu quyidagilarni qamrab oladi:

Ekvatorning 2-tamoyili doirasida loyiha ta’sir qilişi mumkin bölgan mahalliy aholi va sayyohlar körinişini qanday özgartirişini aniqlaş uçun vizual qulaylik baholanadi.

Atrof-muhit va ijtimoiy baholaş doirasida yoruğlik ifloslanişi va yaltiraşni körib çiqiş. Bunda aeroportning 24 soatlik yoritilişi va nur qaytaruvçi yuzalar, jumladan, şişa fasadlar hamda quyoş panellari aholi yoki uçuvçilar uçun noqulaylik yoxud xavfsizlik xatarini yuzaga keltirmasligi ta’minlanadi.

13.1.3 Yetakçi amaliyot yöriqnomalari

Manzara va körinişga ta’sirni baholaş usuli quyidagi manbalarda bayon etilgan amaldagi yetakçi tajriba va yöriqnomalarga asoslanadi:

- “Manzara va körinişga ta’sirni baholaş yöriqnomalari”, MI/LI hamda AMBBI/IEMA, uçinçi naşr, 2013-yil; va
- "Manzara xususiyatini baholaşga yondaşuv", Natural England, 2018-yil.

13.2 Kuzatuvlar va boşlanğiç holat

13.2.1 Usul

Örganiş hududining manzarasi va körinişga oid boşlanğiç holati hujjatlarni örganiş hamda bir neçta joyga taşrif buyuriş orqali aniqlandi. Boşlanğiç holatni umumiy ravişda ikki bölimga, ya’ni manzara xususiyati va köriniş qulayligiga ajratiş mumkin.

13.2.1.1 Manzara xususiyatini örganiş usuli

Dastlabki dala tadqiqoti 2024-yil oktabrda, qöşimça tadqiqot esa 2025-yil oktabrda ötkazilgan va ular quyidagilarni qamrab olgan:

- Loyiha hududi manzara xususiyatining fotosuratlarini oliş.
- Hududning manzara xususiyatiga ehtimoliy ta’sirlarni körib çiqiş uçun örganiş hududini avtomobilda aylanib çiqiş.

Örganiş hududi manzarasi mintaqaga xos manzara belgilarining oldindan tayyorlangan tekşiruv röyxati asosida, manzara xususiyatini şakllantiradigan belgilar böyiça tahlil qilindi. Dala işlari ma’lumotlari birlaştirilib, örganiş hududidagi manzara xususiyati turlarini aniqlaş uçun körib çiqildi.

13.2.1.2 Vizual qulaylikni örganiş usuli

Hududdagi qabul qiluvçi obyektlarning boşlanğiç holatdagi köriniş qulayligini baholaş uçun hujjatlarni örganiş jarayonida GAT/GIS yordamida qator köriniş maydoni yoki NKH/ZTV baholari ötkazildi. Bu yondaşuv turli loyiha tarkibiy qismlari körinişga ta’sir qilişi mumkin bölgan atrof hududlarning aniq geografik tasvirini beradi. Har bir inşootning balandligiga qarab alohida NKH/ZTVlar yaratiş mumkin. Bu usul Havo harakatini boşqariş minorasi va terminal binolari

kabi baland infratuzilmaning keng körinişini ajratiş imkonini beradi. Bu körinişni ma'muriy binolar hamda çiqindilar bilan muomala qiliş va ularni yiğişga möljallangan pastroq inşootlar körinişidan farqlaş mumkin.

Loyiha ta'sir qilişi mumkin bölgan atrofdagi obyektlardan kuzatiladigan vizual qulaylik beşta (5) joyda örganildi. Bu joylar turli körinişlar va qabul qiluvçi obyektlar turlarini ifodalaydi. Turli masofa, yönaliş, balandlik va körinış qamrovi hisobga olindi. Bunday obyektlarga alohida uy-xöjaliklar, aholi manzilgohlari va asosiy transport yöllari kiradi.

Boşlanğiç holatdagi körinış qulayligini örganiş 2024-yil va 2025-yil oktabr oylaridagi dala işlariga birlaştirildi hamda quyidagilarni qamrab oldi:

- Hujjatlarni örganiş orqali aniqlangan joylarga, ya'ni körinış nuqtalariga taşrif buyuriş.
- Bu körinış nuqtalaridan kuzatiladigan loyiha hududini suratga oliş.

Tanlangan körinış nuqtalarida fotosuratlar loyiha va yon-atrof hudud eng yaxşi körinadigan şaroitni qayd etiş uçun ob-havo yaxşi va atmosfera tiniq bölgan paytlarda olindi.

13.2.2 Manzara xususiyatini örganiş

Natural England (2014)ga köra, manzara xususiyatini şunday ta'riflaş mumkin: "bir manzarani boşqasidan yaxşiroq yoki yomonroq emas, balki farqli qiladigan tabiiy, masalan, tuproq va yer şakli, yoki inson yaratgan, masalan, aholi manzili va quriliş kabi unsurlarning aniq, tanib olinadigan hamda izçil tuzilişi".

Taklif etilayotgan rivojlantiriş loyihasining manzaraga ta'siri uning jismoniy mavjudligi sababli manzarada yuz beradigan özgarişlardan kelib çiqadi. Natijada manzaraning xususiyati va uni idrok etiş tarzi özgaradi. Bu, öz navbatida, manzaraga beriladigan qiymatga ta'sir qilişi mumkin.

Manzaraning boşlanğiç holatini örganiş yangi Toşkent xalqaro aeroporti qurilişi va foydalaniş bosqiçi natijasida manzara xususiyatida paydo bölişi mumkin bölgan özgarişlarni aniqlaş hamda tavsiflaş uçun asos böladi. Örganiş hududidagi manzara xususiyatini şakllantiradigan turli unsurlar quyida körib çiqiladi.

13.2.2.1 Loyiha hududida yerdan foydalaniş va yer qoplami

Joydagi kuzatuvlar va sun'iy yöldoş tasvirlarini tahlil qilişga köra, loyiha hududining asosiy qismini ekin yetiştirişga xizmat qiladigan suğoriş kanallari oralab joylaşgan qişloq xöjaligi yerlari taşkil etadi. Hududda tabiiy yaşaş muhitining faqat çeklangan qismlari qolgan. Yer yuzasi odatda tekis bölib, yon-atrof manzaraning keng körinişini ta'minlaydi.

Loyiha egallaydigan maydondagi antropogen unsurlarga fermer uylari va qişloq xöjaligi bilan boğliq turli inşootlar, jumladan, saqlaş omborlari, suğoriş kanallari hamda mavjud yer usti elektr uzatiş tarmoqlari kiradi.

Temir yöl loyiha hududidan taşqarida, uning şarqiy tomonida, hududga parallel ravişda şimoldan janubga qarab ötadi. Kengroq hududda bir neçta qişloq xöjaligi aholi manzili va ular bilan boğliq agrosanoat inşootlari, masalan, töqimaçilik fabrikalari mavjud.

13.2.2.2 Aholi manzillari

Loyiha hududining şimoli-şarqiy burçagida joylaşgan kiçik aholi manzili va ayrim alohida qişloq xöjaligi binolaridan taşqari, loyiha çegarasi içida boşqa aholi manzillari yöq. Loyiha çegarasining janubida, loyiha hududiga bevosita tutaş joyda Yangitoş deb ataladigan kiçik aholi manzili joylaşgan. Şimolroqda, ikki kilometrdan tört kilometrgaça masofada Taşlakoşakti va Yunuçqala qişloqlari joylaşgan. Zaxaryevskiy qişloği janubda, loyiha çegarasidan taxminan 3,5 kilometr masofada joylaşgan.



13.1-rasm. Loyiha hududidagi aholi manzilgohlari

13.2.2.3 Qişloq xöjaligi yerlari

Loyiha asosan qişloq xöjaligi hududida joylaşgan. Loyiha hududining katta qismi va uning atrofidagi keng hududlar qişloq xöjaligi dalalari yoki qişloq xöjaligi bilan boğliq sanoat korxonalaridan iborat.



13.2-rasm. Loyiha hududidagi qişloq xöjaligi yerlari

13.2.2.4 Manzara xususiyati hududlari

Hujjatlarni örganiş va dala tadqiqotlari birgalikda ötkazildi; topografiya, ösimlik qoplami va yerdan foydalaniş asosiy ma'lumot manbalari sifatida olindi. Natijada loyiha hududi va uning bevosita atrofidagi manzara xususiyati hamda joy ruhi nisbatan bir xil bölgan alohida manzara turlariga ajratildi. Ularning har biri MXH/LCA deb ataladi.

Örganiş hududida beşta (5) alohida MXH/LCA mavjud. Ular quyida tavsiflangan va 13.8-rasmda körsatilgan.

MXH/LCA-1: 1-manzara xususiyati hududi loyiha maydoni va uning atrofini qamrab oladigan keng, asosan, qişloq xöjaligiga xos manzaradan iborat. Hududda mahalliy fermer jamoalarini ta'minlaydigan, jadal işlov beriladigan oçiq ekin maydonlari ustunlik qiladi. Ular orasida kiçik qişloq xöjaligi aholi manzillari va atrofi yarim tabiiy butazorning kiçik qismlari bilan qoplangan suğoriş kanallari joylaşgan. Topografik jihatdan hudud nisbatan tekis bölib, 6 kilometrlik loyiha izi böylab 15 metrga kötariladi va ğarbdan şarqqa asta-sekin balandlaşadi. Bu atigi 1:400 nisbatli qiyalikni, ya'ni har 400 metr gorizontal masofaga bir metr tik kötarilişni anglatadi.

Bu keskin özgartirilgan manzaraning ekologik sezgirligi past bölsa-da, u Toşkent şahrining yoyilib borayotgan quriliş hududidan taşqaridagi oçiq yaşil makon sifatida sezilarli estetik qiymatga ega. Keng oçiq osmon va uzoq masofali körinişlar bilan xususiyatlangan

hudud kuçli joy ruhini şakllantiradi hamda yaqin şahar muhitidan sezilarli köriniş yengilligini beradi.



13.3-rasm. Paxta dalasi va suğoriş kanali

MXH/LCA-2: kengroq qişloq xöjaligi manzarasidagi kiçik qişloq turar joy jamoalari va qurilgan muhit bilan xususiyatlanadi. Loyiha çegarasi içida doimiy aholi manzillari kam bölib, faqat uning şimoli-şarqiy burçagida kiçik uylar guruhi mavjud. Biroq yon-atrof hududda qişloq xöjaligiga boğliq bir neçta kiçik qişloq bor. Ularga loyiha çegarasidan bevosita janubda joylaşgan Yangitoş qişloği hamda undan ikki kilometrdan tört kilometrgaça masofada joylaşgan Taşlakoşakti, Yunuçqala va Zaxaryevskiy qişloqlari kiradi.

Jismoniy va madaniy jihatdan bu aholi manzillari yon-atrofdagi qişloq xöjaligi yerlari bilan çambarças boğliq qişloq hayotining markazlari vazifasini bajaradi. Ularda past qavatli turar joylar, qişloq xöjaligiga oid inşootlar, jumladan, hayvonlar uçun qöralar va yem-xaşak omborlari hamda qoplanmagan mahalliy yöllar birga uçraydi.

MXH/LCA 2dagi manzaralarning köriniş sifati past deb hisoblanadi, çunki uni asosan farqli, noyob yoki qonun bilan muhofaza qilinadigan meros belgilariga ega bölmagan odatiy turar joy va qişloq xöjaligi inşootlari belgilaydi. Bundan taşqari, asosiy yöllar, kommunal tuzilmalar va qişloq xöjaligiga boğliq turli faoliyatlar hududning boşlanğiç holatdagi estetik sifatini pasaytiradigan sezilarli salbiy unsurlardir.



13.4-rasm. Odatdagi qişloq infratuzilmasi va şağal yöllari



13.5-rasm. Qişloq yoki şahardagi yem-xaşak omborlari

MXH/LCA-3: yon-atrofdagi ayrim qişloqlarda, eng yaqqol tarzda loyiha çegarasidan taxminan 2,5 kilometr şimolda joylaşgan yirikroq Taşlakoşakti aholi manzilida joylaşgan sanoat va yirik tijorat hududlaridan iborat.

Sanoat va tijorat inşootlari asosan omborlar, mol boqiş maydonlari, muhandislik kompaniyalari hamda yuk avtomobillari yoki qişloq xöjaligi texnikasini sotiş va ularga xizmat körsatiş markazlari kabi amaliy tuzilmalardan iborat. Bu inşootlar atrofdagi fermer jamoalariga asosan qişloq xöjaligiga boğliq xizmatlar körsatiş orqali mintaqaviy iqtisodiyotni aks ettiradi.

Idrok jihatidan bu hududga sanoat tusi xos. Bu atrofdagi qişloq xöjaligi hududining nisbatan tabiiy gözalligini pasaytiradi hamda hudud yaxlitligini buzib, faqat işlab çiqariş va amaliy vazifaga qaratilgan joy ruhini şakllantiradi.



13.6-rasm. Yon-atrofdagi tijorat va sanoat markazlaridagi ombor

MXH/LCA-4: yon-atrofdagi yirik tabiiy suv obyektlaridan, eng avvalo, loyiha hududidan ğarbda joylaşgan Çirçiq daryosi havzasidan iborat. Daryo havzasi Özbekistondagi muhim suv yöli va Toşkent viloyatining asosiy hayot manbasi sifatida, asosan, inson tomonidan özgartirilgan manzarada ajralib turadigan tabiiy belgini hosil qiladi. Yon-atrofdagi qişloq xöjaligi yerlarini ta'minlaş uçun daryodan tarqaladigan keng özaro boğlangan kanal tarmoqlari inson tomonidan yaratilgan va farqli köriniş xususiyatlariga ega bölmasa-da, asosiy daryo yölagi yaqqol belgi sifatida ajralib turadi.

Idrok jihatidan daryo havzasi atrofdagi dalalar va aholi manzillaridan aniq köriniş hamda ekologik ajralişni ta'minlaydigan alohida yaşil yölak vazifasini bajaradi. U hududga sokin tabiiy muhit baxş etib, oçiq körinişlar va xotirjamlik hissini beradi. Bu muhandislik usulida şakllantirilgan qişloq xöjaligi yerlarining qat'iy çiziqlari hamda yaqin qişloqlardagi faoliyatdan keskin farq qiladi.




13.7-rasm. Çirçiq daryosi havzasi

MXH/LCA-5: Özlaştirilmagan manzaralar

Asosan özlaştirilmagan, butalar ösadigan yarim tabiiy manzara. U aniq belgilar deyarli mavjud bölmagan va ayrim joylarda inson faoliyati ta'siri körinadigan hududdir.

Hudud mahalliy yoki milliy qiymatga ega deb tan olingan heç qanday belgi yoki farqli xususiyatga ega emas.



13.8-rasm. Manzara xususiyati hududlari

13.2.3 Vizual qulaylikni örganiş

Köriniş qulayligiga ta’sir, avvalo, odamlarning hududni qanday idrok etişi bilan boğliq. U aralaşuv tufayli mavjud köriniş muhiti va manzaralar qançalik özgarişini anglatadi. Şuningdek, hududga keladigan, u yerda işlaydigan yoki yaşaydigan odamlar bu özgarişni qanday qabul qilişini ifodalaydi. Ular özgarişni manzaraning köriniş sifatini pasaytiruvçi, yaxşilovçi yoki saqlab qoluvçi omil deb qabul qilişi mumkin. Loyiha doirasidagi barça körinadigan infratuzilma tarkibiy qismlari va faoliyatlar, şuningdek, yer işlari hamda quriliş faoliyati natijasida jismoniy körinişi özgaradigan barça hududlar körinişga ta’sir körsatadi. Kuzatuvçi bilan obyekt örtasidagi masofa ortgan sari rivojlantiriş loyihasining körinişga ta’siri eksponensial sur’atda kamayadi.

Loyiha hududining turli joylardan qanday körinişini aniqlaş maqsadida loyiha hududidan 10 km gaça bölgan masofadagi beşta (5) nuqtada fotosuratlar olindi. LV-1 dan LV-5 gaça belgilangan uşbu nuqtalar loyiha ta’sir qilişi mumkin bölgan turli guruhdagi odamlar köradigan manzaralarni ifodalovçi namunaviy joylar sifatida tanlandi.

Baholaşda loyiha obyektlari körinişi mumkin bölgan barça joylar emas, balki ularni odamlar köradigan joylar hisobga olindi. Çunki körinişga ta’sir deganda loyiha tufayli odamlar körib turgan manzaraning özgarişi tuşuniladi. Biror joyda bu özgarişni köradigan odam bölmasa, u yerda körinişga ta’sir ham mavjud deb hisoblanmaydi. Şu sababli bunday joylar tadqiqotga kiritilmadi. Hududning asosiy qismini qişloq xöjaligi dalalari taşkil etadi, dehqonlar esa köpinça qişloqlarda yaşaydi. Natijada keng dalalarda loyiha tufayli yuz beradigan manzara özgarişini bevosita köradigan odamlar soni kam.


Kuzatuvçi bilan loyiha örtasidagi masofa ham manzara özgarişining qançalik sezilişiga ta’sir qiladi. Masofa ortgan sari loyiha obyektlari kiçikroq va kamroq aniq körinadi, natijada ular umumiy manzara içida kamroq seziladi. Şu bois kuzatuv nuqtalari, asosan, loyiha hududiga eng yaqin aholi manzilgohlaridan tanlandi.

Bu joylar GAT/GIS dasturi va Shuttle Radar Topography Mission balandlik ma’lumotlaridan foydalanib, loyiha unsurlari nazariy jihatdan körinişi mumkin bölgan hududni ifodalovçi bir neçta NKH/ZTV tayyorlanganidan keyin tanlandi. NKH/ZTVlarni aniqlaşda HHB/ATC minorasi va yölovçi terminali binosidan foydalanildi; ularning balandligi mos ravişda 77 m va 37,35 m. Şuningdek, 16,8 m balandlikdagi ma’muriy bino va 13,6 m balandlikdagi elektr energiyasini qabul qiliş inşooti hisobga olindi. Qattiq çiqindilarni töplaş inşootining balandligi 5,10 m deb olindi.


NKH/ZTV “yalang yer” şaroitini, ya’ni binolar, yer yuzasi xususiyatlari yoki ösimlik qoplami kabi körinişni tösuvçi unsurlar bölmagan manzarada loyihaning körinişini ifodalaydi. NKH/ZTVda ob-havo va atmosfera şaroitlarining ta’siri ham hisobga olinmaydi. Şu sababli u oraliqda heç qanday tösiq bölmagan va ob-havo qulay bölgan şaroitda aeroport infratuzilmasi körinişi mumkin bölgan “eng noqulay holat”ni ifodalaydi.

Quyidagi rasmlarda körsatilganidek, hudud nisbatan tekis va tösiqsiz bölgani sababli, yaqin qişloq xöjaligi hamda turar joy obyektlaridan loyiha infratuzilmasini köriş mumkin bölgan keng hududlar mavjud. Yöl foydalanuvçilari ham yaqin yöllarning ayrim joylaridan loyiha tomonga qaragan manzarani körişi mumkin.


Har bir NKH/ZTV ustiga joylaştirilgan tadqiqot joylari quyidagi rasmlarda körsatilgan.




13.9-rasm. HHB/ATC minorasining nazariy kōriniş hududi




13.10-rasm. Yōlovçi terminali binosining nazariy kōriniş hududi



13.11-rasm. Ma'muriy binoning nazariy kōriniş hududi



13.12-rasm. Elektr energiyasini qabul qiliş inşootining nazariy kōriniş hududi




13.13-rasm. Qattiq çiqindilarni töplaş inşootining nazariy köriniş hududi

Maydondagi kuzatuvlarga köra, loyiha maydoni va uning atrofidagi hududlar asosan suv kanallari hamda past qavatli binolari bölgan kiçik aholi manzilgohlari oralab joylaşgan oçiq qişloq xöjaligi yerlaridan iborat.

Aholi manzilgohlari manzaraning köriniş doirasiga ma'lum darajada antropogen ta'sir körsatgan. Ulardan taşqari, loyiha maydoni böylab körinişlar asosan tösiqsiz bölib, Özbekistonga xos qişloq xöjaligi hududlarining odatiy namunasini ifodalaydi.

LV1 dan LV5 gaça bölgan har bir kuzatuv nuqtasida olingan fotosuratlar va bu joylarga oid kuzatuvlar quyidagi jadvalda bayon etilgan. Köriniş bahosi binolar içidan yoki xususiy joylardan emas, jamoat foydalanadigan taşqi joylardan körinadigan manzaralarga asoslangan.

LV-1








Izohlar:
LV-1 nuqtasidan kuzatilgan loyiha maydoni körinişiga maydonning şimoli-şarqiy burçagidagi temir yöl yonida joylaşgan kiçik qişloq xöjaligi aholi manzilgohi ta'sir qiladi. Bu joydan yangi aeroport tomonga körinişni mavjud inşootlar qisman tösadi. Maydonga yaqinlik sababli HHB/ATC minorasi va yölovçi terminali binosi kabi balandroq aeroport infratuzilmasi keng manzarada baribir yaqqol ajralib turadi. Biroq qattiq çiqindilarni töplaş inşooti kabi kiçikroq bino va infratuzilma LV-1 nuqtasidan körinmasligi ehtimoli yuqori.

LV-2







Izohlar:
LV-2 nuqtasidan loyiha maydonining şimoli-ğarb tomoniga köriniş asosan tösiqsiz, biroq şimol va şimoli-şarqqa qaralganda qişloq aholi manzilgohidagi bir neçta bino körinadi. Bu joyda manzara asosan oçiq qişloq xöjaligi dalalari, ularni kesib ötuvçi suğoriş kanallari, tarqoq kiçik qişloq xöjaligi inşootlari va qişloqdan iborat. Suğoriş kanali böylab va aholi manzilgohi içida joylaşgan bir neçta daraxt körinişni qisman tösadi. Biroq loyihaning yaqinligi va kölami hisobga olinsa, ularning tösuvçi ta'siri çeklangan bölişi mumkin.

LV-3







Izohlar:
LV-3 kuzatuv nuqtasidagi köriniş loyiha çegarasidan taxminan 2 kilometr şimolda joylaşgan uzoqroq aholi manzilgohidan körinadigan manzarani ifodalaydi. Bu kuzatuv nuqtasidan loyiha maydoni tomonga köriniş asosan oçiq. Oldingi qismni kiçik köl va keng qişloq xöjaligi dalalari egallaydi; ular orasida mahalliy qişloq inşootlari va yer usti elektr uzatiş tarmoqlari joylaşgan. Şu sababli yangi aeroport töğridan töğri va aniq köriniş çiziğida qoladi, biroq masofa ortgani sayin ayrim aeroport inşootlari ufqda kamroq ajralib turadi va keng manzaraga yaxşiroq uyğunlaşadi. Qattiq çiqindilarni töplaş inşooti, elektr energiyasini qabul qiliş inşooti va ma'muriy bino kabi kiçikroq infratuzilma bu masofadan yaqqol körinmasligi mumkin.

LV-4







Izohlar:

LV-4 nuqtasidan köriniş loyiha çegarasidan taxminan 2,4 kilometr janubi-şarqda joylaşgan yana bir uzoqroq qişloq xöjaligi aholi manzilgohidan körinadigan manzarani ifodalaydi. Bu joydan loyiha maydoni tomonga köriniş, asosan, tösiqsiz bölib, oldingi qismda örta balandlikdagi daraxtlar bilan aralaşgan keng oçiq qişloq xöjaligi dalalari joylaşgan. Natijada yangi aeroport bu kuzatuv nuqtasidan töğridan töğri va aniq köriniş çiziğida bölişi kutiladi. Biroq maydongaça 2,4 kilometr masofa bölgani sababli aeroport inşootlari ufqda kamroq ajralib turişi mumkin. Qattiq çiqindilarni töplaş inşooti, elektr energiyasini qabul qiliş inşooti va ma'muriy bino kabi kiçikroq infratuzilma bu masofadan yaqqol körinmasligi mumkin.

LV-5







Izohlar:
LV-5 nuqtasidan köriniş loyiha çegarasidan taxminan 1,2 kilometr ğarbda joylaşgan aholi manzilgohidan körinadigan manzarani ifodalaydi. Bu joydan loyiha maydoni tomonga köriniş, asosan, oçiq bölib, oldingi qismda faqat qişloq xöjaligi dalalari va kiçik inson faoliyati unsurlari, masalan, yöl, avtobus bekati hamda elektr yoki telefon tarmoqlari mavjud. Natijada yangi aeroport keng manzarada yaqqol seziladi.

13.3 Ta’sir qilişi mumkin bölgan obyektlar

Loyiha manzara va köriniş jihatidan ta’sir qilişi mumkin bölgan obyektlar 13.1-jadvalda keltirilgan.

13.1-jadval. Loyiha manzara va köriniş jihatidan ta’sir qilişi mumkin bölgan obyektlar

Ta’sir qilişi mumkin bölgan obyekt	Obyekt turi	Sezgirlik	Asos
Manzara xususiyati	Qişloq xöjaligi manzarasi (MXH/LCA-1)	Örta	Qişloq xöjaligi hududlari Toşkent şahrining yoyilib borayotgan quriliş hududidan taşqaridagi oçiq yaşil makon sifatida sezilarli estetik qiymatga ega. Ular, şuningdek, mintaqaviy manzara xususiyatini şakllantiradigan yarim tabiiy ösimlik qoplamining ayrim qismlarini saqlab turadi. Asosan bir xil tusdagi manzaraga köriniş jihatidan yengillik beradigan bu hudud “sanoatlaşuv”ga sezgir. Keng kölamli beton va metall infratuzilmaning kiritilişi uning ösimlik qoplangan oçiq makon sifatidagi özига xosligini yöqotişiga olib keladi.
	Turar joy jamoalari (MXH/LCA-2)	Past	Hududdagi aholi manzilgohlari asosan özига xos yoki muhofaza qilinadigan xususiyatlarga ega bölmagan turar joy va qişloq xöjaligiga oid inşootlar aralaşmasidan iborat. Serqatnov yöllar, infratuzilma hamda qişloq xöjaligi va unga boğliq sanoat faoliyatining turli turlari hududning umumiy estetik sifatini sezilarli pasaytiradi. Manzarada mahalliy yoki milliy ahamiyatga ega deb tan olingan xususiyatlar yöqligi va özига xos belgilar kamligi sababli, u manzara xususiyati va joy ruhidagi özgarişlarga juda sezgir deb hisoblanmaydi.
	Sanoat va tijorat hududlari	Juda past	Yaqin aholi manzilgohlarida omborlar, mol boqiş maydonlari, muhandislik kompaniyalari hamda yuk avtomobillari yoki qişloq xöjaligi texnikasini sotiş va ularga xizmat körsatiş markazlari kabi bir neçta sanoat va tijorat hududi mavjud. U inson faoliyati natijasida keskin özgargan sanoat hududidir va tabiiy estetik xususiyatlarga ega emas. Unda mahalliy yoki milliy ahamiyatga ega deb tan olingan xususiyatlar ham yöq. Şu sababli hudud öxşaş rivojlaniş loyihalarini qabul qiliş uçun juda yuqori imkoniyatga ega va manzara xususiyatidagi özgarişlar unga ta’sir qilişi mumkin deb hisoblanmaydi.
	Tabiiy suv havzalari (MXH/LCA-4)	Örta	Çirçiq daryosi havzasi keskin özgartirilgan manzarada ajralib turadigan tabiiy xususiyatdir. U atrofdagi dalalar va aholi manzilgohlaridan aniq köriniş hamda ekologik ajralişni ta’minlaydigan yaqqol yaşil yölakni hosil qiladi. Suv kanallari kabi mavjud inson infratuzilmasi sababli hudud özgarişni qabul qilişda örta imkoniyatga ega. Biroq u köriniş uzluksizligini buzişi yoki daryo havzasining tabiiy deb qabul qilinişini özgartirişi mumkin bölgan yirik kölamli sanoat rivojlanişiga sezgir bölib qoladi.
	Özlaştirilmagan manzara (MXH/LCA-5)	Örta	Hududda mahalliy yoki milliy qiymatga ega deb tan olingan xususiyatlar hamda özига xos belgilar yöq. Manzaraga deyarli tegilmagan, biroq qiziqarli xususiyatlar yöqligi sababli uning qiymati past. Bu hudud mahalliy yoki milliy qiymatga ega deb tan olingan xususiyatlari yöq va özига xos belgilari kam bölgan yarim tabiiy butazordan iborat. Yer yuzasi tekisligi va ayrim joylardagi inson faoliyati ta’siri sababli manzara özgarişni qabul qilişda nisbatan

Ta’sir qilişi mumkin bölgan obyekt	Obyekt turi	Sezgirlik	Asos
			yuqori imkoniyatga ega hamda uning xususiyati yoki joy ruhidagi özgarişlarga juda sezgir emas.
Jamoalar va aholi manzilgohlarining köriniş qulayligidagi özgariş	Turar joy	Yuqori	Bevosita atrofdagi turar joy hududlari aholisi taklif etilayotgan aeroportni töğridan töğri va tösiqsiz köradi. Ular uylari va bağlaridan mavjud körinişni juda qadrlagani sababli, köriniş qulayligidagi salbiy özgarişlarga juda sezgir. Bunday zaiflik yangi aeroport infratuzilmasi, havo kemalarining tez-tez harakati va u bilan boğliq yoritişga har kuni uzoq vaqt davomida uçraş natijasida paydo böladi.
Jamoalar va aholi manzilgohlarining köriniş qulayligidagi özgariş	Turar joy	Yuqori	Atrofdagi turar joy hududlari aholisi taklif etilayotgan aeroport infratuzilmasini töğridan töğri, yaqin masofadan va tösiqsiz köradi. Ular uylari va bağlaridan mavjud körinişni juda qadrlagani sababli, köriniş qulayligidagi salbiy özgarişlarga juda sezgir. Bunday zaiflik yaqin masofadagi yangi aeroport infratuzilmasi, havo kemalarining tez-tez harakati va u bilan boğliq yoritişga har kuni uzoq vaqt davomida uçraş natijasida paydo böladi.
Uyda yaşovçi dehqonlarning köriniş qulayligidagi özgariş	Turar joy/qişloq xöjaligi	Yuqori	Atrofdagi qişloq xöjaligi hududlarida, ayniqsa, öz yeri yaqinida yaşovçi dehqonlar aeroportni töğridan töğri köradi. Ular uylari, bağlari va işlaydigan yerlaridan körinadigan manzarani juda qadrlagani sababli, aeroport inşootlari, havo kemalari faoliyati va yoritişga har kuni uzoq vaqt davomida uçraşdan kelib çiqadigan köriniş qulayligidagi özgarişlarga juda sezgir.
Dalalarda işlaydigan dehqonlarning köriniş qulayligidagi özgariş	Qişloq xöjaligi	Past	Dalalarda işlaydigan dehqonlar loyiha maydoni tomonga töğridan töğri qaraydi; körinişni buzadigan yoki tösadigan unsurlar kam böladi. Biroq ular oçiq dalalarda vaqtinça bölişi va e’tibori manzaraga emas, muayyan qişloq xöjaligi işlariga qaratilişi sababli, loyihani köriş davri vaqtinçalik va qisqa böladi. Şu sababli ular köriniş qulayligidagi özgarişlarga past darajada sezgir.
Korxonalar va savdo hududlarining köriniş qulayligidagi özgariş	Tijorat	Örta	Yaqin tijorat va savdo hududlariga keluvçilar binolar, avtomobil turar joylari va oçiq joylardan aeroportni töğridan töğri köradi. Bu keluvçilar, odatda, iş yoki xarid maqsadida faqat vaqtinça böladi. Şu sababli ularning loyiha maydonini körişi tasodifiy va qisqa muddatli xususiyatga ega. Natijada ular aeroport inşootlari, havo kemalari harakati va u bilan boğliq yoritiş sababli köriniş qulayligidagi özgarişlarga örta darajada sezgir.
Madaniy meros va qabristonlarning köriniş qulayligidagi özgariş	Madaniy	Yuqori	Jamiyatga hissa qöşadigan moddiy yoki nomoddiy madaniy boyliklar mavjud joylar katta ahamiyatga ega. Yaqin madaniy meros hududlari va qabristonlarga keluvçilar aeroportni töğridan töğri köradi. Ular bu joylarda ziyorat yoki xotirlaş uçun vaqtinça bölsa-da, ehtiromli va sokin muhit hamda köriniş uzluksizligi yuqori darajada ta’minlanişi kutiladi. Şu sababli qabristonlar nozik muhitga yirik sanoat inşootlari, havo kemalarining tez-tez harakati

Ta’sir qilişi mumkin bölgan obyekt	Obyekt turi	Sezgirlik	Asos
			va xalaqit beruvçi yoritişni kiritadigan köriniş qulayligi özgarişlariga juda sezgir deb hisoblanadi.
Sanoat hududlari va zavodlarning köriniş qulayligidagi özgariş	Sanoat	Juda past	Yaqin sanoat hududlari va zavodlardagi işçilar hamda u yerdagi boşqa şaxslar bino, hovli, yöl va taşqi joylardan aeroportni töğridan töğri köradi. Ular bu joylarda, asosan, iş sababli uzoq vaqt bölsa-da, e’tibori köriniş qulayligiga emas, sanoat vazifalariga qaratiladi. Mavjud sanoat muhitining köriniş sifati allaqaçon past, jozibali manzara bölişi esa deyarli kutilmaydi. Şu sababli bu ta’sir qilişi mumkin bölgan obyektlar aeroport inşootlari, havo kemalari harakati va yoritişning körinişga ta’siriga past darajada sezgir.

13.4 Ehtimoliy ta’sirlar, ta’sirning oldini oliş va uni kamaytiriş hamda boşqaruv

MKTB/LVIAda, havo yoki şovqinni baholaşdan farqli, köp ta’sirlar, ayniqsa, manzara xususiyatining özgarişi ajralmas va doimiy böladi. Oldini oliş va kamaytiriş çoralari qoldiq ta’sir ahamiyatini har doim ham sezilarli kamaytirmaydi; u faqat çoralar samaradorligi aniq isbotlanganda pasayadi.

13.4.1 Ta’sirni baholaş usuli

Körinişga ta’sir hududning sezgirligi hamda bu hududdagi taklifning ta’sir kölami, ya’ni köriniş oqibati, asosida baholanadi.

Köriniş sezgirligi muhitning xususiyati, köriniş sifati va mavjud manzaradagi özgariş turli kuzatuv nuqtalaridan qançalik jiddiy qabul qilinişini anglatadi. Masalan, dam oliş hududlari foydalanuvçilari atrofdagi manzarani hordiq tajribasining bir qismi sifatida köradi va manzaradagi köriniş özgarişlarini boşqalarga qaraganda jiddiyroq qabul qiladi.

Rivojlaniş loyihasining körinişga ta’sir kölami yoki köriniş oqibati u bilan avvaldan mavjud manzara örtasidagi farq darajasidir.

Şu sababli körinişga ta’sir 4.3-jadvalga muvofiq qabul qiluvçi obyekt sezgirligi va ta’sir kölamini birgalikda hisobga olib belgilanadi. Ularning birikmasi har bir obyekt uçun muayyan ta’sir darajasini beradi.

Baholaşda aeroportning namunaviy kuzatuv nuqtalaridan körinişi hisobga olinib, köriniş sezgirligi va söng ta’sir baholanadi. Tanlangan nuqtalar hududga xos odatiy körinişlarni va quyidagi omillar sabab köriniş qulayligining kamayişi ma’lum darajada ta’sir körsatadigan joylarni ifodalaşi kerak:

- köriniş davomiyligi, atrofdagi şahar atrofi hududlari aholisi serqatnov yöllardan ötib ketayotgan haydovçilarga qaraganda uzoqroq vaqt davomida manzarani köradi;
- joydagi taassurot uçun vizual qulaylikning ahamiyati, dam oliş hududlariga keluvçilar sanoat hududi xodimlariga qaraganda vizual qulaylikni köproq qadrlaşi mumkin; yoki
- ehtimoliy kuzatuvçilar soni köp bölgan joylar, masalan, serqatnov yöllardagi haydovçilar.

Bu bobda loyiha qurilişi va undan foydalanişning körinişga ta’siri körib çiqiladi.

13.4.2 Quriliş bosqiçidagi ta’sirlar

13.4.2.1 Manzara xususiyatidagi özgariş

Yangi yirik aeroport qurilişi atrofdagi manzara xususiyatiga sezilarli ta’sir körsatişi mumkin. Qurilişda ösimlik qoplamini tozalaş, yirik kölamda tekislaş, maydon sathini profilga keltiriş va yer işlarini qamrab oladigan maydon tayyorlaş faoliyati loyiha böylab topografiya va yerdan foydalanişni özgartiradi.

Bu işlar hududning tub xususiyatini özgartiradi. Mavjud qişloq xöjaligi manzarasi örnini yalang va buzilgan tuproq, tekislangan yuzalar, qazilma uyumlari, vaqtinçalik material va uskuna maydonlari, lagerlar, kiriş yöllari hamda ağir texnika egallaydi.

MXH/LCA-1: Bu asosan qişloq xöjaligi manzarasi Toşkent şahrining kengayayotgan quriliş hududidan taşqaridagi oçiq yaşil makon sifatida estetik qiymatga ega va körinişga yengillik beradi. Şu bois MXH/LCA-1 “sanoatlaşuv”ga sezgir: keng kölamli beton va metall infratuzilma uning ösimlik qoplangan oçiq makon xususiyatini yöqotadi.

Biroq 13.8-rasmda körsatilganidek, MXH/LCA-1 atrofdagi mintaqada ustun manzara xususiyatidir; loyiha çegarasi keng qişloq xöjaligi manzarasining faqat bir qismini egallaydi. Şu sababli loyiha qurilişi kengroq qişloq xöjaligi manzarasining bir qismini yöqotadi. Biroq loyiha çegarasidan taşqaridagi keng hudud öz manzara xususiyatini saqlab qoladi. 4.2-jadvaldagi ta’sir kölami mezonlariga muvofiq, MXH/LCA-1ga ta’sir kölami **örta darajada salbiy** deb baholanişi mumkin. Özgariş doimiy bölib, loyihaning bevosita çegarasidan taşqariga tarqaladi, biroq kengroq mintaqaviy manzara oxir-oqibat yaxlit qoladi.

MXH/LCA-2: Bu manzara xususiyati hududi asosan kiçik qişloq uylari va past qavatli turar joylardan iborat aholi manzilgohlarini qamrab oladi. 13.8-rasmda körsatilganidek,

MXH/LCA-2 loyiha hududining faqat kiçik qismini egallaydi. Aeroport qurilişi loyiha çegarasi içidagi turar joy manzarasining kiçik qismini töliq, doimiy va qaytarib bölmaydigan tarzda yöq qilsa-da, loyiha izidan taşqaridagi kengroq MXH/LCA asosan ta'sirlanmaydi. Kiriş yöllarini yaxşilaş atrofdagi aholi manzilgohlarida ayrim mahalliy özgarişlarga olib keladi. Biroq boşlanğiç holatdagi manzara inson qurgan binolardan iborat va uning özige xos belgilari kam. Unda mahalliy yoki milliy ahamiyatga ega deb tan olingan xususiyatlar yöq. Şu sababli u manzara xususiyatidagi özgarişlarga juda sezgir deb hisoblanmaydi. Bu esa hududning umumiy xususiyati tubdan özgarmagan holda yangi infratuzilmani qabul qiliş imkoniyati yuqori ekanini körsatadi.

Ta'sir kölami mezonlariga, ya'ni 4.2-jadvalga muvofiq, MXH/LCA-2ga ta'sir kölami **kiçik salbiy** deb baholanişi mumkin. Özgariş kiçik va mahalliy deb hisoblanadi, atrof mintaqadagi kengroq turar joy aholi manzilgohlari manzarasi esa asosan yaxlitligiça qoladi.

MXH/LCA-3 yaqin aholi manzilgohlarining ayrim qismlaridagi sanoat va tijorat hududlaridan iborat. U omborlar, mol boqiş maydonlari va muhandislik kompaniyalarini qamrab oladi. Bu hududda yuk avtomobillari yoki qişloq xöjaligi texnikasini sotiş va ularga xizmat körsatiş markazlari ham bor. Bu MXH/LCA inson faoliyati natijasida keskin özgargan sanoat hududidir va tabiiy estetik xususiyatlarga ega emas. Unda mahalliy yoki milliy ahamiyatga ega deb tan olingan xususiyatlar ham yöq. Şu sababli hudud öxşaş rivojlaniş loyihalarini qabul qiliş uçun juda yuqori imkoniyatga ega va manzara xususiyatidagi özgarişlar bu hududga ta'sir qilişi mumkin deb hisoblanmaydi.

Bundan taşqari, 13.8-rasmda körsatilganidek, MXH/LCA-3 asosiy loyiha izidan taşqarida joylaşgan. Demak, aeroport qurilişi bu manzara xususiyati turining bevosita olib taşlanişi yoki yöqolişiga sabab bölmaydi. Aeroportga xizmat körsatadigan kiriş yöllari va avtomobil yöllarini yaxşilaş MXH/LCA-3ga vaqtinça ta'sir qilişi mumkin bölsa-da, özgarişlar bu MXH/LCAning tijorat va sanoat xususiyatiga sezilarli putur yetkazmaydi.

Ta'sir kölami mezonlariga, ya'ni 4.2-jadvalga muvofiq, MXH/LCA-3ga ta'sir kölami **sezilarsiz salbiy** deb baholanişi mumkin. Özgariş, asosan, yaxlitligiça qoladigan MXH/LCAdagi juda kiçik va mahalliy özgariş deb hisoblanadi.

MXH/LCA-4: tabiiy suv havzalaridan, asosan, keskin özgartirilgan manzarada ajralib turuvçi tabiiy xususiyatni hosil qiladigan Çirçiq daryosi havzasidan iborat. U atrofdagi dalalar va aholi manzilgohlaridan aniq köriniş va ekologik ajralişni ta'minlaydigan yaqqol yaşil yölakni hosil qiladi. Suv kanallari kabi mavjud inson infratuzilmasi sababli hudud özgarişni qabul qilişda örta imkoniyatga ega. Biroq u köriniş uzluksizligini buzişi yoki daryo havzasining tabiiy deb qabul qilinişini özgartirişi mumkin bölgan yirik kölamli rivojlanişga sezgir bölib qoladi.

13.8-rasmda körsatilganidek, MXH/LCA-4 asosiy loyiha izidan töliq taşqarida joylaşgan. Demak, aeroport qurilişi bu tabiiy suv obyektining biror qismini bevosita yöq qilmaydi yoki jismonan bölib yubormaydi. Aeroportni rivojlantiriş va kiriş yöllarini yaxşilaş kengroq manzaraga yirik kölamli infratuzilma olib kirsa-da, bu özgarişlar uzoq masofada yuz beradi va yölakning köriniş uzluksizligini buzmaydi.

Ta'sir kölami mezonlariga, ya'ni 4.2-jadvalga muvofiq, MXH/LCA-4ga ta'sir kölami sezilarsiz salbiy deb baholanişi mumkin. Özgariş kiçik va bilvosita bölib, kengroq mintaqaviy manzara xususiyati yaxlitligiça qoladi.

MXH/LCA-5: yer yuzasi tekis, oçiq va özlaştirilmagan xususiyatga ega, deyarli ajralib turadigan belgilari bölmagan yarim tabiiy butazordan iborat. MXH/LCA-5ning katta qismi loyiha çegarasidan töliq taşqarida joylaşgan bölsa-da, kiçik bir mahalliy qismi asosiy loyiha izi doirasiga kiradi.

Ta'sir kölami mezonlariga, ya'ni 4.2-jadvalga muvofiq, MXH/LCA-5ga ta'sir kölami kiçik salbiy deb baholanadi. Loyiha bu hududning faqat kiçik qismini bevosita jismonan yöqotadi, manzara xususiyatining katta qismiga esa tegilmaydi.

- Loyihaning aniqlangan meros boyliklariga ehtimoliy bevosita va bilvosita ta'sirlarini baholaş;
- Ta'sirni batafsilroq baholaşga yordam beradigan qöşimça ma'lumotlarni töplaş imkoniyatini baholaş.

Ta'sirning oldini oliş va uni kamaytiriş böyiça dastlabki strategiya hamda muntazam kuzatiş çoralarining umumiy rejasi

- Ta'sirning oldini oliş va uni kamaytiriş hamda boşqaruv böyiça dastlabki çorani taklif etiş;
- Tasodifiy topilmalar tartibini işlab çiqişni tavsiya etiş.

14.3 Loyiha ta'sir qilişi mumkin bölgan obyektlar

Loyiha qurilişi jarayonida ehtimol ta'sirlanişi mumkin bölgan madaniy meros obyektlari 14.1-jadvalda keltirilgan.

14.1-jadval. Ta'sir qilişi mumkin bölgan madaniy meros obyektlari

Ta'sir qilişi mumkin bölgan obyekt	Sezgirlik	Asos
Moddiy madaniy meros (arxeologik qoldiqlar va saqlanib turgan binolar)	**Yuqori**	Agar loyiha madaniy meros obyektlarini loyiha yeçimiga kiritolmasa, madaniy meros qiymatiga ega har qanday yodgorlik quriliş vaqtida ta'sirga uçraşi mumkin. Bu madaniy meros haqidagi bilimlarning kamayişiga, jamoalar, ijtimoiy-siyosiy özlik va tuzilmalarga, jumladan, davlatga bevosita hamda bilvosita ta'sir etişga olib kelişi mumkin. Şuningdek, turizm kabi madaniy meros iqtisodiyoti keltiradigan ehtimoliy manfaatlar kamayişi mumkin.
Nomoddiy madaniy meros, yaşab kelayotgan meros an'analari	**Yuqori**	Jamoalarni köçiriş hamda jamoa faoliyati va an'analari bilan boğliq obyektlarni buzib yoki olib taşlaş mahalliy bilimlar va uzoq vaqtdan beri davom etayotgan an'analar uzluksizligiga bevosita xavf tuğdiradi. Bu alohida şaxslar va oilalarda hissiy iztirobga ham sabab bölişi mumkin.

14.4 Kuzatuvlar va boşlanğiç holat

14.4.1 Geografik şaroit (14.1-rasmga qarang)

Loyiha maydoni Çirçiq vodiysining unumdor allyuvial havzasida joylaşgan. Çirçiq daryosi loyiha maydoni çegarasining eng ğarbiy nuqtasidan taxminan 2 km ğarbda, qidiriş hududi içida janubi-ğarbga oqadi. Taxminan 30 km şarq va 35 km janubi-şarqda allyuvial tekisliklardan Piskom toğ tizmasining (Tyanşanning ğarbiy uçi) janubi-ğarbiy toğoldilari kötarilib, hozirgi Özbekiston va Tojikiston çegarasini belgilaydi. Markaziy Osiyodagi eng uzun daryo Sirdaryo Piskom toğlaridan şimol va şimoli-ğarbga oqib, loyiha çegarasiga eng yaqin nuqtada undan taxminan 40 km janubi-ğarbda ötadi. Çirçiq uning yirik irmoği bölib, Yangi Çinazda Sirdaryoga qöşiladi. Sovuq yarim quruq daşt iqlimi Köppen tasnifida BSk deb belgilanadi. Jismoniy geografiya şarq-ğarb va şimol-janub harakatini tor yölaklarda jamlagani sabab yönalişlar kesişmasida, Çirçiq vodiysi va Toşkent vohasi atrofida aholi manzilgohlari hamda madaniy faoliyat töplangan.

14.4.2 Tarixiy va arxeologik şaroit

14.4.2.1 Tarixdan oldingi davr

Örta paleolit (taxminan 50 000 yil avvalgaça) va yuqori paleolit (taxminan 50 000-10 000 yil avval) davrlarida, sönggi muzlik davri davomida, Toşkent yaqinida odamlar harakat qilganiga dalillar bor. Bunga Markaziy Osiyoning bu qismidagi iliq muzliklararo bosqiçlar imkon yaratgan bölişi mumkin. Tarixdan oldingi eng muhim dalil joylaridan biri, Obirahmat ğori, Çirçiq manbasiga yaqin Piskom toğlarida joylaşgan.[58][59]

14.4.2.2 Bronza davri va dastlabki tarixiy davr

1940-yillarda loyiha maydoni yaqinida Toşkent kanali qurilişi vaqtida A.I. Trenojkin rahbarligida ötkazilgan tadqiqot Tuyaboğuz suv ombori hududidagi Burgulliksoyda arxeologik qazişlarga va loyiha rivojlaniş hududi böylab uçraydigan Burgulik madaniyatining kaşf etilişiga olib kelgan. Bu bronza davri madaniyati, miloddan avvalgi taxminan 9[60]-asrdan 6-asrgaça, qişloq xöjaligi, töquvçilik va metallga işlov beriş bilan şuğullangan. Bunga, masalan, loyiha maydonidan taxminan 13 km şimolda, Toşkentning janubida joylaşgan Şoştepa dalil böladi.

[58] Li, F., Vanwezer, N., Boivin, N., Gao, X., Ott, F., Petraglia, M., Roberts, P. 2019. *Şimol sari: sönggi pleystotsen davridagi muhit va Markaziy hamda Şarqiy Osiyoda insonlarning tarqalişi.* PLOS ONE 14(5).

[59] Bu masala böyiça, masalan, quyidagiga qarang: Suleimanov, R. Kh. 1972. *Obi-Rahmat pana joyi madaniyatining statistik tadqiqi.* Toşkent: Fan (rus tilida).
Krivoshapkin A.I., Kuzmin, Y.V., Jull, A.J.T. 2010. «Obi-Rahmat ğori (Özbekiston) xronologiyasi: davrini aniqlaşning dastlabki natijalari va Markaziy Osiyodagi muhim paleolit manzilgohi muammolari». *Radiocarbon*, 52(2): 549-554.

[60] Terenozhkin, A. I. 1950. «Sogd i Chach». Quyidagi naşrda: *Kratkie soobshcheniya instituta istorii material'noi kul'tury, 33*, 152-169.

Bu madaniyat vakillarining quriliş usuli xom ğiştdan foydalaniş bilan tavsiflanadi. Ayrim xom ğişt inşootlar vaqt ötişi bilan yemirilib, “tepa” deb ataladigan uyumsimon balandliklarga aylangan. Miloddan avvalgi 4[61]-asrdan boşlab Toşkent va loyiha maydoni yaqinidagi Çirçiq vodiysida suğoriş mavjud bölganiga oid dalillar bor.[62]

14.4.2.3 Ilk şahar Çaç/Şoş madaniyati, miloddan avvalgi 2-asrdan milodiy 7-asrgaça

Şoştepa obyektidagi qatlamlar Qovunçi madaniyatining kirib kelişini miloddan avvalgi 2-asrdan milodiy 5- yoki 6-asrgaça bölgan davr bilan belgilaş imkonini bergan. Bu madaniyat yarim köçmançi turmuş tarzi va qörğon dafn tepaliklari bilan tavsiflanadi. Miloddan avvalgi 2-asrga oid Xitoy yilnomalarida Çaç yoki Şoş (Toşkent) vohasidagi aholi manzilgohi haqida ilk yozma ma’lumotlar keltirilgan. Ular kengroq Markaziy Osiyo tarmoqlariga boğlangan ötroq şahar mavjudligini körsatadi. Bu davrda hududda eroniy va turkiy tilli madaniyatlar aralaşmasini namoyon etgan söğdiy va ilk turkiy guruhlar yaşagan.

14.4.2.4 Islom istilosi va örta asrlar, milodiy 8-asrdan 13-asrgaça

Arab qoşinlarining 8-asr boşlarida Şoş hududiga kirişi islom davrini boşlab berdi va yangi diniy, ma’muriy hamda madaniy tizimlarni olib keldi. 9-10-asrlarga kelib Toşkent, öşa davrda köp hollarda Binkent deb atalgan, Somoniylar davlati kabi musulmon siyosiy tuzilmalari davrida muhim savdo va hunarmandçilik markaziga aylandi. 13-asr boşlaridagi Moğul bosqinlari butun Markaziy Osiyoni, jumladan, Toşkent hududini keng vayron qildi, biroq keyin şahar hayoti qayta tiklandi.[63] **Zangiota söfiy maqbarasi va majmuasi (taxminan 13-19-asrlar)** Şayx Ay-Xoja ziyoratgohi (Zangiota, 12-13-asrlar) atrofida şakllangan. Majmua 19-asrgaça masjid, madrasa va minora kabi me’moriy qöşimçalar bilan kengaytirilgan. U **Toşkentdan taxminan 15 km janubi-ğarbda** va loyiha maydonidan taxminan 9 km şimoli-ğarbda joylaşgan.

14.4.2.5 Temuriylar va temuriylardan keyingi davrlar, 14-asrdan 16-asrgaça

Moğullar hukmronligidan keyin mintaqa keyingi kuçlar, jumladan, 14-asr oxiridan Temuriylar sulolasi davrida yana rivojlandi. Bu sulola mintaqadagi diniy me’morçilik va homiylikka ham ta’sir körsatdi. Bu davrda Toşkentda Hazrati Imom majmuasi, 16-asr va undan keyingi davr, hamda taniqli Imom Abu Bakr al-Kaffal aş-Şoşiy uçun 1542-yilda qurilgan Qaffol Şoşiy maqbarasi kabi mintaqaviy diniy va me’moriy majmualar rivojlandi.

14.4.2.6 Mahalliy sulolalar va xonliklar, 17-asrdan 19-asr boşlarigaça

Mustaqil Toşkent davlati, 1784-1808-yillar, şaharni taşkil qilgan tört daha örtasidagi içki nizolar davrida paydo bölib, 19-asr boşlarida Qöqon xonligi tarkibiga kirdi. Bu davrda şahar atrofdagi kuçlarga köp hollarda böysungan bölsa-da, uning Markaziy Osiyo xonliklari tarmoğidagi strategik mavqeyi muhimligiça qoldi.

14.4.2.7 Rossiya imperiyasi hukmronligi, 1865-1917-yillar

1865-yilda Toşkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi, mahalliy Qöqon hukmronligi tugatildi va şahar mustamlaka ma’muriyati ostidagi Rossiya Turkistoni tarkibiga kiritildi. Rossiya hukmronligi ma’muriy qayta tuzişga va şahar şarqida “Yangi Toşkent”ning barpo etilişiga olib keldi. Bu hukmronlik Rossiyadan köçib keluvçilar hamda Toşkent va uning atrofida, jumladan, loyiha maydoni hududida temir yöl va kanal tizimlari kabi yangi infratuzilma bilan boğliq katta özgarişlarni ham olib keldi.

[61] Masalan, qarang: Filanovich M.I. 2010. *Drevnyaya i srednevekovaya istoriya Tashkenta v arkheologicheskikh istochnikakh.* Toşkent: FAN.
[62] Sala, R. 2003. *Ğarbiy Markaziy Osiyodagi suğoriş amaliyotlarining tarixiy tahlili.* http://www.lgakz.org/Publications/Publications.html.
[63] Toşkentning arab-musulmonlar tomonidan zabt etilişi haqida, masalan, quyidagi manbalarga qarang: Williams, D. S. M. 1967. «Toşkent şahri: ötmişi va buguni», *Journal of The Royal Central Asi*an Society, 54, 1; Bol'shakov, O. G. 2010. *Istoriya Khalifata, t. 4: apogey i padeniye*. Moskva: «Vostochnaya literatura» RAN.

14.4.2.8 Sovet davri, 1917-1991-yillar

1917-yilgi inqilobdan keyin Toşkent Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining, keyin esa Özbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining asosiy şahar markaziga aylandi. Ikkinçi jahon uruşi davrida Toşkent va uning atrofidagi hududlar yirik evakuatsiya va sanoat markaziga aylandi. Sovet davridagi rejalaştiriş natijasida şahar aholisi va iqtisodiy kölami kengaydi. 1966-yilgi zilzila Toşkent tarixiy markazining katta qismini vayron qildi hamda atrofdagi, jumladan, loyiha maydoniga yaqin qişloqlarga sezilarli ta'sir körsatdi.


14.4.2.9 1991-yildan hozirgi kungaça

Özbekiston Respublikasi taşkil topganidan keyingi sönggi 35 yil, ayniqsa, Toşkent şahrining markazi va uning atrofida jadal rivojlaniş, modernizatsiya va şaharlaşuv davri böldi. Bu jarayon rivojlaniş hududida asosan dehqonçilik amaliyoti va yerdan foydalanişdagi özgarişlarda namoyon böladi. Dastlab jamoa xöjaliklari *(şirkatlar) 1992-1997-yillarda kiçik xususiy va kooperativ birliklarga ajratildi. Keyin ayrim joylarda ular yanada kiçik xususiy birliklarga bölindi, söngra işlab çiqariş samarasizligi tufayli yana yirik alohida xöjaliklarga birlaştirildi. Bu jarayon ekin turlarining sezilarli xilma-xillaşuviga olib kelgan bölsa-da, yer tuzilişi, suğoriş tizimlari va yer qatlamida ham katta özgarişlarni yuzaga keltirdi. Bu holat rivojlaniş egallaydigan maydonning ayrim qismlarida nisbatan yaqinda yerlar buldozer bilan tekislangani, tozalangani va yangi suğoriş kanallari qazilganida namoyon böladi.*

14.4.2.10 Savdo yöllari (14.1-rasmga qarang)

Çirçiq daryosi suvi bilan ta'minlangan mintaqaning unumdor vohasi ilk savdo va madaniy almaşinuv yöllarining kesişmasi bölgan. Bu, ehtimol, kamida sönggi Bronza davri yoki ilk Temir davridan boşlangan va Yevrosiyo daşt yöli kabi yönalişlarni qamrab olgan. Miloddan avvalgi taxminan 206-yildan milodiy 220-yilgaça hukmronlik qilgan Xan sulolasi davrida savdo yöli barpo etilganiga oid ma'lumotlar mavjud. Bu yöl Markaziy Osiyoni Çirçiq daryosi vodiysi yaqinidan yoki u böylab hamda Toşkent orqali ötadigan tabiiy dovonlar böylab Rim bilan boğlagan. Bunday savdo tarmoqlari jadallaşib, milodiy 618-907-yillarda eng yuqori darajaga yetgan hamda Tan sulolasini Abbosiylar imperiyasi bilan boğlagan. Bu davrda loyiha maydonidan janub va ğarbda joylaşgan Samarqand muhim markazga, keyin esa 14-asrda Temuriylar imperiyasining yuragiga aylangan; Toşkent esa muhim töxtaş joyi bölgan.

Loyiha maydonining bevosita yaqinidagi hudud mintaqaga oid yozma manbalar yoki arxeologik tadqiqotlarda köp qayd etilmagan bölsa-da, u aynan bu savdo yöllari kesişmasida joylaşgan. Şu sababli bu hududda hali topilmagan, katta qiymatga ega madaniy meros obyektlari mavjud bölişi ehtimoli yuqori (14.1-rasmga qarang).



14.1-rasm. Loyiha maydonining geografik şaroiti (pastda) va savdo yöllari bilan aloqasini (yuqorida) körsatuvçi xaritalar

14.4.3 Loyiha maydonidagi ehtimoliy madaniy meros haqidagi oldingi ma’lumotlar

Loyiha maydonida 1973-yilda tuzilgan va keyingi yillarda yangilangan “Toşkent viloyati arxeologik yodgorliklari xaritasi”dan taşqari heç qanday tizimli arxeologik yoki etnografik tadqiqot ötkazilmagan körinadi. Bu xaritada loyiha çegarasi içida arxeologik obyektlar körsatilmagan. Biroq Geodeziya va kartografiya boş boşqarmasi 1940 va 1950-yillarda topografik xaritalaş ötkazganda, xarita tuzuvçilar har qanday balandlikni (“tepa” yoki “tepalik”) arxeologik obyekt sifatida belgilaşgan. Şu sababli bu davrdagi sovet xaritalari va ularga asoslangan xaritalarda loyiha maydonida tepaliklar, şuningdek, boşqa xarobalar va qabristonlar mavjudligi qayd etilgan.[64]

A.A. Potopov 1929-yilda kaşf etgan bir obyekt loyiha maydoni çegarasidan 720 metr şimolda joylaşgan. U bu baholaş uçun kiritilgan 500 metrlik oraliq hududdan taşqarida, biroq kengroq loyiha qidiriş hududi içida joylaşgan. Obyekt “Illiboytepa” deb ataladi va qalin halqa devor bilan öralgan aylana tepalik sifatida tavsiflangan ([65]14.3-rasmga qarang).

Loyiha uçun çeklovlarni dastlabki xaritalaş jarayonida taklif etilayotgan aeroport maydoni çegaralari içida törtta ehtimoliy qabriston aniqlangan, beşinçisi esa maydon çegarasining bevosita şarqida joylaşgan. NACO bu obyektlarni 2024-yilda tayyorlangan maydon variantlari tahlili doirasida dastlab baholagan. Baholaşda törtta qabriston joyi haqida ğarbdan şarqqa qarab quyidagi xulosalar çiqarilgan (14.2-rasmga qarang):

- 4-joy: şimol-janub yönalişida taxminan 160 m va şarq-ğarb yönalişida 60 m maydonni egallaydi. Joyida tekşirişda dafn izlari aniq topilmagan;
- 3-joy: eng katta ölçami 75 m x 50 m bölgan uçburçak yer. Zamonaviy qabr belgilari bölmasa-da, köp sonli çökmalar bu yerdagi qabrlar olib taşlangan bölişi mumkinligini körsatadi;
- 2-joy: taxminan 200 m x 80 m maydon. Tösiq bilan öralgan hududda XX asr örtalariga oid qabr toşlari bölgan bir qança qabr mavjud, biroq u hozir faol qabriston sifatida işlatilmaydi;
- 5-joy: taxminan 190 m x 80 m maydon. U NACO baholaşida tavsiflanmagan. Biroq yöldoş tasvirlari bu joy boşqa joylarga öxşaş bölganini, tarixiy xaritalar esa 1980-yillarda bu yerda qabriston bölganini körsatadi.
- 1-joy: taxminan 140 m x 70 m maydon. NACO baholaşida u faol qabriston sifatida tavsiflangan. Şu sababli loyihaning dastlabki joyini 300 m ğarbga, hozirgi loyiha joyiga köçiriş tavsiya etilgan.

[64] Mantellini, S., Rondelli, B., Stride S. 2011. «Samarqand vohasida (Özbekiston) suv landşafti taraqqiyotini aks ettirişga tahliliy yondaşuv». Quyidagi naşrda: *On the Road to Reconstructing the Past. Computer Applications and Quantitative Methods in Archaeology (CAA). 36-xalqaro konferensiya materiallari. Budapeşt, 2008-yil 2-6-aprel*, Jerem, E., Redő, F. va Szeveréni, V. (tahrirçilar), 387-396-betlar, Archaeolingua Foundation, Budapeşt (389-bet); Rondelli, B. Stride, S., García-Granero, J.J. 2013. «Samarqand viloyatida sovet harbiy xaritalari va arxeologik tadqiqot», *Journal of Cultural Heri*tage, 14-jild, 270-276-betlar (272-bet).

[65] Potapov, A. A. 1929. Obzor tepe srednego techeniia Chirchika. Arkhiv Glavnogo upravleniia po okhrane pamiatnikov materialnoi kultury Ministerstva kultury UzSSR. Toşkent, 96-yiğmajild.



14.2-rasm. Çeklovlarni dastlabki xaritalaş doirasida NACO aniqlagan joylar

14.4.4 Loyiha hududidagi ehtimoliy moddiy madaniy merosni baholaş natijalari

14.4.4.1 Dala tadqiqoti va masofadan zondlaş böyiça dastlabki kuzatuvlar

Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi arxeologlari ötkazgan dala tadqiqoti (bundan keyin “Fanlar akademiyasining 1-hisoboti”) AMITB/ESIAning 8-ilovasiga kiritilgan. Tadqiqot NACO hisobotida avval aniqlangan joylar va loyihaga aloqador aholi va taşkilotlar bilan maslahatlaşuvda bildirilgan ayrim xavotirlarga, xususan, quyidagilarga qaratilgan:

1-obyekt, NACO hisobotidagi 4-joy, tepalik va qabriston
4-obyekt, NACO hisobotidagi 2-joy, musulmon qabristoni
6-obyekt, NACO hisobotidagi 1-joy, tepalik va qabriston

Bu tadqiqot böyiça Fanlar akademiyasining 1-hisobotida quyidagi kuzatuvlar keltirilgan:

- Asosan 16-18-asrlarga oid sopol parçalari köproq suğoriladigan qişloq xöjaligi yerlarida topilgan; bu ehtimol ularning suğoriş va drenaj oqibatida ikkilamçi köçişi natijasidir;
- Közga körinadigan, buzilmagan tepalik tuzilmalarida topilmalar aniqlanmagan;
- Tartibsiz dafnlar, jumladan, çuqurligi 2 m gaça bölgan qabrlar tuproq qatlamlarini jiddiy buzgan;
- Buzilgan joylarda stratigrafik yaxlitlik mavjud emas
- Uçala joydagi qabristonlarning heç biri hozir işlatilmaydi.

Bu kuzatuvlarga asoslanib, tadqiqotçilar bu tepaliklarni arxeologik meros obyektlari deb qat'iy tasniflaş uçun hozirça asos yöq, degan xulosaga kelgan. Ular hudud jiddiy buzilgan qişloq xöjaligi yerlari va nisbatan yaqinda paydo bölgan dafn unsurlaridan iboratligini, muhim arxeologik majmualar saqlanib qolganiga dalil yöqligini qayd etgan. **Biroq tepalik tuzilmalarida arxeologik belgilar** bor yoki yöqligini uzil-kesil tasdiqlaş uçun 1.5.3-bölimda bayon etilgan qöşimça tekşiruv zarur deb topilgan.

Bu işdan keyin ötkazilgan qöşimça hujjatlar asosidagi tadqiqot va masofadan zondlaş işlari NACO hisobotida aniqlangan jami beşta joydan taşqari, meros ahamiyatiga ega bölişi mumkin bölgan yana sakkizta joy mavjudligini körsatgan.

14.4.4.2 Qöşimça dala tadqiqotlari

Ehtimoliy madaniy meros obyektlari sifatida aniqlangan jami ön uçta joyning maqomini tekşiriş uçun yana ikkita tadqiqot ötkazilgan va ular böyiça quyidagi hisobotlar tayyorlangan:

- Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti, Milliy arxeologiya markazi tomonidan 2026-yil 29-aprelda tayyorlangan "Arxeologik muntazam kuzatiş va dala tadqiqotlari töğrisidagi hisobot", bundan keyin "Fanlar akademiyasining 2-hisoboti", AMITB/ESIAning 8-ilovasiga kiritilgan
- Quercus Heritage Ltd tomonidan 2026-yil 17-iyulda tayyorlangan madaniy merosni kö-rib çiqiş hisoboti (MMŞ/CHR) AMITB/ESIAning 8-ilovasiga kiritilgan

Fanlar akademiyasining 2-hisoboti

Fanlar akademiyasining 2-hisobotiga köra, avval aniqlangan ön uçta ehtimoliy joydan törtasida sinov çuqurlari (şurflar) qazilgan. Bu joylardagi yer kesimlari "*murakkab, köp hollarda buzilgan qatlamlardan*" iborat ekani aniqlangan. Tört joydan uçtasida turli davrlarga oid sezilarli sopol buyumlar majmuasi topilgani bu hududlarda ilk örta asrlarga borib taqalişi mumkin bölgan muhim manzilgohlar mavjudligini körsatadi. Tört joydan uçtasi (A, D va E qismlar) hisobotda sönggi tarixiy yoki zamonaviy mahalliy dafn joylari sifatida qayd etilgan. Aholi bilan maslahatlaşuvlar ularning musulmon qabristoni, koreys qabristoni va musulmon bolalar qabristoni ekanini tasdiqlagan hamda barçasini köçiriş tavsiya etilgan. Fanlar akademiyasining 2-hisobotida 5-obyekt (B qismi) "*töliq tabiiy relyef şakli yoki qişloq xöjaligi faoliyati natijasida hosil bölgan töplanma*" deb körsatilgan. Biroq aholi bilan maslahatlaşuvda bu joy ham koreys dafn joyi ekani bildirilgan. Hisobot mualliflari dehqonçilik va dafn faoliyati yer qatlamlarini buzganligi sababli örganilgan joylarda "*birlamçi kontekstlar yoki turar-joyga oid tuzilmaviy qismlar yöq" degan* xulosaga kelgan. Biroq obyektlarning taşqi çetida qazilgan sinov çuqurlarining joyi va çuqurligi tepaliklarning markaziy va çuqurroq qismlarida buzilmagan arxeologik qoldiqlar yöqligini uzil-kesil tasdiqlaş uçun yetarli bölmagan.

MMŞ/CHR

Madaniy meros ahamiyatiga ega bölişi mumkin deb aniqlangan ön uçta joydan töqqiztasiga taşrif buyurilgan va asosiy e'tibor loyiha izidagi obyektlarga qaratilgan. Tadqiqot közdan keçiriş orqali loyiha ta'sir qilişi mumkin bölgan madaniy meros obyektlari mavjud bölişi ehtimolini rad etiş yoki tasdiqlaş, şuningdek, Fanlar akademi-yasining 1- va 2-hisobotlari xulosalarini körib çiqişga qaratilgan. Hisobotda uçta joyda, ya'ni 1-, 2- va 4-obyektlarda qurilişdan oldin ehtimoliy moddiy meros tadqiqoti ötkazilişi tavsiya etilgan. Loyiha izidan taşqarida, biroq oraliq hudud içida joylaşgan yana uçta obyekt, ya'ni 3-, 6- va 11-obyektlar quriliş davridagi ehtimoliy sezgirligi sababli MMBR/CHMPda alohida belgilanişi kerak. Bu tavsiyalar tört joydagi, ya'ni 1-, 2-, 4- va 5-obyektlardagi qabrlarni köçirişni tavsiya qiladigan Qabrlarni köçiriş yöl xaritasi va uslubiy rejasi bilan birgalikda qöllanadi.

Quyidagi bölimda madaniy meros ahamiyatiga ega bölişi mumkin bölgan barça joylarning örni va xususiyati bandma-band bayon etilgan.

Moddiy madaniy meros ahamiyatiga ega bölişi mumkin bölgan joylar


Tavsifiy röyxatda jami yettita ehtimoliy madaniy meros obyekti qayd etilgan (14.2-jadval). Ularning loyiha hududiga nisbatan joylaşuvi 14.3-rasmda körsatilgan.

13 ta ehtimoliy madaniy meros joyining töliq bahosi, jumladan, joy tavsiflari, topilmalar va tavsiya etilgan toifalar bilan tanişiş uçun AMITB/ESIAning 8-ilovasidagi MMŞ/CHRga qarang.

Bu bölimda har bir joyning qisqaça tavsifi beriladi. Bu bosqiçda köp joylarning davrini işonçli aniqlaş imkonini beradigan qat'iy ma'lumot juda kam va buning uçun batafsilroq tadqiqot kerak. Arxeologiya markazi hududni piyoda közdan keçirganda XVI-XX asrlarga oid tarqoq sopol parçalarini topgan; ular ehtimol allyuvial oqim va yer haydaş natijasida öz joyidan siljigan.

14.2-jadval. Madaniy meros jihatidan ehtimoliy ahamiyatli joylarning tavsifiy röyxati

Obyekt Raqam	Nomi	Belgi Turi	X	Y	Boşqa hisobotlardagi obyekt raqami özaro havola uçun
1	XX asrga oid koreys qabristoni joylaşgan, tarixiy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan tepalik.	Tepalik va qabriston	515473.24	4548166.61	NACO, 4-joy. Fanlar akademiyasining 1-hisoboti, 1-tepalik; Fanlar akademiyasining 2-hisoboti, D qismi
2	XX asrga oid musulmon bolalar qabristoni joylaşgan, tarixiy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan tepalik.	Tepalik va qabriston	519041.34	4550318.81	NACO, 5-joy. Fanlar akademiyasining 1-hisoboti, tegişli emas Fanlar akademiyasining 2-hisoboti, E qismi
3	XX asrga oid rus-koreys qabristoni	Qabriston	520697.72	4548560.55	NACO, tegişli emas Fanlar akademiyasining 1-hisoboti, tegişli emas Fanlar akademiyasining 2-hisoboti, tegişli emas
4	Tarixiy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan tepalikdagi XX asr musulmon qabristoni.	Tepalik va qabriston	517883.11	4548762.07	NACO, 2-joy Fanlar akademiyasining 1-hisoboti, 1-musulmon qabristoni Fanlar akademiyasining 2-hisoboti, A qismi
5	Kiçik tepalikdagi XX asr koreys qabristoni	Tepalik va qabriston	516591.14	4547743.86	Buyurtmaçi bergan yerdan foydalaniş ma'lumotlari
6	Yaqinda paydo bölgan va faol qabriston	Qabriston	520711.03	4550581.09	NACO, 2-joy Fanlar akademiyasining 1-hisoboti, tegişli emas Fanlar akademiyasining 2-hisoboti, tegişli emas
11	Temir yöl	Temir yöl	520571.78	4549275.56	NACO, tegişli emas Fanlar akademiyasining 1-hisoboti, tegişli emas Fanlar akademiyasining 2-hisoboti, tegişli emas




14.3-rasm. Loyiha hududida, jumladan, 500 m bufer doirasida aniqlangan taxminiy madaniy meros joylari

1-obyekt: XX asrga oid koreys qabristoni joylaşgan, tarixiy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan tepalik

Ölçamlari 200 m x 50 m dan taxminan 250 m x 140 m gaça (taxminan 1,2 ga dan 3,5 ga gaça), eng baland joyi esa atrofdagi yerdan 3-5 m kötarilgan yirik tepalik. Tepalikda uçta sinov çuquri qölda qazilgan. Ularning barçasida turli şakl va davrlarga oid sopol buyumlar topilgan. Fanlar akademiyasining 2-hisobotida 1-çuqurning yuqori qatlamida kul qatlami, ehtimol öçoq qoldiği aniqlangani, biroq u qazilmagani va qöşimça örganilmagani qayd etilgan. Bu joyda arxeologik ahamiyatga ega obyekt bölişi mumkin va bu ehtimol hali rad etilmagan. Fanlar akademiyasining 2-hisobotidagi fotosuratlarni közdan keçirişga köra, bu joyda topilgan sopol buyumlar 13-15-asrlarga, ayrimlari esa milodiy birinçi ming yillikka oid bölişi mumkin. Buyumlarning miqdori va turini, jumladan, maişiy sirlangan va sirlanmagan buyumlarni hisobga olganda, bu yerda yoki uning yaqinida manzilgoh bölgan bölişi ehtimoli yuqori. Fanlar akademiyasining 2-hisobotida taxmin qilinganidek, tepalik asl konteksti saqlanmagan, buzilgan arxeologik tuzilmalar va qayta yotqizilgan materiallardan iborat bölişi mumkin. Biroq buzilmagan tuzilmalar yöqligi hamda arxeologik yotqiziqlarning dastlabki manbasi yoki joyi qat'iy tasdiqlanmagan.

Aholi bilan maslahatlaşuv bu joyda 1960-yilgaça dafn etilgan taxminan 45 ta koreys qabri borligini hamda ularni boşqa qabristonga köçirişga kelişilganini körsatgan.



14.4-rasm. 1-obyekt: tepalikdagi qabriston (4-joy). Obyektning töliq qamrovi (kök çiziq) hozir xaritada belgilangan qamrov (sariq çiziq) bilan taqqoslangan



14.5-rasm. 1-obyekt tepasidan janubga köriniş, obyektning nisbatan baland joylaşuvi körsatilgan

2-obyekt: tarixiy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan tepalik va XX asrga oid musulmon bolalar qabristoni.

Ölçamlari 50 m x 50 m dan 70 m x 50 m gaça, ya'ni 0,25 ga dan 0,35 ga gaça, atrofdagi yer sathidan 5 m gaça baland tepalik. Ayrim yöldoş tasvirlarida yer ostida töğri törtburçak va aylana şaklidagi tuzilmalar bölişi mumkinligi körinadi. Sinov çuqurlari bir neçta aniq qatlam, eng quyi qismda esa terilgan sopol buyumlar (Fanlar akademiyasi hisobotining 46-betiga qarang) va toş bölişi mumkinligini körsatadi. Ayrim sopol buyumlar tepalik usti va atrofida soçilib yotibdi, ularning ayrimlari milodiy birinçi ming yillikning birinçi yarmiga oid bölişi mumkin. Bu joy şimolda joylaşgan va milliy röyxatga kiritilgan "Elliboytepa" (Çordara) obyektiga yaqin; u yerda katta şaharga tutaş manzilgoh bölgan bölişi ehtimoli yuqori, şu sababli ular özaro boğliq bölişi mumkin. Muhim tarixiy manzilgoh mavjudligi va şimoldagi röyxatga olingan yodgorlik bilan boğliqlik ehtimoli hozirça yetarli darajada rad etilmagan.


Aholi bilan maslahatlaşuv bu joyda 1984-yilgaça dafn etilgan taxminan 40 ta musulmon bola qabri borligini hamda ularni boşqa qabristonga köçirişga kelişilganini körsatgan.



14.6-rasm. 2-obyekt: kesimi bilan körsatilgan tepalik va musulmon bolalar qabristoni

3-obyekt: rus-koreys qabristoni

Bu obyekt loyiha rivojlaniş hududidan taşqarida, biroq 500 m li oraliq hudud içida joylaşgan. Bu yer endilikda bu hududda yaşamaydigan koreys jamoasining dafn joyi sifatida ma'lum, şu sababli qabristondan hozir foydalanilmaydi deb taxmin qilinadi. Qabriston atrofdagi nisbatan tekis manzaradan eng baland nuqtasida 4 m kötarilgan tepalikda joylaşgan. Bu joy avvalgi manzilgoh yoki dafn joyi bölib, XX asrda qabriston sifatida qayta işlatilgan bölişi mumkin. Obyekt loyiha iziga yaqin va ta'sirga oçiq joylaşgani sababli, quriliş paytida uni aniq belgilaş va çegaralaş çoralari MMBR/CHMP doirasida amalga oşirilişi tavsiya etiladi.



14.7-rasm. 3-obyekt: kesimi bilan körsatilgan rus-koreys qabristoni

4-obyekt:

Tarixiy ahamiyatga ega bölişi mumkin bölgan tepalikdagi XX asr musulmon qabristoni.

Atrofdagi dalalardan kamida 2 m baland bölgan tepalikda taxminan 100 ta musulmon qabri mavjud va ularni köçirişga kelişilgan. Kamida beşta qabr aniq belgilangan. Ulardan ikkitasidagi qabr toşlariga 1954 va 1965 sanalari bitilgan, yana bittasi esa qabr toşi va yozuvi bölmagan işlangan temir panjara bilan öralgan. Aholi bilan maslahatlaşuvlarga köra, qabristondan foydalaniş 1978-yilda töxtagan deb hisoblanadi.

Qabriston juda notekis, baland joyda joylaşgan. Köp sonli kiçik tepaliklar yoki "qörğonlar" mavjudligi bu joydan ketma-ket dafn uçun foydalanilganini yoki unda arxeologik ahamiyatga ega boşqa sun'iy tuzilma borligini körsatişi mumkin (14.9-rasmdagi çap suratga qarang). Ikkita sinov çuquridan olingan sopol buyumlar milodiy 10-15-asrlarga oid körinadi. MMŞ/CHRda esa qolipda tayyorlangan me'moriy koşin parçalari kuzatilgani qayd etilgan. Sopol buyumlarning yetarli miqdori va odatda qabristonlarga xos bölmagan boşqa moddiy madaniyat dalillari hududda tarixiy ahamiyatga ega manzilgoh bölişi mumkinligini körsatadi. Bu ehtimol hali aniq rad etilmagan.




14.8-rasm. 4-obyekt: tepalikdagi XX asr musulmon qabristoni



14.9-rasm. 4-obyektdagi qabrlar (çapdagi surat orqa fonida kiçik tepaliklar körinadi)

5-obyekt: kiçik tepalikdagi XX asr koreys qabristoni.


Loyiha hududining janubi-ğarbiy qismida joylaşgan bu obyekt NACO çeklovlar xaritasida avval aniqlanmagan. U taxminan uçburçak şaklidagi tepalik bölib, ikki tomoni taxminan 55 m, bir tomoni taxminan 75 m, markazi esa atrofdagi yerdan kamida 2 m baland. Tepalik yuzasida qörğonsimon köp sonli aylana tepaliklar va nisbatan yangi qabrlar bölişi mumkin. Tarixiy xaritalar bu joy avval qabriston sifatida işlatilganini tasdiqlaydi. Aholi bilan maslahatlaşuvda bu yerda taxminan 25 ta koreys qabri borligi va qabristondan 1960-yilgaça foydalanilgani aniqlangan. Qabrlarni boşqa qabristonga köçirişga kelişilgan.



14.10-rasm. 5-obyekt: tepalikdagi qabriston

6-obyekt: yaqinda paydo bölgan yoki hozirgi qabriston, 1-joy

Bu qabriston loyiha hududidan taşqarida, biroq 500 m li oraliq hudud içida joylaşgan. NACO hisobotida temir yöl, xizmat yöli va qabristonning muqaddasligiga har qanday zarar yetkazilişining oldini oliş uçun loyiha maydonini taxminan 300 m ğarbga köçiriş tavsiya etilgan va hozirgi joy bu tavsiya asosida tanlangan. Qabristondan hali ham foydalaniladi deb hisoblanadi, biroq bu ma'lumot bahsli va tasdiqlanmagan. U atrofdagi yer sathidan taxminan 2 m baland joyda joylaşgandek körinadi. Ehtimol, bu sun'iy belgi joydan ketma-ket foydalanilganini yoki uning ostida boşqa arxeologik qatlam mavjudligini körsatadi. Obyekt loyiha iziga yaqin va ta'sirga oçiq joylaşgani sababli, quriliş paytida uni aniq belgilaş va çegaralaş çoralari MMBR/CHMP doirasida amalga oşirilişi tavsiya etiladi.



14.11-rasm. 6-obyekt: yaqinda barpo etilgan qabriston (1-joy), kesim tasviri bilan



14.12-rasm. 6-obyekt: qabriston hududiga kiriş (çapda) va qabr toşlari (öngda)

11-obyekt: temir yöl

Temir yöl loyiha rivojlaniş hududidan taşqarida, uning şarqiy tomonida, biroq oraliq hudud içida joylaşgan. 6-obyektga oid qaydda körsatilganidek, qabriston bilan birga temir yölga ta'sirning oldini oliş uçun loyiha hududi qisman köçirilgan. Agar temir yöl XIX asr yoki XX asr boşidagi dastlabki temir yöl qurilişi dasturining bir qismi bölgan bölsa, u madaniy meros qiymatiga ega deb hisoblanişi mumkin. Temir yölning katta qismi tösiq bilan öralgani va quriliş işlariga kiriş bu obyektni muqarrar ravişda çetlab ötişiga qaramay, uni MMBR/CHMPda ehtimoliy madaniy meros obyekti sifatida qayd etiş tavsiya etiladi.

14.4.5 Moddiy va nomoddiy merosga oid maslahatlaşuvlar

Loyihaga aloqador köplab davlat idoralari, nodavlat taşkilotlar va mahalliy aholi bilan moddiy, nomoddiy yoki har ikki turdagi madaniy meros mavjudligidan xabardorlik masalasida keng maslahatlaşuvlar ötkazilgan.

Maslahatlaşilgan guruhlar, taşkilotlar va şaxslar quyidagilardan iborat:

- Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti
- Madaniy meros agentligi
- Obodonlaştiriş bölimi
- Toşkent viloyati Turizm va madaniy meros boşqarmasi
- Din işlari böyiça qömitaning Toşkent viloyati bölimi
- Özbekiston musulmonlari idorasining Toşkent viloyati vakilligi
- Hokimlik
- Diniy rahbarlar, mahalliy imomlar va pravoslav çerkovi vakillari
- Mahalla yetakçilari va vakillari
- Yangiyöl mahallasi, Örtaçirçiq tumani, aralaş maqsadli guruh
- Surum mahallasi, Quyiçirçiq tumani, aralaş va ayollar maqsadli guruhlari
- Taraqqiyot mahallasi, Örtaçirçiq tumani, aralaş maqsadli guruh
- Kuşek mahallasi, Quyiçirçiq tumani, aralaş maqsadli guruh
- Beruniy mahallasi, Quyiçirçiq tumani, aralaş va ayollar maqsadli guruhlari
- Döstlik mahallasi, Quyiçirçiq tumani, aralaş maqsadli guruh
- Xalqobod mahallasi, Örtaçirçiq tumani, aralaş va ayollar maqsadli guruhlari
- Sergeli mahallasi, Quyiçirçiq tumani, aralaş va ayollar maqsadli guruhlari
- Örtaçirçiq tumani, "Xalqobod" mahalla fuqarolar yiğini raisi
- Xalqobod mahalla fuqarolar yiğini, mahalliy pravoslav çerkovi qarovuli
- Xalqobod mahalla fuqarolar yiğini, nafaqadagi ruhoniy va qabriston işçisi
- Quyiçirçiq tumanidagi Surum mahallasi vakili

Hududdagi turli mahallalarda ötkazilgan maqsadli guruh muhokamalarida olingan javoblar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

14.3-jadval. Maqsadli guruh muhokamasi yöriqnomasi, 1-qism: moddiy va nomoddiy madaniy meros

Mavzu	Savollar	Beruniy mahallasi, Quyiçirçiq tumani		Döstlik mahallasi, Quyiçirçiq tumani	Xalqobod mahallasi, Örtaçirçiq tumani		Sergeli mahallasi, Quyiçirçiq tumani
		Aralaş guruh javoblari	Ayollar guruhi javoblari	Aralaş guruh javoblari	Aralaş guruh javoblari	Ayollar guruhi	Aralaş guruh va ayollar guruhi javoblari
Moddiy madaniy meros	Toşkent aeroporti quriliş hududida eski binolar yoki xarobalar bormi? Agar mavjud bölsa, batafsil ma'lumot bering. Hududda arxeologik ahamiyatga ega buyumlar, masalan, sopol buyumlar, asboblar, tangalar yoki zargarlik buyumlari topilganmi? Agar topilgan bölsa, batafsil ma'lumot bering. Taklif etilgan aeroport hududida arxeologik tadqiqot yoki qaziş işlari ötkazilganmi? Sizda hozir Toşkent aeroportining taklif etilgan quriliş çegarasida yoki taklif etilgan joy atrofidagi 1 km li hududda arxeologik axborot yoki ma'lumot bormi? Yoki şunday ma'lumotga ega davlat yoxud nodavlat taşkilotlardan xabardormisiz?66	Beruniy mahallasi yoki aeroport quriliş hududida eski binolar, xarobalar yoxud arxeologik topilmalar qayd etilmagan. Davlat yoki nodavlat taşkilotlarda tegişli tadqiqot natijalari yoxud ma'lumotlar mavjudligi haqida axborot yöq.	Ayollar Beruniy mahallasida tarixiy binolar, xarobalar yoki arxeologik topilmalar borligini bildirmagan. Mahalliy tarixiy yoki me'moriy ahamiyatga ega alohida inşootlar tilga olinmagan. Şuningdek, qizil hududda yoki unga yaqin joylaşgan boşqa mahallalardan farqli ravişda, ular mahalliy qabristonlarni aeroport loyihasining bevosita ta'siriga uçraydigan obyekt sifatida körsatmagan. Beruniy mahallasi buzilişi kutilayotgan hududlarga kirmagani sababli, ayollarning madaniy merosga oid xavotirlari bevosita xavf ostidagi muayyan moddiy merosdan köra umumiyroq bölib, kelajakda yuz berişi mumkin bölgan köçirib joylaştirişdan xavotirga boğliq.	Maqsadli guruh muhokamalarida iştirokçilar mahallada rasmiy muhofaza maqomiga ega tarixiy binolar, yodgorliklar, diniy yoki arxeologik joylar kabi moddiy madaniy meros obyektlari mavjudligini bildirmagan. Mahalla asosan turar joy va kundalik ehtiyojga xizmat qiladigan uylar, yordamçi binolar, maktablar va bolalar bağçalaridan iborat. Aholi bu obyektlarni madaniy meros unsurlari emas, kundalik infratuzilmaning bir qismi deb hisoblaydi. Aeroport loyihasi mahalladan uzoqda ekani va mahalla içida quriliş işlari rejalaştirilmagani sababli, iştirokçilar loyiha moddiy madaniy meros obyektlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir körsatişini kutmaydi.	Maqsadli guruh quriliş hududida tarixiy binolar yoki xarobalarni aniqlamagan, biroq moddiy meros hamda madaniy va diniy amaliyotning markaziy qismi bölgan qabristonlar haqida muhim ma'lumot bergan. Tört qabriston aeroport quriliş hududiga tuşgan, ulardan faqat bittasi faol qolgan. Yangi qabriston oçilgan, biroq hali işlamaydi. Diniy idora vakillari, ya'ni muftiylar, ta'sirga uçragan qabristonlarga taşrif buyurib, ular ança oldin oçilgani va endi olib taşlanişi mumkinligini aytgan hamda qabristonlarni buzişga rozilik bergan. Boş imomga u yerda endi dafn ötkazmaslik rasman bildirilgan. Bu köçiriş uçun diniy jihatdan ma'qullangan asosni yaratsa-da, moddiy madaniy meros bölgan qabrlarga loyiha bevosita ta'sir qilişini ham körsatadi. Loyiha hududidagi sopol buyumlar, asboblar, tangalar yoki zargarlik buyumlari kabi arxeologik topilmalar, rasmiy arxeologik tadqiqotlar yoxud arxeologik ma'lumotga ega taşkilotlar haqida axborot berilmagan.	Ayollar quriliş hududidagi muayyan eski binolar yoki xarobalarni tilga olmagan, biroq ular ham boşqa aholi kabi qabristonlardagi özgarişlarning bevosita ta'siriga uçraydi. Hozir tört qabriston aeroport quriliş hududida, ulardan faqat bittasi faol. Yangi qabriston oçilgan, biroq hali işlatilmaydi. Şu sababli ayollar dafn marosimlari uçun qarindoşlariga boşqa mahallaga, Taraqqiyotga, hamrohlik qilişi kerak. *Izoh: mahalla raisi bilan qayta boğlanilganda, u boşqa qabriston tilga olingani va aeroport çegarasidagi 4 ta qabristondan foydalanilmasligini aytgan. Biroq qabrlardan biri yaqin vaqtgaça işlatilgani haqida avval ham ma'lumot olingan.* Ayollar diniy rahbarlar, ya'ni muftiylar, ta'sirga uçragan qabristonlarga taşrif buyurib, ular eski ekani va olib taşlanişi mumkinligini aytgan hamda qabristonlarni buzişga rozilik berganini bayon qilgan. Şunga qaramay, bu jarayon, ayniqsa, qabrlarga qaraş va xotira marosimlarini ötkaziş yukini köp hollarda öz zimmasiga oladigan ayollarga çuqur hissiy ta'sir qiladi.	Mahallada röyxatga olingan arxeologik obyekt yoki qaziş işlari yöq. Texnik xizmat va saqlaş talab etiladigan yodgorliklar hamda qabristonlar mavjud. Hududda yoki 1 km li oraliq hududda xarobalar, arxeologik aşyolar yoxud tadqiqotlar yöq; 2 ta yodgorlik ta'mirga muhtoj. Arxeologik ma'lumotga ega taşkilotlar ma'lum emas.
Nomoddiy madaniy meros	Biror nomoddiy madaniy merosdan xabardormisiz? Agar xabardor bölsangiz, batafsil ma'lumotni özingiz bera olasizmi yoki uni bera oladigan biror şaxsni bilasizmi? Bunday amaliyotlar quyidagi faoliyatlarni qamrab olişi mumkin: diniy yoki folklor amaliyotlari Dafn va ajdodlarni xotirlaş joylari hamda amaliyotlari. An'anaviy yöllar, yönalişlar yoki ziyorat yöllari	Uzoq muddatli istiqomat, ya'ni "bir oila" tuşunçasi bilan mustahkamlangan mahalladagi özaro yordam asosiy nomoddiy meros sifatida kuçli ta'kidlangan. Muayyan diniy, folklor yoki an'anaviy amaliyotlar batafsil bayon etilmagan. Qabristondan foydalaniş tilga olinmagan, bu mahallaning qizil hududda joylaşmaganiga mos.	Beruniylik ayollar muhokamasida diniy amaliyotlar, folklor, an'anaviy yöllar va hunarmandçilik kabi nomoddiy madaniy meros masalalariga asosiy e'tibor qaratilmagan. Biroq ularning yaxşi qöşniçilik munosabatlari, özaro yordam va uzoq- muddat davomida birga- yaşaş haqidagi fikrlari	Mahallaning nomoddiy madaniy merosi asosan kuçli özaro yordam, jamoaviy qaror qabul qiliş va ijtimoiy birdamlik an'analari orqali namoyon böladi. Iştirokçilar mahalla "ona yurt" sifatida qabul qilinişi, unda qöşnilarni qöllab-quvvatlaş, özaro hurmat va ularning farovonligi uçun mas'uliyatning norasmiy	Maqsadli guruh loyiha yaqinida folklor, ziyorat yöllari, an'anaviy oziq-ovqat işlab çiqariş joylari yoki muayyan quriliş usullari kabi alohida nomoddiy madaniy meros amaliyotlarini qayd etmagan. Biroq mahalliy masjidning yopilişi va an'anaviy dafn tartibining buzilişi diniy hamda xotira amaliyotlariga ta'sirni körsatadi.	Bu ayollar muhokamasida nomoddiy madaniy meros asosan diniy amaliyotlar va dafn an'analari orqali aks etgan. Hozir mahallada işlaydigan masjid yöq: avvalgi masjid yopilgan, natijada ayollar va erkaklar muntazam namoz öqiydigan joysiz qolgan. Bu an'anaviy diniy amallarni va masjid bilan boğliq ijtimoiy yiğinlarni buzadi.	Mahallada qişloq xöjaligi, oilaviy va diniy amaliyotlarning an'anaviy şakllari saqlanadi. Faol va faol bölmagan qabristonlar, jumladan, rus qabristoni mavjud. Loyiha hududida muqaddas joylar ham, etnografik tadqiqotlar ham hujjatlaştirilmagan. 5 km doirasida diniy yoki folklor amaliyotlari, dafn

[66] Hudud yoki uning yaqin atrofida ötkazilgan har qanday ilmiy tadqiqot natijasida tayyorlangan hisobotlar yoki naşrlar yoxud ayrim şaxslar, mahalliy jamoalar, davlat yoki nodavlat idoralari tomonidan har qanday şaklda töplangan yoki arxivlangan ma'lumotlar

Mavzu	Savollar	Beruniy mahallasi, Quyiçirçiq tumani		Döstlik mahallasi, Quyiçirçiq tumani	Xalqobod mahallasi, Örtaçirçiq tumani		Sergeli mahallasi, Quyiçirçiq tumani
		Aralaş guruh javoblari	Ayollar guruhi javoblari	Aralaş guruh javoblari	Aralaş guruh javoblari	Ayollar guruhi	Aralaş guruh va ayollar guruhi javoblari
	an’anaviy oziq-ovqat işlab çiqariş joylari va an’analari An’anaviy qişloq xöjaligi, yerdan foydalaniş va çorvaçilik amaliyotlari, jumladan, köçmançi yoki mavsumiy yaylovlar örtasida köçiriş usullari An’anaviy quriliş usullari An’anaviy ovçilik, sport yoki jismoniy maşğulotlar, jumladan, rözğor ehtiyoji, dam oliş, ta’lim yoki musobaqa maqsadidagi amaliyotlar An’anaviy san’at, musiqa yoki ijroga asoslangan amaliyotlar, jumladan, dam oliş, marosim, daromad oliş yoki ta’lim maqsadidagi faoliyatlar Sizda Toşkent aeroporti quriliş hududidagi öz mahallangiz yoki boşqa mahallalar aholisining qabristonlardan ötmişda yoxud hozir foydalangani haqida ma’lumot bormi?[67] Aeroport hududida yoki undan 1 km masofada ötkazilgan etnografik tadqiqotlardan xabardormisiz? Özbekistonda taklif etilgan aeroport yaqinidagi diniy, madaniy yoki an’anaviy hunarmandçilik joylarini hujjatlaştiriş, baholaş yoki saqlaşga yordam bera oladigan mutaxassislar yoxud şaxslar bormi?	Etnografik tadqiqotlar yoki meros mutaxassislari aniqlanmagan.	mahallaning nomoddiy merosiga kiradigan ziç ijtimoiy me’yorlar va amaliyotlar tarmoğini körsatadi. Etnografik tadqiqotlar yoki diniy yoxud madaniy meros böyiça muayyan mutaxassislar tilga olinmagan. Mahallasi buziliş hududiga kirmagani sababli, ayollar aeroport loyihasi ularning madaniy amaliyotlarini sezilarli özgartirişini kutmagan.	me’yorlari amal qilişini qayta-qayta ta’kidlagan. Jins xususiyatlarini hisobga oladigan muloqot va özini özi uyuştiriş şakllari nomoddiy madaniy merosning muhim qismidir. Alohida ayollar guruhlari aralaş guruhlarda doim ham kötarilmaydigan masalalarni muhokama qiliş uçun xavfsiz muhit yaratadi. Bu amaliyotlar ijtimoiy jipslikni mustahkamlaş va ayollarning mahalla jamoat hayotidagi iştirokini oşirişga yordam beradi. Aholi muammolarni jamoaviy muhokama qiliş, kelişuv izlaş va mahalla tuzilmalari, ya’ni “yettilik” orqali birgalikda qaror qabul qiliş an’analarini jamoaning ijtimoiy özligiga xos, qaror topgan va muhim unsur deb hisoblaydi. Iştirokçilar an’anaviy turmuş tarzi saqlanişi va mahallaning içki ijtimoiy jarayonlariga aralaşilmasligi şarti bilan aeroport loyihasining nomoddiy madaniy merosga salbiy ta’siri haqida xavotir bildirmagan.	Aholi hozir faol masjid yöqligini, avvalgi masjid yopilganini va jamoaviy namoz öqiş uçun joy qolmaganini qayd etgan. Bu kundalik va haftalik diniy amallar hamda jamoaviy yiğinlarga ta’sir qiladi. An’anaviy dafn tartibi ham buzilgan, çunki aholi endi marhumlarini boşqa mahallada dafn etişi kerak. Bu uzoq- yillik madaniy va oilaviy xotirlaş tartibini özgartiradi. Iştirokçilar etnografik tadqiqotlar yoki diniy yoxud madaniy meros böyiça muayyan mutaxassislarni tilga olmagan.	Dafn tartibi ham özgarmoqda. Ayollar endi marhumlarini dafn etiş uçun boşqa mahallaga borişi kerak, bu uzoq- yillik oilaviy va jamoaviy xotirlaş tartibini özgartiradi. Ular aeroportdan 5 km masofada muayyan folklor, an’anaviy oziq-ovqat işlab çiqariş joylari yoki sport amaliyotlarini, şuningdek, bunday amaliyotlarni hujjatlaştiriş bilan boğliq etnografik tadqiqotlar yoki mutaxassislarni tilga olmagan.	joylari, an’analar yoxud san’at turlari yöq; masjiddan foydalaniş çeklangan. Tadqiqotlar yoki mutaxassislar qayd etilmagan.

14.4-jadval. Maqsadli guruh muhokamasi yöriqnomasi, 2-qism: moddiy va nomoddiy madaniy meros

Mavzu	Savollar	Yangiyöl mahallasi, Örtaçirçiq tumani	Surum mahallasi, Quyiçirçiq tumani		Taraqqiyot mahallasi, Örtaçirçiq tumani	Kuşek mahallasi, Quyiçirçiq tumani
		Aralaş guruh	Aralaş guruh	Ayollar guruhi	Aralaş guruh	Aralaş guruh javoblari
Moddiy madaniy meros	Toşkent aeroporti quriliş hududida eski binolar yoki xarobalar bormi? Agar mavjud bölsa, batafsil ma’lumot bering.	Xarobalar, osori atiqalar yoki tadqiqotlar yöq; barça binolardan foydalaniladi.	Iştirokçilar moddiy madaniy merosning asosiy unsurlari bölgan qabristonlar haqida batafsil ma’lumot bergan. Uç mahallaning qöşma	Ayollar mahallada madaniy obyektlar yoki yodgorliklar yöqligini va madaniy	Maqsadli guruh muhokamasida uçta qabriston, taxminan pravoslav yoki dunyoviy bölgan ikkita rus	Mahalla içida arxeologik obyektlar yoki muhofaza qilinadigan yodgorliklar yöq.

[67] Taklif etilayotgan joy haqidagi mavjud ma’lumotlar Loyiha hududida bir neçta qabriston borligini körsatadi. Taklif etilayotgan quriliş sababli bu joylarni köçiriş zarur bölsa, oldini oliş va kamaytiriş çoralarining bir qismi sifatida arxeologik materiallarni qazib oliş, hozir foydalanilayotgan qabristonlarni köçiriş yoki yaqin atrofdagi boşqa joyda jamoalar uçun muqobil inşootlar hamda resurslar taqdim etiş talab etiladi.

Mavzu	Savollar	Yangiyöl mahallasi, Örtaçirçiq tumani	Surum mahallasi, Quyiçirçiq tumani		Taraqqiyot mahallasi, Örtaçirçiq tumani	Kuşek mahallasi, Quyiçirçiq tumani
		Aralaş guruh	Aralaş guruh	Ayollar guruhi	Aralaş guruh	Aralaş guruh javoblari
	Hududda arxeologik ahamiyatga ega buyumlar, masalan, sopol buyumlar, asboblar, tangalar yoki zargarlik buyumlari topilganmi? Agar topilgan bölsa, batafsil ma'lumot bering. Taklif etilgan aeroport hududida arxeologik tadqiqot yoki qaziş işlari ötkazilganmi? Sizda hozir Toşkent aeroportining taklif etilgan quriliş çegarasida yoki taklif etilgan joy atrofidagi 1 km li hududda arxeologik axborot yoki ma'lumot bormi? Yoki şunday ma'lumotga ega davlat yoxud nodavlat taşkilotlardan xabardormisiz?[68]	Ma'lumotga ega taşkilotlar ma'lum emas.	yiğinida imom--xatib ayrim qabristonlardagi barça qabrlar va suyaklar boşqa qabristonga köçirilişini tuşuntirgan. Uruş yillarida işlatilgan va hozir faol bölmagan koreys qabristonini ham buziş rejalaştirilgan. Guruh baland joyda joylaşgan muayyan qabriston hali ham faol ekani va köp aholi vakillarining ota-onalari hamda ajdodlari u yerda dafn etilgani sababli u "buzilmasligi kerakligini" qat'iy ta'kidlagan. Ular bu qabristonni buziş rejasiga kiritişga keskin qarşi çiqqan va masalani töliq qayta körib çiqişni söragan. Ular kompaniya ulaşgan xaritalarda aslida buziliş hududiga kiradigan bir mahalla tuşirib qoldirilgani va faol qabristonlardan biri ham aniq körsatilmaganini bildirgan. Bu kamçilik merosga oid qaror- qabul qiliş jarayonida aholi özini e'tiborsiz va çetlatilgan deb his qilişiga sabab böladi.	infratuzilma yetişmasligini bildirgan. Bu muhokamada ular tarixiy binolar yoki arxeologik topilmalarni tilga olmagan. Biroq kengroq hududdagi kabi qabristonlar va dafn joylari muhim moddiy meros obyektlari bölib qolmoqda. Bu ayollar guruhi qabristonlar haqida batafsil töxtalmagan bölsa-da, avvalgi mahalla muhokamalarida bir neçta qabriston, jumladan, koreys va musulmon dafn joylari loyiha rejalarining ta'siriga uçraşi qayd etilgan. Ayollarning xotirlaş amaliyotlaridagi örni bu joylardagi har qanday özgariş ularga bevosita ta'sir qilişini körsatadi.	qabristoni va bitta musulmon qabristoni mavjudligi qayd etilgan. Bu dafn joylari mahalla uçun muhim moddiy madaniy va diniy meros obyektlaridir. Guruh loyiha hududidagi eski binolar, xarobalar yoki sopol buyumlar, asboblar, tangalar va zargarlik buyumlari kabi arxeologik topilmalarni tilga olmagan. Ular arxeologik tadqiqotlar yoki qaziş işlari haqida ham axborot bermagan va joyga oid arxeologik ma'lumotga ega taşkilotlarni qayd etmagan. Biroq kengroq hududda bir neçta qabriston, jumladan, avvalgi muhokamalarda aeroport hududiga tuşişi aytilgan qabristonlar mavjudligi loyiha va moddiy meros kesişişi mumkinligini körsatadi hamda ehtiyotkor boşqaruvni talab qiladi.	Jamoa xöjaligi davrida halok bölgan askarlarga örnatilgan yodgorlik saqlanib qolgan, biroq u yomon holatda. Hududda faol va faol bölmagan qabristonlar, jumladan, rus qabristoni ham mavjud. Muqaddas yoki ziyorat joylari yöq.
Nomoddiy madaniy meros	Biror nomoddiy madaniy merosdan xabardormisiz? Agar xabardor bölsangiz, siz yoki batafsil ma'lumot bera oladigan tanişingiz bormi? Bunday amaliyotlar quyidagi faoliyatlarni qamrab oliş mumkin: Diniy yoki folklor amaliyotlari Dafn va ajdodlarni xotirlaş joylari hamda amaliyotlari. An'anaviy yöllar, yönalişlar yoki ziyorat yöllari An'anaviy oziq-ovqat işlab çiqariş joylari va an'analari. An'anaviy qişloq xöjaligi, yerdan foydalaniş va çorvaçilik amaliyotlari, jumladan, köçmançi yoki mavsumiy yaylovlar örtasida köçiriş usullari. An'anaviy quriliş usullari. An'anaviy ovçilik, sport yoki jismoniy maşğulotlar, jumladan, rözğor ehtiyoji, dam oliş, ta'lim yoki musobaqa maqsadidagi amaliyotlar. An'anaviy san'at, musiqa yoki ijroga asoslangan amaliyotlar, jumladan, dam oliş, marosim, daromad oliş yoki ta'lim maqsadidagi faoliyatlar.	Diniy, folklor yoki an'anaviy amaliyotlar, dafn joylari va san'at turlari qayd etilmagan. Faqat yaqin atrofda hozir işlatilmaydigan kiçik musulmon qabristoni mavjud. Tadqiqotlar yoki mutaxassislar aniqlanmagan.	Muhokamada qabristonlar haqidagi xavotirlar orqali dafn va xotirlaş amaliyotlariga bilvosita töxtalib ötilgan. Qabrlarni köçiriş va qabristonlarni buziş ajdodlar qabrlarini ziyorat qiliş va parvariş etişga oid uzoq yillik an'analarga xavf tuğdiradi. Bu an'analar nomoddiy madaniy merosning muhim unsurlari-dir. Iştirokçilar diniy idora vakillari qoldiqlarni köçirişni tuşuntirişda qatnaşganini qayd etgan, biroq mahalla fikri va dafn joylariga hissiy boğliqlik töliq tan olinmagan deb hisoblaydi. Ular bu muhokamada folklor, an'anaviy oziq-ovqat işlab çiqariş yoki sport amaliyotlari kabi boşqa nomoddiy meros turlarini tilga olmagan.	Ayollar maqsadli guruhi diniy amaliyotlar, folklor yoki ziyorat yöllari kabi nomoddiy madaniy meros haqida batafsil ma'lumot bermagan. Biroq faol masjid va madaniyat markazlari yöqligi ayrim an'anaviy amaliyotlarni bajaradigan muassasaviy maskanlar kamayganini anglatadi. Qabristonlarni köçiriş dafn va xotirlaş an'analariga, ya'ni muhim nomoddiy amaliyotlarga ta'sir qiladi, biroq bu guruhda bu masala aniq muhokama qilinmagan.	Bu aralaş maqsadli guruh muhokamasida iştirokçilar folklor amaliyotlari, ziyorat yöllari, an'anaviy oziq-ovqat işlab çiqariş joylari yoki sport amaliyotlarini batafsil tavsiflamagan. Asosiy tegişli nomoddiy unsurlar mavjud qabristonlar va avvalgi masjid bilan boğliq diniy amaliyotlar hamda dafn urf-odatlaridir. Hozir boş turgan eski masjid binosi mahalladagi diniy amaliyotlar buzilganini ramziy ifodalaydi: avval aholi jamoaviy namoz va diniy ta'lim uçun joyga ega bölgan, hozir esa işlaydigan masjid yöq. Bu haftalik amallar, diniy ta'lim va jamoaviy yiğinlarga ta'sir qiladi. Iştirokçilar etnografik tadqiqotlar yoki madaniy yoxud diniy meros mutaxassislarini tilga olmagan. Şunga qaramay, qabristonlar va avvalgi masjid haqidagi ma'lumot nomoddiy madaniy meros mavjudligini, biroq u hujjatlaştirilmaganini körsatadi.	Nomoddiy madaniy meros mahalla birdamligi, jamoaviy qaror qabul qiliş, jinsdan qat'i nazar muloqot qiliş va barqaror özaro yordam amaliyotlari orqali namoyon böladi. Bu unsurlar kambağallik va muassasaviy çeklovlar şaroitida ijtimoiy barqarorlikni saqlaşda asosiy örin tutadi.

Kengroq 5 km TH/Aol ijtimoiy-iqtisodiy şaroit, yerdan foydalaniş, aholi joylaşuvi va yerdan foydalaniş yoki qişloq xöjaligi amaliyotidagi özgarişlar kabi ehtimoliy bilvosita yoki umumiy ta'sirlarni tuşuniş uçun umumiy kontekst beradi. Loyiha izidan taşqarida majburiy köçiriş, jumladan, jismoniy köçiriş kutilmaydi. Şu sababli batafsil tadqiqotlar bevosita ta'sirlangan mahallalar bilan çeklangan.

16.4.2 Ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar

16.6-jadval. Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar: yer uçastkalarini olib qöyiş va majburiy köçiriş

Ta'sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Jismonan köçiriladigan LTX/PAHlar	**Yuqori**	Turar joy yeri, inşootlari yoki daromad keltiruvçi mol-mulki loyiha iziga kiradigan xonadonlar. Ta'sirlar yangi joyga köçiş va mol-mulkni yöqotişni qamrab oladi.
Iqtisodiy jihatdan köçiriladigan LTŞ/PAPlar	**Yuqori**	Yerdan foydalaniş imkoniyatini, ekinlarini yoki daromad manbalarini yöqotgan şaxslar yoxud xonadonlar. Ular daromad oliş va kundalik ehtiyojlarini ta'minlaş uçun qişloq xöjaligi hamda kiçik korxonalarga tayanadi.
Zaif guruhlar	**Yuqori**	Köçiriş yoki iqtisodiy yöqotiş tufayli oğirroq qiyinçilikka uçraşi mumkin bölgan keksalar, ayollar

Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
		boşçilik qiladigan xonadonlar, kam daromadli xonadonlar va boşqa ijtimoiy yoki iqtisodiy jihatdan zaif şaxslarni qamrab oladi.
Qişloq xöjaligi yerlari	**Yuqori**	Şoli, paxta, dukkakli ekinlar va sabzavotlar yetiştiriladigan, mevali boğlar hamda çorva yaylovlarini qamrab oladigan unumdor yerlar aksariyat xonadonlarning asosiy daromad manbaidir.
Turar joy jamoalari	**Örta**	5 km TH/AoIda, loyiha izi içida yoki unga tutaş joylaşgan aholi manzilgohlari, jumladan, Yangitoş qişloği jamoasi. Ular uy-joy, ijtimoiy aloqalar va xizmatlardan foydalaniş imkonini beradi.
Mahalliy infratuzilma va kommunal xizmatlar	**Örta**	Daromad keltiruvçi faoliyat va hududlararo boğlanişni ta’minlaydigan kiriş yöllari, suğoriş kanallari, elektr tarmoqlari va quvurlarni qamrab oladi. Ularning ayrimlarini köçiriş yoki özgartiriş talab qilinişi mumkin.
Tabiiy manbalar va suv obyektlari	**Örta**	Qişloq xöjaligi faoliyatini ta’minlaydigan Çirçiq daryosi va unga boğliq suğoriş tarmoqlari. Yerdan foydalaniş imkoniyati yoki undan foydalaniş şaklidagi özgarişlar bilvosita ta’sirlarni keltirib çiqarişi mumkin.

16.5 Ta’sirlar, oldini oliş va kamaytiriş, boşqaruv hamda qoldiq ta’sirlar

16.5.1 Quriliş bosqiçi

16.5.1.1 LTX/PAHlar

Quriliş davrida Xalqoboddagi 21 ta xonadon, ya’ni 114 kişi Asosiy hudud uçun yer uçastkalarini olib qöyiş tufayli jismonan köçiriladi. Bu xonadonlar turar joy inşootlari, kiçik uy-joy yer uçastkalari, yordamçi binolar va kundalik hayot uçun zarur mahalliy infratuzilmadan, jumladan, piyoda yöllari, suv ta’minoti va kiçik boğ uçastkalari (tomorqa)dan mahrum böladi. Köçiriş ijtimoiy aloqalar va jamoat obyektlaridan foydalaniş imkoniga, ayniqsa, zaif xonadon a’zolariga ham ta’sir qilişi mumkin.

Oldini oliş va kamaytiriş çoralari KÇR/RAPda batafsil belgilangan. Xonadonlar yöqotilgan barça inşoot, yer va mol-mulk uçun eskiriş hisobga olinmagan töliq qayta tiklaş qiymati böyiça tovon oladi. KÇR/RAP köçirişga doir taşkiliy yordamni ham nazarda tutadi. Bu yordam xonadon buyumlarini taşiş, elektr, suv va sanitariya tarmoqlari kabi kommunal xizmatlarni qayta ulaş hamda xonadonlarga tayyorgarlik köriş imkonini beradigan muddatda oldindan xabar berişni qamrab oladi. Ijtimoiy jipslik va daromad manbalarining uzluksizligini saqlaş uçun ta’sirlangan xonadonlarga mavjud jamoasi içida yoki uning yaqinida mos muqobil uy-joy topişda faol yordam beriladi.

Keksalar, ayollar boşçilik qiladigan xonadonlar va kam daromadli oilalar kabi zaif guruhlarga alohida e’tibor beriladi. Bu xonadonlarga muqobil uy-joy tanlaşda ustuvorlik, ijtimoiy yordam xizmatlaridan foydalanişda kömak va tenglikni ta’minlaş hamda nomutanosib ta’sirlardan himoya qiliş uçun köçiriş jarayonini muntazam monitoring kabi qöşimça yordam beriladi. Muntazam maslahatlaşuvlar, şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari hamda köçiriş va tovon masalalari böyiça qaror qabul qilişdagi iştirok orqali ta’sirlangan xonadonlar bilan uzluksiz muloqot saqlanadi.

Bundan taşqari, KÇR/RAP köçiriş tufayli daromad keltiruvçi faoliyatdagi vaqtinçalik uzilişlarni bartaraf etişga qaratilgan daromad manbalarini tiklaş çoralarini qamrab oladi. Bunga ta’sirlangan xonadonlarni muqobil yer uçastkalari bilan ta’minlaş, qisqa muddatli moliyaviy yordam olişga kömaklaşiş va imkon mavjud joylarda mahalliy iş imkoniyatlaridan foydalanişni

qöllab-quvvatlaş kirişi mumkin. Bu çoralar xonadonlarga ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy farovonligiga uzoq muddatli zarar yetkazmagan holda yaşaş şaroitlarini qayta tiklaş imkonini beradi.

Bu tizimli oldini oliş va kamaytiriş çoralari natijasida jismonan köçiriladigan xonadonlarga qoldiq ta'sir past darajada bölişi kutiladi. Köçirişdan keyin uy-joy, xizmatlardan foydalaniş va iqtisodiy barqarorlik töliq tiklanadi.

16.5.1.2 Iqtisodiy jihatdan köçiriladigan şaxslar

Quriliş bosqiçida iqtisodiy köçiriş Xalqobod, Yangiyöl, Sergeli va Surum mahallalaridagi jami 45 ta xonadon hamda ularda yaşovçi 235 nafar şaxsga ta'sir qiladi. Ularning taxminan 52 foizini ayollar taşkil etadi. Iqtisodiy köçiriş, asosan, xonadonlar daromadi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan qişloq xöjaligi yerlari, fermer xöjaliklari, iş örinlari, ekinlar, mevali boğlar va çorva bilan boğliq resurslardan foydalaniş imkoniyatining yöqolişi natijasida yuzaga keladi.

Uşbu xonadonlarning 21 tasi, ya'ni 88 nafar şaxs, fermer xöjaliklarini yöqotiş natijasida iqtisodiy köçirişga uçraydi. Ular orasida 10 nafar şaxsdan iborat, ayol boşçilik qiladigan bitta xonadon mavjud. Yana 24 ta xonadon, ya'ni 147 nafar şaxs, qişloq xöjaligi va fermer xöjaligi faoliyatiga boğliq iş örinlarini yöqotiş oqibatida iqtisodiy köçirişga uçraydi. Ular orasida jami 12 nafar şaxsdan iborat, ayol boşçilik qiladigan ikkita xonadon mavjud. Ehtimoliy oqibatlarga xonadon daromadining kamayişi, dehqonçilik va bandlikning mavsumiy davri buzilişi, iqtisodiy zaiflikning oşişi hamda iqtisodiy xavflarning kuçayişi kiradi. Bu, ayniqsa, mavsumiy qişloq xöjaligi işlari yoki yollanma mehnatga tayanadigan xonadonlar uçun muhimdir.

KÇR/RAP doirasida ötkazilgan korxonalar tadqiqotida daromad va iqtisodiy faoliyatga körsatiladigan ta'sirning kölami hamda xususiyatini anıqlaş maqsadida 18 ta korxona baholangan. Ularning 15 tasi yer uçastkalarini olib qöyiş va köçiriş bilan boğliq yöqotişlar daromad manbalari hamda iqtisodiy faoliyatga jiddiy salbiy ta'sir körsatişini kutmoqda. Bu, asosan, unumdor yerlar, korxona binolari va daromad keltiradigan mol-mulkning qisman yoki töliq yöqotilişi bilan boğliq. Mazkur resurslar korxonalar faoliyatining barqarorligi, şuningdek korxona egalari va ularning xonadonlari iqtisodiy xavfsizligi uçun muhim ahamiyatga ega.

KÇR/RAP, şuningdek, iş örinlarining yöqolişi natijasida daromad manbalari va iqtisodiy faoliyatga yuzaga keladigan qoşimça oqibatlarni ham anıqlaydi. Korxona egalari odatda vaqtinçalik yoki mavsumiy ravişda jalb qilinadigan taxminan 65 nafar qişloq xöjaligi işçisi loyiha sababli işini yöqotişi mumkinligini bildirgan. Bunday oqibatlar, ayniqsa, muqobil daromad manbalari yoki ijtimoiy himoya imkoniyatlari çeklangan xonadonlarning iqtisodiy zaifligini yanada kuçaytirişi mumkin.

Uşbu ta'sirlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari kreditorlar talablariga muvofiq daromad manbalari hamda iqtisodiy faoliyatni tiklaşning tizimli va bosqiçma-bosqiç tartibini belgilaydigan TMTR/LRP orqali amalga oşiriladi. Iqtisodiy yöqotişlarga uçraydigan xonadonlar va korxona egalari yöqotilgan daromad, ekinlar hamda daromad keltiradigan mol-mulk uçun töliq qayta tiklaş qiymati va amaldagi bozor şaroitlari asosida hisoblangan pul tovonini oliş huquqiga ega. Daromaddagi uzilişlarni imkon qadar kamaytiriş uçun tovon tölovlari belgilangan jadval asosida amalga oşiriladi. Imkon mavjud bölgan hollarda yerga boğliq daromad manbalarini yöqotgan xonadonlarga qişloq xöjaligi faoliyatini davom ettiriş uçun muqobil unumdor yerdan yoki yangi ijara kelişuvlaridan foydalanişda yordam körsatiladi.

TMTR/LRP doirasida vaqtinçalik daromad yordami ham körsatiladi. Bunga quriliş davrida loyiha bilan boğliq iş örinlaridan ustuvor foydalaniş imkoniyati kiradi. Şuningdek, mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarga mos kasbiy öqitiş va salohiyatni oşiriş dasturlari taqdim etiladi. Bunday imkoniyatlar boğdorçilik, kiçik kölamli savdo va qişloq xöjaligidan taşqari kasblar böyiça könikmalarni rivojlantirişni qamrab oladi. Ayol boşçilik qiladigan hamda kam daromadli xonadonlarga alohida e'tibor qaratilib, ularga daromad manbalarini tiklaş çoralaridan teng foydalaniş imkoniyati va zarur hollarda maqsadli qöşimça yordam ta'minlanadi.

TMTR/LRPni amalga oşiriş manfaatdor tomonlarni doimiy jalb qiliş va muntazam kuzatiş orqali qöllab-quvvatlanadi. Bu daromad manbalarini tiklaş çoralarining samaradorligini

baholaş hamda natijalar kutilgan darajaga erişmasa, zarur tuzatiş çoralarini qöllaş imkonini beradi. KÇR/RAP va TMTR/LRP töliq amalga oşirilgandan söng iqtisodiy köçirişga uçraydigan xonadonlarga qoladigan ta'sirning örta darajada, vaqtinçalik va quriliş davri bilan çeklangan bölişi kutiladi. Örta muddatda uşbu xonadonlarning loyihadan oldingi daromad oliş imkoniyatlari va turmuş darajasini tiklaşi yoki yaxşilaşi kutilmoqda.

16.5.1.3 Zaif guruhlar

Örganilgan 58 ta LTX/PAHning 13 tasi, ya'ni 22,4 foizi zaif xonadonlar sifatida tasniflangan. Ularning 12 tasi, ya'ni 20,7 foizi, daromadi juda past xonadonlar, yana bittasi, ya'ni 1,7 foizi, nogironligi bölgan şaxs boşçiligidagi xonadondir. Uşbu xonadonlar quriliş bilan boğliq oqibatlarga, jumladan vaqtinçalik yoki doimiy köçirişga, daromad manbalaridan foydalaniş imkoniyatining yöqolişiga, mavjud ijtimoiy yordam tarmoqlarining uzilişiga hamda tovon oliş tartiblarini tuşunişdagi qiyinçiliklarga ayniqsa sezgir. Maxsus yordam çoralari körilmasa, bunday xonadonlarning uzoq davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinçiliklarga uçraş xavfi yuqori.

KÇR/RAP va TMTR/LRP orqali amalga oşiriladigan oldini oliş va kamaytiriş çoralari aynan uşbu zaifliklarni kamaytirişga qaratilgan. Jismoniy köçirişga uçraydigan har bir zaif xonadonga uning ehtiyojlariga mos yordam körsatiladi. Bunga munosib muqobil uy-joyni anıqlaşda kömaklaşiş, köçiş jarayonida amaliy yordam körsatiş hamda köçiriş işlarini imkon qadar kam noqulaylik tuğdiradigan muddatlarda ustuvor tartibda rejalaştiriş kiradi. Şuningdek, zaif xonadonlar öz huquqlarini töliq tuşunişi va qaror qabul qiliş jarayonida samarali qatnaşa olişi uçun tovon oliş jarayoni davomida ularga qöşimça yöriq va amaliy yordam beriladi.

Iqtisodiy jihatdan zaif xonadonlarga TMTR/LRP doirasidagi daromad manbalarini tiklaş dasturlaridan ustuvor ravişda foydalaniş imkoniyati beriladi. Uşbu dasturlar vaqtinçalik moliyaviy yordam, qişloq xöjaligi işlab çiqariş vositalarini almaştiriş va kasbiy könikmalarni rivojlantiriş imkoniyatlarini qamrab oladi. Şuningdek, xonadonlarga daromad oliş uçun muqobil yer yoki boşqa daromad manbalaridan foydalaniş imkoniyatini yaratişda yordam körsatiladi. Kiçik kölamli qişloq xöjaligi, çorvaçilik yoki dehqon uçastkalariga tayanadigan xonadonlarda daromad manbalarining uzluksizligini saqlaş va ularni tiklaşga alohida e'tibor qaratiladi.

Muntazam kuzatiş, keyingi nazorat va şikoyatlarni körib çiqişda yordam körsatiş oldini oliş va kamaytiriş strategiyasining ajralmas qismi böladi. Jamoatçilik bilan aloqalar mutaxassislari mahalla vakillari bilan birgalikda zaif xonadonlarga doimiy yordam körsatadi hamda quriliş yoki köçiriş jarayonida yuzaga keladigan masalalarning tezkor hal etilişiga kömaklaşadi. Ayollar, keksalar va ijtimoiy jihatdan çetda qoliş xavfi yuqori bölgan xonadon a'zolari öz farovonligiga ta'sir qiladigan qarorlarni qabul qilişda faol qatnaşa olişi uçun ular bilan alohida maslahatlaşuvlar ötkaziladi. Uşbu çoralar amalga oşirilgandan söng zaif xonadonlarga qoladigan salbiy ta'sir darajasi past bölişi kutiladi. Natijada ular uzoq muddatli va nomutanosib qiyinçiliklarga uçramasdan daromad manbalarini, yaşaş şaroitlarini hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalaniş imkoniyatlarini tiklay olişi kutiladi.

16.5.1.4 Qişloq xöjaligi yerlari va daromad manbalari

Quriliş işlari 1 300 gektarlik loyiha hududidagi qişloq xöjaligi yerlariga bevosita ta'sir qiladi. Bu yerlarda şoli, paxta, dukkakli ekinlar va sabzavotlar yetiştiriladi, mevali boğlar mavjud hamda çorva boqiladi. Uşbu faoliyatlar loyiha doirasidagi xonadonlar uçun asosiy daromad manbai va oziq-ovqat ta'minotining muhim qismi hisoblanadi. Ehtimoliy oqibatlarga haydaladigan yerlarning doimiy yöqotilişi, ekiş va hosil yiğiş davrlarining buzilişi, mevali boğlar hamda yaylovlardan foydalaniş imkoniyatining yöqolişi, xonadonlarning oziq-ovqat xavfsizligi pasayişi va qişloq xöjaligi faoliyatidan olinadigan daromadning vaqtinça kamayişi kiradi. Quriliş işlari qoşni yer uçastkalari, suğoriş tarmoqlari yoki umumiy qişloq xöjaligi infratuzilmasidan foydalanişni çeklasa, qöşimça bilvosita oqibatlar ham yuzaga kelişi mumkin.

Uşbu oqibatlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari KÇR/RAP hamda TMTR/LRP orqali amalga oşiriladi. Yerini doimiy yoki vaqtinça yöqotgan xonadonlarga yöqotilgan ekinlar va daromad keltiruvçi qişloq xöjaligi mol-mulki uçun töliq tovon tölanadi. Tovon miqdori ekin turi, mavsumiy hosildorlik va amaldagi bozor qiymati asosida hisoblanadi. Imkon mavjud bölgan hollarda xonadonlarga ekin yetiştiriş yoki çorva boqişni davom ettiriş uçun yaqin

hududdan muqobil yer uçastkalari ajratişga kömaklaşiladi. Mavsumiy daromad yöqotişlarini kamaytiriş uçun quriliş işlari jadvali xonadonlar bilan kelişilgan holda, muhim ekiş va hosil yiğiş davrlariga imkon qadar xalaqit bermaydigan tarzda tuziladi.

TMTR/LRP doirasida xonadonlarga daromad manbalarini tiklaş va ularni xilma-xillaştiriş uçun qöşimça yordam körsatiladi. Bunga texnik yordam, qişloq xöjaligi böyiça maslahat xizmatlari hamda uruğ, öğit va uskunalar kabi zarur vositalardan foydalaniş imkonini yaratiş kiradi. Qolgan yer uçastkasida qişloq xöjaligi faoliyatini töliq tiklay olmaydigan xonadonlarga muqobil daromad manbalarini yaratiş variantlari taklif etiladi. Ular qişloq xöjaligidan taşqari faoliyat turlari böyiça kasbiy öqitişni hamda loyiha bilan boğliq iş örinlaridan ustuvor foydalaniş imkoniyatini qamrab oladi. Ayol boşçiligidagi xonadonlar, keksa şaxslar va kam daromadli oilalar kabi zaif xonadonlarga ularning alohida ehtiyojlariga mos qöşimça yordam beriladi. Bu ularga tovon va daromad manbalarini tiklaş çoralaridan teng foydalaniş imkonini ta’minlaydi.

Tovon tölovlari, yerdan foydalaniş imkoniyatini tiklaş va daromad manbalarini qayta yölga qöyişga qaratilgan çoralar samarali amalga oşirilayotganini tekşiriş uçun butun quriliş davrida muntazam kuzatiş olib boriladi. Muammolarni tezkor anıqlaş va hal qiliş, zarur hollarda esa qöllanayotgan çoralarni özgartiriş uçun loyiha doirasidagi xonadonlar bilan muloqot MTJR/SEP orqali davom ettiriladi. Uşbu keng qamrovli çoralar amalga oşirilgandan söng quriliş davrida qişloq xöjaligi yerlari va daromad manbalariga qoladigan salbiy ta’sir past yoki örta darajada bölişi kutiladi. Uzoq muddatda esa daromad manbalarini KÇR/RAP va TMTR/LRP doirasidagi maqsadli çoralar orqali tiklaş nazarda tutiladi.

16.5.1.5 Mahalliy infratuzilma va muhandislik tarmoqlari

Loyiha hududidagi quriliş işlari loyiha ta’siridagi mahallalarda turar joylarga yetib boriş, qişloq xöjaligi faoliyatini davom ettiriş va asosiy xizmatlardan foydalanişni ta’minlaydigan mahalliy infratuzilma hamda muhandislik tarmoqlariga vaqtinçalik yoki doimiy ta’sir körsatişi mumkin. Bunga kiriş yöllari, xöjalik içki yöllari, suğoriş kanallari, drenaj kollektorlari, havo elektr uzatiş tarmoqlari va yer osti quvurlari kiradi. Qaziş, yer işlari, tarmoqlar yönalişini özgartiriş yoki quriliş xavfsizligini ta’minlaş uçun ayrim hududlarni vaqtinça yopiş natijasida bu infratuzilma va xizmatlarda uzilişlar yuzaga kelişi mumkin. Bunday uzilişlar qişloq xöjaligi yerlariga borişni çeklaşi, suğoriş tizimlarining işonçli işlaşini pasaytirişi yoki elektr va suv ta’minotida uzilişlarga sabab bölişi mumkin. Natijada quriliş davrida xonadonlarning erkin harakatlanişi, ekinlar hosildorligi va daromad manbalariga salbiy ta’sir yuzaga kelişi mumkin. Quriliş boşlanişidan oldin tuman hokimliklari, xizmat körsatuvçi taşkilotlar va mahalla vakillari bilan hamkorlikda ta’sirga uçraşi mumkin bölgan barça infratuzilma obyektlari va muhandislik tarmoqlari batafsil xaritaga tuşiriladi. Mavjud yöllar, kanallar yoki tarmoqlar vaqtinça uziladigan joylarda aylanma yöllar, muqobil kiriş yönalişlari va vaqtinçalik xizmat ulanişlari taşkil etiladi. Quriliş jadvali imkon qadar qişloq xöjaligi faoliyatining eng qizğin davrlariga töğri kelmaydigan tarzda tuziladi. Xizmatlardagi uzilişlar, ayniqsa ekin yetiştiriş uçun muhim bölgan suğoriş kanallaridagi uzilişlar imkon qadar qisqa muddat bilan çeklanadi.

Infratuzilmani doimiy ravişda köçiriş yoki özgartiriş zarur bölgan hollarda, tegishli xonadonlar va yerdan foydalanuvçilar bilan MTJR/SEP tartiblariga muvofiq oldindan maslahatlaşuvlar ötkaziladi. Daromadi suğoriş tizimlari yoki kiriş yöllaridan foydalanişga boğliq bölgan xonadonlarga TMTR/LRP doirasida vaqtinçalik uziliş oqibatida yuzaga kelgani tasdiqlangan yöqotişlar uçun ötiş davri yordami va tegişli tovon berilişi nazarda tutiladi. KÇR/RAPni amalga oşiruvçi guruhlar turar joylar, qişloq xöjaligi yerlari va jamoat inşootlariga kiriş imkoniyati doimo saqlanişini yoki quriliş işlari sabab uzilgan hollarda imkon qadar tez tiklanişini ta’minlaş maqsadida pudratçilar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Uşbu çoralar, jumladan oldindan puxta rejalaştiriş va tegishli jamoalar bilan doimiy hamkorlik, töliq amalga oşirilsa, mahalliy infratuzilma va muhandislik tarmoqlariga qoladigan ta’sirning past darajada hamda vaqtinçalik bölişi kutiladi. Turar joylar, qişloq xöjaligi yerlari yoki asosiy xizmatlardan foydalaniş imkoniyatining uzoq muddatga yöqolişi kutilmaydi.

16.5.1.6 Loyiha TH/AoI doirasidagi turar joy jamoalari

Quriliş bosqiçida loyiha hududi, unga tutaş joylar va kengroq 5 km TH/AoI doirasidagi turar joy hududlarida yaşovçi aholi quriliş işlari sababli vaqtinçalik noqulayliklarga uçraşi mumkin. Bunga yer işlari, quriliş texnikasi va transport harakati natijasida şovqinning oşişi, havo sifati va yaşaş qulayligiga ta'sir qiladigan çang çiqindilari, şuningdek mahalliy yöllarda transport oqimining köpayişi kiradi. Bu holatlar aholi xavfsizligiga, uy-joylar, xizmatlar va qişloq xöjaligi yerlariga kiriş imkoniyatiga ta'sir qilişi mumkin. Bunday noqulayliklar, ayniqsa, kiriş yöllari böylab joylaşgan xonadonlar, keksalar, bolalar va avvaldan soğliq bilan boğliq muammolari mavjud şaxslar uçun muhim ahamiyatga ega.

Uşbu ta'sirlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş çoralari atrof-muhitni boşqariş talablari hamda MTJR/SEPga muvofiq aholi bilan muntazam va tizimli muloqot orqali amalga oşiriladi. Quriliş jadvallari, yuqori şovqin keltirib çiqaradigan işlar va transport yönalişlari haqida tegişli mahallalarga muntazam yiğilişlar, ommaviy bildirişlar va mahalla rahbarlari bilan hamkorlik orqali oldindan ma'lumot beriladi. Çang ta'sirini kamaytiriş uçun qoplamasiz yuzalar muntazam namlanadi, quriliş materiallari yopiq holda saqlanadi yoki taşiladi, quriliş transportining tezligi çeklanadi va buzilgan hududlar imkon qadar tez tiklanadi. Şovqin ta'sirini kamaytiriş uçun imkon mavjud hollarda quriliş işlari kunduzgi vaqt bilan çeklanadi, uskunalar soz holatda saqlanadi va turar joy hududlariga yaqin joylarda mahalliy şaroitga mos çoralar qöllanadi. Şuningdek, transport oqimini tartibga soliş, piyodalar uçun xavfsiz harakatlaniş imkonini saqlaş va mahalliy transport yönalişlaridagi uzilişlarni kamaytiriş maqsadida transportni boşqariş rejasi amalga oşiriladi. Bunda aholi va transport harakati eng yoğun bölgan davrlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Uşbu oldini oliş va kamaytiriş çoralari töliq amalga oşirilganda, turar joy hududlarida yaşovçi aholiga qoladigan ta'sirning ahamiyatlilik darajasi past, ta'sirning özi esa vaqtinçalik bölişi kutiladi. U quriliş davri bilan çeklanadi va aholining farovonligi yoki asosiy xizmatlardan foydalaniş imkoniyatiga uzoq muddatli salbiy oqibat keltirib çiqarişi kutilmaydi.

16.5.1.7 Tabiiy resurslar va suv havzalari

Quriliş bosqiçida loyiha mahalliy qişloq xöjaligi tizimining muhim qismi bölgan suğoriş kanallari, drenaj tarmoqlari va Çirçiq daryosiga ta'sir qilişi mumkin. Uşbu suv resurslari loyiha hududi va kengroq 5 km TH/AoIdagi qişloq xöjaligi faoliyati hamda xonadonlar daromadini ta'minlaşda muhim örin tutadi. Yer işlari, qaziş, yöl kesişmalarini quriş va suğoriş kanallari yönalişini özgartiriş bilan boğliq quriliş işlari suv oqimining vaqtinça tösilişiga, ayrim joylarda çökindilar töplanişiga va suğoriş infratuzilmasidan foydalanişning qisqa muddatga çeklanişiga olib kelişi mumkin. Bunday holatlar quyi oqimdagi qişloq xöjaligi yerlariga suğoriş suvi yetkazilişini, ayniqsa ekin ekiş va ösişning muhim davrlarida, buzişi mumkin. Natijada qişloq xöjaligiga tayanadigan xonadonlarning hosildorligi va daromadiga bilvosita salbiy ta'sir yuzaga kelişi mumkin.

Qurilişni rejalaştiriş bosqiçida barça suğoriş kanallari, kollektorlar va drenaj tarmoqlari oldindan aniqlanib, xaritaga tuşiriladi. Bu suv oqimining uzluksizligini saqlaş uçun vaqtinçalik aylanma kanallarni quriş, mavjud kanallar yönalişini bosqiçma-bosqiç özgartiriş yoki zarur himoya çoralarini oldindan işlab çiqiş imkonini beradi. Kanallar yönalişini özgartiriş muqarrar bölgan hollarda, imkon qadar, uşbu işlar suğorişga talab eng yuqori bölgan davrdan taşqarida amalga oşiriladi. Zarur hollarda fermerlar va mahalla vakillari bilan maslahatlaşilgan holda vaqtinçalik muqobil suv ta'minoti ham taşkil etiladi.

Yuza suvlarining sifati yomonlaşişining oldini oliş uçun çökindilar va eroziyani nazorat qiliş çoralari amalga oşiriladi. Jumladan, oçiq qolgan tuproq yuzalari mustahkamlanadi, qazib olingan materiallar suv oqimlaridan uzoqda nazoratli tarzda saqlanadi va drenaj yöllari muntazam tekşiriladi. Quriliş davomida suğoriş infratuzilmasidan foydalaniş imkoniyati imkon qadar saqlanadi. Har qanday vaqtinçalik çeklov haqida suvdan foydalanuvçilar va mahalliy jamoalarga MTJR/SEP doirasidagi muloqot orqali oldindan ma'lumot beriladi.

Daromadi suğoriladigan qişloq xöjaligiga boğliq bölgan va suvdan foydalaniş imkoniyati vaqtinça çeklanişi mumkin bölgan xonadonlarga KÇR/RAP hamda TMTR/LRP qoidalari qöllanadi. Uşbu çoralar suv ta'minotidagi uziliş sabab yuzaga kelgani tasdiqlangan

hosil yöqotişlari uçun tovon tölaşni, daromad kamaygan hollarda ötiş davri uçun moliyaviy yordam berişni hamda qurilişdan keyin suğoriş imkoniyatini loyihadan oldingi darajaga yoki undan yaxşi holatga tiklaşni qamrab oladi. Quriliş pudratçilari, atrof-muhitni boşqariş guruhlari hamda KÇR/RAP va TMTR/LRPni amalga oşiruvçi guruhlar örtasidagi hamkorlik suv resurslaridagi özgarişlarning xonadonlar daromadi va iqtisodiy faoliyatiga ta’sirini erta anıqlaş hamda zarur çoralarni tezkor qöllaş imkonini beradi.

Uşbu oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari töliq amalga oşirilganda, tabiiy resurslar va suv obyektlariga quriliş bilan boğliq ta’sirlarning vaqtinçalik va mahalliy xususiyatga ega bölişi hamda quriliş tugagandan söng şaroitning avvalgi holatiga tiklanişi kutiladi. Şu sababli qoldiq ta’sir past darajada deb baholanadi. Suğoriş tizimlarining uzluksiz işlaşi, suv sifati va uşbu tizimlarga tayanadigan xonadonlarning daromad oliş imkoniyatlari xalqaro ilğor amaliyotga muvofiq faol nazorat, muntazam kuzatiş va daromad manbalarini tiklaş çoralari orqali saqlanadi yoki qayta tiklanadi.

16.7-jadval. Yer uçastkalarini olib qöyiş: oqibatning ahamiyat darajasi, oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari va qoldiq ta'sirlar, quriliş bosqiçi

Ehtimoliy ta'sir	Kölam	Ta'sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta'sir
LTX/PAHlar	Yuqori	LTX/PAHlar	Yuqori	Katta	• Tasdiqlangan KÇR/RAPni quriliş işlari boşlanişidan oldin amalga oşiriş • Turar joy yeri, inşootlar, yordamçi binolar va xonadon mol-mulki uçun eskiriş çegirilmagan holda töliq qayta tiklaş qiymati böyiça tovon tölaş • Buyumlarni taşiş hamda kommunal tarmoqlarni (suv, elektr va sanitariya) qayta ulaşda kömakni qamrab olgan köçiriş yordamini beriş • Xonadonlarga köçirişni yetarli darajada rejalaştiriş imkonini beradigan oldindan yozma bildiriş yuboriş va maslahatlaşiş • Ijtimoiy aloqalarni saqlaş uçun mavjud jamoalar içida yoki ularga yaqin joyda muqobil uy-joy topişga yordam beriş • Keksa, ayol boşçiligidagi va kam daromadli xonadonlarga ustuvor köçiriş va kuçaytirilgan kömakni qamrab olgan maqsadli yordam çoralarini beriş • Butun köçiriş jarayonida uzluksiz maslahatlaşuv va loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş tartibidan foydalaniş imkonini ta'minlaş	Örtaça
Iqtisodiy jihatdan köçiriladigan şaxslar	Yuqori	Iqtisodiy jihatdan köçiriladigan şaxslar	Yuqori	Katta	• TMTR/LRPni KÇR/RAP bilan muvofiqlaştirilgan holda amalga oşiriş • Yöqotilgan daromad, ekinlar va unumdor mol-mulk uçun tiklaş qiymati hamda amaldagi bozor narxlari asosida tovon tölaş • Quriliş davrida daromadsiz oraliq yuzaga kelmasligi uçun tovon tölaş jadvalini belgilaş	Örtaça

Ehtimoliy ta’sir	Kölam	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Imkon mavjud bölgan hollarda muqobil qişloq xöjaligi yeri yoki ijara kelişuvlaridan foydalanişga yordam beriş • Ötiş davrida daromad yöqotişiga uçragan xonadonlarga vaqtinçalik daromad yordamini beriş • Ta’sirlangan xonadonlarga quriliş davrida loyiha bilan boğliq iş imkoniyatlaridan ustuvor foydalaniş huquqini beriş • Mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarga mos kasbiy öqitiş va daromad manbalarini xilma-xillaştirişga yordam beriş • Daromad manbalarini tiklaş natijalarini muntazam kuzatib boriş va tiklaş maqsadlariga erişilmaganda moslaşuvçan boşqaruvni amalga oşiriş	
Zaif guruhlar uçun kuçaygan xavf	Örta	Zaif guruhlar	Yuqori	Örtaça	• KÇR/RAP doirasidagi xatlov va ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar orqali zaif xonadonlarni aniqlaş. • KÇR/RAP va TMTR/LRP doirasida xonadon ehtiyojlariga moslaştirilgan alohida yordam töplamlarini beriş. • Tovon, köçiriş yordami va daromad manbalarini tiklaş çoralaridan ustuvor foydalanişni ta’minlaş. • Maslahatlaşuvlar va tovon jarayonlarida qöşimça yordam körsatiş. • Daromad manbalarini tiklaşga qaratilgan, qişloq xöjaligi vositalarini almaştiriş va ötiş davri moliyaviy yordamini qamrab oladigan maqsadli kömak körsatiş. • Jamoa bilan aloqa xodimlari va mahalla vakillari tomonidan muntazam monitoring hamda keyingi nazoratni amalga oşiriş	Juda kam

Ehtimoliy ta’sir	Kölam	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
Qişloq xöjaligi yerlari va daromad manbalari	Yuqori	Qişloq xöjaligi yerlari va daromad manbalari	Yuqori	Katta	• KÇR/RAPga muvofiq doimiy va vaqtinçalik yer yöqotişi uçun tovon tölaş • Mavsumiy unumdorlik va bozor qiymati asosida hosil yöqotişi uçun tovon tölaş • Imkon mavjud bölgan hollarda quriliş işlarini muhim ekiş va hosil yiğiş davrlariga töğri kelmaydigan tarzda muvofiqlaştiriş • Imkon mavjud bölgan hollarda muqobil yer uçastkalarini beriş yoki qolgan yerdan foydalaniş imkoniyatini tiklaş • TMTR/LRP doirasida qişloq xöjaligi böyiça maslahat xizmatlari hamda vositalardan foydalanişni qamrab oladigan daromad manbalarini tiklaş böyiça yordam körsatiş • Dehqonçilik faoliyatini davom ettira olmaydigan xonadonlarga daromad manbalarini xilma-xillaştirişga kömaklaşiş	Örtaça
Mahalliy infratuzilma va muhandislik tarmoqlari	Örta	Kiriş yöllari, suğoriş kanallari, elektr uzatiş tarmoqlari va quvurlar işining buzilişi yoki ularning köçirilişi	Örta	Örtaça	• Ta’sirlanadigan barça infratuzilma va muhandislik tarmoqlarini qurilişdan oldin xaritaga tuşiriş • Tuman hokimliklari, xizmat körsatuvçi taşkilotlar va mahalla yetakçilari bilan muvofiqlaştiriş • Quriliş davrida vaqtinçalik kiriş yöllari, aylanma yönalişlar va xizmat ulanişlarini beriş • Rejalaştirilgan uzilişlar haqida jamoalarni oldindan xabardor qiliş • Infratuzilmadagi uziliş daromad va iqtisodiy faoliyatga ta’sir qilganda KÇR/RAP va TMTR/LRP doirasida ötiş davri yordamini körsatiş • Qurilişdan keyin infratuzilmani öz vaqtida tiklaş yoki doimiy tarzda almaştiriş	Juda kam

Ehtimoliy ta’sir	Kölam	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
Loyiha TH/AoI doirasidagi turar joy ja-moalari	Örta	Loyiha TH/AoI doirasidagi turar joy ja-moalari	Örta	Örtaça	• Şovqin, çang va transport uçun quriliş davridagi atrof-muhitni boşqaruv çoralarini amalga oşiriş • Quriliş jadvallari va faoliyati haqida MTJER/SEP tartiblari orqali xabar beriş • Yuzalarni namlaş, materiallarni yopiş va transport tezligini nazorat qiliş orqali çang tarqalişini ka-maytiriş • Imkon mavjud bölgan hollarda yuqori şovqinli işlarni kunduzgi soatlar bilan çeklaş • Uylar va qişloq xöjaligi yerlariga xavfsiz kirişni saqlaş uçun transportni boşqarişni rejalaştiriş	Juda kam
Tabiiy resurs-lar va suv havzalari	Örta	Suğoriş oqimi va su-vdan foyda-laniş imkoni-yatining vaq-tinçalik buzilişi hamda ehtimoliy çökindi töplanişi	Örta	Örtaça	• Suğoriş kanallari, drenaj tarmoqlari va suv kesişma-larini erta aniqlaş hamda xaritaga tuşiriş. • Suv oqimining uzluksizligini saqlaş uçun vaqtinçalik aylanma kanallar yoki yönalişni bosqiçma-bosqiç özgartiriş tizimlarini loyihalaş va amalga oşiriş. • Imkon mavjud bölgan hollarda işlarni suğorişning eng qizğin davridan taşqariga rejalaştiriş. • Yuza suvlari sifatini himoya qiliş uçun çökindilar va eroziyani nazorat qiliş çoralarini qöllaş. • MTJER/SEP doirasidagi muloqot orqali suvdan foy-dalanuvçilarni oldindan xabardor qiliş. • KÇR/RAP va TMTR/LRP doirasida tasdiqlangan hosil yöqotişlari hamda daromad manbalari va iqti-sodiy faoliyatga yetkazilgan zarar uçun tovon tölaş. • Qurilişdan keyin suğoriş infratuzilmasini loyihadan oldingi yoki yaxşilangan holatga tiklaş	Juda kam

16.5.2 Foydalaniş bosqiçi

16.5.2.1 LTX/PAHlar

Barça yer uçastkalarini olib qöyiş va köçiriş işlari quriliş bosqiçida yakunlanişi sababli foydalaniş bosqiçida qöşimça jismoniy köçiriş kutilmaydi. Biroq tirikçilik manbalarini tiklaş va köçirişdan keyingi qöllab-quvvatlaş çoralari yetarli bölmasa yoki keçiktirilsa, jismonan köçirilgan LTX/PAHlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyinçiliklari davom etişi mumkin. Ular avvalgi daromad darajasini saqlaşda, yangi jamoaga qöşilişda, asosiy xizmatlardan foydalanişda yoki özgargan uy-joy, yer va infratuzilma şaroitlariga moslaşişda qiynalişi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar va jamoaviy aloqalarning, şuningdek, iş yoki maktabga yaqinlikning özgarişi ayrim xonadonlarda ruhiy-ijtimoiy zöriqişga ham sabab bölişi mumkin.

Loyiha xonadonlarning tirikçilik manbalari va bandligi barqaror bölişini ta’minlaş maqsadida köçirişdan keyingi yordamni davom ettiradi. Buning uçun xonadonlar daromadi va bandligi, şuningdek, qişloq xöjaligida yoki boşqa sohalarda daromad oliş imkoniyatlaridan foydalanişi muntazam kuzatiladi. Xonadonlarning daromad oliş salohiyatini oşiriş uçun kasbiy ta’lim, kredit yoki mikromoliyalaştiriş dasturlaridan foydalanişga kömak, şuningdek, muqobil tirikçilik strategiyalari böyiça yöl-yöriq kabi maqsadli yordam taklif etiladi.

Bundan taşqari, LTX/PAHlar loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi va mahalliy jamoalar bilan muloqot kanallaridan foydalanişda davom etadi. Bu ularga foydalaniş bosqiçida yuzaga keladigan muammolarni bildiriş yoki kutilmagan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinçiliklar böyiça yordam söraş imkonini beradi. Mahallalar va tuman hokimliklari bilan hamkorlik xonadonlarning jamoat dasturlarida qatnaşişi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanişi va ijtimoiy aloqalarini saqlaşiga yordam beradi. Şu tariqa jamoa jipsligi va farovonligi qöllab-quvvatlanadi.

Davriy ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar va muntazam kuzatiş loyiha bilan boğliq qiyinçiliklarga duç kelayotgan xonadonlar yoki şaxslarni aniqlaş hamda moslaşuv çoralarini öz vaqtida qöllaş imkonini beradi. Bunday çoralar vaqtinçalik moliyaviy yordam, tirikçilik manbalari va iqtisodiy faoliyatni tiklaşga qaratilgan dasturlar, şuningdek, soğliqni saqlaş, ta’lim va muhandislik infratuzilmasi kabi davlat xizmatlaridan foydalanişga kömakni qamrab olişi mumkin. Asosiy maqsad LTX/PAHlarning loyiha oqibatida avvalgidan yomonroq şaroitda qolmasligini, ularning turmuş sifati va iqtisodiy barqarorligi esa vaqt ötişi bilan saqlanişi yoki yaxşilanişini ta’minlaşdir.

Uşbu çoralar qöllanilganda, LTX/PAHlarga qoldiq ta’sirning ahamiyatlilik darajasi past bölişi kutiladi. Moslaşiş yoki daromadni tiklaş bilan boğliq qiyinçiliklar vaqtinçalik va boşqariladigan bölişi hamda maqsadli çoralar orqali bartaraf etilişi kutiladi. Köçirilgan xonadonlar bilan uzluksiz muloqot olib boriş va tirikçilik manbalarini tiklaş natijalarini davriy baholaş xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlaydi. Bu, şuningdek, loyihaning köçirilgan jamoalar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişini qöllab-quvvatlaşga sodiqligini mustahkamlaydi.

16.5.2.2 Iqtisodiy jihatdan köçirilgan şaxslar

Foydalaniş bosqiçida iqtisodiy jihatdan köçirilgan şaxslarning daromadi va iqtisodiy barqarorligiga turli bilvosita ta’sirlar yuzaga kelişi mumkin. Ilgari loyiha hududidagi qişloq xöjaligi faoliyati yoki kiçik korxonalarga tayangan xonadonlarning unumdor yerlar, suğoriş infratuzilmasi yoki mahalliy bozorlardan foydalaniş imkoniyati kamayişi mumkin. Bu ularning daromad oliş imkoniyatlarini çeklaydi. Mahalliy talab, işçi kuçi tarkibi va yerdan foydalaniş tartibi özgargani sababli fermer xöjaliklaridagi mehnat yoki vaqtinçalik xizmat işlari kabi mavsumiy va qisqa muddatli bandlik ham özgarib turişi mumkin. Loyiha yaqinida faoliyat yuritadigan kiçik savdogarlar va xizmat körsatuvçilar esa yangi korxonalar paydo bölişi hamda foydalaniş bosqiçidagi faoliyat sabab işidagi uzilişlar yoki kuçaygan raqobatga duç kelişi mumkin. Bu oqibatlar, ayniqsa, muqobil daromad manbalari çeklangan, ta’lim darajasi past yoki moliyaviy resurslardan foydalaniş imkoniyati kam bölgan xonadonlarning zaifligini kuçaytiriş mumkin. Mahalliy iqtisodiy şaroitdagi özgarişlar xonadonlar xarajatlari, oziq-ovqatdan foydalaniş imkoniyati va umumiy iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir qiliş mumkin.

Uşbu ehtimoliy ta’sirlarning oldini oliş va ularni kamaytiriş uçun loyiha kreditorlar talablariga muvofiq tirikçilik manbalari va iqtisodiy faoliyatni muntazam kuzatiş hamda qöllab-

quvvatlaş dasturini amalga oşiradi. Dastur LTŞ/PAPlarning daromadi qay darajada tiklanayotganini kuzatiş va har qanday salbiy özgarişni erta aniqlaşni nazarda tutadi. Maqsadli çoralar mahalliy bandlik imkoniyatlariga mos kasbiy ta'lim, loyihaning foydalaniş bosqiçidagi doimiy yoki vaqtinçalik iş örinlariga joylaşişga kömak, şuningdek, tirikçilik manbalarini xilma-xillaştiriş uçun mikromoliyalaştiriş yoki kiçik biznesni rivojlantiriş dasturlaridan foydalanişga yordamni qamrab olişi mumkin. Mahalla yetakçilari bilan hamkorlik yordam iqtisodiy zarari eng katta bölgan xonadonlarga yetib borişi va madaniy jihatdan mos bölişini ta'minlaydi. Loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi LTŞ/PAPga foydalaniş bosqiçidagi faoliyat ularning tirikçilik manbalari yoki iqtisodiy faoliyatiga zarar yetkazgani haqida rasmiy murojaat qiliş hamda masalani öz vaqtida hal ettiriş imkonini beradi. Bundan taşqari, jamoalar bilan muloqot doirasida xonadonlarga bozor özgarişlariga moslaşiş va, ayniqsa, ayollar hamda zaif guruhlar uçun muqobil daromad oliş imkoniyatlarini izlaşda yordam beradigan iqtisodiy xabardorlik maşğulotlari ötkaziladi.

Uşbu oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari qöllanilganda, LTŞ/PAPga qoldiq iqtisodiy ta'sirning ahamiyatlilik darajasi örta yoki past bölişi kutiladi. Qişloq xöjaligi yoki mavsumiy mehnatga boğliq xonadonlarning daromadi bozor şaroiti yoki foydalaniş bosqiçidagi özgarişlar tufayli vaqtinça tebranişi mumkin. Biroq muqobil tirikçilik manbalarini rivojlantirişga kömak va maqsadli öqitiş dasturlari bu ta'sirlarni vaqt ötişi bilan kamaytiradi. Samarali muntazam kuzatiş va LTŞ/PAP bilan faol muloqot iqtisodiy barqarorlikni saqlaşga, zaiflikni kamaytirişga hamda daromadi zarar körgan xonadonlarning loyihaning uzoq muddatli faoliyatiga moslaşiş qobiliyatini oşirişga xizmat qiladi.

16.5.2.3 Zaif guruhlar

Kam daromadli oilalar, ayol rahbarlik qiladigan xonadonlar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslar köçirişdan keyingi yordam hamda jamoat dasturlari yetarli bölmasa, foydalaniş bosqiçida boşqa aholi qatlamlariga qaraganda köproq zarar körişi mumkin. Bu guruhlarning muqobil daromad manbalari, moliyaviy barqarorligi yoki ijtimoiy himoya vositalaridan foydalaniş imkoniyati köp hollarda çeklangan. Şu sababli ular ijtimoiy-iqtisodiy özgarişlarga ayniqsa sezgir. Ehtimoliy oqibatlar avval tiklangan tirikçilik manbalarini saqlaşdagi qiyinçilik, loyiha yaratgan iş imkoniyatlaridan foydalanişning çeklanişi, soğliqni saqlaş va ijtimoiy xizmatlardan foydalanişning kamayişi, şuningdek, jamoaviy yoki iqtisodiy faoliyatda töliq qatnaşa olmaslikni qamrab olişi mumkin. Mahalliy infratuzilma, xizmatlar yoki yerdan foydalaniş tartibidagi özgarişlar ham zaiflikni kuçaytirişi mumkin. Bu, ayniqsa, daromadi yaqin atrofdagi qişloq xöjaligi yerlari, suvdan foydalaniş imkoniyati yoki jamoa tarmoqlariga boğliq xonadonlarga taalluqlidir. Tegişli çoralar körilmasa, foydalaniş bosqiçidagi bu özgarişlarning umumiy ta'siri daromad barqarorligi va umumiy farovonlikning pasayişiga yoki ijtimoiy çetlaşişga olib kelişi mumkin.

Loyiha zaif xonadonlarning davlat yordami, soğliqni saqlaş va ta'lim xizmatlaridan foydalanişini ta'minlaş uçun mahalliy hokimiyat hamda mahalla qömitalari bilan hamkorlikda ijtimoiy ta'minot çoralarini muvofiqlaştirişni davom ettiradi. Muloqot tadbirlarida zaif guruhlarga ustuvor e'tibor beriladi. Ularning fikri şikoyatlarni hal qiliş va fikr-mulohaza mexanizmlari, şuningdek, jamoat maslahatlaşuvlari orqali foydalaniş bosqiçini rejalaştirişda hisobga olinadi. Ayol rahbarlik qiladigan yoki nogironligi bölgan şaxslar yaşaydigan xonadonlarning teng qatnaşişi va manfaatlardan foydalanişiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan taşqari, foydalaniş bosqiçidagi muntazam kuzatiş inflyatsiya bosimi, xizmatlardagi uzilişlar yoki loyiha faoliyati keltirib çiqaradigan ekologik özgarişlar sababli yuzaga keladigan yangi zaifliklarni aniqlaydi.

Faol va maqsadli oldini oliş hamda kamaytiriş çoralari qöllanilganda, zaif xonadonlarga qoldiq ta'sirning ahamiyatlilik darajasi past yoki örta bölişi kutiladi. Muntazam kuzatiş va moslaşuvçan boşqaruv loyiha sabab yuzaga keladigan kutilmagan qiyinçiliklarga tezkor javob beriş hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy zarar ehtimolini kamaytiriş imkonini beradi.

16.5.2.4 Qişloq xöjaligi yerlari

Foydalaniş bosqiçida qöşimça yer uçastkalari olib qöyilmasa-da, atrofdagi qişloq xöjaligi hududlariga bir qança bilvosita yoki ikkilamçi ta'sir yuzaga kelişi mumkin. Kiriş yöllaridagi transport harakati, hududga texnik xizmat körsatiş va boğliq infratuzilma işlari

köpaygani sababli yerdan foydalaniş tartibi özgarişi mumkin. Bunday özgarişlar dalalarga kirişni çeklaşi, transport yölaklari böylab tuproqni ziçlaştirişi yoki mavsumiy dehqonçilik jadvalini buzişi mumkin. Natijada mahalliy ekinlar unumdorligi pasayişi ehtimoli bor.

Yaqin atrofdagi qişloq xöjaligi yerlarini suv bilan ta'minlaydigan suğoriş tizimlariga ham bilvosita ta'sir yetişi mumkin. Foydalaniş bosqiçidagi suv talabi, drenaj kanallariga texnik xizmat körsatiş yoki suğoriş infratuzilmasiga kiritiladigan özgarişlar ekinlarga suv beriş vaqti, suv hajmi yoki sifatini özgartirişi mumkin. Bunday özgarişlar şoli, paxta, dukkakli ekinlar, sabzavotlar va mevali boğlar hosildorligini, şuningdek, yaylovlar mahsuldorligini kamaytirişi mumkin. Bu esa TH/AoIdagi kiçik yer egalari va dehqonlarning tirikçilik manbalariga zarar yetkazadi.

Loyiha mahalliy qişloq xöjaligiga zarar yetişining oldini oliş uçun suğoriş va kiriş infratuzilmasini soz holatda saqlaydi. Mahalliy fermerlar va mahallalar bilan hamkorlik foydalaniş bosqiçidagi har qanday özgartiriş unumdor yerlardan foydalanişga xalaqit bermasligini ta'minlaydi. Qişloq xöjaligi yerlaridan yoki suğoriş suvidan foydalaniş imkoniyati kamaygani aniqlansa, zarar körgan xonadonlarga tovon yoki muqobil tirikçilik manbalarini rivojlantiriş uçun kömak beriladi. Qişloq xöjaligi yerlariga qoldiq ta'sir bevosita yer olib qöyilişidan emas, asosan foydalaniş bosqiçidagi bilvosita omillardan kelib çiqişi sababli uning ahamiyatlilik darajasi past yoki örtaça bölişi kutiladi.

16.5.2.5 Loyiha TH/AoI doirasidagi turar joy jamoalari

5 km TH/AoIdagi turar joy jamoalarida loyihaning foydalaniş bosqiçi sababli turli ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik özgarişlar yuzaga kelişi mumkin. Yölovçi, yuk va xizmat transporti oqimining köpayişi, ayniqsa, loyiha hududini yaqin mahallalar bilan boğlaydigan kiriş yöllarida tirbandlik, şovqinning kuçayişi va xavfsizlik xatarlarini keltirib çiqarişi mumkin. Foydalaniş bosqiçidagi ehtiyojlar mavjud infratuzilma imkoniyatlari bilan töqnaşsa, soğliqni saqlaş, ta'lim va mahalliy bozorlar kabi davlat xizmatlaridan foydalaniş vaqtinça çeklanişi mumkin. Suv, elektr va çiqindilarni boşqariş xizmatlariga talabning köpayişi mahalliy tizimlarga qöşimça yuklama berib, TH/AoIdagi xonadonlar uçun xizmat sifatini yomonlaştirişi mumkin. Foydalaniş inşootlariga yaqin jamoalarda havo çiqarilmalari, havo kemalari şovqini va inson faoliyatining köpayişi yaşaş qulayligini pasaytirişi mumkin. Bu ijtimoiy jipslik va umumiy joylardan foydalanişga ham salbiy ta'sir qiladi.

Tirbandlikni kamaytiriş va turar joy hududlariga xavfsiz kirişni saqlaş uçun mahalliy hokimiyat bilan kelişilgan transportni boşqariş rejalari işlab çiqiladi. Belgilangan piyodalar ötiş joylari, tezlik nazorati va aniq yöl belgilari joriy etiladi. Yaqin jamoalarga şovqin bezovtaligini kamaytiriş uçun foydalaniş jadvallari tartibga solinadi, şovqin darajasi muntazam kuzatiladi va zarur joylarda şovqin tösiqlari örnatiladi. Xizmat körsatuvçi taşkilotlar bilan hamkorlik TH/AoIdagi xonadonlarning suv, elektr va çiqindilarni boşqariş xizmatlaridan yetarli darajada foydalanişini ta'minlaydi. Favqulodda vaziyatlar rejasi xizmatlardagi ehtimoliy uzilişlarga javob beriş tartibini belgilaydi. Aholi xavotirlari yoki foydalaniş bosqiçidagi muammolarini bildira olişi uçun mahalla yetakçilari orqali jamoalar bilan faol muloqot davom ettiriladi. Masalalarni öz vaqtida aniqlaş va hal qiliş uçun şikoyatlarni körib çiqiş tartibi, ommaviy maslahatlaşuvlar va muntazam jamoat yiğilişlari saqlanadi. Foydalaniş bosqiçidagi özgarişlar sabab boşqalarga qaraganda köproq zarar körgan zaif xonadonlarga zarur hollarda muqobil kiriş yöllari, ijtimoiy xizmatlardan foydalaniş yoki tirikçilik manbalarini tiklaş uçun qöşimça yordam berilişi mumkin. Rejalaştirilgan oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari qöllanilganda, turar joy jamoalariga qoldiq ta'sirning ahamiyatlilik darajasi past yoki örta bölişi kutiladi. Transport, şovqin va kommunal xizmatlardan foydalaniş bilan boğliq ayrim kiçik uzilişlar bölişi mumkin, biroq ular vaqtinça va oson boşqariladigan bölişi kutiladi. Mahalla rahbariyati va jamoa a'zolari bilan davomli muloqot moslaşuvçan boşqaruvni osonlaştiradi hamda foydalaniş bosqiçidagi ta'sirlar uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy zarar keltirib çiqarmasligini ta'minlaydi.

16.5.2.6 Mahalliy infratuzilma va muhandislik tarmoqlari

Foydalaniş bosqiçida loyiha faoliyati kiriş yöllari, içki xizmat yöllari, elektr taqsimlaş tarmoqlari, suv quvurlari va suğoriş kanallari kabi mahalliy infratuzilma hamda muhandislik tarmoqlariga qöşimça yuklama berişi mumkin. Bu tizimlarga texnik xizmat körsatiş yoki ularni

vaqti-vaqti bilan özgartiriş xonadonlarga kirişning çeklanişi, transport harakati yoki xizmat yetkazib berişdagi keçikişlar, şuningdek, elektr va suv ta'minotidagi qisqa uzilişlarga olib kelişi mumkin. Xizmat transporti, yuk taşiş va xodimlar qatnovining köpayişi mahalliy tirbandlikni kuçaytirişi, kiriş yöllarini tezroq yemirişi hamda piyodalar va zaif yöl qatnaşçilari uçun xavfsizlik muammolarini tuğdirişi mumkin. Bundan taşqari, tutaş qişloq xöjaligi yerlarini suv bilan ta'minlaydigan suğoriş kanallarida muntazam texnik xizmat yoki özgartiriş işlari ötkazilganda suv oqimi vaqtinça kamayişi mumkin. Bu dehqonlarning suğoriş suvidan foydalanişini çeklaydi.

Mahalliy hokimiyat va mahalla vakillari bilan muvofiqlaştiriş jamoalar duç keladigan muammolar tezkor bartaraf etilişini ta'minlaydi. Aloqa kanallari orqali texnik xizmat jadvali, rejalaştirilgan xizmat uzilişlari va transportning aylanma yönalişlari haqida öz vaqtida axborot beriladi. Barça foydalaniş infratuzilmasi atrofida aniq belgilar, xavfli hududlarni çegaralaş va zarur joylarda himoya tösiqlarini örnatiş kabi xavfsizlik çoralari joriy etiladi. Loyiha suğoriş tarmoqlaridagi vaqtinçalik özgartirişlar quyi oqimdagi foydalanuvçilar uçun suv oqimi yoki suvdan foydalaniş imkoniyatini kamaytirmasligini ta'minlaydi. Kiçik uzilişlarning oldini oliş imkoni bölmasa, muqobil tartiblar yoki vaqtinçalik suv ta'minoti joriy etiladi. Infratuzilmaga texnik xizmat körsatadigan xodimlar ekologik va ijtimoiy boşqaruv, manfaatdor tomonlarni jalb etiş hamda şikoyatlarni körib çiqiş böyiça öqitiladi. Bu ularning işni xavfsiz va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli bajarişini ta'minlaydi. Uşbu çoralar qöllanilganda, mahalliy infratuzilma va muhandislik tarmoqlariga qoldiq ta'sirning ahamiyatlilik darajasi past bölişi kutiladi. Texnik xizmat yoki takomillaştiriş işlari paytida kiriş, elektr yoki suv ta'minotida vaqtinçalik uzilişlar yuzaga kelişi mumkin, biroq ular qisqa muddatli bölib, samarali boşqariladi.

16.5.2.7 Tabiiy resurslar va suv havzalari

Foydalaniş bosqiçida loyiha Çirçiq daryosi va unga boğliq suğoriş tarmoqlaridagi suv miqdori va sifatiga ta'sir qilişi mumkin. Ehtimoliy ta'sirlar suv oliş sababli yuza suv oqimining özgarişi, yuza oqimi yoki foydalaniş bosqiçidagi oqizilmalar tufayli suv sifatining kiçik tebranişlari, şuningdek, ayrim faoliyatlar oqibatida çökindilar töplanişi yoki ifloslanişni qamrab oladi. Suv oliş inşootlari özgartirilsa yoki texnik xizmat körsatiş uçun tizimning bir qismini yopiş talab etilsa, mahalliy fermerlarning suğoriş suvidan foydalanişi vaqtinça çeklanişi mumkin. Suv miqdoridagi özgarişlar suv jonzotlarining yaşaş muhitini özgartirsa yoki mahalliy suğoriş tartibini buzsa, bilvosita ekologik oqibatlar ham yuzaga kelişi mumkin. Bu ekin unumdorligi va tirikçilik manbalariga zarar yetkazadi.

Loyiha suvni teng va oldindan ma'lum tartibda taqsimlaşni saqlaş uçun mahalliy suğoriş idoralari va fermerlar uyuşmalari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Suğoriş infratuzilmasiga kiritiladigan har qanday özgartiriş uziliş davomiyligini kamaytiriş va qişloq xöjaligi suv ta'minoti uzluksizligini saqlaş maqsadida puxta rejalaştiriladi. Foydalaniş bosqiçi uçun suvni boşqariş rejasi ham işlab çiqiladi. U suvni muntazam kuzatiş tartiblari, çora köriş mezonlari, tökiliş yoki ifloslaniş hodisalariga favqulodda javob beriş tartibi va nazorat idoralariga davriy hisobot berişni qamrab oladi. Manfaatdor tomonlarni jalb etiş asosiy tarkibiy qism bölib qoladi. Bu foydalaniş bosqiçidagi suv sarfi mavjud suv tanqisligini yoki suvdan foydalanişdagi tengsizlikni kuçaytirmasligini ta'minlaydi. Uşbu çoralar qöllanilganda, tabiiy resurslar va suv havzalariga qoldiq ta'sirning ahamiyatlilik darajasi past bölişi kutiladi. Muntazam kuzatiş va moslaşuvçan boşqaruv suv sifati yoki miqdoridagi kiçik tebranişlarni erta aniqlaş hamda tezkor bartaraf etiş imkonini beradi. Manfaatdor tomonlarni davomli jalb etiş qöşimça himoya çorasi bölib, foydalaniş amaliyoti jamoa ehtiyojlari va ekologik talablarga javob berişini ta'minlaydi. Bu suvdan barqaror foydalaniş va Çirçiq daryosi ekotizimi yaxlitligini saqlaşga yordam beradi.

16.8-jadval. Yer uçastkalarini olib qöyiş: oqibatning ahamiyatlilik darajasi, ta'sirning oldini oliş, uni kamaytiriş va boşqaruv çoralari hamda qoldiq ta'sirlar, foydalaniş bosqiçi

Ehtimoliy ta'sir	Ta'sir kölami	Ta'sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Ta'sirning oldini oliş, uni kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta'sir
LTX/PAHlar	Past	LTX/PAHlar	Yuqori	Örtaça	• Kreditorlar talablariga muvofiq köçirişdan keyingi qöllab-quvvatlaş çoralarini davom ettiriş. • Xonadonlar daromadi va tirikçilik manbalarini muntazam kuzatib, turmuş darajasi tiklangani va yaxşilanganini tekşiriş. • Kasbiy ta'lim, malakani rivojlantiriş hamda kredit yoki mikromoliyalaştiriş dasturlaridan foydalanişga kömakni qamrab oladigan, tirikçilik manbalarini yaxşilaşga qaratilgan yordam körsatiş. • Ijtimoiy xizmatlar, ta'lim, soğliqni saqlaş va jamoat dasturlaridan foydalanişni qöllab-quvvatlaş uçun mahalla qömitalari va tuman hokimliklari bilan uzluksiz muloqot olib boriş. • Kutilmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkor hal qiliş uçun butun foydalaniş bosqiçida barça foydalana oladigan şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini saqlaş. • Muntazam kuzatiş davom etayotgan zaiflikni aniqlasa, vaqtinçalik moliyaviy yoki aşyoviy yordamni qamrab oladigan moslaşuvçan boşqaruv çoralarini qöllaş.	Juda kam
Iqtisodiy jihatdan köçirilgan şaxslar	Past yoki örtaça	Iqtisodiy jihatdan köçirilgan şaxslar	Yuqori	Örtaça	• Foydalaniş bosqiçida LTŞ/PAPlarning tirikçilik manbalari va iqtisodiy faoliyati qay darajada tiklanganini muntazam kuzatiş. • Imkon mavjud hollarda foydalaniş, xizmat körsatiş va texnik xizmat işlarini qamrab oladigan loyiha bilan boğliq bandlik imkoniyatlaridan foydalanişga kömaklaşiş. • Tirikçilik manbalarini xilma-xillaştirişni qöllab-quvvatlaş uçun mahalliy mehnat bozori talabiga mos kasbiy ta'lim beriş. • Maslahat xizmatlari va moliyaviy resurslardan foydalanişga kömak orqali kiçik biznesni rivojlantiriş hamda tirikçilik manbalarini xilma-xillaştirişni qöllab-quvvatlaş. • Tirikçilik manbalari bilan boğliq muammolarni öz vaqtida hal qiliş uçun şikoyatlarni körib çiqiş tartiblarini saqlaş.	Juda kam
Zaif guruhlar uçun kuçaygan xavf	Past yoki örtaça	Kam daromadli xonadonlarga, şuningdek, ayol, keksa	Yuqori	Örtaça	• Foydalaniş bosqiçida zaif xonadonlarni aniqlaş va muntazam kuzatiş. • Zaif guruhlarga tirikçilik manbalarini tiklaşga kömak, bandlik imkoniyatlari va öqitiş dasturlaridan ustuvor foydalaniş imkonini beriş.	Juda kam

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Ta’sirning oldini oliş, uni kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
		yoki nogironligi bölgan şaxs rahbarlik qiladigan xonadonlarga nomutanosib ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirlar			• Davlat yordami, soğliqni saqlaş va ta’lim xizmatlaridan foydalanişga kömaklaşiş uçun mahalliy ijtimoiy ta’minot idoralari bilan muvofiqlaştiriş. • Ayollar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslarning mazmunli qatnaşişini ta’minlaydigan qamrovli muloqot jarayonlarini ötkaziş. • Zaif guruhlar oson foydalana oladigan va tezkor işlaydigan maqsadli şikoyatlarni körib çiqiş tartiblarini qöllaş. • Muntazam kuzatiş orqali yangi zaifliklar aniqlanganda moslaşuvçan oldini oliş va kamaytiriş çoralarini qöllaş.	
Qişloq xöjaligi yerlari va daromad keltiruvçi resurslar	Past yoki örtaça	Qişloq xöjaligi unumdorligi va qişloq xöjaligi yerlaridan foydalaniş imkoniyatiga bilvosita ta’sirlar	Yuqori	Örtaça	• Dehqonçilik faoliyati buzilişining oldini oliş uçun qişloq xöjaligi yerlariga olib boradigan kiriş yöllarini saqlaş. • Suğoriş yoki yerdan foydalaniş imkoniyatini özgartiradigan texnik xizmat işlaridan oldin fermerlar va mahalla vakillari bilan muvofiqlaştiriş. • Foydalaniş va texnik xizmat körsatiş işlari paytida suğoriş kanallari hamda drenaj infratuzilmasini himoya qiliş. • Qişloq xöjaligi yerlaridan foydalaniş, suv miqdori va unumdorlikdagi özgarişlar kabi bilvosita ta’sirlarni muntazam kuzatiş. • Qişloq xöjaligi yerlaridan yoki suğoriş suvidan foydalaniş imkoniyati kamaygani aniqlansa, tovon yoki muqobil tirikçilik manbalarini rivojlantirişga kömak körsatiş.	Juda kam
Mahalliy infratuzilma va muhandislik tarmoqlari	Past	Yöllar, muhandislik tarmoqlari va suğoriş infratuzilmasi işining vaqtinçalik buzilişi	Örta	Örtaça	• Foydalaniş bosqiçidagi infratuzilmani boşqariş rejasini işlab çiqiş va amalga oşiriş. • Rejalaştirilgan texnik xizmat, transportning aylanma yönalişlari yoki xizmat uzilişlari haqida jamoalarni oldindan xabardor qiliş. • Xizmatlar öz vaqtida tiklanişini ta’minlaş uçun xizmat körsatuvçi taşkilotlar va mahalliy hokimiyat bilan muvofiqlaştiriş. • Işlar paytida belgilar, tösiqlar va nazorat qilinadigan kirişni qamrab oladigan xavfsizlik çoralarini amalga oşiriş. • Foydalaniş bosqiçidagi xodimlarni ekologik va ijtimoiy xavflarni boşqariş hamda şikoyatlarni körib çiqiş böyiça öqitiş.	Juda kam
Loyiha TH/AoI doirasidagi turar joy jamoalari	Past yoki örtaça	Loyiha TH/AoI doirasidagi	Örta	Örtaça	• Tezlik nazorati, yöl belgilari va piyodalar xavfsizligi vositalarini qamrab oladigan transportni boşqariş çoralarini amalga oşiriş.	Juda kam

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Ta’sirning oldini oliş, uni kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
		turar joy jamoalari			• Yaqin jamoalarga şovqin bezovtaligini kamaytiriş uçun şovqin darajasini muntazam kuzatiş va foydalaniş bosqiçidagi nazorat çoralarini qöllaş. • Suv, elektr va çiqindilarni boşqariş xizmatlari yetarli ta’minlanişi uçun xizmat körsatuvçi taşkilotlar bilan muvofiqlaştiriş. • Mahalla yetakçilari va ommaviy maslahatlaşuv maydonlari orqali jamoalar bilan uzluksiz muloqot olib boriş. • Transport, şovqin yoki xizmatlardan foydalaniş bilan boğliq jamoa muammolarini bartaraf etiş uçun şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmini yuritiş.	
Tabiiy resurslar va suv havzalari	Past	Suğoriş suvidan foydalanuvçilarga zarar yetkazadigan suv miqdori, sifati yoki undan foydalaniş imkoniyatidagi özgarişlar	Örta	Örtaça	• Foydalaniş bosqiçidagi suvni boşqariş rejasini kreditorlar talablariga muvofiq amalga oşiriş. • Yuza suvining sifati va olinadigan suv hajmini me’yorlarga muvofiq muntazam kuzatiş. • Suvni teng taqsimlaş uçun suğoriş idoralari va fermerlar uyuşmalari bilan muvofiqlaştiriş. • Suğorişdagi uzilişlarni kamaytiriş uçun texnik xizmat işlarini puxta rejalaştiriş. • Tökiliş yoki ifloslaniş hodisalariga favqulodda javob beriş tartiblarini qöllaş. • Suvdan foydalaniş va suv sifati böyiça manfaatdor tomonlar bilan muloqotni davom ettiriş.	Juda kam

16.6 Muntazam kuzatiş

Yer uçastkalarini olib qöyişga oid jarayonlar yuqorida bayon etilgan boşqaruv çoralariga muvofiq va zarur darajada muntazam kuzatiladi. Quyidagi jadvalda asosiy körsatkiçlar keltirilgan.

16.9-jadval. Yer uçastkalarini olib qöyiş: muntazam kuzatişning asosiy körsatkiçlari

Yönaliş	ASŞ/KPI	Kutilayotgan natija
Tovon tölaş	Öz yerlarini boşatgan xonadonlar foizi	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
	Imzolangan tovon kelişuvlari foizi	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
	Amalga oşirilgan tovon tölovlarining umumiy soni va pul qiymati	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
	Yangi yer uçastkasini muvaffaqiyatli olgan va yangi uyga köçib ötgan ta'sirlangan xonadonlar foizi	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
Tirikçilik manbalarini tiklaş	Amalga oşirilgan tirikçilik manbalarini tiklaş tadbirlarining soni va turi hamda ularda iştirok etayotgan ta'sirlangan şaxslar soni	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
Köçirişga yordam	Köçirişga yordam böyiça amalga oşirilgan tadbirlarning soni va turi hamda ulardan foydalangan ta'sirlangan şaxslar soni	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
Şikoyatlar	Şikoyatçining jinsiga köra kelib tuşgan şikoyatlar soni, asosiy masalalarning qisqaça bayoni bilan birga	• Har oy >3 ta
	30 kun içida yopilgan şikoyatlar foizi.	• 100%
Manfaatdor tomonlarni jalb etiş	LTŞ/PAPlar bilan ötkazilgan muloqot tadbirlarining soni va turi	• Qöllanmaydi – joriy bajariliş holati
Tuzatiş çoralari	Oldingi hisobotda belgilangan tuzatiş çoralaridan joriy oy yoki çorakda bajarilganlar foizi	• 100%

17.0 Mehnat va iş şaroitlari

17.1 Amal qiladigan talablar va standartlar

17.1.1 Milliy qonun hujjatlari

17.1.1.1 Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil, 2023-yilgi özgartirişlar bilan)

Mehnat huquqlariga oid asosiy konstitutsiyaviy qoidalar quyidagilardan iborat:

- Har kim munosib mehnat qiliş, kasb va faoliyat turini erkin tanlaş, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat şaroitlarida işlaş, heç qanday kamsitişsiz hamda belgilangan eng kam iş haqidan kam bölmagan miqdorda adolatli haq oliş, şuningdek, qonunda belgilangan tartibda işsizlikdan himoyalaniş huquqiga ega.
- Eng kam iş haqi miqdori insonning munosib turmuş darajasini ta'minlaş zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.
- Homiladorligi yoki farzandi borligi sababli ayollarni işga olişni rad etiş, işdan böşatiş yoki ularning iş haqini kamaytiriş taqiqlanadi.
- Sud qarori bilan jazo sifatida yoki qonunda belgilangan ayrim boşqa hollardan taşqari, har qanday majburiy mehnat taqiqlanadi.
- Bolaning soğliği, xavfsizligi, axloqi, aqliy yoki jismoniy rivojlanişiga tahdid soladigan, jumladan, uning ta'lim olişiga tösqinlik qiladigan bolalar mehnatining har qanday şakli taqiqlanadi.
- Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boşqa ijtimoiy ta'minot turlari miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bölişi mumkin emas.
- Kasaba uyuşmalari işçilarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari hamda manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.
- Kasaba uyuşmalariga a'zolik ixtiyoriydir.

Konstitutsiyada inson huquqlariga doir quyidagi qoida belgilangan: "Özbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi. Ularga köra, inson, uning hayoti, erkinligi, şa'ni, qadr-qimmati va boşqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi".

17.1.1.2 Özbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022-yil, 2023-yil 30-apreldan kuçga kirgan)

Özbekistonda mehnat munosabatlari, bandlik huquqlari, mehnat muhofazasi va xavfsizligi (MMX/OHS), iş şaroitlari hamda ijtimoiy himoyani tartibga soladigan asosiy hujjat Özbekiston Respublikasining Mehnat kodeksidir. U 2022-yil oktabrda qabul qilingan, 1995-yilgi Mehnat kodeksining örnini egallagan va 2023-yil 30-apreldan kuçga kirgan.

Mehnat kodeksi iş beruvçilar va xodimlar örtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilaydi. Unda kamsitişga yöl qöymaslik, teng imkoniyatlar, adolatli haq tölaş, MMX/OHS, zaif xodimlarni himoya qiliş, iş vaqti, ta'til oliş huquqi, jamoaviy mehnat munosabatlari va nizolarni hal etişga oid asosiy tamoyillar qamrab olingan. Umuman olganda, Kodeks Özbekistonning XMT/ILO asosiy konvensiyalari böyiça majburiyatlariga muvofiqdir.

Mehnat kodeksining MMX/OHSga oid asosiy qoidalariga köra, iş beruvçilar quyidagilarni bajarişi kerak:

- xavfsiz va soğlom mehnat şaroitlarini yaratiş hamda işlab çiqarişdagi jarohatlar va iş bilan boğliq kasalliklarning oldini olişga qaratilgan çoralarni amalga oşiriş;
- iş joyidagi xavflarni baholaş hamda tegişli oldini oliş va himoya çoralarini amalga oşiriş;
- xodimlarni zarur hollarda tegişli ŞHV/PPE, iş kiyimi va jamoaviy himoya vositalari bilan ta'minlaş;
- xodimlarni işni boşlaşdan oldin va butun bandlik davrida MMX/OHS böyiça yetarli yöl-yöriq, ma'lumot va öqitiş bilan ta'minlaş;
- işlab çiqarişdagi baxtsiz hodisalar va voqealarni amaldagi qonun talablariga muvofiq tekşiriş, röyxatga oliş va ular haqida xabar beriş;
- nogironligi bölgan şaxslar, homilador xodimlar va yoş xodimlar kabi zaif toifadagi xodimlarni zarur hollarda tegişli ravişda himoya qiliş; hamda

- hayot yoki soğliqqa muqarrar xavf mavjud bölganida, xodimlarning salbiy oqibatlarsiz işni bajarmaslik huquqini ta'minlaş.
- Xodimlar MMX/OHS talablariga rioya qilişi va berilgan ŞHV/PPE hamda xavfsizlik uskunalaridan töğri foydalanişi kerak. Ular majburiy xavfsizlik ta'limida qatnaşişi, xavfsiz bölmagan şaroitlar, baxtsiz hodisalar yoki xavfli vaziyatlar haqida iş beruvçiga zudlik bilan xabar berişi şart.

Mehnat kodeksi jamoaviy bitim va şartnomalar orqali muzokara olib borişni ham qamrab oladigan jamoaviy mehnat munosabatlarining huquqiy asosini belgilaydi. Bu iş beruvçilar va xodimlarga yoki ularning vakillariga mehnat şaroitlari, MMX/OHS çoralari, ijtimoiy imtiyozlar va mehnatga oid boşqa masalalarni kelişilgan bitimlar orqali tartibga soliş imkonini beradi. Kodeks, şuningdek, maslahatlaşuv, mehnat nizolarini hal etiş va xodimlar huquqlarini himoya qiliş tartiblarini belgilaydi.

17.1.1.3 MMX/OHSga oid qonunçilik

MMX/OHSga oid qonunçilik Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qiliş töğrisida"gi Qonun, Özbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va MMX/OHS standartlaridan iborat. Unga ijro etuvçi davlat organlari öz vakolati doirasida qaror, buyruq, nizom, yöriqnoma, qoida va boşqa şakllarda qabul qiladigan hujjatlar ham kiradi.

17.1.1.4 "Xavfli işlab çiqariş obyektlarining sanoat xavfsizligi töğrisida"gi Qonun (2006-yil)

Qonunda baxtsiz hodisalarning oldini oliş va korxonalar salohiyatini oşiriş maqsadida xavfli işlab çiqariş obyektlaridan xavfsiz foydalaniş uçun zarur huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy şartlar belgilangan.

Respublikada MMX/OHSga oid milliy me'yoriy hujjatlar ham amal qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: (i) SQM/SanR&N; (ii) davlatlararo standartlar va mehnat xavfsizligi standartlari tizimi (GOST va SSBT); (iii) quriliş me'yorlari va qoidalari (QMQ/CR&N, SNiPs); (iv) zararli moddalar uçun ruxsat etilgan eng yuqori konsentratsiya va darajalar (REYK/MPC); hamda (v) xavfli obyektlarda yoki ayrim mahsulotlarni işlab çiqariş va qöllaşda mehnat xavfsizligi talablarini belgilaydigan me'yoriy-uslubiy hujjatlar. Sanoat tarmoqlarida MMX/OHSga oid idoraviy va idoralararo me'yorlar, talablar hamda qoidalar ham qöllanadi.

MMX/OHS siyosatini amalga oşiriş uçun mas'ul asosiy davlat idoralari quyidagilardir:

- Özbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, jumladan, uning huzuridagi respublika böylab hududiy bölinmalarga ega Davlat mehnat inspeksiyasi;
- Özbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qömitasi (Goskomprombez);
- Özbekiston Respublikasi Soğliqni saqlaş vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi qömitasi.

Bandlik va kambağallikni qisqartiriş vazirligi tarkibida MMX/OHS boşqarmasi, Davlat mehnat inspeksiyasi hamda uning Qoraqalpoğiston Respublikasi, viloyatlar, Toşkent şahri va tumanlardagi mehnat, bandlik va ijtimoiy ta'minot boşqarma va bölinmalari faoliyat yuritadi. Ular vazirliklar, idoralar, muassasalar, taşkilotlar, sanoat va qişloq xöjaligi korxonalarida MMX/OHS talablariga rioya etilişi ustidan nazorat hamda muntazam kuzatişning yagona tizimini taşkil etadi. Sanoat, konçilik, uy-joy va kommunal xizmatlar xavfsizligini nazorat qiladigan davlat inspeksiyasi vakolatiga kiruvçi xavfli obyektlar bundan mustasno.

17.1.1.5 Boşqa tegişli qonun hujjatlari

Adolatli va xavfsiz mehnat şaroitlari hamda imtiyozlarni nazarda tutadigan boşqa qonun va me'yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat:

- 20.10.2020-yildagi 642-sonli “Aholi bandligi töğrisida”gi Qonun
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qiliş vazirligi (7-son) hamda Soğliqni saqlaş vazirligining (13-son) “18 yoşga tölmagan şaxslarning mehnatidan foydalaniş taqiqlangan noqulay mehnat şaroitidagi işlar röyxatini tasdiqlaş töğrisida”gi qoşma qarori, Özbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 29-iyulda 1990-son bilan röyxatga olingan
- Özbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini amalga oşiriş uçun zarur me’yoriy hujjatlarni tasdiqlaş töğrisidagi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli qarori.
- Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi 1011-sonli “Işga joylaşişga muhtoj aholi sonini aniqlaş uslubini, jumladan, bandlik masalalari böyiça xon-adonlarni kuzatib boriş uslubini takomillaştiriş, şuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini işga joylaştiriş muvozanatini işlab çiqiş töğrisida”gi qarori.
- Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, iş qidirişda qiyinçilikka uçraydigan va mehnat bozorida teng şaroitlarda raqobatlaşa olmaydigan şaxslarni işga joylaştiriş uçun eng kam iş örinlari sonini belgilaş va zaxiralaş tartibini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi qarori.
- 2017-yil 5-dekabrdagi 964-sonli “Fuqarolarning özini özi boşqariş idoralarining, avvalo, yoşlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlaşga qaratilgan faoliyatini takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi qaror.
- “Xotin-qizlarni tazyiq va zöravonlikdan himoya qiliş töğrisida”gi Qonun (2019-yil).
- Inson huquqlari böyiça milliy strategiya Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-sonli farmoni bilan tasdiqlangan.
- “Xotin-qizlar va erkaklar uçun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari töğrisida”gi Qonun (2019-yil).
- “Mediatsiya töğrisida”gi Qonun (2018-yil).
- “Jamoatçilik nazorati töğrisida”gi Qonun (2018-yil).
- “Ma’muriy tartib-taomillar töğrisida”gi Qonun (2018-yil)

17.1.1.6 Inson huquqlari

BMT/UNga a’zo davlat sifatida Özbekiston inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilişga oid barça asosiy xalqaro hujjatlarni qöllab-quvvatlaydi va amalga oşiradi. Ular qatoriga BMT/UNning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari kengaşining inson huquqlari hamda zöravon ekstremizmning oldini oliş va unga qarşi kuraşiş töğrisidagi 30/15-sonli rezolyutsiyasi, Xotin-qizlarni kamsitişning barça şakllariga barham beriş töğrisidagi konvensiya va boşqa hujjatlar kiradi.

Özbekistonning inson huquqlari sohasidagi davlat siyosati inson huquqlari va erkinliklari buzilişi yoki biror tarzda çeklanişining oldini olişga qaratilgan. Siyosat ularni himoya qiliş uçun zarur taşkiliy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va axloqiy asoslarni yaratişni ham nazarda tutadi.

1995-1996-yillarda Özbekistonda inson huquqlarini himoya qiladigan ikkita mustaqil va samarali muassasa taşkil etilgan. Bular Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari böyiça vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari böyiça milliy markazdir. Keyingi yillarda Özbekiston Respublikasining turli vazirlik va idoralarida ham inson huquqlarini himoya qiladigan maxsus tuzilmalar yaratilgan.

17.1.1.7 “Xotin-qizlarni tazyiq va zöravonlikdan himoya qiliş töğrisida”gi Qonun (2019-yil)

Qonunda xotin-qizlarga qarşi zöravonlikning jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy şakllari belgilangan. Tazyiq va zöravonlikdan himoya qiliş şoşilinç iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, taşkiliy,

ruhiy va boşqa çoralar tizimi sifatida ta'riflangan. Bu tizim xotin-qizlarning hayoti va soğliğiga xavfni bartaraf etiş, ularning xavfsizligini ta'minlaş hamda ularga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlar takrorlanişining oldini olişga qaratilgan.

Boşqa tegişli qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Inson huquqlari böyiça milliy strategiya, Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-sonli farmoni bilan tasdiqlangan;
- "Xotin-qizlar va erkaklar uçun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari töğrisida"gi Qonun (2019-yil);
- "Mediatsiya töğrisida"gi Qonun (2018-yil);
- "Jamoatçilik nazorati töğrisida"gi Qonun (2018-yil); hamda
- "Ma'muriy tartib-taomillar töğrisida"gi Qonun (2018-yil).

17.1.2 Kreditor talablari

XMK/IFC

XMK/IFCning quyidagi tegişli faoliyat standartlari loyihaning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarini aniqlaş hamda tegişli sohalarda hisobga olişga qaratilgan:

- XMK/IFCning FS2/PS2 talabi: mehnat va iş şaroitlari;

XMK/IFCning mehnat va iş şaroitlariga oid FS2/PS2 talabi quyidagi konvensiyalarga rioya etişni talab qiladi:

- XMT/ILOning Majburiy mehnat töğrisidagi 29-sonli konvensiyasi;
- XMT/ILOning Birlaşiş erkinligi va birlaşiş huquqini himoya qiliş töğrisidagi 87-sonli konvensiyasi;
- XMT/ILOning Birlaşiş va jamoaviy muzokaralar olib boriş huquqi töğrisidagi 98-sonli konvensiyasi;
- XMT/ILOning Teng haq tölaş töğrisidagi 100-sonli konvensiyasi;
- XMT/ILOning Majburiy mehnatni tugatiş töğrisidagi 105-sonli konvensiyasi;
- XMT/ILOning Mehnat va kasb sohasida kamsitiş töğrisidagi 111-sonli konvensiyasi;
- XMT/ILOning Işga qabul qilişdagi eng kiçik yoş töğrisidagi 138-sonli konvensiyasi, unda eng kiçik yoş 15 yoş etib belgilangan;
- XMT/ILOning Bolalar mehnatining eng yomon şakllari töğrisidagi 182-sonli konvensiyasi;
- BMT/UNning Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyasi, 32.1-modda; hamda
- BMT/UNning Barça mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qiliş töğrisidagi konvensiyasi.

Inson huquqlariga oid:

- ET/EP IV talablariga muvofiq, BMT/UNning inson huquqlari böyiça yöriqçi tamoyillari (IHYT/HRGP) loyihaga qöllanadi. IHYT/HRGPning "Korporativ tuzilmalarning inson huquqlarini hurmat qiliş mas'uliyati"ga oid II qismida inson huquqlarini hurmat qiliş tadbirkorlik subyektlari va korporatsiyalarning mas'uliyati ekani tan olingan. Bu, qayerda faoliyat yuritişidan qat'i nazar, barça korxonalardan kutiladigan xulq-atvorning umumjahon standartidir. U davlatlarning inson huquqlariga oid majburiyatlarini bajariş qobiliyati yoki istagidan qat'i nazar amal qiladi va bu majburiyatlarni kamaytirmaydi.

<u>XMK/IFCning quriliş sohasida JAZT/GBVH böyiça yöriqnomasi:</u>

JAZT/GBVHni baholaş, uning oldini oliş, muntazam kuzatiş va unga javob beriş çoralari quyidagi tamoyillarga asoslanişi kerak:

- *Jabrlanuvçi manfaatlarini markazga qöyadigan yondaşuv:* JAZT/GBVHdan jabrlangan şaxslarning huquqlari doimo ustuvor bölişi kerak. Ular

JAZT/GBVHni baholaş, uning oldini oliş, muntazam kuzatiş va unga javob berişga oid barça qarorlar uçun boşlanğiç nuqta bölişi lozim.

- *Xavfsiz yondaşuv:* JAZT/GBVHdan jabrlanganlar, guvohlar, xabar berganlar va muammoni hal etişga intilganlar öç oliş xavfiga duç kelişi mumkin. Bunga öz hukmron mavqei şubha ostiga olinişini istamaydigan şaxslarning tahdidi yoki zöravonligi kiradi. Kompaniyalar JAZT/GBVHga uçragan, unga guvoh bölgan yoki bu haqda xabar bergan şaxslarning xavfsizligini ustuvor deb bilişi kerak.
- *Şaroitga mos yondaşuv:* Barça çoralar mahalliy şaroitni atrofliça tuşunişga asoslanişi kerak. Sarmoyadorlar va kompaniyalar huquqiy hamda ijtimoiy şaroitni tuşunişi, şuningdek, mavjud qöllab-quvvatlaş mexanizmlarini aniqlaşi kerak.
- *Hamkorlikka asoslangan yondaşuv:* Kompaniyalar JAZT/GBVHning oldini oliş çoralari samaradorligini va kengroq qöllab-quvvatlaş imkoniyatini oşiriş uçun kompaniya içidagi hamda taşqarisidagi manfaatdor tomonlarning fikrini olişga intilişi kerak.
- *Qamrovli yondaşuv:* Kompaniyalar kamsitiş va çetlaştişga uçraydigan ayrim guruhlar JAZT/GBVH xavfiga köproq duç kelişini tan olişi kerak. Yuqori xavf ostidagi guruhlarga köp hollarda nogironligi bölgan şaxslar, yolğiz ota yoki onalar, muhojirlar, etnik ozçiliklar hamda jinsiy yönalişi yoki gender özligi böyiça ozçiliklar kiradi. Tizim JAZT/GBVH haqida xabar beriş mexanizmlariga oid yozma axborotdan foydalana olmaydigan savodsiz yoki yozma ma'lumotni tuşunişda qiynaladigan şaxslarni ham hisobga olişi kerak.
- *Birlaştirilgan yondaşuv:* JAZT/GBVHni baholaş, uning oldini oliş, muntazam kuzatiş va unga javob beriş jarayonlari hamda çoralari imkon qadar mavjud jarayonlar va boşqaruv tizimlariga kiritilişi kerak. Bular MMX/OHS, himoyani boşqariş tizimlari, atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv tizimi (AMIBT/ESMS), şuningdek, inson resurslari (IR/HR) siyosati va tartiblarini qamrab oladi.
- *Kamsitmaydigan yondaşuv:* Barça jabrlanuvçilar tinglanişi va ularga teng munosabatda bölinişi, iş joyida esa turfa-xillik qöllab-quvvatlanişi kerak.
- *Yetarli ma'lumotga asoslangan yondaşuv:* Kompaniyalar oldini oliş va javob çoralarini işlab çiqişda tegişli mutaxassislarning bilimiga tayanişi kerak. Şikoyat mexanizmi va tekşiriş tartiblari mahalliy şaroitga mos, maqsadga muvofiq va xavfsiz tarzda işlab çiqilişi kerak.

Yöriqnomaga köra, JAZT/GBVH muammosini hal etiş quyidagi foydalarni beradi:

- Xodimlarning jismoniy va ruhiy farovonligini yaxşilaydi hamda MMX/OHSni mustahkamlaydi.
- Kompaniyalar, sarmoyadorlar va quriliş pudratçilarini obröga zarar yetişi, moliyaviy xavflar hamda huquqiy javobgarlikdan himoya qiladi.
- Mahallalar bilan aloqalarni yaxşilaydi va faoliyat uçun jamoatçilik qöllovini şakllantiradi. Bunga loyiha bilan boğliq JAZT/GBVH xavflarini tuşuniş va muntazam kuzatişga qaratilgan muloqot, şuningdek, JAZT/GBVHning oldini oliş va unga javob beriş çoralaridan samarali foydalaniş orqali erişiş mumkin.
- Kompaniyalar jalb qilişi mumkin bölgan xodimlar doirasini kengaytiradi. Bu doiraga, jumladan, JAZT/GBVH xavfi pastroq deb qabul qilinadigan yaqin mahallalarda yaşovçi ayollar ham kiradi.

YTTB/EBRD

YTTB/EBRDning mehnat va iş şaroitlariga oid AMIT2/ESR2 talabi quyidagi asosiy maqsadlarni belgilaydi:

- Xodimlarga oid asosiy tamoyil va huquqlarni hurmat qiliş hamda himoya qiliş;
- Xodimlarga adolatli munosabatda böliş, kamsitişga yöl qöymaslik va teng imkoniyatlarni qamrab oladigan munosib mehnat kun tartibini ilgari suriş;
- Xodimlar bilan boşqaruv örtasida soğlom munosabatlarni yaratiş, saqlaş va yaxşilaş;
- Buyurtmaçi iştirokçi bölgan har qanday jamoaviy bitimlarga, milliy mehnat va bandlik qonunlariga rioya qilişni rağbatlantiriş;
- Xodimlarning xavfsizligi va soğliğini himoya qiliş hamda qöllab-quvvatlaş, ayniqsa, xavfsiz va soğlom mehnat şaroitlarini rağbatlantiriş; hamda
- Loyiha faoliyati bilan boğliq hollarda XMT/ILO belgilagan majburiy mehnat va bolalar mehnatidan foydalanişning oldini oliş.

Xodimlar uçun maxsus ajratilgan turar joylarga oid quyidagi hujjatga rioya qiliş kerak:

- XMK/IFC va YTTB/EBRDning “Xodimlar turar joylari: jarayonlar va standartlar” hujjati (2009-yil).

Inson huquqlariga oid:

- YTTB/EBRDning Atrof-muhit va ijtimoiy siyosatiga muvofiq, bank özi moliyalaştiradigan loyihalarda inson huquqlarini hurmat qiliş majburiyatini olgan. YTTB/EBRD, şuningdek, Inson huquqlari töğrisidagi xalqaro bill hamda XMT/ILOning sakkizta asosiy konvensiyasiga amal qiladi.

17.2 Boşlanğiç holat

17.2.1 Özbekistonda quriliş sohasi mehnati

Özbekiston sönggi ön yilliklarda xususiy sektor korxonalarining kengayişi va bozor iqtisodiyotiga ötişga qaratilgan izçil siyosiy islohotlar tufayli barqaror iqtisodiy rivojlanişga erişdi. Mamlakat işçi kuçi yiliga 350 000-370 000 kişiga ösgan. Bundan taşqari, iş va ta’lim qişloq aholisining katta qismini şaharlarga, ayniqsa, Toşkent va Andijonga jalb qiladi. Kundalik qatnov qişloq va şahar jamoalari örtasidagi aloqalarni yaxşilaş bilan birga, qişloq aholisi bandligi va madaniyatiga ham ta’sir qilişi qayd etilgan.

Quriliş qişloq xöjaligi va işlab çiqariş bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotga katta hissa qöşadigan va köp mehnat talab qiladigan yetakçi tarmoqlardan biridir. Turli faoliyatlarni qamrab oladigan xizmatlar tarmoği esa iş örinlari yaratişda eng katta salohiyatga ega. Quriliş, qişloq xöjaligi va sanoat kiçik hamda örta korxonalarda band işçi kuçinin qariyb 60 foizini qamrab oladi, qolgan qismi xizmatlar sohasida band. Mamlakatning quriliş va boşqa tarmoqlaridagi norasmiy işçi kuçinin asosiy demografik guruhlarini erkaklar, qişloq aholisi va ta’lim darajasi nisbatan past xodimlar taşkil etadi. Jinslar böyiça taqsimotga köra, quriliş erkaklar bandligi böyiça ikkinçi yirik tarmoq bölib, mamlakatdagi işlovçi erkaklarning 25 foizi bu sohada band. Aksinça, mamlakatdagi işlovçi ayollarning atigi 0,6 foizi quriliş sohasida işlaşi aniqlangan (Anderson va boşqalar, 2020-yil).

17.2.2 Bandlik, migratsiya va tirikçilik manbalaridagi özgarişlar

Özbekiston mehnat bozori va migratsiya yönalişlari iqtisodiyotdagi davomli tarkibiy özgarişlarni aks ettiradi. Ular mamlakat içidagi bandlik siljişlari va işçi kuçinin sezilarli taşqi harakatçanligi ta’sirida şakllanmoqda. Mehnat bozoriga oid sönggi rasmiy kuzatuv ma’lumotlari asosiy iqtisodiy tarmoqlarda böş iş örinlari köpayganini körsatadi. E’lon qilingan iş örinlarining katta qismi savdo, umumiy ovqatlaniş va işlab çiqariş hissasiga töğri keladi. 2025-yilda korxonalar e’lon qilgan böş iş örinlari soni oldingi yilga nisbatan köpaydi. Nominal va real iş haqi ham ösib, uçinçi çorakda örtaça oylik iş haqi 6 million sömdan oşdi. Muhojir

xodimlar yuboradigan pul ötkazmalari ham keskin ösgan. Bu taşqi daromadlar xonadonlar uçun hanuz muhimligini körsatadi.[92]

Özbekistonda rasmiy va norasmiy bandlik şakllari tobora xilma-xillaşmoqda. Işsizlik darajasi asta-sekin pasaygan bölsa-da, ayniqsa, qişloq xöjaligi, çakana savdo va şaxsiy xizmatlar sohasida köp xodimlar hanuz norasmiy yoki özini özi band qiliş asosida işlaydi. Özini özi band qilganlar soni ham ösmoqda. Şahar markazlari va rivojlanayotgan xizmat tarmoqlarida iş örinlari yaratişi mamlakat içidagi bandlikni qöllab-quvvatlaydi. Biroq davomli mavsumiy tebranişlar va malakalarning talabga mos kelmasligi mehnat bozoriga kirayotgan köp kişilarning imkoniyatlarini çeklaydi.

Özbekiston Markaziy Osiyoda mehnat muhojirlari eng köp çiqadigan mamlakatlardan biridir. Sönggi hisob-kitoblarga köra, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida 2,3 milliondan ortiq Özbekiston fuqarosi xorijda işlaş uçun mamlakatdan çiqib ketgan. Bu oldingi yilning ayni davriga nisbatan 4 foizga köp. Uşbu mehnat muhojirlarining 90 foizdan ortiği kam sonli manzil davlatlarda töplangan. Biroq ikki tomonlama bandlik bitimlari kengaygani sari migratsiya yönalişlari Yevropa Ittifoqi, Şarqiy Osiyo va Yaqin Şarq mamlakatlari tomon ham xilma-xillaşmoqda. Keng kölamli mehnat migratsiyasi Özbekistondagi tirikçilik manbalariga turliça ta'sir qiladi. Bir tomondan, muhojirlarning xorijdan oladigan daromadi xonadonlar daromadini oşiradi, iste'molni bir maromda saqlaşga yordam beradi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qöşadi. Ikkinçi tomondan, taşqi migratsiyaning yuqori darajasi mamlakatdagi malakali xodimlar yetişmovçiligini kuçaytirişi va, ayniqsa, kasbiy hamda texnik malaka talab qilinadigan muhim iqtisodiy tarmoqlarda xodimlar mavjudligini çeklaşi mumkin. Bu holat mahalliy bandlik strategiyalariga hamda taşqi mehnat harakatçanligini içki mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvozanatlaş çoralariga ta'sir qiladi.

Quyi Çirçiq tumanining Beruniy va Surum mahallalarida ötkazilgan maqsadli guruh muhokamalari taşqi migratsiya, norasmiy bandlik va mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarning çeklanganligi sababli tirikçilik manbalari beqaror bölib qolayotganini körsatadi.

Beruniy mahallasidagi iştirokçilar mehnatga layoqatli erkaklarning, asosan, Koreya va Rossiyaga sezilarli darajada köçib ketayotganini bildirgan. Ular bu mamlakatlarda köp hollarda quriliş va boşqa qöl mehnati bilan band. Muhojir xodimlarning pul ötkazmalari xonadon daromadining muhim manbai bölsa-da, bandlik beqaror va mavsumiy deb ta'riflangan. Xorijdagi iş imkoniyatlari kamayib, muhojirlar qişda qaytadigan davrlarda xonadonlarning moliyaviy qiyinçiliklari kuçayişi qayd etilgan. Maqsadli guruh muhokamasida hududga kelgan mavsumiy yoki muhojir xodimlarning mahalliy ijtimoiy yoxud iqtisodiy jarayonlarga ta'siri aniqlanmagan.

Har ikki mahallada ötkazilgan maqsadli guruh muhokamalarida barqaror mahalliy iş bilan ta'minlanişga tösqinlik qiladigan bir neçta omil aniqlangan. Ular quyidagilardan iborat:

- Bozor talabiga mos kasbiy va texnik malakalarning yetişmasligi
- Parvariş majburiyatlari, ayniqsa, xotin-qizlarning bandlik imkoniyatlariga ta'sir qilişi
- Mahalladan taşqaridagi iş örinlaridan foydalanişni çeklaydigan transport muammolari
- Elektron auksionlar va internetdagi iş platformalari kabi yangi imkoniyatlardan foydalanişni çeklaydigan raqamli savodxonlikning pastligi

Mahalla a'zolari mavjud iş örinlarini kam haq tölanadigan, norasmiy va beqaror işlar sifatida ta'riflagan. Bunday işlarda köp hollarda yozma şartnoma, ijtimoiy himoya yoki mehnat kafolatlari mavjud emas. Ayollar va asosiy parvarişlovçilar uy-rözğor majburiyatlari hamda harakatlaniş imkoniyati çeklanganligi sababli bir-birini kuçaytiradigan qiyinçiliklarga duç keladi. Bu ularning bandlik imkoniyatlarini yanada toraytiradi.

Surum mahallasida tirikçilik manbalari yaqin şaharlar va şahar markazlariga kundalik qatnov hamda qisqa muddatli mehnat migratsiyasiga tayanadi. Erkaklar odatda quriliş va vaqtinçalik qöl mehnatining boşqa turlarida band. Ayollar esa bir kunlik yoki vaqtinçalik xodim

[92] https://cbu.uz/en/press_center/releases/3218658/

sifatida ovqat tayyorlaş, tozalaş va xizmat körsatiş işlarida qatnaşadi. Bunday harakatçanlik zarur naqd daromadni ta'minlaydi, biroq taşqi talabdagi tebranişlarga juda boğliq. Şu sababli u daromad barqarorligini faqat çeklangan darajada ta'minlaydi.

Maqsadli guruh muhokamasi iştirokçilari migratsiya va qatnovning ijtimoiy oqibatlarini ham ta'kidlagan. Mehnatga layoqatli katta yoşdagilarning uzoq vaqt uyda bölmasligi bolalarni parvarişlaş va keksalarni qöllab-quvvatlaşda katta oila a'zolari hamda qöşnilarga boğliqlikni oşiradi. Bundan taşqari, yerga egalik va mulkiy huquqlarga oid davomli noaniqlik mahalliy tadbirkorlik yoki qişloq xöjaligini kengaytirişga sarmoya kiritişni susaytiradi. Bu esa taşqi bandlikka boğliqlikni kuçaytiradi.

Maqsadli guruh muhokamalarida hozirça hududga keluvçi muhojirlar yoki mavsumiy xodimlarning ta'siri aniqlanmagan. Biroq iştirokçilar tuman miqyosidagi tajribaga asoslanib, kelajakda loyiha bilan boğliq xodimlar oqimi oldindan boşqarilmasa, ijara uy-joylari, xizmatlar va mahalliy infratuzilmaga bosim yaratişi mumkinligini qayd etgan. Bu topilmalar tirikçilik manbalarining mavjud beqarorligini körsatadi. Ular, şuningdek, loyihaning keyingi bosqiçlarida loyiha bilan boğliq mehnat va mahalla örtasidagi munosabatlarni baholaş uçun muhim şaroitni tavsiflaydi.

17.2.3 Bandlik amaliyoti va iş şaroitlari

Özbekistonda iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi mehnat va iş şaroitlariga oid jamoatçilik uçun oçiq ma'lumotlar hanuz çeklangan. Şunga qaramay, mamlakat paxta yetiştiriş sohasidagi mehnat şaroitining muhim jihatlarini yoritadigan adabiyotlar körib çiqildi.

Özbekistonda paxta yetiştiriş hanuz dunyoda xodimlar mehnatidan eng köp nohaq foydalaniladigan faoliyat turlaridan biri sifatida qayd etiladi. Mamlakat paxta maydonlarining qariyb 90 foizida paxta qölda teriladi va ularning aksariyatida majburiy mehnat qöllanadi. Paxta ağir iqlim şaroitida teriladi. ŞHV/PPE yetarli ta'minlanmagani sababli xodimlar pestitsidlar, gerbitsidlar va defoliantlar kabi xavfli qişloq xöjaligi kimyoviy moddalariga duç keladi. Yollanma xodimlar juda uzoq işlaşga majbur qilinadi, ularga haftalik va oylik dam oliş kunlari juda kam beriladi yoki umuman berilmaydi. Terim mavsumida xodimlar xöjalik hududidagi inşootlarga joylaştiriladi. Uşbu inşootlarning aksariyatida suv ta'minoti, havoni mötadillaştiriş, oziq-ovqat, aloqa va tibbiy xizmat kabi zarur şaroitlar mavjud emas (Markaziy Osiyoda inson huquqlari uyuşmasi, 2010-yil).

Köp xodimlar rasman töliqsiz iş vaqti asosida yoki kam daromadli işlarda band bölgan, ularning köpçiligi esa norasmiy ravişda işlaşda davom etgan. 2021-yil aprelda XVJ/IMF norasmiy sektorda işçi kuçinin taxminan 40 foizi bandligini va bu sektor yalpi içki mahsulotning uçdan bir qismini işlab çiqarişini baholagan. Hukumat iqtisodiyotning katta qismini norasmiy sektordan rasmiy sektorga ötkaziş hamda norasmiy xodimlarga mehnat va ijtimoiy himoya taqdim etişga harakat qilgan. Oldingi yillarda mehnat inspektorlari soni oşirilganiga qaramay, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida talablarga rioya etilişini ta'minlaş hamda norasmiy sektordagi köp qonunbuzişliklarning oldini oliş uçun yetarli xodim bölmagan. Eng köp uçraydigan qonunbuzişliklar şartnomasiz işlaş, e'lon qilinganidan kam haq oliş, tölovlarning keçiktirilişi hamda sanitariya yoki gigiyena talablariga javob bermaydigan mehnat şaroitlaridan iborat bölgan.

17.2.4 Majburiy mehnat

AQŞ Davlat departamentining Odam savdosi töğrisidagi eng sönggi hisobotiga köra, Özbekiston odam savdosiga barham beriş böyiça eng kam standartlarga hali töliq rioya etmaydi. Şunga qaramay, mamlakat bu standartlarni bajariş yönalişida sezilarli siljiş qilgan. 2019-yilda odam savdosidan jabrlangan 95 kişi qayd etilgan, ularning 89 nafari jinsiy maqsadda nohaq foydalaniş qurboni bölgan. Jabrlanuvçilarning aksariyatidan xorijda nohaq foydalanilgan, 15 nafari esa mamlakat içida nohaq foydalaniş qurboni bölgan. Hisobotda Özbekiston talabalar, öqituvçilar va tibbiyot xodimlarini har yilgi paxta terimiga tizimli jalb qilişni tugatgani hamda xalqaro mustaqil uçinçi tomon kuzatuvçilarining tösiqsiz muntazam kuzatiş olib borişiga imkon yaratgani ta'kidlangan. Özbekiston Içki işlar vazirligining 2017-yilgi ma'lumotiga köra, odam savdosidan jabrlangan 501 kişinin 303 nafari ayol, 198 nafari erkak, 61 nafari esa bola bölgan. 2018-yilda jabrlanuvçilar orasida 147 ayol, 103 erkak va 41 bola

qayd etilgan. 2019-yilda odam savdosidan jabrlanganlar orasida esa 87 ayol, 3 erkak va 35 bola bölgan.

2019-yil iyulda Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş tizimini yanada takomillaştirişga oid qöşimça çora-tadbirlar töğrisida”gi farmoni kuçga kirdi. Farmon Odam savdosiga qarşi kuraşiş böyiça Respublika idoralararo komissiyasini Senat raisi rahbarlik qiladigan Milliy komissiyaga aylantirdi. Komissiya tarkibidagi ikki quyi komissiyaga Içki işlar vazirligi va Bandlik vazirligi rahbarlik qiladi. Mamlakatning har bir hududida hududiy komissiyalar taşkil etildi, keyinçalik esa milliy ma’ruzaçi tayinlandi.

2020-yil avgustda odam savdosi töğrisidagi 2008-yilgi qonunga özgartirişlar kiritildi. Bu özgarişlar yangi tuşunçalar va oldini oliş çoralarini, şuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarni, jumladan, voyaga yetmaganlarni hamda ularning huquqlarini aniqlaş tartibini joriy etdi. Qonunda soha siyosatining asosiy yönalişlari, odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça Milliy hamda hududiy komissiyalarning maqomi, şuningdek, Vazirlar Kengaşining vakolatlari aniq belgilangan. Tegişli davlat idoralari qatoriga Boş prokuratura va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi kiradi. Qonunçilikka odam savdosining oldini olişga bağişlangan yangi bob ham kiritilgan. Undagi çoralar xavfli vaziyatlarni muntazam kuzatiş va ular haqida xabardorlikni oşiriş, şuningdek, davlat hamda xususiy ta’lim muassasalari uçun ta’lim dasturlarini işlab çiqiş va amalga oşirişni qamrab oladi. Içki işlar vazirligi odam savdosi jinoyatlari böyiça yagona ma’lumotlar bazasini yaratadi. Unda odam savdosi bilan şuğullanuvçilar, jabrlanuvçilar va odamlardan nohaq foydalanişning turli şakllari haqidagi ma’lumotlar jamlanadi. Yangi qonun odam savdosidan jabrlanganlarni aniqlaşning ikki bosqiçli tartibini ham joriy etadi. Odam savdosidan jabrlangan deb e’tirof etilgan şaxslar Hududiy komissiya ötkazgan yakuniy tekşiriş natijasiga muvofiq reabilitatsiya va ijtimoiy moslaştiriş dasturlaridan foydalaniş huquqiga ega böladi (AQŞ Davlat departamenti, 2021-yil).

17.2.5 Bolalar mehnati

2019-yilda Özbekiston bolalar mehnatining eng yomon şakllariga barham berişda sezilarli siljiş qilgan. Hukumat paxta terimida bolalar mehnatidan foydalanişning oldini oliş uçun faol çoralar körgan. Jumladan, xavfli işlar taqiqini takroran buziş uçun jinoiy javobgarlik joriy etilgan, mehnat inspektorlari soni ikki baravar oşirilgan, bolalar mehnatiga oid qonunlar va ularni buziş uçun jazolar haqida keng axborot kampaniyasi ötkazilgan. Hukumat, şuningdek, Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça yangi Milliy komissiyani taşkil etgan hamda odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşişning yangi yöl xaritasini qabul qilgan. Biroq Özbekistonda ayrim voyaga yetmaganlar bolalar mehnatining eng yomon şakllariga duçor qilinadi, jumladan, ulardan tijoriy jinsiy maqsadlarda foydalaniladi. Hukumat barça tegişli sohalarda jiddiy çoralar körganiga qaramay, bolalardan tijoriy jinsiy maqsadlarda foydalanişni taqiqlovçi qonunlar xalqaro standartlarga javob bermaydi. Bundan taşqari, Özbekistonda paxta yetiştirişdan boşqa sohalarda bolalar mehnatining tarqalişini aniqlaydigan umummilliy tadqiqot ötkazilmagan.

YUNESKO/UNESCO hamda XMT/ILO ötkazgan tadqiqotlar Özbekistondagi bolalarning qariyb 5 foizi öqiş bilan birga mehnat faoliyatiga jalb qilinganini, 4,3 foizi esa töliq iş bilan bandligini körsatgan. Tadqiqotlarga köra, 18 yoşga tölmagan bolalar asosan qişloq xöjaligi va xizmat körsatiş tarmoqlarida işlaydi. Şuningdek, bolalardan mamlakatlararo va mamlakat içidagi odam savdosi orqali foxişaxonalar, klublar hamda xususiy turar joylarda jinsiy maqsadlarda foydalanilgani aniqlangan. Muassasalarda yaşaydigan bolalar ham bunday odam savdosiga nisbatan zaif ekani körsatilgan. Quyidagi jadvalda Özbekistonda voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalaniladigan sohalar va faoliyat turlari umumlaştirilgan.

17.1-jadval. Özbekistonda bolalar mehnatidan foydalaniladigan sohalar va faoliyat turlari

Mehnat sohasi yoki toifasi	Faoliyat
Qişloq xöjaligi	- Ipak qurti pillalarini yetiştiriş; - Ekin ekiş uçun yerni tayyorlaş.

Mehnat sohasi yoki toifasi	Faoliyat
Xizmatlar	- Savdo qiliş; - Avtomobil yuviş; - Metall parçalarini yiğiş; - Maktab hududi va inşootlarini ta'mirlaş; - Bozorlarda savdo qiliş.
Bolalar mehnatining qat'iy taqiqlangan eng yomon şakllari	- Bolalardan tijoriy jinsiy maqsadlarda foydalaniş, ba'zan odam savdosi oqibatida; - Ipak qurti pillalarini yetiştirişdagi majburiy mehnat; - Quriliş, paxtadan boşqa qişloq xöjaligi işlari hamda boğlar, köçalar va binolarni tozalaşdagi majburiy mehnat.

Qişloq xöjaligida, ayniqsa, paxta yetiştirişda bolalar mehnatidan foydalanişga kelsak, Özbekiston hukumati 2020-yilda mamlakatning ayrim hududlarida paxta yetiştirişni tartibga solgan majburlovga asoslangan kvota tizimini bekor qilgan. Avvalgi tizimda viloyat va mahalliy mansabdor şaxslardan fermerlar belgilangan işlab çiqariş maqsadlariga erişişi uçun yetarli işçi kuçini safarbar etiş talab qilingan. Bunda bolalar ağir mehnat şaroitidagi işlarga jalb qilingan. Paxta xöjaligida bolalar mehnatining saqlanib qolgan körinişlari yordamçi işlar bilan boğliq: katta yoşdagi bolalar xonadon daromadini töldiriş uçun hosil yiğişga yordam beradi (Özbekistondagi AQŞ elçixonasi, 2022-yil).

Quyidagi jadvalda Özbekistonda bolalar mehnatiga barham berişga qaratilgan davlat çoralarini muvofiqlaştiruvçi asosiy mexanizmlar umumlaştirilgan.

17.2-jadval. Özbekistonda bolalar mehnatiga barham beriş böyiça davlat çoralarini muvofiqlaştiriş mexanizmlari

Mexanizm	Vazifalari
Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça Milliy komissiya (Milliy komissiya)	- Davlat va mahalliy idoralarning odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş çoralarini muvofiqlaştiradi; - Odam savdosi va majburiy mehnat muammosini hal etişga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligini tahlil qiladi va kuzatadi; - Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça xalqaro hamkorlikni taşkil etadi; - Davlatning bu sohalardagi çoralarini yaxşilaşga qaratilgan huquqiy va siyosiy tavsiyalar beradi. Komissiyaga Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça Milliy ma'ruzaçi raislik qiladi. Komissiya odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça ikkita alohida quyi komissiyadan iborat. Içki işlar vaziri Odam savdosiga qarşi kuraşiş quyi komissiyasiga, Mehnat vaziri esa Majburiy mehnatga qarşi kuraşiş quyi komissiyasiga rahbarlik qiladi. 2019-yilda Milliy komissiya odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş yöl xaritasini, paxta terimi yöl xaritalarini, xalqaro taşkilotlar bilan hamkorlik milliy rejasini hamda axborot vositalari rejasini işlab çiqib, qabul qilgan.
Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça Milliy ma'ruzaçi (Milliy ma'ruzaçi)	Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça Milliy komissiyaga raislik qiladi. - Odam savdosi va majburiy mehnat masalalari, davlatning aybdorlarni jazolaş çoralari hamda odam savdosi va majburiy mehnat jinoyatlaridan jabrlanganlarga körsatiladigan xizmatlar haqida Prezidentga har yili hisobot beradi. - Odam savdosi va majburiy mehnatga oid jamoatçilik xabardorligini oşiriş tadbirlarini ötkazadi. (35) 2019-yilda Milliy ma'ruzaçi Milliy komissiya yiğilişlarini har oy ötkazgan.

Mexanizm	Vazifalari
Odam savdosi va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça mahalliy komissiyalar (Mahalliy komissiyalar)	- Odam savdosi va majburiy mehnatga oid barça qonun va me'yoriy hujjatlar, jumladan, Milliy komissiya çiqargan hujjatlarning öz vaqtida va qat'iy bajarilişini ta'minlaydi. Mahalliy komissiyalar Milliy komissiya tuzilmasiga mos bölib, odam savdosiga va majburiy mehnatga qarşi kuraşiş böyiça alohida quyi komissiyalardan iborat. Ularga viloyat hokimi raislik qiladi va ular Milliy komissiyaga har oy hisobot beradi.

Loyiha ta'sir hududidagi tanlangan mahallalarda ötkazilgan maqsadli guruh muhokamalari bolalar mehnati va majburiy mehnat amaliyotlari haqida ma'lumot beradi. Örta Çirçiq tumanining Yangiyöl mahallasidagi iştirokçilar bolalar mehnati yoki majburiy mehnat holatlari mavjud emasligini bildirgan. Ularning fikriça, bolalarning asosiy vazifasi ta'lim olişdir. Quyi Çirçiq tumanining Sergeli mahallasidagi xonadonlar ham bunday holatlar bölmaganini bildirgan. Ular bolalarga bugungi işçi kuçi sifatida emas, balki kelajakda jamiyatga hissa qöşadigan avlod sifatida qaralişini, köp tilli maktab şaroitida ham maktabga qatnaş ustuvorligini ta'kidlagan. Aksinça, Quyi Çirçiq tumanining Kuşek mahallasida bolalarning uy işlari va çorvaçilikda keng qatnaşişi aniqlangan. Bolalar köp hollarda haq tölanmaydigan işlarni bajaradi, bu esa dars qoldiriş va ta'lim natijalarining pasayişiga olib keladi. Bunday amaliyotlar jamiyatda odatiy hol deb qabul qilinadi, bolalar huquqlarini himoya qiladigan rasmiy mexanizmlar esa deyarli mavjud emas. Bundan taşqari, çorvaçilik uçun imtiyozli kredit olgan ayollar hayvonlarni parvarişlaşni köp hollarda bolalariga topşiradi. Natijada voyaga yetmaganlarning mehnat yuki oşadi. Umuman olganda, maqsadli guruh muhokamalari mahallalar örtasida sezilarli farqlar borligini körsatadi. Ayrim mahallalarda ta'limga katta ustuvorlik beriladi va bolalar mehnati kam uçraydi. Boşqa mahallalarda esa bolalar mehnati odatiylaşgan bölib, bu holat ta'limga va bolalar huquqlariga salbiy ta'sir qilişi mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar va maqsadli guruh muhokamalarida loyiha hududida paxta yetiştiriş bilan boğliq tizimli bolalar mehnati mavjudligini körsatadigan dalillar aniqlanmagan yoki tasdiqlanmagan. Natijalar ayrim mahallalarda bolalar qişloq xöjaligi yoki uy işlarida boşqa mahallalardagiga qaraganda köproq qatnaşişi va bu ayrim hollarda maktabga qatnaşga xalal berişi mumkinligi haqidagi manfaatdor tomonlar fikrlarini aks ettiradi. Bu ma'lumotlar bolalar mehnati amaliyotining tasdiği sifatida emas, mavjud ijtimoiy şaroit haqidagi ma'lumot sifatida körib çiqilgan.

17.2.6 MMX/OHS

Xususiy sektor iş beruvçilari orasida eng köp uçragan qonunbuzişlar iş haqi, qöşimça iş vaqti hamda MMX/OHS standartlari bilan boğliq bölgan. Me'yoriy hujjatlarda iş joyi xavfsizligi standartlari belgilanganiga qaramay, ayrim xavfli iş joylarida xodimlar zarur himoya kiyimi va uskunalarisiz işlagani bildirilgan. Mehnat xavfsizligi buzilişlari keng tarqalgan tarmoqlar haqida batafsil ma'lumot mavjud bölmagan. Xavfli şaroitlarda yoki zarur xavfsizlik uskunalarisiz işlagan muayyan xodimlar guruhlari haqida ham batafsil ma'lumot bölmagan. 2020-yil martda mamlakat sanoat xavfsizligi standartlarini yaxşilaş uçun Mustaqil Davlatlar Hamdöstligining Sanoat xavfsizligi böyiça davlatlararo kengaşiga qoşilgan (AQŞ Davlat departamenti, 2021-yil).

17.3 Baholaş doirasini belgilaş

AMITB mehnat va iş şaroitlariga oid amaldagi talablar hamda ehtimoliy xavflarni körib çiqadi. U, şuningdek, quriliş va foydalaniş bosqiçlarida qöllanadigan Jinsga köra zöravonlik va tazyiq (JAZT/GBVH), jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol (JMF/SEA) hamda jinsiy tazyiq (JT/SH) bilan boğliq mexanizmlar va çora-tadbirlar rejalariga qöyiladigan talablarni qamrab oladi. Kreditorlar yöriqnomalariga rioya qiliş talablari ham hisobga olingan. Hisobotda loyiha xodimlari va asosiy ta'minot zanjirlaridagi bu xavflarning oldini oliş, ularni imkon qadar kamaytiriş hamda tegişli tarzda boşqariş çoralari belgilangan.

17.4 Ta’sir hududi va ta’sirni qabul qiluvçi obyektlar

17.4.1 Ta’sir hududi

Mehnat va iş şaroitlari böyiça ta’sir hududi loyiha bilan boğliq mehnatni boşqariş qarorlari, bandlik amaliyoti va xodimlar farovonligi çoralari qöllanadigan yoki ta’sir körsatadigan makoniy hamda taşkiliy doirani qamrab oladi. Bu hudud jismoniy quriliş işlari boşlanişidan oldingi davrni ham öz içiga oladi.

Ta’sir hududi quyidagilarni qamrab oladi:

- Toşkent viloyatining Örta Çirçiq va Quyi Çirçiq tumanlarida joylaşgan, *loyihani* rivojlantiriş uçun ajratilgan taxminan 1 300 gektarlik loyiha hududi.
- Loyihani tayyorlaş bilan boğliq, hududdan taşqaridagi idora va inşootlar. Bularga homiylarning loyihani boşqariş idoralari, umumiy foydalaniş tomoni işlari böyiça Larsen & Toubro kompaniyasining MXQ/EPC rejalaştiriş idoralari, şuningdek, tayinlanganidan keyin aerodrom tomoni böyiça MXQ/EPC pudratçisining idoralari kiradi.
- Quriliş bosqiçida xodimlar yollanişi mumkin bölgan hududlar, jumladan, Yangitoş kabi yaqin qişloqlar hamda kengroq hududiy yoki milliy mehnat bozorlari.
- Hozirgi bosqiçda körib çiqilayotgan, biroq hali aniqlanmagan yoki tasdiqlanmagan xodimlar turar joylari va yordamçi inşootlarning ehtimoliy manzillari. Ular quriliş paytida talab etilişi mumkin bölgan hududdan taşqaridagi har qanday uy-joy, lager yoki ijaraga olingan inşootlarni qamrab oladi. Bu manzillar aniqlanganidan keyin joy tanlaş, me’yoriy-huquqiy tasdiq va baholaşdan ötkaziladi.
- Quriliş boşlanganidan keyin xodimlarni yollaş, loyiha hududiga olib keliş va u yerdan olib ketişda foydalanilişi kutilayotgan transport yölaklari hamda yuk taşiş yönalişlari.

17.4.2 Ta’sirni qabul qiluvçi obyektlar

Quyidagi jadvalda mehnat va iş şaroitlariga oid ehtimoliy ta’sirlar doirasida atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni qabul qiluvçi obyektlar haqida umumiy ma’lumot berilgan.

17.3-jadval. Atrof-muhit va ijtimoiy ta’sirni qabul qiluvçi obyektlar: mehnat va iş şaroitlari

Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Kutilayotgan quriliş xodimlari, ya’ni malakali, yarim malakali va malakasiz xodimlar	**Örta**	Işga joylaştiriş şartlari, iş haqi, iş vaqti, MMX/OHS qoidalari hamda şikoyat mexanizmlaridan foydalaniş imkoniyati qurilişdan oldingi bosqiçda belgilanadi. Bu bosqiçdagi qarorlar quriliş paytida xodimlar farovonligiga bevosita ta’sir qiladi.
Yaqin qişloqlar, jumladan, Yangitoş qişloğidagi mahalliy iş izlovçilar	**Örta**	Mahalliy aholi yangi iş örinlari yaratilişini kutişi mumkin. Şaffof mahalliy yollaş tartiblari oldindan belgilanmasa, ayrim şaxslar iş imkoniyatlaridan çetda qolişi, norasmiy yollaş amaliyoti paydo bölişi yoki iş örinlaridan teng foydalaniş tamoyili buzilişi mumkin. Şu sababli mahalliy iş izlovçilar bandlik imkoniyatlaridan çetda qoliş xavfi bölgan guruh hisoblanadi.
Muhojir va mahalliy bölmagan xodimlar	**Yuqori**	Muhojir xodimlar şartnoma, turar joy, transport va ma’lumot oliş masalalarida iş beruvçiga boğliq bölgani sababli, odatda, köproq zaif böladi. Qurilişdan oldingi yollaş siyosati va mehnat standartlari xodimlar mehnatidan nohaq foydalanişning oldini oliş hamda adolatli munosabatni ta’minlaşda juda muhim.
Pudratçilar va quyi pudratçilar orqali yollangan xodimlar	**Yuqori**	Mehnat şaroitlari pudratçiga qarab farq qilişi mumkin. Qurilişdan oldingi bosqiçda aniq şartnomaviy mehnat talablari belgilanmasa, iş haqi va MMX/OHS standartlarining turli dara-

Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
		jada qöllanişi, şuningdek, xodimlar huquqlarining bir xil ta’minlanmasligi bilan boğliq xavflar yuzaga kelişi mumkin.
Yordamçi va qöşimça xizmatlar xodimlari, ya’ni qöriqlaş, ovqat tayyorlaş, transport va tozalaş xodimlari	**Örta**	Bu xodimlar köp hollarda uçinçi tomon xizmat körsatuvçilari orqali yollanadi. Mehnat talablari aniq belgilanmasa, ular iş örnining barqarorligi, iş vaqti va şikoyat mexanizmlaridan foydalaniş bilan boğliq yuqoriroq xavflarga duç kelişi mumkin.
Zaif xodimlar guruhlari, masalan, yoş, malakasi past va vaqtinçalik xodimlar	**Yuqori**	Zaif guruhlarning muzokara olib boriş kuçi va öz huquqlaridan xabardorligi çeklangan bölişi mumkin. Ularning öz huquqlari va tegişli siyosatlardan xabardor bölişi kamsitiş, xavfli mehnat şaroitlari hamda adolatsiz işga joylaştiriş amaliyotlaridan himoyalanişda muhim örin tutadi.

17.5 Ta’sirlar, ularning oldini oliş va kamaytiriş, boşqaruv hamda qoldiq ta’sirlar

17.5.1 Quriliş bosqiçi

17.5.1.1 MMX/OHS

Loyiha qurilişi yirik kölamli aviatsiya infratuzilmasiga xos bir qator yuqori xavfli faoliyatni qamrab oladi. Bunga yirik kölamli yer va qaziş işlari, ağir uskuna hamda maşinalardan foydalaniş, yuk kötariş, vaqtinçalik inşootlarni barpo etiş, konstruksiya işlari, beton va pölat konstruksiyalarni örnatiş kiradi. Bundan taşqari, elektr hamda mexanik tizimlarni örnatiş, yoqilği va kimyoviy moddalar bilan işlaş, transport vositalari harakati, balandlikda va berk joylarda işlaş, olovli işlar hamda işga tuşiriş ham yuqori xavf tuğdiradi.

Loyihaning kölami va murakkabligi turli MMX/OHS xavflarini yuzaga keltiradi. Qurilişning eng qizğin paytida taxminan 5 000 nafar xodim işlaşi, bir neçta MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar va ixtisoslaşgan yetkazib beruvçilar bir vaqtda faoliyat yuritişi kutiladi. Turli pudratçilar işini özaro muvofiqlaştiriş, xodimlar malakasidagi farqlar, til tösiqlari, xavfsizlik amaliyotining bir xil emasligi hamda murakkab va özaro boğliq quriliş jarayonlarini boşqariş zarurati bu xavflarni yanada oşirişi mumkin.

Quriliş paytida kutiladigan asosiy MMX/OHS xavflari quyidagilardan iborat:

- Yuqori xavfli quriliş işlari bilan boğliq jarohatlar, jumladan, balandlikdan yiqiliş, buyumlar urilişi, eziliş, şuningdek, yuk kötariş va ağir maşinalardan foydalaniş paytidagi jarohatlar;
- Faol quriliş hududlarida quriliş transporti, ağir uskunalar va xodimlar harakati özaro kesişişidan kelib çiqadigan yöl-transport hodisalari;
- Yoqilği, moylaş materiallari, erituvçilar, böyoqlar, beton qöşimçalari va boşqa quriliş kimyoviy moddalarining ta’siriga uçraş;
- Vaqtinçalik elektr ta’minoti tizimlari, elektr qurilmalari, sinov va işga tuşiriş faoliyati bilan boğliq elektr xavflari;
- Yoqilğini saqlaş, olovli işlar, vaqtinçalik inşootlar va quriliş faoliyati bilan boğliq yonğin hamda portlaş xavflari;
- Çang, şovqin, tebraniş, issiqlik zöriqişi, ergonomik xavflar va çarçoq bilan boğliq kasbiy soğliq xavflari;
- Katta quriliş hududida yonğin, şoşilinç tibbiy holat, keskin ob-havo yoki yirik hodisaga samarali javob beriş imkoniyati çeklanişi bilan boğliq favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik xavflari.

Loyiha Özbekistonning MMX/OHSga oid me’yoriy-huquqiy doirasi asosida amalga oşiriladi. Milliy qonunçilik iş joyi xavfsizligi, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va xodimlarni himoya qiliş talablarini belgilaydi. Şunga qaramay, quriliş sohasida bu talablarni izçil bajariş,

pudratçilarni nazorat qiliş, xavflarni aniqlaş va xavfsizlik qoidalariga rioya etilişini ta’minlaş bilan boğliq muammolar saqlanib qolmoqda. Şu sababli loyihada kreditorlar talablari va tegişli yetakçi soha amaliyotini qamrab oladigan, xalqaro miqyosda tan olingan MMX/OHS standartlarini qöllaş zarurati yanada ortadi.

Loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçilari XMK/IFCning FS2/PS2 talabi hamda yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq mehnat muhofazasi va xavfsizligini boşqarişning keng qamrovli tizimini (MMXBT/OHSMS) yaratişi kerak. MMXBT/OHSMS barça pudratçi va quyi pudratçilarga qöllanadi hamda kamida quyidagilarni qamrab oladi:

- Quriliş bosqiçidagi mehnat muhofazasi va xavfsizligi rejasini (QMMXBR/COHSMP) işlab çiqiş hamda amalga oşiriş;
- Yuqori xavfli faoliyatlar uçun muayyan vazifalarga oid xavfni baholaş hujjatlari va iş usuli bayonnomalarini tayyorlaş;
- Pudratçi va quyi pudratçilarni MMX/OHS böyiça dastlabki malaka tekşiruvidan ötkaziş hamda ularning faoliyatini muntazam kuzatiş;
- Loyiha kompaniyasi, MXQ/EPC pudratçilari, quyi pudratçilar va ixtisoslaşgan pudratçilar örtasida MMX/OHS majburiyatlarini aniq belgilaş;
- Balandlikdagi işlar, yuk kötariş, berk joylar, elektr va olovli işlarni qamrab oladigan yuqori xavfli faoliyatlar uçun işga ruxsatnoma tizimlari;
- Tegişli ŞHV/PPE bilan ta’minlaş, bu vositalarning doim mavjud bölişini kafolatlaş va ulardan foydalaniş talabiga qat’iy rioya etilişini ta’minlaş;
- Xodimlarni işga kiriş yöriğidan ötkaziş, malakasini baholaş, iş oldi xavfsizlik suhbatlarini ötkaziş va doimiy xavfsizlik ta’limi bilan ta’minlaş;
- Piyodalar va transport vositalari harakatini ajratişni qamrab oladigan yöl harakatini boşqariş tartiblari;
- Issiqlik zöriqişi, çarçoq, çang, şovqin va tebraniş ta’sirini qamrab olgan kasbiy soğliq xavflarini muntazam kuzatiş;
- Birinçi yordam punktlari, birinçi yordam körsatiş böyiça öqitilgan xodimlar va şoşilinç tibbiy yordam tartiblari bilan ta’minlaş;
- Yonğin, şoşilinç tibbiy holatlar, kimyoviy modda tökilişi va yirik hodisalarni qamrab oladigan favqulodda holatlarga tayyorgarlik hamda javob beriş tartiblarini işlab çiqiş va sinovdan ötkaziş;
- Hodisalar haqida xabar beriş, ularni tekşiriş, tub sabablarini tahlil qiliş va tuzatiş çoralari bajarilişini kuzatib boriş;
- Muntazam tekşiruv va auditlar ötkaziş, şuningdek, faoliyat natijalari, jumladan, pudratçilarning MMX/OHS körsatkiçlari haqida hisobot beriş.

Loyihaning kölamini hisobga olib, barça pudratçi va quyi pudratçilarda MMX/OHS talablari izçil bajarilişiga alohida e’tibor qaratiş kerak. MXQ/EPC pudratçilari quyi pudratçilarning loyiha MMX/OHS talablariga rioya etişi va xodimlarni himoya qilişda bir xil darajadagi standartlarni saqlaşi uçun javobgar bölib qoladi.

MMX/OHS xavflari muayyan makoniy qamrov va davomiylikka ega odatiy atrof-muhit yoki ijtimoiy ta’sirlardan farqli ravişda, butun quriliş davomida uzluksiz boşqaruvni talab qiladi. Quriliş işlarining kölami, xodimlar soni hamda jiddiy baxtsiz hodisa yoki ölim oqibatlarining ehtimoliy ağirligini hisobga olganda, çoralar qöllanmasidan oldingi MMX/OHS xavfi yuqori deb baholanadi.

Taklif etilgan oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari, jumladan, loyiha MMXBT/OHSMSini qöllaş, pudratçilarni nazorat qiliş, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik tartiblari va muntazam kuzatiş amalga oşirilgandan söng jiddiy hodisalar ehtimoli sezilarli darajada kamayişi kutiladi. Şunga qaramay, yirik kölamli quriliş işlariga xos xavflar sababli qoldiq MMX/OHS xavflarini töliq bartaraf etib bölmaydi.

Şu sababli, MMX/OHSni boşqariş tizimi samarali amalga oşirilişi va muntazam kuzatilişi şartida qoldiq oqibatning ahamiyatlilik darajasi past deb baholanadi.

Bu faoliyatlarga oid geotexnik şaroit va tuproqni boşqaruv çoralari haqida qöşimça ma’lumot “Yer yuzasi tuzilişi, geologiya, tuproq va yer osti suvlari” deb nomlangan 10-bobda berilgan.

17.5.1.2 Mehnat qiliş huquqi, majburiy mehnat, munosib turmuş darajasiga bölgan huquq va kamsitişga yöl qöymaslik

Özbekistonning mehnat qonunçiligi xodimlar huquqlarini himoya qiladigan huquqiy asosni belgilaydi. Bu huquqlar mehnat qiliş, adolatli bandlik şaroitlariga ega böliş hamda majburiy mehnat va kamsitişdan himoyalanişni qamrab oladi. Qonunçilikning xalqaro standartlarga muvofiqligi sönggi yillarda sezilarli darajada yaxşilangan. Biroq, ayniqsa, quriliş kabi köp mehnat talab qiladigan tarmoqlarda uning ijrosini ta’minlaş bilan boğliq muammolar saqlanib qolmoqda.

Loyiha bevosita xodimlar, pudratçi va quyi pudratçi xodimlari hamda zarur hollarda asosiy ta’minot zanjiri xodimlaridan iborat katta va turli-tuman işçi kuçini jalb qiladi. Yollaş, şartnoma tuziş va xodimlarni boşqariş amaliyoti samarali nazorat qilinmasa, mehnat huquqlarini buziş xavfi yuzaga keladi. Bu xavflarga norasmiy bandlik, yozma şartnomalarning yöqligi, iş haqining keçiktirilişi yoki kam tölanişi, haddan taşqari uzoq iş vaqti, kamsitiş, turli pudratçilar xodimlariga teng munosabatda bölinmasligi hamda şikoyat mexanizmlaridan foydalaniş imkonining yetarli emasligi kiradi.

Dunyo böylab quriliş loyihalarida mehnatdan nohaq foydalaniş, jumladan, majburlovçi yollaş, haddan taşqari uzoq iş vaqti, yomon yaşaş va mehnat şaroitlari hamda xodimlar huquqlarini çeklaş holatlari kuzatilgan. Şu sababli bunday holatlar, ayniqsa, quyi pudratçilar orqali yollangan muhojir va malakasi past xodimlar uçun ehtimoliy xavf sifatida istisno etilmaydi. Xodimlarning muzokara kuçi çeklangan, öz huquqlari haqida yetarli ma’lumotga ega bölmagan yoki mehnat vositaçilariga boğliq bölgan hollarda bu xavflar yuqoriroq bölişi mumkin.

Bu xavflarni boşqariş uçun loyiha kompaniyasi Mehnatni boşqariş rejasini (MBR/LMP) işlab çiqadi va amalga oşiradi. Reja amaldagi milliy mehnat qonunçiligi, XMK/IFCning mehnat va iş şaroitlariga oid FS2/PS2 talabi, YTTB/EBRDning mehnat va iş şaroitlariga oid AMIT2/ESR2 talabi hamda boşqa amaldagi kreditor talablariga muvofiq böladi. MBR/LMP loyiha xodimlarining barça toifalariga, jumladan, bevosita xodimlar, pudratçi va quyi pudratçi xodimlari hamda zarur hollarda asosiy ta’minot zanjiri xodimlariga qöllanadi.

MBR/LMP quyidagi masalalarga oid talab va tartiblarni belgilaydi: (i) bandlik şartlari va şaroitlari; (ii) xodimlarni jalb qiliş va yollaş amaliyoti; (iii) majburiy mehnat, bolalar mehnati hamda odam savdosini taqiqlaş; (iv) kamsitişga yöl qöymaslik va teng imkoniyatlar; (v) iş haqi, imtiyozlar, iş vaqti, qöşimça iş vaqti hamda ta’til huquqi; (vi) zarur hollarda xodimlar turar joyi; (vii) MMX/OHSni boşqariş; (viii) xodimlar farovonligiga oid qoidalar. Rejada, şuningdek, (ix) xodimlar şikoyatlari mexanizmlari; (x) milliy qonunçilik va kreditor talablariga muvofiq birlaşmalar erkinligi hamda jamoaviy muzokaralar; (xi) pudratçi va quyi pudratçilar mehnatini boşqariş va kuzatib boriş; (xii) zarur hollarda asosiy ta’minot zanjirida mehnat va inson huquqlari böyiça kompleks tekşiruv ötkaziş belgilanadi.

Barça xodimlar yozma mehnat şartnomalari asosida jalb qilinadi. Şartnomalarda vazifa va majburiyatlar, haq tölaş, iş vaqti, imtiyozlar, ta’til huquqi, intizomiy tartiblar va şikoyat mexanizmlaridan foydalaniş kabi bandlik şartlari hamda şaroitlari aniq belgilanadi. Yollaş jarayoni ixtiyoriy, şaffof va kamsitmaydigan asosda ötkaziladi. Yollaş uçun haq oliş, majburlov, majburiy mehnat va mehnatdan nohaq foydalanişning har qanday boşqa şakli qat’iyan taqiqlanadi. Pudratçi va quyi pudratçilar MBR/LMP qoidalari, amaldagi milliy mehnat qonunçiligi hamda yetakçi xalqaro amaliyot standartlariga rioya etişi şart. Bu talab şartnomaviy majburiyatlar va faoliyatni muntazam kuzatiş orqali ta’minlanadi.

Quriliş davrida xodimlar farovonligi va inson huquqlariga oid xavflar MBR/LMPni amalga oşiriş, qat’iy şartnomaviy nazorat, muntazam audit va tekşiruvlar, xodimlar bilan muloqot, şikoyatlarni samarali boşqariş hamda tuzatiş çoralari orqali faol boşqariladi. Bu çoralar barça loyiha xodimlari uçun adolatli, xavfsiz va teng mehnat şaroitlarini ta’minlaşga

xizmat qiladi, mehnat talablariga rioya qilmaslik hamda salbiy ijtimoiy ta’sirlar ehtimolini kamaytiradi.

17.5.1.3 Bolalar mehnati

Qonuniy mehnat yoşiga yetmagan bolalarni işga yollaş Özbekiston Mehnat kodeksiga muvofiq taqiqlangan. Milliy qonunçilik va xalqaro standartlarga muvofiq, loyiha bolalar mehnatiga nisbatan mutlaq murosasizlik tamoyilini qöllaydi.

16-17 yoşdagi şaxslar milliy qonunçilikka muvofiq faqat yengil va xavfli bölmagan işlarga yollanişi mumkin. Bunda bu iş ta’limga xalaqit bermasligi yoki soğliq, xavfsizlik yoxud axloqiy rivojlanişga xavf tuğdirmasligi şart. Xalqaro kreditor talablariga muvofiq, 18 yoşga tölmagan xodimlar xavfli quriliş faoliyatiga jalb qilinmaydi.

Yollaş jarayonida yoşni tasdiqlaş tartiblari qöllanadi. Pudratçi yoki ta’minot zanjiri xodimlari orasida bolalar mehnati aniqlansa, milliy qonunçilik va xalqaro standartlarga muvofiq tuzatiş çoralari köriladi. Muammoni bartaraf etiş çoralari bolaning yoki yoş xodimning yanada zarar körişiga yoxud zaifligi oşişiga olib kelmasligi ta’minlanadi.

17.5.1.4 Xodimlar turar joylari va farovonlik inşootlari

QURILIŞ BOSQIÇIDA LOYIHA AEROPORT HUDUDIDA YOKI UNDAN TAŞQARIDA VAQTINÇALIK XODIMLAR TURAR JOYLARINI TAŞKIL ETIŞNI TALAB QILIŞI MUMKIN. BU INŞOOTLARNING YAKUNIY JOYI HALI ANIQLANMAGAN. ŞUNGA QARAMAY, BARÇA TURAR JOY VA FAROVONLIK ŞAROITLARI MILLIY QONUN TALABLARI HAMDA XALQARO MIQYOSDA TAN OLINGAN YETAKÇI AMALIYOTGA MUVOFIQ YARATILADI VA BOŞQARILADI. BUNDA XMK/IFCNING FS2/PS2 TALABI, XMT/ILO YÖRIQNOMALARI HAMDA XMK/IFC VA YTTB/EBRDNING “XODIMLAR TURAR JOYLARI: JARAYONLAR VA STANDARTLAR” HUJJATI (2009-YIL) HISOBGA OLINADI.

Turar joylar bu standartlarga muvofiq yetarli yaşaş maydoni, sanitariya şaroiti, içimlik suvi, şamollatiş, xavfsizlik, yoritiş va umumiy yaşaşga yaroqlilikni ta’minlaydigan tarzda loyihalanadi hamda boşqariladi. Erkak va ayol xodimlar uçun jinsga oid xavfsizlik, qadr-qimmat va maxfiylikni hisobga oladigan alohida va tegişli yotoqxonalar, sanitariya inşootlari hamda dam oliş hududlari yaratiladi. Barça xodimlar tibbiy yordam, jumladan, birinçi yordamdan foydalaniş imkoniyati va mahalliy soğliqni saqlaş xizmatlariga yönaltirişning aniq tartibi bilan ta’minlanadi.

Yuqoridagi standartlarga doimiy rioya etilişini ta’minlaş va turar joy hamda farovonlik şaroitidagi har qanday kamçilikni zudlik bilan bartaraf etiş uçun muntazam tekşiruv, muntazam kuzatiş va tuzatiş çoralari qöllanadi. Bu çoralar XMK/IFC va YTTB/EBRDning 2009-yilgi standartlariga muvofiq amalga oşirilsa, talabga javob bermaydigan turar joy bilan boğliq haddan taşqari ziçlik, yomon gigiyena hamda soğliq, xavfsizlik va Jinsga köra zaiflik xavflari samarali kamaytiriladi. Qoldiq ta’sirlar past bölişi kutiladi.

17.5.1.5 Xodimlarni boşqariş va xodimlar oqimi

LOYIHA QURILIŞIGA BIR NEÇTA MXQ/EPC PUDRATÇISI VA QUYI PUDRATÇIDA IŞLAYDIGAN TAXMINAN 5 000 NAFAR MAHALLIY HAMDA MAHALLIY BÖLMAGAN XODIM JALB QILINIŞI KUTILADI. BUNDAY KATTA VA TURLI-TUMAN IŞÇI KUÇI PUXTA BOŞQARILMASA, IJTIMOIY VA IQTISODIY BOSIMLAR, ŞUNINGDEK, MEHNATNI BOŞQARIŞGA OID MUAMMOLAR YUZAGA KELIŞI MUMKIN. XODIMLAR OQIMI UY-JOY, OZIQ-OVQAT TA’MINOTI VA TRANSPORT TARMOQLARI KABI MAHALLIY XIZMATLAR, INFRATUZILMA VA RESURSLARGA QÖŞIMÇA TALAB YARATADI. MAHALLIY BÖLMAGAN VA MUHOJIR XODIMLARNING KELIŞI NORASMIY BANDLIK AMALIYOTI VA ADOLATSIZ YOLLAŞ XAVFINI, ŞUNINGDEK, QÖŞNI MAHALLALAR BILAN MADANIY YOKI IJTIMOIY KESKINLIK EHTIMOLINI OŞIRIŞI MUMKIN. BU XAVFLARNI KAMAYTIRIŞ UÇUN XODIMLARNI BOSQIÇMA-BOSQIÇ JALB ETIŞ VA IŞDAN BÖŞATIŞ LOYIHA BOŞQARUV IDORALARI ORQALI MUVOFIQLAŞTIRILADI. IMKON QADAR MAHALLIY BANDLIKKA USTUVORLIK BERADIGAN ŞAFFOF VA ADOLATLI YOLLAŞ TARTIBLARI BELGILANADI. MAHALLIY BÖLMAGAN XODIMLARNI MAHALLIY ME’YORLAR, ULARDAN KUTILADIGAN XULQ-ATVOR VA LOYIHANING ODOB-AXLOQ QOIDALARI BILAN TANIŞTIRIŞ MAQSADIDA YÖNALTIRIŞ HAMDA MADANIY XABARDORLIK DASTURLARI ÖTKAZILADI. LOYIHA XODIMLAR SONI, TARKIBI VA HARAKATINI MUNTAZAM KUZATIB BORADI. BU XODIMLAR OQIMIDAN KELIB ÇIQADIGAN EHTIMOLIY OQIBATLARNI OLDINDAN ANIQLAŞ VA SAMARALI BOŞQARIŞ IMKONINI BERADI. UŞBU ÇORALAR QÖLLANSA, XODIMLARNI

JALB ETIŞ VA ULARNING OQIMIDAN KELIB ÇIQADIGAN QOLDIQ TA'SIRLAR PAST YOKI ÖRTAÇA BÖLIŞI KUTILADI.

17.5.1.6 Talabga javob bermaydigan turar joy bilan ta'minlaş xavfi

MXQ/EPC pudratçisi loyiha xodimlarini turar joy bilan ta'minlaydi. Xodimlar XMK/IFC va YTTB/EBRDning "Xodimlar turar joylari: jarayonlar va standartlar" hujjatida (2009-yil) belgilangan mezonlarga muvofiq joylaştiriladi.

Turar joy inşootlari yuqorida qayd etilgan yöriqnomalar talablariga javob bermasligi xavfi mavjud. Bu xavf, ayniqsa, quriliş boşlangan, ammo turar joy lagerlari hali töliq barpo etilmagan yoki ulardagi barça qulayliklar tayyor bölmagan davrda yuzaga kelişi mumkin. Bunday paytda toza içimlik suvi, gigiyenik va yetarli hojatxonalar, qöl yuviş joylari, sovun yoki qöl yuviş vositalari, vaqtinçalik dam oliş joylari, oziq-ovqat hamda xodimlarga zarur boşqa şaroitlar yetarli bölmasligi mumkin.

Ayol xodimlar jalb qilinsa, turar joy inşootlari ular uçun alohida va munosib yaşaş hamda farovonlik şaroitlarini ta'minlaş talablariga töliq javob bermasligi mumkin.

17.5.1.7 Iş haqi, iş vaqti, soğliqni saqlaş va dam oliş huquqi hamda iş örnining barqarorligi

Quriliş bosqiçida mehnatni boşqariş tartiblari yetarli darajada amalga oşirilmasa, xodimlar haddan taşqari uzoq iş vaqti, haq tölanmaydigan yoki majburiy qöşimça iş, iş haqining keçiktirilişi yoxud bandlik şartlarining noaniqligi kabi xavflarga uçraşi mumkin. Bunday amaliyotlar xodimlarning soğliği, farovonligi va ruhiy holatini yomonlaştirişi, mehnat unumdorligini pasaytirişi, şuningdek, şikoyatlar yoki mehnat nizolarini keltirib çiqarişi mumkin. Milliy mehnat qonunçiligi eng köp iş vaqti, dam oliş davrlari, qöşimça iş uçun haq tölaş va iş haqini öz vaqtida tölaşga oid aniq talablarni belgilaydi. Bu talablar xodimlarning huquqlarini himoya qiliş hamda adolatli va xavfsiz mehnat şaroitlarini ta'minlaşga qaratilgan.

Bu talablarga muvofiq, loyiha va uning pudratçilari iş vaqti qonunda belgilangan çegaralardan oşmasligini ta'minlaydigan qat'iy mehnatni boşqariş tartiblarini qöllaydi. Qöşimça iş faqat ixtiyoriy ravişda bajariladi va unga amaldagi qonuniy stavkalar böyiça haq tölanadi. Iş haqi oldindan ma'lum jadval asosida muntazam va şaffof tarzda, noqonuniy uşlab qolişlarsiz tölanadi. Xodimlarga iş haqi qanday hisoblanişi aniq tuşuntiriladi. Jinsi, fuqaroligi yoki boşqa şaxsiy xususiyatlaridan qat'i nazar, teng qiymatli mehnat uçun teng haq tamoyili izçil qöllanadi. Quriliş bosqiçidagi bandlik şartnoma asosida va muayyan muddatga böladi. Xodimlarga iş boşlanişida bandlikning davomiyligi, şartlari va şaroitlari aniq bildiriladi. Bunday şaffoflik bandlikka oid kutilmalarni aniqlaştirişga, iş örnining barqarorligi haqidagi noaniqlikni kamaytirişga hamda xodimlar bilan iş beruvçilar örtasidagi tuşunmovçilik yoki nizolar xavfini imkon qadar pasaytirişga yordam beradi.

17.5.1.8 Xodimlarning soğliqni saqlaş huquqi

Quriliş faoliyati ağir maşinalardan foydalaniş, materiallarni qölda taşiş hamda jismoniy, kimyoviy va biologik xavflarga duç keliş bilan boğliq bir qator kasbiy soğliq xavflarini keltirib çiqaradi. Bu xavflar yetarli darajada boşqarilmasa, jarohatlar yoki iş bilan boğliq kasalliklarga olib kelişi mumkin. Bundan taşqari, köp sonli quriliş xodimlarini jalb etiş, ularning uzoq vaqt işlaşi va ayrim hollarda umumiy yoki vaqtinçalik turar joyda yaşaşi yuqumli kasalliklar, ayniqsa, nafas yöllari va oşqozon-içak infeksiyalari tarqaliş ehtimolini oşiradi. Yaşaş va iş şaroitining ziçligi, oldini oliş çoralari haqida xabardorlikning pastligi hamda xodimlarning tez-tez almaşişi bu xavflarni kuçaytirişi mumkin.

Bu xavflarni boşqariş uçun pudratçilar MMX/OHS hamda xodimlar soğliğini boşqarişga oid keng qamrovli çoralarni amalga oşirişi kerak. Bu çoralar hududda oson foydalaniladigan birinçi yordam punktlari va öqitilgan xodimlar bilan ta'minlaşni, şuningdek, şoşilinç tibbiy yordam körsatiş hamda zarur hollarda taşqi soğliqni saqlaş muassasalariga yönaltirişning aniq tartiblarini qamrab oladi. Xodimlar uçun gigiyena qoidalari, alomatlarni erta aniqlaş va yuqumli kasalliklarning oldini olişga qaratilgan soğliq böyiça xabardorlik hamda ta'lim dasturlari ötkaziladi. Soğliq bilan boğliq har bir hodisani zudlik bilan körib çiqiş, uning tub sabablarini aniqlaş va tuzatiş çoralari bajarilişini ta'minlaş uçun xabar beriş, röyxatga oliş hamda tekşirişning qat'iy mexanizmlari ham yaratiladi.

Kasallik tarqalişiga gumon qilingan yoki bu holat tasdiqlangan taqdirda, pudratçilar amaldagi milliy jamoat salomatligi talablari va yöriqnomalariga töliq rioya qiladi. Bunga öz vaqtida xabar beriş, zarur hollarda ajratiş yoki kuçaytirilgan sanitariya kabi nazorat çoralarini amalga oşiriş hamda mahalliy soğliqni saqlaş idoralari bilan muvofiqlaşiş kiradi. Bu çoralar kasallikni samarali boşqarişga yordam beradi hamda xodimlar va atrofdagi mahallalarni himoya qiladi.

17.5.1.9 Jamoaviy muzokaralar va birlaşmalar erkinligi

Xodimlarning birlaşmalar erkinligi va jamoaviy muzokaralar olib boriş huquqi ta'minlanadi. Bu huquqlar 2023-yil 30-apreldan kuçga kirgan ÖRQ-798-sonli qonun bilan tasdiqlangan Özbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq ta'minlanadi. Kasaba uyuşmalari va ijtimoiy şeriklikni tartibga soladigan amaldagi milliy qonunçilikka ham rioya etiladi. Mehnat kodeksida iş beruvçilar va xodimlar vakillari örtasidagi jamoaviy muzokaralar, jamoaviy bitimlar hamda jamoaviy şartnomalar bandlik şaroitlari, mehnat munosabatlari va ijtimoiy kafolatlarni belgilaş mexanizmlari sifatida nazarda tutilgan.

Kasaba uyuşmalari xususiy sektorga qaraganda davlat korxonalarida kengroq tarqalgan. Şunga qaramay, MXQ/EPC pudratçisi va barça quyi pudratçilar xodimlari özlari tanlagan xodimlar taşkilotlari, kasaba uyuşmalari yoki boşqa vakillik organlarini tuziş yoxud ularga qoşiliş erkinligiga ega böladi. Bu erkinlik milliy qonunçilik, XMK/IFCning FS2/PS2 talabi hamda YTTB/EBRDning AMIT2/ESR2 talabi asosida ta'minlanadi. Xodimlar vakillari öz qonuniy vazifalarini qörqitiş, kamsitiş yoki öç olişsiz bajara oladi. Xodimlar kasaba uyuşmasi yoki boşqa rasmiy taşkilot tomonidan vakillik qilinmasa, MXQ/EPC pudratçisi va quyi pudratçilar muqobil vakillik mexanizmlarini tuzişga tösqinlik qilmaydi. Ular milliy qonunçilik va xalqaro kreditorlar talablariga muvofiq, tegişli va şaffof kanallar orqali xodimlar bilan muloqot qiladi.

17.5.1.10Xodimlarning erkin harakatlaniş huquqi

Xodimlarning harakatlanişi turar joy lagerlari bilan çeklanmaydi. Ularga mahalla içida erkin harakatlaniş hamda loyiha hududi, viloyat va mamlakatdan taşqariga borişga ruxsat beriladi. Biroq ayrim xodimlarning qaraşlari, xulq-atvori va madaniy odatlari mahalliy aholinikidan farq qilişi mumkin. Şu sababli, madaniy yoki diniy ziddiyatlarning oldini oliş maqsadida mahalliy bölmagan xodimlarga aholi bilan muloqotga kirişişdan oldin madaniy sezgirlik böyiça yetarli ta'lim beriladi.

17.5.1.11Xodimlar şikoyat mexanizmi (IŞM/WGM)

Xodimlarning huquqlarini ta'minlaş hamda quriliş bosqiçida yuzaga keladigan muammolarni öz vaqtida hal etiş uçun loyiha maxsus IŞM/WGM yaratadi. Uşbu mexanizmdan barça loyiha xodimlari, jumladan, bevosita xodimlar, pudratçi va quyi pudratçi xodimlari hamda zarur hollarda loyiha bilan boğliq faoliyatga jalb qilingan asosiy yetkazib beruvçilar xodimlari foydalana oladi. Asosiy yetkazib beruvçilarning öz IŞM/WGMi mavjud bölsa, u XMK/IFCning FS2/PS2 talabi va boşqa amaldagi kreditorlar talablariga muvofiq bölişi kerak. Mexanizm qulaylik, maxfiylik, şaffoflik, öç olişga yöl qöymaslik va masalalarni öz vaqtida hal etiş tamoyillariga javob berişi kerak. Yetkazib beruvçi darajasidagi mexanizm mavjud bölmasa, samarasiz işlasa yoki muammo hal etilmay qolsa, asosiy yetkazib beruvçi xodimlari şikoyatlarini loyiha IŞM/WGMi orqali yuqori boşqaruv darajasiga olib çiqiş imkoniga ega böladi.

IŞM/WGM maxfiylikni ta'minlaydigan hamda muammolarni bildiriş uçun madaniy jihatdan mos, işonçli va qulay imkoniyat yaratadigan tarzda işlab çiqiladi. Xodimlar bandlik şartlari va şaroitlari, iş haqi, iş vaqti, MMX/OHS hamda turar joyga oid şikoyatlarni bir neçta kanal orqali berişi mumkin. Ular kamsitiş, tazyiq, majburiy mehnat, bolalar mehnati, öç oliş yoki iş bilan boğliq boşqa masalalar yuzasidan ham şikoyat qilişi mumkin. Bunday kanallarga hududdagi aloqa şaxslari, maxsus telefon liniyalari, elektron poçta, şikoyat qutilari va yozma murojaatlar kiradi.

Mexanizm barça xodimlarni öç olişdan himoya qilişni kafolatlaydi. Ular salbiy oqibatlardan qörqmasdan, erkin va halol niyatda öz xavotirlarini bildira oladi. Şikoyat jarayoni haqidagi ma'lumot xodimlarga işga kiriş yöriğidan ötkaziş vaqtida, muntazam iş oldi xavfsizlik

suhbatlari orqali, e'lon taxtalarida va xodimlar turar joylarida yetkaziladi. Tartiblar xodimlar tuşunadigan tillarda beriladi.

Barça şikoyatlar tizimli ravişda röyxatga olinadi, qabul qilingani tasdiqlanadi, kuzatiladi, tekşiriladi va belgilangan muddatlarda hal etiladi. Xodimlarga şikoyatlarini körib çiqiş jarayoni va natijasi haqida ma'lumot beriladi. Hal etilmagan yoki tizimli masalalar körib çiqiş va tuzatiş çoralarini belgilaş uçun loyihaning yuqori boşqaruviga yetkaziladi. Takrorlanadigan masalalar va doimiy yaxşilaş imkoniyatlarini aniqlaş maqsadida şikoyatlardagi umumiy yönalişlar loyihaning AMIBT/ESMSi doirasida kuzatiladi. IŞM/WGM samarali qöllansa hamda pudratçilar va asosiy yetkazib beruvçilarning şikoyat tartiblari ustidan nazorat olib borilsa, hal etilmagan xodimlar muammolariga oid qoldiq mehnat va inson huquqlari xavflari butun quriliş bosqiçida past darajada saqlanadi.

17.5.1.12Loyiha bilan boğliq ehtimoliy gender xavflari

JAZT/GBVH

Loyiha hududidan taşqaridan xodimlarning kelişi JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavfini oşiradi. Quriliş xodimlarining aksariyati Özbekistonning boşqa hududlari va xorijdan kelgan yoş erkaklar bölişi kutiladi. Bu xodimlar oilalaridan uzoqda va odatdagi ijtimoiy muhitidan çetda böladi. Bunday şaroit tengdoşlar bosimini kuçaytirişi, şuningdek, mahalliy ayollar, yoş qizlar va oğil bolalarga yoki loyiha xodimlari orasidagi ayollarga nisbatan tazyiq kabi noqonuniy xatti-harakatlarga undaşi mumkin. Bunday xatti-harakatlar manfaat evaziga qurilgan jinsiy munosabatlar, istalmagan jinsiy yaqinlaşuvlar va tazyiq holatlarining köpayişiga sabab bölişi mumkin. A'zolaridan biri JAZT/GBVH, JMF/SEA yoki JT/SHdan jabrlangan mahalliy xonadonlarda munosabatlar ham buzilişi mumkin.

Quriliş bosqiçida xodimlar, an'anaviy ravişda erkaklar ustunlik qiladigan mehnat muhiti tufayli, tazyiq, nohaq foydalaniş va suiiste'molning turli şakllariga nisbatan yanada zaif bölişi mumkin. JAZT/GBVH, JMF/SEA yoki JT/SH holatlari hamkasblar yoxud quriliş nazoratçilari tomonidan sodir etilişi va ayol quriliş xodimlarining jinsiy yaqinlikka tayyorligi haqidagi gender qoliplariga boğliq bölişi mumkin. Oldin qayd etilganidek, Nukusda JAZT/GBVH, JMF/SEA yoki JT/SHga uçragan ayollar va ularning bolalarini qöllab-quvvatlaydigan reabilitatsiya hamda moslaştiriş markazi mavjud. Bundan taşqari, quriliş bosqiçida bevosita yoki bilvosita bandlik orqali ayollarning daromad topiş imkoniyati xonadon içidagi keskinlikni oşirişi hamda ayollarni uyida yoki mahallasida tazyiq va zöravonlikka duçor qilişi mumkin.

Loyiha maşina va uskunalari hamda yuklarini taşiydigan ayrim erkak xodimlar uzoq masofalarga, ba'zan turli mamlakatlar örtasida safar qiladi. Ular foydalanadigan yönalişlar va loyiha bilan boğliq töxtaş joylarida, hatto bu joylar loyiha çegarasidan taşqarida bölsa ham, JAZT/GBVH, JMF/SEA yoki JT/SHga oid xatti-harakatlarni sodir etiş xavfi mavjud.

Turar joy inşootlaridagi JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH

MXQ/EPC pudratçisi va, ehtimol, quyi pudratçilar hududda öz xodimlari uçun turar joy ajratişi kutiladi. Bu holat, ayniqsa, loyihada işlaydigan va ajratilgan turar joy hududlarida yaşaydigan ayollarning xavfsizligiga doir xavf tuğdiradi. Xavf ularning ovqatlaniş joylari kabi umumiy hududlardan foydalanişida ham yuzaga kelişi mumkin.

Bu xavflarni kamaytiriş va boşqariş uçun MXQ/EPC pudratçisidan ayollar turar joyini erkaklarnikidan alohida hududda joylaştiriş talab etiladi. Bu joylarda qulflanadigan eşiqlar, alohida sanitariya inşootlari, yetarli yoritiş va boşqa himoya çoralari ta'minlanadi. Bundan taşqari, Özbekiston aholisining köpçiligi musulmon bölgani sababli, MXQ/EPC pudratçisi erkaklar va ayollar uçun alohida ijtimoiy inşootlardan foydalaniş imkonini beradi.

Jinsga qarab iş haqi böyiça kamsitiş

Erkaklar va ayollar örtasida iş haqi tengligini ilgari suriş maqsadida Özbekiston hukumati XMT/ILOning Teng qiymatli mehnat uçun erkak va ayol xodimlarga teng haq tölaş töğrisidagi 100-sonli konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Biroq ayollar köp hollarda mavqei past tarmoqlarda jamlanib qoladi va natijada kam haq tölanadigan işlarda işlaydi. Bundan taşqari, quriliş sohasida asosan erkaklar işlaydi, ayollarga esa faqat oşpazlik yoki tozalaş kabi kam haq tölanadigan işlar taklif etilişi mumkin.

Şu sababli, MXQ/EPC pudratçisi ayollarga malakasiga mos iş örinlariga yollaniş hamda teng qiymatli işni bajarayotgan erkak hamkasblari bilan teng haq oliş imkonini berişi kerak. Bundan taşqari, teng haq tölaş talabi MXQ/EPC pudratçisining kadrlar siyosatiga kiritiladi yoki bu haqda alohida siyosat qabul qilinadi.

Bandlik imtiyozlari va kafolatlari asosidagi kamsitiş

Özbekistondagi an'anaviy me'yorlarga köra, ayniqsa, qişloq joylarda ayollar parvarişlovçi sifatida köriladi. Kasbiy faoliyatini davom ettirmoqçi bölgan ayollardan iş majburiyatlari bilan oilaviy hayot örtasidagi muvozanatni saqlaş hanuz kutiladi. Bu holat oxir-oqibat ularning kasbiy rivojlanişiga ta'sir qiladi. Bundan taşqari, oilaga oid bandlik imtiyozlari va kafolatlarining köpçiligi ayollarga taalluqli bölgani sababli, iş beruvçilar ayollardan köra erkaklarni yollaşni ma'qul körişi mumkin. Masalan, Mehnat kodeksining 233-moddasiga muvofiq, ayol xodimlar 126 kunlik haq tölanadigan homiladorlik va tuğiş ta'tilini oliş huquqiga ega; ayrim hollarda bola parvarişi nafaqasi ham beriladi. Bu muddat bolaning kutilayotgan tuğilişidan oldingi 70 kun va tuğilişidan keyingi 56 kunni qamrab oladi. Asoratlar yuzaga kelsa, homiladorlik va tuğiş ta'tili qöşimça 14 kunga uzaytirilişi mumkin. Erkaklar ham otalik ta'tili kabi öxşaş imtiyozlarni talab qilişi mumkin, biroq bola parvarişi, ayniqsa, qişloq joylarda hanuz ayolning vazifasi deb qaraladi.

Şu sababli, tuğiş yoşidagi ayollar yollaş jarayonida kamsitişga uçraşi mumkin, çunki MXQ/EPC pudratçisi homiladorlik, tuğiş yoki bola parvarişiga oid imtiyoz va kafolatlarni berişdan qoçişi ehtimoli bor. Bu xavfni kamaytiriş uçun MXQ/EPC pudratçisidan erkaklar va ayollar uçun imtiyoz hamda kafolatlarni kadrlar siyosatiga kiritiş, şuningdek, yollaş jarayonida kamsitişga yöl qöymaslik majburiyatini aniq belgilaş talab etiladi.

Bundan taşqari, MXQ/EPC pudratçisi barça xodimlarga yozma mehnat şartnomalari mahalliy tilda taqdim etilişini ta'minlaydi. Bandlikning asosiy şartlari va şaroitlari iş boşlanişidan oldin barça xodimlarga aniq bildiriladi. Savodsiz xodimlarga bu şart va şaroitlar oson tuşunarli tarzda oğzaki izohlanadi. Bunda rahbar yoki kadrlar vakili şartlarni oğzaki tuşuntiradi va zarur yordamni körsatadi. Şu tariqa, xodimlar şartlarni töliq tuşunişi va ongli rozilik berişi ta'minlanadi.

Jinsiy yönalişga köra kamsitiş

Özbekiston qonunlari va me'yoriy hujjatlari iş joyida irq, jins va din asosida kamsitişni taqiqlaydi. Biroq xodimlarni jinsiy yönalişi yoki gender özligi sababli kamsitişdan himoya qiladigan qoidalar mavjud emasligi qayd etiladi. Şu sababli, jinsiy yönalişi yoki gender özligi jamiyatdagi ustuvor qaraşlardan farq qiladigan xodimlar ijtimoiy yoxud diniy me'yorlarga mos kelmagani uçun kamsitişga uçraşi mumkin. Ularni jamiyatdagi ustuvor qaraşlarga moslaşişga majbur etiş vositasi sifatida zöravonlik yoki tazyiq qöllanişi xavfi ham yuqori bölişi mumkin.

Bu xavflarni kamaytiriş va boşqariş uçun MXQ/EPC pudratçisining kadrlar siyosatida kamsitişga yöl qöymaslik talabi, odob-axloq qoidalari hamda barça xodimlar va quyi pudratçilarga qöllanadigan JAZT/GBVH siyosati nazarda tutiladi.

17.5.1.13Ta'minot zanjiri xavflari

Yetkazib beruvçilarni jalb qiliş mehnat va iş şaroitlariga oid quyidagi ehtimoliy xavflarni keltirib çiqaradi:

- Bolalar mehnati, majburiy mehnat, Jinsga köra zöravonlik va tazyiq, şuningdek, jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol;
- Xodimlar bilan yozma şartnoma tuzilmasligi;
- Mehnat huquqlarining buzilişi, jumladan, ayol xodimlar uçun talabga javob bermaydigan mehnat şaroitlari, adolatsiz şartnoma şartlari, haq tölanmaydigan qöşimça iş va boşqa holatlar;
- Xodimlar va mahalliy aholi uçun soğliq hamda xavfsizlik muammolari;
- Muhojir xodimlar va etnik ozçiliklar mehnatidan foydalaniş bilan boğliq xavflar;
- Harakatlaniş erkinligiga oid xavflar, masalan, xodimlarning turar joyni tark etiş imkoniyati;
- Suv manbalari, tuproq va havoning ifloslanişi bilan boğliq atrof-muhit ta'siri.

Loyiha kompaniyasi ta’minot zanjiri xavfini baholaş doirasida yetkazib beruvçilardan bu xavflarni baholaşni talab qiladi.

17.4-jadval. Mehnat va iş şaroitlari: oqibatning ahamiyatlilik darajasi, oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari, qoldiq ta’sirlar, quriliş bosqiçi

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
MMX/OHS	Yuqori	Quriliş xodimlari, pudratçilar, quyi pudratçilar	Yuqori	Örtaça	• XMK/IFCning FS2/PS2 talabi va yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq QMMXBR/COHSMPni işlab çiqiş hamda amalga oşiriş. • Yuqori xavfli har bir faoliyat uçun muayyan vazifaga oid xavfni baholaş va iş usuli bayonnomalarini tayyorlaş. • Pudratçilar va quyi pudratçilar uçun MMX/OHSni boşqariş talablari hamda faoliyat natijalarini kuzatib boriş mexanizmlarini joriy etiş. • Yuk kötariş, olovli işlar, berk joylar, elektr işlari va balandlikdagi işlarni qamrab oladigan yuqori xavfli faoliyatlar uçun işga ruxsatnoma tizimlarini qöllaş. • Xodimlarni zarur ŞHV/PPE bilan ta’minlaş hamda nazorat va tekşiruvlar orqali ulardan foydalaniş talabiga rioya etilişini ta’minlaş. • Xodimlar uçun işga kiriş yöriqnomasi, malakaga asoslangan öqitiş, iş oldi xavfsizlik suhbatlari va xavfsizlik böyiça xabardorlik dasturlarini ötkaziş. • Transport vositalari, uskunalar va xodimlarning özaro aloqasini nazorat qiliş uçun yöl harakatini boşqaruv çoralarini qöllaş. • Birinçi yordam vositalari bilan ta’minlaş va birinçi yordam punktlarini taşkil etiş, favqulodda holatlarga javob beriş tartiblarini hamda taşqi tibbiyot muassasalariga yönaltiriş mexanizmlarini joriy etiş. • Hodisalar haqida xabar beriş, ularni tekşiriş, tuzatiş çoralarini köriş va olingan saboqlarni hisobga oliş tartiblarini joriy etiş. • Muntazam MMX/OHS tekşiruvlari va auditlarini ötkaziş hamda pudratçilar faoliyati natijalarini körib çiqiş. • Barça quyi pudratçilarning loyiha MMX/OHS talablariga rioya qilişi va bir xil standartlarni qöllaşini ta’minlaş.	Sezilarsiz
Mehnat qiliş huquqi, majburiy mehnat, munosib turmuş darajasiga bölgan huquq va kamsitmaslik	Yuqori	Mahalliy va mahalliy bölmagan xodimlar, quyi pudratçilar orqali yollangan xodimlar, zaif guruhlar	Yuqori	Örtaça	• MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, tegişli yetkazib beruvçilar hamda mehnatga jalb qiliş yoki işga joylaştiriş agentliklari yollagan barça xodimlarning vazifalari, iş haqi, iş vaqti va imtiyozlari körsatilgan yozma şartnoma asosida işlaşini ta’minlaş. • Bundan taşqari, MXQ/EPC pudratçisi barça xodimlarga yozma mehnat şartnomalari mahalliy tilda berilişini ta’minlaydi. Savodsiz xodimlarga şartnoma şartlari rahbar yoki kadrlar vakili huzurida oğzaki va sodda tilda tuşuntiriladi hamda zarur yordam körsatiladi.	Sezilarsiz

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					Şu tariqa, xodimlar şartlarni töliq tuşunişi va ongli rozilik berişi ta’minlanadi. • Mehnatga jalb qiliş yoki işga joylaştiriş agentliklaridan foydalanilganda, MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar va yetkazib beruvçilar faqat yaxşi obröga ega, litsenziyalangan hamda belgilangan tartibda röyxatdan ötgan agentliklarni jalb qiladi. Agentliklarning amaldagi mehnat qonunlari va axloqiy yollaş amaliyotlariga rioya etişini baholaş uçun kompleks tekşiruv tartiblari qöllanadi. Bu jarayonda YTTB/EBRDning “Majburiy mehnat böyiça yöriqnoma”siga (2023-yil) muvofiq ularning majburiy mehnat xavflariga oid siyosati va oldingi faoliyati ham baholanadi. • Bevosita yoki agentlik orqali amalga oşirilişidan qat’i nazar, barça yollaş jarayonlari şaffof va ixtiyoriy bölişi kerak. Bandlik jarayonining heç bir bosqiçida xodimlardan yollaş, hujjatlarni rasmiylaştiriş, işga joylaştiriş yoki ular bilan boğliq boşqa xizmatlar uçun haq olinmaydi. MXQ/EPC pudratçisi butun ta’minot zanjirida “iş beruvçi tölaydi” tamoyili qöllanişini ta’minlaydi. • MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar bandlikka oid qarorlarni jins, irq, fuqarolik, etnik kelib çiqiş, din yoki e’tiqod, nogironlik, yoş yoxud jinsiy yönaliş kabi şaxsiy xususiyatlarga asoslamaydi. Bevosita işning ajralmas talablari bilan boğliq holatlar bundan mustasno. • MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar majburiy mehnatning barça şakllarini taqiqlaydi. Bunga majburlov yoki jazo tahdidi ostida, şaxsning ixtiyoriga qarşi bajariladigan har qanday iş yoki xizmat kiradi. Majburiy şartnoma asosidagi mehnat, qaram mehnat, qarz evaziga qaramlik va şunga öxşaş tartiblar bunga misol bölib, röyxat ular bilangina çeklanmaydi. • MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar amaldagi milliy qonunçilik hamda xalqaro standartlarga muvofiq bolalar mehnatini taqiqlaydi. Qonunda belgilangan eng kiçik mehnat yoşiga yetmagan heç bir şaxs yollanmasligini ta’minlaş uçun yollaş jarayonida yoşni qat’iy tasdiqlaş tartiblari qöllanadi. • MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar faoliyatida teng imkoniyatlar va kamsitmaslik siyosatini qöllaş, şuningdek, jins, fuqarolik, din yoki himoya qilinadigan boşqa xususiyatlardan qat’i nazar adolatli munosabatni ta’minlaş.	

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar jalb qilgan xodimlarni zarur hollarda munosib turar joy bilan ta’minlaş. Xodimlar turar joylarini YTTB/EBRD va XMK/IFCning “Xodimlar turar joylari: jarayonlar va standartlar” hujjatiga muvofiq boşqariş. Şu orqali munosib yaşaş şaroitlarini ta’minlaş va atrofdagi mahallalar bilan zaruratsiz aloqalarni kamaytiriş. • MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar bilan tuziladigan barça şartnomalarga mehnat va iş şaroitlariga oid talablarni kiritiş. MBR/LMP, amaldagi standartlar va milliy qonunçilikka rioya etiş majburiyatlarini aniq belgilaş. • MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar bilan tuziladigan barça kelişuvlarga mehnat standartlariga rioya qiliş talablarini kiritiş. • Milliy qonunçilik va amaldagi xalqaro standartlarga rioya etilişini ta’minlaş uçun MXQ/EPC pudratçisi, quyi pudratçilar, agentliklar va yetkazib beruvçilar faoliyatini muntazam kuzatiş hamda içki auditdan ötkaziş.	
Xodimlarni boşqariş va xodimlar oqimi	Örta	Mahalliy aholi, muhojirlar va boşqa hududlardan kelgan xodimlar	Örta	Örtaça	• Xodimlar oqimi keskin oşişiga yöl qöymaslik uçun ularni bosqiçma-bosqiç jalb qiliş va işdan böşatiş. • Imkon qadar mahalliy aholini işga olişga ustuvorlik beriş va mavjud imkoniyatlar haqida şaffof axborot taqdim etiş. • Boşqa hududlardan kelgan xodimlar uçun taniştiriş va madaniy xabardorlik dasturlarini ötkaziş. • Xodimlar tarkibi, soni va harakatini muntazam kuzatiş. • Ehtimoliy ijtimoiy ta’sirlarni oldindan aniqlaş maqsadida mahalliy idoralar va aholi bilan işlaş. • Hurmatga asoslangan xulq-atvorni rağbatlantiriş va nizolarni kamaytiriş uçun xodimlarning odob-axloq qoidalarini joriy etiş.	Sezilarsiz
Talabga javob bermaydigan turar joy bilan ta’minlaş	Örtaça	Hududdagi xodimlar, jumladan, ayol xodimlar	Yuqori	Örtaça	• YTTB/EBRD va XMK/IFCning “Xodimlar turar joylari: jarayonlar va standartlar” yöriqnomasiga (2009-yil) muvofiq xodimlar turar joylari rejasini işlab çiqiş va amalga oşiriş. Rejaga bu standartlarga doimiy muvofiqlikni ta’minlaydigan turar joy va farovonlik auditi dasturini kiritiş. • Loyiha kompaniyasi xodimlar turar joylarining talablarga muvofiqligini tekşiriş uçun muntazam audit ötkazadi. Auditlar davomida turar joy şaroitlarining yetarliligiga oid saqlanib qolgan yoki yangi paydo bölgan xavflar aniqlanadi, boşqariladi va bartaraf etiladi.	Past

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
Iş haqi, iş vaqti, soğliqni saqlaş va dam oliş huquqi hamda iş örnining barqarorligi	Örta	Barça xodimlar	Yuqori	Örtaça	• Barça toifadagi xodimlar, jumladan, bevosita xodimlar, MXQ/EPC pudratçisi va quyi pudratçilar xodimlari uçun iş vaqti, qöşimça iş vaqti hamda dam oliş davrlariga oid amaldagi milliy mehnat qonunlariga rioya etilişini ta’minlaş. • Barça toifadagi xodimlar uçun qöşimça işning ixtiyoriy bölişi, töğri röyxatga olinişi va qonuniy stavkalar böyiça haq tölanişini ta’minlaş. • Barça xodimlar, jumladan, pudratçi va quyi pudratçi xodimlari uçun tölov muddati oldindan ma’lum bölgan şaffof va tartibli iş haqi tizimini qöllaş. Iş haqi hisob-kitoblarini muntazam körib çiqiş va auditdan ötkaziş. • Jins yoki boşqa xususiyatlardan qat’i nazar, barça toifadagi xodimlarga teng qiymatli iş uçun teng haq tölanişini ta’minlaş. • Barça xodimlar, jumladan, bevosita xodimlar, MXQ/EPC pudratçisi va quyi pudratçi xodimlari bilan iş muddati, vazifalar hamda imtiyozlar aniq belgilangan, huquqiy jihatdan majburiy mehnat şartnomalarini tuziş. • Barça xodimlar guruhida iş örnining barqarorligi, bandlik huquqlari, iş haqi, iş vaqti va dam oliş davrlariga rioya etilişini kuzatib boriş. Buning uçun iş haqi hisob-kitoblarini audit qiliş, xodimlar tarkibini körib çiqiş va xodimlar bilan davriy suhbatlar ötkaziş.	Sezilarsiz
IŞM/WGM	Örta	Barça xodimlar	Yuqori	Örtaça	• Quriliş bosqiçida barça xodimlar, jumladan, bevosita xodimlar, pudratçi va quyi pudratçi xodimlari, şuningdek, mahalliy hamda ayol xodimlar foydalana oladigan maxsus IŞM/WGMni yaratiş. Mexanizm orqali şikoyatlarni maxfiy va ismsiz beriş imkonini ta’minlaş. • Barça xodimlarga yollaş paytida şikoyat mexanizmi, jumladan, ismsiz xabar beriş imkoniyati haqida ma’lumot taqdim etiş. Butun bandlik davrida bu mexanizm haqidagi xabardorlikni va undan oson foydalaniş imkonini saqlaş. • Butun quriliş bosqiçida barça xodimlar şikoyat mexanizmidan osongina foydalana olişini ta’minlaş. • Madaniy jihatdan mos bir neçta xabar beriş kanalini ta’minlaş. Ular jumlasiga hududdagi mas’ul aloqa şaxslari, işonç telefonlari, yozma murojaatlar va yoza olmaydigan xodimlar uçun oğzaki xabar beriş imkoniyati kiradi. • Barça şikoyatlarning maxfiyligini ta’minlaş hamda şikoyatçilarni öç olişdan va har qanday ta’qibdan himoya qiliş.	Sezilarsiz

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Ayol xodimlar va yaqin mahallalardagi xotin-qizlarni qöllab-quvvatlaş uçun şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi tarkibiga ayol vakillarni kiritiş. • Şikoyatlar tegişli boşqaruv darajasida aniq, şaffof va tuşunarli jarayon orqali zudlik bilan körib çiqilişini ta’minlaş. • Barça şikoyatlarni röyxatga oliş, kuzatib boriş va tizimli hal etiş. Xodimlarga natijalar va körilgan çoralar haqida öz vaqtida fikr-mulohaza beriş. • Şikoyat mexanizmi sud yoki ma’muriy himoya vositalari, jamoaviy muzokara jarayonlari yoxud hakamlik mexanizmlaridan foydalanişni çeklamasligini va ularning örnini bosmasligini ta’minlaş. Şikoyatlardagi yönalişlar hamda manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini muntazam körib çiqiş. Natijalardan siyosat, tartiblar va xodimlar farovonligiga oid kengroq amaliyotlarni mustahkamlaşda foydalaniş. • XMK/IFCning quriliş sohasidagi JAZT/GBVH böyiça yöriqnomasiga muvofiq JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHga oid şikoyatlar yuzasidan maxsus qöllab-quvvatlaşni ta’minlaş. Öqitilgan xodimlar jabrlanuvçi manfaatlarini markazga qöyadigan yondaşuvni qöllaşi, maxfiylik va ongli rozilikni qat’iy himoya qilişi kerak. Taşqi tibbiy, ruhiy-ijtimoiy va huquqiy yordam xizmatlariga yönaltirişning aniq yöllari ham ta’minlanadi.	
Loyiha bilan boğliq ehtimoliy jinsga oid xavflar	Örta	Ayol xodimlar, mahalliy xotin-qizlar va barça xodimlar	Yuqori	Örtaçadan jiddiygaça	• Xodimlar mahalliy tillarda yozilgan odob-axloq qoidalari bilan ta’minlanadi. Qoidalarda xabar beriş va tekşiriş tartiblari, intizomiy çoralar hamda jinsiy tazyiq va JAZT/GBVHga nisbatan mutlaq murosasizlik tamoyili belgilanadi. • Xodimlar uçun JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavflari, şikoyat mexanizmlari hamda tazyiqni jazolanadigan huquqbuzişlik deb belgilovçi tegişli qonunlar böyiça majburiy ta’lim va xabardorlik dasturlari muntazam ötkaziladi. • Ayol xodimlarning bemalol murojaat qilişi va xizmatlardan foydalanişini ta’minlaş uçun SXAM/HSE guruhida ayollarning muvozanatli vakilligi ta’minlanadi. • JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHga oid şikoyatlarni körib çiquvçi loyiha xodimlariga, imkon qadar mahalliy JAZT/GBVH taşkilotlari bilan muvofiqlaştirilgan holda, maxsus ta’lim beriladi.	Sezilarsizdan örtaçagaça

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Ayol xodimlar va mahalliy xotin-qizlarni qöllab-quvvatlaş uçun şikoyatlarni hal etiş komissiyalarida ayollar iştiroki ta’minlanadi. • Muammolarni aniqlaş uçun xodimlar tarkibidagi ayollar va yaqin mahallalardagi xotin-qizlar bilan muntazam maslahatlaşuvlar ötkaziladi. • MXQ/EPC pudratçisi taşqaridan keladigan xodimlar oqimi va turar joy xarajatlarini kamaytiriş uçun mahalliy xodimlarni yollaşga ustuvorlik beradi. • Xodimlarga muntazam ravişda oilasi yoniga qaytiş, şuningdek, dam oliş va köngiloçar obyektlardan foydalaniş imkoniyati beriladi. • MXQ/EPC pudratçisi tazyiqqa oid şikoyatlarni ismsiz berişga ruxsat beradi va şikoyatçi maxfiyligini himoya qiladi. • Loyiha bilan boğliq har qanday jinsiy zöravonlik va tazyiq şikoyatini tekşirişda mahalliy idoralar bilan hamkorlik qilinadi. • Zaif guruhlar, ayniqsa, ayollar uçun yetakçilik va qaror qabul qiliş kabi hayotiy könikmalarni qamrab oladigan maqsadli ta’lim hamda xabardorlik dasturlari ötkaziladi. • Özbekiston me’yoriy hujjatlari va kreditor talablariga muvofiq jinslar tengligi hamda JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHga oid siyosat tayyorlanadi. Unda xodimlar, quyi pudratçilar va yetkazib beruvçilarni öqitiş nazarda tutiladi. • Erkaklar va ayollar uçun alohida, xavfsiz hamda himoyalangan turar joylar va sanitariya inşootlari ta’minlanadi; ayol xodimlar foydalanadigan inşootlar qulflanadigan bölişi şart. • Erkak va ayol xodimlar uçun alohida ijtimoiy va dam oliş inşootlari ta’minlanadi. • Xodimlar turar joylarining YTTB/EBRD va XMK/IFC standartlariga muvofiq bölişi ta’minlanadi. • Mahalliy xodimlarni yollaş rejasi orqali ayollarning yollaş, öqitiş, lavozimda ösiş va bandlik imkoniyatlaridan teng foydalanişi ta’minlanadi. • MXQ/EPC pudratçisi teng iş haqi siyosatini qöllaydi va teng qiymatli mehnat uçun ayollarga erkaklar bilan teng haq tölaydi. • Kadrlar siyosati barça xodimlar va quyi pudratçilarga qöllanadigan kamsitmaslik, jinslar tengligi hamda JAZT/GBVHga oid qoidalarni qamrab oladi. Bu qoidalar oilaviy va reproduktiv holat asosidagi kamsitişni ham qamrab oladi.	

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• JT/SH va kamsitişga nisbatan mutlaq murosasizlik siyosati joriy etiladi hamda xodimlarning odob-axloq qoidalariga kiritiladi. • Barça xodimlar şikoyat mexanizmidan bepul va öç oliş xavfisiz foydalana oladi. • Jinslar tengligi va barça guruhlarni qamrab oliş böyiça taniştiriş tazyiq hamda zöravonlik xavfini kamaytiradigan, madaniy jihatdan mos tarzda ötkaziladi.	
Jamoalarning soğliqni saqlaş xizmatlari, aholi salomatligi, xavfsizlik, himoya va loyiha bilan boğliq ehtimoliy xavflar haqidagi qaraşlari hamda hayotiy tajribasini tuşuniş uçun loyihaning ta’sir hududidagi bir neçta mahallada maqsadli guruh muhokamalari ötkazildi. Muhokamalar soğliqni saqlaş xizmatlaridan foydalaniş imkoniyati hududlar böyiça notekis ekanini, jiddiy jinoyatlar darajasi esa odatda pastligini körsatdi. Quriliş bosqiçidagi ta’sirlar haqidagi xavotirlar hozirça çeklangan, biroq oşib bormoqda. Ular, ayniqsa, transport oqimi, yöl şaroiti va atrof-muhitdagi zöriqiş omillariga taalluqlidir.

Mahallalardagi aholi salomatligi turliça tavsiflandi: vaziyat asta-sekin yaxşilanmoqda, biroq xizmatlardan foydalaniş imkoniyati va ularning sifati böyiça aniq tafovutlar mavjud. Taraqqiyot mahallasida birlamçi tibbiy yordam va dorixonalardan foydalaniş imkoniyati qoniqarli, yöl şaroiti imkon berganda esa tez yordam xizmati yaxşi işlaydi. Mavsumiy nafas yöllari kasalliklari eng köp uçraydi. Muhokama qatnaşçilari xodimlar sonini köpaytiriş va uskunalarni yaxşilaşni söradi. Beruniy mahallasida mahalliy poliklinika va tez yordam xizmatlari mavjud, biroq ixtisoslaşgan tibbiy yordam oliş uçun boşqa joyga boriş kerak. Xizmatlardan umumiy qoniqiş mavjud bölsa-da, yuqumli bölmagan kasalliklar va ifloslaniş bilan boğliq salomatlik xavflari yuzasidan xavotir bildirildi. Surum mahallasida xizmatlarga doir jiddiy kamçiliklar mavjud: mahalliy soğliqni saqlaş muassasasi yöq, aholi esa uzoq, qimmat va işonçsiz transportga tayanadi. Atrof-muhitning yomonlaşişi va sanitariya şaroitining pastligi salomatlik xavflarini kuçaytirgani sababli xizmatlar umuman past baholangan. Yangiyöl mahallasida vaziyat bir xil emas. Suv orqali yuqadigan kasalliklar va tez yordamning uzoq vaqtda yetib kelişi, ayniqsa, zaif guruhlar uçun xavf tuğdirişidan xavotir bildirildi. Şunga qaramay, asosiy tibbiy xizmatlar uzoqda joylaşgani va muntazam körsatilmasligiga qaramay, ular umuman qoniqarli deb baholangan.

18.3.2 Jamoa xavfsizligi va transport oqimi şaroitlari

Loyiha hududi va uning atrofidagi transport oqimi hozirda past bölib, asosan, qişloq xöjaligi faoliyati hamda qişloqlar örtasidagi mahalliy qatnov bilan boğliq. Yöllar, odatda, tor, yöl belgilari va piyodalarni himoya qiliş çoralari esa çeklangan. Şu sababli boşlanğiç xavfsizlik xavflari katta emas, biroq transport vositalari, piyodalar, çorva mollari va qişloq xöjaligi texnikasi örtasida töqnaşuvlar yuz berişi mumkin. Yirik quriliş maydonlari yoki sanoat inşootlari yöqligi sababli jamoalarning ağir transport vositalari, quriliş transporti yoki hududga kirib keladigan katta xodimlar guruhi bilan boğliq tajribasi hozirda çeklangan. Kelgusida xavfsizlik şaroiti qanday özgarişini baholaşda bu holat muhim ahamiyatga ega.

Barça maqsadli guruh muhokamalarida jamoa xavfsizligi va himoyasi haqidagi qaraşlar, odatda, ijobiy bölib, jiddiy jinoyatlar darajasi pastligi bildirildi. Taraqqiyot mahallasidagi qatnaşçilar hududni nisbatan xavfsiz deb tavsifladi, biroq ayollar vaqti-vaqti bilan mayda oğirlik sodir bölişini qayd etdi. Köça yoritişi va infratuzilmani yaxşilaş, şuningdek, qöşimça videokuzatuv kameralarini örnatiş mayda jinoyatlar va baxtsiz hodisalarni kamaytirişning ustuvor çoralari sifatida belgilandi. Beruniy mahallasidagi qatnaşçilar jiddiy jinoyatlar yöqligi va faqat ayrim oilaviy nizolar mavjudligini aytib, xavfsizlik şaroiti mustahkam ekanini bildirdi. Xavfsizlik xizmatlaridan qoniqiş yuqori bölib, loyiha bilan boğliq jinoyatlar oşişi kutilmadi. Xavotirlar şovqin va yöl buzilişi kabi quriliş bilan boğliq vaqtinçalik noqulayliklar bilan çeklandi. Surum mahallasidagi ayollar, ayniqsa, qatnovçilar köp bölgan mavsumiy dala hovli hududlarida oğirlik holatlari nisbatan köpligini bildirdi. Şunga qaramay, qatnaşçilar jinoyatlar umuman kamayganini tan oldi va politsiya xizmatidan qoniqiş bildirdi. Yetarli bölmagan yoritiş, transportdan foydalaniş imkoniyatining çeklanganligi hamda ekologik şaroiti noqulay hududlarga köçiriş natijasida yuzaga kelişi mumkin bölgan salomatlik va xavfsizlik xavflari dolzarb bölib qolmoqda. Yangiyöl mahallasidagi qatnaşçilar jinoyatlar kamdan kam sodir bölişini, asosan, kam uçraydigan çorva oğirligi holatlari esa tezda hal etilişini bildirdi. Kuçli jamoaviy huşyorlik va politsiyaning samarali patrul xizmati mahalliy xavfsizlik xizmatlaridan qoniqiş yuqori bölişini ta’minlovçi asosiy omillar sifatida qayd etildi.

18.3.3 Jinsga köra zöravonlik va tazyiq hamda jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol

Bu şaroitda jinsga köra zöravonlik va tazyiq, şuningdek, jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'molning boşlanğiç xavflari, avvalo, loyiha faoliyatidan köra oilaviy va jamoa darajasidagi munosabatlar bilan boğliq. Biroq rejalaştirilgan quriliş kölami, xodimlarning asosan erkaklardan iborat bölişi kutilayotgani hamda işçilar bilan mahalliy jamoalar örtasidagi aloqa mavjud zaifliklarni va kelgusida xavf tuğdirişi mumkin bölgan holatlarni körib çiqişda muhim omillardir.

Loyiha Jinsga köra zöravonlikka oid, sönggi yillarda sezilarli darajada kuçaytirilgan Özbekiston milliy qonunçiligi bilan tartibga solinadi:

- 2023-yil 11-apreldagi URQ-829-sonli "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilişga doir ayrim qonun hujjatlariga özgartiriş va qöşimçalar kiritiş töğrisida"gi Qonun. Bu qonun oilaviy zöravonlik, jumladan, jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zöravonlik uçun jinoiy javobgarlikni joriy etdi hamda jabrlanuvçilarni himoya qiliş mexanizmlarini kuçaytirdi.
- Özbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi Oilaviy zöravonlikni jinoiy huquqbuzarlik deb belgilaydi hamda ozodlikdan mahrum qiliş bilan boğliq va boğliq bölmagan jazolarni nazarda tutadi.
- Ma'muriy javobgarlik töğrisidagi kodeksning 59-2-moddasi. Oilaviy zöravonlik va tazyiq uçun ma'muriy javobgarlikni, jumladan, jarima va qisqa muddatli qamoqni belgilaydi.
- "Xotin-qizlarni tazyiq va zöravonlikdan himoya qiliş töğrisida"gi Qonun, 2019-yil. Himoya orderlari, oldini oliş çoralari va jabrlanuvçilarni qöllab-quvvatlaş böyiça davlat majburiyatlari uçun huquqiy asos yaratadi.

Bu qonunlar şahar va qişloq hududlarida, jumladan, loyihaning ta'sir hududida bir xil qöllanadi. Ular loyiha faoliyati oqibatlariga duç kelişi mumkin bölgan xotin-qizlar va boşqa zaif guruhlarni himoya qilişning asosiy huquqiy doirasini taşkil etadi.

Loyiha ta'sir hududida jinsga köra zöravonlik va tazyiq hamda ular bilan boğliq jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'molning boşlanğiç tarqaliş darajasini tuşuniş loyiha bilan boğliq ehtimoliy ijtimoiy xavflarni, ayniqsa, quriliş va foydalaniş bosqiçlarida baholaş uçun zarur. Mamlakat va viloyat darajasida ma'lumotlar mavjud bölsa-da, mahalla yoki tumanlar, masalan, Örta- Çirçiq va Quyi- Çirçiq kesimida ajratilgan statistika çeklangan. Hodisalar haqida yetarli xabar- berilmasligi ham tan olingan muammo bölib qolmoqda. Şunga qaramay, milliy va hududiy qonuniyatlar loyiha mintaqasidagi jamoalar duç kelişi mumkin bölgan boşlanğiç şaroitni tuşunişga yordam beradi.

- Hukumat hisobotlari va milliy rasmiy statistikaga köra, Özbekistonda har yili ön minglab ayol himoya orderi oliş uçun murojaat qiladi yoki zöravonlik va tazyiq holatlari haqida xabar beradi. Faqat 2023-yilning dastlabki yetti oyida zöravonlik yoki tazyiqqa duç kelgan ayollarga 21 871 ta himoya orderi berilgan. Bu holatlarning taxminan 84,7 foizida zöravonlik sodir etgan şaxs oila a'zosi, masalan, er yoki turmuş örtoğinin- qarindoşi bölgan.[96]
- Hukumatning avvalgi ma'lumotlariga köra, 2021-yilda xotin-qizlarga qarşi tazyiq va zöravonlik böyiça qariyb 39 343 ta şikoyat röyxatga olingan. Bu holatlarning 87 foizi oila doirasida sodir bölgan.[97]

Hukumat va mustaqil hisobotlarda Jinsga köra zöravonlikning eng köp xabar qilinadigan şakllari sifatida ruhiy va jismoniy zöravonlik, ulardan keyin esa tazyiq va boşqa zöravonlik turlari körsatilgan. Yuqori darajadagi milliy organlarga taqdim etilgan ma'lumotlar 2024-yilda quyidagilarni körsatadi:

- Ruhiy zöravonlik holatlari himoya orderlarining eng katta qismini taşkil etgan
- Jismoniy zöravonlik va tazyiq ham xabar qilingan holatlarning sezilarli qismini taşkil etgan

[96] https://vox.today/48137/women-as-wives-how-uzbekistan-s-justice-system-fails-to-serve-women/?utm

[97] https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2024-05/GAS_Uzbekistan_Report_2024_final.pdf

Bu qonuniyatlar Jinsga köra zöravonlikning xalqaro miqyosda tan olingan tasnifiga mos keladi. Unga köra, ruhiy va jismoniy zöravonlik haqida eng köp xabar beriladi. Bunday zöravonlik ham şaxsga zarar yetkazadi, ham kengroq ijtimoiy oqibatlarni keltirib çiqaradi.

Mavjud tadqiqotlar oilaviy zöravonlik, ayniqsa, uning ağirroq şakllari şahar markazlariga qaraganda qişloq hududlarida köproq tarqalgan bölişini körsatadi. Biroq har ikki muhitda ham hodisalar haqida yetarli xabar bermaslik keng tarqalgan. Oilaviy zöravonlikka oid sud işlari böyiça tadqiqotlar şahar va qişloq aholisi son jihatdan öxşaş bölgan hollarda ham bunday işlarning katta qismi qişloq hududlarida yuzaga kelişini aniqlagan. Qişloq hududlarida jismoniy zöravonlik ağirroq bölişi ham mumkin. Loyiha ta'sir hududi qişloq xususiyatiga ega. Şu sababli, rasmiy xabar beriş darajasi past bölgan taqdirda ham mahalliy xonadonlarda oilaviy Jinsga köra zöravonlik muhim, biroq yetarli -qayd etilmagan muammo bölişi mumkin.

Mahalliy aholining salomatlik va xavfsizlikka oid qaraşlari hamda xavotirlarini tuşuniş uçun ayollar bilan maqsadli guruh muhokamalari ötkazildi. Muhokamalar Quyi Çirçiq va Örta Çirçiq tumanlaridagi Surum, Sergeli, Xalqobod va Beruniy mahallalarida ötkazildi. Ularda, ayniqsa, JAZT/GBVH va JMF/SEA masalalariga e'tibor qaratildi.

Barça maqsadli guruh muhokamalarida ayollar JAZT/GBVH holatlariga duç kelgani haqida oçiq gapirmadi. Surumdagi qatnaşçilar erkaklar "tez jahlli va tajovuzkor" deb qabul qilinişini qayd etdi. Bu yaşirin tanglik mavjud bölişi mumkinligini körsatadi, biroq zöravonlik yoki tazyiq haqida bevosita ma'lumot berilmadi. Sergeli, Xalqobod va Beruniydagi ayollar ham öz huquqlarini biliş va özini himoya qiliş muhimligini ta'kidlab, şaxsiy xavfsizlikdan xabardor ekanini körsatdi, biroq JAZT/GBVHga oid aniq holatlarni keltirmadi.

Qöllab-quvvatlaş mexanizmlariga kelsak, qatnaşçilar nizolarni hal etişda, asosan, mahalla tuzilmalari va ijtimoiy xodimlar kabi norasmiy mahalliy tarmoqlarga, kamroq darajada esa politsiyaga tayanadi. JAZT/GBVH böyiça maxsus xizmatlar, inqiroz markazlari yoki rasmiy yönaltiriş yöllari tilga olinmadi. Sergeli mahallasida Telegram orqali murojaat qiliş va masalani hokimlikka olib çiqiş işonçli norasmiy kanallar sifatida qayd etildi. Politsiya aralaşuvi kabi rasmiy mexanizmlardan esa kam foydalanilgan. Beruniy mahallasidagi kuçli ijtimoiy birdamlik norasmiy himoya omili sifatida ta'kidlandi, biroq bu holat nozik masalalarni oçiq muhokama qiliş imkoniyatini çeklaşi mumkin.

Inqiroz markazlari, boşpanalar yoki ixtisoslaşgan ruhiy-ijtimoiy yoxud huquqiy yordam xizmatlari kabi JAZT/GBVH böyiça maxsus yönaltiriş yöllari tilga olinmadi. Xalqoboddagi ayollar öz huquqlaridan xabardor ekanini ta'kidlab, özini himoya qila olişiga işonç bildirdi va "biz huquqlarimizni bilamiz hamda özimizni xafa qilişlariga yöl qöymaymiz", dedi. Bir neçta mahalladagi ayollar kuçli ijtimoiy birdamlikni tavsifladi, ayrimlari esa "biz amalda bir oila bölib qoldik", deb qayd etdi. Umuman, xulosalar maxsus JAZT/GBVH xizmatlari haqida xabardorlik çeklanganligini va loyiha hududida aniq belgilangan yönaltiriş yöllari yöqligini körsatadi.

Ayollar aeroport loyihasi bilan boğliq JAZT/GBVH xavflarini oçiq kötarmagan bölsa-da, odatiy xavfni baholaş talablariga köra, ayrim loyiha faoliyati bunday xavflarni kuçaytirişi mumkin. Quriliş paytida taşqaridan kelgan işçilar sonining oşişi, iqtisodiy zöriqişning kuçayişi va harakatçanlikning ortişi jamoat joylari, iş joylari yoki transport hududlarida tazyiq sodir etiş imkoniyatini köpaytirişi mumkin. Şu sababli JAZT/GBVHni hisobga oladigan çoralarni loyihani rejalaştirişga kiritiş tavsiya etiladi. Ehtimoliy çoralar yaxşi yoritiş, xavfsiz transport imkoniyatlari, xabardorlik tadbirlari hamda mahalladagi ayollar va ayol işçilar uçun aniq, maxfiy şikoyat mexanizmlarini qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, maqsadli guruh muhokamalarida JAZT/GBVHga oid bevosita holatlar xabar qilinmagan. Biroq norasmiy qöllab-quvvatlaş tarmoqlariga tayaniş, huquqlardan xabardorlik darajasi va loyiha bilan boğliq ehtimoliy xavflar mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligini faol çoralar orqali muhofaza qiliş zarurligini körsatadi. Bu, ayniqsa, beva ayollar va nogironligi bölgan şaxslar kabi zaif guruhlar uçun muhimdir.

18.3.4 Salomatlikni muhofaza qiliş va sanitariya-muhofaza hududi

Taklif etilayotgan aeroport loyihasi uçun SMQH/HPZni belgilaş talablariga oid yöriqnoma oliş maqsadida Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik va jamoat salomatligi qömitasiga 2026-yil 12-fevralda 2-681-sonli maslahat xati yuborilgan. Qömita amaldagi milliy

standartlar, sanitariya-muhofaza hududlariga oid talablar va ular bilan boğliq aholi salomatligi masalalarini aniqlaştiruvçi javob berdi.

Qömita aeroport infratuzilmasi uçun SMH/SPZni belgilaşda milliy sanitariya-epidemiologiya me'yorlari va qoidalariga rioya qiliş muhimligini ta'kidlovçi batafsil yöriqnoma berdi. Bu yöriqnoma şovqin, çiqarilmalar va boşqa atrof-muhit xavflari ta'sirini nazorat qiliş orqali aeroport qurilişining yaqin atrofdagi aholi salomatligiga salbiy oqibatlarini kamaytirişga qaratilgan. Xususan, Qömita 0339-16-sonli "Özbekistonda aholi manzilgohlarini rejalaştiriş va quriliş qoidalari" sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyena standartlarining 50-bandiga havola qildi. Bu bandda aeroportni joylaştiriş, ajratuvçi masofalar va faoliyat xavfsizligiga oid aniq talablar bayon etilgan.

Aeroport infratuzilmasi uçun SMH/SPZ

- Yangi aeroportlar şahar va qişloq aholi manzilgohlaridan taşqarida joylaştirilişi kerak.
- Aerodrom çegarasidan turar joy hududlarigaça talab etiladigan masofa aerodrom toifasiga qarab farq qiladi:
    - A va B toifalari: 30 km
    - V toifasi: 20 km
    - G toifasi: 10 km
    - D toifasi: 5 km
    - YE toifasi: 5 km
- Bu masofalarni belgilaşda şovqinning tarqalişi, uçiş-qöniş yölagining yönalişi va aholi yaşaydigan hududlar ustidan ötadigan uçiş yöllari sinçiklab hisobga olinişi kerak.

Me'yoriy hujjatlar

- **0339-16-sonli sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyena standartlari**da aeroportlar yaqinidagi aholi manzilgohlarini rejalaştirişga doir asosiy talablar belgilangan.
- **0103-25-sonli sanitariya qoidalari**da sanitariya-muhofaza hududlari, jumladan, ajratuvçi hududlar, yerdan foydalaniş çeklovlari va atrof-muhit xavflari ta'sirini kamaytiriş çoralari böyiça qöşimça yöriqnoma berilgan.

Sanitariya-muhofaza hududlarining maqsadi va asosiy tuşunçalari

- Sanitariya-muhofaza hududlari atmosfera havosini ifloslantiruvçi moddalar va jismoniy omillar ta'sirini turar joy hududlari uçun xavfsiz darajagaça kamaytirişga möljallangan.
- Himoya yoki ajratuvçi hududlar şovqin, çiqarilmalar va faoliyat bilan boğliq boşqa omillarning yaqin atrofdagi aholiga ta'sirini çeklaşga yordam beradi.

Loyihani rejalaştiriş va amalga oşirişga oid asosiy talablar

- **Havo sifati**: 0053-23-sonli sanitariya qoidalarida turar joy hududlaridagi zararli moddalar, mikrobiologik omillar va aeroionlarning ruxsat etilgan konsentratsiyalari belgilangan.
- **Şovqin darajasi**: 0008-20-sonli sanitariya qoidalarida turar joy binolari, jamoat inşootlari va dam oliş hududlaridagi maqbul şovqin darajalari belgilangan.
- **Radiotexnika inşootlari**: 0019-21-sonli sanitariya qoidalarida 30 kHz-300 GHz çastota diapazonidagi radiotexnika inşootlarini joylaştiriş va ulardan foydalaniş talablari belgilangan.
- **Umumiy sanitariya va gigiyena**: 0103-25-sonli sanitariya qoidalarida aholi salomatligini kimyoviy, biologik va jismoniy xavflardan himoya qiliş uçun sanitariya-muhofaza hududlariga oid umumiy talablar belgilangan.

SMQH/HPZ va SMH/SPZni belgilaş hamda tasdiqlaş AMITB doirasida ötkazilgan maxsus ekologik tadqiqotlar xulosalariga asoslanadi. Bu tadqiqotlar foydalaniş bosqiçidagi havo kemalari şovqini, havo sifati va aviatsiya xavfsizligiga oid baholaşlarni qamrab oladi. Odatiy va eng noqulay faoliyat şaroitlaridagi ta'sirlarni hisoblaş uçun baholaşda tan olingan modellaştiriş usullaridan foydalanilgan. Bunda havo kemalarining kutilayotgan harakati, havo kemalari parki tarkibi, uçiş-qöniş yölaklari tuzilişi, ob-havo şaroiti va faoliyatga oid boşqa tegişli farazlar hisobga olingan.

Me'yoriy SMH/SPZ yoki SMQH/HPZ çegarasidan taşqarida salomatlikka yuzaga kelişi mumkin bölgan oqibatlarni baholaş uçun hisoblangan ta'sir konturlari boşlanğiç holat tadqiqotlarida aniqlangan ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar joylaşuvi bilan ustma-ust qöyiladi. Bunday obyektlarga turar joy hududlari, ta'lim va soğliqni saqlaş muassasalari, jamoat inşootlari hamda odamlar uzoq vaqt davomida ta'sirga duç kelişi mumkin bölgan boşqa joylar kiradi.

Ehtimoliy ta'sirga duç keliş darajasi quyidagilar asosida baholanadi:

- Havo kemalari şovqinining hisoblangan konturlari, jumladan, tegişli hollarda kunduzgi, tungi va umumiy şovqin körsatkiçlari;
- Foydalaniş bosqiçida tegişli ifloslantiruvçi moddalar uçun hisoblangan havo sifati konsentratsiyalari, jumladan, tegişli hollarda NO_2, PM_{10} va $PM_{2.5}$;
- Aviatsiya xavfsizligini muhofaza qiliş hududlari va ular bilan boğliq yerdan foydalaniş muvofiqligi talablari;
- Özbekistonda amal qiladigan tartibga soluvçi çeklovlar; va
- Tegişli xalqaro yöriqnomalar, jumladan, XMK/IFCning atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik yöriqnomalari hamda zarur hollarda JSST/WHOning atrof-muhit şovqini va havo sifatiga oid yöriqnomalari.

AMITB doirasida modellaştiriş ötkaziladi. Natijalar foydalaniş bosqiçidagi ta'sirlar ta'sirni qabul qiluvçi obyektlarda amaldagi me'yoriy standartlar yoki tan olingan xalqaro yöriqnomalarda belgilangan qiymatlardan oşişi mumkinligini körsatsa, bu holat mahalliy aholi salomatligiga oqibat keltirib çiqaradi deb hisoblanadi. Bu, ayniqsa, ta'sir sezilarli yoki surunkali bölgan holatlarga taalluqlidir. Eng kam me'yoriy ajratuvçi masofalarga rioya etilganiga qaramay, takroriy uzoq muddatli ta'sir salomatlikka sezilarli salbiy oqibat keltirib çiqarişi mumkin bölgan holatlar ham şular jumlasiga kiradi.

Şu sababli SMH/SPZ va SMQH/HPZning yakuniy çegaralari hamda ularga boğliq yerdan foydalaniş çeklovlari maxsus modellaştiriş tadqiqotlari va tegişli me'yoriy idoralar bilan maslahatlaşuv natijalari asosida tasdiqlanadi. Modellaştiriş natijalariga köra, me'yoriy çegaradan taşqaridagi ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar foydalaniş bosqiçida ham yuqori darajadagi ta'sir ostida qolişi mumkin bölsa, ta'sirning oldini oliş va uni kamaytiriş ketma-ketligiga muvofiq qöşimça çoralar körib çiqiladi. Ular faoliyatni nazorat qiliş, havo kemalari harakati tartiblari, şovqindan izolyatsiya qiliş dasturlari, yerdan foydalanişni rejalaştirişga oid tavsiyalar, muntazam kuzatiş dasturlari yoki mahalliy aholi salomatligiga qoldiq xavflarni kamaytirişga qaratilgan boşqa tegişli çoralarni qamrab olişi mumkin.

Foydalaniş bosqiçi boşlanişidan oldin yakuniy SMH/SPZ va SMQH/HPZ milliy talablarga muvofiq körib çiqiş va tasdiqlaş uçun Sanitariya-epidemiologik osoyiştalik agentligiga taqdim etiladi.

18.4 Ta'sir hududi va ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar

18.4.1 Ta'sir hududi

MASXH/CHSS böyiça TH/AoI loyiha mahalliy jamoalar, soğliqni saqlaş tizimlari, xavfsizlik şaroiti, himoya tadbirlari va ijtimoiy munosabatlarga bevosita yoki bilvosita oqibat keltirib çiqarişi mumkin bölgan hududni qamrab oladi. Yangi yerda quriladigan aeroportning TH/AoI doirasiga loyiha izi, atrofdagi jamoalar hamda quriliş va foydalaniş bosqiçlarida loyiha faoliyati yoki maxsus baholaşlar ehtimoliy salomatlik, xavfsizlik, himoya yoxud yerdan foydalanişga oid ta'sirlarni aniqlagan boşqa hududlar kiradi.

Şu sababli mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligi bilan boğliq TH/AoI faqat belgilangan doira masofasi bilan çeklanmaydi. Uni aniqlaşda loyiha izi, quriliş faoliyati, loyiha bilan boğliq obyektlar, taklif etilgan SMH/SPZ, AXZ/ASZ, foydalaniş bosqiçidagi havo kemalari şovqini konturlari va texnik tadqiqotlar orqali aniqlangan boşqa ta'sir hududlari hisobga olinadi.

Joriy baholaşga köra, TH/AoI loyiha hududi va uning atrofidagi jamoalarni, jumladan, janubda bevosita qoşni joylaşgan Yangitoş manzilgohini qamrab oladi. Atrofdagi Aranşi, Beruniy, Döstlik, Kim Pen Xva, Kuşek, Surum, Sergeli, Taraqqiyot, Xalqobod, Yangiyöl va Yönğiçqala mahallalari ham bu hududga kiradi. Mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligiga ta'sirlarni baholaş hamda manfaatdor tomonlarni jalb qilişda bu jamoalar asosiy ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar hisoblanadi.

Loyiha amalga oşirilişi davomida ötkaziladigan maxsus tadqiqotlar xulosalari asosida TH/AoI yanada aniqlaştiriladi. Bu tadqiqotlar şovqin ta'siri, yöl harakati va transport xavflari, favqulodda javob talablari, mahalliy aholi salomatligi xavflari hamda aeroport qurilişi va undan foydalaniş bilan boğliq boşqa ehtimoliy özgarişlarni baholaşni qamrab oladi.

18.4.2 Ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar

18.2-jadval. Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni qabul qiluvçi obyektlar: Mahalliy aholi salomatligi, xavfsizligi va himoyasi (MASXH/CHSS)

Ta'sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Asos
Yangitoş qişloği va loyiha hududining şimoli-şarqiy qismidagi jamoa aholisi	**Yuqori**	Loyiha iziga bevosita tutaşgani sababli köçiriş, quriliş transporti, şovqin, çang va vaqtinçalik işçilar bilan aloqa oqibatlariga duç kelişi mumkin. Rivojlangan soğliqni saqlaş va favqulodda xizmatlardan foydalaniş imkoniyatining çeklanganligi bu aholining zaifligini oşiradi.
Atrofdagi mahallalar, Aranşi, Beruniy, Döstlik, Kim Pen Xva, Kuşek, Surum, Sergeli, Taraqqiyot, Xalqobod, Yangiyöl va Yönğiçqala aholisi	**Örta**	Ta'sir hududidagi jamoalarda transport oqimi oşişi, atrof-muhitdagi zöriqiş omillari, havo kemalari faoliyati hamda mahalliy infratuzilma va xizmatlarga ehtimoliy bosim bilvosita oqibatlarni keltirib çiqarişi mumkin. Atrofdagi mahallalarning sezgirligi ularning loyihaga yaqinligi, aniqlangan ta'sir hududlarida joylaşişi hamda mavjud soğliqni saqlaş va favqulodda xizmatlardan foydalaniş imkoniyatiga qarab farq qilişi mumkin.
Zaif guruhlar (xotin-qizlar, bolalar, keksa şaxslar va nogironligi bölgan şaxslar)	**Yuqori**	Boşlanğiç holatda rasmiy himoya mexanizmlaridan foydalaniş imkoniyati çeklangan. Norasmiy tarmoqlarga tayaniş, ayniqsa, quriliş bosqiçida JAZT/GBVH va boşqa xavfsizlik xavflariga nisbatan zaiflikni oşiradi.
Mahalliy yöllar va transport infratuzilmasi	**Örta**	Yöl belgilari va piyodalarni himoya qiliş çoralari yetarli bölmagan tor yöllar quriliş transporti oqimining oşişiga hamda transport vositalari bilan piyodalar örtasidagi töqnaşuvlarga ayniqsa sezgir. Bu holat mahalliy jamoalar xavfsizligiga tahdid tuğdiradi.
Qişloq xöjaligi daromad manbalari va qişloq xöjaligi işçilari	**Örta**	Yerdan foydalanişdagi özgarişlar, quriliş faoliyati va vaqtinçalik işçilar mavjudligi qişloq xöjaligi faoliyatini izdan çiqarişi hamda qişloq xöjaligiga tayangan hududlarda salomatlik va xavfsizlikka oid xavflarni keltirib çiqarişi mumkin.

18.5 Ta’sirlar, ta’sirning oldini oliş va uni kamaytiriş, boşqaruv hamda qoldiq ta’sirlar

18.5.1 Quriliş bosqiçi

18.5.1.1 Işçilar oqimi, mahalliy aholi salomatligi va jinoyatçilik

Loyihaning quriliş bosqiçida işçi kuçiga talab eng yuqori davrda taxminan 5 000 nafarni taşkil etişi kutiladi. Işçi kuçi oddiy işçilar, texnik va yordamçi xodimlardan iborat böladi. Loyihaning ta’sir hududidagi qişloq jamoalarida katta va asosan erkaklardan iborat işçi kuçining paydo bölişi mahalliy aholi salomatligi, xavfsizligi va ijtimoiy munosabatlarga oqibat keltirib çiqarişi mumkin. Turar joy, suv ta’minoti, sanitariya va soğliqni saqlaş kabi mahalliy xizmatlarga talab oşişi mumkin. Mahalliy yöllarga bosimning ortişi tirbandlik, kiçik baxtsiz hodisalar yoki favqulodda vaziyatlarga javob berişdagi keçikişlarga olib kelişi mumkin. Kelgan işçilar bilan mahalliy aholi örtasidagi madaniy farqlar esa ijtimoiy tanglikni keltirib çiqarişi mumkin. Bundan taşqari, işçilar oqimi yuqumli kasalliklar, çang va şovqin ta’siri hamda suv va sanitariya tizimlaridagi vaqtinçalik uzilişlar bilan boğliq xavflarni oşirişi mumkin. Xotin-qizlar, bolalar va boşqa zaif guruhlar mayda jinoyat, tazyiq yoki JAZT/GBVH xavfiga köproq duç kelişi mumkin. Rasmiy jinoyatçilik darajasi pastligiça qolgan taqdirda ham jamoalarda xavfsizlik yomonlaşgani haqidagi qaraş paydo bölişi mumkin.

Bu ehtimoliy ta’sirlarni boşqariş va kamaytiriş uçun oldini oluvçi va himoya çoralari majmuasi amalga oşiriladi. Mahalliy jamoalar bilan zaruratsiz aloqani kamaytiriş maqsadida loyiha maydonidagi işçilar yotoq joylari yetarli suv, sanitariya, soğliqni saqlaş va dam oliş şaroiti bilan ta’minlanadi. Barça xodimlarga maqbul xulq-atvor, tazyiqqa mutlaqo yöl qöymaslik hamda mahalliy qonunlar va madaniy me’yorlarga rioya qilişni talab etuvçi qat’iy odob-axloq qoidalari qöllanadi. Tirbandlikni kamaytiriş va boşqa yöl qatnaşçilari bilan töqnaşuvlarning oldini oliş uçun quriliş transportini boşqariş rejalari majburiy qöllanadi. JAZT/GBVHni hisobga oladigan çoralar yaxşi yoritilgan umumiy hududlar, ayollar uçun xavfsiz transport imkoniyatlari, xabardorlik dasturlari hamda maxfiy şikoyat va xabar beriş kanallarini qamrab oladi. Jamoalar bilan muloqot orqali aholi quriliş jadvallari, işçilar harakati va xabar beriş mexanizmlari haqida xabardor qilinadi.

Boşqaruv çoralari bu oldini oliş va kamaytiriş harakatlarini töldiradi. Ijtimoiy aloqalarni muntazam kuzatiş, şikoyatlarni körib çiqiş va mahalliy jamoalar bilan muvofiqlaştirişni davom ettiriş uçun jamoatçilik bilan aloqa xodimi tayinlanadi. Xavfsizlik xodimlari xavfsizlik va Jinsga köra zöravonlikka oid tartiblarga rioya qilinişini ta’minlaydi. Işçilar va atrofdagi jamoalar salomatligi muntazam kuzatiladi. Mehnat va mahalliy aholi salomatligi standartlariga rioya qilinişini ta’minlaş uçun kuzatiş jarayonini belgilangan salomatlik va xavfsizlik xodimlari nazorat qiladi. Muntazam muloqot uçraşuvlari ijtimoiy tanglikni uzluksiz baholaşga yordam beradi. Gender jihatlari hisobga olingan muntazam kuzatiş esa quriliş bosqiçi davomida ayollar va boşqa zaif guruhlarning himoyasini ta’minlaydi.

Uşbu oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari amalga oşirilganda MASXH/CHSSga oid qoldiq ta’sirlarning ahamiyatlilik darajasi past yoki örta bölişi kutiladi. Qolgan oqibatlar, ehtimol, kiçik transport tirbandligi, vaqtinçalik ijtimoiy moslaşuv, soğliqni saqlaş xizmatlariga talabning ayrim joylarda oşişi hamda kiçik va boşqariş mumkin bölgan xavfsizlik masalalari bilan çeklanadi. Bu oqibatlar belgilangan şikoyat va xabar beriş mexanizmlari orqali muntazam kuzatiladi hamda bartaraf etiladi.

18.5.1.2 Jamoat va mahalliy jamoa xavfsizligi

Boşlanğiç holat jiddiy jinoyatlar darajasi odatda pastligini, transport oqimi katta emasligini va sanoat xavflari ta’siri çeklanganligini körsatadi. Biroq qişloq yöllari tor, piyodalarni himoya qiliş çoralari yöq va asosan mahalliy qişloq xöjaligi faoliyatiga xizmat qilişga möljallangan. Şu bois bu yöllar transport vositalari harakatining oşişiga sezgir. Ta’sir hududi böylab ötkazilgan maqsadli guruh muhokamalari jamoalarning xavfsizlik haqidagi qaraşlari umuman ijobiyligini tasdiqladi. Biroq mayda oğirlik, yetarli bölmagan yoritiş hamda xotin-qizlar, bolalar va keksa şaxslar kabi zaif guruhlar uçun ehtimoliy xavflar yuzasidan ayrim xavotirlar mavjud.

Quriliş paytida loyiha bir neçta ehtimoliy omil orqali jamoat va mahalliy jamoa xavfsizligiga salbiy oqibat keltirib çiqarişi mumkin. Quriliş transport vositalari va uskunalari oqimining oşişi transport vositalari bilan piyodalar örtasidagi töqnaşuvlar, çorva qatnaşgan baxtsiz hodisalar hamda tor qişloq yöllarida tirbandlikka olib kelişi mumkin. Şovqin, çang va ağir texnika faoliyatidan kelib çiqadigan vaqtinçalik noqulayliklar, ayniqsa, loyiha izi yaqinidagi aholi uçun mahalliy salomatlik va xavfsizlik xavflarini yuzaga keltirişi mumkin. Asosan erkaklardan iborat işçilar guruhining mavjudligi, materiallar harakati va aholining vaqtinça oşişi ham mayda jinoyat yoki kiçik nizolar xavfini oşirişi mumkin. Bolalar, keksa şaxslar va nogironligi bölgan şaxslar kabi zaif guruhlar yöl belgilari çeklanganligi, yoritişning pastligi va favqulodda xizmatlardan foydalaniş imkoniyati çeklanganligi sababli yuqoriroq xavflarga duç kelişi mumkin.

Bu ta’sirlarni kamaytiriş uçun loyiha muhandislik, faoliyatga oid va jamoaga asoslangan qator çoralarni amalga oşiradi. Ular transport vositalari yönalişlari va tezligini hamda piyodalarni ajratişni tartibga soluvçi TBR/TMPni qamrab oladi. Mahalliy yöllar yöl belgilari, tezlikni nazorat qiliş vositalari, piyodalar ötiş joylari va köça yoritişi bilan yaxşilanadi. Çoralar mahalla rahbarlari bilan hamkorlikda jamoani xabardor qiliş tadbirlarini hamda işçilar uçun odob-axloq qoidalarini ijro etişni ham qamrab oladi. Mahalliy soğliqni saqlaş muassasalari bilan muvofiqlaştiriş va maydonda birinçi yordamni ta’minlaş orqali favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ham kuçaytiriladi. Mahalliy huquqni muhofaza qiluvçi organlar bilan hamkorlikda asosiy kiriş joylariga videokuzatuv kameralari va yoritiş örnatiladi. Bu çoralar bajarilgandan keyin mahalliy jamoa xavfsizligiga qoldiq ta’sirlarning ahamiyatlilik darajasi past yoki örta bölişi kutiladi. Ta’sirlar asosan vaqtinçalik va quriliş faoliyati bilan boğliq böladi. Yöldagi vaqtinçalik keçikiş yoki şovqin kabi kiçik noqulayliklar saqlanişi mumkin, biroq ular TBR/TMP, jamoalar bilan doimiy muloqot va muntazam kuzatiş orqali samarali boşqarilişi kutiladi.

Quriliş transportini boşqariş doirasi

Taklif etilayotgan aeroport qurilişining kölamini hisobga olganda, quriliş bilan boğliq transport loyiha doirasidagi mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligiga oid asosiy xavflardan biridir. Quriliş faoliyati töldiruvçi materiallar, inert materiallar, beton, uskunalar va boşqa quriliş buyumlarini katta hajmda taşişni talab qiladi. Natijada hozirda transport oqimi nisbatan past, piyodalarni himoya qiliş infratuzilmasi çeklangan hamda transport vositalari, piyodalar, qişloq xöjaligi texnikasi va çorva birgalikda foydalanadigan qişloq yöllarida ağir transport vositalari harakati sezilarli darajada oşişi mumkin.

Quriliş transporti harakati, ayniqsa, tuproq taşiş va boşqa umumquriliş işlari bilan boğliq qatnovlar 2027-yil boşida boşlanişi kutilmoqda. Hozirgi hisob-kitoblarga köra, umumiy foydalaniş tomonidagi işlar dastlab kuniga taxminan 150 ta qatnovni yuzaga keltiradi, aerodrom tomonidagi işlar bilan boğliq qatnov esa bundan taxminan ikki baravar köp bölişi mumkin. Umumiy foydalaniş tomonidagi transport qatnovi 2027-yil yoziga kelib kuniga taxminan 550 tagaça köpayişi va qariyb 12 oy davomida şu darajada saqlanişi kutilmoqda. Qurilişni rejalaştiriş va logistika tartiblari yanada batafsil işlab çiqilgani sari bu hisob-kitoblarga aniqlik kiritiladi.

Bu xavflarni boşqariş uçun loyihaning AMIBT/ESMSi doirasida Quriliş transportini boşqariş rejasi asoslari işlab çiqiladi. Uşbu doiraviy hujjatda quriliş paytida transport harakatini boşqarişning umumiy tamoyillari, eng kam talablari va vazifalari belgilanadi. Şuningdek, u MXQ/EPC pudratçilari pudratçiga xos batafsil TBR/TMPlarni tayyorlaşi uçun asos yaratadi. Transportni boşqariş asoslari va batafsil transportni boşqariş rejasi 2026-yil dekabridan keçiktirmay tayyorlanadi. Bu asosiy quriliş transporti qatnovlari boşlanişidan oldin transport harakatini batafsil baholaş va boşqaruv çoralarini belgilaş imkonini beradi.

Transportni boşqariş asoslari va uning asosida keyinçalik tayyorlanadigan transportni boşqariş rejasi kutilayotgan quriliş transporti harakatini batafsil tahlil qiliş hamda muqobil transport va logistika variantlarini baholaşni qamrab oladi. Bunda amaliy jihatdan imkon bölgan hollarda materiallarni taşiş uçun temir yöldan foydalaniş imkoniyati ham baholanadi. Quriliş, logistika va transportga oid zarur ma’lumotlar mavjud bölgani sari baholaş yangilanadi.

Quriliş transportini boşqariş rejasi doirasida quyidagilar belgilanadi:

- ağir transport vositalari harakati va eng serqatnov davrlarni qamrab olgan kutilayotgan quriliş transporti oqimi;
- taklif etilgan yuk taşiş yönalişlari va kiriş yöllarini aniqlaş hamda baholaş;
- materiallarni taşişning muqobil variantlarini, jumladan, amaliy jihatdan imkon bölgan hollarda temir yöldan foydalaniş imkoniyatini baholaş;
- transport xavfini baholaş va yöl xavfsizligi tekşiruvlariga oid talablar;
- Loyiha kompaniyasi, MXQ/EPC pudratçilari, davlat hamkori hamda tegişli idoralarning vazifalari va javobgarligi;
- haydovçi malakasi, tezlikni nazorat qiliş, transport vositasini körikdan ötkaziş va safarni boşqarişni qamrab olgan transport vositalarini boşqariş talablari;
- piyodalar xavfsizligi, çorvani boşqariş, maktab hududi xavfsizligi va kiriş imkoniyatining uzluksizligini qamrab oladigan jamoalarni himoya qiliş çoralari;
- favqulodda transport vositalarining kirişi va mahalliy favqulodda xizmatlar bilan muvofiqlaştirişga oid talablar;
- manfaatdor tomonlar bilan muloqot qiliş hamda quriliş transporti jadvallari va vaqtinçalik uzilişlar haqida jamoalarni xabardor etiş talablari;
- muntazam kuzatiş körsatkiçlari, hodisalar haqida xabar beriş talablari va tuzatuv çoralarini qöllaş tartiblari.

18.5.1.3 Jamoat va mahalliy jamoa himoyasi

Loyihaning quriliş bosqiçi, ayniqsa, loyiha ta’sir hududining qişloq hududi ekani va aholisi siyrakligini hisobga olganda, jamoat va mahalliy jamoa himoyasiga bir neçta ehtimoliy oqibat keltirib çiqarişi mumkin. Boşlanğiç holat jinoyatlar darajasi odatda pastligini, transport oqimi katta emasligini hamda xavfsizlik va ijtimoiy birdamlik uçun norasmiy jamoa tuzilmalariga tayanilişini körsatadi. Biroq köp sonli quriliş işçi kuçi, ağir transport vositalari va vaqtinçalik infratuzilma özgarişlari bu şaroitni vaqtinça özgartiriş mumkin.

18.3-jadval. Ehtimoliy ta’sirlar: mahalliy jamoa himoyasi

Ta’sirlar	Tavsif
Jinoyat va jamiyatga zid xatti-harakatlarning oşişi	Asosan taşqaridan kelgan quriliş işçilarining paydo bölişi mayda oğirlik, tazyiq va qulay vaziyatdan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar xavfini oşiriş mumkin. Boşlanğiç holatda jiddiy jinoyatlar darajasi odatda past bölsa-da, maqsadli guruh muhokamalarida ayrim mahallalarda, masalan, Surumda ayollar va mavsumiy qatnovçilar zaif ekani ta’kidlangan. Bu holat kiçik xavfsizlik hodisalari köpayişi mumkinligini körsatadi.
Transport bilan boğliq xavflar	Quriliş faoliyati ağir texnika, yuk avtomobillari va işçilarni taşiydigan transport vositalari harakatini qamrab oladi. Bu vositalar tor qişloq yöllarida mahalliy transport, piyodalar va çorva bilan töqnaşişi mumkin. Yetarli yöl belgilari, yoritiş va piyodalar infratuzilmasi yöqligi baxtsiz hodisalar hamda yengil jarohatlar ehtimolini yanada oşiriş mumkin.
Jamoat tartibi va xavfsizligining buzilişi	Şovqin, çang va quriliş uskunalarining harakati kundalik hayotni buziş, jamoalarda zöriqiş yoki kiçik nizolarni yuzaga keltiriş mumkin. Bu, ayniqsa, kundalik turmuş tarzi qişloq xöjaligi faoliyati bilan çambarças boğliq bölgan yaqin qişloq manzilgohlariga taalluqlidir.
Jinsga oid zaiflik	Boşlanğiç holatdagi JAZT/GBVH, asosan, oila içida yuz bersa-da, taşqaridan kelgan işçilar jamoat joylari va transport yönalişlarida tazyiq sodir etiş imkoniyatini köpaytiriş mumkin. Bu xotin-qizlar, bolalar va boşqa zaif guruhlar uçun maxsus himoya çoralari zarurligini körsatadi.
Mahalliy xavfsizlik xizmatlariga bosim	Quriliş bilan boğliq ravişda hududdagi odamlar soni va transport oqimining oşişi mahalliy huquqni muhofaza qiluvçi organlar hamda norasmiy jamoa xavfsizligi mexanizmlariga talabni köpaytiriş mumkin. Imkoniyatlarning

Ta’sirlar	Tavsif
	çeklanganligi ularning loyiha bilan boğliq hodisalarga tezkor javob beriş qobiliyatini pasaytirişi mumkin.

Quriliş paytida mahalliy jamoa himoyasiga oid ehtimoliy xavflarni kamaytiriş uçun loyiha kompaniyasi yoki MMK/SPV barça loyiha faoliyatiga tatbiq etiladigan keng qamrovli himoyani boşqariş rejasini va unga boğliq AMIBT/ESMS tartiblarini amalga oşiradi. Bu tizim boşqaruv, vakolat va hamkorlik tartiblarini aniq belgilaydi. Tartiblar umumiy foydalaniş tomoni böyiça MXQ/EPC pudratçisi bilan tegişli vazirlik aerodrom tomoni böyiça tayinlaydigan MXQ/EPC pudratçisi örtasidagi munosabatlarga taalluqlidir. Ular loyiha hududida faoliyat yuritadigan davlat organlarining har qanday himoya xodimlari bilan hamkorlikni ham qamrab oladi. MMK/SPV atrof-muhit va ijtimoiy natijalar uçun umumiy javobgarlikni öz zimmasida saqlab qoladi. U muntazam muvofiqlaştiriş yiğilişlari, qöşma köriklar, umumiy hisobot tartiblari va hodisalarni birlaştirilgan tarzda boşqariş jarayonlarini qamrab oladigan rasmiy hamkorlik tartiblari orqali muvofiqlaştirişni hamda talablarga rioya qilinişini nazorat qiladi. XMK/IFCning FS/PS talablariga muvofiq, pudratçilar va davlat idoralari hamkorlik qiladigan sohalarga alohida e’tibor beriladi. Bu sohalar himoyani boşqariş, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va javob çoralari, MMX/OHS, transportni boşqariş, manfaatdor tomonlarni jalb etiş, şuningdek, hodisalar haqida xabar beriş va ularni tekşirişni qamrab oladi.

Quriliş va foydalaniş bosqiçlarida jalb etiladigan loyiha himoya xodimlari qurolsiz böladi. Davlat xavfsizlik idoralari bilan har qanday aloqa işçilar, jamoalar va loyiha mol-mulkini himoya qiliş hamda inson huquqlari tamoyillariga rioya etişni ta’minlaydigan belgilangan tartiblar asosida boşqariladi. Bu tartiblarda vazifalar, javobgarlik, aloqa kanallari, masalani yuqori boşqaruv darajasiga kötariş tartiblari va hodisalar haqida xabar beriş talablari aniq bayon etiladi. Himoya xodimlari qurolsiz bölişi haqidagi talab barça MXQ/EPC, FTX/O&M va himoya xizmati şertnomalariga, şuningdek, loyihaning himoyani boşqariş rejasi hamda pudratçilarning tegişli AMIBT/ESMS hujjatlariga kiritiladi. Loyiha kompaniyasi yoki MMK/SPV pudratçilarni nazorat qiliş, davriy tekşiruvlar va faoliyat samaradorligini muntazam kuzatib boriş orqali bu talabga rioya etilişini nazorat qiladi. Talabdan har qanday taklif etilgan çekiniş uçun loyiha kompaniyasining oldindan yozma roziligi olinişi kerak. Bunday çekiniş kreditorlarning amaldagi talablari va milliy qonunçilikka muvofiq boşqariladi.

TH/Aoldagi mahallalar uçun xavfni baholaş ötkaziladi va transportni boşqaruv çoralari amalga oşiriladi. Bu çoralar nazorat qilinadigan kiriş yönalişlari, quriliş transport vositalari uçun maxsus yöllar, yöl belgilari, tezlik çeklovlari hamda quriliş transporti jadvali böyiça jamoani xabardor qiliş tadbirlarini qamrab oladi. Ularning maqsadi transport vositalari, piyodalar va çorva örtasidagi töqnaşuvlarni kamaytirişdir. Jamiyatga zid xatti-harakatlar, tazyiq, kamsitiş va JAZT/GBVHni taqiqlovçi xodimlar odob-axloq qoidalari barça pudratçilar va quyi pudratçilarga tatbiq etiladi. Bu talab mahalliy qonunlar, madaniy nozikliklar, jamoalar bilan munosabatlar va şikoyatlar haqida xabar beriş mexanizmlariga oid işga kirişdagi majburiy öqitiş hamda takroriy öquv maşğulotlari bilan mustahkamlanadi.

Körinuvçanlikni yaxşilaş va himoya bilan boğliq xavflarni kamaytiriş uçun transport oqimi yuqori bölgan hududlar va jamoat joylarida tegişli vaqtinçalik yoki doimiy yoritiş, zarur joylarda esa xavfsiz piyodalar ötiş joylari ta’minlanadi. Mahalliy idoralar va mahalla tuzilmalari bilan hamkorlik himoya bilan boğliq hodisalar haqidagi axborotning öz vaqtida tarqatilişini, hodisalar haqida xabar berilişini va ularga javob qaytarilişini ta’minlaydi. JAZT/GBVHni hisobga oladigan çoralar maxfiy xabar beriş kanallari, jabrlanuvçi manfaatini markazga qöyadigan javob tartiblari, xabardorlik

dasturlari hamda ayollar va zaif guruhlar xavfsizligini oşirişga qaratilgan transport va kiriş şaroitlarini qamrab oladi.

Quriliş jadvallari, transportni boşqariş tartiblari, xavfsizlik çoralari va şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari haqida axborot beriş uçun manfaatdor tomonlar bilan muntazam muloqot tadbirlari ötkaziladi. Boşqaruv va muntazam kuzatiş çoralari hodisalarni kuzatib boriş va tekşiriş, jamoatçilik bilan aloqa xodimlarini tayinlaş hamda himoya, transport va xodimlar xulq-atvoriga oid çoralarni davriy tekşirişni qamrab oladi. Ular pudratçilar bilan birgalikdagi körib çiqişlarni hamda mahalliy favqulodda vaziyatlar va soğliqni saqlaş xizmatlari bilan muvofiqlaştirişni ham öz içiga oladi. Bu çoralar amalga oşirilib, MMK/SPV, MXQ/EPC pudratçilari va davlat idoralari faoliyati samarali muvofiqlaştirilganda mahalliy jamoa himoyasiga qoldiq ta'sirlarning ahamiyatlilik darajasi past yoki örta bölişi kutiladi. Ta'sirlar vaqtinçalik va mahalliy xususiyatga ega böladi. Mayda jinoyat, transport hodisalari va JAZT/GBVH bilan boğliq xavflar muntazam kuzatiş, manfaatdor tomonlar bilan muloqot va tuzatuv çoralari orqali boşqariladi.

18.5.1.4 Jinsga köra zöravonlik va tazyiq hamda jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol (JAZT/GBVH va JMF/SEA)

Loyihaning quriliş bosqiçi MASXH/CHSS böyiça TH/AoIda ijtimoiy aloqalar, işçilar harakatçanligi va iqtisodiy faoliyat oşadigan davrdir. Boşlanğiç holat baholaşlari mavjud JAZT/GBVH va JMF/SEA xavflari, asosan, oilaviy va jamoa şaroiti bilan boğliqligini körsatsada, quriliş faoliyati qöşimça xavf omillarini yuzaga keltirişi mumkin. Bu omillar asosan erkaklardan iborat işçilar oqimi, işçilar bilan jamoa örtasidagi aloqa, transport oqimining oşişi, işçilarni vaqtinça joylaştiriş hamda ular bilan boğliq ijtimoiy-iqtisodiy özgarişlardan kelib çiqişi mumkin.

18.4-jadval. Ehtimoliy ta'sirlar: JAZT/GBVH va JMF/SEA

Ta'sirlar	Tavsif
Jamoat joylarida tazyiq yoki jinsiy maqsadda foydalaniş xavfining oşişi	Xodimlar sonining köpayişi, ularning mahalliy yöllar böylab harakatlanişi va jamoa a'zolari bilan aloqasi, ayniqsa, xotin-qizlar, bolalar va boşqa zaif guruhlarga nisbatan oğzaki, ruhiy yoki jinsiy tazyiq sodir etiliş ehtimolini oşirişi mumkin.
Norasmiy himoya mexanizmlariga bosim	Mahalliy darajada mahalla tuzilmalari, ijtimoiy xodimlar va imkoniyati çeklangan politsiya yordamiga tayaniş quriliş faoliyati bilan boğliq hodisalarni hal etiş uçun yetarli bölmasligi mumkin. Natijada tezkor javob beriş va xabar berişda böşliqlar yuzaga kelişi mumkin.
Oiladagi zöriqişning kuçayişi va xonadon içidagi zöravonlik ehtimoli	Iqtisodiy özgarişlar, daromad manbalari va iqtisodiy faoliyatning izdan çiqişi yoki xotin-qizlar yoxud yoşlar uçun imkoniyatlar teng emas degan qaraş oiladagi tanglikni kuçaytirib, oilaviy zöravonlik xavfini oşirişi mumkin.
JAZT/GBVHga oid rasmiy qöllab-quvvatlaş xizmatlaridan foydalaniş imkoniyatining çeklanganligi	Ta'sir hududida JAZT/GBVH böyiça maxsus yönaltiriş yöllari, inqiroz markazlari yoki jabrlanuvçilar uçun ixtisoslaşgan soğliqni saqlaş xizmati yöqligi hodisalar haqida xabar beriş va himoya çoralari körilişini keçiktirişi yoki qiyinlaştirişi mumkin.
Muayyan guruhlarning zaifligi	Beva ayollar, nogironligi bölgan şaxslar va harakatlaniş imkoniyati çeklangan ayollar e'tibordan çetda qolişi, ijtimoiy qöllab-quvvatlaş imkoniyati çeklanganligi va quriliş bilan boğliq xavflarga köproq duç kelişi sababli yuqoriroq xavf ostida qolişi mumkin.

Quriliş paytida JAZT/GBVH va JMF/SEA bilan boğliq ehtimoliy xavflarning oldini oliş uçun loyiha keng qamrovli oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralarini amalga oşiradi. Barça quriliş xodimlari, jumladan, quyi pudratçilar JAZT/GBVH va JMF/SEAni aniq taqiqlovçi hamda talablarga rioya qilinmaganda qöllanadigan jazo va intizomiy çoralarni belgilovçi rasmiy odob-axloq qoidalariga rioya qilişi kerak. Işçilar, nazoratçilar va boşqaruv xodimlariga maqbul xulq-atvor, huquqiy majburiyatlar va nomaqbul xatti-harakatlarning oqibatlarini tuşuntiriş uçun

majburiy xabardor qiliş maşğulotlari ötkaziladi. Mahalliy aholi va işçilar foydalana oladigan, JAZT/GBVH va JMF/SEA holatlari haqida xabar berişga möljallangan aniq, maxfiy va qulay kanallar yaratiladi. Bu orqali jamoalar bilan muloqot kuçaytiriladi. Xabardorlikni oşiriş va xabar berişni rağbatlantiriş uçun qonuniy huquqlar, mavjud qöllab-quvvatlaş xizmatlari va loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari haqidagi axborot jamoa yiğilişlari, bosma materiallar va tegişli mahalliy aloqa kanallari orqali tarqatiladi.

Şu bilan birga, xavfga duç kelişni kamaytiriş uçun infratuzilmaga oid çoralar qöllanadi. Ular köp foydalaniladigan piyoda yöllari va işçilar yotoq joylari yaqinida hamda qurilişga kiriş joylarida jamoat yoritişini yaxşilaşni, şuningdek, safar paytidagi zaiflikni kamaytiriş uçun xavfsiz transportni ta'minlaşni qamrab oladi. Loyiha mahalliy javob beriş salohiyatini mustahkamlaş va hodisalarni muvofiqlaştirilgan tarzda körib çiqişni ta'minlaş uçun mahallalar, ijtimoiy xodimlar va huquqni muhofaza qiluvçi idoralar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Zarur hollarda jabrlanuvçilarga Toşkent şahrida mavjud tibbiy, huquqiy va ruhiy-ijtimoiy qöllab-quvvatlaş xizmatlarini qamrab oladigan rasmiy yönaltiriş yöllaridan foydalanişga yordam beriladi. Hodisalar, javob çoralari va yangi yönalişlarni kuzatib boriş uçun loyiha darajasida JAZT/GBVH va JMF/SEAni muntazam kuzatiş tizimi yaratiladi. ŞKÇM/GRM JAZT/GBVH va JMF/SEAga sezgir, şaxsni oşkor qilmasdan xabar beriş imkonini beradigan hamda keyingi çoralar öz vaqtida va maxfiy körilişini ta'minlaydigan tarzda tuziladi.

JAZT/GBVH va JMF/SEA xavflarini samarali boşqariş loyiha rahbariyati, pudratçilar hamda mahalliy manfaatdor tomonlar örtasida kuçli muvofiqlaştirişni talab qiladi. Oldini oliş va kamaytiriş çoralari bajarilişini nazorat qiliş hamda javobgarlikni ta'minlaş uçun loyihaning salomatlik, xavfsizlik va himoya guruhida bu masalalar böyiça maxsus mas'ul şaxs tayinlanadi. JAZT/GBVH va JMF/SEAga oid talablar pudratçi bitimlariga kiritiladi. Kamçiliklar aniqlanganda bu talablar davriy tekşiruvlar va tuzatuv çoralari bilan mustahkamlanadi. Yangi xavflarni aniqlaş va zarur hollarda çoralarni moslaştiriş uçun jamoa vakillari, jumladan, xotin-qizlar guruhlari va zaif guruhlar manfaatini himoya qiluvçilar bilan doimiy maslahatlaşuv davom ettiriladi. Bundan taşqari, barça quriliş maydonlarida JAZT/GBVH va JMF/SEA hodisalari yuz berganda qöllanadigan aniq favqulodda javob tartiblari bölişi kerak. Bu tartiblar zarur hollarda zudlik bilan tibbiy yordam, xavfsiz boşpana hamda huquqni muhofaza qiluvçi yoki himoya xizmatlariga yönaltiriş imkoniyatini qamrab oladi.

Uşbu oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari izçil hamda samarali amalga oşirilganda quriliş paytidagi JAZT/GBVH va JMF/SEAning qoldiq ta'sirlari past yoki örta darajada bölişi kutiladi. Quriliş işçilarining katta oqimi tazyiq yoki jinsiy maqsadda foydalaniş ehtimolini oşirişi mumkin. Biroq faol çoralar xotin-qizlar, bolalar va boşqa zaif guruhlar uçun xavflarni sezilarli darajada kamaytirişi kutiladi. Bu çoralar işçilarni öqitiş, yaxşilangan yoritiş va transport, maxfiy xabar beriş mexanizmlari hamda mustahkamlangan mahalliy qöllab-quvvatlaş tarmoqlarini qamrab oladi. Qolgan xavflar muntazam kuzatiş, tezkor xabar beriş va tezkor javob tartiblari orqali samarali boşqariş mumkin bölgan alohida yoki kiçik hodisalar bilan çeklanişi kutiladi. Yaxşi boşqariladigan quriliş dasturida ağir yoki tizimli JAZT/GBVH va JMF/SEA ta'sirlarining yuz beriş ehtimoli past deb hisoblanadi.

18.5.1.5 Jismoniy va iqtisodiy köçiriş

Loyiha qurilişi yer uçastkalarini olib qöyiş va maydonni tozalaşni talab qiladi hamda ayrim xonadonlarning jismoniy köçirilişiga olib keladi. Aholini röyxatga oliş va ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotga köra, taxminan 374 nafar şaxsdan iborat jami 64 ta xonadon LTX/PAH maqomida bölib, köçiriş oqibatlariga duç keladi. LTX/PAHlarning taxminan 96 foizi Örta Çirçiq tumanida, qolgan 4 foizi esa Quyi Çirçiq tumanida joylaşgan. Qöşimça ma'lumot uçun yer uçastkalarini olib qöyişga oid 16-bobga qarang.

Quriliş bosqiçidagi jismoniy köçiriş köçib ötiş, odatiy yaşaş muhitini yöqotiş va yangi joyga köçiriş natijalarining noaniqligi bilan boğliq sezilarli ruhiy-ijtimoiy zöriqiş hamda xavotirni keltirib çiqarişi mumkin. Bu ruhiy salomatlik va umumiy farovonlikka salbiy oqibat keltirib çiqarişi mumkin. Soğliqni saqlaş, ta'lim va ijtimoiy xizmatlardan foydalanişda vaqtinçalik uziliş paydo bölişi mumkin. Bu, ayniqsa, keksa şaxslar, ayollar boşçiligidagi xonadonlar, bolalar va nogironligi bölgan şaxslar kabi zaif guruhlarga nomutanosib ta'sir qiladi. Köçiriş davrida quriliş

faoliyati, vaqtinçalik yoki xavfli kiriş yöllaridan foydalaniş hamda köçiriş joylaridagi notaniş muhitga moslaşiş xavfsizlik xavflarini ham oşirişi mumkin. Bundan taşqari, köçiriş jarayoni ijtimoiy birdamlikni zaiflaştirişi va norasmiy qöllab-quvvatlaş tarmoqlarini buzişi mumkin. Bu tarmoqlar qişloqdagi mahallaga asoslangan jamoalarda kundalik xavfsizlikni kuzatib boriş, nizolarni hal etiş hamda JAZT/GBVH xavflarini kamaytirişda ayniqsa muhimdir.

Jismoniy köçiriş bilan bir qatorda, iqtisodiy köçiriş daromad manbalari qişloq xöjaligi yerlari, uyda bajariladigan faoliyat yoki mahalliy bozorlar va transport yöllariga yaqinlik bilan çambarças boğliq xonadonlarga oqibat keltirib çiqarişi mumkin. Quriliş paytida bunday xonadonlar unumdor yerlar va mol-mulkdan foydalaniş imkoniyatini vaqtinça yoki doimiy yöqotişi mumkin. Bu xonadon daromadi va oziq-ovqat xavfsizligining pasayişiga, şuningdek, kiçik kölamli dehqonçilik, çorva boqiş va uyda yuritiladigan tadbirkorlik kabi norasmiy iqtisodiy faoliyatning uzilişiga olib kelişi mumkin. Köçiriş xonadon xarajatlari, jumladan, transport xarajatlarining oşişiga hamda zarur xizmatlarning hamyonbopligi yoki ulardan foydalaniş imkoniyatining pasayişiga sabab bölişi mumkin. Bu, ayniqsa, köçiriş joylari mavjud iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmadan uzoqroqda joylaşganda yuz beradi. Bu ta’sirlar loyiha ta’sir hududida ayniqsa muhim. Çunki boşlanğiç holatda daromad manbalarining xilma-xilligi çeklangan, yerga asoslangan daromad manbalariga boğliqlik kuçli va xizmatlardan foydalaniş imkoniyati notekis. Bu omillar birgalikda jamoalarning köçiriş bilan boğliq zarbalarga sezgirligini oşiradi.

Quriliş bosqiçidagi jismoniy va iqtisodiy köçiriş xavflarini milliy talablar va yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq bartaraf etiş uçun loyiha, avvalo, KÇR/RAP orqali keng qamrovli oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari töplamini amalga oşiradi. KÇR/RAP barça jismoniy va iqtisodiy jihatdan köçiriladigan xonadonlar aniqlanişini, ular bilan maslahatlaşuv ötkazilişini hamda quriliş boşlanişidan oldin ularga töliq qayta tiklaş qiymati böyiça tovon tölanişini ta’minlaydi. Tösatdan köçirişning oldini oliş va köçiriladigan xonadonlarga ötişga tayyorlaniş uçun yetarli vaqt beriş maqsadida köçiriş bosqiçma-bosqiç va rejali tarzda amalga oşiriladi. Köçirilgan xonadonlar munosib egalik kafolatiga ega, xavfsiz, yaşaşga yaroqli va himoyalangan şaroitda yaşaşini ta’minlaş uçun ularga örnini bosuvçi uy-joy yoki pul tovoni beriladi.

Mahalliy aholi salomatligi va farovonligiga oid masalalar köçirişdan oldingi soğliq tekşiruvi va ehtiyojlarni baholaş orqali hal etiladi. Bunda tibbiy parvariş uzluksizligi talab qilinadigan zaif şaxslarga alohida e’tibor beriladi. Loyiha köçiriş vaqtida va undan keyin birlamçi tibbiy yordam xizmatlaridan uzluksiz foydalanişni ta’minlaş uçun mahalliy soğliqni saqlaş idoralari bilan hamkorlik qiladi. Köçiriş bilan boğliq zöriqiş va xavotirni boşqariş uçun mahalliy ijtimoiy xizmatlar va mahalla tuzilmalari orqali maqsadli ruhiy-ijtimoiy yordam hamda maslahat beriladi. Xavfsizlik va himoya xavflari bir neçta çora orqali kamaytiriladi. Imkon qadar quriliş transportidan ajratilgan xavfsiz köçiriş va kiriş yöllari belgilanadi. Quriliş jadvallari, kiriş çeklangan hududlar va xavfsizlik tartiblari haqida aniq axborot beriladi. Köçiriş davrida jamoat tartibini saqlaş va şikoyatlarni kuzatib boriş kuçaytiriladi. Bu xavfsizlik masalalarini hal etiş va nizolarning oldini olişga xizmat qiladi.

Iqtisodiy köçirişni kamaytiriş uçun loyiha iqtisodiy köçirişga uçragan xonadonlarga moslaştirilgan tirikçilik manbalarini tiklaş çoralarini amalga oşiradi. Ular imkon qadar yer örniga yer beriş, qişloq xöjaligi vositalari bilan qöllab-quvvatlaş, kasbiy öqitiş va ötiş davridagi daromad yordamini qamrab oladi. Malaka va xavfsizlik talablariga rioya qilingan holda, tegişli mezonlarga javob beradigan köçirilgan şaxslarga quriliş bilan boğliq bandlik imkoniyatlaridan foydalanişda ustuvorlik beriladi. Xonadonlarning tirikçilik manbalari loyiha boşlanişidan oldingi holatiga qayta tiklanişi yoki yaxşilanişini ta’minlaş uçun xonadon daromadi muntazam kuzatiladi. Uşbu xonadonlar bilan muntazam maslahatlaşuv hamda huquqlar, muddatlar va qöllab-quvvatlaş çoralari haqida ma’lumotlarni oçiqlaş orqali manfaatdor tomonlar bilan uzluksiz muloqot saqlanadi. Bu zaif guruhlar va xotin-qizlar uçun maxsus qoidalarni qamrab olgan, qulay, maxfiy va tezkor loyiha darajasidagi şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi bilan qöllab-quvvatlanadi.

Bu çoralar samarali amalga oşirilganda quriliş bosqiçidagi jismoniy va iqtisodiy köçiriş bilan boğliq qoldiq ta’sirlar past yoki örta darajada hamda asosan vaqtinçalik bölişi kutiladi. Köçiriş joylaridagi uy-joy sifati, xizmatlardan foydalaniş va egalik kafolati loyiha boşlanişidan

oldingi şaroitga teng yoki undan yaxşi bölgan hollarda jismoniy köçirişdan qoladigan oqibatning ahamiyatlilik darajasi past darajagaça kamayişi kutiladi. Tirikçilik manbalarini tiklaş çoralari natija bergani va xonadonlar daromad keltiruvçi faoliyatni qayta yölga qöygani sari iqtisodiy köçiriş ta'sirlari kamayişi kutiladi. Quriliş davri davomida jamoalar bilan muloqot, muntazam kuzatiş va moslaşuvçan boşqaruv davom ettirilsa, zöriqiş, xavfsizlik va ijtimoiy birdamlik bilan boğliq MASXH/CHSSga oid qoldiq xavflar boşqariladigan va mahalliy darajada çeklangan bölişi kutiladi.

18.5.1.6 Zaif guruhlarga xavflar

Loyiha ta'sirlari zaif guruhlarga boşqa guruhlarga qaraganda nomutanosibroq ta'sir qilişi mumkin. Bundan taşqari, bu guruhlar loyiha doirasidagi maslahatlaşuvlarda qatnaşiş va axborotdan foydalanişda tösiqlarga duç kelişi mumkin. Şu sababli Vision Invest yoki loyiha kompaniyasi hamda MXQ/EPC kompaniyasi bu guruhlarning maslahatlaşuvlarga jalb qilinişini va ularga oson tuşuniladigan şakl hamda vositada tegişli axborot berilişini ta'minlaydi. Bunda, masalan, yakka tartibdagi uçraşuvlar ötkaziladi yoki nogironligi bölgan va keksa şaxslarning uyiga boriladi.

Vaqtinçalik quriliş işçilari oqimi, transport vositalari harakatining oşişi va mahalliy muhitdagi özgarişlar xavfsizlik hamda ijtimoiy xavflar ta'sirini kuçaytirişi mumkin. Tor qişloq yöllarida ağir transport vositalari oqimining oşişi piyodalar, velosipedçilar, bolalar, keksa şaxslar va harakatlanişi çeklangan şaxslar qatnaşadigan baxtsiz hodisalar xavfini oşirişi mumkin. Qişloq manzilgohlarida köp foydalaniladigan, yomon yoritilgan hududlar va norasmiy harakat yöllari bu xavflarni yanada oşirişi mumkin.

Taşqi işçilar bilan aloqa köpayişi tufayli, ayniqsa, yoritiş çeklangan, transport boğlanişi sust yoki işçilar harakati yönalişlariga yaqin jamoat joylarida xotin-qizlarning tazyiq, qörqitiş, jinsiy maqsadda foydalaniş yoki suiiste'molga nisbatan zaifligi oşişi mumkin. Boşlanğiç holatdagi maqsadli guruh muhokamalarida Jinsga köra zöravonlik yoki tazyiq holatlari oçiq bildirilmagan bölsa-da, milliy ma'lumotlar oilaviy va jamoa darajasidagi Jinsga köra zöravonlik, ayniqsa, qişloq hududlarida keng tarqalganini körsatadi. Bu quriliş bilan boğliq zöriqiş omillari kuçaytirişi mumkin bölgan yaşirin zaiflik mavjudligini anglatadi.

Bolalar yöl xavfsizligi, quriliş hududlariga ruxsatsiz kiriş hamda çang va şovqin kabi atrof-muhit xavflari bilan boğliq yuqori xavflarga duç kelişi mumkin. Keksa şaxslar va nogironligi bölgan şaxslar yöl buzilişi, transport tirbandligi yoki kiriş yöllarining vaqtinça tösilişi sababli soğliqni saqlaş xizmatlaridan foydalaniş yoki xavfsiz harakatlanişda qiyinçiliklarga uçraşi mumkin.

Loyihaning ta'sir doirasiga aholisi xilma-xil mahallalar kiradi. Ularda etnik koreyslar (Koryo-saram), ruslar, tojiklar va boşqa kiçik etnik jamoalar yaşaydi. Boşlanğiç holatda tizimli kamsitiş yoki çetlaştirişga oid dalil yöq. Biroq loyiha axboroti, maslahatlaşuvlar yoki şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari tegişli tillarda va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan şaklda berilmasa, etnik ozçilik xonadonlari bilvosita xavflarga uçraşi mumkin. Özbek yoki rus tilini yetarli bilmaslik, norasmiy daromad manbalariga tayaniş va mahalliy qaror qabul qiliş tuzilmalarida vakillikning sustligi ayrim oqibatlarga olib kelişi mumkin. Bular notöğri tuşuniş, loyiha foydalaridan çetda qoliş yoki şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmidan foydalaniş imkoniyati kamayişini qamrab oladi.

Quriliş bosqiçida zaif guruhlar uçun xavflarni kamaytiriş uçun loyiha milliy qonunçilik va yetakçi xalqaro amaliyotga muvofiq ehtiyotkor hamda teng qamrovli yondaşuvni qöllaydi. Transport va yöl xavfsizligi çoralari belgilangan yuk taşiş yönalişlari, tezlik çeklovlari, ogohlantiruvçi belgilar hamda aholi manzilgohlari yaqinidagi öqitilgan transport tartibga soluvçilarini qamrab oladi. Jismoniy xavfsizlik çoralari mustahkam tösiqlar, kiriş taqiqlangan joylarni aniq belgilaş va jamoani quriliş xavflari haqida xabardor qilişni qamrab oladi. Jinsga oid ehtiyojlarni hisobga oladigan çoralar qatorida tazyiq, jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'molni taqiqlovçi majburiy odob-axloq qoidalari belgilanadi hamda ular aniq intizomiy tartiblar bilan mustahkamlanadi. Mahalliy jamoalar bilan zaruratsiz aloqani kamaytiriş uçun xodimlarning turar joyi va harakati boşqariladi. Zarur hollarda madaniy jihatdan mos şakllar va mahalliy tillardan foydalangan holda maqsadli axborot tarqatiladi. Bu orqali xotin-qizlar, keksa

şaxslar, nogironligi bölgan şaxslar va etnik ozçilik xonadonlariga quriliş faoliyati, xavflar hamda yordam imkoniyatlari haqida ma’lumot beriladi. Barça jamoa a’zolari teng foydalana oladigan maxfiy şikoyat mexanizmi yaratiladi. Zaif xonadonlarni aniqlaş va qöllab-quvvatlaş uçun mahalla qömitalari, ijtimoiy xodimlar va mahalliy idoralar bilan yaqindan hamkorlik qilinadi.

Bu çoralar QAMIBR/CESMP hamda uning transportni boşqariş, MMX/OHS, jamoalar bilan işlaş va Jinsga köra zöravonlikning oldini olişga oid qöşimça rejalari orqali amalga oşiriladi. Boşqaruv çoralari jamoatçilik bilan aloqa xodimini tayinlaş va pudratçilarni jamoa salomatligi hamda xavfsizligi, Jinsga köra zöravonlikning oldini oliş, kamsitmaslik va madaniy xususiyatlarni hisobga oliş böyiça öqitişni qamrab oladi. Jamoa şikoyatlari va hodisalari zaif guruhlarga alohida e’tibor qaratgan holda muntazam kuzatiladi. Mahalliy soğliqni saqlaş, politsiya va ijtimoiy xizmatlar bilan faoliyat muvofiqlaştiriladi. Çoralar muntazam kuzatiş natijalari va jamoa fikr-mulohazalari asosida davriy körib çiqilib, moslaştiriladi. Çoralar samarali amalga oşirilsa, quriliş paytida zaif guruhlarga qoldiq ta’sirlar past va vaqtinçalik bölişi kutiladi. Transport va noqulaylik ta’sirlari mahalliy darajada qoladi. Odob-axloq qoidalari, şikoyat mexanizmlari va teng qamrovli işlaş çoralari samarali işlasa, xotin-qizlar va etnik ozçiliklarga nisbatan tazyiq, jinsiy maqsadda foydalaniş, suiiste’mol yoki çetlaştiriş xavfi ham past böladi. Muntazam kuzatiş va moslaşuvçan boşqaruv har qanday yangi xavf tez aniqlanişi hamda bartaraf etilişini ta’minlaydi.

18.5-jadval. Mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligi: oqibatning ahamiyatlilik darajasi, oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari va qoldiq ta'sirlar, quriliş bosqiçi

Ehtimoliy ta'sir	Ta'sir kölami	Ta'sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta'sir
Xodimlar oqimi, jamoa salomatligi va jinoyatçilik	Örta	Yangitoş qişloği aholisi, loyiha hududining şimoli-şarqiy qismidagi jamoa va atrofdagi mahallalar	Yuqori	Örtaça	• Xodimlar maydon içida yoki taşqarisida YTTB/EBRD va XMK/IFCning "Xodimlar turar joylari: jarayonlar va standartlar" talablariga muvofiq joylaştiriladi. Yetarli suv ta'minoti, sanitariya, çiqindilarni boşqariş, soğliqni saqlaş xizmatidan foydalaniş, xavfsizlik va hordiq çiqariş qulayliklari ta'minlanadi. Turar joylar mahalliy xizmatlarga bosimni kamaytiriş, atrofdagi jamoalar bilan zaruratsiz aloqani çeklaş va xodimlar farovonligini yaxşilaşga qaratilgan tarzda boşqariladi. • Xodimlar oqimi bilan boğliq jamoa salomatligi, xavfsizligi, himoyasi va ijtimoiy ta'sirlarni aniqlaş, boşqariş hamda kuzatib boriş uçun Xodimlar oqimini boşqariş rejasi işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. Reja turar joy, xodimlar xulq-atvori, jamoalar bilan munosabatlar, xizmatlarga talab va şikoyatlarni boşqaruv çoralarini qamrab oladi. • Mehnat va iş şaroitlarini boşqariş rejasi doirasida imkon qadar mahalliy xodimlarni yollaşga ustuvorlik beradigan yollaş tartibi işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. • Xodimlarning odob-axloq qoidalari joriy etiladi va ularga qat'iy rioya qildiriladi. Qoidalar xodimlar tuşunadigan tillarda berilib, maqbul xulq-atvor, milliy qonunlar va mahalliy madaniy me'yorlarga rioya qilişni qamrab oladi. Tazyiq, zöravonlik, jumladan JAZT/GBVH, jinoiy faoliyat va giyohvand moddalarni suiiste'mol qiliş aniq taqiqlanadi. • Barça xodimlar jamoa bilan munosabatlar, hurmatli muomala, mahalliy urf-odatlar, jamoat salomatligi va xavfsizlik talablari böyiça işga kiriş, takroriy va madaniy xabardorlik öquvlaridan majburiy tartibda ötkaziladi. • Xodimlarning jamoa inşootlaridan foydalaniş ehtiyojini kamaytiriş uçun turar joy hududlarida dam oliş inşootlari ta'minlanadi. • Jamoalar uçun transport xavflarini kamaytiriş uçun xodimlarni taşiş yönalişlari, jadvallari, tezlik çeklovlari va piyodalar xavfsizligi çoralarini tartibga soladigan transport harakatini boşqariş rejasi amalga oşiriladi.	Sezilarsizdan örtaçagaça

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Manfaatdor tomonlarni jalb qiliş, ma’lumotlarni oçiqlaş, şikoyatlarni körib çiqiş va jamoaga oid yangi masalalarni boşqarişga mas’ul jamoatçilik bilan aloqa xodimi tayinlanadi. • Jamoa a’zolari va xodimlar foydalana oladigan loyiha darajasidagi ŞKÇM/GRM yaratiladi. Unda şikoyatni beriş, hal qiliş va natijasi haqida javob qaytariş tartiblari aniq belgilanadi. • Yuqumli kasalliklarni nazorat qiliş, çang va şovqinni kuzatib boriş hamda xodimlar turar joylari va iş hududlarida muntazam tibbiy tekşiruv ötkazişni qamrab oladigan salomatlikni nazorat qiliş çoralari amalga oşiriladi. • Quriliş davrida malakali tibbiyot mutaxassislari va tegişli tibbiy xizmat obyektlaridan foydalaniş imkoniyati ta’minlanadi. Maydondagi barça xodimlar işga jalb etilişidan oldin vakolatli tibbiyot markazidan mehnatga tibbiy yaroqlilik guvohnomasini olişi şart. • Mahalliy soğliqni saqlaş idoralari bilan hamkorlikda va madaniy jihatdan mos yondaşuvlardan foydalangan holda xodimlar hamda zarur hollarda atrofdagi jamoalar uçun jinsiy yöl bilan yuqadigan infeksiyalar haqida xabardorlik va öquv dasturlari ötkaziladi.	
Jamoat va jamoa xavfsizligi	**Örta**	Aholi va mahalliy yöl foydalanuvçilari.	**Örta**	**Örtaça**	• Quriliş boşlanişidan oldin quriliş davrida transport harakatini boşqariş rejasining asoslari işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. Ular transport harakatini boşqariş tamoyillari, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni muvofiqlaştiriş mexanizmlari, jamoa xavfsizligi çoralari, kuzatuv talablari va har bir pudratçiga xos transport harakatini boşqariş rejasi uçun eng kam talablarni belgilaydi. • Xodimlar oqimi bilan boğliq jamoa salomatligi, xavfsizligi, himoyasi va ijtimoiy ta’sirlarni aniqlaş, baholaş, boşqariş hamda muntazam kuzatiş uçun Xodimlar oqimini boşqariş rejasi işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. Baholaş AMITBning ijtimoiy-iqtisodiy boşlanğiç holati tavsifida aniqlangan zaif va xavf ostidagi aholi guruhlari kesimida ötkaziladi. Ayollar, bolalar, keksa şaxslar, nogironligi bölgan şaxslar, kam daromadli uy xöjaliklari va boşqa zaif guruhlar uçun nomutanosib xavflarni bartaraf etadigan maqsadli oldini oliş va kamaytiriş çoralari belgilanadi. • Aholi punktlari, maktablar, iş hududiga kiriş joylari va xavfi yuqori boşqa ötiş joylari yaqinida öqitilgan transport nazoratçilari joylaştiriladi.	Sezilarsiz

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Mahalliy idoralar bilan hamkorlikda yöl belgilari, tezlikni pasaytiriş çoralari, piyodalar ötiş joylari va köça yoritişini qamrab olgan yöl xavfsizligi infratuzilmasi örnatiladi yoki yaxşilanadi. • Aholiga quriliş jadvallari, transport xavflari, yöl xavfsizligi qoidalari va favqulodda boğlaniş ma’lumotlarini bildiradigan jamoatçilikni xabardor qiliş kampaniyalari ötkaziladi. • Yaqin atrofdagi turar joylar uçun salomatlik va xavfsizlik xavflarini kamaytiriş uçun çang va şovqinni nazorat qiliş çoralari qöllanadi. • Hudud içida favqulodda vaziyatlarga javob beriş imkoniyati, jumladan, mahalliy soğliqni saqlaş muassasalari va tez yordam xizmatlari bilan hamkorlik ta’minlanadi. • Xodimlar uçun salomatlik va xavfsizlikka oid işga kiriş hamda takroriy öquvlar ötkaziladi. Öquvlar yuqumli kasalliklar va profilaktika çoralari, jumladan, sil, jinsiy yöl bilan yuqadigan infeksiyalar, OIV/HIV va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromini qamrab oladi. • Quriliş davrida tibbiyot mutaxassislari va tegişli tibbiy xizmat obyektlaridan foydalaniş imkoniyati ta’minlanadi. Xodimlarga vakolatli tibbiyot markazi bergan amaldagi mehnatga tibbiy yaroqlilik guvohnomasi asosida ruxsat berilgandan keyingina işlaşga ijozat etiladi. • Mahalliy kasalxonalar va tez yordam xizmatlarining boğlaniş ma’lumotlarini qamrab olgan Tibbiy köçiriş va favqulodda vaziyatlarga javob beriş rejasi tayyorlanadi va amalga oşiriladi. • Loyiha faoliyati bilan boğliq suv orqali, kasallik taşuvçilar orqali yuqadigan va boşqa yuqumli kasalliklarga duç kelişning oldini oliş yoki uni kamaytiriş çoralari köriladi. • Loyiha hududiga yaqin jamoalarni qamrab olgan holda jinsiy yöl bilan yuqadigan infeksiyalar tarqalişi böyiça jamoani xabardor qiliş dasturlarini ötkaziş uçun mahalliy idoralar bilan hamkorlik qilinadi.	
Jamoat va jamoa himoyasi	Örta	Ta’sir hududidagi aholi, ayniqsa, ayollar va zaif guruhlar	Yuqori	Örtaça	• MXQ/EPC pudratçisi himoya xavflarini baholaş natijalariga muvofiq loyihaning himoya rejasini tayyorlaydi va amalga oşiradi. • Loyihaning barça himoya xodimlari qurolsiz bölişi haqidagi şart MXQ/EPC şartnomalari, himoya xizmati bitimlari va loyihaning himoya rejasiga kiritiladi. Talabga rioya qilinişi pudratçilar auditi, tekşiruvlar va faoliyat natijalarini davriy körib çiqiş orqali tasdiqla-	Sezilarsiz

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					nadi. Loyihaning himoya rejasida qurolsiz himoya xodimlaridan foydalaniş siyosatiga rioya qilişni ta’minlaydigan şartnoma talablari, muntazam kuzatiş tartiblari, hisobot beriş qoidalari va tuzatiş çoralari belgilanadi. • Loyiha maxsus himoya xodimlarini jalb qiladi. Ular loyiha hududining barça joylarida sutkasiga 24 soat, haftasiga 7 kun himoyani ta’minlaydi va qöriqçi maskanlarida navbatçilik qiladi. Mahalliy huquqni muhofaza qiliş idoralari va mahalla tuzilmalari bilan hamkorlik mexanizmlari ham yaratiladi. • Himoya xodimlari jamiyatga zid xulq-atvor, tazyiq, qörqitiş, JAZT/GBVH, JMF/SEA, JT/SH va vakolatni suiiste’mol qilişni taqiqlaydigan qat’iy odob-axloq qoidalariga rioya qiladi. Ular inson huquqlari, şikoyatlarni körib çiqiş hamda JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH holatlariga javob beriş tartiblari böyiça muntazam öqitiladi. • Tayyorgarlik işlari davrida hudud atrofiga panjara örnatiş va kiriş çeklangan joylarni aniq belgilaş orqali maydonga kiriş nazorat qilinadi. Loyihaning barça xodimlari uçun amaldagi şaxsiy guvohnoma, işga ruxsatnoma hamda SXAM/HSE talablariga muvofiq kiriş şartlari qöllanadi. • Hududga kiradigan barça transport vositalari oldindan tasdiqlanişi va röyxatdan ötkazilişi şart, himoya xodimlari esa kirayotgan va çiqayotgan barça transport vositalarining qaydlarini yuritadi. • Amaldagi ruxsatnomasi yoki talab etiladigan ŞHV/PPEsi bölmagan şaxslarning ruxsatsiz kiriş urinişlari töxtatiladi. Bunday şaxslar hududdan çiqariladi, hodisa tekşiriladi va tuzatiş çoralari köriladi. • Ruxsatsiz kirişning oldini oliş va xavfsizlikni yaxşilaş uçun qöriqçi maskanlari, quriliş hududiga kiriş nuqtalari va jamoatçilik köp qatnaydigan joylar yetarli yoritiladi. • Himoyani muntazam kuzatiş va hodisalarga javob berişni yaxşilaş uçun zarur hollarda hudud atrofidagi asosiy nuqtalar va qöriqçi maskanlariga videokuzatuv tizimi örnatiladi. • Hodisalar haqida xabar beriş, ularni qayd etiş, tekşiriş va keyingi kuzatuv tartiblari joriy etilib, loyihaning ŞKÇM/GRMsi bilan birlaştiriladi. • Xavflar haqida axborot beriş, muammolarni bartaraf etiş va atrofdagi jamoalar işonçini saqlaş uçun jamoatçilik bilan muntazam aloqa uçraşuvlari ötkaziladi.	

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
Jinsga köra zöravonlik va tazyiq hamda jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste’mol (JAZT/GBVH va JMF/SEA)	Örta	Ayollar, bolalar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslar	Yuqori	Örtaça	• Loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçisi barça loyiha xodimlari, quyi pudratçilar va xizmat körsatuvçilarga qöllanadigan rasmiy JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH siyosati hamda odob-axloq qoidalarini belgilaydi va amalga oşiradi. Ularda taqiqlangan xatti-harakatlar, jazo va intizomiy çoralar aniq körsatiladi. • Barça loyiha xodimlari, nazoratçilar va rahbariyat uçun JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH böyiça majburiy xabardorlik öquvlari ötkaziladi. Öquvlar xavflar, xodimlarning majburiyatlari, nojöya xatti-harakatlarning huquqiy oqibatlari va kutiladigan xulq-atvor me’yorlarini qamrab oladi. • Loyiha xodimlari va belgilangan mas’ul şaxslar jabrlanuvçi holatini hisobga olgan holda suhbat ötkaziş, ma’lumotlar bilan işlaş hamda ayollar, qizlar, oğil bolalar va boşqa zaif guruhlarni himoya qiliş böyiça maqsadli ravişda öqitiladi. • Maxfiy, qulay va jabrlanuvçi manfaatlarini markazga qöyadigan xabar beriş mexanizmi yaratiladi. U anonim xabar beriş imkoniyatini ham öz içiga olib, loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmiga kiritiladi. Bunda maxfiylik, öç olişga yöl qöymaslik, jabrlanuvçilarning qadr-qimmati va ularga hurmat kafolatlanadi. • Maqsadli oldini oliş va kamaytiriş çoralarini belgilaş uçun JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavflari baholanadi. Baholaş loyihaga aloqador ayol yetakçilar, jamoa vakillari hamda ösmir qizlar va oğil bolalar bilan işlaydigan taşkilotlar bilan maslahatlaşgan holda ötkaziladi. • Loyiha ta’sir doirasidagi jamoalar, jumladan, ayollar va zaif guruhlarni JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavflari, xabar beriş kanallari hamda mavjud yordam xizmatlari haqida xabardor qiliş uçun jamoa miqyosida axborot kampaniyalari ötkaziladi. • Oldini oliş, yönaltiriş va javob beriş tartiblarini özaro muvofiqlaştiriş uçun loyiha mahalla qömitalari, jamoatçilik bilan aloqa xodimlari, ijtimoiy xodimlar, soğliqni saqlaş xizmati körsatuvçilari va huquqni muhofaza qiliş idoralari bilan hamkorlik qiladi. • Piyoda yönalişlari, işçi oromgohlari yaqinida va quriliş hududiga kiriş joylarida yoritişni yaxşilaş, şuningdek, xavfga duç kelişni kamaytiradigan xavfsiz transport tartiblarini joriy etiş kabi jismoniy xavfni kamaytiriş çoralari amalga oşiriladi.	Sezilarsizdan örtaçagaça

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Jabrlanuvçilarga maslahat, ruhiy-ijtimoiy va huquqiy yordam hamda ixtisoslaşgan xizmat körsatuvçilarga yönaltirişni qamrab olgan yordam xizmatlari bepul beriladi. • JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHning tasdiqlangan barça holatlari, tegişli hollarda, milliy qonunçilikka muvofiq tekşiriş va jinoiy javobgarlikka tortiş uçun vakolatli huquqni muhofaza qiliş idoralariga yuboriladi. • JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHga oid barça şikoyatlar xavfsiz tarzda hujjatlaştiriladi, muntazam kuzatiladi va yakunlanadi. Anonimlik va maxfiylikni saqlaş uçun ma’lumotlarni himoya qiliş çoralari qöllanadi.	
Jismoniy va iqtisodiy köçiriş	Yuqori	Jismoniy yoki iqtisodiy köçirişga uçraydigan xonadonlar	Yuqori	Örtaçadan jiddiygaça	• Milliy qonunçilik va tegişli xalqaro kreditor standartlariga muvofiq loyihaga xos Köçiriş böyiça çora-tadbirlar rejasi (KÇR/RAP) amalga oşiriladi. • Jismoniy, iqtisodiy yoki har ikki turdagi köçirişga uçragan barça loyihadan ta’sirlangan şaxslarga (LTŞ/PAP) köçirişdan oldin töliq qayta tiklaş qiymatida adolatli tovon tölanadi. • Xonadonlar hayoti, tirikçilik manbalari va jamoa tarmoqlaridagi uzilişlarni kamaytiriş uçun köçiriş bosqiçma-bosqiç va puxta rejalaştirilgan tarzda amalga oşiriladi. • Egalik huquqi kafolatlangan muqobil uy-joy, pul tovoni yoki ularning har ikkalasi beriladi. Bunda munosib turmuş darajasi va yaşaş şaroitlarining uzluksiz yaxşilanişi ta’minlanadi. • Tirikçilik manbalarini tiklaş çoralari amalga oşiriladi. Ular mumkin bölgan hollarda yer evaziga yer beriş, kasbiy könikmalarni rivojlantiriş, işga joylaşişga kömaklaşiş va ötiş davridagi daromadni qoplaşni qamrab oladi. • Zaif uy xöjaliklari va şaxslarga alohida e’tibor qaratilgan holda ruhiy-ijtimoiy yordam va maslahat xizmati beriladi. • Tenglik va kamsitmaslik tamoyillariga muvofiq manfaatdor tomonlar bilan şaffof va teng qamrovli işlaş ta’minlanadi. Bunga axborotdan foydalaniş, haq-huquqlarni oçiqlaş hamda LTŞ/PAPlarning qaror qabul qilişdagi mazmunli iştiroki kiradi.	Sezilarsizdan örtaçagaça

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş, kamaytiriş va boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Qulay va samarali şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi yaratiladi hamda uning faoliyati ta’minlanadi. Unda zaif guruhlarning mexanizmdan foydalanişi va şikoyatlar öz vaqtida hal qilinişini ta’minlaydigan qoidalar belgilanadi.	
Zaif guruhlar uçun xavflar	Yuqori	Ayollar, bolalar, keksalar, nogironligi bölgan şaxslar va etnik ozçiliklar	Yuqori	Örtaça	• Iş imkoniyatlari va har qanday jamoaga sarmoya kiritiş loyihalarida zaif guruhlarga ustuvorlik beriladi. • Maslahatlaşuvlar zaif guruhlar oson yetib bora oladigan joylarda ötkaziladi va loyiha töğrisidagi ma’lumotlar ham şu joylarda beriladi. • Loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçisi raqamli vositalardan foydalaniş imkoniga ega bölmaganlar uçun muqobil aloqa va ma’lumot oliş usullarini beradi. • Ma’lumotlar mahalliy tillarda, jumladan, özbek va rus tillarida beriladi hamda oçiq e’lon qilinadi. • MXQ/EPC pudratçisi loyihadagi mahalliy bölmagan xodimlarni, ayniqsa, mahalliy etnik ozçilik vakillari bilan töğri muomala qiliş böyiça yetarli darajada öqitadi. • Mahalliy aholiga, jumladan, yaşovçilarga öz xavotirlarini şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi orqali bildiriş imkoniyati beriladi. • MXQ/EPC pudratçisi xodimlarning ayollar yoki jamoaning har qanday a’zosiga nisbatan nomaqbul xatti-harakatlariga mutlaq murosasizlik siyosatini qabul qiladi. • Loyiha kompaniyasi va MXQ/EPC pudratçisi loyiha oqibatlariga uçragan şaxslardan öç olişga hamda ularga nisbatan JAZT/GBVH sodir etilişiga mutlaq murosasizlik siyosatini oçiq e’lon qiladi. Bu siyosat, ayniqsa, zaif guruhlarga alohida e’tibor qaratilgan holda puxta amalga oşiriladi. • Loyihaga xos KÇR/RAPda zaif guruhlar uçun belgilangan çoralar, jumladan, qöşimça yordam körsatiş va yollaşda ustuvorlik beriş amalga oşiriladi.	Sezilarsizdan örtaçagaça

18.5.2 Foydalaniş bosqiçi

Foydalaniş bosqiçida loyiha belgilangan ta’sir doirasidagi jamoa salomatligi, xavfsizligi va himoyasiga turli ta’sirlar körsatişi kutiladi. Bu doiraga aeroport faoliyati, havo kemalari şovqini va loyiha bilan boğliq obyektlar ta’sir qiladigan hududlar hamda atrofdagi jamoalar kiradi. Jamoat salomatligi, xavfsizligi va himoyasiga oid oqilona ravişda oldindan köriş mumkin bölgan xavflar hamda ehtimoliy ta’sirlar quyida körib çiqiladi.

18.5.2.1 Jamoa salomatligi

Loyihaning foydalaniş bosqiçidagi faoliyati jamoa salomatligiga bir neçta omil orqali ta’sir körsatişi kutiladi. Ularga havo sifati va şovqin ta’siri, soğliqni saqlaş xizmatlariga talabning oşişi, kasallik taşuvçilar va suv orqali yuqadigan kasalliklar xavfi hamda mehnat muhofazasi va xavfsizligiga oid muammolar kiradi. Asosiy ehtimoliy ta’sirlar quyida bayon etilgan:

- Havo kemalarining odatiy harakati, yer usti xizmat transporti va xizmat qatnovlari havodagi muallaq zarraçalar, azot oksidlari (NOx) va boşqa ifloslantiruvçilar çiqarmalarini oşirişi kutiladi. Havo kemalarining parvozga kötarilişi, qönişi va yer ustidagi harakatidan kelib çiqadigan uzluksiz şovqin yaqin atrofdagi, ayniqsa, uçiş-qöniş yölagiga eng yaqin jamoalarga xalal berişi mumkin. Bolalar, keksalar va avvaldan nafas oliş yoki yurak-qon tomir kasalligi bölgan şaxslar kabi sezgir guruhlarda ruhiy zöriqiş va uyqu buzilişi kuçayişi yoki nafas oliş alomatlari oğirlaşişi mumkin.
- Foydalaniş bosqiçidagi xodimlar, yölovçilar va xizmat körsatuvçilar oqimi mahalliy soğliqni saqlaş xizmatlariga talabni oşirişi mumkin. Ayniqsa, Surum va Yangiyöl kabi ixtisoslaşgan yordamdan foydalaniş imkoniyati çeklangan jamoalarda poliklinika va tuman kasalxonalari quvvatiga bosim ortişi mumkin. Bu hududlardagi mavjud transport çeklovlari öz vaqtida tibbiy yordam olişni yanada qiyinlaştirişi mumkin.
- Aeroportni kökalamzorlaştiriş va parvariş qiliş, jumladan, suğoriş va yaşil hududlarni rivojlantiriş bexosdan çivin kabi kasallik taşuvçilar köpayadigan joylarni paydo qilişi mumkin. Bu ular orqali yuqadigan kasalliklar xavfini oşiradi. Bundan taşqari, foydalaniş bosqiçida suvni notöğri boşqariş mahalliy suv manbalariga tayanadigan jamoalarda suv orqali yuqadigan kasalliklar xavfini kuçaytirişi mumkin.
- Aeroportning foydalaniş bosqiçidagi muhiti uskunalardan foydalaniş, yuklaş va tuşiriş işlari hamda piyodalar bilan transport vositalarining özaro harakati köpayişi tufayli xodimlar va mahalliy aholi orasida yengil jarohatlar xavfini oşirişi mumkin. Xizmat yöllari va boşqa foydalaniş bosqiçidagi faoliyatdan çiqadigan çang hamda çiqarilmalar mavsumiy nafas oliş kasalliklarini oğirlaştirişi mumkin.

Foydalaniş bosqiçida jamoa salomatligiga ehtimoliy ta’sirlarni boşqariş va kamaytiriş uçun loyiha oldini oliş va kamaytiriş, boşqariş hamda muntazam kuzatiş çoralarini birgalikda amalga oşiradi. Havoni ifloslantiruvçi moddalar va şovqin ta’siri optimallaştirilgan parvoz yönalişlari, sezgir davrlardagi jadval çeklovlari hamda mumkin bölgan joylarda şovqin tösiqlarini örnatiş kabi foydalaniş nazorati orqali kamaytiriladi. Ta’sir doirasidagi atmosfera havosi sifati va şovqin darajasi uzluksiz kuzatiladi. Bu noqulay şaroitlarni erta aniqlaş va tuzatiş çoralarini öz vaqtida körişga imkon beradi. Soğliqni saqlaş xizmatlariga oşgan talabni qondiriş uçun mahalliy soğliqni saqlaş idoralari bilan hamkorlik qilinadi. Bunda poliklinika va kasalxonalar imkoniyatlarini kuçaytiriş, tez tibbiy yordam xizmatlarini qöllab-quvvatlaş va zarur hollarda ixtisoslaşgan yordamdan foydalanişni osonlaştiriş nazarda tutiladi. Kasallik taşuvçilar va suv orqali yuqadigan kasalliklar xavfi suvni samarali boşqariş, kökalamzorlaştiriş va suğoriş tizimlarida turğun suvni nazorat qiliş hamda gigiyena va kasalliklarning oldini oliş böyiça jamoatçilikni xabardor qiliş orqali kamaytiriladi. Xodimlar xavfsiz iş tartiblariga öqitiladi, ŞHV/PPE bilan ta’minlanadi, piyoda va transport yönalişlari esa ajratib qöyiladi. Bu mehnat va jamoat xavfsizligini qöllab-quvvatlaydi. Çoralar loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv rejasi orqali muvofiqlaştiriladi. Ularning ijrosini nazorat qiliş, hisobot beriş hamda mahalliy idoralar va jamoalar bilan aloqa qiliş uçun mas’ul xodim tayinlanadi. Çoralar amalga oşirilgaç, qoldiq ta’sirlar past darajadan örta darajagaça, hududiy jihatdan mahalliy va boşqariladigan

bölişi kutiladi. Sezgir aholi şovqin yoki çiqarilmalar tufayli kiçik bezovtalikni his qilişda davom etişi mumkin, biroq bu ta’sirlar maqbul çegaralarda qolişi kutiladi. Soğliqni saqlaş xizmatlariga bosim va mehnat xavflari esa kuçaytirilgan xizmatlar hamda faol xavfsizlik çoralari orqali sezilarli kamayadi.

18.5.2.2 Jamoa xavfsizligi va transport ta’sirlari

Foydalaniş bosqiçida loyiha hozir transport harakati past bölgan hududdagi qatnov hajmini sezilarli oşirişi kutiladi. Yölovçi avtobuslari, taksilar, yuk va xizmat maşinalari belgilari hamda piyodalarni himoya qiliş vositalari çeklangan tor qişloq yöllaridan foydalanadi. Bu piyodalar, çorva mollari va qişloq xöjaligi texnikasi iştirokidagi baxtsiz hodisalar xavfini oşiradi. Şuningdek, ayniqsa, boşlanğiç holatdayoq qatnov çeklangan Surum kabi qişloqlarda favqulodda vaziyatlarga javob beriş vaqtini uzaytirişi mumkin. Oğir transport vositalari yöllar, çorrahalar va köpriklar kabi mahalliy transport infratuzilmasini tezroq eskirtiradi. Natijada ta’mirlaş ehtiyoji oşib, vaqtinçalik xavfsizlik xatarlari paydo bölişi mumkin.

Loyihaning texnik tadqiqotlari doirasida foydalaniş bosqiçida paydo böladigan transport oqimi va unga boğliq infratuzilma talablari alohida baholanadi. Natijalar aeroport işga tuşirilişidan oldin foydalaniş bosqiçidagi transportni boşqariş rejasi (FTBR/OTMP) va unga boğliq jamoa xavfsizligi çoralarini işlab çiqişga asos böladi.

Hududdagi jinoyat darajasi hozirda past bölsa-da, loyiha bilan boğliq transport vositalari, işçilar va vaqtinça kelib-ketadigan aholi oqimi ayrim turdagi jinoiy yoki jamiyatga zid xatti-harakatlarni biroz oşirişi mumkin. Ayniqsa, piyodalar köp yuradigan joylar, jamoat töplanadigan maskanlar yoki transport tugunlarida mayda oğrilik, imkoniyatdan foydalanib sodir etiladigan jinoyat yoki mol-mulkka yengil zarar yetkaziş xavfi biroz yuqori bölişi mumkin. Bundan taşqari, yangi yoki vaqtinçalik aholi şovqindan şikoyatlar, kiçik nizolar yoki tartibsiz xatti-harakatlar kabi ijtimoiy bezovtaliklarga sabab bölişi, bu esa mahalliy aholi va jamoat joylari foydalanuvçilari orasidagi xavfsizlik hissiga ta’sir qilişi mumkin. Bu xavflar sezilarli bölişi kutilmaydi. Biroq ularni kuzatib boriş va jamoa xavfsizligini saqlaş uçun oldini oliş çoralari zarur. Bunday çoralarga yoritişni yaxşilaş, himoya patrullarini joriy etiş, jamoatçilikni xabardor qiliş kampaniyalarini ötkaziş hamda mahalliy huquqni muhofaza qiliş idoralari bilan hamkorlik qiliş kiradi.

Foydalaniş bosqiçidagi transport va xavfsizlik xavflarini kamaytiriş uçun loyiha mahalliy jamoalarni himoya qiliş hamda yöl infratuzilmasini saqlaşga qaratilgan amaliy çoralarni amalga oşiradi. Aeroportga oid avtobuslar, taksilar, yuk maşinalari va xizmat transporti piyodalar, çorva mollari va qişloq xöjaligi texnikasi bilan töqnaşiş xavfini kamaytiradigan belgilangan yönalişlardan yuradi. Asosiy joylarda, ayniqsa, qişloqlar va qatnov köp hududlar yaqinida tezlik çeklovlari, ogohlantiriş belgilari va piyodalar ötiş joylari örnatiladi. Oğir transport harakati mahalliy qatnov eng yuqori vaqtlarga töğri kelmaydigan qilib jadvalga solinadi. Tez eskiriş va vaqtinçalik xavflarning oldini oliş uçun yöl, köprik va çorrahalar mahalliy idoralar bilan hamkorlikda muntazam ta’mirlanadi. Mayda oğrilik va qulay imkoniyatdan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarni kamaytiriş uçun jamoat joylari va transport tugunlarida yoritiş va himoya çoralari yaxşilanadi. Transport şaroitini muntazam kuzatiş, favqulodda xizmatlar bilan hamkorlik va mahalliy jamoalar bilan işlaş bu çoralarning samaradorligini hamda özgarayotgan şaroitlarga moslaşişini ta’minlaydi. Bu çoralardan söng qoldiq ta’sirlar past darajadan örta darajagaça bölişi kutiladi. Transport hajmi boşlanğiç darajadan yuqori bölib qolişiga qaramay, baxtsiz hodisalar, infratuzilma zarari va kiçik xavfsizlik muammolari xavfi sezilarli kamayadi, favqulodda vaziyatlarga javob beriş vaqti esa saqlanadi.

18.5.2.3 Jamoat va jamoa himoyasi

Foydalaniş bosqiçida loyiha ta’sir doirasidagi jamoat va jamoa himoyasiga bevosita hamda bilvosita ta’sir körsatişi mumkin. Yölovçilar, foydalaniş bosqiçidagi xodimlar, xizmat körsatuvçilar va ular bilan boğliq transport vositalari köpayadi. Natijada jamoat joylari, avtomobil töxtaş joylari va transport yönalişlarida mayda oğrilik, buzğunçilik yoki ruxsatsiz kiriş kabi qulay imkoniyatdan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar xavfi oşişi mumkin. Tor qişloq yöllarida transport hajmining oşişi, ayniqsa, piyodalar, çorva mollari va qişloq xöjaligi xodimlari uçun xavf tuğdiradi. Ehtimoliy tirbandlik favqulodda vaziyatlarga javob beriş vaqtiga ham ta’sir

qilişi mumkin. Jinoyatçilikning boşlanğiç darajasi past va huquqni muhofaza qiliş idoralarining iştiroki odatda samarali. Biroq vaqtinça kelib-ketadigan aholi oqimi hamda jamoat joylaridan foydalanişdagi özgarişlar, ayniqsa, ayollar, bolalar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslar kabi zaif guruhlarning xavfsizlik hissiga ta'sir qilişi mumkin. Iş imkoniyatlari, xizmatlardan foydalaniş yoki manfaatlar taqsimotidagi tengsizlik haqidagi tasavvurlardan kelib çiqadigan ijtimoiy ziddiyatlar himoya muammolarini yanada kuçaytirişi mumkin. Bu holatlar jamoat xavfsizligiga işonçni saqlaş hamda farovonlik va ijtimoiy birdamlikka salbiy ta'sirlarni kamaytiriş uçun foydalaniş bosqiçidagi xavflarni oldindan köriş va boşqariş zarurligini körsatadi.

Foydalaniş bosqiçida jamoat va jamoa himoyasi xavflari jismoniy nazorat, muassasaviy hamkorlik va jamoatçilik bilan işlaşni birlaştiradigan köp qatlamli yondaşuv orqali boşqariladi. Oldini oliş çoralari aeroport inşootlariga kirişni tartibga soliş, jamoat va ötiş joylarini yetarli yoritiş hamda transport almaşuv joylari va avtomobil töxtaş joylari kabi asosiy nuqtalarda öqitilgan himoya xodimlarini joylaştirişni qamrab oladi. Yöl xavfsizligi xatarlari foydalaniş bosqiçidagi transport nazorati orqali bartaraf etiladi. Bunga tezlikni tartibga soliş, aniq belgilar, piyodalar xavfsizligi vositalari va atrofdagi qişloq yöllarida transport oqimini boşqariş uçun mahalliy idoralar bilan hamkorlik kiradi. Himoyani boşqaruv çoralari loyihaning atrof-muhit va ijtimoiy boşqaruv tizimiga kiritiladi. Unda hodisalarni muntazam kuzatiş, muntazam tekşiruvlar hamda mahalliy politsiya va favqulodda xizmatlar bilan hamkorlik uçun javobgarliklar aniq belgilanadi. Jamoa a'zolari himoyaga oid xavotirlarni bildiriş uçun aniq va qulay kanallardan foydalana oladi. Bu yuzaga kelayotgan muammolarni erta aniqlaş va ularga javob beriş imkonini beradi. Çoralar joriy etilgaç, jamoat va jamoa himoyasiga qoldiq ta'sirlar kölami çeklangan bölişi hamda asosan alohida yoki qisqa muddatli hodisalardan iborat bölişi kutiladi. Uzluksiz kuzatuv va moslaşuvçan boşqaruv ta'sir doirasidagi himoya şaroitlari boşlanğiç holat böyiça kutilmalarga mos qolişi hamda jamoa xavfsizligi yoki himoyalanganlik hissi sezilarli yomonlaşmasligini ta'minlaydi.

18.5.2.4 Jinsga köra zöravonlik va tazyiq hamda jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol (JAZT/GBVH va JMF/SEA)

Loyihaning ta'sir doirasida asosan erkaklardan iborat foydalaniş bosqiçidagi xodimlar jamoat joylari, iş muhiti va transport tizimlarida Jinsga köra zöravonlik va tazyiq, jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste'mol yoki qörqitiş ehtimolini oşirişi mumkin. Xalqaro yetakçi amaliyotga köra, bu xavflar ayollar, bolalar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslar kabi zaif guruhlar uçun ayniqsa dolzarb. Mavjud norasmiy himoya tarmoqlari yetarli bölmasa, ortiqça yuklansa yoki ulardan kam foydalanilsa, bu guruhlar xavfga köproq duç keladi. Xodimlar oqimi va unga boğliq iqtisodiy faoliyat iş imkoniyatlari, mahalliy xizmatlardan foydalaniş yoki manfaatlar taqsimotidagi tengsizlik haqidagi tasavvurlar sababli ijtimoiy ziddiyatlarga bilvosita olib kelişi mumkin. Bunday özgarişlar çetda qolgan aholi guruhlarining zaifligini oşirib, jamoalar içida ijtimoiy kelişmovçilikni kuçaytirişi mumkin. Rasmiy hodisalar soni çeklangan taqdirda ham, jamoat joylaridan foydalaniş, himoya amaliyoti va transport tartiblaridagi özgarişlar jamoaning xavfsizlik va farovonlik haqidagi tasavvuriga ta'sir qiladi. Bu ayollarning harakatlanişi, maktabga qatnaşi yoki jamoat va fuqarolik faoliyatidagi iştirokiga sezilarli ta'sir körsatişi mumkin. Şu sababli ijtimoiy xavflarni boşqariş va zaif aholini himoya qilişga qaratilgan faol oldini oliş va kamaytiriş, xabardorlikni oşiriş hamda kuzatuv çoralari zarur.

Foydalaniş bosqiçidagi ehtimoliy JAZT/GBVH va JMF/SEA xavflarini bartaraf etiş uçun loyiha zaif aholini himoya qilgan holda hodisalarning oldini oliş, ularni muntazam kuzatiş va ularga javob berişga qaratilgan keng qamrovli çoralarni amalga oşiradi. JAZT/GBVH yoki JMF/SEA hodisalari haqida xabar beriş uçun maxfiy va qulay kanallar yaratiladi, xavfsiz transport va yaxşi yoritilgan piyoda yönalişlari ta'minlanadi. Barça foydalaniş bosqiçidagi xodimlar, pudratçilar va boğliq xizmat körsatuvçilar uçun maqsadli xabardorlik va oldini oliş öquvlari ötkaziladi. Jamoa miqyosidagi himoya tarmoqlarini kuçaytiriş va öz vaqtida aralaşuvni qöllab-quvvatlaş uçun mahalla qömitalari, ijtimoiy xodimlar va huquqni muhofaza qiliş idoralari bilan faol hamkorlik qilinadi. Aholi, ayniqsa, ayollar, bolalar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslar öz huquqlari, mavjud yordam mexanizmlari va xavotirlar haqida xabar berişning xavfsiz kanallari böyiça xabardor qilinadi. Çoralar amalga oşirilgaç, JAZT/GBVH va

JMF/SEAga oid qoldiq xavflar past bölişi kutiladi. Hodisalar ehtimoli, şuningdek, harakatlaniş, ta'limdan foydalaniş va jamoa hayotida iştirok etişga ehtimoliy ta'sirlar sezilarli kamayadi. Har qanday yangi xavfga samarali javob beriş hamda jamoaning barça a'zolari uçun xavfsiz va teng qamrovli muhitni saqlaşda muntazam kuzatiş va moslaşuvçan boşqaruv muhim bölib qoladi.

Jamoaga xavfli materiallar ta'siri

Aeroportdan foydalaniş uçun aviatsiya yoqilğisi, moylaş materiallari, tozalaş vositalari, yonğinni öçiriş kimyoviy moddalari va tartibga solinadigan boşqa xavfli materiallar zarur böladi. Ular amaldagi milliy qoidalar, xalqaro aviatsiya talablari va belgilangan boşqaruv tartiblariga muvofiq aeroportning maxsus himoyalangan foydalaniş hududlarida saqlanadi, ular bilan işlanadi va taşiladi. Şu sababli jamoaning odatiy şaroitda xavfli materiallar ta'siriga uçraş ehtimoli past deb baholanadi.

Şunga qaramay, favqulodda şaroitlarda xavfli materiallarning tasodifiy çiqişi yoki ular bilan boğliq hodisalar aeroport çegarasidan taşqaridagi ta'sirni qabul qiluvçi obyektlarga zarar yetkazişi mumkin. Bu xavfni kamaytiriş uçun aeroport operatori xavfli materiallarni boşqariş tartiblarini amalga oşiradi. Ular ikkilamçi tösiqlar, tökilişning oldini oliş çoralari, saqlaş inşootlarini muntazam tekşiriş va ta'mirlaş, hodisalar haqida xabar beriş hamda material tarqalişini töxtatiş, tozalaş va tiklaş böyiça favqulodda vaziyatlarga javob beriş tartiblarini qamrab oladi.

Aeroportning Favqulodda vaziyatlarga javob beriş rejasida (FVJR/ERP) atrofdagi jamoalarga ta'sir qiliş ehtimoli bölgan xavfli materiallar bilan boğliq hodisa yuz berganda tegişli favqulodda xizmatlar va vakolatli idoralar bilan faoliyatni muvofiqlaştiriş tartiblari belgilanadi. Hududdan taşqarida xavf yuzaga keliş ehtimoli bölsa, tegişli idoralar va xavf ostidagi jamoalar favqulodda aloqa kanallari orqali öz vaqtida xabardor qilinadi. Jamoat salomatligi va xavfsizligini himoya qiliş uçun zarur çoralarni amalga oşiriş majburiyatlari ham belgilanadi. Bunday çoralar transport harakatini boşqariş, vaqtinçalik kiriş çeklovlari, joyida panalaş tavsiyasi yoki evakuatsiyani qamrab olişi mumkin. Jamoa bilan aloqa bayonnomalarini qamrab oladigan FVJR/ERP aeroportdan foydalaniş boşlanişidan oldin işlab çiqiladi va muntazam sinovdan ötkaziladi.

18.6-jadval. Mahalliy aholi salomatligi va xavfsizligi: oqibatning ahamiyatlilik darajasi, oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari va qoldiq ta'sirlar, foydalaniş bosqiçi

Ehtimoliy ta'sir	Ta'sir kölami	Ta'sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta'sir
Jamoa salomatligi	Örtaça	Jamoa salomatligi, xavfsizligi va himoyasi böyiça ta'sir hududidagi jamoalar	Yuqori	Örtaça	• Ta'sir doirasidagi holatni ifodalovçi nuqtalarda atmosfera havosi sifati va şovqin darajasi uzluksiz kuzatiladi. Körsatkiçlar çegara qiymatlarga yaqinlaşsa yoki ulardan oşsa, tuzatiş çoralari köriş boşlanadi. • Soğliqni saqlaş muassasalari, favqulodda vaziyatlarga javob beriş xizmatlari va ixtisoslaşgan yordamga yönaltiriş mexanizmlarini qöllab-quvvatlaş uçun mahalliy soğliqni saqlaş idoralari bilan hamkorlik qilinadi • Turğun suv töplanişi va kasallik taşuvçilar köpayişining oldini oliş uçun suv hamda kökalamzorlarni birgalikda boşqariş tizimi joriy etiladi. Tizim muntazam tekşiruv va ta'mirlaş bilan qöllab-quvvatlanadi. • Gigiyena, kasalliklarning oldini oliş va salomatlik xavflari töğrisida xabar beriş böyiça jamoatçilikni xabardor qiliş taşabbuslari amalga oşiriladi. • Aeroport xodimlari va pudratçilar uçun MMX/OHS tartiblari joriy etiladi. Ular öqitiş, ŞHV/PPE bilan ta'minlaş hamda piyodalar va transport vositalari harakatini ajratişni qamrab oladi.	Sezilarsizdan örtaçagaça
Jamoa xavfsizligi va transport ta'sirlari	Örtaça	Mahalliy aholi, yöl foydalanuvçilari va fermerlar	Örtadan yuqorigaça	Örtaça	• Aeroportga oid transport vositalari uçun belgilangan yönalişlarni körsatadigan FTBR/OTMP işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. Oğir transport harakati mahalliy qatnov eng yuqori bölgan davrlar, maktab soatlari va qişloq xöjaligi işlari vaqtiga töğri kelmaydigan qilib jadvalga solinadi. • Yöl xavfsizligini yaxşilaş uçun qişloqlar, maktablar va köp foydalaniladigan boşqa joylar yaqinida tezlikni nazorat qiliş çoralari, ogohlantiriş belgilari, yöl çiziqlari, piyodalar ötiş joylari va yetarli yoritiş örnatiladi hamda saqlanadi. • Loyiha transporti ta'sir qilgan yöllar, köpriklar, çorrahalar va kiriş yöllarini muntazam tekşiriş, saqlaş va ta'mirlaş tegişli mahalliy idoralar bilan hamkorlikda amalga oşiriladi. • Favqulodda kirişni ta'minlaş va javob beriş vaqtini saqlaş uçun transport şaroiti uzluksiz kuzatiladi hamda favqulodda xizmatlar bilan hamkorlik qilinadi.	Sezilarsiz

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					• Foydalaniş bosqiçidagi barça jamoat xavfsizligi xavflarini qamrab oladigan FVTJBR/EPRP tayyorlanadi hamda uning ijrosi ta’minlanadi. Rejada hududga xos javob beriş tartiblari, favqulodda boğlaniş ma’lumotlari va taşqi idoralar bilan hamkorlik bayonnomalari belgilanadi. • Aeroport faoliyati va quriliş işlari tufayli yaqin atrofdagi jamoalar uçun paydo böladigan xavflarni kamaytiriş uçun JXH/PSZ va AXH/ASZ talablari joriy etiladi hamda ularga rioya qildiriladi. Talablar kiriş çeklovlari, yerdan foydalaniş nazorati, xavfsizlik belgilari, jamoani xabardor qiliş çoralari va tegişli aviatsiya hamda mahalliy idoralar bilan hamkorlikni qamrab oladi. • Hurmatli xulq-atvorni, qöşni jamoalar bilan samarali hamkorlikni hamda jamoa salomatligi, xavfsizligi va himoyasi talablariga rioya qilişni rağbatlantiriş uçun foydalaniş bosqiçidagi barça xodimlarga odob-axloq qoidalari böyiça majburiy öquv beriladi. • Jamoa a’zolari öz xavotir yoki şikoyatlarini loyiha rahbariyatiga bevosita va öz vaqtida bildira olişi uçun qulay hamda oçiq-oydin ŞKÇM/GRM yaratiladi. • Hududdagi SX/H&S guruhlari işga kirişdagi hamda takroriy öquvlarni ötkazadi. Öquvlarda yuqumli kasalliklar xavfi va oldini oliş çoralari, jumladan, sil, jinsiy yöl bilan yuqadigan kasalliklar, OIV/HIV va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi böyiça körsatmalar beriladi. • Ayniqsa bolalar va yoşlarga ruxsatsiz kiriş, buzğunçilik yoki loyiha inşootlari bilan xavfli muomala qilişga oid xavflar töğrisida muntazam jamoatçilikni xabardor qiliş dasturlari amalga oşiriladi.	
Jinsga köra zöravonlik va tazyiq hamda jinsiy maqsadda foydalaniş va suiiste’mol (JAZT/GBVH va JMF/SEA)	Pastdan örtaçagaça	Ayollar, bolalar, keksalar va nogironligi bölgan şaxslar	Yuqori	Örtaça	• Loyiha kompaniyasi hamda foydalaniş va texnik xizmat körsatiş kompaniyasi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlaşgan holda JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavfini baholaydi. Maslahatlarda ayol yetakçilar, şuningdek, ösmir qizlar va oğil bolalar bilan işlaydigan şaxslar qatnaşadi. Baholaş jarayonida ehtimoliy aralaşuvlar va xavfni kamaytiriş çoralari ham aniqlanadi. • Loyiha kompaniyasi JAZT/GBVH siyosatini işlab çiqadi hamda uni MXQ/EPC pudratçisi va uning xodimlariga yetkazadi. • Foydalaniş va texnik xizmat körsatiş kompaniyasi kreditorlar hamda Özbekiston talablariga muvofiq loyihaga xos JAZT/GBVH siyosatini işlab çiqadi va amalga oşiradi. Siyosatda xodimlarning nomaqbul xatti-harakatlari röyxati, xabar beriş qoidalari, aybdorlarga nisbatan	Sezilarsiz

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					jazo çoralari hamda jabrlanuvçilar uçun mavjud manbalar va qöllab-quvvatlaş tizimlari batafsil belgilanadi. • Barça loyiha xodimlari JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavflari, öz majburiyatlari va bunday xatti-harakatlarni sodir etişning huquqiy oqibatlari böyiça majburiy öquvdan ötadi. • JAZT/GBVH böyiça mas’ul şaxs JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavflari hamda ular bilan boğliq holatlarni körib çiqiş tartibi böyiça öqitiladi va zarur ma’lumotlar bilan ta’minlanadi. • JAZT/GBVH siyosati jamoa a’zolariga yetkaziladi. Jamoa a’zolari, ayniqsa, ayollar JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH xavflari böyiça öqitiladi. Ularga bunday holat haqida xabar beriş va uni körib çiqiş tartibi, şuningdek, jabrlanuvçilarni qöllab-quvvatlaş uçun mavjud xizmatlar töğrisida ma’lumot beriladi. • JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHning oldini oliş, ularni kamaytiriş va ularga javob berişda jabrlanuvçi manfaatini markazga qöyadigan yondaşuv qöllanadi. Bunda jabrlanuvçilarning maxfiyligi, qadr-qimmati va ularga hurmat ta’minlanadi. • Loyiha xodimlari ayollar, qizlar va oğil bolalar bilan suhbat ötkaziş hamda ularning JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHga oid tajribasi haqida ma’lumot töplaş vaqtida xavfsizlikni ta’minlaş böyiça öqitiladi. • Loyiha jabrlanuvçilarga maslahat, qöllab-quvvatlaş guruhlari, huquqiy yordam va boşqa zarur xizmatlardan bepul foydalaniş imkonini yaratadi. • JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHning tasdiqlangan barça holatlari keyingi tekşiruv va jinoiy javobgarlikka tortiş uçun loyiha hududidagi tegişli huquqni muhofaza qiliş idoralariga yuboriladi. • Loyihaning şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmidan loyiha xodimlari va jamoa a’zolari foydalana oladi. Mexanizm jabrlanuvçilarga oid ma’lumotlarning maxfiy va anonim saqlanişini ta’minlaydi. • JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SH bilan boğliq barça holatlar hujjatlaştiriladi va tegişli tartibda yopiladi. • Foydalaniş va texnik xizmat körsatiş kompaniyasi JAZT/GBVH, JMF/SEA va JT/SHning oldini oliş va unga javob beriş böyiça çora-tadbirlar rejasini tayyorlaydi hamda amalga oşiradi. Rejada JMF/SEA va JT/SH xavflarini bartaraf etiş uçun zarur bayonnomalar va mexanizmlar, şuningdek, paydo bölişi mumkin bölgan har qanday da’voni	

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					körib çiqiş tartibi belgilanadi. Reja Jahon bankining yirik fuqarolik işlarini qamrab oladigan investitsiya loyihalarini moliyalaştirişda JMF/SEA va JT/SHni bartaraf etiş böyiça yetakçi amaliyot qaydnomasiga muvofiq tayyorlanadi.	
Jamoat va jamoa himoyasi	Pastdan örtaçagaça	Mahalliy jamoalar, yölovçilar va transport foydalanuvçilari	Örta	Örtaça	• Loyiha öz himoya xodimlarini işga oladi. Ular loyiha hududida sutkasiga 24 soat, haftasiga 7 kun himoyani ta’minlaydi, kiriş nazorat maskanlarida esa alohida xodimlar navbatçilik qiladi. • Himoya xodimlari JAZT/GBVH böyiça odob-axloq qoidalari, jumladan, jamoaning JAZT/GBVH bilan boğliq şikoyatlarini körib çiqiş tartibi böyiça muntazam öqitiladi. • Foydalaniş va texnik xizmat körsatiş kompaniyasi şartnoma asosidagi barça himoya xizmati körsatuvçilari qurolsiz xodimlardan foydalanadigan şartlar asosida işlaşini ta’minlaydi. Qonunlarda boşqaça talab belgilangan yoki kreditorlar talablariga muvofiq loyiha kompaniyasi qurolli xodimlarga ruxsat bergan holatlar bundan mustasno. Talablarga rioya etilişi muntazam auditlar va şartnomalarni boşqariş tartiblari orqali nazorat qilinadi. • Hududga kiradigan barça transport vositalari oldindan tasdiqlangan ruxsatga ega bölişi va röyxatdan ötkazilişi kerak. Loyiha himoya xizmati har bir kirayotgan transport vositasini qayd etadi. • Hudud atrofidagi asosiy nuqtalar va qöriqçi maskanlariga videokuzatuv tizimi örnatiladi. • Ruxsatsiz kirişning oldini oliş uçun himoya xodimlari turadigan qöriqçi maskanlari yetarli yoritiş bilan ta’minlanadi. • Loyiha xodimlari quriliş hududiga faqat amaldagi şaxsiy guvohnoma va SXAM/HSE talablariga muvofiq işlaş ruxsatnomasi bilan kirişi mumkin.	Sezilarsiz
Jamoaga xavfli materiallar ta’siri	Örtaça	Mahalliy aholi, yöl foydalanuvçilari va fermerlar	Örtadan yuqorigaça	Örtaça	• Aviatsiya yoqilğisi, moylaş materiallari, yonğinni öçiriş vositalari va boşqa kimyoviy moddalar kabi xavfli materiallar amaldagi milliy qoidalar hamda xalqaro aviatsiya standartlariga muvofiq belgilangan himoyalangan hududlarda saqlanadi va ular bilan işlanadi. • Tasodifiy çiqiş xavfining oldini oliş uçun xavfli materiallarni saqlaş va köçiriş inşootlarida ikkilamçi tösiqlar, suyuqlik ötkazmaydigan saqlaş joylari, tökilişning oldini oliş tizimlari hamda muntazam tekşiruv va ta’mirlaş dasturlari amalga oşiriladi. • Xavfli materiallar bilan xavfsiz işlaş, ularni saqlaş va taşiş tartib-qoidalari, jumladan, xodimlar uçun tegişli öquv, favqulodda	Kiçik

Ehtimoliy ta’sir	Ta’sir kölami	Ta’sirni qabul qiluvçi obyekt	Sezgirlik	Ehtimoliy oqibatning ahamiyatlilik darajasi	Oldini oliş va kamaytiriş hamda boşqaruv çoralari	Qoldiq ta’sir
					vaziyatlarga javob beriş uskunalari va hodisalar töğrisida xabar beriş tartiblari joriy etiladi. • Aeroportdan foydalaniş boşlanişiga qadar Aeroportning favqulodda vaziyatlarga javob beriş rejasi işlab çiqiladi va amalga oşiriladi. • Xavfli materiallar bilan boğliq hodisa aeroport çegarasidan taşqaridagi ta’sirni qabul qiluvçi obyektlarga zarar yetkazişi mumkin bölsa, tegişli idoralar va xavf ostidagi jamoalarni öz vaqtida xabardor qiliş tartiblari qöllanadi. Jamoatçilikka zarur xavfsizlik körsatmalari, jumladan, vaqtinçalik kiriş çeklovlari, joyida panalaş yoki evakuatsiya böyiça tavsiyalar beriladi.	

18.6 Muntazam kuzatiş

Loyiha yuqorida bayon etilgan çoralarni amalga oşiriş orqali jamoa salomatligi va xavfsizligini faol ravişda muntazam kuzatadi. Transport va yöl xavfsizligi nazorati, jismoniy xavfsizlik çoralari, şikoyat hamda xabar beriş mexanizmlarini qamrab olgan barça asosiy boşqaruv çoralari samaradorligini ta'minlaş uçun muntazam körib çiqiladi.

18.7-jadval. Mahalliy aholi salomatligi, xavfsizligi va himoyasini muntazam kuzatiş çoralari: quriliş va foydalaniş bosqiçlari

Körsatkiç	Ölçov	Davriylik
Işçi kuçi oqimini boşqariş	• Maydon içida va taşqarisida joylaştirilgan xodimlar soni. • Xodimlar turar joylarining XMK/IFC va YTTB/EBRD standartlariga muvofiqligi	Har oy
Quriliş davridagi transport harakatini boşqariş samaradorligi	• Oğir transport vositalari qatnovi soni. • Tasdiqlangan yönalişlarga rioya etilişi; transport hodisalari • Transport bilan boğliq jamoa şikoyatlari. • Yöl holatini muntazam kuzatiş	Quriliş davrida har oy
Jamoalar iştirokidagi yöl xavfsizligi hodisalari	• Transport vositalari va piyodalar iştirokidagi hodisalar, çorva mollari bilan boğliq hodisalar hamda hodisaga yaqin holatlarning soni va oğirligi	Har oy
Jamoatçilikning transport xavflari böyiça xabardorligini oşiriş samaradorligi	• Ötkazilgan maslahatlaşuvlar soni; ŞKÇM/GRM orqali olingan fikr-mulohazalar	Har çorakda
Pudratçinin TBR/TMPga rioya qilişi	• Tekşiruv natijalari, tuzatiş çoralari va haydovçilarni öqitiş qaydlari	Har oy
Xodimlar va jamoa a'zolari örtasidagi nizolar, jumladan, JT/SH bilan boğliq holatlar qaydi	Jamoa a'zolari yoki loyiha işçilari bergan şikoyatlar	Quriliş bosqiçida har kuni, foydalaniş bosqiçida esa har çorakda
Jabrlanuvçi manfaatini markazga qöyadigan yondaşuv asosida körib çiqilgan JMF/SEA va JT/SH şikoyatlari soni	Körib çiqilgan şikoyatlar soni va ulardan neçtasi huquqiy çora köriş uçun tegişli idoralarga yuborilgani.	Doimiy
Kreditorlar talablariga muvofiq JMF/SEA va JT/SH şikoyatlarini körib çiqiş va ularni tegişli huquqiy idoralarga yuboriş uçun sarflangan örtaça vaqt qaydi	Olingan şikoyatlar va ularni yopiş uçun sarflangan vaqt.	Doimiy
Hududda himoya xodimlari tomonidan öqotar qurol işlatilişi	Himoya xodimlari va mahalliy politsiya	Himoya xodimlari qurollangan taqdirda doimiy
Inson huquqlari buzilişi hamda mahalliy jamoalardan kelgan şikoyatlar qaydi	Jamoa a'zolarining loyiha bilan boğliq bergan şikoyatlari	Doimiy
Taşqi tomonlar iştirokidagi hodisalar, baxtsiz hodisalar va hodisaga yaqin holatlar qaydi	Hududdagi kundalik muntazam kuzatiş tartib-qoidalarining qaydlari	Doimiy

Körsatkiç	Ölçov	Davriylik
Hududda mahalliy jamoalar uçun xavf tuğdirişi mumkin bölgan yuqumli kasalliklar qaydi	Loyiha hududidagi klinika yoki SXAM/HSE xodimlari	Doimiy
Yakunlangan şikoyatlar soni	Şikoyatlarni boşqariş tizimi	Har çorakda yoki har yarim yilda bir marta
Şikoyatni körib çiqiş va yopiş uçun sarflangan örtaça vaqt hamda özgariş yönalişlari	Şikoyatlarni boşqariş tizimi	Har çorakda yoki har yarim yilda bir marta
Oçiq şikoyatlar soni, ularni beriş usul-lari va özgariş yönalişlari	Şikoyatlarni boşqariş tizimi	Har çorakda yoki har yarim yilda bir marta
Şikoyatlarda kötarilgan mavzular va ularning özgariş yönalişlari	Şikoyatlarni boşqariş tizimi	Har çorakda yoki har yarim yilda bir marta

19.0 Inson huquqlariga ta’sirni baholaş (IHTB/HRIA)

Ekvator tamoyillari IV (ET/EP IV)ning kuçaytirilgan talablari va korxonalarning javobgarligiga nisbatan ortib borayotgan xalqaro talablar asosida AMITB doirasida Toşkent loyihasi uçun IHTB/HRIA ötkazildi. IHTB/HRIA loyiha faoliyatining işçilar hamda loyiha ta’sir hududida yaşovçi jamoalarning inson huquqlariga ehtimoliy salbiy ta’sirlarini baholaydi.

Mehnat va jamoalarga oid ayrim masalalar AMITBning boşqa boblarida körib çiqilgan bölsa-da, bu bölimda inson huquqlariga oid asosiy xatarlar va himoya çoralariga yaxlit şarh beriladi. Oldin aniqlangan oldini oliş va kamaytiriş çoralari bu yerda takrorlanmaydi, biroq izçillikni ta’minlaş uçun ularga havola qilinadi.

IHTB/HRIA Ekvator tamoyillari IV (ET/EP IV) talablari hamda IHYT/HRGPga muvofiq ötkazildi. Baholaş xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlari hujjatlariga, jumladan, Inson huquqlari töğrisidagi xalqaro bill hamda XMT/ILOning Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar töğrisidagi deklaratsiyasiga asoslandi. Loyiha öz faoliyati davomida inson huquqlarini hurmat qiliş majburiyatini oladi. U pudratçilar, quyi pudratçilar va yetkazib beruvçilar ham inson huquqlarini buzmasligini hamda öz faoliyati bilan boğliq har qanday salbiy ta’sirni bartaraf etişini ta’minlaşi kerak.

19.1 Amaldagi talablar va standartlar

19.1.1 Milliy qoidalar

Özbekiston BMT/UN a’zosi sifatida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilişga oid BMT/UNning barça asosiy xalqaro hujjatlarini qöllab-quvvatlaydi va amalga oşiradi. Ular jumlasiga BMT/UNning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari kengaşining inson huquqlari hamda zöravon ekstremizmning oldini oliş va unga qarşi kuraş töğrisidagi 30/15-son rezolyutsiyasi, şuningdek, Xotin-qizlarni kamsitişning barça şakllariga barham beriş töğrisidagi konvensiya kiradi. Özbekistonda inson huquqlari böyiça davlat siyosati inson huquqlari va erkinliklari buzilişining oldini olişga hamda ularni himoya qiliş uçun zarur taşkiliy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va axloqiy asoslarni rivojlantirişga qaratilgan. Tegişli ikkita qonun hujjati quyida batafsilroq körib çiqiladi:

Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil)

Konstitutsiyada “Özbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga köra inson, uning hayoti, erkinligi, şa’ni, qadr-qimmati va boşqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, deb ta’kidlangan.

Konstitutsiyada “Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari” deb nomlangan X bob ham mavjud. U quyidagi moddalarni qamrab oladi:

- 43-modda. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda e'lon qilingan huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi.
- 44-modda. Har bir şaxsga öz huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qiliş, davlat organlari, mansabdor şaxslar va jamoat birlaşmalarining ğayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga şikoyat qiliş huquqi kafolatlanadi.
- 45-modda. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolğiz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.
- 46-modda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Oliy Majlisda inson huquqlari masalalari bilan şuğullaniş uçun saylangan va vakolat berilgan vakil mavjud.

Xotin-qizlarni tazyiq va zöravonlikdan himoya qiliş töğrisidagi qonun (2019-yil).

Qonunda xotin-qizlarga nisbatan zöravonlikning jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy şakllari belgilangan. Tazyiq va zöravonlikdan himoya qiliş iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, taşkiliy, ruhiy va boşqa tusdagi şoşilinç çoralar tizimi sifatida ta'riflangan. Bu tizim xotin-qizlarning hayoti va soğliğiga tahdidni bartaraf etiş, ularning xavfsizligini ta'minlaş hamda ularga nisbatan takroriy noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olişga qaratilgan.

Boşqa tegişli qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Inson huquqlari böyiça milliy strategiya Prezidentning 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan;
- Xotin-qizlar va erkaklar uçun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari töğrisidagi qonun (2019);
- Mediatsiya töğrisidagi qonun (2018);
- Jamoatçilik nazorati töğrisidagi qonun (2018);
- Ma'muriy tartib-taomillar töğrisidagi qonun (2018).

Boşqa tegişli qonun hujjatlari

Özbekiston Respublikasining boşqa tegişli qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Inson huquqlari böyiça milliy strategiya Prezidentning 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni bilan tasdiqlangan
- Xotin-qizlar va erkaklar uçun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari töğrisidagi qonun (2019); Mediatsiya töğrisidagi qonun (2018);
- Jamoatçilik nazorati töğrisidagi qonun (2018);
- Ma'muriy tartib-taomillar töğrisidagi qonun (2018)

Özbekiston Respublikasi inson huquqlari böyiça xalqaro majburiyatlarni ham öz zimmasiga olgan. Bu majburiyatlar quyidagi hujjatlardan kelib çiqadi:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
- Fuqarolik va siyosiy huquqlar töğrisidagi xalqaro pakt
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar töğrisidagi xalqaro pakt

19.1.2 Kreditor talablari

Loyiha kompaniyasi loyiha uçun mablağni sarmoya kiritişga oid qarorlarda belgilangan atrof-muhit va ijtimoiy standartlarni qöllaydigan xalqaro moliya muassasalaridan jalb etişga intilmoqda. Bu muassasalar öz içki atrof-muhit va ijtimoiy siyosatlari hamda faoliyat talablarini qöllaşi yoki xalqaro miqyosda tan olingan barqarorlik doiralari va taraqqiyotni moliyalaştiriş standartlariga muvofiq faoliyat yuritişi mumkin.

XMK/IFC

19.1-jadvalda inson huquqlariga doir XMK/IFCning FS/PS talablari keltirilgan.

19.1-jadval. Inson huquqlariga oid XMK/IFCning amaldagi FS/PSlari

Talab	Tavsif
XMK/IFCning FS1/PS1 talabi: Atrof-muhit va ijtimoiy xatarlar hamda	Unda buyurtmaçilar inson huquqlarini hurmat qilişi kerakligi bayon etilgan. Buyurtmaçilar özlari keltirib çiqaradigan yoki yuzaga kelişiga hissa qöşadigan inson huquqlariga salbiy ta'sirlarni ham bartaraf etişi kerak.

Talab	Tavsif
ta'sirlarni baholaş va boşqariş	Işçilar, loyiha ta'siriga duç kelişi mumkin bölgan jamoalar va atrof-muhitga, şuningdek, ta'minot zanjiriga oid atrof-muhit va ijtimoiy xatarlar hamda ta'sirlar baholanişi va boşqarilişi kerak.
XMK/IFCning FS2/PS2 talabi: Mehnat va iş şaroitlari	XMK/IFCning FS2/PS2 talabi bir neça XMT/ILO konvensiyasiga asoslanadi. Unda iş örinlari yaratiş va daromad oliş orqali iqtisodiy ösişga erişiş loyiha işçilarining, jumladan, ta'minot zanjiri işçilarining asosiy huquqlarini himoya qiliş bilan uyğun tarzda olib borilişi kerakligi tan olinadi. Unda loyihalarda kadrlar siyosati, boşqaruv va iş şaroitlariga, şuningdek, MMX/OHSni boşqariş hamda şikoyatlarni körib çiqişning asosiy jarayonlariga oid talablar belgilangan. Bundan taşqari, işçilarga turar joy beriladigan hollarda, bu turar joy kamsitmaslik va teng imkoniyat tamoyillariga muvofiq ta'minlanişi kerak. Işçilar turar joylari ularning harakatlaniş yoki birlaşiş erkinligini çeklamasligi kerak.
XMK/IFCning FS4/PS4 talabi: Jamoa salomatligi, xavfsizligi va himoyasi	Loyiha ta'siriga duç kelişi mumkin bölgan jamoalarni yuqumli kasalliklar tarqalişi, ekotizim vazifalarining yöqolişi, hududga kiriş va undan foydalaniş, materiallardan foydalaniş hamda boşqa masalalar bilan boğliq xavf va ta'sirlardan himoya qilişga doir talablar belgilangan. Buyurtmaçilardan loyiha bilan boğliq faoliyat tufayli zaif guruhlar salomatligi, xavfsizligi va himoyasiga yuzaga kelişi mumkin bölgan xavf va ta'sirlarning oldini oliş yoki ularni kamaytiriş talab etiladi. XMK/IFCning FS4/PS4 talabida loyiha işçilari va mol-mulkini himoya qiliş tegişli inson huquqlari tamoyillariga muvofiq bajarilişi kerakligi bayon qilingan.
XMK/IFCning FS5/PS5 talabi: Yer uçastkalarini olib qöyiş va majburiy köçiriş	Buyurtmaçilardan imkon qadar majburiy köçirişning oldini oliş yoki uni kamaytiriş, buning imkoni bölmaganda esa salbiy ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarni kamaytiriş talab etiladi. Köçiriş jarayonlarida inson huquqlari tamoyillari zarur darajada inobatga olinişi kerak. Bunda adolatli tovon, tirikçilik manbalarini tiklaş, mazmunli maslahatlaşuv va şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilişi kerak.
XMK/IFCning FS8/PS8 talabi: Madaniy meros	Buyurtmaçilardan madaniy merosning moddiy va nomoddiy şakllarini loyihaning salbiy ta'sirlaridan himoya qiliş talab etiladi. Loyiha faoliyati madaniy merosga ta'sir qilganda madaniy huquqlarni hurmat qilişga, loyiha ta'siriga duç kelişi mumkin bölgan jamoalarni mazmunli jalb etişga va xalqaro miqyosda tan olingan amaliyotlarga rioya qilişga alohida e'tibor qaratilişi kerak.

FS/PSlardan taşqari, taklif etilayotgan loyihaga XMK/IFCning quyidagi qöllanmalari ham qöllanadi:

- Quriliş sohasida JAZT/GBVH böyiça XMK/IFC qöllanmasi (2020).
- XMK/IFCning "Xavfsizlik kuçlaridan foydalaniş: xavf va ta'sirlarni baholaş hamda boşqariş" yetakçi amaliyot qöllanmasi (2017).
- XMK/IFCning "Manfaatdor tomonlarni jalb etiş: rivojlanayotgan bozorlarda faoliyat yurituvçi kompaniyalar uçun yetakçi amaliyot qöllanmasi" (2007).
- XMK/IFCning yer uçastkalarini olib qöyiş va majburiy köçiriş böyiça yetakçi amaliyot qöllanmasi (2023).

Quriliş sohasida JAZT/GBVH böyiça XMK/IFC qöllanmasi

JAZT/GBVHni baholaş, uning oldini oliş, holatlarni muntazam kuzatiş va ularga javob beriş çoralari quyidagi tamoyillarga muvofiq işlab çiqilişi kerak:

- **Jabrlanuvçi manfaatlarini markazga qöyiş**: jabrlanuvçilarning huquqlariga izçil ravişda ustuvorlik berilişi kerak. Ularning huquqlari JAZT/GBVHni baholaş, uning oldini oliş, holatlarni muntazam kuzatiş va ularga javob berişga oid barça qarorlar uçun boşlanğiç nuqta bölişi kerak.

- **Xavfsizlik:** jabrlanuvçilar, guvohlar hamda JAZT/GBVH töğrisida xabar beradigan yoki uni bartaraf etişga intiladigan şaxslar öç oliş xavfiga duç kelişi mumkin. Bunga öz hokimiyat mavqeyiga e'tiroz bildirilişini istamaydigan şaxslarning tahdidi va zöravon xatti-harakatlari kiradi. Kompaniyalar JAZT/GBVHga duç kelgan, unga guvoh bölgan yoki u haqda xabar bergan şaxslarning xavfsizligini ustuvor qöyişi kerak.
- **Mahalliy şaroitga mos**lik: barça çoralar mahalliy şaroitni çuqur tuşunişga asoslanişi kerak. Sarmoyadorlar va kompaniyalar huquqiy hamda ijtimoiy şaroitni tuşunişi va mavjud qöllab-quvvatlaş mexanizmlarini aniqlaşi kerak.
- **Hamkorlikka asoslangan yondaşuv:** kompaniyalar kengroq qöllab-quvvatlaş ehtimolini oşiriş va JAZT/GBVHning oldini oliş çoralarini samaraliroq qiliş uçun içki hamda taşqi manfaatdor tomonlarning fikrlarini olişga intilişi kerak.
- **Barçani qamrab oliş:** kompaniyalar kamsitiş va jamiyatdan çetlatilişga uçragan ayrim guruhlar JAZT/GBVH xavfiga köproq duç kelişini tan olişi kerak. Yuqori xavf ostidagi guruhlarga köp hollarda nogironligi bölgan şaxslar, yolğiz ota-onalar, muhojirlar, etnik ozçiliklar hamda jinsiy yönaliş va gender özligi böyiça ozçiliklar kiradi. Tizim savodsiz yoki boşqa sabablarga köra JAZT/GBVH haqida xabar beriş mexanizmlariga oid yozma axborotdan foydalana olmaydigan şaxslarni ham hisobga olişi kerak.
- **Tizimga singdiri**ş: JAZT/GBVHni baholaş, uning oldini oliş, holatlarni muntazam kuzatiş va ularga javob beriş jarayonlari hamda çoralari imkon qadar mavjud jarayonlar va boşqaruv tizimlariga kiritilişi kerak. Jumladan, ular MMX/OHS, xavfsizlikni boşqariş tizimlari, AMIBT/ESMS hamda IR/HR siyosati va tartib-qoidalariga kiritiladi.
- **Kamsitmaslik**: barça jabrlanuvçilar tinglanişi, ularga teng munosabatda bölinişi va iş joyidagi xilma-xillik rağbatlantirilişi kerak.
- **Yetarli bilimga asoslaniş**: kompaniyalar oldini oliş va javob beriş çoralarini işlab çiqişda tegişli mutaxassislarning bilim va tajribasidan foydalanişi kerak. Şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmi va tekşiruv tartib-qoidalari mahalliy şaroitga mos, dolzarb hamda xavfsiz bölişini ta'minlaydigan tarzda yaratilişi kerak.

Qöllanmaga köra, JAZT/GBVH masalalarini hal etişning foydalari quyidagilarni qamrab oladi:

- Işçilarning jismoniy va ruhiy farovonligini yaxşilaş hamda MMX/OHSni mustahkamlaş.
- Kompaniyalar, sarmoyadorlar va quriliş pudratçilarini obröga putur yetişi, moliyaviy xavflar va huquqiy javobgarlikdan himoya qiliş.
- Jamoalar bilan munosabatlarni yaxşilaş va faoliyat yuritiş uçun jamoatçilik qöllovini mustahkamlaş. Bunga loyiha bilan boğliq JAZT/GBVH xavflarini tuşuniş va kuzatib boriş uçun muntazam muloqot olib boriş, şuningdek, JAZT/GBVHning oldini oliş hamda unga javob beriş çoralarini samarali qöllaş orqali erişiş mumkin.
- Kompaniyalar işga jalb qila oladigan ehtimoliy xodimlar doirasini kengaytiriş.

- JAZT/GBVH xavfi pastroq deb hisoblanadigan yaqin jamoalarda yaşovçi ayollarni işga jalb qiliş imkoniyatini kengaytiriş.

YTTB/EBRD

YTTB/EBRDning Atrof-muhit va ijtimoiy siyosatiga köra, bank özi moliyalaştiradigan loyihalarda inson huquqlarini hurmat qiliş majburiyatini olgan. YTTB/EBRD, şuningdek, Inson huquqlari töğrisidagi xalqaro bill va XMT/ILOning sakkizta asosiy konvensiyasiga amal qiladi.

YTTB/EBRDning AMIT1/ESR1 talabida şunday bayon qilingan: *"...buyurtmaçining atrof-muhit va ijtimoiy baholaşni inson huquqlari kabi muayyan xavf va ta'sirlarga qaratilgan qöşimça tadqiqotlar bilan töldirişi maqsadga muvofiq bölişi mumkin".*

YTTB/EBRD, şuningdek, yer uçastkalarini olib qöyiş, yerdan foydalanişni çeklaş va majburiy köçirişga oid AMIT5/ESR5 talabi *inson huquqlari va erkinliklarini umumiy hurmat qiliş hamda ularga rioya etiş tamoyiliga muvofiq qöllanişini talab qiladi. Bu talab, xususan, şaxsiy mulk va munosib uy-joy huquqlariga hamda yaşaş şaroitlarini uzluksiz yaxşilaş tamoyiliga oiddir.*

ETMI/EPFIs

ET/EP IV talablariga muvofiq, IHYT/HRGP loyihaga qöllanadi. IHYT/HRGPning "Korporativ tuzilmalarning inson huquqlarini hurmat qiliş mas'uliyati"ga oid II qismida biznes va korporativ tuzilmalar inson huquqlarini hurmat qiliş uçun mas'ul ekani tan olinadi. Bu qayerda faoliyat yuritişidan qat'i nazar, barça tadbirkorlik subyektlaridan kutiladigan xulq-atvorning xalqaro standartidir. Mazkur mas'uliyat davlatning inson huquqlariga oid majburiyatlarini bajariş qobiliyati yoki istagidan qat'i nazar amal qiladi va davlatning bu majburiyatlarini kamaytirmaydi. Quyidagi asosiy tamoyillar inobatga olinişi kerak:

- 11-tamoyil: tadbirkorlik subyektlari boşqalarning inson huquqlarini buzmasligi va öz faoliyati bilan boğliq inson huquqlariga salbiy ta'sirlarni bartaraf etişi kerak.
- 12-tamoyil: tadbirkorlik subyektlarining inson huquqlarini hurmat qiliş mas'uliyati xalqaro miqyosda tan olingan inson huquqlariga taalluqlidir. U eng kamida Inson huquqlari töğrisidagi xalqaro billda ifodalangan huquqlar va XMT/ILOning Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar töğrisidagi deklaratsiyasida belgilangan asosiy huquqlarga oid tamoyillarni qamrab oladi.
- 13-tamoyil: inson huquqlarini hurmat qiliş mas'uliyati tadbirkorlik subyektlaridan öz faoliyati orqali inson huquqlariga salbiy ta'sir keltirib çiqariş yoki uning yuzaga kelişiga hissa qöşişning oldini olişni talab qiladi. Bunday ta'sir yuzaga kelganda esa uni bartaraf etiş talab qilinadi;
- 14-tamoyil: tadbirkorlik subyektlarining inson huquqlarini hurmat qiliş mas'uliyati ularning hajmi, sohasi, faoliyat şaroiti, mulkçiligi va tuzilişidan qat'i nazar barça subyektlarga qöllanadi. Şunga qaramay, bu mas'uliyatni bajariş vositalarining kölami va murakkabligi bu omillar hamda subyektning inson huquqlariga salbiy ta'sirlarining oğirligiga qarab farq qilişi mumkin.
- 15-tamoyil: tadbirkorlik subyektlarida ularning hajmi va şaroitiga mos siyosat hamda jarayonlar, jumladan, quyidagilar mavjud bölişi kerak:

Quyidagi amaliy tamoyillar ham inobatga olinişi kerak.

- 16-tamoyil: Siyosatga oid majburiyat
- 17-21-tamoyillar: Inson huquqlari böyiça kompleks tekşiruv
- 22-tamoyil: Zararni bartaraf etiş

BMT/UNning inson huquqlari böyiça yöriqçi tamoyillari (IHYT/HRGP)

Özbekiston qonunlari va kreditorlarning inson huquqlariga oid talablariga rioya qilişdan taşqari, loyiha quriliş va foydalaniş bosqiçlarida IHYT/HRGPga ham rioya qilişi kerak. IHYT/HRGP tadbirkorlik subyektlarini jamiyatning maxsus organlari sifatida tan oladi hamda ulardan barça amaldagi qonunlarga rioya qiliş va inson huquqlarini hurmat etişni talab qiladi.

19.2 Boşlanğiç holat

19.2.1 Milliy inson huquqlari konteksti

Loyiha Özbekiston Respublikasida joylaşgan. Mamlakatda sönggi yillarda inson huquqlari himoyasini kuçaytiriş va xalqaro standartlarga muvofiqlikni yaxşilaşga qaratilgan qator huquqiy hamda taşkiliy islohotlar amalga oşirildi. Özbekiston Birlaşgan Millatlar Taşkilotining inson huquqlari böyiça asosiy konvensiyalariga tarafdir hamda huquqlarga asoslangan tamoyillarni milliy taraqqiyot va davlat boşqaruvi tizimlariga bosqiçma-bosqiç kiritib bormoqda.

Inson huquqlarining himoyasi Konstitutsiyada mustahkamlangan va sohaga oid qonunlar hamda siyosat hujjatlarida batafsil bayon etilgan. Bu huquqiy asoslar birgalikda fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning keng doirasini qamrab oladi. Ular jumlasiga mehnat huquqlari, jinslar tengligi, jamoatçilik iştiroki, odil sudlovga erişiş va ma'muriy şaffoflik kiradi. Bundan taşqari, Özbekistonning huquqiy doirasida huquqlarga asoslangan jamiyat uçun muhim fuqarolik erkinliklari, jumladan, şaxsiy hayot daxlsizligi huquqi, fikr bildiriş, birlaşiş va tinç yiğiliş erkinliklari tan olingan.

Şu bilan birga, mavjud baholaşlar ötiş va islohot jarayonidagi köp mamlakatlarda bölgani kabi, qonun qoidalari bilan ularning amaldagi ijrosi örtasida, ayniqsa, hududiy va mahalliy darajalarda tafovutlar saqlanişi mumkinligini körsatadi. Bu ijro muammolari yirik infratuzilma loyihalariga ham daxldor bölişi mumkin. Jumladan, işçilar va jamoalarning öz huquqlari haqidagi xabardorligi turli darajada bölişi, şikoyatlarni körib çiqiş tizimlarining imkoniyati çeklangan bölişi, şuningdek, yer uçastkalarini olib qöyiş, iş şaroitlari hamda jamoa salomatligi va xavfsizligiga oid ehtimoliy xatarlar yuzaga kelişi mumkin.

Şunga köra, Özbekistonda davom etayotgan islohotlar natijasida inson huquqlari doirasi rivojlanib borayotgan bölsa-da, loyiha darajasida kompleks tekşiruv davom ettirilişi kerak. Bunda mahalliy şaroitga xos xatarlar baholanişi hamda loyiha şaroitida inson huquqlariga oid xavf darajasini yuqori deb tasniflaş qançalik asosli ekani tekşirilişi kerak.

19.2.2 Şaxsiy hayot daxlsizligi va birlaşiş erkinligi huquqi

Şaxsiy hayot daxlsizligi huquqi şaxsga doir ma'lumotlarni himoya qiliş, yozişmalar maxfiyligi hamda şaxsiy va oilaviy hayotga noqonuniy aralaşişdan himoyaga oid konstitutsiyaviy kafolatlar va qonunlarda aks etgan. Bu qoidalar şaxsga doir ma'lumotlar töplanadigan, işçilar qaydlari, şikoyat mexanizmlari va manfaatdor tomonlar ma'lumotlar bazalari yuritiladigan infratuzilma loyihalarida ayniqsa muhim. Huquqiy doira himoya uçun asos yaratadi. Biroq uning amaldagi ijrosi loyiha va mahalliy idoralar darajasidagi taşkiliy salohiyat hamda ma'lumotlarni himoya qiliş majburiyatlari haqidagi xabardorlikka qarab farq qilişi mumkin.

Birlaşiş erkinligi milliy qonunlarda ham tan olingan. U şaxslarning taşkilotlar, jumladan, kasaba uyuşmalari va fuqarolik jamiyati guruhlarini tuziş hamda ularga a'zo böliş huquqini qamrab oladi. Bu huquq loyiha doirasidagi bandlik munosabatlari va işçilar vakilligi uçun ayniqsa muhim. Huquqiy doirada uyuşma tuziş va jamoaviy vakillik nazarda tutilgan bölsa-da, bunday birlaşmalarning mustaqilligi va samaradorligi amalda farq qilişi mumkin. Bu esa işçilarning taşkillaşiş va yaxşiroq iş şaroitlarini talab qiliş imkoniyatiga ta'sir etadi.

19.2.3 Fikr bildiriş erkinligi

Fikr bildiriş erkinligi qonun bilan tan olingan hamda şaxslar va jamoalarga ma'lumot va fikrlarni izlaş, oliş hamda tarqatiş imkonini beradi. Loyiha doirasida bu huquq manfaatdor tomonlarni jalb etiş jarayonlari, şikoyatlarni körib çiqiş mexanizmlari va jamoatçilik bilan maslahatlaşuvlarga çambarças boğliq. Rasmiy kafolatlar mavjud bölsa-da, bu huquqdan samarali foydalanişga mahalliy şaroit omillari ta'sir qilişi mumkin. Bunday omillarga şaxslarning öz haq-huquqlari töğrisidagi xabardorligi, muammolarni bildirişga işonçi hamda idoralar yoki loyiha vakillarining javob berişga tayyorligi haqidagi tasavvuri kiradi.

19.2.4 Bolalar mehnati

Özbekiston Respublikasida sönggi ön yillikda qonunçilik islohotlari va xalqaro kuzatuv sohasidagi hamkorlik tufayli bolalar mehnati amaliyotida sezilarli özgarişlar yuz berdi. Tarixan Özbekistonda bolalarni paxta yiğim-terimiga keng jalb qiliş xalqaro miqyosda tanqid qilingan.

2010-yillarning örtalariga qadar bu amaliyot muntazam va majburlovçi tusda bölgani haqida köp xabar berilgan. Mustaqil kuzatuv missiyalari va nodavlat taşkilotlar bolalar, jumladan, maktab yoşidan kiçik bolalar kattalar bilan birga oğir şaroitdagi paxta dalalariga jalb qilinganini hujjatlaştirgan. Bu holat ularning ta'limi va odatiy bolalik faoliyatiga xalal bergan.[98]

Biroq XMT/ILO va uçinçi tomonlar tomonidan izçil olib borilgan muntazam kuzatiş ma'lumotlariga köra, 2020-yillarning boşiga kelib paxta sohasida bolalar mehnatidan tizimli foydalaniş amalda tugatilgan. 2021-yilgi paxta yiğim-terimi böyiça hisobotlarda mehnatga layoqatli yoşdagi işçilarning 99 foizi ixtiyoriy qatnaşgani bildirilgan. Hisobotlarda bolalar mehnatidan tizimli foydalaniş holatlari endi keng tarqalmagani ham qayd etilgan.

Bu ijobiy özgarişlarga qaramay, fuqarolik jamiyati va xalqaro mehnat kuzatuvçilarining doimiy hisobotlari paxta sohasidan taşqarida bolalar mehnatining ayrim holatlari saqlanayotganini körsatadi. Bunday holatlar, ayniqsa, bolalar rasmiy bandlik munosabatlari doirasida emas, balki xonadonning iqtisodiy bosimi tufayli işlaydigan norasmiy qişloq xöjaligi va oilaviy iqtisodiy faoliyatda uçraydi. Bolalar mehnatining eng yomon şakllarini taqiqlovçi qonunlar mavjud. Nazorat mexanizmlari doirasida mehnat inspektorlari va Boş prokuratura milliy huquqiy doiradagi bolalarni himoya qiliş qoidalarining ijrosini muvofiqlaştiradi.[99]

Umuman, Toşkentdagi boşlanğiç holat tizimli bolalar mehnati sezilarli kamayganini körsatadi. Bu natija ta'lim oliş imkonini yaxşilaş va talablar ijrosini kuçaytirişga qaratilgan milliy siyosatlar bilan qöllab-quvvatlanmoqda. Biroq norasmiy sohalarda vaqti-vaqti bilan bolalar mehnatidan foydalanişning qoldiq xatarlari saqlanib qolmoqda.

19.2.5 Majburiy mehnat

Özbekistondagi majburiy mehnat köp yillar davomida xalqaro inson huquqlari nazoratining asosiy mavzusi bölib kelgan. Tarixan davlat talabi yoki ijtimoiy bosim ostida mehnatga jalb qiliş, ayniqsa, paxta sohasida keng tarqalgan. Davlat sektori işçilari va fermerlar yiğim-terim kampaniyalarida, köp hollarda qatnaşmaslik uçun jazo tahdidi ostida iştirok etişga majbur bölgan. Sönggi yillarda Özbekiston hukumati paxta yiğim-terimida tizimli majburiy mehnatni bartaraf etgani xabar qilingan. Bu jarayon XMT/ILOning muntazam kuzatişi va hamkorlik bitimlari kömagida amalga oşirilgan. Muntazam kuzatiş ma'lumotlariga köra, mamlakat ixtiyoriy iştirok darajasi yuqori bölgan adolatli işga oliş amaliyotiga ötgan.[100]

Bu islohotlarga qaramay, mustaqil inson huquqlari kuzatuvçilarida ayrim xavotirlar saqlanmoqda. Ularning qayd etişiça, kvotalar yoki qişloq xöjaligi maqsadlarini bajariş uçun ma'muriy bosim mavjud şaroitlarda, ayniqsa, mahalliy darajada majburlovçi işga oliş holatlari hamon yuz berişi mumkin. Xabarlarga köra, bu amaliyotlar tizimli emas. Biroq bu holatlar talablar ijrosi, xabardorlik yoki mustaqil nazorat zaif bölgan ayrim şaroitlarda majburiy mehnat xavfi saqlanayotganini körsatadi.

Milliy qonunlarda majburiy mehnat jinoyat deb belgilangan hamda mehnat va jinoyat qonunçiligi bilan taqiqlangan. Talablarni ijro etiş mas'uliyati mehnat inspektorlari, prokuratura organlari va huquqni muhofaza qiliş idoralari örtasida taqsimlangan. Biroq ijro samaradorligi bir xil emas. Ayrim sohalardagi davlat nazoratining xususiyatlari mehnat huquqlarini buziş xavfini oşiruvçi omillar sifatida hamon qayd etiladi.

19.2.6 Iş şaroitlari

Özbekistondagi iş şaroitlarining boşlanğiç holatida milliy Mehnat kodeksi hamda ratifikatsiya qilingan XMT/ILO konvensiyalari xodimlarning adolatli iş şaroitlari, munosib haq, mehnat muhofazasi va xavfsizlik huquqlarini himoya qiladi. Mehnat kodeksi mehnat huquqlarining tengligi tamoyilini tan oladi. Uning maqsadlariga mehnat qiliş huquqini, kamsitişdan himoyani, majburiy mehnatdan ozodlikni va işçilarning qonuniy manfaatlarini kafolatlaş kiradi. Bu rasmiy kafolatlarga qaramay, ayrim davlat xizmati sohalarida haddan taşqari uzoq iş vaqti, tölanmagan iş haqi va talabga javob bermaydigan iş joyi xavfsizligiga oid

[98] https://www.hrw.org/news/2015/08/27/human-rights-watch-submission-world-bank-group-systematic-country-diagnostic

[99] https://www.dol.gov/agencies/ilab/resources/reports/child-labor/uzbekistan

[100] https://www.ilo.org/resource/news/systemic-forced-labour-and-child-labour-has-come-end-uzbek-cotton

şikoyatlar saqlanmoqda. Muntazam kuzatiş hisobotlarida keltirilgan işçi şikoyatlarida mehnat standartlarining sust ijro etilişi va iş haqi miqdoridagi tafovutlar qayd etilgan. Şikoyatlarda iş beruvçilarning mehnat qonunlariga rioya qilişi ustidan samarali nazorat çeklangani ham körsatilgan. Bu muammolar, ayniqsa, norasmiy yoki xususiy şartnoma asosidagi bandlikda kuzatilgan.[101]

Davlatning iqtisodiy boşqaruvdagi markaziy roli va jadal islohotlar huquqiy doiralar hamda nazorat imkoniyatlarini yaxşiladi, biroq ijrodagi böşliqlar saqlanmoqda. Muntazam kuzatiş, talablarni ijro etiş va mehnat inspeksiyasi tizimlaridagi tuzilmaviy çeklovlar sohalar hamda hududlar böyiça xavfsiz va teng iş şaroitlariga oid qonuniy talablarga bir xil rioya etilmasligiga sabab böladi. Demak, boşlanğiç holatda xavfsiz va adolatli iş şaroitlarini ta'minlaşga doir rasmiy huquqiy majburiyat mavjud, ammo standartlarni ijro etiş va bir xil qöllaşda amaliy çeklovlar ham saqlanib qolmoqda.

19.2.7 Jamoaviy muzokaralar

Birlaşiş erkinligi va jamoaviy muzokara huquqlari Özbekistonning mehnat qonunlarida rasman tan olingan. Jumladan, yangilangan Mehnat kodeksi işçilarning kasaba uyuşmalari yoki boşqa vakillik birlaşmalarini tuziş va ularga a'zo böliş, muzokara ötkaziş hamda jamoaviy bitimlar tuziş huquqini kafolatlaydi. Mehnat kodeksi korxona, hududiy, tarmoq va milliy darajalardagi ijtimoiy hamkorlik hamda jamoaviy muzokara mexanizmlarini ham nazarda tutadi. Ularda işçilar, iş beruvçilar va davlat idoralari vakillari qatnaşadi. Bu tuzilmalar muloqotni yölga qöyiş, iş şaroitlarini kelişiş va mehnat nizolarini hal qilişga xizmat qiladi.[102]

Biroq boşlanğiç baholaşlar uyuşmalar mustaqilligining zaifligi va mustaqil kasaba uyuşmalari faoliyatining çeklangani samarali jamoaviy muzokaralarni amalda olib borişga tösiq bölib qolayotganini körsatadi. Tarixan işçilar vakilligi köp hollarda davlat bilan boğliq bölgan. Jamoaviy muzokaralar iş beruvçi yoki davlatning yönaltirişidan mustaqil ravişda iş haqi va iş şaroitlariga ta'sir körsatiş uçun yetarli kuçga ega bölmagan. Hisobotlarda işçilar vakillarining ortiqça ta'sirdan xoli faoliyat yuritişi, jamoaviy bitimlar böyiça töliq muzokara olib borişi hamda bitimlar ijrosini iş joyidagi tomonlar manfaatlarini muvozanatlaştiradigan tarzda ta'minlaş bilan boğliq muammolar saqlanayotgani körsatiladi.

Şunday qilib, jamoaviy muzokaraga qonun bilan ruxsat berilgan va tegişli taşkiliy doiralar mavjud. Biroq boşlanğiç holat bu huquq amalda asta-sekin röyobga çiqarilayotganini, ammo hanuz çeklanganini körsatadi. Mehnat bozorida mustaqil işçilar vakilligi va haqiqiy muzokara amaliyotlarini kuçaytiriş uçun doimiy sa'y-harakatlar kerak.

19.2.8 Jinslar örtasidagi tengsizlik va kamsitiş

Jinslar örtasidagi tengsizlik va kamsitiş Özbekistondagi muhim inson huquqlari muammolari bölib qolmoqda. Konstitutsiya va milliy qonunlar, jumladan, "Xotin-qizlar va erkaklar uçun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari töğrisida"gi qonun Jinsga köra kamsitişni taqiqlaydi. Mehnat kodeksiga yaqinda kiritilgan tuzatişlar esa mehnat huquqlarining tengligi va teng mehnat uçun teng haq tamoyillarini ta'kidlaydi.[103]

Bu huquqiy kafolatlarga qaramay, ijrodagi böşliqlar va ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar saqlanmoqda. Ayollarning mehnat bozoridagi iştiroki erkaklarnikidan sezilarli darajada past. Ular kam haq tölanadigan va bandlik kafolati pastroq norasmiy mehnatda nomutanosib darajada köp. Jahon banki va XMT/ILO tahlillariga köra, jinsga köra iş haqi tafovuti hamda teng bandlik imkoniyatlari yölidagi tösiqlar kengroq jamiyat me'yorlari va mehnat bozorining segmentlarga ajralişini aks ettiradigan tuzilmaviy muammolar bölib qolmoqda.[104]

Jinsga köra kamsitiş bandlikdan taşqari kengroq ijtimoiy va huquqiy şaroitlarda ham uçraydi. Jinsga köra zöravonlik va kamsitişdan himoya tizimi rivojlanmoqda, biroq uni hali takomillaştiriş zarur. Jinsga köra zöravonlikka qarşi yangi milliy qonunlar kabi sönggi huquqiy

[101] https://2021-2025.state.gov/reports/2021-country-reports-on-human-rights-practices/uzbekistan

[102] https://invest-in-uzbekistan.org/en/zakonodatelstvo/trudovoj-kodeks-respubliki-uzbekistan-dd-30-04-2023-obshhaya-chast-razdel-i-obshhie-polozheniya

[103] https://wbl.worldbank.org/content/dam/sites/wbl/documents/2024/WBL2024-Response-Data-Update-Uzbekistan-CFW.pdf

[104] https://www.ilo.org/sites/default/files/2025-03/Gender%20Pay%20Gap%20in%20Uz-ENG-2802.pdf

islohotlar erişilgan yutuqlarni körsatadi. Ayni paytda bu islohotlar ildiz otgan kamsituvçi amaliyotlarni bartaraf etiş uçun qonunlarni samarali ijro etiş va madaniy özgariş zarurligini ham ta'kidlaydi. Umuman, boşlanğiç holatda maqsadli islohotlar va taşkiliy majburiyatlar bilan qöllab-quvvatlangan jinslar tengligiga oid mustahkam huquqiy doira mavjud. Şu bilan birga, bandlik, haq tölaş va ijtimoiy huquqlardagi jinslar tengsizligini davom ettirayotgan amaliy hamda madaniy muammolar saqlanmoqda.

19.2.9 Salomatlik va xavfsizlik huquqi

Özbekistonda salomatlik va xavfsizlik huquqi Konstitutsiya bilan himoyalangan hamda jamoat salomatligi va atrof-muhitga oid milliy qonunlar orqali kuçaytirilgan. Toşkent kabi şahar markazlarida asosiy soğliqni saqlaş xizmatlaridan, umuman olganda, foydalaniş mumkin. Biroq, ayniqsa, yirik infratuzilma qurilişi olib boriladigan hududlarda xizmat sifati, favqulodda vaziyatlarga javob beriş imkoniyati va atrof-muhit salomatligini boşqarişda tafovutlar saqlanmoqda. Boşlanğiç holat şaharsozlik loyihalarida havo sifati, şovqin, transport xavfsizligi va quriliş bilan boğliq xavflar jamoalarda muntazam taşviş uyğotişini körsatadi. Atrof-muhit salomatligini himoya qiliş standartlari mavjud bölsa-da, ularni ijro etiş va muntazam kuzatiş imkoniyati mahalliy darajada farq qiladi. Bolalar, keksalar va avvaldan soğliq muammolari mavjud şaxslar kabi zaif guruhlar quriliş faoliyati bilan boğliq atrof-muhit hamda xavfsizlik xatarlariga nomutanosib darajada duç kelişi mumkin.

19.2.10 Yer, uy-joy va mulk huquqlari

Yer va mulk huquqlari Özbekistonda, ayniqsa, şaharsozlik hamda infratuzilma loyihalari doirasida inson huquqlarining muhim masalasidir. Yer asosan davlat mulki bölib, jismoniy şaxslar va taşkilotlar töliq mulk huquqi örniga uzoq muddatli foydalaniş yoki ijara huquqiga ega. Milliy qonunlarda yer uçastkalarini olib qöyiş va tovon tölaş tartiblari nazarda tutilgan. Şunga qaramay, ilgari jarayonning şaffofligi, tovonning yetarliligi hamda yer olib qöyilişi yoki köçiriş oqibatiga duç kelgan şaxslarning samarali himoya vositalaridan foydalaniş imkoniga oid xavotirlar bildirilgan.

Toşkentdagi boşlanğiç holat yer uçastkalarini olib qöyiş jarayonlariga oid qoidalarning aniqligi va sud nazorati yaxşilanayotganini körsatadi. Biroq majburiy köçiriş, iqtisodiy köçiriş, şuningdek, tirikçilik manbalari va iqtisodiy faoliyatning izdan çiqişi bilan boğliq xatarlar saqlanmoqda. Röyxatga olinmagan inşoot egalari va kiçik korxonalar egalik huquqlari qonuniy tan olinişi çeklangani tufayli yuqori darajada zaif bölişi mumkin.

19.2.11 Axborot oliş va jamoatçilik iştiroki

Axborot oliş va jamoat ahamiyatiga molik qarorlarni qabul qilişda iştirok etiş huquqi Özbekistonda jamoatçilik nazorati, ma'muriy tartib-taomillar va atrof-muhitni boşqarişga oid milliy qonunlarda tan olingan. Tamoyilga köra, jamoalar özlariga ta'sir qilişi mumkin bölgan loyihalar haqida xabardor böliş va maslahatlaşuvlar orqali muammolarini bildiriş huquqiga ega. Boşlanğiç holat rasmiy maslahatlaşuv talablari loyihalarni tasdiqlaş jarayoniga tobora köproq kiritilayotganini körsatadi. Biroq axborotdan amalda foydalaniş imkoniyati texnik murakkablik, til tösiqlari yoki zaif guruhlarni notekis qamrab oliş tufayli çeklanişi mumkin. Iştirok va maslahatlaşuvga oid huquqlar haqidagi xabardorlik, ayniqsa, kam daromadli xonadonlar va norasmiy iqtisodiy faoliyat yurituvçilar orasida turli darajada bölişi mumkin. Şu sababli manfaatdor tomonlarni samarali jalb etiş loyiha darajasida inson huquqlarini himoya qilişning asosiy omili bölib qoladi.

19.2.12 Zaif va çetda qolgan guruhlarning huquqlari

Özbekiston Respublikasida ayrim aholi guruhlari ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, jismoniy çeklovlar hamda taşkiliy yoki tuzilmaviy tösiqlar birikmasi tufayli inson huquqlari buzilişi xavfiga köproq duç keladi. Bu guruhlarga ayollar, bolalar, nogironligi bölgan şaxslar, keksalar, kam daromadli xonadonlar va norasmiy yoki beqaror iş bilan band şaxslar kiradi. Zaiflikni tan oliş milliy qonunlar va siyosat doiralarida mustahkamlangan, biroq bu huquqlar amalda bir xil ta'minlanmaydi.

Özbekiston Konstitutsiyasi qonun oldida tenglikni kafolatlaydi va kamsitişni taqiqlaydi, sohaga oid qonunlar esa ayollar, bolalar va nogironligi bölgan şaxslarni himoya qiladi. Inson huquqlari böyiça milliy strategiya (Prezidentning PF-6012-son Farmoni, 2020) zaif aholini

himoya qiliş hamda odil sudlov, ijtimoiy xizmatlar va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanişni yaxşilaş uçun maqsadli çoralar zarurligini ham tan oladi. Biroq amalda xalqaro va milliy baholaşlar ijro muammolari, ayniqsa, mahalliy darajada saqlanayotganini körsatadi.

Teng huquq va imkoniyatlarning huquqiy kafolatlariga qaramay, Özbekistondagi ayollar mehnat bozorida kamroq iştirok etiş, kasblar böyiça ajraliş va iş haqi tafovutlari kabi tuzilmaviy tösiqlarga hamon duç kelmoqda. Jahon banki va XMT/ILO baholaşlariga köra, ayollar norasmiy va kam haq tölanadigan sohalarda nomutanosib darajada köp band, texnik hamda qaror qabul qiliş lavozimlarida esa yetarli vakillikka ega emas. Ijtimoiy me'yorlar va qarov majburiyatlari ayollarning jamoatçilik bilan maslahatlaşuvlar va rasmiy şikoyat mexanizmlaridagi iştirokini yanada çeklaydi.

Milliy qonunlar va Özbekiston ratifikatsiya qilgan xalqaro konvensiyalar bolalardan iqtisodiy manfaat közlab foydalanişni taqiqlaydi va ularni zararli mehnatdan himoya qiladi. Tizimli bolalar mehnati rasmiy sohalarda, ayniqsa, qişloq xöjaligida asosan bartaraf etilgan bölsa-da, YUNISEF/UNICEF va XMT/ILO hisobotlariga köra, kam daromadli xonadonlardagi bolalar hamon oilaga asoslangan norasmiy iqtisodiy faoliyatga jalb etilişi mumkin. Bu şaroitlar bolalar ta'limining buzilişi va ularning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy çetda qoliş xavfini oşiradi.

Nogironligi bölgan şaxslar foydalaniş qulayligi, qamrov va iştirokka oid doimiy muammolarga uçraydi. Özbekiston BMT/UNning Nogironligi bölgan şaxslarning huquqlari töğrisidagi konvensiyasiga (NBŞHTK/CRPD) muvofiq qonunlarni qabul qilgan. Biroq BMTTD/UNDP va milliy inson huquqlari muassasalari ötkazgan boşlanğiç tadqiqotlar jismoniy infratuzilma, jamoat transporti va bandlik imkoniyatlari köp hollarda yetarliça moslaştirilmaganini körsatadi. Jismoniy kiriş imkoniyatining çeklangani maslahatlaşuvlar, loyihalar yaratgan bandlik imkoniyatlari va şikoyat mexanizmlaridagi iştirokni çeklaşi mumkin.

Keksalar va kam daromadli xonadonlar ham, ayniqsa, ularning iqtisodiy barqarorligi qat'iy belgilangan daromadga, norasmiy iqtisodiy faoliyatga yoki loyiha ta'sir qilgan yer hamda infratuzilmaga yaqinlikka boğliq bölsa, yuqori darajadagi xavflarga duç keladi. Milliy ijtimoiy-iqtisodiy baholaşlar va Jahon bankining kambağallik taşxisiga köra, bu guruhlarning iqtisodiy zarbalarni, köçiriş ta'sirlarini hamda kiriş imkoniyati, xizmatlar yoki tirikçilik manbalaridagi vaqtinçalik uzilişlarni yengib ötiş imkoniyati çeklangan bölişi mumkin.

Rasmiy bandlik tartiblaridan taşqarida işlaydigan norasmiy işçilar yozma şartnomalar, ijtimoiy himoya va samarali vakillik yöqligi tufayli qöşimça zaifliklarga uçraydi. XMT/ILO va Amerika Qöşma Ştatlari Davlat departamentining "Inson huquqlari amaliyoti böyiça mamlakat hisobotlari" kabi xalqaro baholaşlarda norasmiy işçilar köp hollarda mehnat himoyasi, şikoyat mexanizmlari va huquqiy himoya vositalaridan samarali foydalana olmasligi qayd etilgan.

